Respublikada dárya transportı az, tek ǵana Surxandarya, Qaraqalpaǵıstan, Xarezmi hám Sirdarya aymaqlarında bar. Teńiz transportı bolsa joq. Ózbekstan transport sistemasında tiykarǵı mashqala mámlekette teńizge shıǵıwdıń ilajı joq ekenligi bolıp tabıladı. Potencial eksport- import bazarlar aralıǵı úlken (mısalı, Qara teńizge shekem 3 mıń km, Moskvaǵa shekem 3,5 mıń km, Xitaydıń tiykarǵı portlarına shekem 5 mıń km). Sol sebepli transport ǵárezetleri satılataǵın ónimniń qunin ádewir kóterip jiberedi. Transport magistralı bir neshe mámleket aymaǵınan ótiwin itibarǵa alsaq, Ózbekstan ekonomikasi siyasiy turaqlılıq hám sol mámleketlerde transportın turaqlı islep turıwına baylanıslı. Odan tisqari belgili bir magistrallar mudamı ámeldegi transport kuwatı menen bánt mısalı, Qazaqstan hám Xitay shegarasında teńizge shıǵıw faktori Ózbekstan ushın ulken áhmiyetke iye, sebebi buringi awqam dáwirinde óndiris kólemine qaraǵanda sirtqi sawda joqarı dárejede bolıp tiykarǵı másele retinde mámlekette bir qansha básekelese alatuǵın transport quralların tın alardı (temirjol, avtomobil hám aralas). Milliy avialiniya aviasayahat boyınsha Xitay, Ullı Britaniya, Misr, Germaniya, Xindiston, Izrail, Pakistan hám Turkiya mámleketlikler arasında shartnamaǵa qol qoydı. Búgingi kunge kelip ámeldegi temirjol sisteması (bir qansha jaǵdaylarda avtomobil jolları) MDX, mámleketleri

hám Xitayda xaliq araliq tasıwdı qanatlandırarlı dárejedegi bahalarda ámelge asırılmaqta. Bul jaǵday (kórinisi) uzaq dawam etpewi múmkin. Usınıń sebebinen iri kapital qarjıların jumsaw biraz ertelew bolıp tabıladı. Biraq jaqın keleshek haqqında da oylawımız kerek. Aldı menen, har qıylı variantlar ushın payda hám ǵárezetlerdi salıstırıp, ekonomikalıq izertlew ótkeriw zárúr, misalı, Pakistan avtomobil jolı qurılısın, Iranǵa temir jolı qurılısın hám t.b Bul izertlewler eki tárep baylanisilari ushın ob'ektiv bazanı hám uzaq keleshekke háreketi júzege keltiredi.

Ekonomikada klientler talabın qanatlandırıw ushın turli turdegi transportlar xızmet kórsetiwı zárúr. Har bir xızmet túrine bahalar túrlishe bolıwı kerek. Onnan tisqari ekonomikalıq ózgerislerdi basınan keshirip atırǵan mámleketler ushında, Ózbekstandaǵı sıyaqlı, ózgerisler tez hám óz waqtında kiritiliwı kerek. Ǵárezetlerge, ózgerisler kiritilse tiykarǵı fondlardan paydalanıw dárejesi páseyedi, qarjılar hám transport túrleri ortasında resurslardıń bolıstırılıwıne ózgerisler kútileti. Basshılar bahalar asıwın tártipke salıwshı nátiyjeli mexanizmdi islep shıǵıw hám ol haqiqiy ózine túser bahasına tiykarlanıwı kerek. Jol infrastrukturası rawajlanǵan mámleketlerde, joldan paydalanıwshılar (júk avtokárxanalari, avtobus kárxanalari hám jeke avtomobil iyeleri) kórilgen ziyanlarǵa juwapker esaplanadı. (Jol jaǵdayınıń talapqa juwap bermewi, jol-transport háreketiniń qıynlasıwı hám qorshaǵan ortalıqtıń ziyan kóriwı) bir qatar mámleketlerde bunday tolew tártibi ámel háreket etip, transport quralına jıllıq salıq, eń tiykarǵısı jol tarmaǵınnan paydalanıw koefficiyenti menen baylanisli túrde dizel janılg'i hám benzin ushın alınatuǵın salıq esaplanadı.

Transport sistemasınıń ekonomikalıq bekkemligi strukturalıq qayta qurıwın ámelge asırıw ilajlarına jáne onı qanday ámelge asırıwǵa baylanisli. Tiykarǵı ilimiy máselelerdiń biri tarmaq ushın xoshametlew sistemasın islep shıǵıw, atap aytqanda, bahalar transport hám texnikalıq xızmet kórsetiw túrlerine sáykes keliwı kerek; salıq hám jıymılar haqiyqatında kriteriyalarǵa tiykarlanıwı hámde bazarda básekelese alatuǵın ortalıq jaratiwı kerek. Xoshametlew sistemasındaǵı ózgerisler instruksiya, sheshim qabil etiwı hámde basqalar menende sáykes keliwı kerek.

Tek ǵana nátiyjeli xoshametlew sistemasın hám shólkemlestirilgen strukturasın júzege kelgennen keyin mámleket, finanslıq támiynlewdiń tuwrı jolin tapqan dep esaplasa boladı. Xoshametlew sistemasın rawajlandırıw ónim bahası, báseki ortalıǵı, joldan paydalanıwshılarǵa salıq dárejesi, menshiklilestiriw tiykarında ámelge asırıladı.

Ózbekstan Respublikası ámeldegi barlıq transport xızmetine bahalardı qatań qadaǵalaw etedi. Ámelde bahalar máselesinde belgili bir ózgeriwshenlik (mayısqaqlıq) bolsa da bahalaw sistemasında bir qansha mashqalalar bar bolıp, basshılar nátiyjeli sheshiw jolların qıdırıp atır. Házirgi waqıtta kóplegen mámleketlerde (misalı, Batis Evropada) talap hám usınıs erkin háreketlana alatuǵın báseki bazarı bar. Bunday tájiriye sonı kórsetedi, bul maslasıwshanlıq hám resurslardan nátiyjeli paydalanıw dárejesin asırıwǵa alıp keledi.

Mámleket avtomobil transportı salasında tap sonday bazarlardıń jaratılıwma háreket etiw kerek. Bir neshe erkin turdegi hám abraylı transport kárxanalari ámelde háreket etpekte, biraq olar mámleket mülki bolıp tabıladı. Jańa jeke menshik transport kárxanalarin elede kóbeytiw kerek. Mámleket qaramaǵındaǵı kárxanalar ortasındaǵı munasábetlerdi rawajlandırıwǵa itibardı kúsheytiw kerek. Kommerciyalıq hám óz-ózin qaplawshı principe isleytuǵın barlıq kárxanalar ayırıqsha (tolıq huqıqlı) bolıwları kerek. Kóbisi mámleket mülki bolsada, jeke menshik kárxana statusın alıwları kerek.

Uliwmalastırıw aytqanda, transport kárxanasınıń xızmetler bazarındaǵı báseki dárejesi hám ámeldegi kórsetilip atırǵan xızmetler básekiye shıdamlılıǵı, transport infrastrukturasınıń innovciyalıq rawajlanıw dárejesi hám texnikalıq xızmet kórsetiw, awisıq bólekler, janar may-maylaw materialları hám basqa energoresurslardı óndiriwshı yamasa jetkerip beretuǵın sub'ektler ortasındaǵı báseki, transport xızmetine bolǵan qarıydarlar talabınıń turaqlılıǵın, jańa transport túrlerinen paydalanıw hámde zamanagóy texnologiyalardı engize alıw múmkinshilikleri máselelerinde óz ishine aladı.

ÁDEBIYATLAR

1. «Автомобильный транспорт дальнего бостoka» Materiali shestoy mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferencii. Xabarovsk 2012 goda
2. Pod obshey redakciey B.B.Serebryakova «Mejdunarodnie transportnie organizacii» Moskva, «Transport», 2014g.
3. B. A. Xo'jaev Avtomobillarda yuk va passajirlar tashish asoslari. -T.: O'zbekiston, 2016.- 239 b.

Annotatsiya. Ushbu maqolada avtomobil transportı sohasida boshqarishni tashkil qilish xususiyatlari haqida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: avtoransport xizmatlari, transport vositasi, avtomobil, temir yól, samaradorlik ko'rsatkichi, tashish sifati, bahosi.

Annotaciya. В данной статье описаны работы, особенности организации управления в сфере автомобильного транспорта.

Ключевые слова: автотранспортные услуги, транспортное средство, автомобиль, железная дорога, показатель эффективности, качество перевозок, цена

Annotation. This article describes the work and features of organizing management in the field of road transport

Keywords: auto transport services, vehicle, car, railway efficiency indicator, transport quality, price

УДК:336:657

САНЛЫ ЭКОНОМИКАДА ФИНАНСЛЫҚ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДЫҢ ӘХМИЙЕТИ

Жузбаев А. О.

Қарақалпақ мәмлекетлик университети

Күнделик турмыс тәризимизде электр энергиясы, табиий газ хәм басқалар ушын коммунал төлемлерди өз ўақтында әмелге асырыў, жол ҳәреketи қағыйдаларын бузған болсақ, нызам бузыўшылық бойынша жәрийманы белгиленген ўақытта төлеў, алынған кредитлер бойынша мүддетли төлемлерди кешиктирместен

төлеу, салық мәжбүриятларын өз уақытында орынлау сияқтыларға уақыт тәрәптөн бәрқулла имканиятимыз бола бермейди. Бундай шарапта нәубет күтиу, хәр қыйли бюрократик тосықлар болса қосымша әўерегершиликлерге себеп болады. Нәтиже де болса ең қымбат болған уақытымызды жойтыуға себеп болыуы мүмкин. Басқа тәрәптөн кимнен болса да пул яки бир өним алыуымыз керек бирақ аралық узақ. Оны бир шахстан яки транспорт куралынан жиберу хәм қабыл қылып алыу және қосымша қәрежетлер, артықша уақыт сарышлау сияқты әўерегершиликлерге себеп болады. Бундай жағдайларда қолайсыз аўхалға түспеу ушын сиз хәм бизге санлы экономика жәрдемге келеди. Яғнай жумыстан яки уйимизден шықпастан интернет куралында санлы экономика хызметлеринен пайдаланған ҳалда бәршесине арзымаған қысқа уақыт ишинде үлгериуимиз мүмкин.

Буның ушын республикамызда санлы экономика көлеми хәм бағдарларын және де кеңейтириуимиз талап етиледі. Финанслық технология яки FinTech (inglizcha Financial Technology) – финанслық хызметлер базарында банклер хәм дәлделшылар сыяқлы дәстүрий финанс институтлары менен бәсеки қылыу ушын технология хәм инновациялардан пайдаланылған компаниялардан ибарат болған тарау⁸. Хазирги уақытта көплет технологиялық стартаптарда, усынылып атырған финанслық хызметлерди жақсылау хәм оптималластыруға хәрәкет қылып атырған шөлкемлер хәм финанслық технологиялар курамына киреди.

Инсаният тәрәпинен жаратылған хәр бир жаратылыс турмыс тәризин жақсылауға қаратылғаны сыр емес.

Экономикада санааттың раўажланыуы, жаңа басқышқа шығыуы халық пәрәўанлығын тәмийинлеу хәм бәнтлик мәселелерин шешуеде аҳмийетли болған болса, ХХІ әсирде жүз берген экономикадағы санлы технологиялар жүзеге келиуи болса экономикалық раўажланыуды хәм жәмийетти жаңа бағдарлар тәрәпке баслады. Бунда мәмлекет-бизнес-халық ортасындағы мүнәсебетлерди интернет тармағы аркалы инсан факторы тәсирин пасейтирген ҳалда аралық пайда етиу үстинлик қыла баслады. Нәтижеде экономиканың санлы болыуы нәтижесинде санлы экономикаға әмел қыла баслады.

Бүгинги күнге келип республикамызда товарларға онлайн буйыртпалар бериу хәм сатып алыуды әмелге асыруу, салықлар, кредитлер, коммунал төлемлер, түрли жәриймалар бойынша төлемлерди компютер хәм мобил телефон куралларынан интернет системасы аркалы әмелге асыруу – күнделик турмыс тәризимизге кирип үлгерди. Сондай-ақ банк пластик карталарынан дәслеп миллий шеңберде өткермелер әмелге асыруу имканиятларынан халық кең пайдаланған болса, бүгинги күнге келип шет ел банк карталарынан өткермелер әмелге асыруу усыныс етиле баслады. Сондай-ақ ақырғы еки жыл даўамында банкке бармастан туып кредитлер алыу имканиятлары да усыныс етилди хәм буннан бизнес хәмде халық жақсы пайдаланып келмекте. Жоқарыда келтирилгенлер санлы экономикада өзине тән әмелиятлар есапланып, оған қосымша рәўиште соны да белгилеу тийис, мәмлекетлик хызметлер агентликлери аркалы мәмлекет хызметлериниң қысқа уақыт ишинде көрсетип келинбекте. Бул әмелиятлар нәтижесинде халыққа хәм бизнес ўәкиллерине артықша әўерегершиликлерсиз, қосымша қолайлықлар жаратылған. Келтирилген бул тәрәпpler санлы экономиканың киши бир бөлими сыпатында пайда болмақта. Улыўма санлы экономика турмыс тәризин аңсатластыруға қаратылған экономика. Бунда тек ғана халық хәм бизнес ортасындағы мүнәсебетлер, буннан басқа мәмлекет пенен мүнәсебетлерди санлы экономика тийкарында шөлкемлестирилген толық миллий экономиканың санлы болыуына хызмет қылады. Улыўмалық жағдайда санлы экономикадағы тийкарғы жөнелислери төмендегилерден пайда болады: Бизнес пенен тутыныўшы, қысқаша (B2C); Бизнес пенен бизнес, қысқаша (B2B); Бизнес пенен мәмлекет, қысқаша (B2G); Тутыныўшы менен тутыныўшы, қысқаша (C2C); Мәмлекет пенен бизнес, қысқаша (G2B); Тутыныўшы менен бизнес, қысқаша (C2B); Мәмлекет пенен тутыныўшы (G2C)

Санлы экономика бизнес пенен тутыныўшы (B2C) ортасында жүзеге келеди хәм раўажланады. Бунда көбирек тутыныўшыны өзине қаратуу мақсетинде бизнес қосымша имканиятлар усыныс етеди. Солардан интернет аркалы буйыртпа алыу хәм жеткерип бериу хизмети жолға қойылады. Бул тараўда супермаркетлер, интернет дүканлар хизмети хәм миллий шеңберде, хәм халық аралық шеңберде хызмет жүритип атырғанлығын айырықша атап өтиуимиз тийис. Бизнес субъекти хәм тутыныўшы бир-бири менен ушыраспаған ҳалда алды-сатты мүнәсәбети белгили бир электрон саўда майданы аркалы әмелге асырылады. Буган Амазон, Алибаба сияқты гигант компаниялар өзлери тәрәпинен бир өним ислеп шығарылмасада санлы экономика себепли саўда майданы ўазыйпасын атқарып беретугынлығын айырықша атап өтиу зәрүр. Өз-өзинен усы жағдайда пул машқаласынан да электрон тәризде әмелге асырылғанлығы ушын белгиленген тәртиптен шетке шығу күзетилмейди. Буннан тысқары халық тәрәпинен микроқарызлар, микрокредитлер алыу әмелиятлары да бундай классификациядағы санлы экономикаға мысал...

Бизнес пенен бизнес (B2B)де санлы экономика өз ара товар алды-сатты мүнәсебетлерин интернет аркалы электрон пайда етиуге тийкарланады. Товарлар хәм хўжетлер бизнес субъектлери ортасында хәрәкетлениуи бизнес ушын да қолайлық ўазыйпасын атқарады. Бул болса 2020-жыл 1-январдан мәмлекетимизде электрон есап-санақ-фактураға өтилди. Бул өз нәубетинде салық базасының анық есапланыуына да тийкар жаратады. Бизнес субъектлери тәрәпинен онлайн банк кредитлерин расмийлестириу, онлайн қамсыздандыруу хызметлеринен пайдаланыу сыяқлыларда бизнес пенен бизнес ортасындағы санлы экономика әмелиятына мысал бола алады. Санлы экономикада бизнес пенен мәмлекет (B2G) мүнәсебетлери электрон мәмлекетлик сатып алыуларда пайда болады. Бизге белгили, мәмлекетлик шөлкемлер солардан бюджет шөлкемлери өз мўтәжлиги ушын бизнес субъектлеринен товар хәм хызметлерди сатып алыуларына туўры келеди. Бундай

⁸ Fintech: moliyaviy texnologiyalar, bilish uchun yangi dunyo Xose Albert || Kripto-valyutalar(<https://www.criptolog.com/uz/moliya-texnologiyalari-fintech/>)

сатып алыуларды электрон тәризде пайда етиү аркалы аукцион тендерлерди субъектив факторларсыз әмелге асырыу санлы экономикадағы өзине тән үстимликлерден бири. Усы әмелият өз нәубетинде мәмлекет бюджети кәрежетлериниң тийкарланғанлығы хәм ашықлығын асырады.

Тутыныушы менен тутыныушы (C2C) ортасындағы мүнәсебетлердиң электрон тәртіпте әмелге асырылыуыда санлы экономикада айырықша орынға ийе. Бунда белгили бир шахс белгили бир электрон система яки платформа аркалы өзи ийелик қылып атырған товарды басқа шахсларға усыныс қылады хәм өз ара келисилген халда сауда әмелге асырылады. Бунда белгили бир сайт яки платформа дәлделшы болып хызмет қылады. Республикамызда усы әмелиятқа ОЛХ сауда платформасын мысал есабында келтириуимиз мүмкин. Сондай-ақ, жергиликли хәм халық аралық дәрежеде пул жиберіу хәм қабыл қылыу бойынша өткермелерди әмелге асырыу әмелиятлары да тутыныушы менен тутыныушы ортасындағы санлы экономика мүнәсебетлери есабында көринеди. Бул әмелият хәм банклер, хәм Western Union, Zolotaya Korona сыяқлы пул өткеріу системалары аркалы әмелге асырылыуы натийжесинде пул жиберіу хәм қабыл қылыу белгили бир минутларда, төмен дәрежедеги кәрежет есабына әмелге асырылады. Мәмлекет пенен бизнес (G2B) ортасындағы мүнәсебетлерди электрон хәм де аралыктан орнатыу санлы экономикада белгили дәрежеде қолайлық пайда етеди. Бунда электрон хукимет жәриялануы натийжесинде мәмлекет хәм жергиликли хәкимият органлары менен бизнес субъектлери ортасындағы мүнәсебетлер электрон тәризде әмелге асырыу жолға қойылады. Бунда бизнес субъектлериниң мәмлекет дизиминен өтиуи, салық төлеушилер есабында дизимнен өтиуи, хызметин лицензиялау, жер ажырату, қурылысқа рұқсат алыуы, электр энергиясы хәм газ тәмийнатына жалғануы сыяқлылар электрон мүрәжетлер тийкарында аралыктан шешиледи. Усы қолайлық өз-өзинен әуергершиликлердиң хәм коррупсия жағдайларының алды алынуына хызмет қылады.

Бәршемизге белгили халық мәмлекет хызметлериниң тиккелей тутыныушысы есапланады. Бунда мәмлекет тәрәпинен халыққа көрсетилетуғын хызметлерди интернет тармағы аркалы электронластырыу санлы экономикадағы айрықша бағдар сыпатында пайда болады. Бул әмелиятта мәмлекет пенен тутыныушы, қысқаша G2C деп аталады. Бүгинги күнде мәмлекет хызметлери агентлиги аркалы көрсетилип атырған хызметлерди интернет аркалы әмелге асырыу хәм ўақыт, хәм пул тәрәпинен халыққа қолайлық инам етеди. Бунда туўылғанлық ҳақкында гуўалық алыудан баслап, пенсия тайынлау бойынша хуҷжетлерде электрон мүрәжетлер, электрон төлемлер тийкарында әмел асырылмақта. Тутыныушы менен мүнәсебетлерди интернет системасы аркалы электрон шөлкемлестириу санлы экономиканың ең тийкаргы талапларының қолайлықларынан бири. Сол тәрәптен тутыныушы менен бизнес (C2B) тәртибинде санлы экономика әмел қылады. Бунда белгили бир интернет сайтындағы сауда платформасында бир товарды сатып алыу тәрәпинен тутыныушы өз талапларын алдынға сүреди. Бунда товардың пулы, ислеп шығарылатуғын сәнеси хәм басқаларды тутыныушы белгилеп береді. Бизнес субъекти болса тутыныушы талабы тийкарында товарды жеткерип беріуи өз мойнына алады. Натийжеде бизнес субъекти тәрәпинен тутыныушы талабындағы товарды жеткерип беріу хәм тутыныушы тәрәпинен болса электрон төлем әмелге асырылады.

Санлы экономика шәраатында электрон төлем системалары да зәрүр есапланады. Бунда жоқарыда көрип шығылған хәр бир бағдар бойынша жеткізилген товар ямаса көрсетилген хызмет бойынша төлеу әйне электрон төлеу системалары аркалы әмелге асырылады. Республикамызда Рәуме хәм Click сыяқлы төлеу системалары товар алды-сатты мүнәсебетлеринде, кредит, жәриймалар менен байланысly финансылық мүнәсебетлерде кең қолланылып атыр. Бул өз гезегинде халықтың нақ ақшаға болған талабын төменлетіуе хәм пул қаржыларының банктен тысқары айланбасын кемейтиуе хызмет етпекте.

Жоқарыда келтирилгенлер тийкарында соны айтып өтиу керек, санлы экономика жамийетте төмендегилерге имкан береді: **Бириншиден**, санлы экономика шәраатында түрли әуергершиликлердиң алдын алынуы натийжесинде ўақыт сарыпы хәм артықша кәрежетлер сарыпы кемейиуине ерисиледи. **Екиншиден**, санлы экономика шәраатында адамлар емес, хуҷжет хәм товарлар хәрәкетленеди. Натийжеде коррупцион жағдайлардың алды алынуына ерисиледи. **Үшиншиден**, электрон хукимет, электрон дүканлар, санлы финанс институтлары, санлы тәлим сыяқлы хызметлер раўажланады. Натийжеде товар хәм хызметлер хәрәкети интернет тармағы аркалы раўажланады. **Төртиншиден**, электрон төлем системалары қолланылыуы себепли нақ пул машқаласы көлеми кескин қысқарады. Бул өз нәубетинде жасырын экономика хызмети шеңбериниң қысқаруына, инфляция дәрежеси төменлеуине, мәмлекет бюджетиниң салықлы дәрәматлары асыуына имкан береді. Нақ пулсыз есап-китаплардың раўажланыуы өз нәубетинде нақ пулдан ўаз кешіу мәселеси көрип шығылыуына да алып келиуи мүмкин.

Пикиримизше жоқарыдағыларға қосымша рәуиште республикамызда санлы экономиканы раўажландырыу ушын төмендегилерге итибар қаратуи тийис деп есаплаймыз: **Бириншиден**, санлы экономика инфраструктурасы көзқарасынан электр энергиясы тәмийнатындағы үзилислерди сапластырыу талап етиледі. Усы натийжеге ерисиу улыўмалық экономиканың комплекс раўажланыуына хызмет қылады. **Екиншиден**, интернет байланысы хәм тезлигин асырыу аркалы оннан пайдаланыушылар санын асырып барыу тийис. Бунда тармақтың үстемликлеринен максимал пайдаланыу талап етиледі. **Үшиншиден**, халықтың интернет хәм санлы экономика бағдарларынан пайдаланыу көнликпелерин асырып барыу тийис болады. Бунда алдын қолайлықлар көз қарасынан санлы экономиканы үгит-нәсиятлауды күшейтириу мақсетке муўапық. **Төртиншиден**, санлы экономика көлемин асырыу көз қарасынан авиабилетлер, темир жол билетлери, концерт-тамашалар билетлерин тек электрон тәртіпте сатуи, нотариал хәм мәмлекет хызметлери агентлиги тәрәпинен көрсетилип атырған хызметлерди де интернет аркалы QR кодлар менен шөлкемлестириу тийис.

ЎДБИЯТЛАР

1. Alimardonov E. va boshq. Global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida moliya bozori barqarorligini ta'minlash: nazariy-konseptual va amaliy jihatlar. Monografiya. – T.: Akademnashr, 2012. B. 132.
2. Закиров Е. Зарубежный опыт регулирования рынка ценных бумаг. //Бизнес-эксперт. Т., 2015, №8.
3. Sattarov B.K. O'zbekistonda ipoteka qimmatli qog'ozlari bozorini shakllantirish yo'llari. I.f.n. ilmiy darajasini olish taqdim etilgan diss.avtoreferati. Toshkent – 2012. – B. 8.
4. Monetar siyosatning 2018 - yil uchun asosiy yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, 2017-yil

Аннотация: Мақалада санли экономика шараятида финанслик технологиялардың әхмийети, яғный оның халықтың турмыс тәризин жақсылаў, мәмлекет экономикасының раўажланыўына тәсири баян етилген.

Таянч иборалар: санли экономика, финанслик технологиялар, онлайн платформа, интернет системасы.

Аннотация: В статье рассмотрены значение финансовых технологий в условиях цифровой экономики, то есть улучшение образа жизни народа, влияние на развитие экономики страны.

Ключевые слова: цифровая экономика, финансовые технологии, онлайн платформа, интернет система.

Abstract: The article describes the ways to influence financial technologies on the condition of digital economy, in other words improvement of people's lifestyle, influence to the improvement of country's economy.

Keywords: digital economy, financial technologies, online platform, internet system.

ХУДУДЛАРДА МЕХНАТ БОЗОРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОРҚАЛИ АХОЛИ ИШ БИЛАН БАНДЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ИМКОНИАТЛАРИ

Бозоров Б. У., Тухлиев Б. М.

Шароф Рашидов номидаги СамДУ

Кириш. Бозор муносабатлари тизимида меҳнат бозори муҳим ўринни эгаллайди. Мана шу бозорда меҳнатга қобилиятли кишилар ва давлат бирор бир жамоа ва хусусий ташкилотларнинг номидан иш кўрувчилар ва иш берувчиларнинг манфаати тўқнаш келади. Меҳнат бозорида вужудга келадиган муносабатлар яққол ифодаланган ижтимоий-иқтисодий хусусиятга эга бўлиб, улар мамлакат аҳолиси кўпчилигининг муҳим эҳтиёжларига дахлдор бўлади. Меҳнат бозори механизми орқали аҳолининг иш билан бандлиги ва меҳнатга ҳақ тўлаш даражалари белгиланади. Меҳнат бозорида рўй бераётган жараёнларнинг жиддий оқибати ишсизлик бўлиб, у умуман олганда салбий ҳодиса ҳисоблана ҳам, лекин амалда жамият ҳаётининг муқаррар натижасидир. Меҳнат ва аҳоли иш билан бандлиги соҳасида бозор алоқаларини ривожлантириш янги ва ўхшаш бўлмаган ёндашишни, меҳнат бозори элементларини ўрганишда мунтазамликни, бозор категориялари ва тушунчаларининг услубий базасини янгилашни талаб этади. Иқтисодиётни шакллантириш ва ривожлантириш бўйича чора-тадбирларни амалга ошириш келгусида аҳолини оқилона иш билан бандлиги соҳасидаги институтчионал тузилмалар фаолиятларини жадаллаштириш ва норматив- ҳуқуқий базаларини ривожлантиришни талаб қилади. Иқтисодий тараққиёт ва инсон салоҳиятини ривожлантиришда аҳолини иш билан бандлиги муҳим омил ҳисобланади. Аҳолини иш билан бандлигини таъминлаш унинг такрор ишлаб чиқарилиши учун зарур шартдир. Чунки кишиларнинг турмуш даражаси, иқтисодиёт соҳалари ва тармоқлари учун кадрлар танлаш, тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш, ишга жойлаштириш, ишсизларни моддий ва психологик жиҳатдан қўллаб-қувватлаш учун қилинадиган сарфлар аҳолини иш билан таъминланишига боғлиқдир. Шунинг учун аҳолини иш билан бандлигини таъминлашнинг ижтимоий-иқтисодий ва ташкилий жиҳатларини тадқиқ этиш бугунги кундаги ижтимоий-иқтисодий муаммо сифатида алоҳида аҳамиятга эга ва долзарб мавзу бўлиб қолаверади.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Баъзи иқтисодчи олимларнинг қарашларида меҳнат бозори инфратузилмаси моҳиятини ифодалашда куйидаги таърифларни учратиш мумкин: «касбга тайёрлаш ва қайта тайёрлаш, бандлик жамғармалари, реклама билан шуғулланувчи фирмалар ва бошқалар»[1]. Д.С.Чернейконинг фикрича: «меҳнат бозоридаги жами иқтисодий, ҳуқуқий ва бошқарув институтлари, ташкилотлар ва фаолият турлари унинг функцияларини амалга оширилишида қўмаклашиши зарур»[2]. Шунингдек, Варфоломеева О.А. таъкидлайдики: «Меҳнат бозори инфратузилмаси – бандликка қўмаклашувчи институтлар тизими ва бошқариш механизмлари сифатида меҳнат бозорида ишчи кучига талаб ва таклиф ўртасидаги иқтисодий жиҳатдан фойдали ўзаро ҳамкорликни таъминловчи тизимдир»[3]. Абдурахмонов Қ.Х. меҳнат бозори инфратузилмасининг ижтимоий-иқтисодий моҳиятини ёритиб беришда аниқ таърифни берган. Унга мувофиқ меҳнат бозори инфратузилмаси – давлат муассасаларини, иш билан бандликка қўмаклашувчи нодавлат тузилмаларини, корхона ва фирмаларнинг кадрлар хизматини, жамоат ташкилотлари ва жамғармаларини, иш кучини талаб ва таклиф қилиш ўртасидаги энг самарали ўзаро ҳамкорликни таъминловчи норматив-ҳуқуқий муҳитни ўз ичига олади, улар ишчи кучига эҳтиёж билан таклиф ўртасидаги энг самарали ўзаро ҳамкорликни таъминлайди[4]. А.Смитнинг фикрича, иқтисодиётда аҳоли иш билан бандлигини ҳажми бир ишчига бўлган ўртача иш ҳақи ставкаси даражасида аниқланади, агар у ортса, у ҳолда иш билан бандликни таъминлаш имконияти пасаяди[5]. Меҳнат бозорини тартибга солиш неоклассик назария намоёндаларидан бўлган А.Маршалл томонидан ҳам ўз асарларида тадқиқ этилган. А.Маршалл меҳнат бозорини тадқиқ қилган ҳолда, унинг ўз-ўзини тартибга солиш тизимини мукамал эмаслигини тавсифлаган эди: «Маҳсулот бозорида

битимлар тузилганда устунлик томонлар ўртасида бутунлай тенг тақсимланиши мумкин, ammo ишчи кучи бозорида эса устунлик кўпинча сотувчилар эмас, балким сотиб олувчилар томонида бўлади»[6].

Неоклассик назарияга кўра, меҳнат бозорини тартибга солишга аралашини муайян мамлакат ҳукумати томонидан амалга ошириладиган ишсизликни камайтириш усуллари воситасида содир бўлади. Ишсизликнинг асосий сабабларидан бири сифатида юқори иш ҳақи бўлиб ҳисобланади. Шунга кўра, А.Пигу ва унинг замондошлари иш ҳақини камайтириш, касаба уюшмаларига иш ҳақини ошириш ҳақидаги уларнинг талаби ишсизлик даражасини ўсишига олиб келишини тушунтириш кераклиги, юқори бўлмаган иш ҳақи талабгор ишчиларни давлат томонидан иш билан таъминлаш, хусусан, ижтимоий соҳани ривожлантиришни қўллаб-қувватлашни таклиф қилардилар[7].

Тадқиқот методикаси. Аҳолини иш билан бандлигини ва ишсизлигини камайтириш бўйича мавжуд бўлган илмий тадқиқотларни ўрганиш киёсий солиштириш, статистек маълумотларни ўрганиш ва иқтисодий жиҳатдан таққослаш ҳамда таҳлил қилиш, мантиқий фикрлаш, илмий абстракцилаш, маълумотни гуруҳлаш, анализ ва синтез, индукция ва дедукция усулларида кенг фойдаланилган.

Таҳлиллар ва натижалар. Республикамызда бозор ислохотлари жараёнларини авж олдириш ҳозирги кунда меҳнат бозори субъектларининг янги меҳнат тузилмаларига бўлган қизиқишларини ва янги мақсадлари шаклланиши жараёнлари фаол авж олишига олиб келмоқда ҳамда ишчи кучига бўлган талаб ва таклиф шаклланишини юзага келтирмоқда. Бир вақтнинг ўзида меҳнат бозори субъектларининг ўзаро алоқаларини жамоа-шартномавий ва норматив-ҳуқуқий базаларини доимий ривожлантириш, меҳнат бозори инфратузилмаларини келгусида ривожлантиришни талаб қилади. Бозор муносабатлари шароитида ҳар қандай иқтисодий муносабатнинг ташкилий-иқтисодий базасиз амалга ошириш самарасиздир. Шунинг учун ҳам меҳнат бозори инфратузилмасидаги иш фаолиятини ташкил қилиш асосларини илмий асосда ёритиш самарали меҳнат бозори шаклланиши ва ривожланишининг ижтимоий-иқтисодий аҳамиятини оширади. Меҳнат бозорини тўлиқ ишлаши учун ривожланган инфратузилмани шакллантириш лозим. Меҳнат бозори фаолият кўрсатишининг сифат кўрсаткичларини энг муҳим мезони унинг инфратузилмасининг ривожланиш даражасидир. Тадқиқотлар шуни кўрсатмоқдаки, меҳнат бозорида ишсизларнинг 90%га яқини муносиб ишга жойлашишга қўмаклашиш юзасидан муҳтожлик сезмоқда. Муносиб иш ўринлари - бу ишчиларга қизиқарли ва қўлидан келадиган ижтимоий ва иқтисодий жиҳатдан мақбул бўлган иш ўринларидир. Муносиб иш жойига эга бўлиш учун меҳнат бозорида ишчи кучи анча рақобатбардош бўлиши зарур. Ишлаб чиқаришнинг ёки ташкилотда бошқаришнинг рационал ташкил этилиши ва модернизациялашиши натижасида кадрларнинг тақчиллиги юзага келмоқда. Ўз вақтида иш жойини ўзгартириш, қайта тайёргарлик, бўш иш жойларига қабулнинг тўхтатилиши, кадрларни ишдан бўшатишга ижтимоий йўналтирилган танлаб олишнинг амал қилиши, персонални қисқартириш ёки қабул қилишни режалаштириш йўли билан ички меҳнат бозорини тартибга солишни зарурат этмоқда.

Аҳолини иш билан таъминлаш инсон ижтимоий ривожланишининг энг муҳим жиҳатларидан бири бўлиб, у меҳнат масалалари билан боғлиқ муаммоларни ҳамда меҳнатга бўлган таклиф ва талабларни қондириш йўллари очиқ беради. Иш билан бандлик кишиларнинг иш жойлари қаердалигидан қатъи назар, ижтимоий фойдали меҳнатда қатнашиш юзасидан ўзаро киришадиган ижтимоий-иқтисодий муносабатларидир. Иш билан бандлик муносабатлари, меҳнатга лаёқатли кишиларнинг қанчаси ва қай даражада ижтимоий фойдали меҳнатда қатнашини кўрсатадиган ижтимоий-иқтисодий кўрсаткичдир. Аҳолининг иш билан бандлик тоифаси фақат иқтисодий компонентлар билан чекланмайди. Иш билан бандлик, аввало, ижтимоий муносабатлардир. Шу боис қандайдир азалий, бевосита юзага келган ҳодиса сифатидаги ижтимоийлик унинг асосий хусусияти ҳисобланади. Иш билан бандлик ижтимоий-иқтисодий ҳодиса сифатида намоён бўлар экан, уни қуйидагича таърифлаш мумкин. Иш билан бандлик - фуқароларнинг қонун ҳужжатларида зид келмайдиган ўз шахсий ва ижтимоий эҳтиёжларни қондириш билан боғлиқ, уларга иш ҳақи ёки меҳнат даромади келтирадиган фаолиятдир. Иқтисодиётнинг сифат жиҳатидан олдингисидан фарқ қилувчи ҳар бир ривожланиш босқичи учун иш билан таъминлашнинг муайян модели мос келади, чунки унинг асосий хусусиятлари жамият фаолиятининг муҳим жараёнларини очиқ беради. Тажириба шуни кўрсатадики, жамият муаммолари ичида инсоннинг шахси ва талаб-эҳтиёжларини ҳисобга олмасдан ҳал қилишга уриниш омадсизликка маҳқум этади. Шунинг учун дастлаб олимлар ўз тадқиқот ишларида иш билан бандлик муаммоларини кўриб чиқаётганларида асосан, унинг иқтисодий жиҳатларига эътибор берган бўлсалар, кейинги пайтда иш билан бандликнинг ижтимоий жиҳатлари тўғрисида тобора кўпроқ гапирилаётганлиги бежиз эмас. Аҳолини иш билан бандлигининг ижтимоий-иқтисодий моҳиятига хос хусусиятлар, шу жумладан, иш билан бандлик турлари, касб-малака гуруҳлари бўйича тақсимлашдаги қонуниятлар кишиларнинг ёши ва жинси бўйича фарқланиши билан ифодаланди.

Меҳнат бозори ҳам, барча бозорлар каби талаб ва таклиф асосида шаклланади. Бунда талаб, бўш иш ўринларини эгаллашга бўлган эҳтиёж, таклиф эса – банд қилинмаган ишчи кучининг мавжудлиги ёки иш ўрнини ўзгартириш истаги сифатида майдонга чиқади. Бу борада меҳнат бозорларини чуқур ўрганиш, илмий тадқиқотлар олиб бориш ва унга таъсир этувчи омиллар таҳлилини ўтказиш талаб этилади. Меҳнат бозорига таъсир кўрсатувчи ташқи ва ички омилларни алоҳида кўрсатиб ўтиш зарур. Аҳоли бандлигини тартибга солиш ва ишчи кучини самарали тақсимлашнинг янги механизмларини шакллантиришнинг бозор тамойиллари ва ижтимоий-меҳнат муносабатларининг трансформацияси меҳнат соҳасида янги тенденцияларни пайдо қилмоқда. Бу борада бир қатор тадбирларни: меҳнат бозорида ишчи кучига бўлган талаб ва таклифга таъсир этувчи омилларни аниқлаш, уларнинг тутган ўрнига баҳо бериш; Ўзбекистон Республикасида давлатнинг аҳолини бандлигини ошириш соҳасидаги чора-тадбирларини таҳлил қилиш ва ишчи кучини самарали

тақсимлашга эришишга қаратилган механизмини эконометрик моделини ишлаб чиқиш; Ўзбекистонда ёшлар меҳнат бозорини тадқиқ қилиш ва унинг самарадорлигини оширишга қаратилган амалий тавсиялар ишлаб чиқишни ҳамда уни амалиётга жорий этишни талаб этилади.

Миллий хусусийатларимизга боғлиқ равишда маҳаллий аҳолининг ўтроқ ҳолда яшаши туфайли, мамлакатимизда ҳудудий меҳнат бозорларини ривожлантиришга уриниш ўзига хос аҳамият касб этади.

Ўзбекистонда шу жумладан самарқанд вилоятида ҳам меҳнат ресурслар сони йилдан- йилга ортиб бормоқда. Таҳлиллар шуни кўрсатадики самарқанд вилояти меҳнат ресурслари 2022 йилда 2160,4 минг кишини ташкил этган бўлиб, бу кўрсаткич 2018 йилда 2103,4 минг киши бўлган. 2022 йилда 2018 йилга нисбатан 102,7% ўсиши кузатилган. Шу билан бирга, меҳнат ресурсларининг 2022 йилда доимий аҳолига нисбатан улуши 52,4% бўлса, 2018 йилда эса 55,9% бўлган. Вилоят меҳнат ресурсларининг асосий қисмини меҳнатга лаёқатли ёшдаги меҳнатга лаёқатли аҳоли ташкил этади. Мазкур аҳоли 2023 йил 1 январ ҳолатига кўра 2154,3 минг киши бўлса, 2018 йилда 2092,5 минг киши бўлган. Меҳнатга лаёқатли ёшдаги меҳнатга лаёқатли аҳоли сони 2022 йилда 2018 йилга нисбатан 103,0% ўсган. Меҳнатга лаёқатли ёшдаги меҳнатга лаёқатли аҳолининг улуши 2022 йилда доимий аҳолига нисбатан 52,3% бўлса, меҳнат ресурсларига нисбатан 99,7% ташкил этади.

Самарқанд вилояти меҳнат ресурслари шаҳар ва қишлоқ ҳудудлари бўйича таҳлил қилинганда, 2022 йилда 2018 йилга нисбатан меҳнат ресурслари сони 2103,4 минг кишидан 2160,4 минг кишига ёки 102,7 %га ўсган, 2022 йилда меҳнат ресурсларининг 43,2%и ёки 932,6 минг киши шаҳарда яшаган бўлсалар, 56,8 %и ёки 1227,8 минг киши қишлоқ жойларида бўлган. Самарқанд вилояти шаҳар меҳнат ресурслари 2022 йилда 2018 йилга нисбатан 110,8%га ортган, қишлоқ меҳнат ресурслари 97,3%га камайган (1-жадвал).

1-жадвал. Самарқанд вилояти ҳудудлар кесимида меҳнат ресурслари сони, (минг киши) [9]

	2018 й.	2019 й.	2020 й.	2021 й.	2022 й.	2022 йил 2018 йилга нисбатан, %
Жами меҳнатресурслари	2103,4	2117,1	2130,4	2142,3	2160,4	102,7
Шаҳар	841,7	846,2	875,2	901,3	932,6	110,8
жамига нисбатан	40,0	40,0	41,1	42,1	43,2	-
Қишлоқ	1261,7	1270,9	1250,0	1241,0	1227,8	97,3
жамига нисбатан	60,0	60,0	58,7	57,9	56,8	-

Самарқанд вилоятида меҳнат ресурслари таркибида иқтисодий фаол аҳоли сони 2022 йилда 1642,9 минг киши бўлиб, 2018 йилга (1620 минг киши) нисбатан 101,4%га ўсиш тенденциясига эга. Вилоятда иқтисодий нофаол аҳоли миқдори 2018 йилда 482,8 минг кишини ташкил этиб, 2022 йилда 517,5 минг кишига этган ёки 2022 йилда 2018 йилга нисбатан 107,2% ўсган (2-жадвал).

2-жадвал. Самарқанд вилоятида меҳнат ресурслари таркиби, (минг киши) [9]

	2018 й.	2019 й.	2020 й.	2021 й.	2022 й.	2022 йил 2018 йилга нисбатан, %
Жами меҳнат ресурслари	2103,4	2117,1	2130,4	2142,3	2160,4	102,7
иқтисодий фаол аҳоли	1620,6	1604,2	1585,4	1599,7	1642,9	101,4
иқтисодий нофаол аҳоли	482,8	512,9	545,0	542,6	517,5	107,2

Самарқанд вилояти ҳудудлар кесимида иқтисодий фаол аҳоли таҳлилларга кўра, Каттақўрғон шаҳрида 2022 йилда (37,9 минг киши) 2018 йилга (36,9 минг киши) нисбатан 107,6% га ўсган бўлса, Самарқанд шаҳрида бу кўрсаткич 2018 йилда 258,0 минг кишидан, 2022 йилда 257,7 минг кишига ёки 99,9%га камайган. Вилоят туманлари бўйича иқтисодий фаол аҳоли энг юқори кўрсаткичлар Тайлоқ (120,3%), Самарқанд (108,7%), Ургут (108,4%), Булунғур (104,5%), Нарпай (104,4%) ҳамда Жомбой (104,3%) туманларида ўсиш тенденциясига эга ҳисобланади (3-жадвал).

3-жадвал. Самарқанд вилоятида ҳудудлар кесимида иқтисодий фаол аҳоли, (минг киши) [9]

	2018 й.	2019 й.	2020 й.	2021 й.	2022 й.	2022 йил 2018 йилга нисбатан, %
Самарқанд вилояти	1620,6	1604,2	1592,9	1599,7	1642,9	101,4
Самарқанд ш.	258,0	259,3	249,0	270,8	257,7	99,9
Каттақўрғон ш.	36,9	36,0	35,3	37,3	39,7	107,6
туманлар:						
Оқдарё	69,7	71,2	67,9	68,5	71,5	102,6
Булунғур	78,6	78,1	77,1	70,3	82,1	104,5
Жомбой	70,5	71,0	68,1	68,2	73,5	104,3
Иштихон	105,9	107,5	99,3	96,6	98,5	93,0
Каттақўрғон	117,4	120,2	106,2	110,0	109,1	92,9
Қўшработ	54,3	54,3	54,5	48,8	50,5	93,0
Нарпай	89,1	91,6	96,2	95,3	93,0	104,4
Паяриқ	103,4	103,8	99,6	97,5	97,9	94,7
Пахтачи	60,9	58,7	59,8	54,8	58,8	96,6
Пастдарғом	148,3	123,7	135,2	138,1	140,8	94,9
Самарқанд	105,3	105,3	106,6	109,5	114,5	108,7
Нуробод	61,2	60,4	61,9	61,3	63,0	102,9
Ургут	186,7	187,3	192,8	187,3	202,4	108,4
Тойлоқ	74,7	75,9	83,4	85,4	89,9	120,3

Иш билан банд бўлганлар сонининг камайиши, иқтисодиёт тармоқларида иш билан бандлик таркибининг жиддий равишда ўзгариши, иш билан норасмий бандлик кўламларининг кенгайишида ўз ифодасини топади. Ушбу жараёнлар шаклланишининг қонуниятларини аниқлаш ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш

истикболларини белгилашда маҳаллий микёсдаги меҳнат ресурсларини иқтисодий тармоқлар ўртасида тақсимотини тўғри ташкил этиш, янги ташкил этиладиган корхоналарни режалаштиришда аҳоли сонига нисбатан пропорционалликни таъминлаш аҳолининг иш билан бандлигини таркибий жиҳатдан ўзгартириш дастурларини ишлаб чиқиш ниҳоятда муҳимдир. Келтирилган вазифаларни амалга оширилиши ўз навбатида мамлакат аҳолиси бандлигини таъминлашда муҳим аҳамият касб этади. Инновацион иқтисодиётда янги ходимларни саралаш, уларнинг меҳнатини ташкил этиш, иш ҳақини белгилаш ва иш вақтини самарали ташкил этишда иш билан бандликнинг янги шаклларида фойдаланиш корхона фаолиятини ишлаб чиқариш ва бозорнинг ўзгарувчан талабларига тезкор мослашишини таъминловчи асосий элементлардан бири ҳисобланади.

Мамлакатимизда аҳолини ижтимоий ҳимоялаш, турмуш даражасини ошириш ва соғлом турмуш тарзини шакллантириш учун шароитлар яратиш устувор йўналишлар қаторида белгиланди. Ушбу йўналишдаги ислохотларни амалга оширишда ривожланган мамлакатлар тажрибаларини тадқиқ этган ҳолда ўзимизга хос бўлган йўналишини ишлаб чиқиш муҳим ҳисобланади. Ривожланган мамлакатлар тажрибаси шундан далолат берадики, маълум аҳоли гуруҳини меҳнат фаолиятига жалб қилиш, уларнинг меҳнатини самарали ташкил этиш, ишсизлик даражасини ва тадбиркорларнинг харажатларини камайтиришда иш билан бандликнинг эгилувчан шаклларида фойдаланиш муҳимдир. Иқтисодиётнинг турли соҳаларида эгилувчанлик даражаси турлича. Масалан, давлат секторида хусусий секторга нисбатан меҳнатни ташкил этишнинг эгилувчан шакллари кам қўлланилади. Ривожланган ҳудудларда, қуйи ривожланган ҳудудларга нисбатан эгилувчанликнинг бошқа шакллари қўлланилади. Иш билан бандликнинг эгилувчан шакллари фарқланишига қарамай меҳнатни ташкил этишда умумий кўринишга эга бўлган маълум гуруҳларни алоҳида таҳлил қилишимиз мумкин. Иқтисодий ва ижтимоий соҳаларда юз бераётган ўзгаришлар иш билан бандликнинг шакллари ҳам моҳиятини ўзгартирди. 1970 йиллардан бошлаб иш билан бандликнинг такомиллашган шакллари ХХІ асрда меҳнат муносабатларининг асоси сифатида эътироф этилган – эгилувчан иш билан бандлик тизимини шаклланишига асос бўлди. Сўнгги йилларда республикаимизда меҳнатга лаёқатли ёшдаги аҳоли сонининг ўсиши умумий аҳоли сони ўсишига нисбатан юқорироқ бўлган. Кейинги йилларда мамлакатимиз меҳнат бозори 500-600 мингдан зиёд кишига кўпайиб бормоқда (ОТМга ўқишга кирган, пенсияга чиққан ва ишдан бўшаганлардан ташқари). Меҳнат бозорида ўз ўрнини топа олмаганларни ҳисобга олган ҳолда 2022 йилдаги кўрсаткичларга кўра ишга жойлашишга муҳтож бўлганлар сони 1,4 млн. кишини ташкил этади⁵⁷. Бундан ташқари норасмий секторда самарасиз иш билан банд (яширин ишсизлар, тўлиқсиз ва вақтинчалик иш билан бандлик) бўлганларнинг кўпчилиги ҳамда иқтисодий нофаол аҳоли қатлами ишга жойлаштиришга муҳтождир. Ўзбекистон Республикаси Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги маълумотларига кўра, уларнинг сони 400-500 минг киши атрофида. Ушбу маълумотларга кўра, бугунги кунда республикада 2 млн.га яқин янги иш ўринларига талаб мавжуд. Ҳозирги даврда иқтисодиётда яратилаётган реал иш ўринлари эса бундай юқори талабни қондира олмапти. Шу сабабли, меҳнат бозоридаги давлат сиёсатини такомиллаштириш лозим. Меҳнат бозорида ишчи кучига талаб ва таклиф ўртасида мувозанат таъминланмаса келгусида иқтисодий ўсишга эришиш имконияти бўлмайд.

4-жадвал Самарқанд вилоятида ҳудудлар кесимида иқтисодиётда иш билан бандлар (минг киши) [9]

	2018 й.	2019 й.	2020 й.	2021 й.	2022 й.	2022 йил 2018 йилга нисбатан, %
Самарқанд вилояти	463,3	455,8	418,3	441,3	489,5	101,8
Самарқанд ш.	35,6	36,7	23,2	46,3	35,7	100,0
Каттақўрғон ш.	3,4	2,8	1,5	3,7	5,1	108,0
туманлар:						
Оқдарё	2,6	4,4	0,4	1,7	4,7	103,4
Булунгур	0,6	1,0	3,7	3,1	4,4	105,4
Жомбой	3,6	4,4	0,5	1,4	5,6	104,7
Иштихон	5,8	7,5	3,3	5,9	9,3	93,2
Катақўғон	05,9	09,0	4,6	9,1	3,8	93,3
Қўшрабод	3,5	9,2	3,3	3,8	5,7	94,2
Нарпай	9,9	3,1	5,5	5,9	4,1	105,3
Паяриқ	3,3	4,2	3,5	7,6	3,4	94,7
Пахтачи	4,7	3,1	3,1	9,1	3,1	97,1
Пастдарғом	33,7	11,9	20,1	24,1	27,2	95,1
Самарқанд	4,8	5,5	5,1	3,7	03,5	109,2
Нуробод	5,3	4,8	5,1	5,0	7,0	103,1
Ургут	58,2	59,6	71,3	58,2	33,5	109,1
Тойлоқ	7,4	3,7	4,1	5,7	1,4	120,8

Самарқанд вилоятида иқтисодиётда иш билан банд бўлган аҳоли миқдори 2018 йилда 1463,3 минг киши бўлиб, 2022 йилда 1489,5 минг кишига ёки 101,8%га ортган. 2022 йилда 2018 йилга нисбатан таҳлил қилинганда вилоятнинг Самарқанд шаҳрида иқтисодиётда иш билан банд бўлганлар миқдори деярли ўзгармаган, Каттақўрғон шаҳрида эса иш билан банд бўлган аҳоли 108,0%га ортган. Вилоятнинг ҳудудлар кесимида иш иқтисодиётда иш билан бандлар Оқдарё (103,4%), Булунгур (105,4%), Жомбой (104,7%), Нарпай (105,3%), Самарқанд (109,2%), Нуробод (103,1%), Ургут (109,1%) ҳамда Тойлоқ (120,8%) туманларида юқори бўлган. Вилоятнинг Иштихон (93,2%), Каттақўрғон (93,3%), Қўшрабод (94,2%), Паяриқ (94,7%), Пахтачи (97,1%) ҳамда Пастдарғом (95,1%) туманларида иқтисодиёт тармоқларида иш билан банд бўлганлар камайган (5-жадвал).

5-жадвал Самарқанд вилояти ҳудудлар кесимида ишсизлар (минг киши) [9]

	2018 й.	2019 й.	2020 й.	2021 й.	2022 й.	2022 йил 2018 йилга нисбатан, %
Самарқанд вилояти	157,3	148,4	174,6	158,4	153,4	97,5
Самарқанд ш.	22,3	22,6	25,8	24,5	22,0	98,7
Каттакўрғон ш.	3,4	3,3	3,8	3,6	3,6	105,9
туманлар :						
Оқдарё	7,0	6,8	7,5	6,8	6,8	97,1
Булунғур	8,0	7,0	8,4	7,1	7,7	96,3
Жомбой	6,9	6,6	7,6	6,8	6,9	100
Иштихон	10,1	10,0	11,0	9,8	9,2	91,1
Катақўғон	11,5	11,1	11,6	10,6	10,3	89,6
Қўшрабод	5,8	5,1	6,2	5,1	4,8	82,8
Нарпай	9,2	8,5	10,7	9,5	8,9	96,7
Паяриқ	10,0	9,6	11,1	9,9	9,5	95,0
Пахтачи	6,1	5,6	6,7	5,7	5,7	93,4
Пастдарғом	14,6	11,7	15,1	14,0	13,6	93,2
Самарқанд	10,5	9,9	11,5	10,8	11,0	104,8
Нуробод	5,9	5,7	6,8	6,3	6,0	101,7
Ургут	18,5	17,7	21,5	19,1	18,9	102,2
Тойлоқ	7,4	7,2	9,3	8,7	8,5	114,9

Самарқанд вилояти ҳудудлар кесимида ишсиз бўлган шахслар таҳлил қилинди. Вилоят ҳудудлари бўйича 2022 йилда 153,4 минг киши, 2018 йилда 157,3 минг кишини ташкил қилган. Самарқанд шаҳрида ишсизлар 2018 йилда 22,3 минг киши, 2022 йилда 22,0 минг кишига ёки 98,7%га камайган. Вилоятнинг Каттакўрғон шаҳрида ишсиз бўлган фуқаролар 2022 йилда 3,6 минг киши, 2018 йилда 3,4 минг киши бўлган. Каттакўрғон шаҳрида ишсизлар миқдори 2022 йилда 2018 йилга нисбатан 105,9%га ўсган. Шунингдек, Самарқанд вилоятининг Самарқанд (104,8%), Нуробод (101,7%), Ургут (102,2%) ҳамда Тойлоқ (114,9%) туманларида ҳам ишсиз бўлганлар миқдори юқори бўлган. Вилоятнинг Қўшрабод (82,8%) ҳамда Каттакўрғон (89,6%) туманларида ишсизлик даражаси кескин камайган. Бунга асосий сабаблар сифатида янги иш ўринларини яратилиши билан боғлиқлиги ҳисобланади. Вилоятда ишсизлик даражаси 2018 йилда 9,7%, 2019 йилда 9,3%, 2020 йилда 11,0%, 2021 йилда 9,9% ҳамда 2022 йилда 9,3% бўлган. Ҳудудлар кесимида таҳлил қилинганда, ишсизлик даражаси 2022 йилда Самарқанд шаҳрида 8,5% ҳамда Каттакўрғон шаҳрида 9,0% ташкил этиб, вилоят ўртача ишсизлик даражасидан паст бўлган. Шу билан бирга, Оқдарё (9,5%), Каттакўрғон (9,4%), Қўшрабод (9,5%), Нарпай (9,6%), Паяриқ (9,7%), Пахтачи (9,7%), Пастдарғом (9,6%), Самарқанд (9,6%), Нуробод (9,5%) ҳамда Тойлоқ (9,4%) туманларида вилоят ишсизлик даражасидан юқори ҳисобланади.

Мамлакатимизнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш борасида амалга ошириб келаётган ислохотларнинг олдида турган долзарб муаммолардан бири - бу такомиллашган меҳнат бозорини шакллантириш ва унинг самарали амал қилишини таъминлаш ҳисобланади. Республикамизда ижтимоий жиҳатдан етарли даражада ҳимоя қилинмаган ёшлар орасида ишсизлар сони салмоқли миқдорга эга бўлмоқда. Бундай ҳолат меҳнат бозорида ёшларнинг иш билан бандлигини таъминлаш, уларнинг ишсизлигини камайтиришнинг самарали усуллари ва механизмларини тадқиқ этишни талаб қилмоқда.

Мамлакатимиз аҳолиси ёш жиҳатидан анча ёш ҳисобланади, меҳнат ресурслари таркибига кириб келувчилар, яъни меҳнат қобилияти ёшига келиб қўшилувчиларнинг аксариятини ёшлар ташкил қилади. Бунинг асосий сабаби собиқ Игтifoқ даврида ва мустақиллигимизнинг дастлабки йилларида республикамизда аҳолини тез суръатлар билан кўпайиши натижасида ҳозирги кунга келиб, демографик босимнинг ортишига олиб келди. Оқибатда ёшларни, айниқса, кишлоқ ёшларининг ишсизлигини камайтириш ва уларнинг иш билан бандлигини таъминлашда жиддий муаммоларни вужудга келтирмоқда. Ёшлар ўртасида ишсизликни камайтириш, уларнинг меҳнат бозоридаги ҳатти-ҳаракати қатор жиддий ижтимоий-иқтисодий ечимини кутаётган масалалардан бири ҳисобланади.

Хулоса ва таклифлар. Аҳолини иш билан таъминлаш инсон ижтимоий ривожланишининг йенг муҳим жиҳатларидан бири - унинг меҳнат соҳаси ва у билан боғлиқ бўлган йеҳтийошларни кондириш йўллари очиб беради. Иш билан бандлик одамлар иш жойлари қайердалигидан қатъи назар, ижтимоий фойдали меҳнатда қатнашиш юзасидан ўзаро киришадиган ижтимоий-иқтисодий муносабатлардир. Иш билан бандлик муносабатлари, меҳнатга лайоқатли одамларнинг канчаси ва қай даражада ижтимоий фойдали меҳнатда қатнашишини кўрсатади. Иқтисодий таракқийот ва инсон салоҳиятини ривожлантиришда аҳолини иш билан бандлиги муҳим омил ҳисобланади. Аҳолини иш билан бандлигини таъминлаш унинг тақрор ишлаб чиқарилиши учун зарур шартдир. Чунки кишиларнинг турмуш даражаси, иқтисодийот соҳалари ва тармоқлари учун кадрлар танлаш, таййорлаш, қайта таййорлаш ва уларнинг малакасини ошириш, ишга жойлаштириш, ишсизларни моддий ва психологик жиҳатдан қўллаб-қувватлаш учун қилинадиган сарфлар аҳолини иш билан таъминланишига боғлиқдир. Аҳолининг оқилона иш билан бандлигини таъминлашнинг такомиллаштирилган йанги механизми қуйидаги асосий шарт-шароитларнинг таъсирини тартибга солиши лозим: ишчи кучига талабнинг ошиши ва унга таклифнинг камайиши; йолланма иш кучига меҳнат ҳақини (наرخини) енг паст миқдорини аҳоли жон бошига тўғри келадиган минимал истеъмол бюджетидан кам бўлмаган ҳолда белгилаш; меҳнатга қобилиятли ўсмирлар, пенсионерлар, кўп болалик айоллар ва ногиронлар иш билан бандлигини

оширишни раббатлантириш; ишсизларнинг малакаси, рақобат қобилияти ва сафарбарлигини ошириш, иш билан бандлик хизмати инфратузилмасининг самарали ривожланишини таъминлаш ва бошқалар.

АДАБИЁТЛАР

1. Рофе А.И., Збўшко Б.Г., Ишин В.В. Рынок труда, занятость населения, экономика ресурсов для труда. -М.: 1994. – С. 154.
2. Чернейко Д.С. Формирование рынка труда: опыт, проблемы. -СПб.: СПбГУЭФ, 1999. – С. 122.
3. Варфоломеева О.А. Становление инфраструктур рынка труда в переходной экономике. -СПб., Издательство СПбГУЭФ. 2001. – С. 25.
4. Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти (дарслиги) ИТ.; “Меҳнат”, 2009-238-б.
5. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Эксмо, 2007. – (Серия: Антология экономической мысли). - С. 208-222; Рикардо Д. Сочинения./ Д. Рикардо: – М.: Соцэкгиз., 1961. - С. 25-30; Мальтус Т. Опыт о законе народонаселения / Т.Мальтус: В 2 т. - М.: Экономика. Антология экономические мысли. - 1993. - С. 5-136.
6. Маршалл А. Принципы экономической науки / Т. 1. – М.: Прогресс. – 1993. - С.18.
7. Пигу А. Экономическая теория благосостояния / Т 2. – М.: Прогресс. - 1985. - С. 241-247.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Samarqand viloyati Statistika boshqarmasi 2022 йил.
9. Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotidan

Худудларда меҳнат бозорини ривожлантириш орқали аҳоли иш билан бандлигини таъминлаш имкониятлари

Аннотация. Иш билан бандлигини таъминланиши ижтимоий – иқтисодий ҳодиса сифатида намоён бўлар экан қонун ҳужжатларига зид келмайдиган ўз шахсий ва ижтимоий эҳтиёжларини қондириш билан боғлиқ ҳолатлар хорижий иқтисодчи олимлар тажрибалари ўрганилиб, мамлакатимизда аҳоли иш билан бандлигини таъминлашда меҳнатга лаёқатли ёшдаги аҳоли сони худудлар бўйича таҳлиллар олиб бориш нақтижасида ишсизликни бартараф этиш бўйича илмий – услубий тавфсиялар келтирилган.

Калит сўзлар: демографик жараён, меҳнат ресурслари, меҳнат муносабатлари, инфратузилма, жамғарма.

Возможности обеспечения занятости населения через развитие рынка труда в регионах

Аннотация. Поскольку обеспечение занятости проявляется как социально-экономическое явление, на основе опыта зарубежных экономистов даются научно-методические описания элиминации ситуаций, связанных с удовлетворением личных и общественных потребностей, не противоречащих правовым документам.

Ключевые слова: демографический процесс, трудовые ресурсы, трудовые отношения, инфраструктура, сбережения.

Opportunities to provide employment to the population through the development of the labor market in the regions

Abstract. Since ensuring employment manifests itself as a socio-economic phenomenon, based on the experience of foreign economists, scientific and methodological descriptions are given of the elimination of situations related to the satisfaction of personal and social needs that do not contradict legal documents.

Key words: demographic process, labor resources, labor relations, infrastructure, savings.

UDK: 338.43:338.012

CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA IQTISODIY SAMARADORLIKGA ERISHISHNING XORIJIY TAJRIBALARI

Gabbarov S. N.

Qoraqalpogʻ davlat universiteti

Kirish: Jahonda oziq-ovqat xavfsizligiga boʻlgan ehtiyoj tobora kuchayib borayotgan sharoitda chorvachilikni rivojlantirish muammolariga qaratilgan koʻplab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Har bir birlik yer resursiga ekologik bosim hamda yerlar degredatsiyasi darajasini pasaytirish, chorvachilikni rivojlantirishda yaylov resurslardan optimal foydalanish imkoniyatlarini aniqlash, chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xoʻjaliklari tomonidan yaylovlardan samarali foydalanish imkoniyatlarini oshirishda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qoʻllash, chorva tabiiy ozuqasi bilan taʼminlaydigan yer resurslaridan samarali va optimal foydalanish yoʻnalishlarini aniqlash orqali zarur miqdordagi ekologik toza chorvachilik oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning innovatsion yoʻnalishlarini belgilash, ularni mahsulot ishlab chiqaruvchilar uchun maqbullashtirish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yoʻnalishlaridan hisoblanadi[1.3].

Natijalar tahlili: Xorijiy davlatlarda qishloq xoʻjaligini rivojlantirish va ushbu sohada barqarorlikni taʼminlash masalalari dolzarblik kasb etmoqda. Qator tadqiqotlarda chorvachilik qishloq xoʻjaligining barqarorligini taʼminlashning istiqbolli yoʻnalishlaridan biri sifatida qaralib kelinmoqda [2.2]. Chunki butun dunyoda yaylov sifatida foydalanish imkoniyati mumkin boʻlgan katta hajmdagi maydonlar mavjud. Mazkur yaylovlar qurgʻoq hududlar boʻlib, ekinlarni yetishtirish uchun zaruriy talabga javob bermaydi ammo ular da chorvachilik bilan shugʻullanish mumkin. Boshqa tomondan bu kabi yerlarda chorvachilik bilan shugʻullanish tuproqning biologik tarkibini yaxshilanishi hamda oʻsimlik dunyosidagi xilma-xillikni oshirishini taʼminlaydi. Natijada hozirda yaroqsiz deb topilgan yerlardan samarali foydalangan holda ularning tuproq tarkibini yaxshilashga erishi mumkin. Shuningdek, koʻplab mamlakatlarda anʼanaviy ekin hisoblangan makkajoʻxori, soya kabilarni yetishtirishda almashlab ekish va ekin maydonlarida chorva mollarini oʻtlatishni tashkil qilish tuproq unumdorligini oshirgan holda sunʼiy oʻgʻitlarga boʻlgan talabni kamaytirishga yordam beradi. Ammo, mavjud sharoitdan kelib chiqqan holda har bir hududga mos ravishda muvaffaqiyatli yaylov dasturlarini ishlab chiqish bu boradagi ijobiy natijalarni taʼminlanishiga yordam beradi.

Yaylovlardan foydalanishni tashkil qilishda uning oʻziga xos boʻlgan tamoyillariga diqqat qaratish lozim boʻladi, yaʼni dastlab mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda ish koʻrish talab qilinadi. Chunki, qaysidir hududda samarali hisoblangan va tuproq tarkibini yaxshilashga xizmat qiladigan usul boshqa hududda samarasiz boʻlishi mumkin. Yaylovlardan foydalanishni tashkil qilishda hududlarning imkoniyati hamda tabiiy iqlim sharoitidan kelib chiqishi talab qilinadi. Yaylovlarda oʻtlovni tashkil qilish boʻyicha koʻplab tadqiqotlar amalga oshirilgan boʻlib, turli nazariyalar ilgari

suriladi. Shularni hisobga olgan holda yaylovlarda o'tlashni tashkil qilishning quyidagi to'rtta shaklini keltirib o'tmoqchimiz. 1. Bitta yaylovda chorvaning doimiy o'tlashini tashkil qilish; 2. Ikkitadan-to'rttagacha bo'lgan yaylovlarda takroriy ravishda chorvani boqishni tashkil qilish, bu usul kech yog'ingarchilik bo'ladigan hududlarda keng qo'llaniladi. 3. Hayvonlarni to'rt kundan o'n bir kungacha muddatda o'tlatishga mo'ljallangan maxsus tashkil qilingan kichik maydonlar; 4. Jahon amaliyotida gavjum bo'lib o'tlash (mob grazing), shuningdek adaptiv kichik yaylovlar deb yuritiladigan usullardan foydalaniladi[3.4]. Gavjum holatdagi o'tlashni tashkil etishda hayvonlar juda zich bo'lib, ularni kuniga bir yoki ikki marta boshqa joyga o'tkazish talab qilinadi. AQSH misolida qarab chiqadigan bo'lsak, yog'ingarchilik darajasi yuqori bo'lgan hududlarda chorva mollarni bir necha kunda bir marotaba ko'chirish amaliyoti keng qo'llaniladi.

Chorvani o'tlatishni tashkil qilishda yaylovlardan almashlab foydalanish tuproq samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ammo, bu ancha murakkab va ko'p vaqt talab qiluvchi jarayon hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan tadqiqot natijalariga ko'ra ushbu usuldan foydalangan holda tuproq samaradorligiga erishish uchun 3-5 yil kerak bo'ladi. O'rtacha yillik yog'in miqdori 1000 millimetrni tashkil qiladigan Ispaniya shimolida qo'yarni intensiv va navbatma-navbat o'tlatish yem-xashak yetishtirish va uglerod zaxirasini oshirish imkoniyatini yaratib beradi. Bu kabi usuldan foydalanish dunyoning ko'plab hududlari, Yangi Zelandiya, Buyuk Britaniya, AQSH janubi va Urugvayda samarali hisoblanadi [4.2]. Ushbu usuldan foydalanishning o'ziga xos kamchiliklaridan biri chorva mahsuldorligining kamayishi hisoblanadi. Bu yaylovlardan navbatma-navbat foydalanishni tashkil qilishning dastlabki bosqichida sodir bo'ladi. Ammo hayvonlarning bu usulga moslashishi keltirib o'tilgan muammoni o'z-o'zida yo'q bo'lishiga olib keladi. Bu usul yomg'ir ko'p bo'lgan hududlarda nisbatan juda samarali hisoblanadi. Qurg'oqchilik darajasi yuqori bo'lgan Qoraqalpog'istonning shimoliy hududlarida baland va intensiv, navbatma-navbat gavjum o'tlashni tashkil qilish, xususan chorvadagi go'sht yetishtirish samaradorligini kamaytiradi. Bu muammoning yechimini avvalambor yaylov samaradorligini oshirish va chorva tarkibini optimallashtirishni izlash bo'yicha samarali tadqiqotlarni davom ettirishi va samarali yechimga ega bo'lish masalasi haligacha dolzarbligini saqlab kelmoqda. Jumladan, AQSH ning G'arbida baland tekisliklarida chorvachilik bilan shug'ullanish keng tarqalishi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasining Shimoliy hududlari va Ustyurt platosi sharoitiga o'xshab ketadi. AQSH ning bu madaniylashgan bu tekisliklari mamlakatning o'rtasida joylangan bo'lib, Kolorado, Kanzas, Montana, Shimoliy Dakota va Janubiy Dakota shtatlarini o'z ichiga oladi. Baland tekisliklarning sharqiy qismida lalmi dehqonchilik bilan shug'ullanish uchun zarur darajadagi yog'ingarchilik kuzatiladi, ammo g'arbiy qismida chorvachilik bilan shug'ullanish keng tarqalgan. Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha makkajo'xori yoki soya ekinlarini yerni qoplovchi ekinlar bilan almashlab ekish tuproq tarkibi va unumdorligini oshirishga xizmat qiladi. Ekin maydonini keyingi hosil uchun tayyorlash maqsadida qoplovchi ekinlar gerbitsidan foydalangan holda tugatiladi. Ammo barqarorlik nuqtai nazaridan bu samarali bo'lmagan amaliyot hisoblanadi va Nebraskada qoplovchi ekinlardan foydalanish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ya'ni qoplovchi ekinlarni ekish va ularni chorvachilik uchun o'tlash maydoni sifatida foydalanish samarali usullardan biri bo'lib qolmoqda. Chorvachilik bilan shug'ullanuvchi subyektlar qoplovchi o'simlik uchun to'lovni amalga oshiradi va bu fermer xo'jaligi uchun daromad manbai bo'ladi, boshqa tomondan chorvachilik mahsulotlari yetishtirish orqali oziq-ovqat bilan ta'minlaydi. Bundan tashqari gerbitsid va kimyoviy o'g'itlardan foydalanish darajasini sezilarli kamaytirish imkoniyatini yaratadi. Fermerlar ko'pincha chorvani o'tlatish tuproq siqilishiga olib kelishi va ekinlar hosiliga zarar yetkazishi mumkinligi haqida qayg'urishadi. Ammo, Nebraskada o'tkazilgan tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'lishicha agar chorva zichligi past bo'lsa, ya'ni maydonda o'tlashni talab darajasi tashkil qilinmasa, javdardan qoplovchi o'simlik sifatida foydalanish makkajo'xori hosildorligiga ta'sir qilmayligi aniqlandi. Shuningdek, bu natijaning teskari holatini tasdiqlovchi tadqiqot natijalari ham mavjud bo'lib, ularga ko'ra qoplovchi ekinlarni chorvani o'tlatish uchun foydalanish g'alla, makkajo'xori va soya hosildorligiga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi.

Maksimal samaraga erishish uchun chorva ko'pincha qoplovchi ekinlar va hosil yig'ib olingandan keyin qolgan o'simlik qoldiqlarida o'tlatilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Nebraskada amalga oshirilgan tadqiqot natijalariga ko'ra makkajo'xori hosilini yig'ib olgandan keyin u yerda chorvani boqish ularni boqish maydonchalariga o'tkazishdan oldin ancha samarali hisoblanadi. Chunki bu qoramollar uchun sarflanadigan don miqdorini kamaytirishga xizmat qiladi. Nebraskaning qum tepaliklari va Sharqiy Koloradoda uchinchi usul ikkitadan-to'rttagacha bo'lgan yaylovlarda takroriy ravishda chorvani boqishni tashkil qilishdan foydalaniladi. Nebraska chorvadorlari ko'pincha to'rtta yaylovdan takroriy ravishda foydalanishni targ'ib qilishadi. Bu usul go'ng qo'ng'izlarini ko'paytirish orqali qumlarda biomassani ko'paytirish imkoniyatini yaratadi. O'simliklar xilma-xilligi indeksi chorva o'tlatilmaydigan va doimiy ravishda uzluksiz foydalaniladigan yaylovlarda takroriy ravishda foydalaniladigan yaylovlarga nisbatan pastroq bo'ladi.

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra dunyoda yaylov uchun foydalanish mumkin bo'lgan katta miqdordagi yer fondi mavjud bo'lib, faqat ulardan samarali foydalanish usullarini ishlab chiqish talab qilinmoqda. Yaylovlar ekin ekish mumkin bo'lmagan yerlarda oziq-ovqat ishlab chiqarish imkoniyatini yaratib beradi. Bundan tashqari makkajo'xori va soya kabi ekinlar ekiladigan maydonlarda chorvani boqish, ulardan navbatma-navbat foydalanish tuproq unumdorligi va yerni tabiiy mineral o'g'it bilan to'yintirish imkoniyatini oshiradi. Bundan tashqari yaylovlarda chorvachilikni rivojlantirish udda boqilgan chorvaga nisbatan tabiiy sharoitda o'sgan va biologik toza mahsulotlarni yetishtirish imkoniyatini yaratib beradi[1.42].

Xulosa: Yuqorida keltirilgan tahlillar va yaylovlardan foydalanish usullarining samaradorligi natijalariga ko'ra tadqiqot obyekti hisoblangan Qoraqalpog'iston Respublikasida chorvachilik bilan shug'ullanish qishloq xo'jaligida samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Ammo, hududdagi katta miqdordagi yaylovlarni qurg'oq yerlarga to'g'ri kelishi ulardan foydalanishning samarali usullarini ishlab chiqishni, innovatsion texnologiyalar qo'llash imkoniyatlarini izlab topishni talab qiladi. Fikrimizcha, jahon tajribasiga asoslanilgan holda dehqonchilik va chorvachilikni

integratsiyalashgan holda rivojlashtirish, dehqonchilik bilan shug'ullanilayotgan maydonlardan hosilni yig'ib olgandan keyin ma'lum muddatga yaylov fondi sifatida foydalanish yerlarning unumdorligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Sauxanov J.K., Gabbarov S.N. CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA YAYLOVLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'iro't tumani misolida), Monografiya, 148 bet, Toshkent- "Metodist nashriyoti"-2023.
2. Grandin T., Grazing Cattle, Sheep, and Goats Are Important Parts of a Sustainable Agricultural Future. *Animals* 2022, 12, 2092. <https://doi.org/10.3390/ani12162092>
3. Teague W.R., Apfelbaum S., Lai R., Kneotes U.P., Rowntree J., Davies C.A., Conser R., Rasmussen M., Hatfield J., Wang T., et al. The role of ruminants in reducing agriculture's carbon footprint in North America. *J. Soil Water Conserv.* 2016, 71, 156–164.; Teague R., Kreuter U. Managing grazing to restore soil health, ecosystem function, and ecosystem services. *Front. Sustain. Food Sci.* 2020, 157.
4. Komwihangilo D.M., Goromela E.H. and Bwire J.M.N. 1995. Indigenous Knowledge in Utilization of Local Trees and Shrubs for Sustainable Livestock Production in Central Tanzania. *Livestock Research for Rural Development*, 1995(6/3): 159:168.

Chorvachilikni rivojlantirishda iqtisodiy samaradorlikga erishishning xorijiy tajribalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada chorvachilikni rivojlantirishda va aholini qishloq-xo'jaligi mahsulotlari, junlardan sut va go'sht mahsulotlari bilan ta'minlashda xorijiy tajribalar haqida fikr va mulohozalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy samaradorlik, tuproq unumdorligi, navbatma-navbat yaylov, ekinlarni qoplash, chorvachilik.

Аннотация: В данной статье представлены мысли и комментарии о зарубежном опыте развития животноводства и обеспечения населения сельскохозяйственной продукцией, шерстью, молочной и мясной продукцией.

Ключевые слово: экономическая эффективность, плодородие почв, севооборот, покровные культуры, животноводство.

Abstract: This article presents thoughts and comments on foreign experience in the development of livestock farming and providing the population with agricultural products, wool, dairy and meat products.

Key words: economic efficiency, soil fertility, rotational grazing, cover crops, animal husbandry.

МАРКЕТИНГ ТИЗИМИДА НАРХЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЗАРУРАТИ

Абдурашидова Г. А.

Тошкет давлат иқтисодиёт университети

Янги Ўзбекистонда аҳолининг юксак турмуш даражаси ҳамда миллий иқтисодиётнинг рақобатбардошлигини таъминлашга қаратилган таъсирчан чора-тадбирлар олиб борилмоқда. Жумладан, «Ўзбекистон – 2030» стратегиясида асосий жиҳатлардан бири сифатида “барқарор иқтисодий ўсиш орқали даромади ўртачадан юқори бўлган давлатлар қаторидан ўрин олиш” ғояси акс эттирилганлиги инобатга олинган [1]. Ушбу стратегияда белгиланган мақсад ва вазифаларнинг самарали амалга оширилишини таъминлашда иқтисодиётда бозор механизмини, айниқса, товар ва хизматларнинг жадал ва соғлом айирбошланиши, даромадларнинг самарали тақсимланиши жараёнларининг асосий шarti бўлган нарх шаклланиши муҳим ўрин тутди. Бозор механизмнинг асосий ва муҳим таркибий қисмларидан бири нарх ҳисобланади. Бозор иқтисодиёти шароитида тақсимот ва айирбошлаш жараёнларида иштирок этувчи ишлаб чиқариш маҳсули ўзининг товар тавсифининг энг юқори даражасини намоён этади. Жамият тараққиётининг кейинги босқичларида иқтисодий алоқа ва муносабатларнинг жадаллашуви кучайиб бориши билан ўзаро айирбошланадиган маҳсулот, иш ва хизматларнинг қиймати ҳамда нархини тез, тўғри ва аниқ белгилашга бўлган эҳтиёж кучайиб боради.

Иқтисодий адабиётда нархнинг иқтисодий мазмуни ва шаклланиш механизмларига жуда кенг эътибор қаратилган. Жумладан, ҳозирги замон иқтисодиёт назариясида нархнинг мазмунига нисбатан мавжуд бўлган қуйидаги асосий ёндашувларни ажратиш кўрсатиш мумкин. 1) нархга алоҳида, мустақил иқтисодий категория сифатидаги ёндашув. Яъни нарх ўз мазмунида қўллаб ўзаро боғлиқ иқтисодий ҳодиса ва жараёнлар ўртасидаги муносабат ва алоқаларни назарий ҳамда фикрий мушоҳада орқали намоён этувчи мураккаб иқтисодий тушунча ҳисобланади; 2) нархга товар қийматининг пул эквивалентидаги ифодаси сифатидаги ёндашув. Товарнинг қиймати уни ишлаб чиқаришга сарфланган умумий харажатлар мажмуи бўлиб, бозорда барча товарлар мазкур қийматлар ўзаро тенг бўлганда шароитда айирбошланади. Қиймат миқдорини ўлчаш жуда мураккаб жараён бўлиб, уни пул орқали ифодалаш энг самарали ва қулай ҳисобланади. Товар қийматини ифодалаган пул миқдори нарх сифатида майдонга чиқади; 3) нархга сотувчи ва харидор ўртасидаги муносабат сифатидаги ёндашув. Маълумки, бозор – бу талаб ва таклифнинг ўзаро таъсири бўлиб, уларнинг ортида харидор (истеъмолчи) ва сотувчи (ишлаб чиқарувчи) туради. Ҳар иккала бозор субъектининг бозордаги ҳатти-ҳаракати рағбат берувчи ва тартибга солувчи энг муҳим омил нарх ҳисобланади; 4) нархга товар бирлиги учун тўловга мўлжалланган пул суммаси сифатидаги ёндашув. Бунда нарх талаб ва таклифнинг ўзаро муносабати таъсирида ҳосил бўлувчи, ҳар иккала томоннинг манфаатини ҳамда ўзаро қониқшини ифодаловчи пул миқдори сифатида намоён бўлади [2].

Юқоридаги нархнинг мазмунига нисбатан ёндашувлардан келиб чиққан ҳолда унинг қуйидаги асосий вазифаларини ҳам ажратиш кўрсатиш мумкин (1-расм).



1-расм. Нархнинг мазмунига нисбатан ёндашувлардан келиб чиққан ҳолда асосий вазифалари [10].

Нархни шакллантириш жараёни иқтисодиётнинг турли соҳаларида турлича ёндашув ва концепцияларга эга. Жумладан, умумий нархнинг шаклланиши ҳамда маркетинг тизимидаги нархнинг шаклланиши ёндашувлари ўз навбатида товар ёки хизматларга нархни шакллантириш мақсадлари ва усуллари жиҳатидан фарқланади. Мазкур фарқни қуйидаги жадвал орқали кўриб чиқишимиз мумкин (1-жадвал).

1-жадвал. Умумий нарх шаклланиши ҳамда маркетинг тизимида нарх шаклланиши ёндашувлари ўртасидаги фарқ [10]

Умумий нарх шаклланиши хусусиятли белгилари	Маркетинг тизимида нарх шаклланиши хусусиятли белгилари
- нисбатан умумлашган концепция ҳисобланиши	- алоҳида ҳоллардаги муайян мақсадлардан келиб чиққан ҳолда хусусий концепцияларга асосланиш
- бозордаги умумий ҳолат, рақобат даражаси, ишлаб чиқариш харажатлари ва бошқаларни ҳисобга олиши	- истеъмолчи ва унинг нархни қабул қилишига йўналтирилганлиги
- асосий мақсади бўлиб иқтисодий субъектларнинг фойдасини таъминлаш ҳамда бозор эҳтиёжларини қондириш ҳисобланиши;	- асосий эътиборнинг харидор учун киймат яратиш ҳамда унинг муайян миқдордаги тўловни амалга ошириш учун тайёригига қаратилиши
- нархни шакллантиришнинг асосий усуллари ишлаб чиқариш харажатлари, бозор ҳолати таҳлили ва рақобатбардошликнинг таъминлигига асосланиши	- нархнинг фойда олиш дастаги билан бир қаторда бозор билан коммуникациялар ҳамда бренднинг муайян имижини ўрнатиш воситасига айланиши

Бундан кўринадики, иқтисодиёт назариясидан фарқли ўлароқ, маркетингда нарх тушунчасига кўпроқ амалиёт нуктаи назаридан, иқтисодий жараёнларнинг юзаки кўринишидан келиб чиққан ҳолда ёндашилади. Масалан, С.Касьяновга кўра “Маркетингда товар нархининг таърифини шакллантиришнинг тушунарли ва содда кўринишини қуйидаги тарзда ифодалаш мумкин: бу сотувчи товар бирлигини сотиш натижасида олишни хоҳловчи, харидор эса сотиб олиш учун сарфлашни хоҳловчи пул маблағлари миқдори; товарни харид қилиш ёки хизмат учун ҳақ тўлашда зарур бўлган маблағ” [3].

Юқоридаги таърифдан кўринадики, бу ўринда нархнинг мазмуни жуда тор ва чекланган ҳолда баён этилган. Чунки, “сотиш ёки сотиб олишни хоҳлаш”, “товарни харид қилиш ёки хизмат учун ҳақ тўлаш” иқтисодий жараён сифатида ҳар доим ҳам амалга ошмаслиги мумкин. Лекин ушбу жараёнлар йўналтирилган ҳамда татбиқ этиладиган товарларнинг нархи доимо мавжуд бўлади. Мазкур қарашларга ҳам айтиш пайтда зид, ҳам уларни тўлдирувчи бўлган нархнинг қуйидаги таърифини келтириш мақсадга мувофиқ: “Нарх – бу товар кийматининг пулдаги ифодаси. Маркетингда нарх истеъмолчи нуктаи назаридан кўриб чиқилади. Шунга кўра, нарх таркибига нафақат товар сотиб олиш учун тўлаш лозим бўлган муайян пул маблағи, балки товар ва уни сотиш жойи, товарни танлаш, харид қилиш тўғрисида қарор қабул қилиш, вақт сарфлаш борасидаги ахборотни қидириш бўйича маънавий ҳаракатлар ҳам киради. Демак, маркетингдаги товар нархи – бу миқдорнинг истеъмол қадриятлари мажмуи учун тўловидир” [4]. Фикримизча, маркетинг тизимида нархларни шакллантиришнинг иқтисодий мазмунини очиқ беришни мазкур жараённинг асосий жиҳатлари ўртасидаги ўзаро боғлиқлик ва ўзаро таъсирнинг тизимли тадқиқи орқали амалга ошириш мақсадга мувофиқ. Бунда энг аввало “зарурат – мақсад – вазифа” триадаси жиҳатидан ёндашиш самарали ҳисобланади (2-расм).



2-расм. Маркетинг тизимида нархларни шакллантиришнинг иқтисодий мазмунини очиқ беришга ёндашиш [10].

Колдан Е.С., Иванова Л.Р. маркетинг тизимида нархларни шакллантириш заруратини қуйидагича ифодалайдилар: “Нархлар ва нарх сиёсати – маркетинг фаолиятининг асосий таркибий қисмларидан бири бўлиб, унинг роли тобора ошиб бормоқда. Нархнинг шаклланиши – бу муайян товарга нарх белгилаш жараёни. Нарх шаклланишининг мазмуни бозорнинг маълум қисмини эгаллаб олиш, мазкур товарнинг нарх кўрсаткичлари бўйича рақобатбардошлигини таъминлаш ва муайян фойда ҳажмига эришиш учун товарлар (хизматлар)га қандай нархларни ўрнатиш зарурлигини аниқлашдан иборат” [5]. Бундан кўринадики, мазкур таърифда маркетинг тизимида нархларни шакллантириш зарурати қуйидаги ҳолатлар орқали ифодаланади: 1) бозорнинг маълум қисмини эгаллаб олиш учун мақбул нарх даражасини аниқлаш; 2) товар ёки хизматнинг нарх бўйича рақобатбардошлик қобилиятига эга бўлишни таъминлаш; 3) товарни ишлаб чиқариш ёки хизматни кўрсатишдан олинadиган фойда ҳажмини оптимал нарх даражасини максималлаштириш.

Бироқ, фикримизча, ушбу ҳолатлар маркетинг тизимида нархларни шакллантириш заруратини тўлиқ ифодалаб беролмайди. Бунинг учун маркетинг тушунчасининг асл мазмунини кўриб чиқиш лозим.

Америкалик иқтисодчи ва маркетинг Филлипп Котлер маркетингни реклама ва товарларни сотиш билан аниқлаштирадиган лозимлигини, балки, агар истеъмол заруратларини тўғри аниқланса, эҳтиёжга мос келувчи товарлар тўғри ишлаб чиқарилса ва уларга мувофиқ келувчи нархлар тўғри шакллантирилса, уларни самарали таксимлаш ва рағбатлантириш тизимлари тўғри йўлга қўйилса – сотиш муаммоси ўз-ўзидан ҳал бўлишини

таъкидлаб ўтган. “Бошқарув муаммолари бўйича етакчи назариётчилардан бири Питер Друкер бу ҳақида “Маркетингни мақсади – товарларни сотишга бўлган ҳаракатларнинг аҳамиятини йўққа чиқаришдан иборат. Унинг мақсади – мижозни шунчалик яхши билиш ва тушунишдан иборатки, бунинг натижасида товар ёки хизмат мижоз эҳтиёжига аниқ мос келади ҳамда ўзини ўзи сотади”. ...Бизнинг маркетингга таърифимиз қуйидагича: “Маркетинг – зарурат ва эҳтиёжларни товар ва хизматларни айирбошлаш йўли билан қондиришга йўналтирилган инсон фаолияти тури” [6]. Юқоридаги таъриф жуда умумий ва кенг мазмун касб этади. Шунга қўра, маркетингнинг нисбатан замонавий ҳамда аниқроқ ифодаланган бошқа таърифини ҳам кўриб чиқиш мумкин. Жумладан, Америка маркетинг уюшмаси таърифида қўра, “маркетинг – маҳсулот ёки хизматни яратиш, силжитиш ва маҳсулот ёки хизматни харидорларга тақдим этиш ҳамда улар билан ўзаро муносабатларни ташкилот учун манфаатли асосда бошқариш жараёнларининг мажмуи ва ташкилий функцияси” [7]. Маркетингнинг юқоридаги таърифларда ифодаланган асосий жиҳатларидан келиб чиққан ҳолда товар ва хизматлар маркетингида нархларни шакллантириш заруратини қуйидаги жадвал орқали кўриб чиқамиз (2-жадвал).

2-жадвал. Маркетинг мазмунидаги асосий жиҳатларидан келиб чиққан ҳолда нархларни шакллантиришнинг зарурати [10]

Маркетинг мазмунидаги асосий жиҳатлар	Нарх шакллантириш заруратини белгиловчи ҳолатлар
Мижозни яхши билиш ва тушуниш	Мижознинг харид бўйича қарорига таъсир кўрсатиш
Эҳтиёжларни товар айирбошлаш йўли билан қондириш	Алмашув қийматларининг ўзаро эквивалентлигини таъминлаш
Маҳсулот ёки хизматни яратиш	Харажатларни аниқлаш
Маҳсулот ёки хизматни силжитиш	Талабни баҳолаш
Харидорлар билан ўзаро муносабатларни ташкилот учун манфаатли асосда бошқариш	Рақобатбардошликни таъминлаш
	Мижознинг товар қийматини идрок этиши
Маҳсулот ёки хизматни харидорга тақдим этиш	Талаб ва тақлифни мувозанатлаш
	Даромад ҳажмини максималлаштириш

Жадвал маълумотларидан кўринадики, маркетинг мазмунидаги асосий жиҳатларига тегишли равишда нархларни шакллантиришнинг заруратини белгиловчи ҳолатларни ажратиб кўрсатиш мумкин. Қуйида уларнинг ҳар бирига алоҳида тўхталиб ўтамыз.

“Мижозни яхши билиш ва тушуниш” жиҳати ишлаб чиқарувчи ёки сотувчининг зиммасига жуда катта масъулият юклайди. Албатта, бозор иқтисодиёти шароитида ишлаб чиқарувчи ўзининг миллионлаб нафарни ташкил этиши мумкин бўлган потенциал истеъмолчисини шахсан таниши ёки унинг истак-хоҳиши, афзал кўрувчи жиҳатларини тўлиқ билиши имкон доирасидан ташқаридаги ҳолат ҳисобланади. Бироқ, муайян товар ёки хизмат тури бўйича истеъмолчи ёки мижознинг намунавий хулқ-атвори, истак-хоҳиши, афзал кўришининг “ўртача даража”га келтирилган “қолип”ни белгилаб олиш мумкин. Бунда маркетинг амалиётида истеъмолчи (мижоз)нинг идеал портрети ёки “мақсадли аудитория портрети”ни аниқлашни мисол келтириш мумкин.

“Асосли ва самарали маркетинг стратегиялар, кампаниялар ва дастакларни аниқлаб олиш учун аудиториянинг портрети таҳлили зарур бўлади. Замонавий истеъмолчининг қиёфасини тадқиқ этишда ижтимоий, демографик, хулқ-атвор ва бошқа муҳим омиллар ҳисобга олинади. ...Мақсадли аудитория портрети – товарни муваффақиятли силжитиш учун барча қуйидаги зарур тавсифларни ўз ичига олувчи харидорнинг умумий образи (қиёфаси): ёши ва жинси; оилавий ҳолати, фарзандлар мавжудлиги ва сони; яшаш манзили; маълумоти; фаолият соҳаси, даромадлари даражаси; эҳтиёжлари, фобиялари (қўрқув), истаклари; қизиқишлари, хобби; лавозими ёки касбий мақоми ва у билан боғлиқ муаммолар; характери белгилари; харидор сифатидаги хулқ-атвори модели” [8]. Юқоридаги тавсифлар таркибида фаолият соҳаси, даромадлари даражаси каби унсурлар ҳам мавжудки, улар бевосита истеъмолчининг харидга оид қарорига таъсир кўрсатади. Ўз вақтида, товар ва хизматлар нархи даражасидаги ўзгаришлар истеъмолчи даромадига тескари муносабатда бўлиши мумкин.

“Эҳтиёжларни товар айирбошлаш йўли билан қондириш” жиҳатининг асосий мазмуни бозор механизмига бориб тақалади. Бозор шароитида, бундан олдин келтирилган қоидадан фарқли ўлароқ, муайян ёки аниқ мижознинг ўзига хос тавсифий хусусиятларидан олдин, умумий ва асосий тавсиф – унинг тўловга лаёқатлилиги муҳим ҳисобланади. Товар айирбошлаш жараёни амалга ошишининг асосий икки шарт мавжуд: биринчидан, айирбошланаётган товарлар истеъмол қиймати жиҳатидан турлича бўлиши керак; иккинчидан, мазкур товарлар алмашув қиймати жиҳатидан ўзаро эквивалент, яъни тенг бўлиши керак. Мазкур иккинчи шартнинг самарали амалга ошиши нархнинг тўғри шакллантирилишига боғлиқ.

“Маҳсулот ёки хизматни яратиш” жиҳатининг мазмуни ишлаб чиқариш харажатларини олдиндан аниқлашни, шунингдек, потенциал мижознинг эҳтиёжини қондирувчи товар ёки хизматнинг ишлаб чиқарувчи ҳамда истеъмолчи учун қанча харажатни намоён этишини аниқлашни назарда тутати. Бозор иқтисодиёти ҳамда ресурсларнинг эркин ҳаракати шароитида бирон-бир маҳсулотни ишлаб чиқаришда назарий жиҳатдан ҳеч қандай жиддий тўсиқ мавжуд эмас. Масалан, тропик мамлакатларда етиштирилаётган цитрус меваларни зарур бўлса иқлим жиҳатдан ўта нобоп ҳудудларда ҳам етиштириш, ёки мураккаб технологик маҳсулотларни у қадар ривожланмаган мамлакатларда ҳам ишлаб чиқариш мумкин. Бу ўринда асосий муаммо – мазкур маҳсулотни ишлаб чиқаришнинг қандай харажат эвазига амалга оширилиши ҳисобланади. Шунга қўра, маркетинг муайян эҳтиёжни қондирувчи товар ёки хизматни яратишда аввал бошидан нархни шакллантириш механизми орқали амалга оширилаётган харажатларнинг тўлиқ қопланишини назарда тутиши лозим.

“Маҳсулот ёки хизматни силжитиш” жиҳати маркетинг ёрдамида товар ва хизматга бўлган талабни аниқ баҳолаш учун нархнинг тўғри шакллантирилишига бўлган заруратни намоён этади. “Товарни силжитиш –

сотишнинг самарадорлигини ошириш, истеъмол талабини фаоллаштириш ҳамда компания ва унинг маҳсулотига содиқлик муносабатини қўллаб-қувватлашга йўналтирилган маркетинг стратегияси” [9]. Товарни силжитишнинг асосий мақсади бўлиб товарни бозорга чиқариш, унинг таниқлилиқ даражасини, муайян товар ёки хизматнинг бозордаги улушини, янги мижозларни жалб этишни, истеъмолчилар, ҳамкорлар ва ходимларга коммуникатив таъсир ўтказиш орқали сотиш самарадорлигини ошириш ҳисобланади. Бундан кўринадики, товарларни силжитишнинг ҳар бир мақсади улар нархнинг шакллантирилиши жараёнига бевосита боғлиқ ҳисобланади.

“Харидорлар билан ўзаро муносабатларни ташкилот учун манфаатли асосда бошқариш” жиҳати, бир томондан, рақобатбардошлиқни таъминлаш, бошқа томондан эса, мижознинг товар қийматини идрок этиши билан боғлиқ. Бозорда ўз рақобатбардошлигини таъминлаш ва сақлаб қолиш учун ҳар бир корхона ва ташкилот рақобатчилари томонидан белгиланаётган нархларни таҳлил қилиб бориши, зарур ҳолларда маҳсулот ёки хизматнинг нархини оптималлаштириш юзасидан тактик қарорлар қабул қилиб бориши лозим. Нархлар таклифларни фарқлаш, нархга сезгир мижозларни жалб қилиш ёки юқори даражадаги брендни яратиш учун ишлатилиши мумкин. Потенциал мижозларнинг тўлов қобилиятига уларнинг маҳсулот ёки хизмат қийматини идрок этиши катта таъсир кўрсатади. Нархлар стратегияси мижозларни қабул қилиш ва бизнес мақсадлари ўртасидаги тўғри мувозанатни топиш учун мазкур қабул қилинган қийматни ҳисобга олиши керак.

“Маҳсулот ёки хизматни харидорга тақдим этиш” жиҳати бир томондан, маҳсулот ёки хизматга нисбатан талаб ва таклифни мувозанатга келтириш, бошқа томондан, даромад ҳажмини оптималлаштиришни кўзда тутди. Маҳсулот ёки хизматга нисбатан талаб ва таклифни мувозанатга келтириш маркетинг тизимида нархни шакллантиришда асосий шартлардан бири ҳисобланади. Маълумки, талаб таклифдан ошиб кетганда нархлар табиий равишда ошади, таклиф талабдан ошиб кетганда эса пасаяди. Бироқ, бозорда талаб ва таклиф ўртасидаги мувозанатнинг бузилиши таъсирида нарх даражаларидаги беқарорлик кучаяди. Бу эса истеъмолчиларнинг харид қарорларига салбий таъсир кўрсатиб, сотиш ҳажмининг кескин камайишига олиб келиши мумкин. Корхона ўз даромадлари ҳажмини максимал даражада ошириш учун нархларни стратегик белгилаш орқали ўз даромад оқимларини оптималлаштириши ва молиявий мақсадларига эришиши мумкин. Бундан кўринадики, маркетинг тизимида нархларни шакллантириш зарурати бизнеснинг муваффақиятини таъминловчи муҳим дастаклар орқали намоён бўлади.

Юқоридагилардан хулоса қилиш мумкинки, ҳозирги шароитда товар ва хизматлар маркетинг тизимида истеъмолчининг эҳтиёжлари, истеъмол афзалликларини ҳисобга олган ҳолда товарларни силжитиш жараёнини самарали ташкил этиш маркетинг мазмунидаги асосий жиҳатларига тегишли равишда нархларни шакллантириш масалаларининг муваффақиятли ҳал этилишига боғлиқ ҳисобланади.

АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. «Ўзбекистон – 2030» стратегияси тўғрисида. 2023 йил 11 сентябрь, ПФ-158-сон. – www.lex.uz
2. Шулико Е.В., Ковалева И.П. Современная ценовая политика организации: теоретические аспекты. // Вестник Академии знаний №30 (1), 2019. – С.187. - <https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennaya-tsenovaya-politika-organizatsii-teoreticheskie-aspekty>
3. Цены в маркетинге: разбираемся в стратегии ценообразования. - <https://sales-generator.ru/blog/tseny-v-marketinge>
4. Цена, ценообразование, ценовая политика. - https://eor.dgu.ru/lectures_f/
5. Колдан Е.С., Иванова Л.Р. Маркетинговое ценообразование // Актуальные проблемы авиации и космонавтики, 2016. Том 2. – С.354.
6. Котлер Ф. Основы маркетинга. - <https://www.livelib.ru/book/267643/readpart-osnovy-marketinga-kratkij-kurs-filip-kotler/~6?ysclid=lvhr05w39j953380803>
7. Маркетинг / Бударина А. В. // Маниковский – Меотида. – М.: Большая российская энциклопедия, 2012. – С. 154.
8. Портрет потребителя в маркетинге – как создать психологическое описание идеального клиента? - <https://neurokit.ru/sostavlenie-portreta-tselevoy-auditorii-potrebitelya>
9. Скрипник А. 9 эффективных стратегий продвижения товара. - <https://www.business.ru/article/2621-prodvijenie-tovara?ysclid=lvj0526565690041516>
10. Муаллиф ишланмалари асосида тузилган.

Маркетинг тизимида нархларни шакллантириш зарурати

Аннотация. Мақолада нархнинг иқтисодий мазмуни ва шаклланиш механизмлари, ҳозирги замон иқтисодиёт назариясида нархнинг мазмунига нисбатан мавжуд бўлган асосий ёндашувлар, маркетинг мазмунидаги асосий жиҳатларидан келиб чиққан ҳолда нархларни шакллантиришнинг зарурати тадқиқ этилган.

Калит сўзлар: бозор механизми, маркетинг, товар ва хизматлар, сотувчи ва харидор.

Необходимость формирования цен в системе сбыта.

Резюме. В статье рассматриваются экономическое содержание и механизмы формирования цены, основные подходы к содержанию цены в современной экономической теории, необходимость ценообразования на основе основных аспектов содержания маркетинга.

Ключевые слова: рыночный механизм, маркетинг, товары и услуги, продавец и покупатель.

The need for price formation in the sales system.

Abstract. The article considers the economic content and mechanisms of price formation, the main approaches to the content of price in modern economic theory, the need for pricing based on the main aspects of the content of marketing.

Keywords: market mechanism, marketing, goods and services, seller and buyer.

СЕРВИС КОРХОНАЛАРИДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ЖАРАЁНЛАРИ САМАРАДОРЛИГИНИНГ МОҲИЯТИ ВА МАЗМУНИ

Байниязов Т.Ш.

Қорақалпоқ давлат университети

Сервис иқтисодиётининг шаклланиши ва ривожланиб бориши ривожланган бозор иқтисодиётига асосланган мамлакатларнинг ялпи ички маҳсулот таркибини ҳам ўзгаришига ўз таъсирини кўрсатмоқда. Ҳозирги вақтда муайян мамлакатни ривожланган мамлакатлар қаторига қўшиш учун яратилаётган ялпи ички маҳсулот таркибида хизмат кўрсатиш соҳаси ҳиссасининг 65 фоиздан юқори бўлиши асосий мезон ҳисобланади. XX асрнинг 50 йилларида рўй берган фан-техника инқилоби ишлаб чиқариш кучларининг сифат жиҳатидан ўзгаришига, ишлаб чиқаришнинг моддий-техника базасини тубдан янгиланишига ва халқаро меҳнат тақсимотининг чуқурлашиб боришига олиб келди. Натижада XX асрнинг 70 йилларидан бошлаб, ривожланган бозор иқтисодиётига асосланган мамлакатлар иқтисодиётининг хизмат кўрсатиш соҳасида иш билан бандлар сони ўсиб борди. Сервис иқтисодиётида ишлаб чиқаришнинг асосий омили бўлиб, билим ва ахборотлар муҳим аҳамиятга эга бўла бошлади. Ҳозирги даврда дунё мамлакатлари ижтимоий-иқтисодий тараққиёти ўзининг маъно ва мазмуни жиҳатидан олдинги босқичларидан кескин фарқ қилади. Иқтисодий ўсишнинг янги талқини жаҳон иқтисодиёти фанида замонавий, концептуал ёндашувларни зарурат этмоқда. Хусусан, сервис иқтисодиётида самарали фаолият индустриал фаолиятга нисбатан бирмунча кенгрок тадқиқ этилгандики, бунда биринчи навбатда ижтимоий йўналтирилган фаолият жамиятда аҳоли турмуш даражаси ва сифатини таъминлашга қаратилганлиги билан изоҳланади.

Саноат ривожланишидан кейинги босқичда сервис иқтисодиётининг ривожланиб бориши билан тавсифланадиган самарали фаолият мазмунида бир қатор ўзига хос жиҳатларини келтириш мумкин. Шунингдек, Г.Федьконинг ёндашувига назар солсак, сервис иқтисодиётининг ривожланишида куйидаги хусусиятларни алоҳида ажратиш кўрсатиш унинг мазмуни ва тавсифини янада аниқлаштиради [1]: 1. Сервис иқтисодиётида хўжалик юритувчи субъектлар биринчи навбатда самарадорликни оширишга, яъни миқдорларнинг хусусий (маҳсус) талабларини тўлиқроқ қондиришга ўз эътиборларини қаратадилар. Индустриал иқтисодиётда эса диққат эътибор кўпроқ товар-маҳсулотларни максимал ишлаб чиқаришга қаратилади. 2. Сервис иқтисодиётда фойдалилик тушунчаси товарлардан фойдаланиш характери билан бир хил бўлиб, бунда моддий маҳсулотлар ва хизматлар тизимининг қанчалик такомиллашганлигини белгилайди. Индустриал иқтисодиётда эса фақат маҳсулотнинг моддий томони эътиборга олинади. 3. Сервис иқтисодиётда сифат асосида ишлаб чиқарувчининг истеъмолчини максимал эҳтиёжини қондиришга бўлган муносабатини доимо назорат қилиш ва белгилаш лаёқати тушунилади. Индустриал иқтисодиётда эса сифат асосида фақат фаолият юритувчининг “ўз ишини яхши бажариш” қобилияти тушунилади. 4. Сервис иқтисодиётида менеджмент тизими ҳам ўзгариб боради. Унинг асосий хусусияти сифатида егилувчанлик, тезлик билан қарорларни қабул қилиш, ташкилий жиҳат, эркин ҳаракат қилиш ва ошқоралик ҳисобланса, индустриал иқтисодиётда эса менеджмент “механик” хусусиятга эга, яъни тузилмаларнинг поғонали ва уларнинг ортқ даражада тартибга солиши билан аниқланади. 5. Сервис иқтисодиётида асосий эътибор сервис тизими шаклланишининг самарадорлигига қаратилса, индустриал иқтисодиётда эса хомашёни тайёр маҳсулотга айланишига асосий эътибор қаратилади. Юқоридагилардан ҳулоса қилиш мумкинки, сервис иқтисодиётида самарали фаолият юритиш анъанавий (индустриал) иқтисодиётдаги самарали фаолиятдан тубдан фарқ қилади ва у кўпроқ ижтимоий йўналтирилганлик хусусиятига эга. Шундай экан, ривожланган бозор иқтисодиётига асосланган мамлакатларда сервис иқтисодиётини ривожланиб бориши ижтимоий иқтисодий тараққиётни янгилаш тушунишга олиб келмоқда. Хусусан, нафақат миқдорий ўсиш суръати, балки ижтимоий кўрсаткичлар, ҳаёт сифати кўрсаткичлари унда асосий аҳамият касб этмоқда. Бундай шароитда самарали фаолият деганда жамият аъзоларининг эҳтиёжларини, биринчи навбатда ижтимоий йўналтирилган мақсадларни қондиришга қаратилиши тушунилади. Индустриал иқтисодиётда кўпроқ миқдорий, иқтисодий ва устивор мақсадлар назарда тутилади. Сервис иқтисодиётининг юқорида таъкидланган хусусиятларини инобатга олган ҳолда унинг индустриал иқтисодиётдан фарқ қилувчи асосий жиҳатлари куйидаги 1-жадвалда келтирилган.

1-жадвал. Индустриал ва сервис иқтисодиётининг фарқ қилувчи асосий белгилари [2]

Асосий белгилар	Иқтисодиёт турлари	
	Индустриал иқтисодиёт	Сервис иқтисодиёти
Иқтисодиётнинг етакчи тармоғи	Саноат	Хизмат кўрсатиш
Ишлаб чиқаришнинг асосий ресурси	Капитал	Билим ва ахборотлар
Иқтисодий ўсиш мазмуни	Миқдорий (оммавий ишлаб чиқаришнинг миқдорий кўрсаткичлари билан ўлчанади)	Сифатли, ижтимоий йўналтирилганлиги (турмуш сифати кўрсаткичи билан ўлчанади)
Самарали фаолият йўналиши	Минимал сарфлар ҳисобига максимал оммабоп маҳсулотлар ишлаб чиқариш имконияти	Жамиятда турмуш сифатини ошириш, ижтимоий мақсадларга йўналтирилган эҳтиёжларни максимал даражада қондириш имконияти

Умуман, сервис иқтисодиётининг назарий асосларини қўриб чиқиш орқали, шуни қайд қилиш лозимки, ривожланган бозор иқтисодиётли мамлакатларда рўй бераётган хўжалик юритиш шароитларини ўзгариши самарали фаолият категориясини кенгрок ташкил этишни талаб этади.

Хизмат кўрсатиш соҳаси бир қатор ўзига хос хусусиятларга эга бўлиб, уларнинг таҳлили сервис корхоналарига макроиктисодий тебранишлар ва тегишли бозорларда рақобатнинг кучайиши натижасида уни камайитириш билан реал ҳаётдаги муаммоларни бартараф этишга қаратилган самарадорликни ошириш воситалари ва механизмларини ишлаб чиқишда ёрдам беради. Ушбу хусусиятлар хизмат кўрсатиш соҳасининг рақобатдош устунликлари сифатида кўриб чиқиши керак, бунинг асосида кенг қўламли бошқарув вазифаларини, шу жумладан хизмат кўрсатиш жараёнлари самарадорлигини баҳолаш ва ошириш билан боғлиқ вазифаларни ҳал қилиш мумкин. “Самарадорлик” тушунчаси фан ва амалиётнинг турли соҳаларида кенг қўлланилади. Бу концепция иктисодиётнинг анча мураккаб категорияси бўлиб, қабул қилинган қарорлар аҳамиятининг миқдорий мезонларини шакллантириш учун асос бўлиб хизмат қилади ва хизмат кўрсатиш жараёнлари билан чамбарчас боғлиқ ҳолда ишлаб чиқарувчи кучлардаги табиий ўзгаришлар жараёнини акс эттиради. Ҳозирги вақтда самарадорликнинг моҳиятини аниқлаш долзарбдир, чунки бу нафақат кўрсаткичлар ва самарадорлик мезонларини танлашга, балки уни яхшилаш йўлларига ҳам таъсир қилади.

Таъкидлаш керакки, самарадорлик ягона умумий қабул қилинган таърифга эга бўлмаган кенг мазмунга эга бўлган умумий иктисодий тушунчалардан биридир. Замонавий иктисодий луғатда самарадорлик энг кам харажатлар билан маълум натижаларга эришиш ёки маълум миқдордаги ресурслардан максимал мумкин бўлган маҳсулот ҳажмини олиш деб тушунилади. Ривожланган бозор иктисодиёти мамлакатларда сервис иктисодиётининг шаклланиши билан фаолият самарадорлигини баҳолаш масалалари тадқиқотига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бунинг учун биринчи навбатда самарадорлик тушунчасига ва унинг таърифига эътибор бериш мақсадга мувофиқ. Самарадорлик тушунчаси мураккаб тушунча эканлигини эътироф этиб, илмий адабиётларда (efficiency – инглизча) бир нечта таржимавий талқинга эга бир мунча кенг тарқалган “efficiency” иборасини самарадорлик, ҳаракатчанлик, маҳсулдорлик, ҳаракатчанлик қобилияти, оперативлик [3] каби тушунчалар билан изоҳлаш мумкин. Ҳозирги вақтда самарадорликни кўплаб таърифлари нафақат иктисодиёт фанларида, балки бошқа фанларда ҳам келтирилган. Иктисодиёт фанларида “самарадорлик” тушунчаси кенг ва тор маънода талқин қилинади.

Кенг маънода “самарадорлик” тушунчаси – атроф муҳитга самарали ва адекват ёндашув қобилияти [4], нисбий самара, операциялар ва лойиҳалар [5] сифатида талқин қилинади.

Самарадорлик моҳиятини аниқлашнинг юқорида таърифини қарайдиган бўлсак, унинг бир қанча ресурслари мавжудлигини кўришимиз мумкин. Чунки бу тушунча бир қанча мезонлар, хусусиятлар орқали ифодаланиши мумкин. Шунингдек, самарадорлик категорияси истёмолини қондириш сифатида ҳам, ишлаб чиқаришнинг мақсадга мувофиқлиги сифатида ҳам, корхоналарнинг самарали шаклланиши сифатида ва ҳақозо кўринишларда намоён бўлади. Самарадорлик тушунчаси конкрет тор маънода потенциал ва реал фаолиятлар натижасининг комплекс таснифи бўлиб, бунда асосий эътибор фаолият бўйича олинган натижаларга қаратилади. Бизнинг фикримизча, юқорида келтирилган таърифлар “самарадорлик” моҳиятининг қуйидаги асосий жиҳатларини ифодалайди: биринчидан самарадорлик мураккаб ижтимоий-иктисодий категория бўлиб, у бир ёки бир неча мезонлар асосида аниқланади. Иккинчидан, самарадорлик нисбий тушунча бўлиб, у ҳар доим муайян мақсадлар фаолиятига бўйсунди. Яъни самарадорликни баҳолаш бош мақсадлар асосида фаолиятларни тавсифлайди. Самарадорлик масалалари бўйича узок хорижий ва МДХ мамлакатлари олимлари томонидан турли илмий изланишлар ва тадқиқотлар олиб борилган ҳамда ушбу масалада турлича қарашлар шаклланган.

С.И.Ожеговнинг луғатида “самарали” тушунчаси “самара берувчи ҳаракат” сифатида талқин қилинади ва “самара” тушунчаси бирор нарсанинг натижаси, бирор нарсанинг оқибати сифатида таърифланади [6]. А.Б.Борисовнинг ёндашувига кўра, самарадорлик – “самара, натижа ва унинг пайдо бўлишини намоён этувчи харажатлар нисбати билан белгиланадиган жараён, лойиҳа, операция натижадорлиги” [7] деб изоҳланган.


И.Э.Ташбаев ва Л.Б.Миротин таъкидлаганидек, “самарадорлик – бу натижага эришишнинг кўрсаткичи, ташкилотнинг тизим мувозанатини сақлаш учун етарли бўлган миқдорда самарали рағбатлантириш қобилиятидир”. Самарадорлик деганда, муаллифлар тизимга юкланган муаммони ҳал қилишнинг тўлиқлиги ва сифати мезонини, шунингдек, тизим томонидан унинг ролини бажаришини тушунадилар [8, 480]. А.В.Карповнинг фикрича, “Самарадорлик, аввало, корхона фаолиятининг сифат жиҳатларини тавсифловчи тушунчадир. У “самара” тоифасидан келиб чиқади ҳамда унга қараганда мураккаб ва комплекс тавсифга эга. Самарадорлик чора сифатида кўплаб техник, иктисодий, лойиҳа ва ҳўжалик қарорларини аввалдан белгилаб беради. Корхона ўзининг ҳўжалик, илмий-техник ва инвестицион сиёсатини белгилашда самарадорликдан келиб чиқади” [9]. Мамлакатимизнинг етук олимлари ҳам самарадорлик масаласи бўйича ўзларининг қарашларини баён қилганлар. Хусусан, академик Қ.Х.Абдурахмонов томонидан қуйидагича таъриф берилади: “самарадорлик тушунчаси ниҳоятда кенг тушунчадир, у олинган самаранинг сарфларга нисбатини акс эттиради” [10], А.Ўлмасов, А.Ваҳобов томонидан: “самарадорлик ресурс сарфлари билан ишлаб чиқаришдан олинган натижанинг таққосланишини билдиради, яъни, бу нима сарфлаб нимага эришганлигини кўрсатади” [11], Қ.Ж.Мирзаев, М.Қ.Пардаев томонидан: “мулк шаклидан қатъий назар, барча мавжуд ресурслардан самарали фойдаланиш ва харажатларнинг тежамкорлигини таъминлаш эъзига жамият, давлат, мулкдор, корхона, ишчи кучи соҳиби каби субъектларнинг манфаатлари муштараклигини таъминлашга қаратилган улар ўртасидаги иктисодий муносабатлар мажмуи” [12], деб таъриф берилади. Б.А.Абдукаримов, М.Қ.Пардаев томонидан эса: “самарадорлик – бу содир бўлаётган бирор иктисодий жараённинг қандай натижа билан якунланганини ифодалайди” [13] деб изоҳ берадилар. Ушбу берилган таърифда самарадорлик тушунчасига иктисодий нуқтаи назардан ёндашилиб, самарадорлик фақат бирор-бир иктисодий жараёнда вужудга келади,

деган фикрни илгари сурадилар. Бизнинг фикримизча, самарадорлик нафақат иқтисодий жараённинг якунидаги ҳолати, балки ижтимоий натижанинг эришилган даражаси ҳамдир.

Самарадорлик тушунчаси тавсифини тор ва кенг маънога бўлиб, тор маънода: потенциал ва реал фаолиятлар натижасининг комплекс таснифи, кенг маънода: атроф-муҳитга самарали ва адекват ёндашув, ресурслардан унумли фойдаланиш сифатида талқин қилиш мумкин. “Самарадорлик” тушунчаси моҳиятидан келиб чиққан ҳолда, унинг асосий жиҳатларини ифодалаймиз, бунда: биринчидан, самарадорлик мураккаб ижтимоий-иқтисодий категория бўлиб, у бир ёки бир неча мезонлар асосида аниқланади; иккинчидан, у ҳар доим муайян мақсадлар фаолиятига бўйсунди, яъни, самарадорликни баҳолаш бош мақсадлар асосида фаолиятларни тавсифлайди. Шундай қилиб, самарадорлик нисбий тушунчадир [14]. Мазкур тушунча ҳақида фикр юритилганида бир неча ҳолатлар таққосланади. Масалан, иқтисодий назарияда – иқтисодиётдаги бирон-бир манфаат билан боғлиқ бўлган фаровонлик даражаси таққосланади. Гап шундаки, жамият фаровонлиги барча жамият аъзоларининг манфаатларини тўғридан-тўғри умумлаштириш натижасидир.


Юқорида келтирилган таърифларни ҳисобга олган ҳолда, бизнинг фикримизча, “самарадорлик” категориясини қуйидагича талқин этамиз: **самарадорлик** – бу муайян даврда ҳўжалик юритувчи субъектлар ривожланишининг ижобий динамикасини тавсифловчи нисбий кўрсаткич сифатида натижа (самара)нинг уни олишга қилинган харажатларга нисбатини ифодаловчи комплекс ижтимоий-иқтисодий тушунчадир.

Бошқарув назариясига асосланган адабиётларда самарадорликнинг моҳиятини аниқлашда мақсадли, тизимли ва селектив ёндашувларига кўпроқ эътибор қаратилади. Бизнинг фикримизча, ушбу ёндашувларнинг ҳар бири ўзининг афзалликлари ва камчиликларига эга. Шунинг учун бу ёндашувларни ўзаро бирлаштириш бир қатор ижобий натижаларга олиб келиши мумкин (1-расм)



1-расм. Бошқарув назариясига мувофиқ “самарадорлик” категориясини аниқлашга ёндашувлар

Шу билан бирга, жаҳон иқтисодиёти фанидаги қарашларни умумлаштирсак, ҳўжалик юритувчи субъектларни самарали фаолияти деганда иқтисодий ва сиёсий кўрсаткичларнинг умумийлиги тушунилади. Шунинг учун ҳам унга нисбатан умумлаштирувчи тушунча – ижтимоий ва иқтисодий тушунча мос келади. Бу тушунча самарадорликни икки томонлама кўринишини, яъни миқдорий ва сифатий жиҳатларини акс эттиради (2-расм).



2-расм. Хўжалик юритувчи субъектларнинг самарадорлиги

Бизнинг фикримизча, сервис иқтисодиёти шароитида самарали фаолиятнинг янгича мазмунини қуйидагича ифодалаш мумкин: фаолият самарадорлиги самарадорлик тушунчасининг моҳияти ёки мазмуни билан ўлчанмайди, балки ижтимоий самарадорликни ташкил қилувчи кўрсаткичлар орқали белгиланади. Бу кўрсаткичлар иқтисодий самарадорликни белгилловчи кўрсаткичларга нисбатан кенгроқ мазмунга эга. Самарадорликни ташкил этувчи сифат ҳолатларини ўзгариши ҳўжалик юритувчи субъектлар фаолиятини самарадорлигини баҳолаш заруратини келтириб чиқаради. Шу билан умумий қабул қилинган нуқтаи назарга кўра, ижтимоий самарадорликни аниқ миқдорий ўлчовга тушириб бўлмайди. Шундай қилиб, анъанавий тарзда

самарадорлики фақат иқтисодий табиатини акс эттириш мумкин, унинг ижтимоий ва ижтимоий-иқтисодий жиҳатларини миқдорий мезонлар билан ўлчаш мураккабдир. Мамлакатимиз иқтисодиёти ривожланишининг ҳозирги босқичида сервис хизматлари сони ва сифатига қўйилаётган талаблар ошиб бормоқда. Шу сабабли хизматлар бозоридаги чуқур рақобат шароитида сервис корхоналарида хизматларни кўрсатиш жарани самарадорлигини тадқиқ этиш ва уни ошириш масалалари долзарб бўлиб бормоқда.

Бизнинг фикримизча, самарадорлик ишлаб чиқариш (хизмат кўрсатиш)нинг фақат такрор ишлаб чиқариладиган моддий ресурслардан фойдаланиш самарадорлигидир, чунки фақат такрор ишлаб чиқариладиган ресурслар буюмлашган меҳнатни фойдалайди.

АДАБИЁТЛАР

1. Федько Н.Г. Основы маркетинга / В.П.Федько, Н.Г.Федько. – Ростов н/Д: Феникс, 2002. – С. 23-24.
2. Рубцова Н.В. Оценка эффективности сервисной деятельности. // дисс. канд. наук. – М.: 2007. – С. 19.
3. Мюллер Д.К. – Англо-русский словарь М.: «Русский язык» 1992. –С. 233-234.
4. Кравченко С.А. Социально-экономический русско-английский словарь –М.: Астрель, 2004. –С. 511.
5. Борисов А.Б. Большой экономический словарь/А.Б. Борисов – М.: Книжный Мир, 1999. –С. 825.
6. Ожегов, С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка: 80 000 слов и фразеологических выражений / Российская академия наук. Институт русского языка им. В.В. Виноградова. – 4-е изд., дополненное. – М.: ООО «ИТИ Технологии», 2007. – 944 стр. – ISBN 978-5-902638-11-7.
7. Борисов, А.Б. Большой экономический словарь / А.Б. Борисов. – М.: Книжный мир, 2005. – 860 с.
8. Миротин, Л.Б. Системный анализ в логистике / Л.Б. Миротин, И.Э. Ташбаев: учебник. – М.: Изд-во «Экзамен», 2002. – 480 с.
9. Карпов А.В. “Психология менеджмента” (учеб.пособие). – М.: “Гардарики”, 2000.
10. Абдурахмонов Қ.Х. “Меҳнат иқтисодиёти”. Т.: “Меҳнат”, 2004. - 398 б.
11. Ўлмасов А., Вахобов А. “Иқтисодиёт назарияси” (Дарслик) (тўлдирилган ва қайта ишланган наشري). Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2014. – 41 б.
12. Мирзаев Қ.Ж., Пардаев М.Қ. “Хизматлар соҳаси иқтисодиёти”. Ўқув қўлланма. Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2014. –112 б.
13. Абдукаримов Б.А., Пардаев М.Қ. “Корхонанинг иқтисодий салоҳияти таҳлили”. СамИЦИ, 2007. - 154 б.
14. Абдурахмонов Қ.Х. “Меҳнат иқтисодиёти”. Т.: “Меҳнат”, 2004. - 398 б.

Сервис корхоналарида хизмат кўрсатиш жараёнилари самарадорлигининг моҳияти ва мазмуни

Резюме: Ушбу мақолада сервис корхоналарида хизмат кўрсатиш жараёнилари самарадорлигининг моҳияти, сервис иқтисодиётининг ривожланишидаги хусусиятлари, индустриал ва сервис иқтисодиётининг фарқ қилувчи асосий белгилари, шу жумладан, хизмат кўрсатиш жараёнилари самарадорлигини баҳолаш ва ошириш билан боғлиқ вазифаларига асосланган.

Калит сўзлар: Сервис иқтисодиёти, ялпи ички маҳсулот, хизмат кўрсатиш соҳаси, ишлаб чиқариш.

Сущность и содержание процессов оказания услуг на сервисных предприятиях

Аннотация: Данная статья основана на задачах, связанных с «оценкой и повышением эффективности процессов оказания услуг на сервисных предприятиях, особенностями развития сервисной экономики, отличительными ключевыми признаками индустриальной и сервисной экономики, в том числе.

Ключевые слова: Экономика сервиса, валовой внутренний продукт, сфера услуг, производство.

The essence and content of the effectiveness of service surgical procedures in service enterprises

Abstract: This article is based on tasks related to "assessing and improving the efficiency of the processes of providing services at service enterprises, the peculiarities of the development of the service economy, the distinctive key features of the industrial and service economy, including.

Keywords: Service economy, gross domestic product, service sector, production.

УДК: 33.4.06/1

О НЕКОТОРЫХ РИСКАХ В МЕЖДУНАРОДНОЙ ТОРГОВЛЕ

Баратов М.Х., Хакимов Р.Т., Акрамходжаев Б.Т.

Институт государства и права АН РУз

Риски, связанные с экспортом и импортом, особенно важно прорабатывать, заключая международный контракт. Они присущи всем торговым операциям. Более того, в международной торговле существуют еще и дополнительные риски, о которых речь пойдет ниже.

Риски продукта. Риски продукта – это риски, которые продавец автоматически должен принять как неотъемлемую часть своих обязательств. Во-первых, это вопрос самого продукта или согласованной поставки; например, определенные гарантии производительности или согласованные обязательства по техническому или сервисному обслуживанию. Существует множество примеров того, как новые и неожиданные условия работы в стране покупателя привели к снижению производительности поставляемого товара. Это может быть небрежность в отношении рабочих процедур или ограничений, небрежное обращение или отсутствие текущего обслуживания, а также ущерб, вызванный климатическими или экологическими причинами [1]. Подобные вопросы вполне могут привести к возникновению споров между сторонами после подписания контракта и увеличению стоимости поставки в целом. Для продавца важно, чтобы договор и, в частности, условия оплаты были сформулированы таким образом, чтобы любые такие изменения, которые прямо или косвенно вызваны действиями покупателя или происходят внутри его страны, автоматически включали компенсацию или соответствующие изменения в обязательствах продавца. Это может быть с точки зрения экономики, учёт первоначально согласованных сроков или иных обстоятельств. Само собой разумеется, что эти риски становятся еще более сложными, когда речь идет о целых проектах или более крупных и сложных контрактах.

Они часто выполняются в течение более длительных периодов времени и включают в себя гораздо больше возможных комбинаций взаимосвязанных обязательств между коммерческими сторонами, причем не только между продавцом и покупателем, но также часто с участием других сторон в стране покупателя, как коммерческих, так и политических.

XVIII асрнинг маърифат даври кўпинча бағрикенглик руҳи билан таъминланган. Бу рационалистик типдаги жуда хавфли яқобин ақидапарастлигини келтириб чиқарди. Бу даврда толерантликнинг асосий намоёндаларидан бири Волтер эди. У биз бошқаларнинг қарашлари ва эътиқодларига қўшилмаслигимиз мумкин, аммо биз ҳар кимнинг фикр билдириш ҳуқуқини ҳурмат қилишимиз кераклигини айтди. Бу ҳукм бағрикенгликнинг классик назариясини очиб беради. Аслида, ҳар қандай фикр ёки эътиқод, хоҳ у диний, хоҳ сиёсий ёки маданий бўлсин, агар биз ишонадиган ғояларнинг ҳалоллигига ва биз эътироз билдираётган қарашларнинг ёлғонлигига шубҳа қолмаса, мурасасизликка олиб келиши мумкин. Сиёсий эркинлик дегани, биз сиёсий рақибларимизга янги ҳукуматни ташкил этиш, сайловолди ташвиқоти ва тузиш имкониятини бериш учун етарлича ишонишимизни аंगлатади. Иқтисодий эркинлик рақобатдош иқтисодий манфаатларга тоқат қилишда ифодаланади. Рақобат янада баркамол жамоанинг шаклланишига олиб келади ва шахслар ва ижтимоий гуруҳларнинг ташаббусини фаоллаштиради. Бошқа миллат вакилларига нисбатан бағрикенглик, биз фарқлар остида яширинган ўхшашликларнинг мавжудлигини қабул қилишимизни аंगлатади. Масалан, биз одамларнинг маълум гуруҳлари бутун инсониятга тегишли эканлигини қабул қиламиз. Фикри, қизиқиши ва ҳулқ-атвори бизникдан фарқ қиладиган одамларга нисбатан бағрикенглик ҳақиқатнинг оддий бўлиши мумкин эмаслигини, унинг юзлари кўплигини ва унга нисбатан бошқа қарашлар мавжудлигини тушунишни талаб қиладди. Ҳақиқатнинг турли томонларини тушуниш ёки бугунги кунда биз ишонадиган ҳақиқатларнинг чегараларини тушуниш қобилияти барча билимларга дуч келадиган қийинчиликларни оқилона ва сабрли таҳлил қилиш жараёнидан келиб чиқади.

"Толерантлик" атамаси лотинча «толоро» феълидан келиб чиққан - "чидамоқ", "ушлаб турмоқ". Бу феъл бирор нарсани қўлда "қўтариш" ёки "ушлаш" керак бўлган ҳолларда ишлатилган. Бунда, одам бу нарсани ушлаб турганда ёки ҳаракатлантирганда, у азоб-укубатларни бошдан кечириши, қаттиқ ҳаракат қилиши ва чидаши керак эди. Аммо "толерантлик" унинг инглизча талқинидан олинган - бағрикенглик атамасида кўпроқ қўлланилади, бу ерда бағрикенглик билан бирга "рухсат бериш" деган маънони ҳам англатади.

Иккала талқинни солиштирганда, биз ушбу атама ўлчов ғоясини ифодалаш учун ишлатилганлигини кўрамиз, бу бошқа шахс ёки ҳодисага тоқат қилиш чегараси, ҳатто улар тушунарсиз бўлса ҳам, хайратда қолиш, рад этиш ёки қаршилик кўрсатиш. XIX асрда "бардош" феъли кўп маънога эга бўлган: бардош бермоқ, азобланмоқ, кучланмоқ, чидамоқ, бирор нарсани кутиш, рухсат бермоқ, бўшашмоқ, шошмаслик, ҳайдамаслик ва ҳоказо. Аммо, ноаниқликка қарамай, "бағрикенглик" тоифаси тафаккур мазмунига, пассив йўналишга эга.

Ушбу атаманинг худди шундай таърифи замонавий луғатларда сақланиб қолган. Рус тилининг тушунтириш луғатида Д.Н. Ушаковнинг сўзларига кўра, "бағрикенглик" атамаси "толерантлик" тушунчаси билан тўлиқ бирлашди [4; 456]. "Хорижий сўзлар ва иборалар луғати" да бу атама "бошқаларнинг фикри, эътиқоди, хулқ-атвориға нисбатан бағрикенглик, бирор нарсага ёки кимгадир нисбатан камситиш" сифатида ҳам тавсифланади [3; 309]. Чет эл сўзлари луғати қуйидаги семантик юкни ўз ичига олган "бағрикенглик" таърифини таклиф қилади: "бошқа одамларнинг эътиқодлари ва ҳаракатларини тан олиш ёки амалий тан олиш ва ҳурмат қилиш қобилияти". Ўзаро муносабатларнинг уйғунлиги, биринчи навбатда, субъектларнинг бир-бирига ҳурмати, бироқ, малталиқ тадқиқотчи К. Уейн таъкидлашича, бу ерда "толерантлик" таърифи етарлича тўлиқ эмас, чунки, "бағрикенглик нафақат бошқа одамларнинг эътиқодлари ва ҳатти-ҳаракатларини тан олиш ва ҳурмат қилиш, балки биздан фарқ қиладиган "бошқа одамлар" нинг ўзини ҳам тан олиш ва ҳурмат қилишдир». "Бошқалар" да ҳам индивидлар ҳам, шахслар ҳам ўзлари мансуб бўлган этник гуруҳларнинг вакиллари сифатида тан олинади [5; 28]. Масалан, Б.З.Вульфов бағрикенгликни инсоннинг (ёки гуруҳнинг) дунёқараши ва турмуш тарзи турлича бўлган бошқа одамлар (жамоалар) ёнида бўлиш қобилияти деб тушунган. Бу қобилият ҳар бир инсонда шаклланади инсон ижтимоий мавжудот сифатида, ҳар бир жамоада, донмо бошқа жамоалар билан "алоқада" бўлади [1; 12]. Кўп миллатли ва кўп динли давлат учун бу айниқса муҳимдир, чунки мурасасизлик объекти - муайян этник гуруҳлар ва конфессиялар, этник гуруҳлар ва умуман динлар вакиллари. "Сиёсий энциклопедия" да қуйидаги таъриф берилган: "Бағрикенглик умуман заифлик эмас, балки уни намоён қилувчи томон учун кучли, объектив ижобий ва фойдали сифатдир" [3; 234].

Психологик адабиётларда бағрикенгликнинг бироз бошқача таърифи берилган, жумладан, "Катта изоҳли психологик луғат"да бағрикенгликка бир нечта маънолар берилган. Бир томондан, бағрикенглик "бошқа бировнинг хулқ-атвори, эътиқоди ва қадриятларини либерал қабул қилишни ўрнатиш" деб тушунилади. Бошқа томондан, бағрикенглик "стрессга жиддий зарар етказмасдан тоқат қилиш қобилияти" деб тушунилади [3; 135]. Шундай қилиб, "бағрикенглик" атамасининг этимологиясини тушунишга уринишларга турли хил ёндашувларни таҳлил қилиб, биз ушбу тоифа стрессга, атроф-муҳитнинг зарарли таъсирига қарши туриш қобилиятини ва бошқа одамнинг ҳатти-ҳаракатидан ўз ғазабини билдириш учун ишлатилганлигини кўрамиз.

И.Б. Гриншпун "бағрикенглик" тушунчасининг қуйидаги талқинларини эслатиб ўтади: улардан бири атроф-муҳитнинг асабий таъсирида (ҳақиқий ёки потенциал) ўз-ўзини тартибга солиш қобилиятидан иборат бўлган индивидуал хусусиятни (барқарор ёки вазиятни) белгилаш учун ишлатилади; иккинчиси - бошқа бировнинг ҳаракатларидан нисбий мустақилликда очиқлик асосида бошқа шахсга нисбатан тажовузкор бўлмаслик қобилиятини кўрсатиш. Биринчи ҳолда, асосий эътибор ўз-ўзини сақлаш қобилиятига, иккинчисидан - ўзаро таъсир ўтказишга тайёрликка қаратилади [1; 67]. О.А. Грива бағрикенгликни "индивиднинг психо-эмоционал барқарорлиги ва унинг турли соҳаларда бошқаларга нисбатан бағрикенг муносабати" деб тушунади. Унинг замонавий фалсафий таърифи бағрикенглик тушунчасининг илгари тасвирланган кўплаб талқинларига ўхшайди. "Фалсафий энциклопедик луғат"да бағрикенглик этник, миллий ёки маданий мансублигидан қатъи назар, бошқа одамларга нисбатан бағрикенглик, бошқа одамларнинг қарашлари, ахлоқи, одатларига нисбатан бағрикенглик, турли маданий гуруҳлар ва уларнинг хусусиятларига нисбатан зарур бўлган бағрикенглик сифатида тавсифланади [3; 234]. А.М. Байбаков бағрикенглик тушунчасига худди шундай таъриф беради. Унинг айтишича, "бағрикенглик – субъектнинг умуминсоний ҳуқуқ ва эркинликлари доирасида рақобатдан қочмасдан, ўз позицияларига ишонч асосида бошқа нуқтаи назар мавжудлигини, маданий фарқлар хилма-хиллигини тан олиш қобилиятидир. Индивидуал ва шу билан бирга шахс шахсиятининг индивидуаллигининг барқарорлигини таъминлаш (яъни ўз тамойилларидан воз кечишга имкон бермайди) ва жамиятда шахснинг уйғун ривожланиши" [2, 73].

Фалсафий йўналишнинг вакиллари "бағрикенглик" атамасининг бир нечта мумкин бўлган талқинларини тақдим этади. Биринчидан, у "бағрикенгликни бефарқлик" деб таърифлайди. Шу нуқтаи назардан, ҳақиқатни исботлаб бўлмайдиган фикрлар мавжудлиги тахмин қилинади (диний қарашлар, турли маданиятларнинг ўзига хос қадриятлари, махсус этник эътиқодлар ва бошқалар). Иккинчидан, у "бағрикенглик ўзаро тушунишни мумкин эмаслиги" ҳақида гапиради, яъни бағрикенгликнинг намоён бўлиши бошқа шахсни ҳурмат қилиш билан чегараланади, ҳатто уни тушунишнинг иложи бўлмаса ҳам у билан мулоқот қилиш мумкин эмас.

"Бағрикенглик" ўз маданиятининг инсон онгида имтиёзли мавқеини англатади, шунинг учун бошқалар заифроқ деб баҳоланади: уларга тоқат қилиш мумкин, лекин айни пайтда нафратланади. Бу толерантликни аниқлашнинг учинчи усули. Тўртинчидан, бағрикенглик "ўз тажрибаси ва танқидий мулоқотни кенгайтириш" деган маънони англатади. Ҳар бир маданият, қадрият ва когнитив тизим нафақат бошқа тизим билан курашга

киришади, балки бошқа тизим тажрибасини ўзлаштиради ва шу билан ўз тажрибасининг чегараларини кенгайтиради.

Илмий тадқиқотлар талқинига кўра, ҳар бир инсоннинг ўзига хослиги бор, у ўзгариши ва ривожланиши, сезиларли даражада ўзгариши мумкин. Бу муаммо, айниқса, ижтимоий ва маданий дунёда содир бўлаётган энг мураккаб жараёнлар кўпинча индивидуал ўзига хослик инкирозини келтириб чиқарадиган бизнинг давримизда кескин ўзига хослиқнинг ривожланиши фақат бошқа одамлар билан доимий мулоқот қилиш, бошқа нуқтаи назарлар, принциплар, позициялар билан мулоқот қилиш, бу бошқа позицияларни тушуниш ва ўз-ўзига бошқа нуқтаи назардан қараш имконияти шароитида юз бериши мумкин. Чунки, муносабатлар диалектикасини ривожлантиради ("Мен ўзим учунман", "Мен бошқаси учун", "Бошқаси мен учун" ва бошқалар). Демак олимлар фикрига кўра, «турли маданиятлар ўртасидаги муносабатлар ҳам диалогикдир», ушбу диалогизмнинг даражаси ва ундан ҳам кўпроқ хабардорлиги турли маданиятлар ва бир хил маданият ривожланишининг турли босқичлари учун жуда фарқ қилиши мумкин.

АДАБИЁТЛАР

1. Асаматдинова Ж. Технологии формирования ценностной ориентации учащихся на основе их нравственно-эстетического воспитания. Монография. ISBN 978-9943-4648-8-9, Ташкент, 2016. - С.167.
2. Байбаков, А.М. Введение в педагогику толерантности: учеб. – метод. пос. для педагогов и студентов [Текст] / А.М. Байбаков. – Волгоград: Изд. - во ВГИПК РО, 2002. – 12 с.
3. Словарь иностранных слов и выражений [Текст]. – М.: Мысль, 1998. – 605 с.
4. Толковый словарь русского языка: в 4 т. [Текст] / под ред. Д.Н. Ушакова. – М.: Рус. словари, 1994. – 598 с.
5. Уэйн, К. Образование и толерантность [Текст] / К. Уэйн // Высшее образование в Европе. – 1997. – № 2. – С. 14– 28.
6. Хеффе, О. Плюрализм и толерантность: к легитимации в современном мире [Текст] / О. Хеффе // Философские науки. – 1991. – № 12. – С. 16–28.

Талабаларнинг миллатлараро мулоқотида толерантлик маданияти феномени педагогик муаммо сифатида

Резюме: мақолада жамиятдаги бағрикенглик муаммоси, унинг дунё тилларидаги таснифи, адабиётлардаги таҳлили, аҳамияти ва йўналиши, маданий ва тарихий ёндашувларга асосланган қарашлар, талабаларда миллатлараро мулоқотда толерантлик муносабатларни ривожлантириш заруриятлари кўрсатилган. Шунингдек, турли этник гуруҳлар, сиёсий ва ижтимоий-маданий ташкилотлар турли жиҳатларда кўриб чиқилади.

Таянч тушунчалар: диний бағрикенглик, сиёсий бағрикенглик, эътиқод, ҳуқ-атвор.

Феномен культуры толерантности в межнациональном общении студентов как педагогическая проблема

Резюме: в статье отражена проблема толерантности в обществе, ее классификация на языках мира, анализ, значение и направление в литературе, взгляды, основанные на культурных и исторических подходах, необходимость развития толерантных подходов в межнациональном диалоге у студентов. Также в разных аспектах рассматриваются различные этнические группы, политические и социокультурные организации.

Ключевые слова: религиозная толерантность, политическая толерантность, убеждения, равнодушие.

Phenomenon of tolerance culture in interethnic communication of students as a pedagogical problem

Abstract: the article reflects the problem of tolerance in society, its classification in the languages of the world, analysis, significance and direction in the literature, views based on cultural and historical approaches, the need to develop tolerant approaches in interethnic dialogue among students. Also, different ethnic groups, political and socio-cultural organizations are considered in different aspects

Key-words: religious tolerance, political tolerance, beliefs, indifference.

ИЖТИМОЙ-АХБОРОТ КОМПЕТЕНТЛИГИНИНГ ТАРКИБИЙ АСОСЛАРИ

Алланиязова М.З.

Нукус давлат педагогика институти

Рақамли технология соҳасида кузатилаётган прогрессив, фаол, динамик ривожланиш тезкор, кескин ўзгаришларга нисбатан жамиятда мобилликни таъминлашни тақозо қилади. Замонавий дунёни мобил қурилма, Интернетсиз тасаввур қилиб бўлмайди. Жамият ҳаётининг технологиялашувида иккита муҳим жиҳат кўзга ташланади. Биринчи жиҳат, ижтимоий субъектларнинг ахборот технологияларига қарамлиги ва бу қарамликнинг тобора хавфли тус олаётгани, бунинг натижасида анъанавий касалликлар – миопия (узоқни яхши кўра олмаслик ёки узоқни мутлақо кўра олмасли), астигматизм (буюм ва атрофни хира кўриш), сколиоз (умуртқа поғонасининг қийшайиши), XXI асрга хос касалликлар – номофобия, рақамли деменциянинг аҳоли ўртасида кенг тарақалаётгани; иккинчи жиҳат, гиподинамия таъсирида ижтимоий фаолликнинг пасайиши.

Анъанавий касалликлар – миопия, сколиоз тўғрисидаги маълумотлар кўпчиликка маълум. Шу боис айни ўринда XXI асрга хос касалликлар – номофобия, рақамли деменция хусусида қисқача тўхталиб ўтиш мақсадга мувофиқ деб топилди. “Номофобия” тушунчаси “no mobile-phone phobia” иборасидан ҳосил бўлган қисқартма сўз (аббревиатура) бўлиб, ўзбек тилига таржима қилинганда “мобил телефоннинг бўлмаслигидан қўрқув” маъносини англатади. Мазкур тушунча 2010 йилда Британияда мобил қурилмадан фойдаланувчилар билан ўтказилган тадқиқот даврида илк бор қўлланилган. Тадқиқот натижаларининг кўрсатишича, 53 фоиз фойдаланувчилар мобил телефонларини йўқотиб қўйса ёки бирор жойда унутиб қолдирса ёки керакли тармоқ алоқадан ташқарида бўлса қаттиқ ташвишга тушади. АҚШда олиб борилган худди шундай тадқиқот натижалари янада ҳайратланарли аҳамият касб этган: 65 фоиз респондентлар ўз телефонларини ёнларига ёки кроват яқинига қўйиб ухлайди. Синалувчиларнинг ҳар бешинчиси мобил телефонсиз юргандан кўра

пойафзалсиз юришни афзал кўради. Жами респондентларнинг ярми ҳеч қачон ўз телефонларининг қувватсиз қолишига йўл қўймайди [4].

Рақамли деменция – замонавий гаджетлардан ҳаддан ташқари кўп фойдаланиш орқали келиб чиқадиган хотиранинг бузилиши. Ушбу тушунча тил истеъмолига немис психиатри, невробиолог Манфред Шпицер томонидан киритилган. “Рақамли деменция” тушунчаси муаллифнинг “Мияга қарши. Рақамли технология ва мия”, “Мия тўғрисидаги ҳақиқатлар. Оммавий неврология” асарларида илк марта тилга олинган.

Борди-ю, шахс ёш бўлишига қарамай, ўзининг туғилган санасини, оила аъзолари, дўстлари ёки ҳамкасблари билан яқиндагина бўлган суҳбатни, электрон почтанинг манзилини эслай олмаса, демак, катта эҳтимол билан унда рақамли деменция касаллиги ривожланмоқда. Гаджетларга қарамликни ифодаловчи белги (симптом)ларга эътиборсизлик оқибатида рақамли деменция келиб чиқади [4].

Тадқиқотни олиб бориш жараёнида “ижтимоий-ахборот компетентлиги” тушунчасини генезисини ўрганиш зарур деб топилди. Ушбу тушунчанинг генезиси “ижтимоий” ва “ахборот” атамаларининг бирлигига асосланади. Замонавий шароитда ахборотлар асосан ахборот технологиялари томонидан, ижтимоий тармоқлар орқали тарқатилмоқда. Ижтимоий тармоқларда узатилаётган ахборотларнинг кам миқдордаги қисми муайян соҳага оид маълумотларни камраб олган бўлса, қолган қисми бевосита кундалик тасодикий маълумотлардан иборат. Шу сабабли ушбу ахборотлар ёш, ҳаётий тажрибаси, касб-кори, маълумоти, қизиқиш ва мақсадлари турлича бўлган субъектлардан ташкил топган аудитория томонидан бирдек қабул қилинмайди.

Шахс, хусусан, талабаларнинг ижтимоий-ахборот компетентлигига эга бўлишлари ўз-ўзидан рўй бермайди. Бунинг учун муайян педагогик шарт-шароитнинг мавжуд бўлиши талаб қилинади. Бир қатор тадқиқотларда айнан мана шу масала ўрганилган.

Т.А.Чекалинанинг фикрига кўра, ОТМ талабаларида ижтимоий-ахборот компетентлигини ривожлантириш учун қуйидаги педагогик шарт-шароитларнинг мавжуд бўлиши талаб қилинади: ижтимоий-ахборот компетентлигини ривожлантиришга хизмат қилувчи методик таъминотга таянган ҳолда тегишли жараёни пухта лойиҳалаш; ўзида ижтимоий-ахборот компетентлигини ривожлантириш мақсадига кўра таълим мазмунини ҳамда ўқитиш технологияларини янгиланиш назарда тутувчи ташкилий-методик таъминотни ОТМ амалиётига татбиқ қилиш; талабаларда ижтимоий-ахборот компетентлигининг ривожланганлик даражасини ўлчаш ва баҳолашга имкон берадиган тизимдан фойдаланиш, шунингдек, тегишли жараён натижаларини баҳолаш [6: 123]. Д.В.Гулякин томонидан олиб борилган тадқиқотда эса талабаларнинг ижтимоий-ахборот компетентлигини самарали ривожлантиришга имкон берадиган педагогик шарт-шароитлар ўрганилган. Муаллифнинг фикрига кўра, талабаларнинг ижтимоий-ахборот компетентлигини самарали ривожлантиришда қуйидаги педагогик шарт-шароитлар муҳим аҳамиятга эга: 1. Фанлар ўртасида алоқадорликнинг таъминланиши ҳамда талабаларни касбий тайёрлаш жараёнининг ахборотли йўналтирилганлиги. Саволлар, топшириқлар, тестлар, муаммоларни вазиятлар, билишга оид масалалар, ўқув характерида эга муаммоларни ҳал қилиш каби турли таълим воситалари фанлар ўртасида ўзаро алоқадорликни қарор топтиради. Талабаларнинг ўқув-билиш фаолиятида ахборот технологияларидан фаол фойдаланиш ҳам уларни касбий тайёрлаш бирга ижтимоий-ахборот компетенцияларини изчил ривожлантиришга хизмат қилади. 2. Талабаларни касбий тайёрлаш жараёнига замонавий ахборот технологияларини жалб қилиш. Замонавий ахборот технологиялари, хусусан, гаджетлар талабаларни ижтимоий-ахборот компетентлигини самарали ўзлаштиришга ундаш билан бирга уларда ижтимоий тармоқлардан узатилаётган ахборотлар онгли ва масъулиятли ёндашиш малакасини, алгоритмик тафаккурни ривожлантиради. 3. Ахборот ресурслари (ҳужжатлар жамланмаси ва ахборот нашрлари, анъанавий ва электрон кутубхона каталоглар), компьютер техникасини ўз ичига олган ўқув-ахборот муҳитини яратиш. Зеро, шундагина ўқув-ахборот муҳитининг асосий компонентлари сифатида ахборот-ресурс марказлари ҳамда таълим муассасаларининг мавжуд педагогик таъсир борасидаги имкониятларини ўзаро уйғунлаштиришга эришилади. 4. Ахборот оқимини йўналтиришга оид ҳужжатларни юритишга оид асосий қонунлар билан касбий иш асосларини ўзаро уйғунлаштириш орқали ахборот-коммуникацион технологиялар (АКТ) негизида зарур, муҳим, фойдали ахборотларни самарали излаш, уларни қайта ишлашга оид таҳлил усуллари ва методларини ўзлаштиришга эришилади [3: 4-5]. Тадқиқот муаммосини когнитив ўрганиш натижаларига, шу билан бирга Т.А.Чекалина, Д.В.Гулякиннинг фикрига таянган ҳолда ОТМ талабаларида ижтимоий-ахборот компетентлигини самарали ривожлантириш учун қуйидаги педагогик шарт-шароитни яратиш мақсадга мувофиқ, деган хулосага келинди: 1. ОТМда ўқитилиши йўлга қўйилган “Ижтимоий педагогика”, “Ижтимоий психология”, “Социология”, “Ахборот хавфсизлиги” фанлари ўртасида қарор топтирилган интеграция. 2. “Ижтимоий педагогика”, “Ижтимоий психология”, “Социология”, “Ахборот хавфсизлиги” фанлари ўртасидаги интеграция асосида шакллантирилган ташхисловчи методика. 3. Ташхисловчи методика ёрдамида ОТМ талабалари ижтимоий-ахборот компетентлигининг ривожланганлик даражасини баҳоловчи индикатор (мезонлар, улар асосида қайд қилинадиган кўрсаткичлар, кўрсаткичлар ёрдамида ифодаланадиган даражалар). 4. Индикатор ёрдамида ОТМ талабаларида ижтимоий-ахборот компетентлиги ривожланганлик даражасини изчил ташхис қилиш ва баҳолаб боришга имкон берувчи мониторинг. ОТМ талабаларида ижтимоий-ахборот компетентлигини самарали ривожлантиришни таъминловчи педагогик шарт-шароитни схематик равишда қуйидагича ифодалаш мумкин (1-расм):



1-расм. ОТМ талабаларида ижтимоий-ахборот компетентликни ривожлантиришни таъминловчи педагогик шарт-шароит

ОТМда ўқитилиши йўлга қўйилган “Ижтимоий педагогика”, “Ижтимоий психология”, “Социология”, “Ахборот хавфсизлиги” фанларининг интеграциясига таянган ҳолда уларнинг мазмунига шахсининг ижтимоий тармоқларда узатилаётган ахборотларга муносабати, уларни таҳлил қилиш, саралаш, касбий фаолият ёки шахсий ҳаётга татбиқ қилиш йўллари, методлари тўғрисидаги кўрсатмаларни сингдириш талабаларда ижтимоий-ахборот компетентлигини ривожлантиришда қўлланган натижаларга эришишни кафолатлайди.

Психологик ва этик қарашларга кўра шахсга хос ҳар қандай сифат (фазилят) негизда маълум таркибий элементлар намоён бўлади. Табиийки, ижтимоий-ахборот компетентлик ҳам муайян таркибий асосларга эга.

Д.В.Гулякин ўз тадқиқотида ижтимоий-ахборот компетентлигининг қуйидаги таркибий асосга эгаллигини кўрсатиб ўтади: когнитив, технологик, мотивацион-қадриятли, креатив. Муаллиф, шунингдек, кўрсатиб ўтилган ҳар бир таркибий асос негизда акс этувчи компонентлар тўғрисида ҳам маълумот бериб ўтади. Чунончи: 1) когнитив асос (информатика ва ахборот технологияларга оид билимлар; касбий фаолиятда фойдаланиладиган АКТга оид билимлар; АКТнинг ижтимоий имкониятларига оид билимлар; интеллектуал фаолиятда АКТдан фойдаланиш тартибини белгилаб берувчи меъёрларга оид билимлар); 2) технологик асос (турли йирик ҳажмли маълумотларга эга ахборот манбалари билан ишлаш малакаси; ахборот муҳитида жамоавий, ҳамкорликни амалга оширишга имкон берадиган билим ва малакаларнинг мавжудлиги; ахборотларни излаш, йиғиш, таҳлил қилиш, тақдим этиш, узатиш малакаси; АКТ воситасида турли манбалардан олинган ахборотларни таҳлил қилиш ҳамда улардан янги билимларни синтезлаш малакаси; объект ва жараёнлар, шу жумладан, шахсий индивидуал фаолиятни моделлаштириш, лойиҳалаштириш малакаси); 3) мотивацион-қадриятли асос (талабанинг ўз шахсини ижодий ривожлантириш ҳамда имкониятларини рўйбга чиқаришига асосланган, шунингдек, таълимни ахборотлаштиришнинг аҳамиятини тушунган ҳолда таълимда янги ёндашувни қарор топтиришга имкон берадиган АКТга қадриятли муносабати); 4) креатив асос (ахборотларнинг мазмунини ижодий тушуниш, шу асосида АКТ ёрдамида ўз махсулотини яратиш ва уни ахборот муҳитида тарқатиш) [3:5-6]. Д.В.Гулякин томонидан кўрсатилган технологик асос мазмунан Т.А.Чекалина қайд этган ҳаракатларни ифодаловчи асосга мос келади. Муаллифнинг шахсга хос ижтимоий-ахборот компетентлигининг таркибий асослари борасидаги қарашларни ривожлантиришдаги шахсий ҳиссаси бевосита креатив асоснинг алоҳида эътироф этилганида кўринади. Бизнинг фикримизга кўра, замонавий шароитда шахс, хусусан, талабалар томонидан ижтимоий тармоқлар орқали узатилаётган ахборотлар билан ҳеч бир мақсадсиз танишиш, уларнинг моҳиятини тўла англамаслик, касбий фаолият ёки кундалик шахсий ҳаётда улардан фойдаланмаслик ёки ўзлари учун мутлақо фойдасиз, зарарли, аҳамиятсиз ахборотларга эга бўлишнинг олдини олиш долзарб педагогик-психологик масала саналади.

А.С.Аничкина ижтимоий-ахборот компетентликни “ижтимоий контакт (дастурий воситалар, булутли технологиялар, ахборот ресурслари ва бошқалар) учун замонавий технологиялардан фойдаланиш; гетероген гуруҳлардаги коммуникатив хулқнинг ўзига хосликларини билиш ҳамда Интернет ва ОАВда тарқатилаётган ижтимоий ахборотга танқидий муносабатда бўлиш малакаси” [1: 84] эканини қайд қилган ҳолда унинг таркибий тузилмасини белгилашга уринади. Муаллифга кўра, шахс, жумладан, талабалар томонидан муваффақиятли ўзлаштирилиши зарур бўлган ижтимоий-ахборот компетентлиги қуйидаги таркибий тузилмага эга [1:84]: гетероген гуруҳлардаги шахслараро коммуникация (оғзаки ва ёзма нутқни билиш; коммуникацияни компьютер воситасида ифодалашни билиш; муайян виртуал оламда виртуал маданият талабларига риоя қилиш); рефлексия (ахборот оқими манбаи мазмунини ёки истёмољчисининг ҳаракатини назорат қилиш ва бошқара олиш); ахборот хавфсизлиги (ахборот таҳдиди ҳамда Интернет ресурсларининг хавфидан ҳимояланиш).

А.С.Аничкина ижтимоий-ахборот компетентлигини белгилашда гетероген гуруҳлар ва бундай гуруҳларнинг иштирокчилари ўртасида уюштириладиган коммуникацияни муҳим асослардан бири сифатида белгилайди. Айни ўринда “гетероген гуруҳ” тушунчасининг маъносини изоҳлаб ўтиш мақсадга мувофиқдир. Гетероген гуруҳ – хилма-хил тайёргарлик даражаси, шунингдек, турлича установка ва қарашларга эга турли жинс, ёшга мансуб шахслардан ташкил топган гуруҳ [2]; бир-бирларидан ўзларининг психологияси ва хулқ-атворида кўра фарқланувчи турли шахслардан ташкил топган ижтимоий гуруҳ [2].

Тадқиқотни олиб бориш даврида муаллифларнинг юқорида келтирилган қарашларини таҳлилий ўрганган ҳолда ижтимоий-ахборот компетентлигининг қуйидаги таркибий асосларга эга, деган тўхтамга келинди (2-расм):



2-расм. Ижтимоий-ахборот компетентлигининг таркибий асослари

Ижтимоий-ахборот компетентлигининг бевосита шахс, жумладан, талабаларнинг ижтимоий тармоқлар, Интернет ресурсларидан тарқатиладиган ахборотлар билан самарали ишлашга оид билим, малака, тажрибаларга эга бўлиши ҳамда улардан амалий фаолиятда мақсадли қўллаш олишини ифодаловчи сифат экани назарда тутилса, юқорида кўрсатилган асосларнинг муҳимлиги янада ойдинлашади.

Шундай қилиб, шахсга хос ҳар қандай фазилат муайян таркибий асосга эга. Ижтимоий-ахборот компетентлик негизида ҳам унга хос таркибий асослар мавжуд бўлиб, улар социал характерга эга саналади. Мазкур таркибий асослардан хабардорлик педагогик жараёнда шахс, жумладан, талабаларда ижтимоий-ахборот компетентлигини изчил равишда самарали ривожлантириш учун имконият яратади. Бу эса талабаларда ижтимоий-ахборот компетентлигини ривожлантиришга масъул педагогларнинг мазкур сифат негизида намоён бўладиган таркибий асосларидан хабардор бўлишини тақозо қилади.

АДАБИЁТЛАР

1. Аничкина А.С. Социально-информационная компетентность в условиях информационного общества // Ж. Педагогика. Серия: Гуманитарные науки. – М.: 2019. №12. – С. 84.
2. Гетерогенная группа // https://vocabulary.ru/termin/geterogennaja-gruppa.html#:~:text=группа_С_состоящая_из_людей_разного,также_разные_установки_и_интересы.&text=социальная_группа_С_состоящая_из_разных.
3. Гулякин Д.В. Социально-информационная компетентность будущего специалиста в контексте научного анализа // Ж. Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 3: Педагогика и психология. – Майкоп: 2010. – С. 4-6.
4. Зависимость от гаджетов и номофобия: как взять свою жизнь под контроль // <https://lala.lanbook.com/zavisimost-ot-gadzhetov-i-nomofobiya-kak-vzyat-svoyu-zhizn-pod-kontrol>.
5. Соколова П.Ю. Сущность и структура понятия “социально-информационная компетенция” // https://pedagog.eee-science.ru/wp-content/uploads/2017/08/Sokolova_Statya-Infor.-proekt.pdf.
6. Чекалина Т.А. Содержание социально-информационной компетенции студентов вузов // Ж. Вестник Кузбасского государственного технического университета. – Кемерово: 2011. – № 4 – С. 123.

Ижтимоий –ахборот компетентлигининг таркибий асослари.

Резюме. Мақолада ижтимоий-ахборот компетентлигининг таркибий асослари тўғрисида сўз юритилади. Шунингдек муаллиф томонидан ижтимоий ахборот компетентлигининг генезиси, интернет таъсирида пайдо буладиган анъанавий касалликлар ва талабаларнинг ижтимоий ахборот компетентлигини ривожлантиришнинг педагогик шарт-шароитлари хақида сўз юритилади

Таянч сўзлар: номофобия, рақамли деменция, компетентлик, ижтимоий-ахборот компетентлиги.

Структурные основы социально-информационной компетентности.

Резюме. В статье рассматриваются структурные основы социально-информационной компетентности, рассматриваются генезис социальной информационной компетентности, традиционные заболевания, возникающие под влиянием Интернета, и педагогические условия развития информационной компетентности студентов

Ключевые слова: номофобия, цифровая деменция, компетентность, социально-информационная компетентность.

The basic contents of social informational competences.

Summary. The article discusses the structural foundations of social and information competence. Structural basis of social-informational competence. The article is devoted to the structural basis of socio-informational competence. Also the author is discussed about the genesis of socio-informational competence, traditional diseases arising under the influence of the Internet, and pedagogical conditions

Key words: nomophobia (no mobile-phone phobia), digital dementia, competence, social-informational competence.

ТАЛАБАЛАР УЧУН МУВАФФАҚИЯТ ВАЗИЯТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИХАТЛАРИ

Ганиева Г.

Қорақалпоқ давлат университети

Талабаларнинг муваффақият қозониши учун асосий омил уларнинг ўз фаолиятини амалга оширишидир. Табиий тарзда эришилган муваффақият шахснинг ўз олдига қўйган мақсадини амалга оширганидагина намоён

бўлади. Бунда талабанинг табиий эҳтиёжлари ва қўлланилган педагогик воситалар муҳим аҳамият касб этади. Педагогика энциклопедиясида муваффақият қозониш вазиятларига қуйидагича таъриф берилган: ўқувчиларни ақлий ҳаракатларини ривожлантирувчи, муваффақият қозонишга ундовчи ва қисман муаммоли кўринишдаги вазиятлар [1,353].

Муваффақият вазиятлари бўлажак ўқитувчиларда ўқув-тарбия жараёнига ижобий муносабатнинг ривожланиши ва талабаларнинг ўз ўзларини фаоллаштиришлари учун қулай имконият яратади. Натижада бўлажак ўқитувчиларда касбий ижодкорлик кўникмалари ва компетенциялари ривожланади. Муваффақият вазиятларида талабаларда муайян сифатлар шаклланади. Улар: ўқув жараёнига нисбатан позитив муносабатда бўлиш, ўз ютуқларидан руҳланиш, қийинчиликларни осон бартараф этиш; интеллектуал фаоллик кўрсатиш, гуруҳдошлари ва профессор-ўқитувчилар билан ҳамкорликка интилиш, ўз ютуқларидан қониқиш ҳиссига эга бўлиш, креативлик, мустақил билим олишга ва ривожланишга интилиш кабиларда намоён бўлади.

Талабалар учун муваффақият вазиятларини яратишда профессор-ўқитувчилар гуруҳда ижодий муҳитни ташкил этишлари, уларни ҳамкорликка ундашлари, бир бирларини қўллаб-қувватлаш учун қулай муҳитни вужудга келтиришлари талаб этилади. Табиий тарзда вужудга келган муваффақият вазиятлари мунтазам давом этадиган жараён бўлиб, талабаларнинг яширин имкониятларини рўёбга чиқаришга хизмат қилади. Натижада улар ўз фаолиятларини намоён қилишга мунтазам интиладилар.

Муваффақият вазиятларини ташкил этиш учун қандай педагогик шарт-шароитлар зарур деган ҳақли савол туғилади. Ушбу саволга жавоб излаш учун талабаларни муваффақият вазиятларига олиб кирадиган омиллар тизимини аниқлаш тақозо қилинади. Мазкур омиллар сирасига ҳаётнинг объектив қонуниятлари табиий, ижтимоий ҳамда шахсий эҳтиёжларни киритиш мумкин. Ушбу эҳтиёжларнинг моҳиятини англаш, улар ҳақидаги билимларни ўзлаштириш ҳамда улардан фойдаланиш талабаларнинг мустақилигини таъминлаш имконини беради. Муваффақият педагогиканинг нисбатан янги йўналиши бўлиб, бугунги кунда аксарият мутахассисларни ўзига жал қилмоқда. Умуман муваффақият вазиятлари нафақат педагоглар, балки файласуфлар, социоглар, психологлар эътиборини ўзига жалб қилиб келмоқда. Шунинг учун ҳам муваффақият категорияси ва ҳаётини муваффақият масалалари файласуфлар: Сукрот, Афлотун, Абу Наср Фаробий, ҳозирги замон файласуфлари Н.Шермухаммедова, Ф. Нишче, Ч. Пирс, В. Джемс, С. Хук, Э. Фромм, психологлар: Э.Гозиев, Н.Боймуратов, Даулетова Г.М., Б. Г. Ананьев, И. Д. Бех, А. А. Бодалев, Р. Бернс, Л. С. Выготский, А .Н. Леонтьев, К. Роджерс, Д. Мак Келланд, А. Маслоу, Х. Хекхаузен, жамиятшунослар: М. Вебер, Э. Дюркгейм, К. Девис, Т. Парсонс, П. Сорокин, В. А. Ядов педагоглар: А.Қ.Мунавваров, Р.Мавлянова, Р.Сафарова, Н.Дилова, К.Турғунбоев, К.М.Гулямов, А. С. Белкин, С. У. Гончаренко, М. В. Кондратьева, А. С. Макаренко, В. А. Сухомлинский, Г. В. Никишина, К. Д. Ушинский каби мутахассислар томонидан ишлаб чиқилган. Ҳар бир талабанинг муваффақияти унинг фаолиятидаги бетакорорлик ва ижодкорлик сифатларига боғлиқ. Бу сифатлар индивидуал характер касб этади. Бошқаларнинг тажрибасидан фойдаланиш мазкур тажрибадан ижодий ёндашиш натижасида амалга ошади.

Талабалар ўзларининг мустақил фаолиятлари давомида қўллаб ижтимоий қонуниятларга таянадилар, улар фаолият субъектига алоҳида талаблар қўядилар. Бу эса турли даражадаги меъёрий билимлар ёрдамида амалга ошади. Талабалар фаолиятида умумий, инвариант, такрорланадиган муваффақиятлар мавжуд. Чунки инсон фаолиятининг барча турларида муваффақиятга олиб боровчи қонуниятлар, моделлар ва тавсиялар амал қилади. Муваффақиятнинг асосий қонуни умумий меъёрий билимлар бўлиб, улардан фойдаланиш ҳаракат стратегиясини белгилайди. Натижада талабалар фаолият жараёни объектив натижаларга эришиш имкониятига эга бўладилар. Меъёрий билимлар мақсадга қандай эришиш керак? деган саволга жавоб беришни осонлаштиради. Шунга кўра муваффақият қонуниятлари, моделлари ва тавсиялар ҳаётнинг объектив қонуниятлари билан боғланиб, объектив нажаларга эришиш учун қулай шароит яратади, яъни табиий билимларни объектив қонуниятларни муваффақиятга эришиш имконини берадиган фаолият шаклларига айлантиради. Муваффақиятнинг асосий омили талабанинг шахсий истакларидир. Муваффақиятнинг асосий омили сифатида шахсий истаклар муваффақиятга олиб келувчи дастлабки қадам ҳисобланади. Бу жараёнда шахс ўз фаолиятини амалга оширади. Шахснинг хоҳиш истаклари негизида унинг эҳтиёжлари туради. Шахснинг истакларида муаян эҳтиёжни қондиришга йўналтирилган шахсий интилишлари намоён бўлади. Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, хоҳиш-истак билан боғлиқ бўлган эҳтиёжлар ҳамда зарурият натижасида намоён бўладиган эҳтиёжлар мавжуд.

Шахснинг истаги билан боғлиқ бўлган эҳтиёжлар осонгина қондирилади, зарурият билан боғлиқ эҳтиёжлар эса катта куч сарфлаган ҳолда қондирилади. Бу жараёнда бажарилиши лозим бўлган ҳаракатлар билан уларни бажаришни хоҳламаслик орасида зиддиятлар вужудга келади. Талабаларни муваффақият вазиятларига олиб кириш жараёнида уларнинг хоҳиши билан эҳтиёжлари орасидаги зиддиятларни бартараф этиш зарурияти мавжуд. Аксарият ҳолларда қондирилиши мураккаб бўлган эҳтиёжлар ҳам бор. Ўз фаолиятини амалга ошириш натижасида эришиладиган муваффақият асосини объектив эҳтиёжлар ташкил этади. Бунинг учун талабалар “мен нимани хоҳлайман?” деган саволга аниқ жавоб бера олишлари керак. Талабаларнинг ижобий характердаги хоҳиш-истаклари билан эҳтиёжлар орасида мутаносибликни вужудга келтириш лозим.

Хоҳиш-истаклар шахсга таъсир кўрсатиш имкониятига эга. Кучли истаклар, бу хис-туйғуларни мунтазам қамраб олувчи эҳтирослардир. Шу билан бир қаторда атрофдагиларга таъсир кўрсатиш имкониятига эга бўлиб, шахснинг билими ва диққатини бир нуқтага жамлашга олиб келади. Инсон ўзининг чексиз эҳтиёжлари билан бошқа мавжудотлардан кескин фарқ қилади. Қондирилган эҳтиёжлар янада юқори даражадаги эҳтиёжларнинг вужудга келишига асос бўлади. Эҳтиёжларни қондириш шакллари ҳам мунтазам тарзда ўзгариб боради.

Талабалар ўз фаолиятларини амалга ошириш жараёнида табиий эҳтиёжларини қондиришга ҳаракат қилишлари лозим. Чунки бундай эҳтиёжлар табиий, чуқур ўйланган ва ақлга асосланган эҳтиёжлар ҳисобланади.

Чуқур ўйланган, ақлга асосланган эҳтиёжларнинг қондирилиши шахснинг тараққиётини таъминлашга хизмат қилади. Бундай эҳтиёжлар сирасига табиийликни излашга интилиш, гўзалликка бўлган эҳтиёж, яхшилик қилиш истаги, ижодий ривожланиш кабиларни киритиш мумкин. Чуқур ўйланган эҳтиёжлар ахлоқий меъёрларга мос келади, уларни инкор қилмайди. Инсоннинг эҳтиёжларини қондириш табиий ресурслар билан боғлиқ ҳолда чекланганлик характериға эға. Шахснинг ижодий ривожланишга бўлган эҳтиёжи ўз ўзини такомиллаштиришиға асос бўлиб, унга чексиз имкониятларни тақдим этади.

Муваффақият қозонишнинг иккинчи муҳим омили мақсадларнинг аниқлиғидир. Ўзи хоҳлаган натижаларға эришиш шахснинг ўз олдига аниқ мақсад қўйишини тақозо этади. Муваффақият қозониш учун инсон табиий истакларидан келиб чиққан ҳолда аниқ мақсадлар қўйиши лозим. Мақсаднинг аниқлигини таъминловчи ҳолат унинг табиийлиғидадир. Мақсадларнинг аниқлиғи инсоннинг муваффақиятға эришишини муайян даражада кафолатлайди. Чунки мақсадлар фаолият йўналишини аниқ белгилаб, натижаларға эришиш воситалари ва шарт-шароитларини мақсадға мувофиқ тарзда танлаш имконини беради. Мақсадларнинг аниқлиғи, шахснинг фаолият натижаларини аниқ тасаввур қила олишини таъминлайди. Бундай мақсадлар шахснинг иштиёқи, руҳланиши, илҳомланишиға асос бўлади.

Шахсда ривожланиш мотивларини ҳосил қилувчи асосий манба мақсадларнинг аниқлиғидир. Шу билан бир қаторда мақсадларнинг аниқлиғи унга эришишнинг реал имкониятлари мавжудлиғидан далолат беради. Ҳаётий мақсадлар ва интилишларнинг аниқ белгилаб олиниши ва уларнинг татбиқ этилиши шахснинг саломатлилиғи ва қалб осойишталиғини таъминлайди. Қалб осойишталиғини таъминлаш орқали таникли психолог Уильям Глассер қўплаб кишиларнинг осойишта ҳаётға қайтишларини таъминлаган. Психологнинг таъкидлашича руҳий бузилишлар шахснинг ўз мақсадларини тўғри белгиланмаганлиғи туфайли вужудға келади. Бундай инсонлар ўз фаолият йўналишини танлай олмайди ва бошлаган ишини охириға етказмайди.

Муваффақият қозонишнинг учинчи муҳим омили устувор йўналишларни ажратиб олишдан иборат. Ўз фаолиятини амалга оширувчи шахс ўз олдига қўплаб турли туман мақсадлар қўяди. Шунинг учун ҳам мақсадлар устувор ва устувор бўлмаган мақсадларға ажратилади. Улар ўз характериға кўра аҳамиятли, ўртача аҳамиятли ва кам аҳамиятға эға бўлган йўналишлардир.

Талабаларни муваффақият вазиятиға олиб киришда Паретто принципиға таяниш алоҳида турлари муваффақият қозониш имкониятларини кенгайтиради. Чунки ушбу принцип доираида гуруҳ аъзоларининг катта натижаларға эришишлари назарда тутилади. Бу жараёнда ўз фаолиятини амалга ошириш истиқболли бўлиб, уларнинг алоҳида турлари талабаларни ривожланиш сари йўналтиради.

Муваффақият педагогикаси ўзининг мазмун-моҳиятиға эға. Юқори даражадаги касбий компетентлик ва педагогик маҳоратға эға бўлган бўлажак ўқитувчиларни тайёрлаш имкониятини тақдим этади. Бунинг учун муваффақият механизмларига оид билимларни ўзлаштириш зарур ҳисобланади. Шу билан бир қаторда талабаларнинг муваффақият қозонишлари учун қулай шарт-шароитларни яратиш талаб этилади. Ушбу муаммоларни ўрганиш нисбатан янги тармоқ бўлган муваффақият педагогикаси доираида амалга оширилади.

Муваффақият педагогикаси таълим олувчиларнинг ички имкониятларини фаоллаштириш билан шуғулланадиган педагогиканинг муҳим тармоғи ҳисобланади. Таълим олувчилар ўқув жараёнида эришган муваффақиятларини ўзларининг ҳаётий фаолиятлари давомида амалга оширишға эришадилар. Муваффақият вазиятларини яратишдан қўзланадиган асосий мақсад шахснинг имкониятларини аниқлаш, қувватларини фаоллаштириш, ўз ўзини ривожлантиришға йўналтириш, ўз фаолиятини такомиллаштиришға ундаш, ҳаётий вазиятларда самарали фаолият кўрсатиш усулларини тақдим этишдан иборат.

Муваффақиятнинг барча турлари орасида биологик муваффақият концепцияси устувор ўрин эгаллайди. Шахснинг муваффақиятға эришишға интилиши унинг туғма жисмоний сифатларига бевосита боғлиқ. У жисмоний қувватлар, тезкор хулқ-атвор стереотиплари билан бир қаторда юқори даражадаги фикрлаш лаёқатларини эгаллашда ҳам намоён бўлади. Бундай шахслар ностандарт вазиятларда аниқ йўналиш олиш, журъатлилиқ, фаолик сифатларини намоён қилиш имкониятиға эға бўладилар. Бу эса таълим олувчиларда ўз гуруҳи ҳамда жамият орасида юқори мавқени эгаллаш имконини беради. Шунинг учун ҳам бўлажак ўқитувчиларни тайёрлаш жараёнида улар учун муваффақият вазиятларини яратишнинг методик таъминотини такомиллаштириш бугунги кунда алоҳида долзарблик касб этмоқда.

АДАБИЁТЛАР

1. Педагогика: энциклопедия II жилд/ тузувчилар: жамоа – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедия, 2015. – 376 б. 353-бет.

Талабалар учун муваффақият вазиятларини ташкил этишнинг ўзига хос жиҳатлари

Резюме: Ушбу мақолада муваффақият педагогикаи, унинг ўзига хос йўналишлари, муваффақият қозониш йўналишлари, талабалар учун муваффақият вазиятларини яратиш имкониятлари, муваффақиятнинг тавсифи, ушбу йўналишдаги тадқиқотларнинг мазмун моҳияти, муваффақият вазиятларининг шахс тараққиёти учун аҳамиятли жиҳатлари ҳақида фикр юритилган. Мақола илмий педагогик жамоатчилиқ, талабалар, профессор ўқитувчилар ва тадқиқотчилар учун манба сифатида хизмат қилади.

Таянч сўзлар: муваффақият, ўз ўзини такомиллаштириш, биологик муваффақият, шахсий муваффақият, руҳланиш.

Особенности организации ситуаций успеха для студентов

Резюме: В этой статье рассматривается педагогика успеха, его особенности, преимущества успеха, возможности создания условий успеха для студентов, описание успеха, сущность исследований в этих условиях, а также важность

условий успеха для личностного развития. Статья служит в качестве источника для научного педагогического сообщества, студентов, преподавателей и исследователей.

Ключевые слова: успех, самосовершенствование, биологический успех, личный успех, дух.

Significant features of organizing successful situations for students

Summary: In the given article the pedagogy of success, its specific directions, directions for achieving success, the possibility of creating situations of success for students, the description of success, the content of research in this direction, important aspect of situations of success for personal development are discussed. The article serves as a resource for the scientific and pedagogical community, students, teachers and researchers.

Keywords: success, development, self-improvement, biological success, personal success, motivation.

OILADAGI O'ZARO MUNOSABAT USULLARI VA O'SMIR YOSHIDAGI BOLALAR SHAXSINING MULOQATGA KIRISHUVCHANLIK SIFATLARI

Mambetiyarova V.R.

Qoraqalpoq davlat universiteti

Respublikamizda bozor iqtisodiga o'tish yo'lida qaror topayotgan yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar jamiyatning barcha sohalariga ta'sir ko'rsatmoqda, ayniqsa ularnina oilaviy hayot sohalariga ta'siri ko'proq kuzatilmoqda. Ota-onalarning ma'lumoti, kasb-kori, ijtimoiy ahvoli va moddiy darajasi, oiladagi psixologik muhit bola shaxsining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Oilaviy munosabatlardagi noxushlik bola shaxsinin mulloqatchanlik xususiyatlarining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Psixologlarning fikricha, bunday holatlarga ko'proq ota-onaning tarbiyaga notugri yondoshuvi, qattiqqo'lligi, sovuqqonligi, asabiylik hollarini tez-tez namoyon qilishlari sabab bo'ladi.

Oilada ijobiy hissiy munosabatlarning yetishmovchiligi nevrozga ruxiy ezilishiga olib keladi. «Bolaning jismoniy rivojlanishi uchun sut qanday zarur bo'lsa, uning hissiy rivojlanishi uchun erkalash ham xuddi shunday kerak», degan edi Benjamin Spok. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, jinoyatchilar ko'proq yaqinlarining mehribonchiligi va muhabbatini bilmagan bolalardan yetishib chikadi [1,48]. Psixologiyada ota-ona va bolalar o'rtasidagi munosabatlarning uchta uslubi mavjud: avtoritar, demokrat va befarq. O'zaro munosabtlar demokratik asosga qurilgan ishlarda kattalar bolalarga doimo yo'l-yo'riq ko'rsatib turadilar, o'z vaqtida maqtaydilar, o'z vaqtida jazolaydilar. Munosabatlar avtoritar asosga qurilgan oilalarda bolalar doimo kattalarning ta'qibi ostida bo'ladi. Oilada jahillik va sovuqqonlik hukm suradi. Agar ota-onalar bolalar bilan bo'ladigan munosabatlarda shunchaki bir narsa deb befarq, qarasarlar, bunday oilalarda «nimani xohlasang, shuni qilaver» degan tamoyil hukm suradi.

Bu bolada shuni ta'kidlab o'tish kerakki ota-onalar va bolalarning o'zaro munosabatlarni uchtaga bo'lish faqat shartli bo'lib bular xilma-xildir. Har bir oilada o'ziga xos munosabatlar hukm suradi, shuning uchun bola shaxsi ham murakkab va turlichadir [2,17]. Ba'zi psixologlar (A.Y.Bapra, B.B.Stolin, 1988) oilaga uzaro munosabatlarning quyidagi usullarini kursatadilar. «BOLANI QABUL QILISH» uslubi. Ota-onalar doimo bola bilan birga bo'ladi, uning hamma xatti-harakatini yoqlaydilar, unga hurmat bilan qaraydilar, qiziqishlari bilan doim tanishib boradilar. Ota-onaga bola qanday bo'lsa, shundayligicha yoqadi. Ota-ona bola individualligini hurmat qiladi, uni yaxshi ko'radi. Ota-ona bola bilan birgalikda ko'p vaqtini o'tkazishga harakat qiladilar, uning qiziqishlari va rejalarini qo'llab quvvatlaydilar. «BOLADAN BEGONALASHISH» uslubi. Ota-onalar o'z bolalariga sovuqqonlik bilan qaraydilar, ularni yomon deb hisoblaydilar. Bolalariga ishonmaydilar, uning har bir harakatidan ayb qidiradilar. Xalq iborasi bilan aytganda bunday bolalar «O'tirsa o'p'ok, tursa supoq». Ko'pincha, ota-onalar bolasidan jahli chiqadi, ranjiydi, gazablanadi xafa bo'ladi. U farzandiga ishonmaydi va uni hurmat qilmaydi. BIRLAMSHA yoki «KOOPERATSIYA» uslubi. Bu usulning mazmuni quyidagicha talqin etiladi. Ota-ona farzandining ishlariga va rejalariga qizikadi, bolaga hamma narsada yordamlashishga, unga hamdard bo'lishga intiladi. Ota-onalar farzandlarining ijodiy va aqliy qobiliyatlarini yuqori baholaydi, u bilan faxrlanadi. U bolaning mustaqilligi va tashabbuskorligi uchun taqdirlaydi, u bilan teng bo'lishga intiladi, ota-ona bolaga ishonadi, munozarali masalalarda uning fikrini ma'qullaydi.

«SIMBIOZ» yoki BOLA BILAN TO'LA HAMKORLIK. Ota-onalar bolalarini o'zlari bilan teng ko'radilar. Ularning hamma ehtiyojlarini qondirishga intiladilar. Ular uchun bolalar doimo kichkina va himoyasiz tuyuladi. Bunday ota-onalar bolaga mustaqillik bermaydilar. Ota-ona o'zini bola bilan yaxlit bir butun deb sezadi, bolaning barcha ehtiyojlarini qondirishga intiladi, hayot qiyinchiliklari va ko'ngilsizliklaridan saqlashga intiladi. Ota-onalar doim boladan xavotirlanadi, farzandi unga kichkina va himoyasiz bo'lib tuyuladi. Farzandi sharoitga ko'ra, mustaqil biror ish qilmoqchi bo'lganda, ota-onaning havotirlanishi ortadi, chunki ota-ona o'z ixtiyori bilan hech qachon farzandiga mustaqil bo'lishga bermaydi.

«JOHILLIK» yoki «AVTORITAR» uslubi. Ota-onalar bolalarini doimo ularning ko'rsatmalariga asosan ish ko'rishini, ularning yo'riqlaridan chiqmasliklarini talab qiladilar. Agar bolalari aytganlarini qilmasa qattik jazolaydilar. Bolaning individual xususiyatlarini bilgan holda ulardan qattiqqo'llik bilan talab qiladilar. Masalan, fakat «5»ga o'kish, sinf boshi bo'lish va h.k. Ota-ona farzandiga so'zsiz bo'ysunishni va tartibni talab qiladi. Ota-ona hamma narsada o'z ta'sirini o'tkazishga harakat qiladi. Bola o'z erki bilan harakat kilmoqchi bo'lsa, qattiq jazolanadi. Ota-onalar farzandining ijtimoiy yutuqlarini o'rganib sinchiklab tekshiradi va ijtimoiy muvaffaqiyatlarini talab qiladi. Bunda ota-ona farzandining individual xususiyatlarini, odatlarini, fikrlarini hislarini yaxshi biladi.

«KICHIK OMADSIZ» uslubi. Bolaning harakatlarini doimo nazorat qilish bilan birga uning xatti-harakatlarini, qiziqishlari kichkina bolanikiday bo'lib tuyulaveradi. U biror ishini noto'g'ri qilka, nomusdan deb koyiladi. Ota-ona farzandiga haqiqiy yoshiga nisbatan kichik deb qaraydi. Bolaning hislari, fikrlari, qiziqishlari, ishqibozlari ota-onaga

bolalarcha jiddiy emasdek tuyuladi [2,79]. Farzandini yomon deb sirlariga beriluvchan, omadsiz, moslasha bilmaydigan deb tasavvur etadi. Shuning uchun ota- ona farzandini hayot qiyinchiliklaridan to'sishga va uning harakatlarini qattiq nazorat qiladi. Demak ota-onalar va bolalar munosabatining turli usullari mavjud. Ota-onalar va bolati o'rtasidagi uzaro munosabat bolaning xarakter sifatlarini, shaxsining psixologik xususiyatlarini tarkib topishida katta rol o'ynaydi. Bir necha yil davomida biz 5-8 sinf o'quvchilari oilasidagi o'zaro munosabatlarning bolaning muloqatchanlik sifatlarini shakllanishiga ta'sirini o'rgandik. Maxsus psixologik test orqali biz bolalar shaxsining xususiyatlarini hamda ota-onalar munosabatlarini o'rganib chiqdik. Bunda asosan quyidagi muammolar qiziqtiradi: nega ayrim bolalar muomalaga tez kirishali, quvnoq, faol, boshqalari vahimachi, ichimdagini top deganlar toifasidan bo'lib doimo boshqalardan o'zini tortib yuradi.

Kuzatishlardan ma'lumki, muloqatchanlik sifatleri yorqin shakllangan bolalarni 3 guruhga ajratib o'rganish mumkin. 1 guruh-tashkilotchilik qobiliyati bor, yo'lboshchilik xususiyatlari yorqin rivojlangan bolalar. Bular o'rganilayotgan bolalarning 20%-ini tashkil etdi.

2 guruh - ta'sirchan, hissiyotga beriluvchan sinfda ma'lum mavqega ega bo'lishni istaydigan bolalar 30%ni tashkil etdi.

3 guruh tengdoshlari bilan kam muloqatda buladigan, doimo bir narsadan, havfsirab yuradigan bolalar 50% tashkil etdi.

Ota-onalar munosabatlarini o'rganuvchi testlarda asosan 35-40 yoshlar atrofida onalar qatnashadilar. Ba'zi oilalarda bolalar otasiz usgani uchun tadqiqotda faqat onalar ishtirok etadi!

Tadqiqot natijalariga ko'ra ota-onalarning bolalarga nisbatan munosabati uchta guruhga ajratildi.

1 guruh, bolalarning ota-onalari o'z bolalarini «qabul qilish» tipiga mansub hisoblanadi.

2 guruh bolalarning ota-onalari o'z bolalariga «ruyxush bermovchi» tipiga mansub hisoblanadi.

3 guruh bolalarning ota-onalari munosabatlari «qattiq qullik» asosiga quradilar. Ularda «kichik omadsiz» munosabatlarini ham ko'rish mumkin [3,102]. Endi biz konkret misollar bilan tanishtiramiz Q.Aziza a'lochi o'quvchi, sinf ijtimoiy xayotida faol qatnashadi, xarakter jihatdan yo'lboshchi (lider). Uning o'z- o'zini baholashi yukori, muloqatchanlik sifatleri kuchlin rivojlangan.

Bu qiz 1 guruhga kirgan bolalarning tipik vakili. Bu qiz o'sgan oilada unga doimo ishonch bilan qaraladi. Oilasi doimo uning fikrlariga xamjixad, uni har ishda qo'llab- quvvatlab turadi.

Oiladagi bunday munosabatlarning hukmronligi ijobiy muloqatchanlik sifatlarini shakllantirishga olib keladi. 2 guruhning tipik vakili Sarbinaz.J. bo'lib, u ko'proq tez xafa bo'luvchi, lekin sinfda lider bo'lish ehtiyoji yo'q emas Bu qiz kuzatishlarimizga qaraganda yuksak mas'uliyat hissiga ega baholarini doimo yaxshi bo'lishini istaydi, buyurilgan ishni o'z vaqtida bajaradi. Sinfda ko'p bolalar bilan do'stlashmaydi, faqatgina 1ta dugonasi bor, o'z hissiyotlarini doim namoyon qilavermaydi, salga yiglab yuboradi. U qizni yashirin psixologik travma mavjud.

Test natijalari asosida unda quyidagi xarakter xususiyatlari ko'rindi. Muomalaga kirishdi qiyinchilik, ehtiyotkorlik, doimo hadiksirash, lider bo'lishga ichki ehtiyoj xamda oiladagi emotsional ilqlik va erkalashning yetishmasligi. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, uning onasi o'zaro munosabatlarda avtoritar uslubga tayanadi. U doimo qizni o'z gapidan chiqmasligini, intizomga qattiq rioya qilishni talab qiladi. Agar qizining o'zida biror ish qilsa, uni qattiq jazolaydi. Bunday bolalar tarbiya topadigan deyarli hamma oilada o'zaro munosabatlar asosida avtoritar usul yetadi. Bunday munosabatlar esa bolalardagi mustaqillikning o'rniga qarab o'z o'zini past baholashni yuzaga keltirib boladagi erkinlikning yo'qolishiga olib keladi.

3 guruh kiruvchi bolalarning tipik vakili Atabek O. Bu bola ko'p bolali oilaning kenjasi hamda yolg'iz o'g'il. Oilada ota-onasi, uchta opasi bo'lib, doimo Atabaek haqida gamxo'rlik qilib turishadi. Bolaning sinfda deyarli do'stlari yo'q,kamgap, partada yolg'iz o'tirishni ma'qul ko'radi. Darslarda doskaga chiqishga, og'zaki javob berishga qo'rqadi, ko'pincha o'qituvchidan hamma ketgandan keyin uning yolg'iz o'zidan surashini: iltimos qiladi. Test natijalari shuni ko'rsatadiki, bu bola o'z-o'zidan qochadi, tengdoshlari bilan munosabatda bo'lmaydi, o'ziga ishonmaydi, doimo qo'rqib turadi, o'z-o'zini baholashi past. Oila a'zolarga negativ munosabatda bo'ladi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bu bolaning onasi o'z o'g'lini muvaffaqiyatsiz, yomon deb hisoblaydi. Ota-onaning fikricha bu bola uz qobiliyatsizligi tufayli hayotda hech qanday muvaffakiyatga erisholmaydi. [4,86]

Demak, yuqoridagilarga asoslanib shuni aytish mumkinki, 1) bolaning muloqatchanlik sifatlarinya shakllanishining asosiy manbai oiladagi ota-onalar va bolalarning o'zaro munosabatlari hisoblanadi. 2) oilada bolaga ishonch bilan qarash, uning xatti- harakatlarini qo'llab-quvvatlash natijasida bolada ochiqko'ngillik, muomalaga tez kirishuvchanlik sifatleri shakllanib boradi. 3) munosabatlarning Demokratik usuli muloqatchanlik sifatlarini shakllanishida muhim omildir. 4) munosabatlarning «AVTORITAR» usuli emotsional ta'sirchanlikning ortishiga, psixikaning jarohatlanishiga muomaladagi qa'tiyatsizlikka olib keladi. 5) «KICHIK OMADSIZ» munosabat usul muloqatchanlik sifatleri past darajada rivojlanishiga, xavotirlanishning ortishiga, o'ziga ishonchning yo'qolishiga sabab buladi.

ADABIYOTLAR

1. Адизова Т.М. Психокоррекция.-Тошкент,2006.

2. Божович Л.И. Личность и её формирование в детском возрасте .- М.,1998.-464. с.

3..Ковалев С.В.Психология семейных отношений.- М.:Педагогика,1992.-160с.

4.Райгородский Д.Я. Практическая психодиагностика. Методика и тесты. – Самара :Изд.дом :Бахрах,1999.-

Oiladagi o'zaro munosabat usullari va o'smir yoshidagi bolalar shaxsining muloqatga kirishuvchanlik sifatleri

Annotatsiya. Ushbu maqolada oilada ijobiy hissiy munosabatlarning etishmovchiligi,oqibatleri,bolaning jismoniy rivojlanishi muhim omillardan biri – hissiy rivojlanishning zarurligi va oilaviy muhit, va uning o'ziga xos psixologik hususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, ota-ona va bolalar o'rtasidagi munosabatlarning uslublariga doir tadqiqotchilarning fikrlari tahlil qilingan. Maqola yakunida muallifning shaxsiy xulosalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: oilaviy muhit, munosabat uslubi, avtoritar, demokrat va befarq, kooperatsiya, simbioz.

Способы взаимодействия в семье и коммуникативные особенности личности детей-подростков.

Аннотация. В данной статье анализируется дефицит, последствия позитивных эмоциональных взаимоотношений в семье, физическое развитие ребенка, как один из важных факторов – потребность в эмоциональном развитии и семейное окружение, а также его специфические психологические особенности. Также были проанализированы мнения исследователей о методах построения взаимоотношений между родителями и детьми. В конце статьи сделаны личные выводы автора.

Ключевые слова: семейное окружение, стиль отношения, авторитарный, демократический и индифферентный, сотрудничество, симбиоз.

Ways of interaction in the family and communicative personality traits of adolescent children

Annotation. This article analyzes the deficiency, consequences of positive emotional relationships in the family, the physical development of the child as one of the important factors – the need for emotional development and the family environment, and its specific psychological peculiarities. The opinions of researchers on the methods of the relationship between parents and children have also been analyzed. At the end of the article, the author's personal conclusions are drawn.

Key words: family environment, attitude style, authoritarian, democratic and indifferent, cooperative, symbiosis.

ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ ТОЛЕРАНТНОСТИ

Абидова З. А.

Национальный университет Узбекистана

Толерантность играет важную роль в обществе, поскольку помогает людям уважать и принимать друг друга, несмотря на их различия в мнениях, вероисповедании, культуре, расе и т.д. Развитие толерантности способствует укреплению социальной стабильности и мира, позволяет строить конструктивные отношения между разными группами людей и предотвращать конфликты. Толерантность также способствует интеграции различных культур и созданию гармоничного общества, где каждый чувствует себя равным и принятым.

Толерантность – это понимание меры схождения, неразличимости и взаимозаменяемости, и, реакции и/или устойчивости биологических и небιологических систем в пределе определённых минимальных и максимальных воздействующих факторов, и формирование мировоззрения субъектов и объектов, которое позволяет адекватно реагировать, соответственно действовать и осознавать инаковость каждого субъекта в микро- и макросоциуме и занятия активной позиции, позволяющая выживаемости и сосуществованию (симбиозу) субъектов в обществе [1]. В мире всё больше возрастает интерес к феномену толерантности. Толерантности посвящаются международные форумы, научные конференции, занятия в образовательных учреждениях, научные монографии, статьи и сайты в интернете. Сама по себе идея о необходимости толерантности принципиально важна. Однако, как показывает практика, понимание сущности толерантности весьма неоднозначна, у многих людей само слово толерантность вызывает негативную реакцию.

В современном обществе под влиянием политико-правовых, социально-экономических и культурно-религиозных факторов наблюдается некоторое искажение значения толерантности, что, безусловно, влечёт за собой негативные последствия как для индивида, так и всего общества в целом. По этой причине изучения сущности и реалии феномена толерантности остаётся актуальной задачей сегодняшнего дня.

Изучение факторов, способствующих возникновению толерантности и возможных результатов проявления толерантности позволяет более глубокого и системного изучения данного феномена. С этой целью мы решили провести теоретический анализ существующих теоретико-методологических подходов к сущности феномена «толерантность».

Причинно-следственные процессы толерантности разделяются на причинные – по которым возникает толерантность и на следственные или результативные, т.е. получаемый результат от проявления толерантности.

Факторы, способствующие возникновению толерантности как процесса, являющиеся её действующей началом, мы условно назвали этиологией толерантности, которая заключается в «ином», так, как только наличие «иногo» способствует проявлению толерантности [2]. По мнению Л.Ю.Рюмина толерантность проявляется только при наличии неблагоприятных факторов [17]. По мнению Е.Ю.Клепцовой данное свойство личности актуализируется в ситуациях несовпадения взглядов, мнений, оценок, верований, поведения людей и т.п. [11]. П.Николсон считает, что всякое толерантное отношение включает примирение с некоторым отклонением, причем субъект должен морально не соглашаться со значимым для него отклонением [14].

Таким образом, толерантность возникает тогда, когда существует или возникает такой объект, с которым нелегко примириться, а иногда это кажется даже невозможным. Обобщая приведённые мнения, можно сделать вывод, что толерантность возникает при наличии неблагоприятных факторов.

В литературе также есть работы, где авторы считают, что толерантность возникает из-за заинтересованного отношения к другому, необходимости, благоприятности другого.

По мнению Р.Р.Валитова, толерантность – это заинтересованное отношение к другому, желание прочувствовать его мироощущение, которое побуждает к работе разум уже потому, что оно – иное, чем-то не похожее на собственное восприятие действительности [7, С.34]. И.Б.Гриншпун определяет толерантность как наличие потребности во взаимодействии с другим, понимании другого при изначально позитивном эмоциональном отношении к нему [8]. По мнению В.Н.Мясищева, поскольку человек является социальным существом, и способен гармонично развиваться только в условиях общества, существует потребность человека

в людях и удовлетворяется она путём общения, это основа глубинной, изначальной толерантности человека к человеку [18]. Как подчёркивает М.М.Бахтин, развитие идентичности как одного из компонентов процесса толерантности возможно только на основе постоянной коммуникации с другими, диалога с иными точками зрения, позициями, возможности понять эти другие позиции и посмотреть на себя с иной точки зрения [5].

Толерантность выступает условием преодоления чуждости мира и Другого, формой трансценденции, установления связи с миром, воспринимаемым позитивно [4]. Н.М.Лебедева, на примере исследования этнической толерантности, показывает, что толерантность связана с отсутствием негативного отношения к иной культуре, а точнее – с наличием позитивного образа иной культуры при сохранении позитивного восприятия своей собственной [13]. Как видно из приведённых мнений, данные авторы предполагают причиной возникновения толерантности те или иные благоприятные факторы.

Толерантность так же может возникать и при обстоятельствах, когда действующие факторы являются неопределёнными. Как утверждает А.Г.Асмолов, непредвиденные ситуации могут служить определенным катализатором, актуализирующим проявление индивидуальности человека [3, С.312]. Толерантность, по мнению Н.Л.Оконешникова, это способность к принятию решений и размышления над проблемой, даже если не известны все факты и возможные последствия, способность выдерживать напряжение кризисных, проблемных ситуаций [15]. Механизм возникновения и проявления коммуникативной толерантности, по мнению В.В.Бойко, связан с психологией эмоционального отражения личностных различий. На уровне предсознания или подсознания каждый человек реагирует на то, что он и партнёр имеют различие в сфере тех или иных проявлений личности [6]. По мнению Т.И.Дрынкиной, толерантность проявляется в ситуациях, имеющих социальное значение и распространяется на сферы социальных отношений, социального познания и социального поведения. Это значение определяется обнаружением социально-значимых различий [9].

Причиной возникновения толерантности, как утверждают Е.И.Касьянова и Н.И.Виноградова, является неодинаковость отдельных людей и человеческих сообществ по самым различным критериям [10]. Толерантность является внутренним эмоционально освоенным субъектом ориентир на конструктивное взаимодействие с представителями социума, которые имеют существенные отличия от него [12].

Таким образом, все перечисленные факторы, способствующие возникновению толерантности как явления у социума или личности, мы условно приняли как «иное». «Иное» может проявиться из-за неблагоприятных, благоприятных или неопределённых факторов. Именно эти факторы являются условиями неопределённости, различий, потребностей в другом, что по своей сути они идентичны по отношению к «иному», т.е. не соответствующие ожиданиям не только личности или объекта, но и социальных структур и организаций, представлениям, реалиям и др., на которое необходимо проявить соответствующую реакцию, отношение и взаимодействие.

По результатам различаются: конструктивное и деструктивное проявление толерантности.

Как утверждает И.Б.Шебураков, конструктивное проявление толерантности наблюдается в увеличивающей вероятности устойчивого существования или совершенствования системы, а деструктивное проявление толерантности наблюдается в увеличивающей вероятности противоположных процессов. Толерантность к насилию над другими, по мнению ученого, является деструктивным проявлением толерантности [19]. По мнению В.А.Петрицкого, существуют нравственно-конструктивная и нравственно-деструктивная толерантность, которая даёт позитивный или негативный результат. Конструктивное проявление толерантности это положительно мотивированное проявление терпимости, ведущее к позитивному результату, а деструктивное - склонность к безразличному отношению к ценностям, питающим убеждения, ведущее к негативному результату [16].

Причинно-следственные процессы толерантности, выделенные на основе проведённого анализа, наглядно представлено в нижеследующей таблице.

Причинно-следственные процессы толерантности

Причины, факторы возникновения толерантности	Результат проявления толерантности
Неблагоприятный фактор	Деструктивный
Благоприятный фактор	Конструктивный
Неопределённый фактор	

Таким образом, причинно-следственные процессы толерантности разделяются на причины, способствующие возникновению толерантности и на следствия, получаемые в результате проявления толерантности. Факторы, способствующие возникновению толерантности, могут быть неблагоприятными, благоприятными или неопределёнными, а результат проявления толерантности может быть деструктивным или конструктивным.

Проведённый теоретический анализ существующих теоретико-методологических подходов к сущности феномена толерантности, позволило выявить особенности проявления толерантности, которое объясняет её причинно-следственные процессы. Учитывая, что толерантность может проявиться в любых обстоятельствах, как в благоприятных, так и неблагоприятных, а также неопределённых ситуациях, важно её раскрывать и развивать таким образом, чтоб возможно было предупредить деструктивное проявление.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Абидова З.А. Понятийные аспекты феномена «толерантность». //Научный Вестник Самаркандского государственного университета. – Самарканд, 2017. – № 4 (104). – С.165-168.
2. Абидова, З. А. ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ФЕНОМЕНА «ТОЛЕРАНТНОСТЬ». БЮЛЛЕТЕНЬ НАУКИ И

- ПРАКТИКИ (2016): 377.
- Асмолов А.Г. Психология личности: культурно-историческое понимание развития человека. – М.: Смысл: Издательский центр «Академия», 2007. – 528 с.
 - Баева Л.В. Толерантность: идея, образы, персоналии / Монография – Астрахань: Издательский дом «Астраханский университет», 2009. – 217 с.
 - Бахтин М.М. К философии поступка // Философия и социология науки и техники: ежегодник. – М., 1986. /Электронный ресурс/ режим доступа: <http://www.magister.konvent.ru/lib/ELIB/index.htm>
 - Бойко В.В. Социально-психологический климат коллектива и личность / В.В.Бойко, А.Г.Ковалев, В.Н.Панферов. – М.: Мысль – 1983. – 207 с.
 - Валитова Р.Р. Толерантность: порок или добродетель? // Вестн. Моск. Университета. Сер. Философия. – 1996. - № 1. – С. 33-37.
 - Гриншпун И.Б. Понятие и содержательные характеристики толерантности (к вопросу о толерантности как психическом явлении) / Толерантное сознание и формирование толерантных отношений (теория и практика): Сб. науч.- метод. Ст. -М.: Изд. МПСИ; Воронеж: Изд. НПО «МОДЭК», 2002. – С.31-40.
 - Дрынкина Т.И. Феноменология толерантности // Толерантность в современном обществе: опыт междисциплинарных исследований: сборник научных статей / под научн. ред. М.В.Новикова, Н.В.Нижегородцевой. – Ярославль: Изд-во ЯГПУ, 2011. – С.52-54.
 - Касьянова Е.И., Виноградова Н.И. Новые подходы в исследовании категории "Толерантность" // Гуманитарный вектор. Серия: Философия, культурология. Выпуск № 3 / 2012.
 - Клепцова Е.Ю. Психология и педагогика толерантности: Учеб. пособие для слушателей системы дополнительного профессионального педагогического образования. — М.: Академ. проект, 2004. – 176 с.
 - Кораблева А.А. Аксеологический подход к определению толерантности // Ярославский педагогический вестник, 2012 – № 2 – Том II (Психолого-педагогические науки), 2012.
 - Лебедева Н.М. Теоретико-методологические основы исследования этнической идентификации и толерантности в поликультурных регионах России и СНГ // Идентичность и толерантность / Под ред. Н.М. Лебедевой. — М.: Изд-во Ин-та этнологии и антропологии РАН, 2002. – 105 с.
 - Николсон П.П. Толерантность как моральный идеал / П.П.Николсон // Толерантность. Исследования. Переводы. Информация. О книгах / науч. ред. М.Б.Хомяков. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2001. – С.129-146.
 - Оконешникова Н.Л. Проблема толерантности в современной зарубежной психологии [Текст] / Н.Л.Оконешникова // Методологические проблемы современной психологии: иллюзии и реальность: Материалы Сибирского психологического форума. – Томск: Томский государственный университет, 2004. – С.215.
 - Петрицкий В.А. Толерантность – универсальный этический принцип // Известия СП лесотехнической академии. СПб., 1993.
 - Рюмшина Л.Ю. Библиотека психологии и педагогики толерантности // Вопросы психологии. – 2002. – № 2. – С. 130-131.
 - Сидорова А.Д. Проблема коммуникативности как одной из основных составляющих толерантности // Толерантность в современном обществе: опыт междисциплинарных исследований: сборник научных статей / под научн. ред. М.В.Новикова, Н.В.Нижегородцевой. – Ярославль: Изд-во ЯГПУ, 2011. – С.314-315.
 - Шебураков И.Б. Формирование толерантности государственного служащего к негативным психологическим воздействиям профессиональной среды: Автореф. дис. ... канд. психол. наук. М., 2002. – 184 с.

Толерантликнинг намоён бўлиш хусусиятлари

Резюме: ушбу мақолада толерантликнинг намоён бўлиш хусусиятларини тизимлаштиришга ҳаракат қилинган. Толерантлик феноменининг моҳиятига мавжуд назарий ва услубий ёндашувларни таҳлил қилиш асосида муаллиф толерантликнинг пайдо бўлишига таъсир қилувчи омилларни ва толерантликнинг намоён бўлиши натижасида келиб чиқадиган оқибатларни аниқлайди. Толерантликнинг пайдо бўлишига олиб келадиган омиллар ноқулай, қулай ёки ноаниқ бўлиши мумкин ва толерантликнинг намоён бўлиши натижаси деструктив ёки конструктив бўлиши мумкин.

Калит сўзлар: толерантлик, сабаб-оқибат жараёнлари, омиллар, намоён бўлиш натижаси, конструктив, деструктив.

Особенности проявления толерантности

Резюме: В данной статье сделана попытка систематизации особенностей проявления толерантности. На основе анализа существующих теоретико-методологических подходов к сущности феномена толерантности автор выделяет причины, способствующие возникновению толерантности и на следствия, получаемые в результате проявления толерантности. Факторы, способствующие возникновению толерантности, могут быть неблагоприятными, благоприятными или неопределёнными, а результат проявления толерантности может быть деструктивным или конструктивным.

Ключевые слова: толерантность, причинно-следственные процессы, факторы, результат проявления, конструктивный, деструктивный.

Features of the manifestation of tolerance

Summary: In this article, an attempt is made to systematize the features of the manifestation of tolerance. Based on the analysis of existing theoretical and methodological approaches to the essence of the phenomenon of tolerance, the author identifies the causes contributing to the emergence of tolerance and the consequences resulting from the manifestation of tolerance. The factors contributing to the emergence of tolerance can be unfavorable, favorable or uncertain, and the result of the manifestation of tolerance can be destructive or constructive.

Keywords: tolerance, causal processes, factors, result of manifestation, constructive, destructive.

УДК: 321.7:323.004.69(575.1)

09.00.00-Falsafa

JAMIYAT IDEOSFERASI YANGILASHI SOHASIDAGI ISLOHOTLAR DINAMIKASI

TurdiyevB. S.

Buxoro davlat universiteti

Har bir xalq o'zining ma'naviy taraqqiyotni yangi bosqichga olib chiqish va jamiyat ideosferasini yangilash maqsadida o'zining milliy qadriyat va ma'naviy merosini asrab-avaylab, uni rivojlantirish va xalqning milliy g'oyasini

harakat dasturiga aylantirish uchun ko'plab islohotlarni amalga oshiradi. Bu maqsadga erishish uchun, har bir xalq o'zining milliy g'oyasi atrofida birlashib, milliy yuksalish va taraqqiyot yo'lini belgilab oldi. Bugun O'zbekiston ham o'zining yangi taraqqiyot va jahondagi rivojlangan yetakchi davlatlar qatoridan joy olish yo'lidan borar ekan, bunda milliy ideosferaning yangilanish masalasi dolzarb ahamiyatga ega. Bu o'zgarishlarga davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'birlari bilan aytganda, "Xalqimizning ongi, dunyoqarashi o'zgargani, uning qalbida o'ziga, ertangi kunga ishonch paydo bo'lgani – bu bizning eng katta yutug'imiz. O'zini o'zgartira olgan xalq, hech shubhasiz, hayotni ham, ijtimoiy muhitni ham o'zgartira oladi, o'z murod-maqsadlariga albatta yetadi" [1]

Bugun yurtimizda jamiyat ideosferasini yangilash, uni yangi bosqichga olib chiqish va jadal rivojlantirish uchun ma'naviy-ma'rifiy sohadagi islohotlarni tartibga soluvchi mustahkam qonunchilik bazasi va ishonchli huquqiy kafolatlar yaratildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-sonli, 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4307-sonli qarorlari qabul qilinib, mamlakatimiz yangi taraqqiyot yo'lining hozirgi bosqichida ma'naviy-ma'rifiy sohani rivojlantirish, ta'lim-tarbiya, targ'ibot va tashviqot ishlari va keng qamrovli islohotlarning amalga oshirilishida tayanch bo'lmoqda. Ayniqsa, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasidagi ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan beshinchi ustuvor yo'nalishdagi vazifa va "O'zbekiston — 2030" strategiyasidagi g'oyalarni keng targ'ib qilish orqali jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash, jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish ko'zda tutilganligi diqqatga sazovor.

Jamiyat ideosferasining yangilanishi uchun poydevor bo'layotgan "Yangi O'zbekiston" g'oyasi zahirida milliy davlatchiligimiz tariximizdagi birinchi va ikkinchi renessans davrlariga asos solgan ajdodlarimizning orzu-intilishlari mujassam bo'lib, "Yangi O'zbekiston" va "Uchinchi Renaissance" so'zlari zahirida kelajak avlod uchun ma'naviy qanot va dastur bo'ladigan mafkuraviy kuch aks ettirilgan. Mamlakatimizda barpo etilayotgan Uchinchi Renaissance g'oyasi mazmunida ezgulik, bunyodkorlik, taraqqiyot va gumanizm g'oyasi hamohang bo'lib, bunda, avvalo, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimiz uyg'unligi ustuvor. Ushbu g'oya xalqimizning necha ming yillik hayotiy tajriba va qadriyatlariga asoslanib, uni amaliy harakatga aylantirish uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlarga e'tibor qaratishimiz zarurligini ko'rsatmoqda: **birinchidan**, ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish; **ikkinchidan**, oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash; **uchinchidan**, targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo'yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish; **to'rtinchidan**, el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliylik, urug'-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas'uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish; **beshinchidan**, aholining Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish madaniyatini oshirish, g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish; **oltinchidan**, madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san'atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma'naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligiga erishish; **yettinchidan**, geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o'rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish [2].

Yuqoridagi ustuvor yo'nalishlardan kelib chiqib, bugun yurtimizda ijtimoiy-ma'naviy muhitni barqarorlashtirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarish maqsadida Respublikamizdagi Ma'naviyat va ma'rifat markazining faoliyati muhim rol o'ynamoqda. Chunki ushbu markaz respublikamizdagi yoshlar orasida sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirish, ularni madaniyat, san'at, sport, kitobxonlik sohalariga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otish, ijodiy qobiliyatini aniqlash va rivojlantirishga ko'maklashish, ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirish va ularning ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ularning faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qilib kelmoqda. Bundan tashqari ushbu markazning "Ma'naviyat targ'ibotchisi" o'quv muassasasi negizida Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2021-yil 3-iyundagi Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti faoliyati yo'lga qo'yilishi respublikamizdagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar holati, milliy g'oyaning mamlakat taraqqiyotidagi o'rni, jamiyat barqarorligiga salbiy ta'sir etuvchi tahdidlar va ularni bartaraf etish singari ilmiy izlanishlarni olib borishga hissa qo'shmoqda [3]. Qayd etish lozimki, yurtimizda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar natijasida milliy g'oya targ'iboti, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, jamiyatda adabiyot va kitobxonlikni yanada rivojlantirish maqsadida "Ijod" jamoat fondi negizida Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash fondi tashkil etildi. Shu bilan birga, taraqqiyotning hozirgi bosqichida yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning mohiyatini teran anglashi va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga jalb etishda maqsadida 2021-2022 o'quv yilidan boshlab respublikamizdagi oliy ta'lim tizimining tegishli ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalariga bakalavriat bosqichida "Ma'naviyatshunoslik", magistratura bosqichida "Kasbiy ma'naviyat" fanlari kiritildi. Shu o'rinda, yurtimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samarasi va ta'sirchanligini oshirish, targ'ibot-tashviqot ishlarining davomiyligini, uzviyligini va uzluksiz faoliyatini ta'minlash maqsadida oliy ta'lim muassasalarining magistratura ta'lim bosqichida "PR-menejer" mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlanishi yo'lga qo'yildi [1].

Hozirgi integratsiyalashuv jarayoni jamiyat ideosferasini yangilash yo'lida intellektual salohiyat va innovatsion g'oyalarimizni amaliyotga tadbqiq etish, ularni iqtisodiy rivojlanishning ma'naviy resurslarga aylantirishni hayotiy

zaruratga aylantirmoqda. Agar jahon tajribasini kuzatadigan bo'lsak, jamiyat ideosferasi Ikkinchi jahon urushidan keyin vayronaga aylangan Yaponiya, Germaniyaning 30 yildan keyin qayta bunyod bo'lishida qanday muhim rol o'ynaganligi misolida ko'rishimiz mumkin. Jumladan, yapon xalqi o'zining milliy tiklanish bosqichida och, sillasi qurigan bir paytda stanok oldida oyoqda turolmay, ammo o'shanda o'zlarini qo'ltiqlaridan arqon bilan shiftga osib qo'yib, tik oyoqda turib, ishni davom ettirishgani katta jasoratdir. Yoxud nemis xalqining 10 soatlik mehnat uchun beriladigan bir parcha qora nonga o'z hisoblaridan 14 soat ishlaganligi ham e'tiborga molik holdir. Albatta bu xalqlarni harakatlantiruvchi kuch, ma'naviyat, ichki bir tuyg'u, milliy g'oyaga, ertangi kunga ishonch edi [4]. Darhaqiqat, ushbu xalqlarni jipslashtiruvchi va yo'naltiruvchi kuch milliy g'oyas hisoblanib, ularning ertangi kuniga ishonch va iqtisodiy farovonlikka erishishiga xizmat qilgan.

Agar jahonda yuz berayotgan bugungi keskin kurash va raqobat jarayonini kuzatadigan bo'lsak, turli guruh va mintaqalarda o'zaro manfaatlar to'qnashuvi kuchayib, insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni yuzaga chiqarayotganligining guvohi bo'lmoqdamiz. Bunday vaziyatda milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora kuchayib, faqat o'zini o'ylash, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste'molchilik kayfiyati turli yo'llar bilan insonlar, ayniqsa, yoshlar ongiga ustamonlik bilan singdirilishga harakat qilinmoqda. Ayniqsa, terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiber-jinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi oshib, jamiyat barqarorligi va hududiy xavfsizlikka tahdid kuchaymoqda. Ba'zi hududlarda atayin beqarorlik yuzaga keltirilib, norozilik kayfiyati avj olishiga olib kelmoqda. Albatta, bunday tahlilali vaziyatda hushyor va ogoh bo'lish, xalqimizning tinchligi, mamlakatimiz manfaatlarini o'ylab faoliyat yuritishimiz zarur. Zotan, bunday vaziyatda loqaydlik va beparvolik eng katta xavf sanalib, ushbu ijtimoiy muammolarni kamaytirish uchun ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni jadallashtirish, nuroniylar tarbiyasi va jamoatchilik nazoratini kuchaytarish zaruratini tug'dirmoqda. Shundan kelib chiqib, respublikamizdagi mahallalarda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash uchun "Bir ziyoli – bir mahallaga ma'naviy homiy" tamoyili asosida har bir mahallaga professor-o'qituvchi va taniqli ziyolilarning biriktirilishi muhim amaliy tadbirlardan bo'ldi. Negaki, taniqli adabiyot, san'at, fan va madaniyat arboblarning o'zlariga birlashtirilgan mahallalarda bo'lib, ma'naviy-ma'rifiy, targ'ibiy-tashviqiy va madaniy tadbirlar o'tkazishlari yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash, ularga insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirish va kelajakka mas'ul bo'lish hislarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, respublikamizda kitobxonlik madaniyatini kengaytirish, kino san'atini rivojlantirish, barcha telekanallar qoshidagi badiiy kengashlar faoliyatini tanqidiy tahlil qilib, teledasturlarning saviyasini oshirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, yurtimizda ona tili va adabiyotga bo'lgan e'tibor jamiyat ideosferasining yangilanishiga turtki bermoqda. Chunki, ona tili va adabiyotga bo'lgan e'tibor, keljakda xalqimiz milliy ongi va identligini saqlab qolishi va mustahkamlashiga xizmat qiluvchi kuchdir. Bu borada respublikamizda o'zbek tilining davlat tili maqomini kuchaytirish, uni o'rganish bo'yicha yurtimizda va xorijda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish sohasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib kelinayotganligi diqqatga sazovor.

Respublikamizda ma'naviy-ma'rifiy ishlar uzviylikda olib borilib, bu borada bog'cha, maktab, oliy ta'lim, mahalla – har biri alohida ish olib borilishi yo'lga qo'yilganligi yaxshi samara berayotganligi e'toborga molik holatdir. Mamlakatimizning maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim, professional ta'lim va oliy ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilib, mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarining yagona tizimi yaratilib, o'g'il-qizlarni bolaligidanoq bilimli va fazilatli etib tarbiyalash, buning uchun maktabgacha ta'lim muassasalariga metodik yordam ko'rsatish tizimi yo'lga qo'yilgan. Xususan, respublikamizning barcha oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallarida yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor lavozimlari joriy etilib, ular talaba-yoshlar ongiga milliy g'oyani singdirish, ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlarini olib borishning amaliy, ta'sirchan mexanizmlarini shakllantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni muvofiqlashtirib borish faoliyati bilan shug'ullanib kelishmoqda. Bugun mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy g'urur va iftixor ruhida tarbiyalash maqsadida milliy tarixni milliy ruh bilan uyg'unlikda yaratish, bu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2019-yil 1-sentyabrda "O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi huzurida "O'zbekiston tarixi" kanalining tashkil etilishi yurtimizda o'sib kelayotgan yosh avlod ongida milliy davlatchiligimizning ko'hna va boy tarixi, xalqimizning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan ilmiy, madaniy va ma'naviy hissasi to'g'risidagi ma'lumotlardan xabardor bo'lishiga, tarixning achchiq sinovlaridan saboq olishi, xulosa chiqarishi, ularni tarix ilmi va tarixiy tafakkur bilan qurollantirishiga xizmat qilmoqda. Bugun xalqimiz duny qarashida yangicha fikrlash va ishlash hissini shakllantirishda milliy "aql markazlari" mizning ham roli katta. Jumladan, respublikamizda faoliyat yuritayotgan Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabi, Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti, Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti, Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti, Xalqaro munosabatlar axborot-tahlil markazi, Huquqiy siyosat tadqiqot instituti, "Bilimlar karvoni" NNIM, "Yuksalish" umummilliy harakati kabi aql markazlari tahliliy va tadqiqot institutlari hisoblanib, ommaviy tahlillar rivojiga imkon berib, davlatning qarorlar qabul qilishida, islohotlarni ishlab chiqish va amalga oshirishida yaqindan ko'mak berib kelmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunday demokratik islohotlar nafaqat xalqimizning hayoti, qalbi va ongida yuz berayotgan ijobiy o'zgarishlarga, balki yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli bunyodkorlik ishlarida ham o'z aksini topmoqda. Poytaxtimizda Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g'alabaning 75 yilligiga bag'ishlab barpo etilgan "G'alaba bog'i" yuqoridagi fikrimizning yorqin isbotidir. Ushbu markaz, xalqimizning Ikkinchi jahon urushi yillaridagi shonli tarixini va qahramonligini o'zida majmuassam etib, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod uchun milliy tariximiz va ajdodlarimiz qahramonligini o'rganish bo'yicha yangi bunyodkorlik namunasidir. Bugun bog' hududidagi "Shon-sharaf" davlat muzeyi ekspozitsiyalari xalqimizning urush

yillarida ko'rsatgan mardlik va matonatini, yuksak insoniy fazilatlarini namoyon etish hamda yosh avlodni ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda [5]. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan G'alaba bog'i yonida "Qahramonlar nomi barhayot" nomli yodgorlik tashkil etilishining rejalashtirilganligi yurtimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik sohasidagi ulkan ishlarning davomi ekanligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyat ideosferasining yangilanishi fuqarolar tafakkurini o'zgartirib, ularning davlat va jamiyat boshqaruvida yanada faolroq, yanada tashabbuskor bo'lishiga da'vat etmoqda. Bu borada "Jamiyat – islohotlar tashabbuskori", "Xalq davlatga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi lozim", "Xalq boy va farovon bo'lsa – davlat boy va farovon bo'ladi" degan hayotbaxsh g'oyalar va "inson – jamiyat – davlat" prinsipi kundalik faoliyatimizga tobora chuqur singib bormoqda. Bu yangicha dunyoqarash atrofida barchamiz jipslashib, zamonaviy bilimlarni o'zlashtirib, yurtimiz tinchligi va xalqimiz manfaatiga xizmat qilishga intilsak, albatta, hayotimiz va jamiyatimiz ideosferasi Uchinchi Renessansni bunyod etishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Xalqimizning yuksak ishonchini oqlash, erishgan yutuqlarimizni yangi, yanada ulkan natijalar bilan mustahkamlash – bosh vazifamiz// "Xalq so'zi" gazetasi 2023 yil 15 iyul, №145 (8488).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-sonli qarori// <https://lex.uz/docs/-5344692>
3. Vazirlar Mahkamasining "Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 2021-yil 3-iyundagi 340-sonli qarori// <https://lex.uz/ru/docs/-5443067>
4. Odamiylik mafkurasini //Yangi O'zbekiston gazetasi, № 21 (277), 2021 yil 30 yanvar. -B.5.
5. "G'alaba bog'i" – xalqimiz qahramonligini aks ettirgan yaxlit majmua// <https://yuz.uz/uz/news/galaba-bogi--xalqimiz-qahramonligini-aks-ettirgan-yaxlit-majmua>

Rezyume: Mazkur maqolada jamiyat ideosferasining yangilanishi Uchinchi Renessans poydevorini yaratish uchun asos bo'layotganligi yurtimizda ma'naviy-ma'rifiy sohada olib borilayotgan islohotlar dinamikasi misolida tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: ideosfera, strategiya, Uchinchi Renessans, "PR-menejer", adabiyot, jamiyat, dunyoqarash

Резюме: Сегодня проводится множество реформ с целью изменения идеологии нашей страны, обеспечения на этой основе единства национальной идеи и духовного воспитания.

Ключевые слова: идеосфера, стратегия, Третье Возрождение, "PR-менеджер", литература, общество, мировоззрение.

Summary: Today, many reforms are being implemented to change the ideosphere of our country, ensuring the unity of the national idea and spiritual education.

Key words: ideosphere, strategy, Third Renaissance, "PR manager", literature, society, worldview

UO'K 378.147

CHET TILLARINI O'RGANISHDA DISKURSIV KOMPETENTSIYANI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOSLIKLARI

Kalikhazarova Z.M.

Qoraqalpoq davlat universiteti

Hozirgi kunda barcha ilmlar kabi filologiya ilmidan ham o'ziga xos muammolar yuzaga kelmoqda. Xususan, chet tillarini o'rganishda diskursiv kompetentsiyani shakllantirish juda ham muhim hisoblanmoqda. Shuning uchun ham bu muammo har tomonlama tahlillarni talab qilib, ularning ijtimoiy jarayonlar bilan aloqadorligini ilmiy nuqtayi nazardan chuqur o'rganishni keltirib chiqarmoqdalar. Umuman olganda maktab o'quvchilari va oliy o'quv yurtlari talabalariga chet tilini o'rgatishning muhim maqsadi chet tilining kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirishdir. Bu esa o'z navbatida, bir qator kichik kompetentsiyalardan iborat bo'lib hisoblanadi. Ko'pchilik olimlar chet tilining kommunikativ kompetentsiyasining tuzilishiga qo'shilishlariga qaramay, ular tarkibiy qismlar va ularning mazmuni bo'yicha umumiy fikrga kelmadi. Xususan, chet tilining kommunikativ kompetentsiya modellarini ishlab chiqishga bag'ishlangan dastlabki ishlardan birida M.Kanale va M.Sven[3] subkompetentlikning uchta komponentini taklif qildilar: bular grammatik, sotsiolingvistik va strategik komponent hisoblanadi. Bir necha yil o'tgach, M.Kanale[4] ushbu modelni takomillashtirdi va boshqa, to'rtinchi, subkompetentlik - diskursiv kompetentsiyani yaratadi. Dastlabki modellarni tahlil qilish olimlarning kontseptual mazmunini kichik kompetentsiyalarni ifodalovchi ba'zi atamalarga qo'yanliklarini ta'kidlashga imkon beradi. Xususan, "grammatik kompetentsiya" o'zining kontseptual mazmuniga ko'ra "lingvistik kompetentsiya"ga to'g'ri keldi, chunki u nafaqat o'rganilayotgan tilning grammatik tuzilishi haqidagi bilimlarni, balki lug'at va fonologiya haqidagi bilimlarni ham o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy lingvistik subkompetentlik an'anaviy ravishda sotsiolingvistikani o'rganish obyekti bo'lgan muloqotning ijtimoiy kontekstiga qarab nutq so'zlashuvining o'zgaruvchanligini ham, muloqotning ushbu ijtimoiy va madaniy konteksti haqidagi bilimlardan iborat sotsial-madaniy komponentni ham o'z ichiga oladi. Shu munosabat bilan aytish mumkinki, M.Kanale va M.Suen sotsial-madaniy kompetentsiyaning kontseptual mazmunini sezilarli darajada cheklab qo'yan, uni faqat chet tilidan foydalanishning ijtimoiy konteksti haqidagi bilimlarga qisqartirgan.

Diskursiv kompetentsiya ikkita asosiy tushunchani o'z ichiga oladi - "uyushuv" va "uyg'unlik". Uyushish – gapdagi so'zlarning bir-biriga mos kelishi va matndagi gaplarning o'zaro bog'lanishi. Muvofiqlik - matnning grammatik, stilistik, mantiqiy va semantik yaxlitligidir. M.Kanale va M.Sueynning chet tilidagi kommunikativ kompetentsiya modeli amerikalik va yevropalik olimlarning yuzlab ilmiy tadqiqotlari uchun asos bo'ldi. Evropada

M.Kanale va M.Swainning chet tilining kommunikativ kompetensiyasi modeli Van Ekning tadqiqotida biroz o'zgartirildi va takomillashtirildi, u birinchi modelning tanqidini hisobga olib, oltita kichik kompetensiyani aniqladi: lingvistik, sotsiolingvistik, ijtimoiy, sotsial-madaniy, diskursiv va strategik. Ko'rinib turibdiki, shaxsning o'rganilayotgan chet tilining grammatikasi, lug'at va fonologiyasini egallashini o'z ichiga olgan lingvistik kompetensiya mazmunan M.Kanale va M.Sveytnlar modelining grammatik subkompetentligiga mos keladi. Biroq, Van Ek o'z modelida sotsiolingvistik, sotsial-madaniy va ijtimoiy subkompetensiyalarni ajratdi va alohida taqdim etdi.

Haqiqatdan ham ijtimoiy subkompetentlik birinchi marta muallif tomonidan aniqlangan va taqdim etilgan. Bu bilan Van Ek pedagogik hamjamiyat e'tiborini muloqot va uning natijasi ham muloqotning ijtimoiy-madaniy holatiga, ham ma'ruzachilarning muloqot jarayonida bajaradigan ijtimoiy rollariga bog'liqligiga qaratadi. Diskurs komponenti Van Ek modelida ham mavjud. Uning mazmuni M.Kanale va M.Sueyn modelidagi bir xil nomdagi komponentdan farq qilmaydi. Shu bilan birga biz shu narsani ta'kidlashimiz kerakki, Van Ek, M.Kanale va M.Sven ham o'zlarining chet tilidagi kommunikativ kompetensiya modellari strategik subkompetensiyani kiritdilar. Ushbu kichik kompetensiya talabalar tomonidan chet tilidagi muloqot jarayonida muqarrar ravishda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan til va axborot bo'shliqlarini bartaraf etish uchun javobgardir. G'arb ilmiy adabiyotida M.Kanale va M.Sueyn va Van Ek modellari tashqari Layl Baxman[6] tomonidan ishlab chiqilgan kommunikativ qobiliyatlar modeli keng ma'lum bo'ldi. "Kompetensiya" (bilim toifasi sifatida) va "samaradorlik" (faoliyat toifasi sifatida) atamalar o'rtasidagi farqdan kelib chiqib, Baxman, uning fikricha, "kommunikativ qobiliyat" atamasidan to'g'ri foydalanishni taklif qildi. Bu bilan u talabaning chet tili bo'yicha olgan bilimlaridan haqiqiy og'zaki yoki yozma muloqotda qanday foydalana olishiga e'tibor qaratdi. O'z tuzilishiga ko'ra, kommunikativ qobiliyatlar modeli chet tilining kommunikativ kompetensiyasining ilgari ishlab chiqilgan barcha boshqa modellardan sezilarli darajada farq qiladi. Olim kompetensiyalarning ikki asosiy turini - tashkiliy (grammatik va matn komponentlari (nutqining izchilligi) va pragmatik (muloqotning ijtimoiy-madaniy jihati, shuningdek, muloqotning funksional jihati)ni belgilaydi. Aslini olganda, L.Bachmannning kommunikativ qobiliyat modelining mazmuni boshqa mualliflarning chet tilining kommunikativ kompetensiyasi modellari mazmuniga to'g'ri keladi, lekin ularning tuzilishida bu tubdan farq qiluvchi modellar hisoblanadi.

Rus uslubi adabiyotida chet tilidagi kommunikativ kompetensiya modellari keng tarqalgan. Shuningdek, ko'pgina olimlar o'z tadqiqotlarini chet el mualliflari M.Kanale va M.Sveytn va V.Eklarning modellari asosida olib borganlar. Chet tilining kommunikativ kompetensiyasi modelida R.P.Milrud G'arb an'analariga amal qilib, pragmatik subkompetentlikni qo'shdi[7]. Olimning ta'kidlashicha, muloqot paytida muloqot ishtirokchilari turli xil kommunikativ funksiyalar uchun bayonotlardan foydalanadilar, kommunikativ va pragmatik maqsadlarga muvofiq nutq bayonini tuzadilar. Chet tilining kommunikativ kompetensiyasi modelida V.V.Safonova[2] so'zlariga ko'ra, sotsial-madaniy subkompetensiya muhim o'rin tutadi, uning fikricha sotsiolingvistik mavzu tematik, umumiy madaniy va kundalik kompetensiyani o'z ichiga oladi. Ijtimoiy-madaniy kompetensiyadan tashqari, chet tilining kommunikativ kompetensiyasi lingvistik va nutqiy kompetensiyani o'z ichiga oladi.

Chet tilining kommunikativ kompetensiyasi modelida G.V.Elizarova[8] va Van Ek[5] tomonidan taklif qilingan oltita komponentni asos qilib oldi. Shu bilan birga, muallif barcha olti komponentni madaniyatlararo kompetensiya prizmasi orqali ko'rib chiqdi, chet tilining kommunikativ kompetensiyasining har bir kichik kompetensiyasida madaniyatlararo komponentni ajratib ko'rsatdi. Shunday qilib, G.V.Elizarova madaniyatlararo kompetensiya va chet tilining kommunikativ kompetensiyasini uyg'unlashtirishga harakat qilgan birinchi olimlardan biri hisoblanadi. Muallif chet tilining kommunikativ kompetensiyasi tarkibiga lingvistik, nutqiy, ijtimoiy-madaniy, kompensatsion va o'quv-kognitiv subkompetensiyalarni kiritgan. Terminlarning kontseptual mazmuni bo'yicha umume'tirof etilgan an'anani davom ettirgan holda, til subkompetensiyasi grammatika, lug'at, fonetika o'zlashtirishni o'z ichiga oladi; nutq subkompetentligi nutq faoliyati turlarini (o'qish, gapirish, yozish va tinglash) ni ifodalaydi; kompensatsion subkompetentlik - bilim va ko'nikmalardagi kamchiliklarni qoplash qobiliyatini beradi. I.L.Bim modelining beshinchi komponenti o'quv-kognitiv subkompetentlik - chet tilidagi kommunikativ kompetensiya modellari hech birida taqdim etilmagan[1]. Ta'lim-kognitiv subkompetentlik - bu shaxsning butun hayoti davomida sinfdan tashqarida yoki o'qishni tugatgandan so'ng o'z-o'zini tarbiyalash bilan shug'ullanish qobiliyatidir. Bir tomondan, chet tilining kommunikativ kompetensiyasi modeliga o'quv tsiklining har qanday predmeti uchun universal bo'ladigan jihatni kiritish g'alati tuyulishi mumkin. Boshqa tomondan, P.V.Sysoev[9], ta'lim va kognitiv subkompetentlikni alohida ta'kidlab, u I.L.Bimning chet tili va chet tilida o'z-o'zini ta'lim bilan shug'ullanish ko'nikmalarini shakllantirish muhimligini ta'kidlashi; chet tilining o'rganish obyekti sifatida universal ko'nikmalarni bevosita chet tilini va ona va o'rganilayotgan tillar mamlakatlari madaniyatini o'qitishga moslashtirishni talab qiladigan o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligiga e'tibor qaratishini aytib o'tgan.

Bizning tadqiqotimiz doirasida ta'limning uchinchi bosqichida talabalarning diskursiv kompetensiyasini rivojlantirish asosiy qiziqish uyg'otadi. Shu munosabat bilan "diskursiv kompetensiya" va "diskurs" kabi tushunchalarga batafsil to'xtalib o'tamiz. Lingvistik va pedagogik tadqiqotlarda bu atamalar har xil talqinlarga ega. Keling, ba'zi ta'riflarni ko'rib chiqaylik. M.Kanale diskursiv kompetensiyani "og'zaki va yozma matnning birligiga erishish uchun grammatik shakllar va ma'nolarni birlashtira olish qobiliyati" deb tushunadi. Chet tilining kommunikativ kompetensiyasining umumevropa modeli ishlab chiquvchisi diskursiv kompetensiyani "matnlarni muloqot qilish va sharhlashda tegishli strategiyalardan foydalanish qobiliyati" deb tushunadi. Matn deganda "og'zaki yoki yozma matnning har qanday hajmdagi, birlik bilan tavsiflangan har qanday bo'lagi" tushuniladi.

A.Devis, A.Braun, C.Elder va boshqalar diskursiv kompetensiyani "matnning uyg'unligi va uyg'unligi uchun mas'ul bo'lgan chet tili kommunikativ kompetensiyasi komponenti" deb tushunadilar [10]. H.Braun diskursiv kompetensiyani "gaplarni bir-biriga bog'lash va mazmunli gap yaratish qobiliyati" deb talqin qiladi [11]. Ko'pincha

inglizcha "diskursiv kompetensiya" atamasi bilan sinonim bo'lgan ruscha "nutq kompetensiyasi" atamasi quyidagicha talqin qilinadi: "shu jumladan lingvistik kompetensiya, ma'lumki, nutq faoliyatining to'rtta asosiy turida amalga oshiriladi: tinglash, gapirish, o'qish va yozish".

Uslubiy atamalar lug'atida E.G.Azimov va A.N.Shchukin nutq kompetensiyasini "til orqali fikrni shakllantirish va shakllantirish usullariga ega bo'lish va nutqni idrok etish va yaratish jarayonida bunday usullardan foydalanish qobiliyati" deb ta'riflaydi va u kommunikativ kompetensiyaga kiritilgan. Nutq kompetensiyasining miqdoriy va sifat tarkibi haqida gapirish kerak, bunda u kattaroq yoki kichikroq bo'lishi mumkin. Biroq, nutq kompetensiyasi, xuddi lingvistik kompetensiya kabi, o'z-o'zidan maqsad emas, balki kommunikativ kompetensiya yo'lidagi oraliq bo'g'indir. Ular o'rganilayotgan til me'yorlari, ushbu tilning qo'llanish va madaniy an'analariga muvofiq muloqot jarayonida o'zaro ta'sir muammolarini hal qilish uchun zarur va yetarli darajada assimilyatsiya qilinadi"[12]. Tadqiqotchi V.V.Safonova "nutq kompetensiyasi" deganda quyidagilarni tushunadi: "bir tomondan, kundalik va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muloqotning o'rganilayotgan sohalarida nutq xatti-harakatlarining umumiy va o'ziga xos qoidalarini bilish, ikkinchi tomondan, ushbu qoidalarni tartibda operativ o'zlashtirishni tushunadi. Chet tilidagi nutqni yaratish va o'zgartirish va chet tilidagi haqiqiy nutq mazmunini kommunikativ jihatdan to'g'ri talqin qilish, nutqni idrok etish va ishlab chiqarish madaniyati darajasi insonning nutq kompetensiyasining rivojlanish darajasiga bog'liq hisoblanadi. Chet tillarni o'qitish jarayonida ona tilidagi nutqiy kompetensiya bilan chet tilidagi nutqiy kompetensiya o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud. Chet tilli ko'p madaniyatli muhitda tildan muloqot vositasi sifatida foydalanish uchun zarur bo'lgan madaniyatlara nutq kompetensiyasini rivojlantirish, tegishli ijtimoiy-madaniy kompetensiyani parallel ravishda shakllantirish va rivojlantirishsiz mumkin emas". N.V.Popova diskursiv kompetensiyani "haqiqiy aloqa vaziyati va adekvat funktsional uslub doirasida tematik tashkil etish, uyg'unlik, uyg'unlik, ritorik samaradorlik va mantiqni saqlab qolgan holda izchil nutqni yaratish qobiliyati" deb tushunadi.

Xulosa qilib aytganda "Diskursiv kompetensiya" va "nutq kompetensiyasi" atamalarining berilgan ta'riflarini tahlil qilish ularning kontseptual mazmunida bir xil ekanligini ko'rsatadi. Diskursiv yoki nutqiy kompetensiya - bu shaxsning izchil og'zaki yoki yozma bayonot ishlab chiqarish qobiliyati bilan, uyg'unlik va izchilligi bilan tavsiflanadi shuningdek, o'qish yoki tinglashda chet tilidagi bayonotni adekvat izohlaydi. Diskursiv yoki nutqiy kompetensiya chet tilidagi kommunikativ kompetensiyaning barcha boshqa kichik kompetensiyalari bilan uzviy bog'liq bo'lib, boshqa komponentlar qatorida talabalarda shakllanadi.

ADABIYOTLAR

1. Бим И.Л. Личностно-ориентированный подход - основная стратегия обновления школы // Иностранные языки в школе. 2002. № 2. С. 11-15.
2. Сафонова В.В. Изучение языков международного общения в контексте диалога культур и цивилизаций. - Воронеж: Истоки, 1996. - 237с.
3. Canale M., Swain M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing // Applied Linguistics. 1980. № 1(1). Pp. 1-48.
4. Canale M. From communicative competence to communicative language pedagogy // Language and Communication. London: Longman, 1983. - Pp. 2-27.
5. Ek van J. Objectives for Foreign Language Learning. Vol. I. Scope. - Strasbourg, 1986. 196 p.
6. Bachman L. Fundamental considerations in language testing. - Oxford: Oxford University Press, 1990. - 406 p.
7. Мильруд Р.П. Методика преподавания английского языка. - М.: Дрофа, 2005.
8. Елизарова Г.В. Культура и обучение иностранным языкам. - СПб: Изд-во «КАРО», 2005. - 352 с.
9. Сысоев П.В. Формирование учебно-познавательной компетенции в целях обучения иностранному языку // Иностранные языки в школе. 2015. № 10. С. 15-24.
10. Davies A., Brown A., Elder C., Hill K., Lumley T., McNamara T. Dictionary of language testing. Cambridge: Cambridge University Press, 1999.
11. Brown H.D. Teaching by principles. N.Y.: Longman, 2000.
12. Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Словарь методических терминов и понятий. М.: Златоуст, 1999.

Chet tillarini o'rganishda diskursiv kompetensiyani shakllantirishning o'ziga xosliklari

Rezyume: ushbu maqolada chet tilini o'rgatish maqsadida diskursiv kompetensiyaning o'rni va mazmunini ko'rib chiqishga bag'ishlangan. Unda muallif chet tilining kommunikativ kompetensiyasining asosiy modellarini ko'rib chiqadi, diskursiv kompetensiyaga ilmiy tahlillar keltirilgan va kommunikativ kompetensiya bilan bog'liq bo'lgan "diskursiv kompetensiya" va "nutq kompetensiyasi" atamalarining kontseptual mazmunini nisbiy ilmiy yo'ndashuvlar asosida chuqur tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: kommunikativ kompetensiya, model, fonologiya, ijtimoiy kontekst.

Особенности формирования дискурсивной компетенции при изучении иностранных языков

Резюме: данная статья посвящена рассмотрению роли и содержания дискурсивной компетентности в обучении иностранному языку. В ней автор рассматривает основные модели коммуникативной компетенции иностранного языка, представлен научный анализ дискурсивной компетентности, а также глубоко исследуется концептуальное содержание терминов «дискурсивная компетентность» и «речевая компетентность», связанных с коммуникативной компетентностью. относительные научные подходы.

Ключевые слова: коммуникативная компетенция, модель, фонология, социальный контекст.

Peculiarities of formation of discursive competence in learning foreign languages

Summary: this article is dedicated to considering the role and content of discursive competence in order to teach a foreign language. In it, the author examines the main models of communicative competence of a foreign language, scientific analyzes of discursive competence are presented, and the conceptual content of the terms "discursive competence" and "speech competence" related to communicative competence is deeply researched based on relative scientific approaches.

Key words: communicative competence, model, phonology, social context.

JISMONIY TARBIYA MASHG'ULOTLARIGA BO'LGAN QIZIQISH VA ZARURATNI SHAKLLANTIRISHDA JISMONIY HOLATNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Utegenov J.J.

Qoraqalpoq davlat universiteti

Respublikamizda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va madaniy sohalarida amalga oshirilayotgan islohatlar ta'limini va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan yangilash va rivojlantirishni talab etadi. Shu boisdan ta'lim tizimini zamon talablari darajasida va erishilgan tajribalar asosida rivojlantirish orqali osib kelayotgan yosh avlodni jamiyat xayotida faol ishtirok etadigan, har tomonlama etuk va yuksak ma'naviyatli, komil insonlar etib tarbiyalash davlatimizning ustivor yunalishlaridan xisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalaridagi jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini takomillashtirish, talaba-yoshlarni har tomonlama rivojlantirishning zamonaviy vosita va usullarini ishlab chiqishga bo'lgan ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda. Talaba-yoshlarda faol hayot tarzi, yuqori axloqiylik, ezgulik va insoniylik fazilatlarini tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sport shakllari, metod va vositalaridan foydalanish yildan yilga muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bir qator olimlarning ilmiy izlanishlarida oliy ta'lim muassasalari talabalarining jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etishda pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq va samarali bo'lishi uchun, uning asosida tizimlashtirilgan bilimlar, jumladan, pedagogik jarayon maqsadi, tamoyillari, unga mos vazifalar, mezonlar shakllantirish, ularga adekvat ravishda talaba yoshlarning qiziqishlari va ehtiyojlari hisobga olinadigan holda jismoniy tarbiya, sog'lomlashtirish va sport tadbirlari tashkil etish shakllari, shuningdek, ularni oliy ta'lim muassasalarida amaliy faoliyatiga tatbiq etish mexanizmi bo'lishi shartligini ko'rsatgan [1,2,3]. S.I.Filimonova ilmiy izlanishlari natijalari shuni ko'rsatadiki, aksariyat (70,8 %) talabalar uz hayotlarida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyatini yetarlicha baholamaydilar. Ulardan 48,9% talaba jismoniy tarbiyani sog'liqni saqlash vositasi; 11,8% talaba vaqtini yaxshi o'tkazish uchun yaxshi mashg'ulot; 6,8% kasbiy faoliyatga tayyorgarlik ko'rish vositasi; 3,5% talaba vaqtini bekorga sarflash deb hisoblaydi. Birinchi kurs talabalarining faqat 29,2% "jismoniy tarbiya shaxsni har tomonlama rivojlantirish sohasi" ekanligini tushunadi [4].

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. Ular psixik jixatdan barqaror, faol maqsad qo'ya oladigan va unga mustaqil erisha oladigan shaxsni shakllantirishga yordam beradi.

Zamonaviy o'quv jarayoni katta psixik yuklamalar bilan birga kechadi Aqliy mehnat turi hisoblangan o'qish bir qator xususiyatlar bilan ifodalanadi: topshiriqlar hajmining muntazam oshib borishi va o'zgarib turishi, egallash uchun zarur bo'lgan axborotning qiyinlashganligi va yangiligi, buning uchun ajratiladigan vaqtning cheklanganligi. Talabalar bo'lajak amaliy faoliyatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan aniq muammoli vaziyatlarni ijodiy mantiqan hal eta olish qobiliyatiga ega bo'lishlari lozim. Ularda axborot manbalari soni va sifatining tez-tez o'zgarib turishi kuzatiladi; bilimlarni o'zlashtirish sifati va ulardan foydalanish samaradorligi qat'iy nazarot qilinadi [5]. Ilmiy texnik axborot hajmining muntazam ortib borishi sharoitlarida, o'qish jarayonida aqliy yuklama oshadi, talabalarining psixik-jismoniy imkoniyatlariga qo'yiladigan talablar ancha o'sadi [6]. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining jismoniy tarbiyasi masalalari bo'yicha vatanimiz va xorijiy ilmiy hamda ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili shuni aniqlashga imkon berdiki, oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiyani takomillashtirish muammosi jiddiy ilmiy, maqsadga yo'naltirilgan pedagogik tadqiqotlarni taqozo etadi. Tadqiqot vazifalari sababli biz Qoraqalpoq davlat universiteti talabalarining jismoniy holatini baholash, harakat faolligi xususiyatlarini hamda salomatliklariga bo'lgan munosobatlarini aniqlash zarur deb hisoblanadi. Talabalarining harakat faolligi va jismoniy holatini, shuningdek, ularning mashg'ulotlarga bo'lgan munosobatlarini o'rganish maqsadida anonim anketa so'rovi o'tkazildi va unda asosiy bo'limda shug'ullanuvchi 78 nafar yigitlar hamda 42 nafar qizlar (17-18 yosh) ishtirok etishdi. (1-ildovaga qarang).

Anketa so'rovi natijalari shuni ko'rsatdiki tekshiriluvchilarning oliy o'quv yurtiga kirgunga qadar harakat faolligi past darajada bo'lgan. Jismoniy tarbiya bilan har kuni shug'ullanuvchi yigitlar va qizlar soni tahminan bir hil bo'ldi (mos ravishda 34% va 29%) faqat maktabdagi jismoniy tarbiya dasrlariga 72% yigitlar va 56% qizlar qatnashgan. Biroq umuman jismoniy tarbiya bilan shug'ullanmagan va kam shug'ullangan talabalarni aniqlashda katta farqlar kuzatildi: bu guruhga 8% yigitlar (5,8% talabalar kamdan-kam shug'ullangan va 1,94% umuman shug'ullanmagan) hamda 22% qizlar kirdi (mos ravishda 14,46% va 7,23%). Oliy o'quv yurtiga kirgunga qadar sport bilan 37% yigitlar va 21% qizlar qiziqishgan. Sport razryadiga ega yigitlar 15% ni, qizlar 11% ni tashkil etadi, ulardan I- razryad 1-2 % talabada mavjud.

Anketa so'rovining ko'rsatishicha, oliy o'quv yurtining sport hayotida 15% yigitlar va faqat 5% qizlar ishtirok etadi, 43% yigitlar va 25% qizlar faqat vaqti-vaqti bilan qatnashib turadi. Jismoniy tarbiya va sport bilan qo'shimcha ravishda 31% yigitlar va yuklamalarning o'sib borishiga qaramay, har kunlik mashg'ulotlardan 8% yigitlar va 11% qizlar foydalanadi. Ikkala guruhdagi talabalarining ko'pchiligi (27% yigitlar va 25% qizlar) haftada faqat 1-2 marta qo'shimcha shug'ullanadilar. Bitta mashg'ulotning o'rtacha davomiyligi yigitlarda 37 minut, qizlarda esa 31 minutni tashkil etadi. Talaba-yoshlarning tahminan uchdan bir qismi harakat ko'nikmalaridan qo'shimcha shakllaridan, ya'ni jismoniy tarbiya va sport, sog'lomlashtirish mashg'ulotlari bilan endi shug'ullanmaydi. Qizig'i shundaki, so'ralgan talaba yigitlarning 72% va talaba qizlarning 64%, har kunlik jismoniy faollikga ehtiyoj sezadilar. Chamasi, ma'lum bir hayotiy vaziyatlarda ular yanada faolroq shug'ullanadilar. Ushbu taxminimizni ko'p sonli yigitlar va qizlarning ko'pchiligining keyingi hayot davomida jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishni rejalashtirayotganliklari tasdiqlaydi (75% yigitlar va 66% qizlar). Harakat faolligi tavsifi 3.2-jadvalda batafsil keltirilgan.

3.2-jadval. Talabalarining harakat faolligi tavsifi

t/r.	Javoblar variantlari	So'rov natijasi %	
		yigitlar	qizlar
1	Oliy o'quv yurtiga o'qishga kirguncha		

	Maktabdagi jismoniy tarbiya:		
	-har kunlik jismoniy tarbiya mashg'ulotlari	46,45	48,19
	-faqat maktabdagi darslarga qatnashish	45,81	30,12
	-kasallik tufayli kam shug'ullangan	5,81	14,46
	-shug'ullanmagan	1,94	7,23
	Sport bilan shug'ullanish:		
	-I razryadga ega	1,29	2,44
	-II yoki III razryadga ega	13,55	9,67
	-shug'ullangan, lekin razryadi yuq	61,94	45,12
	-shug'ullanmagan	23,23	43,68
2	Oliy o'quv yurtida o'qish vaqtida OO'Yu hayotida qatnashish:		
	-bajanodil	14,84	4,94
	-ba'zan	43,22	24,69
	-qatnashmagan	40	70,37
	Qo'shimcha jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari		
3	-har kuni	8,02	10,98
	-haftada 3-4 marta	16,05	14,63
	-haftada 1-2 marta	46,91	45,12
	-shug'ullanishmaydi	29,01	29,27
	Bitta qo'shimcha mashg'ulotning o'rtacha davomiyligi (min).	47	31
4	Har kunlik harakat faolligiga bo'lgan ehtiyoj		
	-Ha	79,74	93,75
	-Yuq	20,26	6,25
5	Keyingi yillarda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish istagi		
	-albatta bor	57,52	41,25
	-harakat qilaman	37,25	55
	-bunday imkoniyatni ko'rmayapman	2,61	0
	-javob berishga qiynalaman	2,61	3,75

Ushbu anketa so'rovida asosiy va tayyorgarlik guruhlar talabalari qatnashdi. Asosiy guruhga 71% yigitlar va 58% qizlar, tayyorgarlik guruhiga 17% yigitlar va 24% qizlar kirgan. Ushbu nisbat birinchi bosqich talabalariga xos hisoblanadi. Ulardan 89% yigitlar va 78% qizlar o'z salomatligini yaxshi va a'lo deb baholaydi. Deyarli 51% yigitlar va 38% qizlar semestr davomida kasal bo'lmaganlar. Uzoq davom etadigan kasalliklarga (2 haftadan bir oygacha) 7% yigitlar va 15% qizlar chalinganlar. Aksariyat talabalar o'z salomatliklari holatini ijobiy baholaydilar (89% yigitlar va 85% qizlar), 11% yigitlar hamda 15% qizlar esa o'zlarining jismoniy holatini qoniqarli deb baholaganlar. Talabalarning hech qaysisi o'z sog'lig'ini yomon deb baholamagan. O'z salomatligini saqlashga faol munosabat to'g'risidagi savol quyidagilarni aniqlab berdi: o'z salomatligini saqlash tug'risida maqsadli g'amxo'rlik qiladigan yigitlar 53% ni, qizlar esa 48% ni tashkil etdi. Bu hakda deyarli uylamaydiganlar ham bor: 9% yigitlar va 12% qizlar. O'z salomatlik holatini saqlash uchun ba'zan qandaydir choralar ko'radiganlar 37-39% ni tashkil etdi.

Talabalarning ko'pchiligi, jismoniy tarbiyaga ijobiy munosabatda bo'lsada, unga faol qiziqish bildirmaydi va jismoniy tarbiya darslariga faqat zarurat tufayli qatnashib keladi. Talabalarning jismoniy tarbiya bilan mustaqil shug'ullanishi borasida ham ahvol aytarlilikday yaxshi emasligini yo'qoridagi anketa savollari natijalariga tayangan holda aytishimiz mumkin. Tadqiqot davomida talabalar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijasiga ko'ra, respondentlarning 12% dan kamrog'i jismoniy tarbiya va sport bilan mustaqil shug'ullanishi aniqlandi.

Ba'zi mualliflar mavjud vaziyatni zamonaviy sivilizatsiyaning o'ziga xos xususiyatlari kundalik hayotda va harakat faoliyatida keskin cheklanish uchun sharoit yaratishi yoki jismoniy tarbiya sohasi (hozirgi holati bilan) zamonaviy yoshlarning ehtiyojlarini qondirmasligi bilan izohlaydi [7,8]. Oliy ta'lim muassasalarida an'anaviy tarzda qurilgan jismoniy tarbiya jarayoni talabalarni sog'lomlashtirish faoliyatiga jalb qilish vazifasini etarli darajada bajara olmaydi. Talabalarning jismoniy tarbiyaga salbiy munosabatining yana bir sababi maktabda va oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya shakllari faqat jismoniy sifatlarni oshirishga qaratilganligidir. Jismoniy tarbiya fanini o'qitish jarayonida talabalarni sog'lomlashtirish metodologiyasi bilan qurollantiradigan texnologiyalar, usuliyatlar ishlab chiqish muammosi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Shu bilan birga, jismoniy tarbiya va sport fani o'qituvchilarining ish faoliyati davomida talabalarning jismoniy tayyorgarlik normativlarini bajarishga erishish emas, balki jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish mashg'ulotlariga qiziqishini oshirish ishlarida ham ijobiy o'zgarishlarga erishish kerak. Sog'lomlashtiruvchi va tayyorgarligini oshiruvchi jismoniy tarbiya mashg'ulotlari talabalarning jismoniy va ijtimoiy munosabat darajasini yaxshilagan holda, umuman jismoniy tarbiyaga va o'zlariga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirishi va jamiyatga yanada samarali integratsiyalashuviga hissa qo'shishi mumkin. Aynan ta'lim muassasalaridagi jismoniy tarbiya darslari insonning o'ziga, sog'lomlashtiruvchi mashqlarga, jismoniy tayyorgarligini saqlab turishga nisbatan to'g'ri fikrlashni shakllantirish, talabalarda qattiyatlilik, muntazamlilik va axloqiy fazilatlarini tarbiyalashga, salomatligini asrashga, sog'lom turmush tarzini olib borishga ehtiyoj paydo qilish.

Talabalarning sog'lom turmush tarziga bo'lgan ehtiyoji va uni jismoniy tarbiya vositalari orqali muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar etarli darajada emasligi o'rtasida ziddiyat mavjud. Jismoniy tarbiya

o'qituvchilari (ularning bilimi, tafakkuri va shaxsiy fazilatlar) ga alohida talablar qo'yilmoqda, chunki ularning kasbiy tayyorgarligi darajasi so'nggi paytlarda sezilarli darajada pasaygan, o'qituvchilar oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslari talabalarda chinakam qiziqish uyg'otishi va salomatlikni mustahkamlashga hissa qo'shishi uchun qanday tashkil etilishi lozimligi haqida aniq tushunchaga ega emas. Bu holat pedagogik innovatsiyalarni joriy etish yo'lida haqiqatdan ham jiddiy muammo bo'lmoqda.

Tadqiqot davomida ayrim mualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarni tahlil qilganda, jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish faoliyatini shakllantirish bo'yicha har xil dasturlarning ancha ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, ta'lim tizimi (agar modernizatsiya qilingan bo'lsa) aholining ijtimoiy salomatligini shakllantirishda muhim rol o'ynashga qodir degan fikrga qo'shilishimiz kerak. Shu bilan oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv dasturi bo'yicha o'tkaziladigan jismoniy tarbiya darslari talaba-yoshlarni jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish mashg'ulotlariga qiziqitirish, ularning tayyorgarlik faoliyatini oshirishning eng samarali shakli hisoblanadi. Ammo e'tiborimizni tor pragmatik vazifalarga emas, ko'proq shaxs shakllantirishni nazarda tutuvchi kengroq vazifalarga qaratishimiz kerak. Shunday qilib, jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish mashg'ulotlari salomatlikni saqlash va shakllantirishning muhim omili, jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish faoliyatining asosiy komponentidir. Lekin talaba yoshlar jismoniy tarbiyasining hozirgi holatini bir qator sabablarga ko'ra inqirozli holat sifatida tavsiflash mumkin. Ayni paytda, ushbu jarayonni optimallashtirish uchun pedagogik vositalar mavjud bo'lib, ularni amaliyotda qo'llash mumkin. Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarining jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish faoliyatini shakllantirish muammosi eng «o'tkir» (valeologik yo'nalish buyicha fanlar yo'qligi sababli), ammo hozirda deyarli hal etilmagan muammodir. Talabalar o'rtasida o'tkazilgan anketa so'rovnomasi talabalarining harakat faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini va ularning salomatligidagi kamchiliklarni (nuqsonlarni) aniqlashga imkon berdi. O'g'il bolalarda ham, qizlarda ham harakat faolligining turli xil xususiyatlari aniqlandi. Talabalik yoshida jismoniy tarbiya vositalari o'ta samarali bo'lib, ulardan foydalanib harakat ko'nikmalariga ega qilish va jismoniy tayyorgarliklarini oshirish mumkin, bu o'z navbatida sog'liqdagi kamchiliklarini oldini olish imkonini beradi. Biroq aytish kerakki, respublikamiz oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturlarida jismoniy tarbiya va sport faniga ajratilgan soatlar hajmi kamayib bormoqda hattoki ayirim oliy ta'lim yurtlarida jismoniy tarbiya kafedralari yopilib ketmoqda. Ayirim toifadagi talabalar uchun esa bu jismoniy tarbiya mashg'ulotlari harakat faolligini saqlab turishning usullaridan biri hisoblanadi.

Bu vazifani hal qilishni ta'minlaydigan ustuvor omil sifatida talaba-yoshlarning jismoniy tarbiya hamda sog'lomlashtirish mashg'ulotlariga bo'lgan qiziqishlaridan foydalanish lozim. Shu sababli anketa so'rovnomasi yordamida talaba-yoshlarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga qiziqish va ehtiyojlari, aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. Roberts G., Treasure D. Advances in motivation in sport and exercise. 3rd ed. Textbook. United States of America, USA: Human Kinetics, 2012. 42-43– P.
2. Çalik F., Gülle M., Sertbas K., Sari D., Kaya E. Analysis and examination of the relationship between leisure motivation and academic motivation of students of schools of physical education and sports. Journal of Physical Education and Sport. Romania, 2014 year. vol. 1. – 127-128 p.
3. Howard Z. Zeng., Raymond E. Weston., Juan B. Relationships between sports, physical activity participation, and Phys-Ed GPA: Results and analyses from a national sample of Asian American students. Journal of Physical Education and Sport. Romania, 2016 year. vol. 21. 140 p.
4. Филимонова С.И. Физическая культура, спорт и современное студенчество. Физическая культура и спорт в Российской Федерации (студенческий спорт): / Сб. статей. – М.: "Полиграф сервис", 2002. – 178 с.
5. Шарыгина И.Т., Фендель Т.В., Зубков Д.А. – Оценка сформированности организационно-управленческой компетенции бакалавров физической культуры. Теория и практика физической культурой. Москва: 2015. №4 - 30 с.
6. Сетева Н.Н., Соколовская Л.В., Диордица Л.В. Оценка и коррекция состояния здоровья студентов в период учебы в педагогическом вузе. Теория и практика физической культурой. Москва: 2017. №8. - 37 с.
7. Миронова С.П. Педагогический мониторинг как условие повышения эффективности управления процессом физического воспитания студентов: дис. ... канд. пед. наук – Екатеринбург, 2004. – 219 с.
8. Ахматов М.С. Массовый спорт – основа государственного управления производства и накопления ресурса здоровья населения. Фан-саортга, 2017 й. №4.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga bo'lgan qiziqish va zaruratni shakllantirishda jismoniy holatning o'ziga xos xususiyatlari.

Rezyume: Maqolada talabalar o'rtasida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining motivatsion mexanizmining elementlari ko'rib chiqilgan. Jismoniy tarbiya hamda sport mashg'ulotlariga qiziqishlari, talaba yoshlarning kundalik hayotida jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanish bo'yicha sotsiologik tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: sog'liq, anketa so'rovi, jismoniy tarbiya, ehtiyojlar, qiziqishlar, mashg'ulot, motivatsiya.

Особенности физического состояния в формировании интереса и потребности в занятиях физической культурой.

Резюме: В статье рассмотрены элементы мотивационного механизма физкультурно-спортивной деятельности учащихся. Представлены результаты социологических исследований по интересам к физической культуре и спортивной деятельности, использованию средств физического воспитания в повседневной жизни студенческой молодежи

Ключевые слова: здоровье, анкетный опрос, физическая культура, потребности, интересы, тренировка, мотивация.

Features of the physical condition in the formation of interest and need for physical education.

Resume: The article considers the elements of the motivational mechanism of physical culture and sports activities of students. The results of sociological research on the interests of physical culture and sports activities, the use of physical education in the daily life of students are presented.

Key words: health, questionnaire survey, physical training, needs, interests, workout, motivation.

16-17 YOSHLI MALAKALI KURASHCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIKLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

¹Qaniyazov S., ²Jarilkapov U.

¹Qoraqalpoq davlat universiteti

²O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni faol rivojlantirish, aholining barcha qatlamlarini, ayniqsa, yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb qilish, jamiyatda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-noyabrda PQ-4881-sonli "Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida, kurash milliy sport turini rivojlantirishga katta etibor berilmoqda [1]. "Kurash milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risi" dagi masalasiga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Bunda "Kurash milliy sport turini aholi o'rtasida keng targ'ib qilish, iqtidorli sportchilarni aniqlash, tanlash va saralash hamda ularni professional sportchilar sifatida tayyorlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish muhimdir [2]. Dunyo miqyosida so'nggi yillarda o'tkazilib kelinayotgan nufuzli sport musobaqalarida, jumladan, Osiyo o'yinlari va Osiyo chempionatlari, hamda qator an'anaviy xalqaro turnirlarda sport natijalarining uzluksiz o'sib borishi, raqobatni yanada keskinlashishiga olib kelmoqda. Zamonaviy kurash amaliyotida yuksak sport natijalariga erishish maqsadida yuklamalar hajmi va shiddatini me'yori to'g'ri rejlashtirish orqali yuqori natijalarga erishishning asosi bo'lib xizmat qilishini mutaxassis-olimlar tomonidan ta'kidlanib kelinmoqda [3]. Bugungi kunda bu borada bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, manbalarda kurashchilarning jismoniy tayyorgarlik holati bilan bog'liq texnik-taktik usullarni bajarishda ustuvor jismoniy sifatlarini rivojlantirish hamda me'yorlarini to'g'ri baholash texnologiyasi ilmiy jihatdan yetarlicha ochib berilmagan. Bu esa mutaxassislar tomonidan ilmiy asoslangan izlanishlar olib borishni taqozo etadi [4]. Kurashchilarni ko'p yillik tayyorgarlik tizimini tuzish, jismoniy tayyorgarlik holatini oshirish, ularning mahorati va maxsus ish qobiliyatini takomillashtirish, o'quv-mashg'ulot jarayonining uslubiy yo'nalishini tanlash, umumiy va maxsus tayyorgarlik vositalaridan oqilona foydalanish muammolari bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda [6]. Kurash bo'yicha musobaqalashuv jarayonining jadallashishi hamda malakali kurashchilarni samarali tayyorlashda soha olimlari va murabbiylari oldiga zamonaviy vositalar va usullarni takomillashtirish talabini qo'ymoqda. Malakali kurashchilarni musobaqaoldi tayyorgarligini samarali tashkil qilish hamda ularning bellashuv faoliyatidagi shiddatini hisobga olgan holda maxsus va umum jismoniy sifatlarini rivojlantirish dolzarb va yechimini talab qilinayotgan muammolardan biridir [5].

Kurashchilarning maxsus va umum jismoniy sifatlarini rivojlantirish mashg'ulot dasturi samaradorligini aniqlash uchun Olimpiya va milliy sport turlari bo'yicha Nukus oliy sport maxorat maktabida shug'ullanuvchi (16-17 yoshli o'g'il bolalar) kurashchilari ishtirokida biz ishlab chiqqan oylik mashg'ulot rejasi asosida pedagogik tajriba o'tkazildi. Pedagogik tajribada nazorat va tajriba guruhlarida 12 nafardan iborat jami 24 nafar sportchi ishtirok etdi. Tadqiqotda ishtirok etgan 16-17 yoshli kurashchilarni dastlabki va yakuniy ko'rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilish orqali aynan musobaqa faoliyatida maxsus va umum jismoniy sifatlarini rivojlantirishga asoslandi.

Malakali kurashchilarning 42, 46, 50 kg vazn toifalarida 30 m ga yugurish (soniya) mashqida TO 5,1 soniya bo'lsa TK 4,8 soniya nisbiy o'sish 6,2% ni tashkil qilgan bo'lsa, 55, 60, 65 kg vazn toifalarida TO 6 soniya bo'lsa TK 5,6 soniya, nisbiy o'sish 7,1% ni tashkil qildi. Xuddi shu mashqida 71, 77, 83 kg vazn toifalarida TO 7 soniya bo'lsa TK 6,7 soniya, nisbiy o'sish 4,5% ni tashkil qilgan bo'lsa, 90, +90 kg vazn toifalarida TO 8,1 soniya TK 7,9 soniya, nisbiy o'sish 2,5 % ni tashkil qildi. Turnikda tortilish (20 soniya davomida) mashqida 42, 46, 50 kg vazn toifalarida TO 12,3 marta TK 16 martani, nisbiy o'sish 16% ni tashkil qilgan bo'lsa, 55, 60, 65 kg vazn toifalarida TO 12,2 marta TK 15,4 martani, nisbiy o'sish 20,8 % ni tashkil qildi. Xuddi shu mashqida 71, 77, 83 kg vazn toifalarida TO 11 marta TK 13 martani, nisbiy o'sish 15,4% ni tashkil qilgan bo'lsa, 90, +90 kg vazn toifalarida TO 7 marta TK 8 martani nisbiy o'sish 12,5 % ni tashkil qildi. Yotgan holatda qo'llarni bukib yozish (20 soniya davomida) mashqida 42, 46, 50 kg vazn toifalarida TO 15,7 marta TK 19,7 martani, nisbiy o'sish 20% bo'lsa tashkil etgan bo'lsa, 55, 60, 65 kg vazn toifalarida TO 16,2 marta TK 19,4 martani, nisbiy o'sish 22 % tashkil qildi. Xuddi shu mashqida 71, 77, 83 kg vazn toifalarida TO 16 marta TK 18 martani, nisbiy o'sish 11,2% tashkil etgan bo'lsa, 90, +90 kg vazn toifalarida TO 13 marta TK 15,5 martani, nisbiy o'sish 16,1% ni tashkil qildi.

1-jadval . 16-17 yoshli malakali kurashchilarni shaxsiy vazn toifalarini hisobga olgan holda umumiy jismoniy tayyorgarlik va maxsus jismoniy tayyorgarlik holati bo'yicha tadqiqotdan oldingi va tadqiqotdan keyingi nisbiy o'sish ko'rsatkichlari (n=12)

Mashgʻulot vositalari	Guruhlar	Tadqiqotdan oldin			Tadqiqotdan keyin			Nisbiy oʻsish (%)
		55, 60 ,65 kg						
		$\bar{x}$	σ	V%	$\bar{x}$	σ	V%	
30 m ga yugurish (soniya)	TG	6	0,3	9,6	5,6	0,5	8,9	7,1
	NG	6,1	0,1	1,6	6	0,1	1,6	1,7
Turnikda tortilish (20 soniya)	TG	12,2	1,8	15,1	15,4	1,6	10,5	20,8
	NG	11	0,8	7,4	12,3	1,3	10,3	10,6
Yotgan holatda qoʻllarni bukib yozish (20 soniya)	TG	16,2	1,2	7,3	19,4	0,8	4	37,5
	NG	16	0,8	5,1	17	0,8	4,8	5,9
Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)	TG	203,8	4,4	2,2	212,2	2,1	1	4
	NG	201	0,8	0,4	205	1,8	0,9	2

Turgan joydan balandlikka sakrash (sm)	TG	35,2	1,2	3,4	40,8	1,5	3,8	13,7
	NG	35,8	1	2,7	37	0,8	2,2	3,2
Ko'prik xolatida aylanma chopish 5 ta o'nga 5 ta chapga	TG	20,7	0,5	2	19,2	0,4	2	78.
	NG	20,9	0,2	1	20,4	0,4	2	2,5
Tik turgan holatdan ko'prik holatiga 5 marta tushish	TG	13,5	0,6	4	12,2	0,9	7	10,7
	NG	13,5	0,6	4	13	0,5	4	3,8
Yelkadan oshirib tashlash (20 soniya ichida, marta)	TG	8	0,7	9	9,9	0,4	5	18,4
	NG	8	0,8	10	8,5	0,6	7	5,9
Beldan oshirib tashlash (20 soniya ichida, marta)	TG	8,4	0,5	7	10,9	0,4	4	22
	NG	7,3	0,5	7	8	0,8	10	8,8

2-jadval. 16-17 yoshli malakali kurashchilarni shaxsiy vazn toifalarini hisobga olgan holda umumiy jismoniy tayyorgarlik va maxsus jismoniy tayyorgarlik holati bo'yicha tadqiqotdan oldingi va tadqiqotdan keyingi nisbiy o'sish ko'rsatkichlari (n=12)

Mashgʻulot vositalari	Guruhlar	Tadqiqotdan oldin			Tadqiqotdan keyin			Nisbiy oʻsish (%)
		55, 60 ,65 kg						
		$\bar{x}$	σ	V%	$\bar{x}$	σ	V%	
30 m ga yugurish (soniya)	TG	6	0,3	9,6	5,6	0,5	8,9	7,1
	NG	6,1	0,1	1,6	6	0,1	1,6	1,7
Turnikda tortilish (20 soniya)	TG	12,2	1,8	15,1	15,4	1,6	10,5	20,8
	NG	11	0,8	7,4	12,3	1,3	10,3	10,6
Yotgan holatda qoʻllarni bukib yozish (20 soniya)	TG	16,2	1,2	7,3	19,4	0,8	4	37,5
	NG	16	0,8	5,1	17	0,8	4,8	5,9
Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)	TG	203,8	4,4	2,2	212,2	2,1	1	4
	NG	201	0,8	0,4	205	1,8	0,9	2
Turgan joydan balandlikka sakrash (sm)	TG	35,2	1,2	3,4	40,8	1,5	3,8	13,7
	NG	35,8	1	2,7	37	0,8	2,2	3,2
Koʻprik xolatida aylanma chopish 5 ta oʻnga 5 ta chapga	TG	20,7	0,5	2	19,2	0,4	2	78.
	NG	20,9	0,2	1	20,4	0,4	2	2,5
Tik turgan holatdan koʻprik holatiga 5 marta tushish	TG	13,5	0,6	4	12,2	0,9	7	10,7
	NG	13,5	0,6	4	13	0,5	4	3,8
Yelkadan oshirib tashlash (20 soniya ichida, marta)	TG	8	0,7	9	9,9	0,4	5	18,4
	NG	8	0,8	10	8,5	0,6	7	5,9
Beldan oshirib tashlash (20 soniya ichida, marta)	TG	8,4	0,5	7	10,9	0,4	4	22
	NG	7,3	0,5	7	8	0,8	10	8,8

3-jadval. 16-17 yoshli malakali kurashchilarni shaxsiy vazn toifalarini hisobga olgan holda umumiy jismoniy tayyorgarlik va maxsus jismoniy tayyorgarlik holati bo'yicha tadqiqotdan oldingi va tadqiqotdan keyingi nisbiy o'sish ko'rsatkichlari (n=12)

Mashgʻulot vositalari	Guruhlar	Tadqiqotdan oldin			Tadqiqotdan keyin			Nisbiy oʻsish (%)
		71, 77, 83 kg						
		$\bar{x}$	σ	V%	$\bar{x}$	σ	V%	
30 m ga yugurish (soniya)	TG	7	0,2	2,9	6,7	0,2	3	4,5
	NG	7	0,3	4	6,9	0,4	5,2	1,4
Turnikda tortilish (20 soniya)	TG	11	1	1,9	13	1	7,7	15,4
	NG	10	1,4	14,1	11	1,4	12,9	9,1
Yotgan holatda qoʻllarni bukib yozish (20 soniya)	TG	16	0,5	3,2	18	1	5,6	11,2
	NG	15,5	0,7	4,6	16,5	0,7	4,3	6,1
Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)	TG	191,5	3,5	1,8	200	5	2,5	4,3
	NG	188	4,2	2,3	192	2,8	1,5	2,1
Turgan joydan balandlikka sakrash (sm)	TG	33,5	0,5	1,5	37,5	0,5	1,3	10,7
	NG	34,5	0,7	2	36	1,4	3,9	4,2
Koʻprik xolatida aylanma chopish 5 ta oʻnga 5 ta chapga	TG	21,9	0,7	3	20,2	0,6	3	8,4
	NG	24,1	0,6	2	23,8	0,6	2	1,3
Tik turgan holatdan koʻprik holatiga 5 marta tushish	TG	15,5	0,6	4	14,2	0,3	2	9,2
	NG	15,5	0,4	3	15	0,5	3	3,2
Yelkadan oshirib tashlash (20 soniya ichida, marta)	TG	7	1,4	20	9	1,4	16	11,1
	NG	7	0,8	12	8	0,8	10	12,5
Beldan oshirib tashlash (20 soniya ichida, marta)	TG	8	1,4	20	9	1,4	18	12,5
	NG	7	0,8	12	7,5	0,8	10	6,7

4-jadval. 16-17 yoshli malakali kurashchilarni shaxsiy vazn toifalarini hisobga olgan holda umumiy jismoniy tayyorgarlik va maxsus jismoniy tayyorgarlik holati bo'yicha tadqiqotdan oldingi va tadqiqotdan keyingi nisbiy o'sish ko'rsatkichlari (n=12)

Mashg'ulot vositalari	Guruhlar			Nisbiy o'sish (%)
		Tadqiqotdan oldin	Tadqiqotdan keyin	
		90, +90 kg		

		$\bar{x}$	σ	V%	$\bar{x}$	σ	V%	
30 m ga yugurish (soniya)	TG	8,1	0,1	1,2	7,9	0,1	1,3	2,5
	NG	8,2	0,1	1,7	8,1	0,1	1,7	1,2
Turnikda tortilish (20 soniya)	TG	7	1	14,3	8	1	12,5	12,5
	NG	6,5	0,7	10,9	7	1,4	20,2	7,1
Yotgan holatda qo'llarni bukib yozish (20 soniya)	TG	13	1	7,3	15,5	0,5	3,2	16,1
	NG	13,5	0,7	5,2	14	0,7	4,9	6,9
Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)	TG	174	5	2,9	181,5	3,5	1,9	4,4
	NG	171,5	4,9	2,9	173,5	4,9	2,9	1,2
Turgan joydan balandlikka sakrash (sm)	TG	30	1	1,3	32	1	3,1	6,2
	NG	29	1,4	4,9	30	1,4	4,7	3,3
Ko'prik xolatida aylanma chopish 5 ta o'nga 5 ta chapga	TG	25	0,2	1	23,3	0,4	2	7,3
	NG	26,9	0,2	1	26,3	0,2	1	2,3
Tik turgan holatdan ko'prik holatiga 5 marta tushish	TG	17,5	0,6	3	16,3	0,4	3	7,4
	NG	18,5	0,4	2	17,9	0,3	2	3,4
Yelkadan oshirib tashlash (20 soniya ichida, marta)	TG	6	1,4	24	7	1,4	20	14,3
	NG	5,5	0,4	7	6,5	0,4	6	15,4
Beldan oshirib tashlash (20 soniya ichida, marta)	TG	5,5	0,7	13	6,5	0,7	11	15,4
	NG	5,5	0,8	14	6	0,8	12	10

Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm) mashqida 42,46,50 kg vazn toifalarida TO 201sm TK 209 sm ni, nisbiy o'sish 3,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 55,60,65 kg vazn toifalarida TO 203,8 sm TK 212,2 sm ni, nisbiy o'sish 4 % ni tashkil qildi. Xuddi shu mashqida 71, 77, 83 kg vazn toifalarida TO 191,5sm TK 200 sm ni, nisbiy o'sish 4,3% ni tashkil etgan bo'lsa, 90, +90 kg vazn toifalarida TO 174 sm TK 181,5 sm ni, nisbiy o'sish 4,4% ni tashkil qildi.

Turgan joydan balandlikka sakrash (sm) mashqida 42, 46, 50 kg vazn toifalarida TO 34 sm TK 41 sm ni, nisbiy o'sish 17 % ni tashkil etgan bo'lsa, 55, 60, 65 kg vazn toifalarida TO 35,2 sm TK 40,8 sm ni, nisbiy o'sish 13,7 % ni tashkil qildi. Xuddi shu mashqida 71, 77, 83 kg vazn toifalarida TO 33,5 sm TK 37,5 sm ni, nisbiy o'sish 10,7% ni tashkil etgan bo'lsa, 90, +90 kg vazn toifalarida TO 30 sm TK 32 sm ni, nisbiy o'sish 6,2% ni tashkil qildi.

Xulosa: O'tkazilgan tadqiqotlardan olingan ma'lumotlarni tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelingan:

18-20 yoshli malakali kurashchilarning shaxsiy vazn toifasidan kelib chiqib ularning maxsus va umumiy jismoniy tayyorgarlik holatiga ta'sir qiluvchi mashg'ulot yuklamalarini reglamentlashtirishda (me'yorlashtirish) maxsus mashqlari orqali oylik rejasi ishlab chiqilib yuklama hajmini haftalik 10-15%, oshirib quyidagi natijalar olindi: 30m yugurish yengil vazn toifadagilarda 6,2%, o'rta vazn toifadagilarda 7,1%, o'rta og'ir vazn toifadagilarda 4,5%, og'ir vazn toifadagilarda 3,3% ga; turnikda tortilish yengil vazn toifadagilarda 23%, o'rta vazn toifadagilarda 20,8%, o'rta og'ir vazn toifadagilarda 15,4%, og'ir vazn toifadagilarda 12,5% ga; yotgan holatda qo'llarni bukib yozish yengil vazn toifadagilarda 20%, o'rta vazn toifadagilarda 19,7%, o'rta og'ir vazn toifadagilarda 11,2%, og'ir vazn toifadagilarda 16,1% ga; ko'prik holatiga 5 marta tushish yengil vazn toifadagilarda 13,8%, o'rta vazn toifadagilarda 10,7%, o'rta og'ir vazn toifadagilarda 9,2%, og'ir vazn toifadagilarda 7,4% ga; ko'prik holatida aylanma chopish 5 marta o'nga 5 marta chapga yengil vazn toifadagilarda 11,1%, o'rta vazn toifadagilarda 7,8%, o'rta og'ir vazn toifadagilarda 8,4%, og'ir vazn toifadagilarda 5,6% ga; Yelkadan oshirib tashlash yengil vazn toifadagilarda 23,1%, o'rta vazn toifadagilarda 10,8%, o'rta og'ir vazn toifadagilarda 12,5%, og'ir vazn toifadagilarda 15,4% ga; Beldan oshirib tashlash yengil vazn toifadagilarda 25%, o'rta vazn toifadagilarda 18,4%, o'rta og'ir vazn toifadagilarda 11,1%, og'ir vazn toifadagilarda 14,3% ga ijobiy yaxshilangan;

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-noyabrda PQ-4881-sonli "Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. Primbetov A.A. 12-14 yoshli erkin kurashchi qizlarning musobaqaoldi tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi (PhD) Avtoreferat., Ch., 2022. – 24 b.
3. Jarilkapov U.B Kurashchilarning jismoniy va taktik tayyorgarligini rivojlantirish masalalari. Fan sportga ilmiy nazariy jurnal 2023/2 B 110-112.
4. Jarilkapov U.B. 16-20 Yoshli erkin kurashchilarning kuch sifatini rivojlantirish uslubiyati. "Sportda ilmiy tadqiqotlar" ilmiy-nazariy jurnal. 2023/4 B. 7-10.
5. Jarilkapov U.B The methodology of developing the strength qualities of qualified young freestyle wrestlers Eurasian Journal of Sport Science 2024; 1(1): P. 34-37.
6. Artiqov Z.S. Belbog'li kurashda statik va dinamik kuchlanish davomida muvozanat saqlash funksiyasini shakllantirish metodikasi. (PhD) Avtoreferat., Ch., 2018. – 26 b

Annotatsiya. Ushbu maqolada kurash bilan shug'ullanuvchi sportchilarning maxsus va umumiy jismoniy sifatlarini rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kuch tayyorgarligi, maxsus mashqlari, mashg'ulot yuklamasi, mashqlar majmuasi.

Аннотация. В данной статье разработаны предложения и пояснения по развитию специальных и общих физических качеств спортсменов, занимающихся кураш.

Ключевые слова: силовые подготовки, специальные упражнения, тренировочная нагрузка, комплекс упражнений.

Annotation: In this article, proposals and explanations on the development of special and general physical qualities of athletes engaged in wrestling have been developed.

Key words: strength training, special exercises, training load, set of exercises.

O'ZBEKISTONDA KURASH SPORT TURINING KELIB CHIQISHI VA TARAQQIYOTI

Xolekov R. M.

Qoraqalpog' davlat universiteti

Qadimiy qadriyatlarimiz, xususan mardlik, jasurlik, vatanparvarlik, gumanizm g'oyalarini o'zida mujassam etgan milliy sportimiz bo'lgan kurashni ommalashtirish, rivojlantirish va dunyoga tanitish hamda ushbu qadriyatimizni umumjahon durdonasiga aylantirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, kurashning tobora ommalashib borayotganligi nufuzli xalqaro musobaqalarni tashkil qilishga, mavjud infratuzilma va moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilishga, sport inventarlari va kiyimlari ta'minotini yaxshilashga, bu borada ishlab chiqarishni kengaytirishga, shuningdek, soha uchun malakali kadrlar, trenerlar va hakamlar tayyorlashga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirishni talab etmoqda.

Buyuk ajdodlarimizdan meros qolgan kurash sportining boy an'analari va qadriyatlarini kelajak avlodlarga yetkazish, o'zbek sporti brendi nomi bilan kurashning jahon arenasidagi rolini oshirish, yoshlarning milliy sportga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish orqali ularda vatanparvarlik tuyg'usini yanada mustahkamlash, aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning, shuningdek, jahon xalqlarining mazkur sport turi bilan shug'ullanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bosh maqsadimiz hisoblanadi.

O'zbek milliy kurashining jahon arenasiga chiqib, milliy mustaqillik yillarida shiddat bilan bir xalqning ma'naviy-jismoniy qadriyatidagi turli xalqlar va millatlarning udumiga aylanganligi olamshumul hodisadir. Zero kurash o'z jangovorligi, go'zalligi, jozibadorligi, halolligi bilan barchaning mehrini uyg'otgan, o'ziga katta qiziqish uyg'ota olgan, sport turi hisoblanadi. Kurash insonlarni chiniqtiradi, irodani mustahkamlaydi, xalqiga, Vataniga bo'lgan muhabbatini uyg'otadi va mustahkamlaydi. Shuning uchun ham kurashchilar qat'iy qarorga ega bo'lib, hech qachon do'stlariga, millatiga, Vataniga xiyonat qilmaydilar, ma'naviy-axloqiy kamolotga erishadilar.

O'zbek kurashi bir necha ming yillik tarixga ega. Qadimiy qo'lyozmalarda eramizdan oldingi davrlarda ham kurash ommaviy musobaqalar tarkibidan munosib o'rin olganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Masalan, Antik dunyo olimi muallif Elian Klavdiy ma'lumotlariga ko'ra hozirgi O'zbekiston hududida qadimgi zamonlarda Sak, Massaget va boshqa qabilalar yashagan. Ular o'rtasida kuchlar sinovi – kurash keng tarqalgan ekan. Yigitlar uylanadigan bo'lishsa, qalliqlarini kurashda yengishi lozim bo'lgan. Mashhur sharqshunos va etnograf S.P.Tolstov o'zbeklar o'tmishda kurashga Iydi Ramazon, Qurbon hayiti kabi marosimlarida, Navro'z kunlarida va sayillarda katta ahamiyat berishganini yozadi. Shu bayramlarning dastlabki uch kunida keksalar rahbarligida kurash uyushtirilgan, el tomoshaga chiqqan, maxbuslar ozod qilingan, aybdorlar gunohidan o'tilgan. Darhaqiqat Etnografik tadqiqotlarga ko'ra mamlakatimiz hududida kurashimiz milodning IX-X asrlarida keng rivojlangan bo'lib, hamma sayillarda kurash musobaqalarini o'tkazish odatga aylangan ekan. Buyuk hakim Abu Ali Ibn Sino ta'biricha, bundan ming yil muqaddam ham bu xil kurash usullari ma'lum bo'lgan. Biroq ikkala usulda ham qo'l bilan oyoqdan olish ta'qiqlangan. Faylasuf va shoir Pahlavon Mahmud (1247-1326) Eronda, Turkistonda, Hindistonda kuragi erga tegmagan polvon sanalgan. 1881 yil Bombayda nashr etilgan "Otashkadan Ozariy" kitobida quyidagi satrlar bitilgan ekan: "Ismi Mahmud, Puryorivaliy laqabi bilan shuhrat topgan, o'z zamonasining ovozi olamni tutgan yagona pahlavon edi". Ma'lumki, o'zbek kurashi IX-XIII asrlarda g'urkirab rivojlangan. Shu davrlar ichida, kurash xalqning eng sevimli sport turidan biriga aylangan va juda ommaviylashgan hamda pahlavon Mahmud, Jaloliddin Manguberdi, Darvesh Muhammad kabi polvonlar o'zbek kurashining dovrig'ini taratishgan. Tarixga bir nazar tashlasak, qadim-qadim zamonlarda, ayniqsa Amir Temur zamonida milliy kurashimiz juda ham rivojlangan. Kurash Amir Temur lashkarlari uchun jismoniy tarbiya, kuch-qudrat manbai bo'lgan. Ayniqsa, Amir Temur kurashning musobaqa va jang turlariga katta e'tibor bergan hamda qo'shinlarini kurash ilmini o'rganishga chaqirgan. Amir Temur nafaqat davlat arbobi, zukko, ma'rifatparvar, harbiy ilmni mukammal bilgan tarixiy shaxs, balki kurash san'atini ham chuqur bilgan kuchli polvon bo'lgan.

Ma'lumki, o'zbek milliy kurashi O'rta Osiyo va Qozog'iston vohasida keng tarqalgan sport turi bo'lib, bu hududlarda kurashning "Buxorocho" va "Farg'onacha" shakllari keng qo'llaniladi. "Buxorocho" kurashda tik turgan holda, beldan pastni ushlamasdan, qalmoqi qilib yiqitish usuli mavjud. Bu kurashning asosiy usullari raqibni oshirib otish, qalmoqi, qoqma, ichki tomondan poypechak qilib ag'darib, raqibning yelkasidan ushlab, tizza tomon bilan ilomoq qilib yelkadan oshirib tashlashdan iborat. Buxoro, Xorazm, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida "Buxorocho" kurash rasman bo'lgan.[5, 8]

Ha, kurash xalqimizning qadimiy, hammabop, keng tarqalgan, halollikni talab etadigan, g'irromlikdan yiroq bo'lgan qadriyatlardan biri. U milliy mustaqillik yillarida keng quloch yozdi, keng sarhadlarga ega bo'ldi, u jahonni qamrab olmoqda. Yer kurrasining besh qit'asidagi 100 dan ortiq mamlakatlarida o'zbek kurashining ixlosmandlari, muxlislari va ishtirokchilari mavjud. Milliy g'urur, halollik, fidoiylilik, mag'rurlik, jasoratni o'zida mujassamlashtirgan milliy o'zbek kurashi 1992 yildan boshlab nufuzli musobaqalar sababchisi bo'lmoqda. Milliy kurashni rivojlantirish va jahonga olib chiqishda Buxorolik polvonlar aka-uka Yusupovlar sulolasi tomonidan kata ish olib borildi.

1991 yil 18 iyunda O'zbekiston milliy kurash prezidenti J.Tursunov boshchiligidagi o'tkazilgan birinchi ilmiy-amaliy konferentsiyada Komil Yusupov tomonidan yangi kurash qoidalarini muhokama qilish uchun konferentsiya kun tartibiga kiritildi va konferentsiya qatnashchilariga havola qilindi. Komissiya qaroriga asosan milliy urf-odatlar va an'analari asosida taqdim qilingan kurash qoidalariga tan olindi. Kelajakda xalqqa tanishtirish uchun birinchi musobaqani Qashqadaryoning Miroqi qishlog'ida o'tkazishga qaror qilindi va O'zbekiston tarixida ilk marotaba yangi kurash qoidalariga asosida J.Tursunov rahbarligida milliy kurash musobaqasi o'tkazildi.

1992 yildan nufuzli bellashuvlar boshlanib ketdi. Qorako'lda "Tursun ota", Shahrisabzda "Amir Temur", Surxondaryoda "At Termizi", Buxoroda "Bahouddin Naqshband", Andijonda "Bobur Mirzo", Xorazmda "Pahlavon Mahmud" xotirasiga bag'ishlab Prezident sovrini uchun o'tkazilgan xalqaro turnirlar o'zbek kurashining yuksak

darajaga ko'tarilishida, jahon sport olamiga yangi tur bo'lib kirishiga katta hissa qo'shdi. [3, 9]

Chunki kurash ilk musobaqalaridayoq jozibadorligi, go'zalligi va hallolligi bilan barcha ishtirokchilarning, xorijiy mutaxassislarining mehrini qozondi. Mustaqillik yillarida respublikamiz Prezidenti boshchiligidagi milliy kurashimiz yuqori darajada rivojlandi va Xalqaro maydonga chiqish uchun katta ishlar amalga oshirildi.

Tinimsiz mehnat, ko'plab izlanishu say-harakatlar behuda ketmadi. 1998 yilning 6-sentyabrda o'zbek kurashining bir necha ming yillik tarixi sahilalariga olamshumul voqea sifatida zarhal harflar ila bitildi. Lotin Amerikasi, Evropa va Osiyo qit'asining 28 davlati vakillari ishtirokida Toshkentda bo'lib o'tgan ta'sis kongressida "Xalqaro kurash Assotsiatsiyasi" (XKA) tuzilganligi, xalqimizning milliy qadriyati "Kurash" nomi bilan jahon maydoniga chiqqanligi e'tirof etildi. Shu Kongressning o'zida XKAning ijroiya qo'mitasi tashkil qilindi, Komil Yusupov tomonidan Kongressda muhokama qilish uchun taklif qilingan o'zbek kurashining xalqaro qoidalarini bir ovozdan ma'qullandi. Xalqning qadimgi qadriyati, ori va g'ururi bo'lgan kurashning jahonga yuz tutishini har tomonlama qo'llab-quvvatlagan O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov Xalqaro "kurash" Assotsiatsiyasining Faxriy prezidenti, Komil Yusupov esa XKA Prezidenti etib saylandilar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 1999 yilning 1-fevralida "Xalqaro kurash Assotsiatsiyasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmonga imzo chekdi. O'z vaqtida qabul qilingan bu Farmon mardlik, jasurlik, vatanparvarlik, insoniylik g'oyalarini o'zida mujassamlashtirilgan o'zbek kurashining nafaqat O'zbekistonda, balki butun jahonda keng quloch yoyishiga xizmat qiladi va qilmoqda. Bugungi kunda dunyoning 5 qit'asida 100 dan ortiq mamlakatlarda kurash federatsiyalari tashkil qilindi.

Kurash sport turi Qoraqalpog'istonda ham o'z rivojlanish yo'liga ega bo'ldi. Yurtimizda bir daryodan suv ichib, qo'yi qo'ralash, ovuli aralash yashagan turli millat vakillari o'zaro totuv va inoq hayot kechirgan. Ayniqsa Orol bo'yida, butun Turon zaminida istiqomat qilgan xalqlarning udumlar bilan an'analari bir-biriga yaqin, ular orasida farq juda oz bo'lgan. Bu xalqlarning ko'pincha qo'nib-ko'chib yashaganini xisobga oladigan bo'lsak ularni tashqi dushmanlaridan, oilasini, ovulini yurtini himoya qilish uchun jismoniy jihatdan baquvvat bo'lishni turmushning o'zi taqoz qilgan. Shu bois ham ephillikni, chaqqonlikni va kuchni talab qiladigan o'yinlar otadan bolaga o'tib kelgan. Urug'lar, qavmlar, ovular o'rtasida kurash, ko'pkari, kamondan o'q otish kabi musobaqalar tashkil qilingan. Bunday bellashuvlar orqali saralanib chiqqan alp qomat polvonlar o'sha ovulning, urug'ning obro'si, fahri hisoblangan. [3,12]

Turli davrlarda yashab o'zlarining mardligi bilan unutilmas iz qoldirgan o'zbek Pahlovon Mahmud, qozoq Hajimuxan, qoraqalpoq Ernazar Olako'z, turkman Xudayberdi Boltaevlar tilga olinadi. Bundan tashqari XX asrda Qoraqalpog'istonda kurash sportining gullab yashnashiga katta hissa qo'shgan Abduraxim Azimov, Sapaloq Shamuradov, Jaqabay Saparov, Matnazar Reymov, Satiboldi Miltiqboyev, Yusup Ismaylov, O'mirbek Aytimov, Shamurod Masharipov, Jiyeibay Qaljanov, Asamatdin Qabulov, Yarash Kazakov, Tanabergen Turimbetov, Adilbay Bekbauliev, Jalg'as Tajimurodov, Charsham Tajimurodov, Serik Jusipbekov, Murod Do'simbetov, Murot Boltaniyozov va boshqa ulug' polvonlar yetishib chiqib davlatimiz bayrog'ini ko'klarga ko'tarib, el-yurt sha'nini himoya qilib kelmoqda. Yangi XXI asrga kelib ham bu sport turi mintaqada rivojlanishdan to'xtab qolgan yo'q. Qayta yangidan yangi chempionlar, polvonlar yetishib chiqdi. Jumladan, Berik Jusipbekov, Nizamaddin Xojabaeov, Nukusboy Doniyorov va qizlarimizdan Gulmira Qaniyazova, Zulxodja Xudoyorova, Sanayim Erkinbaeva, Qundiz Baymanova, Amangul Allanazarovalarnong ismlarini e'tirof etishimiz joiz. Elimizdan buning bilan chempionlar yetishib chiqishi to'xtab qolmaydi balki hozirgi yoshlarimiz yangidan yangi marralarni zabt etadi deb ishonch bildiramiz.

Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoevning say harakatlari bilan bugun kurashimiz zamonaviy sport turi bo'ldi. Osiyo o'yinlaridan mustahkam joy oldi. Dunyo polvonlari "o'rta", "ta'zim", "kurash", "halol", "yonbosh", "chala", "dakki", "tanbeh", "g'irrom", "bekor", "teng", "to'xta", "vaqt" degan o'zbek so'zlaridan ulgi olib kurashmoqda. 2020 yil 4 noyabr. Bu sana milliy kurashimiz tarixida yorqin sahifa ochgan kun bo'lib qoldi. Shu kuni Prezidentimiz "Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi qarorni imzoladi. Bu, albatta, uzoq kutilgan tarixiy voqelik bo'ldi. O'zbek sportini dunyoga tanitish borasida yangi davr boshlandi Bu qarorni nafaqat xalqimiz, balki milliy kurashimizning barcha ishqibozlari, polvonlari katta xursandlik bilan kutib oldi. Har kuni chet ellardagi federatsiyalarimiz, xalqaro sport hamjamiyatlari vakillari bizni tabriklab, iliq munosabatlarini bildirmoqda

Kurash — milliy qadriyatimiz. Tarixchilarimizning shohidlik berishicha, u 3,5 ming yillik tarixga ega. Bilamizki, xalqimiz qadimdan to'yarlarda kurash tushib, polvonlari bilan faxrlangan. Dastlab ko'ngilochar o'yin sifatida boshlangan kurash keyinchalik mardlik, elning or-nomusi sifatida bizgacha yetib keldi. Mustaqillik yillarida biz kurashni zamonaviy sport turi sifatida dunyoga tanitdik. Asl, o'zgaras qoidalarini ishlab chiqib, qudratini, falsafasini namoyish etdik. Bu millatimizning ulkan g'alabasi bo'ldi. Shu-shu dunyo sport olami bu sportni o'zbeklar, O'zbekiston nomi bilan bog'laydi. Bugun deyarli barcha qit'a polvonlari bayrog'imizdagi ranglari aks etgan yaktaklarda gilamga tushadi.

Kurashimizning Osiyo o'yinlari dasturiga kiritilishi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning bevosita sa'y-harakatlari, mamlakatda sportga, xususan, milliy sport turlariga bo'lgan e'tibori mahsulidir. Ilk bor 2018 yili Indoneziyaning Jakarta shahrida o'tgan Osiyo o'yinlarida bellashgan polvonlar kurashimiz dovru'g'ini dunyoga tanitdi. Bu o'yinlarni millionlab odamlar tomosha qildi, hakamlar o'zbekcha aytgan so'zlarni eshitdi, O'zbekiston ramziy ranglari jilolangan yaktaklarga havas qildi. Davlatimiz rahbarining "Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bizni yangi marralar sari chorlabgina qolmay, ko'p yillik orzularimiz amalga oshirishining huquqiy asoslarini ham yaratib berdi. Oldimizga katta maqsad qo'yildi. Biz milliy kurashimizni keng targ'ib qilib, dunyoga tanitamiz, Xalqaro olimpiya o'yinlari dasturiga kiritamiz. [1,2]. O'zbekiston mustaqil bo'lganiga endi o'ttiz yil bo'ladi. Tarixan shu qisqa vaqtda kurashni Olimpiya o'yinlariga kiritish harakati boshlanganini eshitib, ochig'i ko'pchilik ishonmaydi, hayron bo'ladi, hayratga tushadi. Albatta, Mana shu maqsadimizga erishishga Prezidentimiz qarori bilan aniq yo'llanma berildi, tamal toshi qo'yildi. Yurtimizda jadal

yangilanish davri kechayotgan bugungi kunda kurashimiz, albatta, Xalqaro olimpiya o'yinlari dasturiga kiradi va yangi O'zbekiston, xalqimiz nomi o'z sportini Olimpiya o'yinlariga kiritgan davlatlar ro'yxatida tarixga muhrlanadi.

Ming shukrki, Prezidentimiz qarori bilan aniq vazifalar belgilab berildi. Endi barcha bo'g'indagi ta'lim muassasalarida kurash bilan shug'ullanish uchun moddiy-texnik ta'minot yangilanadi. Bu borada ish boshlangan. Barcha maktablarni qamrab olishni maqsad qilgan, Xalqaro olimpiya qo'mitasi tomonidan olimpiya sport turi sifatida tan olinishiga hamda kelgusida Xalqaro olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilishiga erishish deb e'tirof etilgan. Kurash zamonaviy sport turi sifatida xalqaro miqyosda tan olingandan keyin 1998 yili Toshkentda Xalqaro kurash assotsiatsiyasi ta'sis qilingan. O'ttiz yildirki, milliy kurashimizni dunyoga tanitish borasida ishlab kelyapmiz. Mustaqillik yillarida ham kurashimizni rivojlantirish uchun imkon qadar harakatlar bo'ldi. Lekin keyingi yillardagidek e'tiborni ko'rmagan edik. Bu sa'y-harakatlar, tashabbuslar yangi O'zbekistonimizning bugungi islohotlariga mos va monand kechmoqda. Shunga munosib bo'lamiz.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020 yil 4 noyabrda "Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4881-son Qarori 18 varaq
Ayzenk bo'yicha frustratsiya	226,66	133,86	141,22	67,381	0,000**
Ayzenk bo'yicha agressiya	225,72	133,73	143,22	65,405	0,000**
Ayzenk bo'yicha rigidlik	209,26	142,27	152,53	34,122	0,000**

Izoh: ** - $p<0,001$ * - $p<0,05$

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozim-ki, ishlovchi ayollar asosan nevrozdan aziyat cheksa, uy bekalari xavotirlanish va depressiyadan aziyat chekadi. Ruhani toliqish, charchoq nevrozni keltirib chiqaruvchi asosiy omildir. Agressiya va depressiya o'zaro teskari proporsional aloqadorlikka ega bo'lib, olingan natijalardagi mazkur ilmiy faraz o'z isbotini topdi. Onalar ikki nafar farzandi bo'lgach ruhiy holatida zo'riqishga moyilligi ortadi. Nevrozga moyillik onalarning o'rta yoshida, ya'ni 28-32 yoshida yuqori bo'lib, bu o'z navbatida asosiy mas'uliyat ona zimmasiga to'g'ri kelgan davrni, shuningdek, o'rta yosh krizisi bilan aloqadorlikni kasb etadi. Shuningdek, 33-38 yoshda xavotirlanish, agressiya, rigidlik va frustratsiya darajasining boshqa yosh davrlariga nisbatan yuqori ekanligi ham onalarning ruhiy salomatligini saqlash maqsadida chora-tadbirlar ishlab chiqish zarurati yuqori ekanligini ko'rsatadi. Nevroz ko'rsatkichining munosabatlar bilan teskari, asabiylashish bilan to'g'ri korrelyatsion aloqadorligi nevroz paydo bo'lishida salbiy munosabatlarning yuqori ta'sirini va bu onalar ruhiy holatida asabiylashish ko'rsatkichining ortishi tabiatida nevroz holatiga olib borayotganini ifoda etadi.

ADABIYOTLAR

- Бекмиров, Т. (2023). Психологическое состояние матерей детей с отклонениями в развитии.
- Бекмиров, Т. Р. (2022). Некоторые методы и приемы диагностики особенностей преодоления подростками кризисных ситуаций жизни. *Central asian journal of mathematical theory and computer sciences*, 3(12), 224-228.
- Dadasheva K.N., Agafonov B.V., Dadasheva M.N., Podrezova L.A. Asthenic syndrome in general practice: therapy possibilities. *RMJ. Medical Review*. 2019;4(II):91–95.
- Melibayeva, R. N., Narmetova, Y. K., Bekmirov, T. R., Bekmirov, T. R., & Abdumutalibova, M. M. (2023). Oilalarda Nevrotik Buzilishlar Sabablari Va Ularni Bartaraf Etish Usullari. *Amaliy va tibbiyot fanlari ilmiy jurnali*, 2(12), 695-699.
- Narmetova, Y. K., Abdumutalibova, M. M., Mirzayeva, A. M., Maxsudov, V. G., & Turgunova, G. T. (2023). Oilalarda nevrotik holatlarni profilaktikasi. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(12 Part 3), 42-46.

Onalarda nevrotik holatlar diagnostikasi natijalarining psixologik tahlili

Rezyume. Mazkur maqolada biz onalardagi nevroitik holat va bolalardagi yosh inqirozi o'rganilib, asosiy e'tibor onalarda nevroitik holatlar namoyon bo'lishining statistik xususiyatlariga qaratilgan. Diagnostik metodikalardan olingan natijalar asosida psixologik tahlil, sabab va oqibatlarini tahlil etilgan va xulosalar berilgan.

Tayanch so'zlar: nevroz, nevroitik holatlar, inqiroz davri, xavotirlanish, depressiya, frustratsiya, agressiya.

Психологический анализ результатов диагностики невротических состояний у матерей

Резюме. В данной статье мы изучаем невротическое состояние у матерей и возрастной кризис у детей, при этом основное внимание сосредоточено на статистических характеристиках проявления невротических состояний у матерей. На основании результатов, полученных методами диагностики, психологического анализа, были проанализированы причины и последствия и даны выводы.

Ключевые слова: невроз, невротические состояния, кризисный период, тревога, депрессия, фрустрация, агрессия.

Psychological analysis of the results of diagnosis of neurotic conditions in mothers

Resume. In this article, we study the neurotic state in mothers and the age crisis in children, and the main attention is focused on the statistical characteristics of the manifestation of neurotic states in mothers. Based on the results obtained from diagnostic methods, psychological analysis, causes and consequences were analyzed and conclusions were given.

Key words: neurosis, neurotic conditions, crisis period, anxiety, depression, frustration, aggression.

ЁШ КУРАШЧИЛАРНИНГ ТАКТИК ЖИХАТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МОДЕЛИ

Мухаммадиев К.

Тошкент давлат транспорт университети

Муаммонинг долзарблиги. Асрлар давомида халқлар томонидан яратилган жисмоний машқлар, мусобақалар, ҳар хил кураш турлари ҳар қандай вақтда ҳам жисмоний тарбиянинг ноёб воситаси сифатида қаралади. Бундай воситаларга ўзбек кураши ҳам қиради. Халқ ўйинлари ва спорт мусобақаларининг мажмуаси халқнинг жисмоний тайёргарлигида маълум ўрин эгаллаб, жисмоний тарбия тизимини ташкил этиб келган. Барча яхши анъаналар халқ томонидан танлаб олинган, сақланиб келинган ва авлоддан авлодга ўтиб келмоқда.

Маълумки, дунёда спорт шиддат билан ривожланган даврда ҳам, Ўзбекистонда яқка кураш турлари бўйича мусобақалар мисли кўрилмаган даражада шухрат қозониб келмоқда. Кураш мусобақалари кўплаб халқ байрамларининг ажралмас қисми ҳисобланади. Шунинг учун аҳолини жисмоний тарбий ва спорт билан доимий тарзда шуғулланишга жалб қилишнинг асосий вазифаларидан бири – миллий спорт турларини ривожлантириш ҳисобланади. Кураши ҳам Ўзбекистон ёшларининг сеvimли спорт турларидан бири ҳисобланади.

Жорий йилнинг 22 ноябр куни Тошкентдаги мухташам Алпомиш спорт саройида Ўзбекистон Республикаси президенти соврини учун жаҳон серияси Про халқаро турнирининг финал мусобақалари бўлиб ўтади ва унда халқаро Кураш ассоциацияси раҳбарлигида Ўзбекистон ёшлар сиёсати ва спорт вазирлиги, Ўзбекистон Кураш Федерацияси ва Ўзбекистон Миллий Олимпия қўмитаси ташаббуси билан ташкил этилиб, турнирда дунёнинг 80 мамлакатидан 28 га яқин вакил иштирок этди. Турнирнинг мукофот жамғармаси 120 минг АҚШ долларини ташкил этди. Мазкур мусобақада халқаро Кураш ассоциацияси президенти Хайдер Фарман Кураш ватанига келди. 2017 йил 20 сентябрда Ашхобод шаҳрида бўлиб ўтган Осиё Олимпия кенгашининг 36-Бош ассамблеясида кураш тарихида илк бор XVIII Ёзги Осиё ўйинлари дастурига киритилди. Жорий йилнинг 23-29 ноябр кунлари Туркменистоннинг Ашхобод шаҳри XIV Жаҳон чемпионатида мезбонлик қилди ва мазкур Кураш бўйича Дунё мундиали қизиқарли ва шиддатли баҳсларга бой бўлди. Шунингдек Ашхободда Кураш бўйича ҳакамлар ва мураббийлардан махсус имтиҳон қабул қилинди. Амалий имтиҳонларни ижобий топширган 14 ҳакамлар 2-3 юлдузли сертификатга эга бўлишди. Чемпионат Низомига кўра, биринчи куни халқаро Кураш институти мутахассислари назарий машғулотлар ўтказдилар. Тажрибали мутахассислар ёрдамида 20 нафар Кураш ҳакамлари чемпионат баҳсларида бевосита иштирок этишди.

Муаммонинг ўрганилганлик даражаси – фаолияти назарияси А.О. Аюпов, Л.С. Выготский, В.В. Давыдов, А.И. Леонтьев, Р.А. Пилоян, О.А. Сиротин; таълимни бошқаришда тизимли ёндошув методологияси назарияси Г.Н. Сериков; Олий касбий таълимни бошқаришда тизимли ёндошув назарияси концепцияси А.Л. Наин, А.М. Кузьмин, С.С. Коровин; Ҳаракатлантирувчи фаолиятни ўргатиш илмий назарияси ва услублари Н.А. Бернштейн, П.Я. Гальперин, Л.П. Матвеев, М.М. Боген, Н.Г. Озолин, Д.Д. Донской, В.Н. Платонов [1, 2, 6, 9, 10]. Яқка курашларда ҳаракатлантирувчи кўникмаларни шакллантириш концепцияси А.А. Новиков, В.В. Нелюбин, А.А. Карелин бўйича яратилган фундаментал асарлар ҳисобланади [2, 6, 9, 10]. Бироқ махсус адабиётларнинг таҳлили шуни кўрсатадики, ҳозирги вақтда курашдаги ҳужум ва ҳимояланиш ҳаракатларини дастлабки ўргатиш услуби илмий ва услубий асарларда акс эттирилмаган. Мавжуд маълумотлар эса кўп ҳолларда юзага келган анъаналарга таянади, яқка курашларнинг бошқа турларида тўпланган тажрибаларнинг умумлаштирилишини ва замонавий технологияларни қўллашни талаб қилади. Кураш спорти турларида техникани ўргатиш муаммосига кўплаб илмий-услубий асарлар бағишланган. Ҳозирги вақтда кураш техникасида ҳаракатларга дастлабки ўргатиш кетма-кетлиги муаммоси ҳали ўзининг долзарблигини йўқотгани йўқ, чунки яқка курашлардаги техник ҳаракатлар, ҳаракатланиш кўникмаларини самарали шакллантиришга шарт-шароит яратувчи биомеханикавий ва тузилиш аломатлари бўйича ҳар доим ҳам ўзаро боғлиқ бўлавермаган.

Тадқиқотнинг мақсади – ёшларга кураш техник ҳаракатларини дастлабки босқичида ўргатишни педагогик жиҳатдан асослаб бериш. Тезлик ва куч сифатларини ривожлантиришга катта эътибор берилди. Уларнинг ривожланмаганлиги жанг пайтида мағлубиятга олиб келиши мумкинлиги ҳисобга олинди. Шу билан бирга, ёш курашчиларнинг индивидуал устуворликларидан келиб чиққан ҳолда ҳужум ҳаракатларининг тактик

схемаларини ишлаб чиқиш ва амалга оширишга алоҳида эътибор қаратилди. Ёш курашчиларда тезлик ва куч сифатларини ошириш уларнинг индивидуал тайёргарлик даражасига мос келадиган оқилона танланган ўқув мазмуни мавжуд бўлганда амалга оширилди [3, 4]. Машғулот воситалари ва усуллари ёш курашчиларнинг эҳтиёжлари ва шахсий мотивациясига мос келиши, уларни мусобақаларга тайёрлаш жараёнида ҳужум ҳаракатларининг тактик жиҳатларини сифатли ўзлаштириш самарадорлигини сезиларли даражада ошириш имконини берди. Ушбу шартлар ҳужум ҳаракатларининг тактик жиҳатларини сифатли ўзлаштиришга қаратилган ўқув моделини амалга ошириш учун зарур эди. (1-расм). Шундай қилиб, ёшли курашчиларни ҳужум ҳаракатларидан фойдаланган ҳолда тайёрлаш спортчиларнинг техник ва тактик арсеналини кенгайтиришга қаратилган деган хулосага келиш мумкин. Бунда курашчиларнинг ҳаракат қобилиятини ошириш йўллари техник-тактик ҳаракатларни такомиллаштириш йўналишида ётади. Мазкур ёшли курашчиларнинг ҳужум ҳаракатларининг тактик жиҳатларидан фойдаланган ҳолда машғулотлар жараёнида спорт маҳоратининг ўсишини таъминлаш асосий мақсад сифатида қаралиши лозим [5, 7].



1-расм. Ёш курашчиларнинг тактик жиҳатларини такомиллаштириш модели педагогик асослаш

Ҳужум ҳаракатларидан фойдаланган ҳолда курашчиларни тайёрлаш бўйича ишлаб чиқилган педагогик модель самарадорлигини тадқиқотал синовдан ўтказиш ёш курашчилар учун ишлаб чиқилган ўқув модели самарадорлигини тадқиқотал синовдан ўтказиш натижаларини кўрсатади.

Тадқиқот давомида мазкур ёшли курашчиларнинг мусобақаларга тайёргарлигини баҳолаш мезонлари ишлаб чиқилди. Бу мезонлар: тезлик чидамлилигининг ривожланиш даражаси ва машқдан кейин тикланиш тезлиги. Шу мақсадда режалаштирилган таълим ва кадрлар тайёрлаш дастурининг бажарилиши устидан жорий ва якуний назорат тизими ишлаб чиқилди. Шу мақсадда ҳар куни спортчиларнинг жисмоний ҳолати, шунингдек, тайёргарлик даражасининг морфологик ва функционал параметрлари бўйича динамикаси мониторинг олиб борилди. Якуний назоратнинг асосий кўрсаткичлари ёш курашчиларни мусобақаларга тайёрлаш босқичи якунида дастлабки тавсифларнинг қиёсий таҳлили бўлди. Мусобақада кўрсатилган натижа ёш курашчилар учун ҳужум ҳаракатларининг тактик жиҳатларидан фойдаланган ҳолда ишлаб чиқилган ўқув модели самарадорлигининг объектив кўрсаткичи бўлди [6, 9]. Биз мусобақа натижалари динамикасини, техник-тактик арсенал мазмуни, тананинг функционал ва руҳий тайёргарлиги хусусиятлари, спортчиларнинг жисмоний ҳолати нуктаи назаридан курашчи сифатида мусобақа ўтказишнинг услубий хусусиятларини ўргандик. Ушбу кўрсаткичларнинг қиёсий таҳлили 1 ва 2-жадвалларда келтирилган.

1-жадвал. Тадқиқот якунида тажриба гуруҳларидаги курашчиларнинг рақобат фаоллиги кўрсаткичлари

Т/р	Кўрсаткичлар	НГ	ТГ	Фарқларнинг ишончлилиги
1.	Беллашувлар сони	5,1±0,3	7,2±0,4	P<0,05
2.	Баллар егиндиси	14,7±1,9	32,8±1,5	P<0,05
3.	Баҳолар сони	10,3±2,7	14,3±2,1	P>0,05
4.	Ҳужум комбинациялари сони	1,7±0,3	3,7±0,2	P< 0,05

2-жадвал. Тадқиқот якунида тажриба гуруҳларидаги курашчиларнинг спорт маҳорати даражасидаги ўзгаришлар кўрсаткичлари

Курашчилар	Техник-тактик кўрсаткичлар				
	1	2	3	4	5
	Атак/мин	%	Ус.е	%	%

Назорат гуруҳи	4,1	71,2	8,7	93,7	67,3
Тажриба гуруҳи	1,9	28,8	3,2	31,4	41,7

Изоҳ: 1 – фаолият; 2 – ҳужум ҳаракатларининг ишончилиги; 3 – ягона ҳаракатларнинг самарадорлиги; 4 – ҳимоя ҳаракатларининг ишончилиги; 5 – комбинацияларнинг самарадорлиги.

Ҳар бир машғулоти юки танланган ўқув воситасига мувофиқ ҳажм ва интенсивлик кўрсаткичлари билан тавсифланади. Иш юкининг ҳажми вазифани бажариш вақтига қараб ҳисобланган; интенсивлик юрак уриш тезлиги билан баҳоланди, машғулоти топшириғини бажаргандан сўнг дарҳол ўлчанди ва битта вазифада бажарилган техник ҳаракатлар сони. Шу билан бирга, барча спортчилар учун ўқув юкларлари ҳажми деярли фарқ қилмади ва машғулоти юкларлари ҳажмининг динамикаси мусобақа олдидан якуний босқичда максимал даражага этди. Умумий юкларнинг интенсивлиги ёш курашчиларнинг морфологик ва функционал параметрларини ҳисобга олган ҳолда ҳисоблаб чиқилган [6, 8, 9]. Ўтказилган педагогик тадқиқот натижалари ҳужум ҳаракатларининг тактик жиҳатларидан фойдаланган ҳолда ёш курашчиларни тайёрлаш бўйича ишлаб чиқилган педагогик моделнинг юқори самарадорлигини кўрсатади. Мазкур ёш курашчиларда тезлик ва чидамлилиқнинг ривожланиши таҳлили шуни кўрсатдики, тажриба гуруҳида бу кўрсаткичлар назорат гуруҳидагига қараганда анча яхши бўлган. Тажриба гуруҳида жисмоний фаолликдан кейин тикланиш даражаси ҳам назорат гуруҳига қараганда анча юқори эди. (3-4 – жадваллар).

3-жадвал. Тадқиқотдан олдин ва кейин ТГ ва НГ курашчиларининг жисмоний тайёргарлиги натижаларини қиёсий таҳлил қилиш

Тестларнинг номи	Гуруҳлар	Тажриба бошида	Тажриба охирида	±Δ	Δ, %
Югуриш 100 м, с.	НГ	14,7±0,2	14,7±0,3	0	0
	ТГ	14,8±0,3	14,3±0,4	0,5	3,8
Югуриш 1000 м, мин.	НГ	4.14±0.07	4.12±0.05	0,02	1
	ТГ	4.15±0.05	4.12±0.06	0,03	1,5
Турникда тортилиш	НГ	10±2,1	11±2,2	1	10
	ТГ	11±1,8	12±2,1	1	10
Қулларни полга таяган ҳолда говдани кўтариб тушуриш	НГ	21±1,4	22±1,6	1	5,1
	ТГ	20±1,3	27±1,5	7	35,7*
Жойидан туриб узунликка сакраш, см	НГ	182±4	183±3	1	0,5
	ТГ	184±3	190±4	6	3,2*
Ўз вазидан 50 % оғирлиги бўлган штанга билан ўтириб туриш	НГ	24±2,1	24±2,2	0	0
	ТГ	25±1,8	31±1,7	6	24*
Штанга билан ўтириб туриш (ТМ) кг	НГ	50±1,1	52±1,3	2	4
	ТГ	51±1,4	58±1,6	7	14*

Изоҳ: Δ – натижаларнинг мутлақ ортиши; ТМ - такрорий максимал; «*» белгиси аҳамиятлилик фарқлари билан статистик жиҳатдан муҳим ўзгаришларни кўрсатади $p < 0,05$.

Бу ёшли курашчиларнинг психофизиологик ҳолати кўрсаткичлари таҳлили шуни кўрсатдики, тажриба гуруҳида ҳам бу кўрсаткичлар назорат гуруҳига қараганда анча яхши бўлган [6, 8, 9].

Мусобақа давомида ёшли курашчиларни ҳужум ҳаракатларининг тактик жиҳатларидан фойдаланиш асосида тайёрлаш бўйича ишлаб чиқилган педагогик моделнинг самарадорлиги синовдан ўтказилди. Танлов натижаларига кўра, тажриба гуруҳида ғолиблар умумий сони назорат гуруҳига нисбатан 47 фоизга ошган.

4-жадвал. Тадқиқот якунида тажриба гуруҳлардаги ёшли курашчиларнинг функционал ҳолати кўрсаткичлари динамикаси (ТГ-18, НГ-17 киши) ($x \pm m$)

Т/р	Кўрсаткичлар	Синалувчилар	Дастлабки маълумотлар	300 м масофага югу-ришдан кейинги маълумотлар (1 дақиқадан сўнг)	p
	Артериал қон босим	ТГ	110,7±1,3	112,1±1,1	-
		НГ	111,1±1,4	122,3±1,7	-
	Систолик босим (мм с.у.)	ТГ	64,3±1,2	68,1±1,9	-
		НГ	63,7±1,5	73,1±1,7	0,05
	Диастолик босим (мм су.)	ТГ	61,3±2,7	55,1±1,9	-
		НГ	60,1±2,5	44,2±2,1	0,05
	Штанга синови (с)	ТГ	27,3±1,7	19,8±1,3	0,05
		НГ	27,2±1,8	10,2±1,9	0,05
	Генчи синови (с)	ТГ	72,6±1,4	79,4±0,9	-
		НГ	71,5±1,3	93,5±1,7	0,05
	Қадам тест индекси (бирликда)	ТГ	91,6±2,3	99,4±1,9	-
		НГ	92,0±2,1	99,2±1,7	-
	Чидамлилиқ	ТГ	19,7±0,4	16,3±0,3	-
		НГ	19,2±0,6	18,1±0,4	-

Ҳужум ва тактик ҳаракатлардан фойдаланган ҳолда ёшли курашчиларни тайёрлаш бўйича ишлаб чиқилган педагогик модель самарадорлигини педогогик тажриба синовдан ўтказилди ва методиканинг ишончилиги исботланди [6, 9].

Демак, ёш курашчиларни ҳужум ҳаракатларининг тактик жиҳатларидан фойдаланиш асосида тайёрлаш бўйича ишлаб чиққан методикамизсамарали юқори самарадорликни кўрсатди. Ушбу модель мураббийларга ўқув дастурларини режалаштириш ва ишлаб чиқишда, шунингдек, ёш курашчиларни мусобақаларга тайёрлаш

учун ўқув воситалари ва усуллари таллашда тавсия этилган. Тадқиқот жараёнида белгиланган вазифалар тўлиқ ҳал қилинди ва иш мақсадига муваффақиятли эришилди.

АДАБИЁТЛАР

1. Акопян А.О. Барба: примерная программа для системы дополнительного образования детей, детско-юношеских спортивных школ, специализированных детско-юношеских школ олимпийского резерва / А.О. Акопян, В.В. Кашавцев, Т.П. Клименко. - М.: Советский спорт, 2003. - 96 с.
2. Буланцов А.М. К вопросу о минимальном возрасте детей для набора в секции самбо и барба / А.М. Буланцов // Ученые записки университета им. П.Ф. Лесгафта. - 2013. - № 8 (102). - С. 39-44.
3. Воробьев В.А. Основные научно-методические направления модернизации программ многолетней подготовки юных борцов / В.А. Воробьев // Ученые записки университета им. П.Ф. Лесгафта. - 2009. - № 10 (56). - С. 18-21.
4. Крючков А.С. Содержание технологии физического воспитания мальчиков 7-9 лет разных самотипов на предварительном этапе занятий кураш / А.С. Крючков, В.Л. Дементьев // Физическая культура: воспитание, образование, тренировка. - 2009. - № 3. - С. 34-39.
5. Матвеев Л.П. Основы общей теории спорта и системы спортивной подготовки. - Киев: Олимпийская литература, 1999.
6. Мухаммадиев К.Б. Жисмоний машқлар билан мустақил шуғулланишда жисмоний юкламалар самарадорлигини баҳолашнинг педагогик назорат усулларидан фойдаланиш / Услубий қўлланма. Тошкент темир йўл муҳандислари институти босмаҳонаси. - Тошкент, 2019 й. - Б.23.
7. Мухаммадиев К.Б. Талабаларнинг жисмоний кўрсаткичларини ривожлантириш / Услубий қўлланма Тошкент темир йўл муҳандислари институти босмаҳонаси. - Тошкент, 2019 й. - Б.28.
8. Мухаммадиев К.Б. Талабаларни жисмоний тарбия ва спортга жалб қилиш тизимини такомиллаштиришнинг ижтимоий йўналишлари // Ўзбекистонда жисмоний тарбия ва спортни ривожлантиришнинг фалсафий, ҳуқуқий ва социологик муаммолари. - Чирчик. 2020 й. - Б. 204-206.
9. Мухаммадиев К.Б. Спорттирилган физик ҳаётнинг студентларга таъсирини таъминлашнинг асосий усуллари / Физическая культура: воспитание, образование, тренировка. УДК/UDK 796.011.2:5:012. Москва, №9, - 2021. - С. 152-157.

Ёшли курашчиларнинг тактик жиҳатларини такомиллаштириш модели

Аннотация. Ушбу мақолада ёшли курашчиларнинг ҳаракат қобилиятини ривожлантиришга қаратилган асосий муаммоларни бартараф этишнинг педагогик усуллари илмий манбалар таяниб ўрганиш, ёшли курашчиларнинг спорт машғулотлари тажрибасини умумлаштириб, уларнинг спорт маҳорати савиясини ошириш борасидаги мукамал жисмоний ва тактик фазилатларини кўрсатиш бўйича тавсиялар берилган.

Калит сўзлар: тактика, куч, тезкорлик, фазилатлар, тайёргарлик, курашчилар, мотор фаолияти.

Model for improving the tactical aspects of older wrestlers

Аннотация. В данной статье даны рекомендации по изучению педагогических приемов преодоления основных проблем, направленных на развитие подвижности борцов старшего возраста, со ссылкой на научные источники, обобщен опыт спортивной подготовки борцов старшего возраста и показаны их отличные физические и тактические качества в повышении уровня их спортивного мастерства.

Ключевые слова: тактика, сила, ловкость, качества, тренировка, борцы, двигательная активность.

A model for improving the tactical aspects of older wrestlers

Annotation. This article provides recommendations on the study of pedagogical techniques for overcoming the main problems aimed at developing the mobility of older wrestlers, with reference to scientific sources, summarizes the experience of sports training of older wrestlers and shows their excellent physical and tactical qualities in improving their level of athletic skill.

Keywords: tactics, strength, dexterity, qualities, training, wrestlers, motor activity.

OLIY TA'LIMDA QUYOSH ENERGETIKASI FANINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.

Qodirov A.H.

Urganch davlat universiteti,

Kirish. Muqobil energiya deganda, odatda zahirasi qayta tiklanuvchi energiya manbalari nazarda tutiladi. Bularga quyosh va shamol energiyasi, dengiz to'liqini va oqim energiyasi, yoqilg'i olish maqsadida etishtiriluvchi qishloq xo'jalik mahsulotlari va chiqindilari, kichik suv havzalarida, suvning tabiiy oqimiga ta'sir etmagan holda elektr energiyasi ishlab chiqarish kiradi. Er qobig'i issiqligi energiyasidan, mexanik tizimlar (harakat- lanuvchi jismlarning, shu jumladan inson harakatining) energiyasidan va turli muhandislik inshootlarida hosil qilingan energiyadan (masalan katta bosimli gaz trubalaridagi yoki issiqlik uzatish tizimlari energiyasidan) elektr energiyaning birlamchi manbai sifatida foydalanib elektr energiyasi ishlab chiqarish ham muqobil energetika sanaladi.

Bugungi kunda amaliyotga jadal kirib kelayotgan muqobil energiya manbalari, bu quyosh va shamol energetikasidir. Bu ikki tur energiya manbalari er yuzining deyarli barcha mintaqalarida rivojlanib bormoqda. 2017 – 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" da qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, uni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab qo'yildi [1]. Bugungi kunda mamlakatimizda inovatsion va ilmiy salohiyatni rivojlantirish yo'lida harakat shiddat bilan ortib borayotgan bir davrda yosh avlodning tarbiyaviy, ma'naviy - axloqiy, innovatsion ilmiy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, o'quv jarayonlariga yangi - yangi o'qitish metodlari, texnologiyalari va inovatsiyalarni tadbiq etish bugungi kunimizning talabiga aylanib bo'ldi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari sohasi ham bugungi kunning o'rganilish darajasi mukammal dolzarb muammosiga aylandi. Barcha ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagoglarning ta'lim berish va o'qitish samaradorligini oshirish, olib borilayotgan dars tushinarli va oson bo'lishi uchun zamonaviy texnologiya va metodlardan foydalanib dars jarayonlarini tashkil qilish orqali sifatli ta'lim bermoqdalar. Respublikamizdagi barcha Oliy ta'lim muassasalarida ham sifatli ta'lim tizimini isloh

qilishning ustuvor yo'nalishlari belgilab qo'yilgan. Hozirgi vaqtda o'sib kelayotgan yosh avlodni ertangi kelajagini bugundan boshlab qurishi uchun ta'lim tizimini yanada takomillashtirish choralari ko'rilmoqda. oliy ta'limda Quyosh energetikasi fani, talabalarni o'qitish metodikasiga bog'liq bo'ladi deb qarash mumkin. Bu metod orqali asosan, talabalarga Quyosh energetikasi fanini tushunish, ulardan foydalanish va ularni ishlatish bo'yicha chuqurroq bilim beriladi. Quyosh energetikasi fanini o'rganishda odatda nazariy bilimlar, amaliy dasturlar va amaliy tajribalarning kombinatsiyasi talab etiladi. Mamlakatimizning barcha ta'lim sohasida ko'plab o'zgarishlar ro'y bermoqda. Yurtboshimizning tashabbuslari bilan ta'lim sohasida yangiliklardan biri bo'lgan zamonaviy fanlar va zamonaviy o'quv vositalari yordamida dars sifatini oshirish va talabalarining bilim salohiyatini oshirishdagi yangiliklarni tadbiq etish va amalda qo'llash imkonini berdi. Bu imkoniyatlardan keng foydalanish va maqsadli ishlarni amalga oshirishga pedagoglar va soha bilimdonlari tomonidan o'qitishning interfaol metodlari va zamonaviy dastur va metodlar orqali talabalarining bilim darajasini va aqliy salohiyatini o'rganish bugungi kun talabiga aylanib qoldi. Bu esa talabalarining Quyosh energetikasi sohasida o'qitish innovatsion uslublarni joriy qilish, Quyosh energetikasini o'qitishda qiziqtiruvchi o'yinlar texnologiyasi hamda interfaol metodlardan foydalanish ayni muddao hisoblanadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy innovatsion texnologiyalarning roli beqiyos hisoblanadi. Pedagogik dasturiy vositalar yordamida innovatsiyalar yaratish va ularni dars jarayoniga tadbiq etish, dasturiy vositalar yordamida yaratilgan yangi innovatsion elektron o'quv dasturlari ishlab chiqilishi ta'lim sifatini oshirishda va talabalarining aqliy salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy ta'lim muassasalarida va aholi orasida O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining qarori bilan "Qayta tiklanuvchi energiya qurilmalarini ishlab chiqarishni jadallashtirish" to'g'risidagi iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlarida va aholi tomonidan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish orqali yoqilg'i-energetika resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni ta'minlash to'g'risidagi qonunga muvofiq oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonlariga tadbiq etish chora tadbirlari ham aytib o'tilgan. Mana shu munosabat bilan oliy ta'lim muassasalarining o'quv darsligi sifatida ham kiritilib fan sifatida shakllantirilib turli metodlar orqali tushuntirib berilmoqda. Quyosh enegetikasi fanini o'qitish uchun quyidagi usullar va metodlar mavjud:

1. Ma'ruza asosida o'qitish: Bu an'anaviy usul talabalarga ma'ruzalar o'qishni, ularga turli Quyosh enegetikasi haqida zarur nazariy bilimlarni berishni o'z ichiga oladi. Ma'ruzaning oldiga qo'yiladigan maqsad har xil bo'lib, bu maqsad maksimal darajada Quyosh enegetikasi fanini o'qitishni, amalga oshirish uchun, uning funktsiyalariga ahamiyat berish kerak. Quyosh enegetikasi fanini o'qitishda ma'ruza quyidagi qator funktsiyalarini bajaradi: Professional ta'lim berish va dunyoqarashni shakllantirish; Talabalar diqqatini asosiy maqsadga yo'naltirish. Ma'ruzada talabalarining diqqat e'tibori o'quv materialining asosiy mazmuni, qonunqoidalari, ularning nazariy va kelgusidagi amaliyotda, mutaxassislik faoliyatida qanday o'rin tutishi va ahamiyatiga, uni o'zlashtirish metodlariga qaratiladi; Talabalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish. Ularni axloqiy, ma'naviy jihatdan barkamol bo'lishi, mehnatga munosabati, ijtimoiy psixologik xislatlarini shakllantirish; Bilim berish, o'rganayotgan Quyosh enegetikasi fani bo'yicha axborot olish, olgan axboroti asosida xulosa chiqarishga o'rgatish; Metodologik ma'ruza jarayonida tadqiqot metodlari taqqoslanadi, qiyoslanadi, ilmiy izlanish tamoyillari aniqlanadi; Idrok, tafakkurni rivojlantiruvchi, tinglovchilarda bilmaganini bilishga qiziqish uyg'otadi. Mantiqiy fikrlash va o'z fikrini asoslashga o'rgatadi. Ma'ruzada mavzuning asosiy savollari ketma-ketlik asosida yoritiladi. Albatta, ma'ruzaning metodik jihatdan yoritilishi, bayon etilishi qo'yilgan maqsad, o'rganilayotgan Quyosh enegetikasi fanida, mavzuning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Ma'ruza faqatgina iqtisodiy rivojlanishning asosiy qonuniyatlarini ochib berish bilan cheklanishi kerak emas, Quyosh enegetikasi fanining so'nggi yutuqlaridan foydalangan holda ilmning amaliyotda qanday ahamiyatga ega ekanligini, hayotda real muammolarni echishdagi ahamiyatini, echish yo'llarini ham ko'rsatishi kerak[2].

2. Nazariy bilimlarni amaliyotga aylantirish: Talabalar Quyosh enegetikasining nazariy asoslari haqida tushuncha sahib bo'lishlari uchun nazariy bilimlarni amaliyotga aylantirish kerak. Bu, laboratoriya ishlari, tadqiqotlar, modellar va eksperimentlar orqali amaliy bilimlarni o'rganishni o'z ichiga oladi.

Amaliy mashg'ulotlar talabalarga olgan nazariy bilimlarini real jarayonlarda qo'llash imkonini beradi. Ushbu mashg'ulotlar talabalarga tushunchalar va nazariy bilimlar amaliy vaziyatlarda qanday qo'llanilishini tushunishga, ularning tushunchalarini chuqurlashtirishga va o'quv natijalarini oshirishga yordam beradi.

3. Interaktiv ta'lim modelida ta'lim berish turlari va darsliklar: Interaktiv ta'lim - interaktiv o'rganish bilan o'zaro munosabat nafaqat o'qituvchi va talaba o'rtasida, balki barcha tinglovchilar bilan aloqa o'rnatishni amalga oshiradi. Interaktiv ta'lim usullari har doim hamkorlik, izlanish, muloqot, o'quvchilar o'rtasida axborot almashinuvidir. O'qitishning interfaol usullari, o'yinlar, muhokamalar, sahna tayyorlash, treninglar, o'qituvchidan maxsus metodlardan foydalanish talab qilinadi. Quyosh enegetikasi fanini o'rgatish uchun interaktiv darsliklar ishlatilishi tavsiya etiladi. Bu darsliklar talabalarga qiziqarli va interaktiv mashqlar yordamida Quyosh enegetikasini tushunishga imkon beradi.

4. Praktikum va laboratoriya ishlari: Talabalar praktikumlar va laboratoriya ishlari orqali Quyosh enegetikasini o'rganishlari tavsiya qilinadi. Bu, talabalarga amaliyot bilimlarni rivojlantirishga imkon beradi va ularga Quyosh enegetikasini o'rganish uchun muhim tajriba beradi. Laboratoriya sharoitida o'tkaziladigan amaliy tajribalar talabalarga Quyosh enegetikasi bilan bog'liq fizik hodisalarni kuzatish va tushunish imkonini beradi. Ular quyosh batareyalari yoki shamol turbinalari kabi turli qurilmalar qanday ishlashini o'rganadilar, ularning ishlash ko'rsatkichlarini o'lchaydilar va tajribalar davomida to'plangan ma'lumotlarni tahlil qiladilar.

1-jadval. Laboratoriya topshiriqlarini bajarish jarayonida shakllanadigan eksperimental ko'nikmalar maqsadi va bosqichlari.

№	Bajarish bosqichlari	Harakat maqsadi	Amallarni bajarishda shakllanadigan ko'nikmalar
1.	Eksperiment maqsadini aniqlash	Ishning maqsadini aniq ifoda qilish	Maqsadni ifodalash ko'nikmasi
2.	Ishning tavsifi bilan tanishish	Aniq ob'ektning xossalari va uni tadqiq	Maqsadga erishishga olib

		qilishning Quyosh energetikasi asoslari haqida ma'lumot	keluvchi obekt va metodni tanlash hamda uni asoslash ko'nikmasi
3.	O'lchashlarni o'tkazishga tayyorgarlik	Ish masalalari ro'yxati. Qurilmaning sxemasi. O'lchash natijalarini yozish uchun chizilgan jadval.	Masalalar ketma- ketligini asoslash, sxemani tahlil qilish, natijalarini yozish uchun jadval tayyorlash ko'nikmalari
4.	Qurilmani tayyorlash va tajribani o'tkazish	O'lchash natijalarini jadval ko'rinishida tasvirlash.	Asboblardan ishlash, ko'rsatishlarni aniq yozib olish, tajriba sharoitini sinab ko'rish va qayd qilish.
5.	Tajriba natijalarini sistemalashtirish va umumlashtirish, hamma ma'lumotlarni o'z ichiga olgan jadval tuzish, grafiklar chizish, xulosa chiqarish. Ish haqida hisobot tayyorlash.	Hamma ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi va umumlashtiruvchi jadval, grafiklar, xulosalar. Ish haqida hisobot.	Tajriba natijalarini sistemalashtirish va umumlashtirish, ularni grafik tasvirlash, bajarilgan ish haqida hisobot tayyorlash ko'nikmalari.

Jadvalda keltirilgan topshiriqlarni bajarish maqsad va bosqichlarining amalga oshirilishini Muqobil energiya manbalarining «Quyosh energetikasi» bo'limi bo'yicha bir nechta laboratoriya ishlarini bajarish misolida ko'rib chiqildi. Bajarilgan laboratoriya ishlari ijobiy samara berdi.

5. Dala sayohatlari va saytlarga tashriflar: Talabalarni Quyosh enegetikasi qurilmalariga (masalan, quyosh fermalari yoki shamol elektr stantsiyalari) ekskursiyalarga olib borish ularga Quyosh enegetikasi texnologiyalarining real dunyo ilovalari bilan bevosita tanishish imkonini beradi. Ular ushbu texnologiyalarning keng miqyosda qanday ishlashiga guvoh bo'lishlari va sohada ishlaydigan mutaxassislar bilan muloqot qilishlari mumkin.

6. Guruh loyihalari: Hamkorlikdagi loyihalar talabalarga Quyosh enegetikasi tizimlarining muayyan jihatlarini tadqiq qilish, loyihalashtirish yoki amalga oshirish uchun jamoalarda birgalikda ishlash imkonini beradi. Ushbu metodika talabalarda jamoaviy ishlash, muloqot qilish qobiliyati, muammolarni hal qilish va ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

7. Simulyatsiya dasturi: Simulyatsiya dasturidan foydalanish talabalarga Quyosh enegetikasi tizimlarining virtual modellari yaratish va jismoniy resurslar yoki cheklavlarsiz turli parametrlar yoki stsenariylarni sinab ko'rish imkonini beradi. Ushbu yondashuv ularga tizim dinamikasini chuqurroq tushunishga va optimallashtirishning turli imkoniyatlarini o'rganishga yordam beradi.

8. Kooperativ ta'lim: Kooperativ ta'lim, talabalarining bir-biri bilan hamkorlik qilish va jamoatda ish olib borishni o'rganishga yordam beradi. Bu usul orqali talabalar qayta tiklanuvchi energiya manbalarini boshqalar bilan birgalikda ishlatishni o'rganadilar.

9. O'zlashtirilgan o'qitish: O'zlashtirilgan o'qitish metodi, talabalarining o'zlarining bilimlarini mustahkamlash uchun muhimdir. Bu usul orqali talabalar Simulyatsiya dasturi: Simulyatsiya dasturidan foydalanish talabalarga Quyosh enegetikasi tizimlarining haqida savol berishi, maslahat so'rashishi va o'z fikrlarini bayon etishi mumkin.

10. Fan nomzodlari ma'ruzalari: Energetika sektoridan soha mutaxassislari yoki mutaxassislarni mehmon o'qituvchi sifatida taklif qilish talabalarga Quyosh enegetikasi bilan ishlashning amaliy jihatlarini haqida tushuncha beradi. Ular o'z tajribalari bilan o'rtoqlashishlari, hozirgi tendentsiyalarni muhokama qilishlari va sohadagi martaba yo'llari bo'yicha ko'rsatmalar berishi mumkin.

11. Yangiliklardan foydalanish: Quyosh enegetikasi fanini o'rgatadigan ustozlar yangiliklardan foydalanib, so'nggi ilmiy tadqiqotlarni va yangi ma'lumotlarni darslarda ta'minlashadi. Bu, talabalarga so'nggi yangiliklar haqida xabardor bo'lish va umumiy rivojlanishlar bilan tanishishlari uchun muhimdir[3].

12. Raqamli texnologiyalar: Ta'limda ijobiy natijalarga erishish, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilim asoslarini puxta o'rgatish, ularda dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamini kengaytirish, ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish borasidagi ta'limiy tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish bilan belgilanadi. Bu borada ta'lim-tarbiya jarayoniga ko'plab o'zgartirishlar kiritilmoqda, yangicha yondashuvlar tadqiq etilmoqda. Shulardan biri, axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanib dars o'tishda mashg'ulotlar samaradorligini oshirishga erishish hisoblanadi. Elektron taqdimotlardan darsda namoyish va ko'rgazmali material sifatida foydalanish o'qituvchiga katta yordam beradi. O'quv materialining elektron taqdimotda animatsiyalar shaklida berilishi o'tilayotgan mavzuni tushunishni yengillashtiradi va ko'rgazmalilikni oshiradi. Namoyish slaydlarini o'quvchilarga tarqatma material sifatida ham berish mumkin. Elektron darsliklarni matn va ovoz shaklida, slayd-shou ko'rinishida berish maqsadga muvofiq. Audio va video axborotlarning o'zaro birgalikda qo'llanishi o'qitish samaradorligini keskin yuksaltiradi.

12. Muammolarni hal qilish va amaliy tadqiqotlar: Talabalarga Quyosh enegetikasi bilan bog'liq haqiqiy muammolar yoki amaliy tadqiqotlar taqdim etiladi. Keyin ular mavzu bo'yicha o'z bilimlaridan foydalangan holda tahlil qilish va yechim topishga da'vat etiladi. Ushbu metodika talabalarining tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga va nazariy bilimlarini amaliy stsenariylarda qo'llashga yordam beradi [2]. Quyosh enegetikasi fanining o'qitish metodikasi, talabalarining nazariy bilimlarni amaliyotga o'tkazishlari, interaktiv darsliklar, praktikumlar va laboratoriya ishlari, kooperativ ta'lim, o'zlashtirilgan o'qitish va yangiliklardan foydalanishni qamrab oladi. Bu usullar talabalarga qayta tiklanuvchi energiya manbalarini tushunish va ularni ishlatishga yordam beradi. Yangi texnologiyalardan foydalanish va zamonaviy texnologiyalardan erkin tarzda foydalanish imkonini beradi. Yosh tadqiqotchilar yuqorida keltirib o'tilgan metodlardan foydalangan holda mashg'ulotdan holi vaqtlarida ham aynan o'z qiziqishlari bo'yicha izlanishlar olib borishlari va soha uchun foydali mahsulotlar ishlab chiqishlari mumkin bo'ladi.

Xulosa: Xulosa qilib, shuni aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida Quyosh enegetikasi fanini o'qitishda yangi metodlardan foydalanish orqali mashg'ulotlarning qiziqarli tarzda tashkil etilishiga olib kelishi bilan birga o'quv materiallarining chuqurroq o'zlashtirilishiga keng imkoniyat yaratib beradi. Quyosh enegetikasi sohasini o'qitish metodikasini tanlash ta'lim darajasiga, mavjud resurslarga va aniq o'quv maqsadlariga qarab farq qilishi mumkin. Talabalarni faol jalb qilish va ularga Quyosh enegetikasi manbalari haqida har tomonlama tushuncha berish uchun oliy ta'lim muassasalarida Quyosh enegetikasi tushunchasini joriy etishning pedagogik usuli, odatda, energiyaning bir nechta shakllari va ularning o'zaro bog'liqligini aniqlash bilan chegaralanadi. Sohaga qiziqishi bo'lgan talabalarni yuqorida keltirib o'tilgan metodlarga ko'ra kuzatish, tajriba olib borish, nazariy bilim berish va amaliyotga tadbiiq etish kabi usullardan samarali tarzda foydalanishni tashkil etish ham zamonaviy pedagogning mahoratiga va sohani mukammal bilishidir. Bu fan yurtimizda nafaqat butun dunyoning o'rganishi kerak bo'lgan tarmog'i hisoblanadi.

Bugungi kunda o'qitishning an'anaviy ko'rinishidan farq qiladigan zamonaviy o'qitish metodikasi qo'llash yuqori samaradorlikka erishishga imkoniyat yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi".
2. B.X.Xodjayev "Umumiy Pedagogika Nazariyasi va Amaliyoti" T – 2017., B. 125-164.
3. R .A .Mavlonova, N .H .Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M .K .Shirinov, S.Hafizov., Umumiy pedagogika.: "Fan va texnologiya"-T – 2018., B. 144-189.
4. Brown, A. N., & Turner, J. R. (2023). Immersive Learning with VR/AR Technologies in Solar Energy Education. Journal of Educational Technology, 6(4), 198-215.
5. Harris, S. L., & Davis, L. A. (2022). Sustainability Integration in Solar Energy Education: Motivating Environmental Stewardship. Green Education Today, 8(3), 89-104.
6. P.M.Po'latova, L.Sh.Nurmuxamedova, D.B.Yakubjonova, Z.N.Mamarajabova, Sh.M.Amirsaidova, A. D.Sultonova., Maxsus pedagogika (Darslik). -T.: «Fan va texnologiya», 2014 y.

Oliy ta'limda quyosh energetikasi fanini raqamli texnologiyalar yordamida o'qitish metodikasini takomillashtirish.

Rezyume: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida "Quyosh energetikasi" fani orqali talabalarda bilim va malakalarini shakllantirish va egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llay bilishni tadqiq etish.

Kalit so'zlar: Quyosh energetikasi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, muqobil energiya, eksperiment, raqamli texnologiya.
Совершенствование методики преподавания науки о солнечной энергетике в высшей школе с помощью цифровых технологий.

Резюме: В данной статье рассматривается формирование знаний и умений студентов через науку «Солнечная энергетика» в высших учебных заведениях и умение применять полученные знания на практике.

Ключевые слова: Солнечная энергия, возобновляемые источники энергии, альтернативная энергетика, эксперимент, цифровые технологии.

Improving the methodology of teaching the science of solar energy in higher education with the help of digital technologies.

Summary: In this article, the formation of knowledge and skills of students through the science of "Solar energy" in higher educational institutions and the ability to apply the acquired knowledge in practice.

Key words: Solar energy, renewable energy sources, alternative energy, experiment, digital technology.

“HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI” FANINI O‘QITISHDA TALABALARDA EKOLOGIYAGA OID BILIMLARINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

To'raqulov E. T.

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

Kirish. Jadal taraqqiy qilayotgan ilm-fan hamda texnologiyalar, iqtisodiy yuksalishda, iqtisodiy-tejamkor texnologiyalarni qo'llash, jamiyat a'zolarida ruhiy tushkunlikning ko'payib ketayotganligi, atrof- muhit ifloslanishi va mehnat qilish sharoitlari, iqtisodiyotning sanoatlashuvida yoshlarning ekologiyaga oid bilimlarini o'stirish va ekologik ko'nikmalarini takomillashtirishning o'quv-uslubiy tizimini takomillashtirishga bo'lgan ehtiyoj kuchayib bormoqda. Dolzarb deb urg'u berilayotgan muammolar qatoriga talabalarning xavfsizligini, ularning ruhan, jismonan, manan yetuk bo'lib kamolga yetishini, ularning qobiliyat va iste'dodlariga halal beruvchi xavflarni ham kiritish lozim.

Dunyo miqyosida Birlashgan Millatlar tashkiloti qoshidagi qator qo'mitalar faoliyati insonlarning hayot faoliyati xavfsizligi muammolari, amalga oshishi mumkin bo'lgan turli ehtimoliy favqulodda holatlarning oldini olishga qaratilgan. Jumladan, BMT qoshida faoliyat ko'rsatayotgan 16 dan ziyod ixtisoslashgan tashkilotlarning bir nechtasi hayot faoliyati xavfsizligi va aynan shu bilan aloqador boshqa masalalar bo'yicha shug'ullanadi. Masalan, atrof-muhitning o'zgarishi natijasida insonlar salomatligini saqlashga va mustahkamlash, atrof-muxitning sanitariya-epidemiologiya monitoringi va boshqa shu yo'nalishga oid xalqaro faoliyat olib borish uchun JSST(Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti), Bosh qarorgohi Jenevada joylashgan Jahon meteriologiya tashkiloti, Atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik (MAGATE) tashkiloti, Evropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (OBSE)ning faoliyat doirasiga atrof-muhit bilan bog'liq turli tabiiy, texnogen va ekologik tusdagi halokatlarni kelib chiqishining oldini olish, bartaraf etish va boshqa insoniyat kelajagiga xavf soluvchi omillarni yo'q qilish kabilar kiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2020-yil 6-noyabrda «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6108-son farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda "Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"

PQ-76-son, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 434-son, 2020-yil 18-fevraldagi "Ekologik xavfsizlik to'g'risida umumiy texnik reglament" 95-son qarorlari, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" va "O'zbekiston Respublikasining davlat yoshlar siyosati to'g'risida" gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezident Sh.M.Mirziyoev tashabbusi bilan yoshlarni "yashil makon" umummilliy dasturida faol ishtirok etish bo'yicha targ'ibot, hamda ekologik tarbiya, ekologik xavfsizlik sohasiga taalluqli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqolamizda muayyan darajada xizmat qiladi [1,2].

Tahlil va natijalar. Tabiiy ofatlar insoniyat boshiga og'ir kulfatlar soluvchi, ekologik muhit, xalq xo'jaligiga beqiyos zarar etkazuvchi xodisalar bo'lib, ular u yoki bu hududda sodir bo'lib, moddiy va ma'naviy zarar keltirib, insonlarning turmush tarzini izdan chiqarishi hammamizga ma'lum [3]. Masalan: Respublikamizning tog'li viloyatlarida sel kelishi, Surxondaryo, Xorazm va Toshkent vyoyatlarida esa chang-tuzonli shamollar sodir bo'lib turishi. Tabiiy xodisalar ichida eng daxshatlisi tabiatga, jamiyatga va ekologik vaziyatga ko'p zarar etkazuvchi zilzilalardir. Har yili er yuzida turli kuchga ega bo'lgan bir millionga yaqin er silkinishlari qayd etiladi. Mamlakatimiz joylashgan Markaziy Osiyo mintaqasida keyingi yuz yil ichida 40 ga yaqin kuchli er silkinishlari qayd etilgan bo'lib, unda yuz minglab kishilar qurbon bo'lgan, katta-katta shaxarlar vayronaga aylangani bizga tarixdan ma'lum. Masalan; 1948 yilda Turkmaniston poytaxti Ashxabad shaxrida ro'y bergan zilzila shaxarni butunlay vayronaga aylantirish bilan birga 110 ming kishi, Afg'onistonda (2022, 2023 yillarda) minglab insonlarning xayotiga zomin bo'lgan. Mamlakatimiz tarixi ham zilzilalarga juda boy bo'lgan. Masalan; Buxoroda (818 yilda), Fargonada (838, 1822, 1829 yillarda), Xorazmda (1208, 1209 yillarda), Toshkentni o'zida 4 marta (1868, 1924, 1966 va 1980 yillar), Gazli shaxrida (1976, 1984 yillarda), Surxondaryoda (1864, 1911 yillarda) kuchli zilzila bo'lganligi qayd qilingan. O'tgan 2023 yilning yanvar- noyabr oylarida respublikamiz xududida 350 ga yaqin zilzilalar qayd etilgan. Bu zilzilalar xalq xo'jaligiga juda katta miqdorda moddiy zarar etkazish bilan birga bir necha yuz minglab odamlarning o'limlariga sababchi bo'lgan [4]. Bunday xodisalar ekologik vaziyat o'zgarishiga, turli yuqumli kasalliklar tarqalishiga sabab bo'ladi. Sellar, suv toshqinlari va boshqa mavsumiy tabiat hodisasi mamlakatimizda tez-tez yuz beradigan xodisaga aylanib qolganki, undan doimo ogoh bo'lish, aholini va xududlarni bu ofatdan muxofaza qilishning chora-tadbirlarini oldindan ko'rib qo'yish va bu orqali u etkazishi mumkin bo'lgan moddiy va ma'naviy zarar miqdorini mumkin qadar kamaytirishga erishmoq lozim. Masalan, Surxondaryoning – Qumqo'rgon, Fargonaning - Suya, Toshkentning - Oxangaron, Parkent, Bo'stonlik, Yuqori Chirchiq, Namanganning - Chortoq, Yangiqo'rgon va Uchqurgon tumanlarida kelgan sellardan xalq xo'jaligining turli soxalariga sezilarli darajada moddiy zarar etgan.

Texnogen ofatlardan yongin va portlash natijasida fojiali xodisalar yuz berib, ularning oqibati mamlakatimiz xalq xo'jaligiga sezilarli darajada iqtisodiy zarar etkaziladi [5]. Pedagogika oliy o'quv yurti talabalarilarining ekologik tarbiyaga oid kompetensiyalarini rivojlantirish, pedagogik tafakkurini kengaytirish, ularda Hayot faoliyati xavfsizligi fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash uchun zarur bo'lgan metodik bilim, ko'nikmalarni shakllantirishdan iboratdir [6]. Pedagogika oliy o'quv yurti talabalarilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyasi, bugungi kunda muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Respublikada keskin bo'lib turgan ekologik va tabiatni muhofaza qilishga oid muammolar quyidagilar:

1. Yirik hududiy – sanoat majmualari joylashgan rayonlarda ya'ni Angren-Olmaliq Chirchiqlarda, Farg'ona-Marg'ilonda, Navoiy va boshqa hududlardagi tabiatni muhofaza qilish muammolari va ushbu hududlarda ijtimoiy-ekotizm holati yaxshi emasligi. Chunki sanoat markazlarida chiqayotgan turli-xil gazlar va chiqindilar atrof-muhitni ekologik holatini buzulishiga olib kelmoqda. 2. Agrosanoat majmuidagi ekologik muammolar. 3. Tabiatdagi suvlarning sanoat chiqindilari pestisedlar va mineral o'g'itlar bilan ifloslanishi ham muammolardan biridir. 4. O'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va qayta tiklash muammolari, qo'riqxonalar va milliy bog'lar tarmog'ini kengaytirish. O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish borasidagi asosiy strategik maqsadlar quyidagilar hisoblanadi: aholining sihat-salomatligi uchun qulay sharoit yaratish, beosferaviy muvozanatni saqlash; O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish samaradorligi va barqarorligini ko'zlagan holda tabiiy resurslardan foydalanish qayta tiklanadigan tabiiy resurslar ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarining muvoznatini saqlash tiklanmaydigan resurslarni ishlab chiqarish, chiqindilardan oqilona foydalanish; regional va lokal darajalarda tabiatni qayta tiklanish hususiyatini tiklash; tabiatning daslabki turlari va ularning genofondini landschaftlarning xilma – xiligini saqlash.

Atmosfera havosini muhofaza qilishning asosiy yo'nalishi shahar va aholi yashaydigan punktlarda atmosfera havosining sifatini yaxshilash, keyinchalik sanitar-gigienik qoidalarga rioya qilish buning uchun Respublikamizning barcha hududlarida chiqindilarni kamaytirish, kam chiqindili texnologiyalarni yaratish, chang to'plovchi va tozalovchi yangi qurilmalarni yaratish va ularning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish eskirgan qurilmalarni yaxshilash bilan almashtirish va boshqalar. Orol dengizining qurishi iqlim o'zgarishiga ham sababchi bo'ldi. Qurg'oqchilik tufayli iqlimning keskin kontinentalligi ortib ketdi. Dengiz va quruqlik o'rtasidagi haroratning o'zgarishi, shamol tezligining o'tirishi, suvning to'q'inlanish hodisasini kuchaytirishiga olib keldi. Sut emizuvchi hayvonlar va qushlar kamayib ketdi. Qurigan maydonlar xavfli kasalliklarni tarqatuvchi kemiruvchi bilan to'lib bormoqda. Orol bo'yining sanitar-epidemiologik ahvoli nihoyatda og'irlashmoqda. Agar zudlik bilan tabiatda vujudga kelayotgan muammolar hal qilinmasa insoniyat va butun mavjudodning hayoti xavf ostida qoladi. Biz tabiatga qarammiz, biz tabiatsiz yashay olmaymiz, shunday ekan biz barchamiz tabiatni asrab avaylashimiz, uning har-bir qarich yerini ko'z qorachig'iday asrashimiz, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanishimiz, har-bir tomchi suvni tejab ishlatishimiz, tabiat haqida doimo g'amxo'rlik qilishimiz lozim. Uzoq yillar davomida eski ma'muriy buyruqbozlik tizimi sharoitida Markaziy Osiyo mintaqasidagi ekologik muammolarga e'tibor berilmadi. Tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga arziyas darajada kam

mablag' ajratilardi. Bu mablag' tabiatga yetkazilgan zararni also qoplamasdi. Sobiq ittifoq zamonida atrof-muhit va atmosfera havosining ifloslanishi, toza ichimlik suvi yetishmasligi tashvishli hol ekani haqida bilib, bilmaslikga olindi. Qonunlar rasmiyat uchun qabul qilinadiyu, ammo ular hayotga joriy etilmadi. Sho'ro tuzumi davrida inson tabiatni o'z irodasiga bo'ysundirishi lozim degan soxta aqida uzoq yillar ustuvorlik qildi. Natijada barcha hududlarda ekologik muvozanat qo'pol ravishda buzildi.

Xulosa. Avvalo, sohaga oid yangi qonun loyihalari yaratish, mavjudlarini takomillashtirish, nazorat-tahlil faoliyatini bugungi talab darajasida kuchaytirish, uzluksiz ekologik ta'lim konsepsiyasini ishlab chiqish, ekologik nazoratning jamoatchi inspektorlari tizimini rivojlantirish, aholi ekologik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan tizimli ishlarni amalga oshirish, atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatuvchi obyektlarni inventarizatsiyadan o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi qabul qilinib, hayotga izchil tatbiq etilmoqda [7]. Umumjahon majburiy ekologik ta'lim va yosh avlodni, talabalarni va barcha aholi qatlamlarini ekologik tarbiyalash ta'lim muassasalarida ekologik ta'lim tizimini loyihalashga yo'naltiradi. Biroq, bugungi kunda ekologik ta'limni loyihalash sohasida murakkab va qarama-qarshi vaziyat mavjud. Bir tomondan, talaba shaxsini ma'naviy-axloqiy rivojlantirish yo'nalishi sifatida ekologik ta'limning ahamiyati ortib bormoqda, xususan: ekologik faoliyatni tashkil etishda aksiologik yondashuvlar ustuvor vazifaga aylanadi; ekologik madaniyat va axloqqa bo'lgan talab ortib bormoqda; jamiyatning barqaror rivojlanishi tamoyillari yangilanmoqda. Boshqa tomondan, zamonaviy maktab ta'limida alohida ekologiya kursi mavjud emas va Davlat ta'lim standartini ishlab chiquvchilar o'qituvchilar oldiga boshlang'ich maktab uchun umumiy ta'lim fanlari doirasida ekologik komponentlikni shakllantirish va alohida o'rta maktab o'quvchilari uchun o'quv rejasining invariant qismining maktab komponentining bir qismi sifatida ekologik kursni tanlash vazifasini qo'yadi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi . Toshkent, "O'zbekiston", 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son farmoni. PF-4947-son 07.02.2017. lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni. 754-xil-son 09.12.1992. (lex.uz).
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 27.05.2019 yildagi 434-son Toshkent sh., 2019-yil 27-may lex.uz
5. Aydarov Ye.B. O'quvchi-yoshlarga tabiiy xududlarni muhofaza qilish orqali ekologik tarbiya berish texnologiyalar // Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. - T.: -2020. - B. 166-169.
6. Sh.Ch Tursunov, J.Sh.Abduraxmonov, E.T.To'raqulov. Hayot faoliyati xavfsizligi. Darslik, T-2024 . B.87.
7. Э.Т.Туракулов "Безопасность жизнедеятельности" Учебное пособие Т-2023, С.48.

"Hayot faoliyati xavfsizligi" fanini o'qitishda talabalarda ekologiyaga oid bilimlarini rivojlantirish mazmuni

Annotatsiya: Maqolada "Hayot faoliyati xavfsizligi" fanini o'qitish misolida Respublikamiz hududida tabiiy va texnogen ofatlarni yuzaga keltiradigan xavf haqida talabalarga ekologiyaga oid bilimlarini berish, ular yuz berishini oldini olish, ulardan o'zi, oilasi, do'stlarini himoya qilish mumkinligi to'g'risida zarur bo'lgan tadbirlar haqidagi yo'l-yo'riq berishni psixologik, pedagogik, iqtisodiy, ijtimoiy hamda siyosiy mazmun-mohiyati atroflicha ketma-ket, izchil yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: atmosfera, xavf, tabiiy, texnogen, ofat, yong'in, texnik halokatlar, yo'l-yo'riq, himoya.

Содержание развития экологических знаний студентов при преподавании науки "безопасность жизненной деятельности"

Аннотация: В статье в качестве примера преподавания науки «Безопасность жизнедеятельности» необходимо дать учащимся экологические знания об опасности природных и техногенных катастроф на территории нашей Республики, способах их предотвращения. происходящих, как защитить себя, свою семью, близких от них - всесторонне и последовательно освещено психологическое, педагогическое, экономическое, социальное и политическое содержание руководства.

Ключевые слова: атмосфера, опасность, природная, техногенная, катастрофа, пожар, техногенные катастрофы, руководство, защита.

The content of the development of ecological knowledge of students in teaching the science of "life activity safety"

Abstract: In the article, as an example of teaching the science of "Safety of life activities", it is necessary to provide students with ecological knowledge about the dangers of natural and man-made disasters in the territory of our Republic, how to prevent them from happening, how to protect oneself, one's family, and friends from them. - the psychological, pedagogical, economic, social and political content of guidance has been comprehensively and consistently covered.

Key words: atmosphere, danger, natural, man-made, disaster, fire, technical disasters, guidance, protection.

УДК 631(575.172)

**ҚАРАҚАЛПАҚСТАН АҰЫЛ ХОЖАЛЫҒЫНЫҢ РАҰАЖЛАНЫҰЫ ТИЙКАРҒЫ
ЖЕТИСКЕНЛИКЛЕРІ****Төрениязова Г.Е.***Қарақалпақстан ауыл хожалығы хәм агротехнологиялар институты*

Кирисиў. Соңғы жыллары Қарақалпақстан Республикасы халық хожалығын елде раўажландырыўға эсиресе аўыл хожалығын жоқары дәрежеге көтериў халқымыздың экономикалық хәм мәдений дәрежесин жоқарылатыўға бағдарланып атыр. Әсирлер даўамында аўыл хожалығы-халқымыздың азық-аўқат өнимлерин жеткерип бериўши бирден-бир тараў соның менен бирге ол кең тутыныў товарларын ислеп шығаратуғын бир катар санаат тараўларын шийки зат пенен тәмийинлейди. Ғәрезсизлик жылларында Қарақалпақстан Республикасының аўыл хожалығында жаңа техника хәм технологиялар базасының өскенлиги анағурлым көзге тасланды.

Тийкарғы бөлим Қарақалпақстан Республикасы экономикасының раўажланыўында, халықты шийки зат хәм товар өнимлери менен тәмийинлеўде аўыл хожалығы әҳмийетили тараў есапланады. Мәмлекетимиз ғәрезсизликке ерискеннен кейин ҳүкметимиз тәрәпинен бул тараўда планлық экономикадан базар қатнасықлары экономикасына өтиў ушын бир қанша экономикалық реформалар әмелге асырылды. Олардан: егислик жерлерге ийелик етиў ҳуқықы, аўыл хожалық тараўында жеке мүлклик қатнасықларды пайда етиў, аўыллық жерлерде орта хәм киши бизнести раўажландырыў, базар экономикасы инфраструктурасын қәлиплестириў, салыққа тартыў системасын жетилистириў, аўыл хожалығына байланыслы баҳалаў сиясаты бойынша енгизилди. Себеби, пүткил дийханшылық цивилизациясы тәрәпинен жыйналған аграр реформалар тәжрийбеси соны көрсетеди, аўыл хожалығында базар экономикасының енгизилиўи – ең дәслеп оның әмел қылыўын тәмийинлеўши институтларды жаратыўы есапланады. Аграр реформалардың институционал тийкарғы жаңа экономикалық институтлары – мүлк, ислеп шығарыў хәм басқарыўдың экономикалық – ҳуқықый формалары, финанслық институтлар хәм базар инфраструктурасының орнатылыўы есапланады.

Бурынғы аўқам дәўириде аўыл хожалық хызметкерлери сыпатында колхоз хәм совхоз жумысшылары, сондай-ақ, басқа тараўдағы хызметкерлерде аўыл хожалығы тараўында хызмет алып барған. Бул хызметкерлер ушын өз шаңарақлары ушын азық аўқат пенен тәмийинлеў ушын кишкене жер участкалары ажратылған еди.

Аўыл хожалығын структуралық хәм институционал қайта дүзиўде бир нешше бағдарлар алып барылды. Бириншиден, аграр тараўда реформалаўды: жер реформасы колхоз хәм совхозларды қайта жаңа басқышта шөлкемлестириў, хожалықларда жумыс алып барыўшы хызметкерлер менен байланыслы кооперацияларды жеке меншикке айландырыў, сондай-ақ, усы хожалықлар арасында жаңа жер қатнасықларын пайда етиўден ибарат еди. Екиншиден, аўыл хожалық өнимлерин сатыўда кәрханалар хәм жәмәәт бирлеспелери ушын мәмлекеттиң бирден бир буйыртпасы болыўы хәм товарларға баҳаны белгилеў системасын бийкарлаўдан ибарат болды. Бул арқалы товар өнимлерин сатыўда жаңа усыллар, үлгиржи базар, биржа, ярмарка х.т.б. енгизилди. Үшиншиден, аграр секторда шөлкемлестириў структураларын қайта көрип шығыў хәм агросанаат комплекси методларына сай басқарыў болып табылды. Аўыл хожалығында техника хәм қурал сайманларды алып келиўде лизинг қатнасықлар жүзеге келди, сондай-ақ, хожалықлар искерлигинде ықтырый қамсыздандырыў пайда болды. Төртиншиден, аўыл хожалығы шөлкемлери коммунал хызметлер хәм социаллық структураны сақлап турыў функциясынан азат етиў сыяқлы реформаларды алып барыўдан ибарат болды.

Биринши Президентимиз И.А.Каримов фермерликти раўажландырыў бойынша «Аўыл хожалығында ислеп шығарыўды қандай етип шөлкемлестирмейик, қандай тәрәпке бурмайық, бир нәрсени ҳеш қашан умытпаўымыз керек. Олда болса, дийхан бай болмастан турып жумысшыда, зыялы да тоқ болыўы мүмкин емес, халқымыздың ел-журтымыздың турмысын, келешегин параўан етип болмайды. Бул анық гәп. Усыған тийкарланып, жәмәәт хәм мәмлекет хожалықларын түптен өзгертиўимиз керек, жеке, кооператив хәм дийхан (фермер) хожалықларына кең көлемде жол ашып бериўимиз лазым» [1.146].

Мәмлекетимиз ғәрезсизликке ерискен дәслепки жылларда халқымыздың өтмиштеги бир тәрәплеме экономика қыйыншылықларын, менталитетин, үрип-әдетин, турмыс кешириў дәстүрлерин есапқа алған ҳалда өзине тән аграр сиясат алып барды. 1991-жылы 29-ноябрьде ПФ-295-санлы «Республикада дийхан (фермер) хожалықларын және де беккемлеў хәм исбилерменлик хызметин мәмлекет жолы менен қоллап-қуўатлаў» ҳаққындағы парманы [2], 1992-жылы 3-июльда 654-ХІІ-санлы «Дийхан хожалығы ҳаққындағы» Өзбекстан Республикасы Нызамын қыбыл етилди [3]. Бул нызам бес бөлим, 24 статьядан ибарат болып, бул арқалы төмендегише нормалар киритилди: Дийхан хожалықлары исбилерменлик формаларының бири.; Дийхан хожалығы жумыс алып барыўы ушын айрым шахсларға жерди мийрас қалдырыў ҳуқықы менен өмирликке ийелик етиў, кеминде 10-жыл мүддет пенен пайдаланыў ушын яки ижараға жер ажратыў; Дийхан хожалығын жүритиў ушын жер участкаларын алған, сондай-ақ, аўыллық жасаў пунктлеринде үй-жайы болған шахслардың үйге тutas қыйтақ жерлери - чек жерлери сақланып қалынады; Дийхан хожалығы есапқа алынған күннен баслап еки жыл даўамында оннан жер салығы алынбайды – деген тийкарғы нормалар киритилген еди. 1991-жылы 30-

декабрьде Президент пәрманы тийкарында Өзбекстан Республикасы Министрлер Кабинетиниң 315-санлы қарары қабыл етиледи [4]. Усы қарарды орынлау мақсетинде Қарақалпақстан Республикасы Министрлер Кеңеси 1992-жылы 23-март 74/3-санлы қарары қабыл етилди [5.69]. Бул қарарда Төрткүл 1400 га, Елликқала 1485 га, Беруний 1485 га, Әмиўдәрәя 1680 га, Хожели 1920 га, Ленинабад 2760 га, Шоманай 2300 га, Қоңырат 3300 га, Мойнақ 320 га, Нөкис 2000 га, Кегейли 2120 га, Шымбай 3500 га, Қараөзек 2650 га, Тахтақөпир 2820 га, Бозатаў 1220 га районларының улыўма жәми 3100 га жер фондын халық депутатлары Кеңеси тәрәпинен тастыйықланған арнаулы жер уастқалары хәм фондларын дүзиўи ҳаққында болды. Сондай-ақ, бул қарарда ажратылған жер уастқалары 10 жыл мүддетке ажратылғанлығы, халық арасында дийхан (фермер) хожалықлары ҳаққында үгит-нәсият жумысларын алып барыў, оның раўажланыўы ушын әмелий жәрдем көрсетилюи ҳаққында атап өтилген.

Республикада аўыл хожалық өнимлерин жетистириўди қоллап қуўатлау, республика халық хожалығы хәм халықтың мүтәжигин тәмийинлеу мақсетинде, сондай-ақ, жәмәят хожалықлары, мәмлекет хожалықлары х.т.б. аўыл хожалығы кәрханаларының экономикалық аўхалын бекемлеу, базар қатнасықларына өтиў шәрәятинде аўыл хожалығы хызметкерлериниң материаллық мәплерин қанаатландырыў ушын Қарақалпақстан Республикасы Министрлер Кеңеси 1992-жылы 11-мартта 67/3-санлы [6.211.222] Өзбекстан Республикасы Президенти жанындағы Министрлер Кабинетиниң 1992-жылы 21-январдағы «1992-жылда Республика аўыл хожалығы өнимлерин жетилистириўди қоллап қуўатлау ис-илажлары ҳаққында»ғы 23-санлы қарарын[7] орынлау мақсетинде қарар қабыл етилди. Қарарда 1992-жылда жәмәят, мәмлекет хожалықлары хәм қарханалары ушын пахта таласы, пилле, дән, салы, қурытылған мүйәселер, шарўа, таўық, сүт, мөйек бойынша белгиленген тапсырманың 85% тин, хәмде мийўе-палыз өнимлери, картошка белгиленген тапсырманың 50% тин шекленген сатып алыў баҳаларында республика фондына жеткериў ўазыйпасы тапсырылады. Өнимлердин белгиленген тапсырмадан артығы жетистириўшилердин өз қәлеўлери бойынша шәртнама (еркин) баҳаларда сатылыўы белгиленип қойылды.

1992-жылда Қарақалпақстан Республикасы аўыл хожалығы өнимлерин тараўда мәмлекетик буйыртпасы

Район атамалары	пахта таласы		гүриш		картофел	
Қарақалпақстан Республикасы бойынша	тонна	мәмлекетлик буйытпа 5%	тонна	мәмлекетлик буйытпа 85%	тонна	мәмлекетлик буйытпа 85%
	99715	84758	209400	177990	100	50
	шарўа хәм таўық (тири салмақта)		сүт		мөйек	
	тонна	мәмлекетлик буйытпа 85%	тонна	мәмлекетлик буйытпа 85%	тонна	мәмлекетлик буйытпа 85%
	20800	17680	47260	40188	45500	38675
	бағ өнимлери		палыз		пал	
	тонна	мәмлекетлик буйытпа 50%	тонна	мәмлекетлик буйытпа 50%	тонна	мәмлекетлик буйытпа 85%
	74540	37270	40000	20000	131	111,35
	қаракөл		жүн		пилле	
	тонна	мәмлекетлик буйытпа 85%	тонна	мәмлекетлик буйытпа 85%	тонна	мәмлекетлик буйытпа 85%
	94000	79900	1272	1081,2	800	680

Қарақалпақстан Республикасы Министрлер Кеңесиниң 1992-жылы 10-марттағы 65/3-санлы қарарында комиссия тәрәпинен аўыл хожалығында қарыздар, рентабеллиги төмен болған бир қанша совхозларды қарызынан ўаз кешип мүлкшиликтиң басқа түрлерине өткериў бойынша қарар қабыл етилди. Бул қарарда районлық халық депутатлары кеңеси тәрәпинен тастыйықланған төмендеги районлар бойынша Кегейли 4 совхоз 2185, Шоманай 6-совхоз 10057, Қоңырат 6 совхоз, 15990, Мойнақ 4 совхоз 7039, Қараөзек 4 совхоз 7160, Елликқала 7 совхоз 7052, Нөкис районы 6 совхоз 40678, Хожели 6 совхоз 4639, Тахтақөпир 6 совхоз 7261, Төрткүл 6 совхоз 12095, Шымбай 7 совхоз 41824, Беруний 2 совхоз 30384, Ленинабад 2 совхоз 8863, Бозатаў 7 совхоз 29812, Әмиўдәрәя 6 совхоз 12138, Тахияташ таўық фабрикасы 2456, Балықшылық колхозлары 5 болып 165, жами республика бойынша 79 совхоз хәм колхозлар киритилип, 239806 муғдарындағы қарыздарлықтан ўаз кешилип, мүлкшиликтиң басқа формаларына өткерилген[8.184].

Аўыл хожалығындағы мүлкшилиқ формаларын енгизиў баҳа сиясатын жетилистириў менен бирге алып барды. Пахта шийки зат дереги хәм дәннен басқа аўыл хожалық өнимлериниң барлық түрлери еркин саўда баҳаларына әмел етип келген. Әмелге асырылған экономикалық реформалар аўыл хожалығы аўхалының турақласыўына, жетилистирилген өнимди тең бөлиў хәм сатыў мәселеринде мийнет жәмәәтлеринде ғәрезсизлик хәм еркинлик күшейип барды. Деген менен орынларда аўыл хожалығы тараўындағы өзгерислерди шөлкемлестириўде төмен профессионал дәреже, мийнет жәмәәтлериниң жаңа шәрәятта жумыс алып барыўлары ушын тийисли таярықлар көрилместен, хәр бир хожалықтың өзине тән мүмкиншиликлерин есапқа алмастан алып барылды. Қалаберсе, егислик жерлерде экологиялық апатшылық себебинен топрақлардың коррозияға ушраўы, дуз муғдарының көбейип барыўы сыяқлы себеплер илимий жақтан толық изертленбеди. Тараўда кадрлардың жетиспеўшилиги, мәмлекет сиясатын ақырына шекем түсинбеўшилиқ себепли буйрықпазлық халында жүзеки орынланып келинген.

Мәмлекетлик хожалықларды хожалықлардың басқа түрине айландырыў барысында көпшилиқ жағдайда тек ғана хожалықтың атын өзгертип, шөлкемлестириў принциптери хәм ислеп шығарыў қатнасықлары алдыңғы жағдайда қалып кеткен. Аўыллық жерлерде қайта өзлистириўди әмелге асырыў барысында бул

ҳаракетларга аўқам дэўирден қалган бақымандалық кейпийаты даўам етпекте еди. Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинетиниң 1992-жылы 21-январдағы 21-санлы қарарына муўапық экономикалық жақтан зыян менен жумыс алып барыўшы мәмлекет хожалықлары негизинде шөлкемлестирилген 360 хожалықтан 99 хожалығы 1992-жыл жуўмағы бойынша 3,9 млрд.сум муғдарында зыян көрди хэм қарыздарлықты төлеў мүддетин узайтыў мақсетинде мүлкшилиқ формаларын өзгертиў ҳаққында усыныслар берилди. Бул хожалықлар саны Қарақалпақстан Республикасында 12, Қашқадарьяда 15, Сурхандарьяда 10, Бухарада 7 хэм Хорезмде 7 аймақты курады[9].

Жуўмақлап айтқанда, фермер хожалықлардың раўажланыўы барысында төмендегилерге ерисилди: бириншиден, фермер хожалықларды раўажландырыў аҳмийетли бағдар екенлиги тән алынды; екншиден фермер хожалықларға хызмет көрсетиўши базар инфраструктурасын раўажландырыўға үлкен итибар берилди, үшіншиден, фермер хожалықларының ен жайыўынада, кеңейиўинде белгили бир унамлы өзгерислер пайда болды; төртиншиден, мәмлекет тәрәпинен экономикалық реформалар нәтийжесинде ҳәр тәрәплеме қоллап-қуўатлаў механизмлери жетилисип барды.

ЎДЕБИЯТЛАР

1. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – 146 б.
2. «Республикада деҳқон (фермер) хўжалиқларини янада мустаҳкамлаш ва тадбиркорлик фаолиятини давлат йўли билан қўллаб-қувватлаш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони, 29.11.1991 йил, ПФ-295-сон. <https://lex.uz/docs/233867>
3. «Деҳқон хўжалиги тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. 03.07.1992 йил 654-ХП-сон. <https://lex.uz/docs/126617>
4. «Республикада деҳқон фермер хўжалиқларини янада ривожлантириш ва мустаҳкамлаш чоралари ҳақида» Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 30.12.1991 йил. 315-сон.
5. Қарақалпақстан мәмлекетлик архиви. Фонд: М500, Опис 1, сақлаў 19. 69-бет.
6. Қарақалпақстан мәмлекетлик архиви. Фонд: М500, Опис 1, сақлаў 18. 211-222-бетлер.
7. «1992-йилда республика кишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг асосий кўрсаткичлари ва кишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштиришни рағбатлантириш чоралари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси ҳузуридаги Вазирлар Маҳкамасининг қарори. 21.01.1992 йил 23-сон.
8. Қарақалпақстан мәмлекетлик архиви. Фонд: М500, Опис 1, сақлаў 19. 184-бет.
9. «Давлат кишлоқ хўжалиги корхоналарига молиявий ёрдам кўрсатиш ва уларнинг хўжалик юритиш шаклларини такомиллаштириш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси ҳузуридаги Вазирлар Маҳкамасининг қарори. 21.01.1992 йил. 21-сон.

Қорақалпоғистон қишлоқ хўжалигининг ривожланиши асосий ютуқлари

Резюме. Ушбу мақолада Қорақалпоғистон Республикаси қишлоқ хўжалиги соҳасида эришилган ютуқлар ва қишлоқ хўжалигини таркибий ва институционал қайта қуриш бўйича бир нечта йўналишлар кўрсатиб ўтилди.

Таяныш сөзлер: колхоз, совхоз, институционал, корпорация, кооператив, чек жери, коррозия.

Основные достижения развития сельского хозяйства Каракалпакстана

Резюме. В данной статье показаны достижения в сфере сельского хозяйства Республики Каракалпакстан и несколько направлений структурной и институциональной реструктуризации сельского хозяйства.

Ключевые слова: колхоз, совхоз, институциональный, координация, кооператив, чек земля, коррозия.

Main achievements of agricultural development in Karakalpakstan

Summary. This article shows the achievements in the field of agriculture of the Republic of Karakalpakstan and several directions of structural and institutional restructuring of agriculture.

Key words: the collective farm, the state farm, institutional, coordination, cooperative, the land check, corrosion.

AMIR TEMURNING IJTIMOYIY FAOLIYATIDA RATSIONALLIKKA ASOSLANGAN XARIZMATIK LIDERLIKNING O'RNI

O'rovov Sh.Z.

SamISI "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi

Kirish. Jahon ilm-fanida chuqur siyosiy inqirozlarga barham berish hamda adolatli ijtimoiy munosabatlarni qaror toptirishda milliy davlatchilik an'alarining ilg'or g'oyalaridan samarali foydalanishga oid fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishda Sohibqiron Amir Temurning davlat boshqaruv tizimida adolat va qonun ustuvorligi tamoyillaridan keng foydalanishga oid izlanishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, Sohibqironning davlatchilik asoslarini barpo etish faoliyatidagi huquqiy ong sintezi bo'lgan "Temur tuzuklari"dagi bag'rikenglik, tinchlik, adolat, vatanparvarlik, o'zaro hamjihatlikka doir ijtimoiy-falsafiy g'oyalarini ilmiy tadqiq etish bugungi ilm-fanning zaruriy tadqiqot obyektiga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, hozirgi geosiyosiy ziddiyatlar kuchaygan davrda buyuk ajdodlar tomonidan ishlab chiqilgan ratsionallikka asoslangan milliy davlatchilik nazariy asoslarini hamda ijtimoiy-siyosiy va huquqiy qarashlarini hozirgi davr yangiliklari bilan uyg'unlashtirib borish dolzarb masalalardan biri bo'lib bormoqda.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishda Amir Temurning ratsionallikka asoslangan milliy davlatchilik g'oyalaridan foydalanish, jamiyat ma'naviy-axloqiy tafakkuriga ta'sirini o'rganish davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. "Vatanimiz o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'yayotgan bugungi kunda biz uchun qadimiy tariximiz va madaniyatimizga oid yangi ilmiy tadqiqotlar har qachongidan ham muhim ahamiyatga ega"[1-32]. Shu ma'noda, Sohibqiron Amir Temurning ma'naviy merosida ratsionallikka asoslangan ijtimoiy, siyosiy va huquqiy qarashlari hamda ilg'or davlatchilik g'oyalari barkamol inson

tarbiyasi, jamiyatimiz ma'naviy ravnaqini mustahkamlashda ulkan ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini ilmiy tadqiq qilish zaruriyatini saqlab qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Amir Temurning tarixiy-madaniy va ma'naviy merosiga oid masala doimo davlat rahbarlari, tarixshunos mutaxassislar, faylasuflarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Xususan, bu masalani o'rganishda xorijlik olimlardan F.Shlosser, H.Hukhem, A.Shampdor, V.Furniye, L.Keren, J.Ru, X.Lemb, B.Mans va boshqalar Amir Temurning dunyo siyosatida, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarda tutgan o'rnini tadqiq etishga e'tibor qaratishgan. Ingliz olimasi Hilda Hukhem Amir Temur o'z yurtida davlatchilik va madaniyat an'analari davomchisi bo'lganligini, turli sohalarida benazir asarlar yaratgan buyuk allomalar vatanidan yetishib chiqqanligini, mazkur allomalarning yirik asarlari bir necha yuz yillar davomida Yevropadagi Uyg'onish davriga katta ta'sir ko'rsatib, unga poydevor bo'lib xizmat qilganligini haqqoniy ravishda aytib o'tgan[2-320]. Jumladan, Lyusen Keren ko'plab tadqiqotlarida Amir Temurning tarixdagi buyuk xizmatlari, uning davlatida adolat va qonun ustuvorlik qilganligi, "rahbar bo'lishdek tug'ma, ammo aqlga sig'maydigan tabiiy va sinoatli xislat sohibi" bo'lganini manbalardagi ma'lumotlar, tarixiy faktlar orqali ochib bergan [3-169-170]. Amir Temurning hayoti, ma'naviy merosi ijtimoiy-siyosiy va falsafiy qarashlari bo'yicha O'zbekistonda I.Mo'minov, B.Ahmedov, N.Ahmedov, E.Rtveladze, U.Uvatov, J.Yaxshilikov, A.Ziyo, Z.Muqimov, A.Saidov, H.Dadaboyev, Sh.O'ljayeva va boshqalar o'z asarlarida ko'plab qimmatli ma'lumotlarni keltirganlar. Mazkur olimlar asarlarida Amir Temurning ratsional xarizmatik liderlik qobiliyati va ma'naviy merosiga oid yangi manbalarda keltirilgan ijtimoiy-siyosiy hamda falsafiy qarashlari to'liq o'rganilmagan. Busiz Sohibqiron faoliyatidagi insonparvarlik g'oyalarining yoshlarni barkamol qilib tarbiyalashga oid ijtimoiy-siyosiy va falsafiy jihatlar yaxlitlik kasb etmaydi. Hozirda jahonda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning mazmun-mohiyatini anglashda Amir Temur ma'naviy merosi muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot metodologiyasi. *Maqolada* retrospektiv va tizimli tahlil, vorisiylik, analiz va sintez, qiyosiy o'rganish, obyektivlik, tarixiylik va mantiqiylik birligi kabi ilmiy usullardan foydalanilgan. Tahlil va natijalar. Dunyoda ro'y berayotgan globallashuv jarayonlarining shiddat bilan o'sishi jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotiga o'zining konstruktiv va destruktiv ta'sirini o'tkazmoqda. Bularning barchasi har bir mintaqada yashovchi shaxs va jamiyat a'zolarida milliy davlatchilik asoslarini o'rganish va ma'naviy o'zlikni anglash darajalarini ifodalovchi miqdoriy va sifatliy ko'rsatkichlarda yaqqol ko'zga tashlanib turibdi.

Markaziy Osiyoda siyosiy parokandalik, o'zboshimcha amirlar o'rtasidagi boshboshdoqlikka barham berish, jabrdiyda xalqini, vatandoshlarini mo'g'ullar zulmidan ozod etish hamda qisqa fursat ichida Markazlashgan buyuk bir imperiyani tashkil etish bu Amir Temurning xarizmatik liderlik qobiliyati bilan bog'liqdir. Biz o'quvchiga tushunarliroq bo'lishi uchun quyida xarizmatik liderlik va siyosiy yetakchilik haqida fikr yuritamiz. Amir Temur ishonchli xatti-harakatlari, yorqin ko'rinish, ishontirish qobiliyati, shu jumladan hissiy jihatdan notiqiligi, odamlarga yoqish qobiliyati, odamlarga yondashuvni topa olish qobiliyati, ijodkorligi, tahlikali vaziyatda qaror qabul qilish qobiliyati, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga tayyorligi, maqsadlarni belgilash bilan o'zining xarizmatik liderlik qobiliyatini yorqin namoyon eta oldi va ko'zlangan maqsadlariga erishdi.

Bir qarashda, rahbarlik liderlikka o'xshashdek tuyulishi mumkin. Biroq sezilarli farqlar mavjud. Birinchidan, lider har doim sahna ortida va o'z-o'zidan aniqlanadi, rahbar esa rasmiy ravishda tayinlanadi. Ikkinchidan, lider muayyan guruh vakili bo'lib, u bilan yaqin munosabatda bo'ladi. Uchinchidan, liderning asosiy sohasi shaxslararo munosabatlar, rahbarning asosiy sohasi esa rasmiy munosabatlardir. Ammo rahbar o'z ixtiyorida ko'proq tashqi ma'lumotlarga ega, u qonuniy sanksiyalarni qo'llashi mumkin, ya'ni u mansabdor shaxs. Amir Temur o'z siymosida ham liderlikni, ham rahbarlik xislatini mujassamlashtirgan shaxs edi. Ilmiy til bilan aytganda, guruhga kuchli va sezilarli ta'sir ko'rsatadigan rahbar formal lider hisoblanadi, ya'ni uning ta'siri mavqega bog'liq bo'lsa, "qo'l ostidagilarga" ta'sir qiladi. Norasmiy lider – bu tashkilotdagi mavqeyidan qat'i nazar, rahbarlikni ta'minlovchi shaxs.

Liderlikni boshqaruv kontekstida odatda quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Lider-tashkilotchi. Bunday lider ko'pchilik hollarda uchraydi. Bu to'g'ri jamoani qanday yig'ishni biladigan, uning ehtiyojlarini tushunadigan va ularni o'zinikidek qabul qiladigan odam. Faol harakat qiladi, doimo ijobiy munosabat va muvaffaqiyatga ishonadi. U hammani qanday ishontirishni, u yoki bu izdoshga qanday yondashuvni topishni, odamni xafa qilmasdan xatosini ko'rsatishni biladi. Ana shunday lider rahnamoligida jamiyat birlashadi va taraqqiy etadi. Amir Temur tashkiliy masalalarda o'z jamoasi bilan bir qatorda mehnat qiladi va nazoratda bo'lishlarini ta'minlaydi.

2. Lider-diplomat. Bu hamma bilan qanday muzokara qilishni biladigan odam. U vaziyatni juda yaxshi biladi, har bir tafsilot va lahzani sinchkovlik bilan o'rganadi, shuning uchun u barcha izdoshlar ustidan ta'sir ko'rsatadi. Har qanday vaziyatda ham jamoada birdamlik ruhini saqlab qola oladi. Amir Temur jamoada ro'y bergan salbiy holat, kelishmovchiliklarni ham osonlikcha hal qila oladi.

3. Lider-kurashchi. Jasur, biroz mag'rur, kuchli va irodali odam. Bunday lider odatda vaziyatlarni va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarni sinchkovlik bilan tahlil qilish uchun kam vaqtga ega, shuning uchun u darhol harakat qiladi, lekin g'oya uchun oxirigacha kurashadi. Amir Temur jamoani juda rag'batlantiradi va har qanday vaziyatda "o'zini" himoya qilishga o'rgatadi.

4. Lider-ijodkor. Aynan shu inson jasur va sezgir, ko'pchilik sezmaydigan narsalarni ko'radi. Amir Temur lider-ijodkorlik sifati bilan izdoshlarini o'ziga tortadi. Ular bilan teng sharoitda ishlaydi va doimo jamoaviy muhokama va muammolarni hal qilishga chaqiradi.

5. Yupatuvchi lider. Bunday inson ajoyib xarizmaga ega. U hamma narsa yaxshi bo'lishini aytganida, siz bunga haqiqatan ham ishonasiz. Bunday lider qiyin paytlarda qanday qo'llab-quvvatlashni biladi, muvaffaqiyatsizliklardan omon qolishga yordam beradi va ulardan qutulish uchun motivatsiya topadi. Amir Temur odamlarga nisbatan hurmat bilan muloyim munosabatda bo'ladi.

Sohibqiron Amir Temur ana shunday xarizmatik qobiliyatga ega bo'lgan lider va rahbar ekanligini o'z ijtimoiy-siyosiy faoliyatida amaliy jihatdan isbotlay oldi. Amir Temur bunyodkor, yaratish mentaliteti bo'lgan xalqning farzandi, tabiatan insonparvar bo'lib tug'ilgan buyuk zot edi. U yoshligidanoq, g'oyatda bilimli, keng dunyoqarashli, kamyob iste'dod sohibi bo'lgan. Tabiiy ravishda bunday shaxslar odatda ko'pchilik nazariga tushmay qolmaydi.

Amir Temur murakkab siyosiy vaziyatda tarix maydoniga kirib keldi. Xudo kelajakda ulug' saltanat barpo qilishni uning ko'ngliga solgan edi. Buning uchun xalqini mo'g'ullar istibdodidan qutqarish hamda mamlakatni birlashtirish lozim bo'lardi. U o'zboshimcha amirlar boshini bir joyga qovushtira oldi. Amir Temur davlat boshqaruvini o'z qo'lga olgan bo'lsa-da, ammo mavjud shart-sharoitda amaliy qadamlar qo'yib borish nihoyatda og'ir edi. Zero, mamlakat yo biron bir viloyat, yoki ijtimoiy tabaqa doirasida kattagina mavqega ega bo'lgan amirlar hozircha uning hukmronligini tan olgan bo'lsalar-da, ular bilan Amir Temur o'rtasidagi munosabat bundan buyon ularga va ular namoyandasi bo'lmish ijtimoiy muhitga nisbatan yurgiziladigan siyosat bilan ko'p jihatdan bog'liq edi.

Amir Temur hokimiyatga kelishi bilan dastlab mahalliy beklarni murosaga chaqirdi. Davlatdagi siyosiy mavqeyini mustahkamlab olgandan so'ng, barcha hokimlar yagona markazga birlashtirildi. Tashqaridan bo'ladigan hujumlarga ham, ichki nizolarga ham chek qo'yildi. Mamlakatda tinchlik, osoyishtalik hukm surdi. Movarounnahr mustamlakachilik zulmidan ozod bo'ldi. Tarixiy-madaniy taraqqiyot yo'lida asosiy jihatlardan umumiylikka ega bo'lib kelgan va shu tufayli ham bir mamlakat, bir xalq sifatida tanilgan va xuddi shu orqali rivojlanish, yuksalish sharoiti va imkoniyatlariga ega bo'lgan makon va jamiyat yaxlitligiga erishmasdan turib boshqa siyosiy, iqtisodiy va shunga o'xshash tadbirlarni amalga oshirib bo'lmadi. Bu yo'ldagi xatti-harakatlar Amir Temur uchun oson kechmadi. Ammo nima bo'lganda ham 70-yillar o'rtalariga kelib mamlakat siyosiy yaxlitligiga asosan erishib bo'lingandi.

Xuddi shuning uchun ham mazkur yilning o'rtalarida Samarqandda o'tkazilgan qurultoyda Amir Temur barcha viloyatlardan nufuzli amirlar, lashkarboshilarni yig'ib, ularning har birining mavqeyi va martabasiga qarab biron-bir mansab va mulk (viloyat, tuman, shahar) taqsimlab berdi, kattadan-katta sovg'alar ulashdi[4-303-305]. Shu ma'noda Sohobqironning «Tuzuklar»ida keltirilgan quyidagi ta'kid diqqatga sazovordir: «Bulardan mol-dunyoga hirs qo'ygan ochko'z va tamagirlariga mol-ashyo va'da qildim, mansab-martabaga, mamlakatlarni boshqarishga ko'z tikkan amalparastlarga qo'lga kiritgan mamlakatlar, viloyatlardan birining hokimligini berdim»[5-39]. Tarixiy manbalarda yozilishicha, Amir Temur chiqargan dastlabki farmonlarda yo'llardagi xavfsizlik, pochta, qatnov vositalarini ta'minlash, qo'shinlar yurishi, janglar oqibatida xarob bo'lgan yerlarni obod etish, rabotlar (mehmonxonalar, to'xtash joylari), xonaqohlar qurish, kambag'al va miskinlar uchun xayrxonalar ochish haqida so'z ketgan. Shuningdek u sayyidlar, din peshvolari, qozilar, shayxlarga, ya'ni musulmon jamiyatida o'ziga xos mavqe va ta'sirga ega tabaqaga katta ikrom bilan qarashini bildiradi. Ilm-fan rivoji uchun yo'l ochadi, talabalarga kattadan-katta stipendiyalar tayin etishni buyuradi[6-275-280]. Bu bilan u uzoq yillar davomida mamlakat hayotini qamrab olgan jamiyat taraqqiyoti va istaklariga zid bo'lgan jarayonga chek qo'yilgani va bundan buyongi hayot jamiyatning turli tabaqalari (din peshvolariyu olimlardan to miskinu savdogarlargacha) manfaatida qurilishini bildirdi. O'zining o'ttiz besh yillik faoliyatida Amir Temur uchun bu bosh siyosat bo'lib qoldi. Garchi u o'z davri farzandi sifatida hokimiyatini saqlash vazifasini ham uyg'unlashtirgan bo'lsa-da, ammo obyektiv ravishda uning faoliyati o'zbek davlatchiligi va jamiyati taraqqiyoti uchun ulkan tarixiy xizmat qildi.

Oltin O'rdaga berilgan zarba Amir Temur o'z davlati manfaatlaridan kelib chiqishiga qaramasdan, bu g'alaba rus xalqiga va Rus davlatiga ko'rsatilgan katta yordam edi. Bu tarixiy holni ilg'or fikrli rus tarixchilari A.Yu.Yakubovskiy va B.D.Grekovlar obyektiv baho berib, tan olganlar[7-317-318].

U o'z davlatini dunyo miqyosida tan olinishini istab dastavval davrning eng yuksak bilimiga asoslangan harbiy va davlatchilik sohasida muhim islohotlarni amalga oshira oldi, zamonasiga mos davlat boshqaruv tizimlarini ishlab chiqdi. Buning natijasida O'rta Osiyoda qariyb ikki asrga yaqin mo'g'ullarning beboshligi natijasida bosqinchilik, zo'ravonlik, adolatsizlik va vayronagarchilik hukm surgan feodal tarqoqligiga barham berildi, o'lka xalqlarining o'z huquqlari, mustaqilligi qayta tiklandi. Iqtisodiy, madaniy, ma'rifiy turg'unlik girdobidan olib chiqildi. Uning buyuk ishlari va salobatli davlati o'z davrida nafaqat Sharqda balki, dunyo, ayniqsa Yevropada ham tan olingan edi.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur saltanatining tashkil topishi tasodifiy bir hol bo'lmagan, butun XIV asr ijtimoiy-siyosiy voqealari rivojlanishidagi tarixiy jarayonning shakllanishi hamda Markaziy Osiyoda xarizmatik liderning yetishib chiqishi edi. Xarizmatik liderning shaxsiy fazilatlariga haqida yuqoridagi tadqiqotchilarning hamma xulosalari yosh, navqiron, jasur, bilimli va iymonli Amir Temurda mujassam edi.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. –Тошкент.: “O'zbekiston”, 2022. –Б.32.
2. Hookham H. Timuraine the conqurer. - London, 1962; Хукхэм Х. Властитель семи созвездий / Пер. с англ. Хидоятова Г. – Т.: “Адолат”, 1995. –С.320.
3. Kehren L. Tamerlan, le Seigneur de fer. - Neuchatel, 1978. –P.260; Keren L. Amir Temur saltanati. Fransuz tilidan tarj. va izohlar muallifi B.Ermatov. – Т.: “O'zbekiston”, 2016. – Б.169-170.
4. Натанзий М. Мунтахаб ат-таворихи Муиний. –Т.: O'zbekiston, 2011. – Б.291-292; Яздий Ш.А. Зафарнома. –Т.: “Шарк”, 1997. –Б.303-305.
5. Темур тузуклари. –Т.: «O'zbekiston», 2013. –Б.39.
6. Шомий Н. Зафарнома. –Т.: Ўзбекистон, 1996. 2-жилд. –Б.188-198; Натанзий М. Мунтахаб ат-таворихи Муиний. –Т.: O'zbekiston, 2011. – Б.275-280.
7. Греков Д.Д., Якубовский А.Ю. Олтин Ўрда ва унинг кулаши. – Т.: Ўздавнашр, 1956, –Б.317-318.

Amir Temurning ijtimoiy faoliyatida ratsionallikka asoslangan xarizmatik liderlikning o'rni

Annotatsiya. Ushbu maqolada tadqiqotning maqsadi Sohibqiron Amir Temurning ijtimoiy faoliyatida ratsionallikka asoslangan xarizmatik liderlik qobiliyatining o'rini, uning o'ziga xosligi va hozirgi islohotlar davridagi ahamiyatini ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: siyosiy beqarorlik, yetakchilik, davlat, hokimiyat, vazir, askar.

Место харизматического лидерства, основанного на рациональности, в общественной деятельности Амира Темура

Аннотация. В данной статье цель исследования – выявить роль харизматического лидерства, основанного на рациональности, в общественной деятельности СахибкIRONА Амира Темура, его уникальность и значение в современный период реформ.

Ключевые слова: политика, политическая нестабильность, лидерство, государство, власть, министр, солдат..

The place of charismatic leadership based on rationality in Amir Temur's social activities

Annotation. In this article, the purpose of the study is to identify the role of charismatic leadership based on rationality in the social activities of SahibkIRON Amir Temur, its uniqueness and significance in the modern period of reforms.

Key words: politics, political instability, leadership, state, power, minister, soldier.

ЖАЗОНИ ЎТАЁТГАН МАҲКУМЛАРГА НИСБАТАН ТИББИЙ ЙЎСИНДАГИ МАЖБУРЛОВ ЧОРАЛАРИНИ ҚЎЛЛАШ

Файзуллаева Т.Х.

Қорақалпоқ давлат университети

Ақли норасо шахсга нисбатан тиббий йўсиндаги мажбурлов чораларини қўллаш бу жазо тури ҳисобланмайди, сабаби Ўзбекистон Республикаси ЖКнинг 91-моддасида кўрсатилган тиббий йўсиндаги мажбурлов чораларини қўллашнинг мақсадлари ЖКнинг 42-моддаси иккинчи қисмида кўрсатилган жазо тайинлашнинг мақсадларидан фарқ қилади.

Тиббий йўсиндаги мажбурлов чоралари руҳий бузилиш вақтида ижтимоий хавфли қилмиш содир этган ва уларнинг руҳий ҳолатини тикланишига асосли имкони бўлган ҳамда улар томонидан янги жиноят содир этишнинг олдини олиш мақсадида қўлланилиши мумкин [1, 116]. Шахс жиноий жазони ўташдан озод қилинганда жазони ижро этиш жараёни тугатилади. Ушбу ходиса комплекс характерга эга бўлиб, жиноят, жиноят-ижроия, жиноят-процессуал қонуни нормалари билан тартибга солинади.

Суд томонидан жиноят учун тайинланган жазонинг муддати қатъий ҳисобланади, аммо жазони ўташ вақтида маҳкум руҳий касалликка чалинганда суд психиатрия экспертизаси ҳулосасига асосан жазони ўташдан озод қилиниб, унга нисбатан тиббий йўсиндаги мажбурлов чоралари қўлланилиши мумкин.

Руҳий касаллиги сабабли шахсни жазодан озод қилиш маҳкумга қандай жазо тайинлангани ва жазонинг қанча қисмини ўталгандан қатъи назар, қўлланилади. Касаллик оқибатида шахснинг ўз ҳаракатларининг аҳамиятини англай олмайдиган ёки ўзини-ўзи бошқара олмайдиган даражада руҳий касаллиги, уни жазони ўташдан озод қилиш учун асос бўлади. Бундай ҳолларда уларга нисбатан жазони ижро этиш муассасаси бошлиғининг қарори билан суд психиатрия экспертизаси тайинланади. Ушбу шахсларга нисбатан суд ЎЗР ЖКнинг 93-моддасида кўрсатилган тиббий йўсиндаги мажбурлов чораларини қўллаши мумкин.

ЎЗР ЖК 75-моддасига мувофиқ, шахс ҳукм чиқарилгандан кейин ўз ҳаракатларининг аҳамиятини англай олмайдиган ёки бошқара олмайдиган даражада руҳий касалликка, шунингдек, жазони ўташга тўсқинлик қиладиган бошқача оғир касалликка чалиниб қолса, жазодан озод қилинади. Шахс жазони ўташ вақтида руҳий касалликка чалинганда, унга нисбатан тиббий йўсиндаги мажбурлов чоралари қўлланилади. Бундай руҳий касалликларга: узоқ давом этадиган, кучайиб ва оғирлишиб борадиган, даволаниши қийин бўлган сурункали касалликлар қиради. Бундай шахсларнинг жазо ўташни давом эттиришлари мақсадга мувофиқ эмаслиги руҳий касалликка чалинганларнинг суд томонидан белгиланган жазо чораларини касаллиги туфайли тўғри идрок этиш имконига эга эмаслигида ифдаланади.

ЖК 92-моддасида жазони ўташ вақтида руҳий касалликка чалинган шахсларга нисбатан тиббий йўсиндаги мажбурлов чораларини қўллаш назарда тутилган. ЖПК 534-моддаси 2-қисмида сурункали руҳий касалликка дучор бўлган маҳкум ўталмай қолган жазодан озод қилиниб, унга нисбатан тиббий йўсиндаги мажбурлов чораси қўлланиши ёки унинг соғлиқни сақлаш органларига ёхуд қариндошларига топширилиши кўрсатилган. Демак, оғир касалликка дучор бўлган шахснинг фақат ўталмай қолган жазодан озод қилиниши назарда тутилган. (Касаллиги туфайли жазони ўташдан озод қилиш тартиби ЖПК 534-м.).

Руҳий касаллик туфайли жазодан озод қилишда касалликнинг хусусияти, оғирлик даражаси муҳим аҳамиятга эга. Ю.М.Ткачевскийнинг фикрича, “агар бу сурункали руҳий касаллик бўлса, маҳкум касалликка чалинмасдан олдин содир этган жиноятнинг ижтимоий хавфлилик даражаси қандай бўлишидан қатъий назар у жазони ўташни давом эттира олмайди, уни жазолаш, тарбиялаш ҳам мумкин эмас”[2, 239]. А.И. Рарогнинг фикрича, “ руҳий касаллик туфайли жазодан озод қилиш мажбурийдир, у суднинг ихтиёрига боғлиқ эмас ва содир этилган жиноятнинг оғирлиги, жазонинг ўталмаган қисми ва бошқа ҳолатлардан қатъий назар қўлланилади”[3, 281]. Шахсни жазодан озод қилиш ва унга тиббий йўсиндаги мажбурлов чораларини қўллаш жараёни анча узоқ давом этади ва у касалликнинг ўзидан ҳам кўпроқ вақтга чўзилиши мумкин. Жиноят содир этган шахснинг жазо тайинланиши ёки унинг ўталишига тўсик бўладиган оғир сурункали руҳий касалликка чалинганлиги унга нисбатан тиббий йўсиндаги мажбурлов чораларининг тайинланишига асос бўлади.

Суд жазони ижро этиш муассасаси тавсияси билан содир этган жинояти учун жазони ўтаётган шахсни руҳий касалликка чалинганлиги сабабли жазони ўташдан озод қилиш масаласини қўриб чиқади. Судга тавсия

билан бирга тиббий комиссия хулосаси ва маҳкумнинг шахсий ҳужжатлари жўнатилади.

Айрим ҳолларда сурункали руҳий касалликка (масалан “суст кечувчи” шизофрения) чалинган, судланган шахсларда озодликдан маҳрум қилиш жойларида шизофрения (сурункали руҳий касаллик) кучайса, у жазони ижро этиш муассасаси тиббий қисми ходимлари томонидан муайян ташхис қўйилиб даволаниши мумкин. Шунини таъкидлаш жоизки, жазодан озод қилиш амалиётини ўрганиш бундай шахслар кўпинча тергов жараёнида ва ишни судда кўриш пайтида бунга зарурат йўқ, деб ҳисоблаганлиги сабабли суд-психиатрия экспертизасидан ўтказилмаганлигини кўрсатади. Баъзан ушбу шахсларда психопатологик белгилар кўзга яққол ташланмайди, бошқа ҳолларда эса улар жиноятни узоқ давом этган ремиссия даврида содир этганлиги маълум бўлади. Кейинчалик ишни тергов қилиш ёки судда кўриш вақтида ёхуд озодликдан маҳрум қилиш жазосини ўташ жойларидаги қийин, стресс ҳолатда уларда руҳий касаллик белгилари пайдо бўлади [4, 46]. Баъзан ёши 50 ёшдан ошган, ўн беш йилга озодликдан маҳрум қилиш жазосига ҳукм қилинган шахсларнинг кон томирларидаги ўзгаришлар (атеросклероз), айниқса, собиқ спортчилар (масалан боксчилар)да илгари олган бош миёна жароҳатлари билан боғлиқ турли сурункали руҳий касалликлар юзага келиши мумкин. Шу сабабли руҳий ҳолати бузилганларни жазодан озод қилиш мажбурий ва суд содир этилган жиноят оғирлиги, жазо муддатининг ўталган қисми тўғрисидаги масалаларни муҳокама қилмайди, деб бўлмайди. Суд жазони ўташдан озод қилиш ҳуқуқига эга, лекин бунга мажбур эмас, чунки, сурункали руҳий касалликнинг кўринишлари ўзгаришчан бўлиб, руҳий касалликнинг тузалиши қонуниятларига кўра “соғломлик” бир неча йил давом этиши мумкин ва у жазонинг ўталишига тўсқинлик қилмайди. Даволаш курсини ўтганидан кейин маҳкумнинг ўз ҳаракатларининг оқибатини англаш қобилияти тикланган ёки тикланмаганлиги масаласи ўрганилиши лозим. Бундай қобилият (қайта тикланиш эҳтимоли) мавжуд бўлса, психиатрда, жумладан стационарда даволаниш билан бирга жазони ўташни давом эттирилиши тўғрисида қарор қабул қилиниши мумкин.

Шизофрения касаллигининг айрим турлари узоқ вақт (20 йилдан 40 йилгача) давом этади ва турғун ремиссияда бўлиши ҳам мумкин [5, 10]. И.А.Кудрявцевнинг таъкидлашича, шизофренияда руҳий касаллик “касалликнинг айрим босқичларда аста-секин пасайиши ва деярли бутунлай билинмай қолиши ҳам мумкин” [6, 40]. Яна шунини таъкидлаш жоизки, ҳар қандай руҳий касаллик ҳам айбдорни жазодан озод қилиш учун асос бўлмайди, тиббий йўсиндаги мажбурият чораларини қўллаш учун шахснинг руҳий касаллиги жазо тайинлаш ёки уни ўташи мумкин бўлмайдиган даражада бўлиши лозим. Бундан ташқари, сурункали руҳий касалликка чалинган шахснинг озодликдан маҳрум этиш жойларида касаллиги кучайиши мумкин, бу эса жазони ижро этиш муассасаларидаги тиббиёт ходимлари томонидан муайян даволаш-ташхис чоралари кўрилишини тақозо этади, лекин шартли равишда жазодан озод қилишни эмас [7, 92-93]. Бизнинг фикримизча, шахснинг жиноий жавобгарликка тортилиши, унга жазо тайинланиши ва унинг жазони ўташи, албатта, инсон руҳиятига салбий таъсир кўрсатиб, соғлом одам руҳиятини у ёки бу даражада бузиши мумкин, илгари руҳий касаллик аломатлари бўлган одамда янада оғирлашиши мумкин. Бундай ҳол рўй берганда Ўзбекистон Республикаси “Психиатрия ёрдами тўғрисида”ги қонунига мувофиқ маҳкумга психиатрия ёрдами кўрсатилиши зарур. Агар зарурат туғилса, касал руҳий касалликлар шифохонасига жойлаштирилади. Таъкидлаш жоизки, ҳар қандай руҳий касал шахснинг тузалиши ва соғлиғи тўлиқ тикланади деб бўлмайди. Касалнинг ўз ҳулқ-атворининг хусусиятини англаш қобилияти деярли қайта тикланганида барқорар ремиссия ҳолати рўй бериши мумкин.

Маҳкумларни руҳий касаллиги туфайли жазони ўташдан муддатидан аввал озод қилиш масаласи судлар томонидан қонунда белгиланган муддатлардан кечиктирилмай кўриб чиқилиши, судда прокурор, тиббий хулоса чиқарган комиссиянинг аъзоси ёки жазони ижро этиш муассасаси тиббиёт бўлимининг шифокори қатнашиши шарт ҳисобланади [8, 373-375].

Суд ўз ваколатлари доирасида маҳкумларни руҳий касаллиги туфайли жазони ўташдан озод қилишни рад этган ҳолларда, суд қарори чиқарилганидан кейин қанча вақт ўтганидан қатъи назар, агар руҳий касаллик кучайиб бемор саломатлиги ёмонлашишда давом этса, бундай маҳкумларнинг касал ёки соғлом эканлиги тўғрисидаги аввал тасдиқланган тиббий хулосалар ва бошқа ҳужжатлар қайтадан судга тақдим этилади.

Жиноят процессуал кодекси 534-моддасига биноан, маҳкум жазони ўтаётган вақтида унинг жазони ўташига монелик қиладиган сурункали руҳий касаллик ёки бошқа оғир касалликка дучор бўлса судья жазонинг ижро қилинишига мутассадди органнинг тақдимномасига биноан, махсус тиббий комиссиянинг хулосасига асосан маҳкумни ўталмай қолган жазони ўташдан озод қилиш тўғрисида ажрим чиқаришга ҳақлидир. Суд сурункали руҳий касалликка дучор бўлган маҳкумни жазонинг ўталмай қолган қисмидан озод қилиш билан бирга унга нисбатан тиббий йўсиндаги мажбурият чорасини қўллаётган ёки соғлиқни сақлаш органлари ёхуд қариндошлари васийлигига берилади. Бундай шахслар соғайган тақдирда, башарти бу ҳол жазонинг ижро этиш муддати тугашига қадар содир бўлса, суд тайинланган жазони ижро этиш тўғрисида ажрим чиқаради. Жазони ўташ вақтида шахс жазони ўташга тўсқинлик қиладиган сурункали руҳий касалликка чалинган ва руҳий ҳолатига кўра хавфли, деб ҳисобланганда суд томонидан ушбу шахс жазодан озод этилиб, унга нисбатан тиббий йўсиндаги мажбурият чоралари қўлланиши мумкин.

Агарда шахс оғир ёки ўта оғир жиноят содир этганлиги и унинг жазога маҳкум қилинган ва жазони ўташ вақтида руҳий касалликка чалинган бўлса, унга нисбатан қўлланилган тиббий йўсиндаги мажбурият чораси турини ўзгартиришда шахснинг руҳий ҳолати билан бирга содир этган жиноятнинг оғирлиги даражаси ҳам инobatта олиниши керак [9, 26].

АДАБИЁТЛАР

1. Тяжельникова Д.А. Применение принудительных мер медицинского характера к лицам, совершившим общественно опасное деяние в состоянии невменяемости Вестник магистратуры. 2021. №5-4 (116).

- Курс уголовного права. Том 2. Общая часть. Учение о наказании. Под ред. Н.Ф. Кузнецовой., И.М.Тяжковой. – М.: Зерцало. 2002. – С. 239.
- Уголовное право России. Общая часть / Под ред. А.И.Парога. – М., 1997. – С. 281.
- Ахмедова М. Терговда психологининг иштироки // Ҳуқуқ ва бурч, 2007, - №5. – Б. 45-46.
- Морозов Г.В., Печерникова Т.П., Шостикович Б.В. Методологические проблемы вменяемости-невменяемости // Проблемы вменяемости в судебной психиатрии. – М., 1983.- С.10.
- Кудрявцев И.А. Некоторые клинические и психологические критерии вменяемости у больных шизофренией // Проблемы вменяемости в судебной психиатрии. – М., 1983. – С.40.
- Спасенников Б.А. Проблемы освобождения от наказания в связи с психическими расстройством и назначения принудительных мер медицинского характера // Уголовное право и судебная психиатрия.-Архангельск, 2003. – С.92-93.
- Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлигининг “Оғир касалликка чалинган маҳкумларни тиббий текширувдан ўтказиш ва уларни касаллиги туфайли жазони ўташдан озод қилишга тақдим этиш тартиби ҳақида”ги 260-сонли бўйриғи. 2000 йил 18 декабр. Ўзбекистон Республикаси Жиноят ижроия кодексига шарҳлар. Тошкент. 2007. – Б. 373-375.
- Файзуллаева Т.Х. Тиббий йўсиндаги мажбурият чораларининг қўлланилиши. Ўқув қўлланма. Нукус. «Билим» - 2010. – Б. 26.

Жазони ўтаётган маҳкумларга нисбатан тиббий йўсиндаги мажбурият чораларини қўллаш

Резюме. Шахс жиноий жазони ўташдан озод қилинганида жазони ижро этиш жараёни тугатилади. Ушбу ходиса комплекс характерга эга бўлиб, жиноят, жиноят-ижроия, жиноят-процессуал қонуни нормалари билан тартибга солинади. Мазкур мақолада маҳкумнинг руҳий касаллиги сабабли жазодан озод қилиш тартиби кўрсатилган.

Калит сўзлар: Тиббий йўсиндаги мажбурият чоралари, руҳий касаллик, ақли норасолик, жазодан озод қилиш.

Применение принудительных мер медицинского характера осужденным отбывающим наказание

Резюме. Процесс исполнения приговора прекращается, когда лицо освобождается от отбывания уголовного наказания. Данный процесс носит комплексный характер и регулируется нормами уголовного, уголовно-исполнительного, уголовно-процессуального законодательства. И в данной статье рассмотрен порядок освобождения осужденного от наказания в связи с психическим заболеванием.

Ключевые слова: Меры принуждения медицинского характера, психическое заболевание, невменяемость, освобождение от наказания.

Application of compulsory medical measures to prisoners serving their sentence

Summary. The process of execution of a sentence ends when a person is released from serving a criminal sentence. This process is complex in nature and is regulated by the norms of criminal, criminal executive, and criminal procedural legislation. And this article discusses the procedure for releasing a convicted person from punishment due to mental illness.

Key words: Medical coercive measures, mental illness, insanity, release from punishment.

УДК 343.97

ЭКОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ЖИНОЯТЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ ЧОРА ТАДБИРЛАРИ ВА АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ Утемуратова С.Ш.

Қорақалпоқ давлат университети

Жиноят учун жазо бергандан кўра, унинг олдини олган маъқуллиги умум эътироф этилган. Бу - ҳар қандай ижобий қонунчиликнинг бош вазифасидир. Ҳозирги вақтда ҳуқуқбузарликлар ва бошқа гайририжимоий, салбий ҳодисаларга нисбатан қўлланилган «жиноятчиликнинг олдини олиш», «профилактика қилиш», «огоҳлантириш», «тўхтатиш», «барҳам бериш» каби атамалар нафақат махсус адабиётларда, балки ҳар хил норматив ҳужжатларда, шунингдек вақтли матбуотда ҳам кўп учрайди.

«Жиноятларнинг олдини олиш ёки жиноятлар профилактикаси тушунчаси ҳақида махсус адабиётларда кўп фикрлар билдирилган. Лекин мазкур тушунчага нисбатан «давлат ва жамоатчилик органлари ва ташкилотларининг жиноятларнинг сабаблари ва шарт-шароитини бартараф этиш ёки уларни нейтраллаштиришга қаратилган чора-тадбирлари ёки чора-тадбирлар мажмуи», деган таъриф кенг тарқалган, деб ёзади профессор Қ.Абдурасулова[1, 99].

Бизнинг фикримизча, «жиноятларнинг олдини олиш» ва «жиноятлар профилактикаси» тушунчалари ўртасида узвий боғланиш мавжудлигини инкор этиш мумкин эмас. «Жиноятларнинг олдини олиш» нисбатан умумий тушунча бўлса, «жиноятлар профилактикаси»да жиноятларнинг олдини олишда муайян чора-тадбирларнинг роли таъкидланади. Шу билан бирга, бу икки тушунча ўртасида мутлақ тенглик белгисини қўйиш ҳам ўринли бўлмайди. Бугунги кунда жиноятчиликнинг олдини олиш 14 май 2014 йил қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси туғрисида»ги қонунига асосланади. Шу билан бирга, жиноятчиликнинг олдини олишнинг ҳуқуқий асосини сиёсий, ижтимоий ва иқтисодий вазифаларини белгилаш билан бир қаторда ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларининг жиноятчиликнинг олдини олиш бўйича вазифаларини ўз ичига олган турли хил норматив ҳуқуқий ҳужжатлар ташкил этади.

Умуман олганда, умумий жиноятчиликнинг олдини олишнинг юқоридаги таърифига асосланиб, экологик жиноятчиликнинг олдини олиш деганда давлат ва жамоат органлари, ташкилотлар, муассасалар томонидан экологик инқироз ва экологик офатнинг олдини олиш ва экологик жиноятларнинг сабаблари ва шартларини бартараф этиш ёки зарарсизлантиришга қаратилган иқтисодий, ижтимоий, ҳуқуқий, маданий, маърифий ва ахлоқий характердаги чора-тадбирлар мажмуи тушунилиши керак[2, 16].

Экология соҳасидаги жиноятчиликнинг олдини олишнинг асосий вазифаси - табиий муҳитга, жамият, шахс ва давлатнинг экологик манфаатларига зарар етказилишининг олдини олишдир. Экология соҳасидаги

жиноятни содир этувчи жиноятчи шахсини шакллантиришнинг дастлабки босқичларида амалга оширилган профилактика чоралари унинг қайта жамиятга молашуви ва нормал ҳаётга қайтишга имкон беради.

Атроф муҳитни муҳофаза қилиш давлат сиёсатининг устувор йўналишларининг бири ҳисобланади. 2019-йил 30-октябрда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2030 йилгача бўлган даврда Ўзбекистон Республикасининг Атроф муҳитни муҳофаза қилиш концепциясини тасдиқлаш тўғрисидаги Фармони қабул қилинган. Концепциянинг асосий мақсади атроф муҳитни муҳофаза қилиш соҳасида давлат сиёсатининг устувор йўналишларини белгилаш, табиатни муҳофаза қилиш соҳасидаги қонун ҳужжатлари бузилишлари профилактикаси, уларни аниқлаш ва олдини олишнинг самарали механизмларини жорий этиш, республика аҳоли пунктларининг санитария ва экологик ҳолати учун давлат органлари, ҳўжалик юритувчи субъектлар раҳбарлари ва фуқароларнинг шахсий жавобгарлигини кучайтириш, шунингдек, 2030 йилгача бўлган даврда барқарор ривожланиш соҳасидаги Миллий мақсад ва вазифаларга эришишни таъминлаш ҳисобланади[3].

Экологик жиноятчиликнинг олдини олиш бўйича чора – тадбирлар тизимини иккита усулга ажратиш мумкин: рағбатлантириш ва чеклаш. Тадқиқот асослари ва мақсадларига қараб профилактика чораларини қуйидагича таснифлаш мумкин: Қамров доирасига кўра (умумий, махсус, якка ва виктимологик профилактика); Кўлами бўйича - умуммиллий, минтақавий (алоҳида объектда) ва бир грух шахсларга қарата; Мазмунига кўра – сиёсий, иқтисодий, ижтимоий, маданий-маърифий, ташкилий ва бошқарув, техник, ҳуқуқий ва бошқалар.

Mashhur olim Dj.Martin axborot jamiyatini ijtimoiy tizim faoliyatining barcha tomonlarini qamrab oluvchi bir butun tushuncha sifatida belgilaydi. Bu tizimning asosiy xususiyati axborot texnologiyalarini fan, taʼlim, sanaot, iqtisodiyot va ijtimoiy faoliyat kabi barcha sohalarga keng turda joriy qilish bilan bogʻliq. Dj.Martinning fikriga koʻra, axborot jamiyati bu axborot va undan foydalanish darajasi hayot sifatini, shu bilan birga iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy oʻzgarishlar istiqbollarini belgilaydigan jamiyat hisoblanadi. Bunday fikrlarning ilmiy falsafiy adabiyotlarda ustunlikka ega boʻlishi bizning yurtimizning oʻz vaqtida axborot jamiyati haqidagi qarashlarning oʻziga tegishli boʻlgan modelini yaratishga xalaqit bergan qudiratli subyektiv omillarining biri edi. Bunga qoʻshimcha bunday qarashlarning manbasi sifatida real jarayon haqidagi axborotning ongli shaklda notoʻgʻri talqin qilish yoki uning boʻlmashligi, ilmiy

adabiyotlarning yetishmovchiligi (kam ekanligi), ijtimoiy-madaniy izolyatsionlash, “o‘ziga xos yo‘l” konsepsiyasi va “Kim biz bilan bo‘lmasa, u bizlarga qarshi” shioriga sodiqlik olib qaraladi. Axborotga qarshi qaratilgan kayfiyatlarning asosiy bosh manbasini, so‘zsiz, jamiyatni zaruriy axborotga egalik qilishdan ayirsak gina uni boshqarish oson bo‘ladi degan buyruqbozlik tamoyillari asos qilib olingan. Sababi uning maqsadini ijtimoiy jarayon emas, balki hokimiyatga egalik qilish va undan foydalanish anglatadi. Yuzberayotgan global o‘zgarishlarning, axborot jamiyatining sivilizatsion mashtabining chuqurligi va keng shaklda joriy qilinishi ijtimoiy-tarixiy va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning inertsiya modellarining nazariy asoslanishiga olib keladi. Hozirgi bosqichda u faqatgina axborot jamiyatiga olib keluvchi axborot inqilobi shegarasida yangi axborot texnologiyalarining asosida amalga oshishi mumkin. Yangi sivilizatsiyaning va yangi madaniyatning mazmuniga tegishli bo‘lgan “axborot”, “bilim”, “ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar”, “kompyuter avlodi”, “kognitivlik jarayon” kabi tushunchalar chuqur falsafiy tahlilni talab etadi. Shunga bog‘liq axborot jamiyati konsepsiyasi faylasuf olimlar tomonidan tadqiq qilinmoqda, lekin ular axborot jamiyatiga bir tomondan yo‘ndashib – yo iqtisodiy, yo texnikaviy, yoki ijtimoiy, yoki madaniy qarashdan munosabat qilib kelinmoqda. Lekin uchinchi ming yillikning boshida dunyo qarashning o‘zgarishini kommunikatsiya va axborotlashuv sohasidagi inqiloblar amalga oshirganligini barcha tasdiqlaydi. Axborotlashuv sivilizatsiyasining rivojlanishidagi yangi davrga kirgan insoniyatning global tugamaydigan resursiga aylandi. Bu axborot resursining va boshqaruv fenomenining ilgari bo‘lmagan imkoniyatlarining intensiv harakat qilish davri har tomonlama davom etmoqda. Axborotlashuv, boshqaruv va tashkil topish progresining qudratli lokomotivlari sifatida rivojlangan davlatlarni yangi sivilizatsiya sari olg‘a boshlamoqda. Shu sababli hozirgi vaqtda bu savollarning barchasi dolzarblikga ega va ommaviy axborot vositalarida har tomonlama muhokamalanmoqda, lekin shu vaqtga qadar rivojlanish yo‘llariga bog‘liq u yoki bu yo‘nalishlarning ustunligini tushunish bo‘yicha yagona fikrning o‘zi yo‘q ekanligini ko‘rsatish mumkin. Shunga bog‘liq axborotlashuv va unga nisbatan keng tushuncha bo‘lgan axborot jamiyati muammosi ilmiy-nazariy rejada ham, amaliy rejada ham bugungi kunning dolzarb masalasini tashkil etadi.

Dunyoda axborot jamiyati rivojlanishining nazariy asoslarini faol ravishda tushuntirish 1970-yillarning so‘ngida va 1980-yillarning boshlarida kelib chiqdi. Shu davrda axborot jamiyatining nazariyasi yuzaga keldi. Uning asosiy ilmiy jihatdan tushuntirish quyidagicha belgilandi: kapitalning o‘ziga xos ko‘payishining o‘rniga axborotning o‘ziga xos ko‘payishi keladi, undan birgalikda foydalanish xususiylik huquqi emas, balki foydalanish huquqi pirovard ahamiyatga ega bo‘lgan yangi ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishiga olib keladi; axborotning tezligining ko‘payishi va uni qayta ishlashning natijaliligi bu jarayonning qiymatining pasayishi bilan birgalikda uzoqqa moljallangan ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga ega bo‘ladi; axborot-kommunikatsion texnikasi ijtimoiy o‘zgarishlarni aniqlovchi omilga aylanadi, u o‘z navbatida dunyoqarashni, qadriyatlarni, ijtimoiy strukturlarni o‘zgartadi. 1960-yillarning boshlarida dasturiy industrializmdan va “xizmatlar iqtisodiyotining” rivojlanishidan yiroqlashishi, texnologik omillarning, ilm va ta’lim rolining o‘shirinishi, malakali mutaxassis menejrlarning, texнократlarning yangi sinf ta’sirining kengayishini va ijtimoiy ishlab chiqarishda nazariy bilim va axborot o‘rningining sifatli o‘zgarishini aks ettiruvchi yangi ijtimoiy holatning yuzaga kelayotganligidan xabar beruvchi ahamiyatli metodologik asoslar shakllana boshlaydi. Bu elementlarni bir tizimga jamlash talab etildi, u ijtimoiy bashoratning harakatdagi instrumentiga aylanishi mumkin edi.

Ilk bor yaqqol axborot jamiyati g‘oyasi o‘tgan asrning 1960-yil so‘ngi va 1970-yilning boshlarida shakllandi. 1970-yili bir xil vaqtda yuzaga kelgan ikki mafkuraning – axborot jamiyati va postindustrializmning konvergenstsiyasi boshlandi. Bugun ko‘plab olimlar mashhur olimlar hisoblangan D.Bell [5.196] va O.Tofflerlardan keyin insoniyat sivilizatsiyasi agrar va industrial rivojlanish bosqichlaridan so‘ng yangi axborot jamiyatiga o‘tadiganligini aytadi. D.Bellning fikricha, axborot jamiyati – jamiyatning rivojlanish ketma-ketligida (industrial jamiyatdan keyin) uning xarakteristikasini aks ettirishdan, balki jamiyat ijtimoiy tuzilmasining asosi bo‘lgan “axborot”ni aks ettiradigan yangi atamani anglatadi. Postindustrial jamiyat nazariyasini D.Bell “Postindustrial jamiyatning kelishi”, “Uchinchi texnologik inqilob va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari” deb nomlanadigan kitoblari ko‘rsatadi.

Axborot jamiyati nazariyalari ikki guruhga ajratiladi: birinchisi, postindustrializm konsepsiyalariga moslashgan nazariyalar (Bell, Turen) guruh hisoblanadi; ikkinchisi, Tofflerning (Uchinchi to‘lqin) va Darendorfnining (Sanoat jamiyatidagi sinf va sinfiy ziddiyat) kontseptual chizilmalari guruhi deb nomlanadi.

Axborot jamiyati konsepsiyasida axborot jamiyatini tarixiy rivojlanishidagi o‘ziga xos bosqich sifatida olib qaraladi. Axborot jamiyatining tarixiy rivojlanishini tushuntiruvchi ikki usul mavjud. Ularning birinchisi, axborot jamiyatini industrial jamiyatning asosiy nutqasi sifatida olib qarasa, ikkinchisi – axborot jamiyatini industrial jamiyatdan keyin keladigan yangi bosqich sifatida tushuntiradi. D.Bell postindustrial jamiyatning on bir fundamental belgilarini ko‘rsatadi. Ularning beshtasini muallif ilmiy progres bilan bog‘lasa, uchta belgisini esa eng ma’quli deb biladi. Ularning ichidan quyidagi belgilarni bo‘lib ko‘rsatadi: nazariy bilimning markaziy o‘rinni egallashi; yangi intellektual texnologiyani yaratish; bilimga egalik qiladigan sinfning ko‘payishi (bilim tashuvchilar sinfining o‘shishi).

Agar biz D.Bellning yuqorida to‘liq keltirilgan qarashlarini qisqacha shaklda ilmiy tushuntirmoqchi bo‘lsak, unda ularni quyidagicha ko‘rsatishimizga bo‘ladi: nazariy bilim ijtimoiy tizimning yaxlitligini va aqlqardorligini yuzaga keltiradi; tovarlarni ishlab chiqishdagi texnologik o‘shish axborot va kibernetik inqilobni yaratadi.

Shu bilan birga olim D.Bell kelajak jamiyatining mezonlarini va komponentlarini shakllantiruvchi beshta asosiy substansiyaning keltirib o‘tadi:

1. *Iqtisodiy sohasida* – tovarni ishlab chiqishdan, xizmat ko‘rsatishga qaratilgan faoliyatlarining yuz berishi;
2. *Ishga bandlik sohasida* – professional mutaxassislar sinfi va texnik ustunlikga erishish va unga bo‘lgan katta ehtiyojning ortishi;
3. *Markaziy bilim tamoyili* - yangilik manbasi va jamiyatdagi siyosatni aniqlash manbasi sifatida nazariy bilimning yetakchi roliga ega bo‘lish.

4. *Kutiladigan yo' naltirilganlik* – texnologiyani va faoliyatning texnologik qiymatini nazorat qilish.
5. *Yechimlarning qabul qilish jarayoni* – EMT bilan bog'liq yangi "intellektual texnologiyani" yaratish.

D.Bell birinchilardan bo'lib axborot jamiyatining asosiy belgilarini bo'lib ko'rsatdi. O.Toffler kelajak tahlilini "axborot reduksionizmi" asosida amalga oshiradi: industrializmdan axborot texnologiyalari ustunlikka ega yangi postindustrial sivilizatsiyaga o'tish kompyuter inqilobi asosida yuz beradi. U, ya'ni kompyuter inqilobi sanoat usulidagi, hayot tarzidagi, global muammolarni hal qiladigan madaniyatdagi yangiliklar bilan kuzatiladi.

"Uchinchi to'lqin" nomli asarida O.Toffler obazli shaklda "postindustrial" jamiyatga o'tish jarayonini tushuntirib berishga harakat qiladi[5]. Bu yerda to'lqinlar insoniyatning rivojlanish jarayonida yuz beradigan sivilizatsiyalarni yaratadigan tarixning to'lqinlarini anglatadi. Bu jarayonlar ketma-ketlikda yuz berib bu to'lqinlar tarixning uch harakatdagi drammasida – uch sivilizatsion to'lqinlarda industriagacha (qishloq xo'jaligi) sivilizatsiyada, industrial (sanoat) sivilizatsiyada va postindustrial (kompyuter-axborot) sivilizatsiyada amalga oshadigan obrazini yaratadi. Postindustrial sivilizatsiyaning asosida jamiyatning infratuzilmasini va insonlarning hayot obrazini sifatli ravishda o'zgartuvchi axborot texnologiyalari turadi. O.Toffler axborot jamiyatining ta'rifini tasvirlash shaklida tushuntirishga harakat qiladi. Ya'ni bugungi kun uchun keskin turda yangi bo'lgan, hozirgi va kelajakdagi avlodlarning hayotini tub ildizidan o'zgartuvchi uning ehtimolli elementlarini sanash orqali ilmiy asoslaydi.

G.Makluen "kommunikatsion inqilob" kitobida axborot jamiyatini insonning intellektual qobiliyatlarini va yaratuvchanlik xarakterini ko'taruvchi elektron (audiovizual) kommunikatsiyaning yutug'i holatlaridagi axborot insonning davri sifatida olib qaraydi[6]. Uning fikricha, elektron inqilob hayotni qaytadan yaratadi. Boshlang'ish bosqichda elektron texnologiya (koinot aloqalari, video yozuvlar va boshqalar) ijtimoiy terapiya rolini bajaradi. U ijtimoiy munosabatning yangi-yangi bosqichini yaratadi. Bu bosqichda geografiya va iqtisodiyot tomonidan keltirilib chiqarilgan noto'g'ri talqin qilish va disproportsiyalar, jamiyatning va xalqlarning har xil qatlamlari orasida o'zaro tushunishning o'sishiga ta'sirini ko'rsatish orqali chuqurlashtiradi. Yuqoriroq bosqichlarda elektron inqiloblar yirik ijtimoiy o'zgarishlarning (ommaviy axborot vositalari madaniyatini keltirib chiqaradi) birinchi sababi sifatida olib qaraladi. Axborot texnologiyasi audiovizual usullar bilan yaxlitlikka ega bo'lgan holda hatti-harakat modellarining bir butunligini yaratadi, ular uzviy, har kuni, ishda, ijtimoiy hayotda insonni qamrab oladi va progressiv tarzda uni dasturlashtiradi. Axborot jamiyatining shunday va boshqa masalalarining yechilishi har xil sohalaridagi mutaxassislarning integratsiyasini talab qiladi. Axborot asrning ko'rsatilgan boshqa xavflariga qarshi harakat etish usullari insonning global axborot jamiyatidan ajratish sohasida bo'lmaydiganligini, uning shakllanishida insonning to'liq rivojlanishini hisobga olishi kerak ekanligini rahbarlikga olishni unutmastlikni talab qiladi. Shunday qilib, axborot jamiyati tomonidan birinchi o'ringa iqtisodiy faoliyatning uchinchi sektori (qishloq xo'jaligi va sanoatdan keyin) xizmat ko'rsatish sohasi ilgari suriladi. Axborotni olishda va tarqatishda universitetlarning, olimlarning va menejer-konsultantlarning yetakchi roli ko'rsatiladi. Axborot jamiyati ko'plab ijtimoiy muammolarni hal qilishga ta'sirini ko'rsatadigan ham, ijobiy va o'z vaqtida o'rganishni, tahlilni talab qiladigan ziddiyatlarni ham, xavflarni ham, tavakkalchiliklarni ham keltirilib chiqaradigan katta potentsialga egadir.

ADABIYOTLAR

1. Шпенглер. Закат Европы. Очерки морфологии мировой истории. М.1993. 69с.
2. Clarc C. The conditions of economic progress. L., 1957. 148 p.
3. А.Бердимуратова. Хабар жэмийети түсиниги: Теориялық-категориялық анализдеу тийкарлары «Хабаршы». 2020-жыл. 2-сан. 144 б.
4. Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социального прогнозирования / Д.Белл. М., 2004. 92 с.
5. Тоффлер Э. Третья волна. М., 1999.
6. Маклуэн Г. Коммуникационная революция. М., 2001.
7. Biyimbetov, J. K. Philosophical and methodological analysis of the concepts of information and information society. Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар» атамасидаги Республика, 7-8.

Axborot jamiyati haqidagi konsepsiyalarga ijtimoiy falsafiy tahlil

Rezyume: ushbu maqolada insoniyatning keyingi rivojlanish bosqichi hisoblangan axborot jamiyati va uning rivojlanishining ijtimoiy falsafiy jihatlarini chuqur tahlil qilindi. Xususan axborot jamiyati haqidagi faylasuflarning qarashlarining o'ziga xos jihatlarini bilan birga ularning umumiy tomonlari ijtimoiy falsafiy jihatdan tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: yangi sivilizatsiya, ijtimoiy ong, industrial sivilizatsiya, axborot manbalari.

Социально-философский анализ концепций информационного общества

Резюме: в данной статье глубоко проанализированы информационное общество, которое считается следующим этапом развития человечества, и социально-философские аспекты его развития. В частности, с социально-философской точки зрения были проанализированы общие аспекты взглядов философов на информационное общество, а также их общие аспекты.

Ключевые слова: новая цивилизация, общественное сознание, индустриальная цивилизация, источники информации.

A socio-philosophical analysis of the concepts of information society

Summary: in this article, the information society, which is considered the next stage of human development, and the socio-philosophical aspects of its development were deeply analyzed. In particular, the common aspects of philosophers' views on the information society, as well as their common aspects, were analyzed from a socio-philosophical point of view.

Key words: new civilization, social consciousness, industrial civilization, information sources.

ЖАЛОЛИДДИН МАНГУБЕРДИНИНГ ХАЁТ ЙЎЛИ ВА ХАРБИЙ ТАКТИКАСИ

Тажиев М. М.

ҚМУ Юриспруденсия факультети 2-босқич талабаси.

Кириш. Буюк саркарда Жалолiddин Мангуберди 1199 йилда Хоразмда туғилган. Унинг отаси 1200-1220 йилларда Хоразмшоҳлар давлатини ҳукмдори Алоуддин Муҳаммад II (1169-1220) бўлган. Алоуддин Муҳаммад II нинг падари эса 1172-1200 йиллар ҳукмдорлик қилган Ануштегийнилар сулоласидан Хоразмшоҳ Алоуддин Музаффар Текишнинг ўғли саналган.

Доно халқимизда: “Ватанни севмоқ – имондандир”, деган пурмаъно ибора бор. Анашу ибора Жалолiddин Мангубердининг бутун умри мобайнида букулмас иродаси орқали ўз ифодасини топган. Инсон камолотида учта шахс энг муҳим ўрин тутди. Булар ота-она ҳамда устозлар берган таълим-тарбияси ва ўғитларида намоён бўлади. Жалолiddинни онаси Ойчечак ниҳоятда исломдан, ахлоқдан, маънавий тарбияланган зоти шарифа бўлган. Туркий аёлларнинг ҳақиқий рамзи Ойчечакда ўз ифодасини топган. Жалолiddинни исмини Нажмиддин Кубро қўйганлар. У Мангубердини энг ардоқли устози эди. Кубровия тариқатидан 13-14 ёшларигача таълим олган. Ватан озодлиги учун жанг майдонида курашда душманни ўлдирса – Ғозий, ўзи ҳалок бўлса – Шаҳид бўлади. Нажмиддин Кубро Кўҳна Урганчининг 12 дарвозага “Ватан ё шарофатли ўлим!” деган шиёрни битиб қўйган. Анашундай қутлуг маконда Жалолiddин ҳарбий ватанпарварлик руҳида камол топган. Зеро, ҳарбий санъатда руҳий тарбия ўзига хос алоҳида ўрин тутди. Бугун шахзодасан, эртага эса шоҳ бўласан, шунинг учун ҳарбий сирларни мукамал ўзлаштиришинг керак. Жанг жараёнида энг биринчи галда душманга нафратинг кўз орқали намоён бўлсинки, ҳатто сенга назари тушган ёв ўтқир нигоҳингдан мағлуб бўлишини англасин, дея таъкидлаган. Тагин шуни ёдда сақлагин, ҳатто душманни кимлигини отинг ҳам билиши керак ва от ҳам душманга қарши курашиб, икковинг бир-биринга уйғун бўлишинг зарур. Жалолiddинни учта оти бўлиб, бошқа отлардан тубдан фарқ қилган.

Мўғуллар истилосига қарши курашган улуг авлиё Нажмиддин Кубро, буюк саркарда Жалолiddин Мангуберди сингари шонли аждодларимизнинг жасорати барчамиз учун намуна мактабидир [1, 5].

Жалолiddин Мангуберди ҳақида араб ва форс тилларида бир қатор асарлар ёзилган, улардан энг мўътабари Шаҳобиддин Насавий араб тилида ёзган “Жалолiddин Манкубурни сийрати” номли машҳур китобдир. Шаҳобиддин Насавий ўз китобида бундай деб ёзади: “Жалолiddин бугдой ранг, ўрта бўйлик, туркий қиёфа эди. Туркча ва форсчада гапирарди. Унинг жасорати ҳақида мен ёзган воқеалар етарли. У ниҳоят шижоатли бир арслон эди. Юришида барча суворийларидан жасоратлироқ эди. Ҳар нарсда жажли чикмасди, сўкмасди, салобатли эди. Кулганда фақат табассум қиларди, кўп сўзламасди, ҳар доим адолат тарафдори ва миллатга меҳрибон эди. Номаларининг тагида Абдуҳа (унинг бандаси) ва баъзан унинг ҳодими деб ёзарди. Уни султон демасинлар деб ёзарди. Уни султон демасинлар деб таъкидларди. Лекин шунчаки, у фитналар айёмига дуч келди ва қатъий ғалаба қозонолмади...” [2, 6]. Жалолiddин 16 ёшида ҳарбий саркарда Хирот Маликининг кизига уйланган. Ундан бир ўғил ва бир қиз фарзандлари бўлган. Жалолiddин илк бор жанг майдонига кириб келганларида 16 ёшда эди. Ўша жангда Жўжини 40 мингдан ортинг лашкарларини тор мор этади.

Мангуберди 1220 йилдан то сўнги нафасигача босқинчиларга қарши ҳаёт-момот курашларда 11 йил муттасил давом этди. У Парвон ва Бомиенда рўй берган жанглардан сўнг орқага қайтиш тактикасидан фойдаланади ва душманларни сарсон-саргардонликда қолдиради. Анча-мунча аскарларидан жудо бўлган Чингизхон уни Синд дарёси бўйигача таъкиб қилиб келади.

Жалолiddин Синд дарёси бўйида қуршовга дуч келди. Ноиложлик исканжаси, яъни унинг олдида душмандан қутилишни иккита йўли бор эди ҳолос – ё оила аъзолари билан бирга душманга таслим бўлиш ёки тақдирга тан бериб, ўзи ва уларни дарёга ташлаш. У душман кўлида асир бўлганларидан кўра, дарёга чўкиб, ўлиб кетганлари авзалроқ, деган қатъий қарорга келди. Шиддат билан мавж уриб оқаётган Синд дарёсига онаси, жуфти ҳалоли, 6 яшар ўғли ва уч яшарлик қизини ташлайди. Сўнгра ўзи ҳам уларни кетидан 10 метрлик баландликдан оти билан Синд дарёсига отди. Ҳатто, у ақл бавор қилмайдиган жараёнда ҳам ёвларга қарши ўқ узишни қанда қилмасдан, ваниҳоят мавж уриб турган сувдан соғ-омон дарёни нариги қирғоғига чиқиб олди.

Чингиз ва унинг атрофидагилар Жалолiddиннинг бу хатти-ҳаракатидан ҳайратга тушади. Ўша давр тарихчилари бу ҳолат билан боғлиқ воқеа хусусида тўхталиб, шундай ёзадилар: “Чингизхон Жалолiddинни узок кузатиб турганидан сўнг ёнида турган ўғилларига қарата “Мана шундай ўғли бор ота ниҳоятда бахтлидир!” У шундай қирғинбарот жанг майдонидан ва дарёнинг ўлим гирдобидан қутилиб, ҳимоя қирғоғига чиқа олдим, демек, ундан яна ҳам кўп қаҳрамонликлар қутиш мумкин ва у бошимизга кўп ташвишлар солади!” [3, 6]. Чексиз изтиробу армонлар уммонида, ҳайратдан ёқа ушлаган Чингиз Жалолiddин Мангубердини мардлик ва жасорат, қаҳрамонлик ва шижоатини намоён этганини кўргач, ўтда ёнмас, сувда ҳам чўкмас жангчи эканлигини шохиди бўлиб, унинг бу жасоратига астойдил тан беради. Синд дарёси бўйидаги уч кунлик жанг ниҳоятда даҳшатли кечади. Ибн ал-Асир унинг олдида бошқа жангларни болаларнинг бир ўйини, деб ёзади. Бу жангда Амин Малик ва кўплаб хоразмликлар шаҳид бўлади. Абул Фаражнинг айтишича, бу жангда қатнашган мўғул лашкарлари сони ҳам, улар орасида ўлганлар ҳам кўп бўлган [4, 6].

Тақдирни қаранг, Жалолiddинни дарёга ташланган ўғлини тўлқинлар қирғоққа элтади. Буни кўрган Чингиз зулдик билан ҳузурига тириклайин олиб келишни буюради. Дарҳол олиб келинади ва у болани сўроққа тутди. Аслида, мен бу йигит билан эмас, аксинча, отаси билан юзма-юз гаплашишни ният қилувдим, афсуски бу насиб қилмади. Энди эса унинг фарзанди билан савол-жавоб қиламан деб, иккита таклифи борлигини айтади. – Дастлаб, исмини сўрайди. Бола, Музаффар Жамолiddин дея жавоб беради.

– Чингиз: “агар сен мени таклифимга рози бўлсанг тирик коласан”, дея сўзида давом этиб, мени тўртта ўғлим бор. Улар Жўжи, Чиғатой, Ўғдой, Тўли. Агар шартимни бажарсанг бешинчи ўғлим қиламан. Фақат сен “Жалололдин, мени отам эмас!” – деб айтишинг кифоя. Ундан кейин номингни Мўғилён деб атаймиз. Бундан дарғазаб бўлган Жалололдин ўғли Музаффар Жамоллидин мен ўз отамдан ҳеч қачон вос кечмайман ва сени ота деб айтишга ҳам асло виждоним йўл қўймайди, деганича туйқусдан жасорат ила Чингизни бўғзига шиддат билан ёпишади. Ўша ондаёқ ёғийни сақолини юлиб олади. Чингиз болани жасоратини кўриб, қойил қолади. Агар буни ўлдирмасангизлар мен ва тўртта ўғлимни ўлимига сабаб бўлади бу йигит. Бу Жалололдиндан ҳам забардас бўлиши аниқ, шунинг учун тезда ўлдиришни буюради ва Музаффар Жамоллидин душманлар томонидан ўлдирилади. Энг синовли, оғир ва машаққатли, оловлар ичидан соғ-омон чиққан Жалололдин Хиндистонга бориб, қўшин тўплаш пойига тушиди. Насавийнинг ёзишича, у Лоҳурдан Сейстон ва Балужистонга ҳаракат қилгунча аскарларнинг сони 4000 тага етган эди. Улар эшак ва ҳўкизга миниб йўл босардилар дейди. Жалололдин Хоразмшоҳ 1222 йилдан 1226 йилгача Кирмон, Форс, Хузустон, Аррон, Мароғ, Хуй, Тефлис, Арманистонга лашкар тортиб, Гуржустонга ўтди. Тефлис шаҳрини тасарруф қилиш унинг шухратига шухрат келтирди [5, б. 6].

Асосий қисм. Жалололдин ҳар қаерда бўлмасин одоб-ахлоқ, хулқ-атвор қоидаларига қатъий риоя қилар, бировларни камситиш ва ҳақорат қилишдан буткул йироқ ва бошқаларнинг ҳам ҳуқуқларини топталишига асло йўл қўймас, у анашундай эзгу фазилат соҳиби эди. Жалололдин Чингизхон қўшинига 21 ёшида дуч келган бўлса, то сўнги нафасигача ватан озодлиги, эрки учун жангу-жадалларда ўтган. У нафақат ўз ватанини, балки барча мусулмон халқларини ҳам истикболи учун мўғуллар истилосидан ва ҳар қандай тўсиқлардан ҳимоя қилганини жаҳон аҳли эътироф этади. У уч юздан ортиқ жангларда мўғул босқинчиларига қарши мардоновор ва тантанавор руҳдаги курашлар олиб борган бўлиб, ўзидаги буқулмас иродани шундай намоён этганки, унинг жасоратини тарифлашга тил ожиз, ҳатто Жалололдин! деган ном қулоққа чалинганда ҳар қандай ваҳший, тоғни талқон қилишга қодир бўлган девдек ёвлар ҳам изтироблар алангасида қоврилиб, титроққа тушадиган бўлиб қолган. Синд дарёси бўйида ўз қўшинидан тўрт марта кўп Чингизхон қўшинига қарши чиқиб, уларни етти ухлаб тушига ҳам кирмайдиган даражада саросимага солган. Исфаҳон яқинида рўй берган жангга эса бармоқ билан санагудек, бор йўғи 14 та аскар билан мингдан ортиқ мўғул жангчиларини қуршовуни ёриб ўта олган.

Машҳур аллома Мирзо Улуғбек “Олам аҳли Жалололдиндан олдин ҳам, кейин ҳам бундай баҳодир жангчини кўрмаган. Бу зотнинг азму шижоати олдида ҳатто буюкликнинг ўзи ҳам таъзим қилади”, дея шарафлаганда минг бора ҳақ эди [6, 6]. Дарҳақиқат, жондан азиз деб билган Ватани ва халқи учун жонини фидо қилган улуғ зотларнинг номи мангуликка муҳрланади. Буюк аждодларимизни руҳини шод этиш мақсадида, улар ҳаққига қанчалик эзгу ишларни амалга оширсак нур устига аъло нур бўлади.

Бундан бир неча йиллар олдин, аниқроғи мамлакатимиз илк мустақилликка эришган давларда Хоразм фарзанди, Хивалик иқтидорли санъаткорлардан бири Одил Хўжа: “Минг бора мактансам ҳаққим бор мани”, деб қўшиқ қуйлади. Барчага мақбул ва манзур бўлган ўша қўшиқда шундай мисралар жой олган эди:

Унинг каби ўғлим бўлсайди мани? Дея орзу қилган Чингиз душмани,	Ватаним йўлида шахид жон-тани, Жалололдин каби мардим бор мани, Минг бора мактансам ҳаққим бор мани.
--	--

Дарҳақиқат, бундай сўзлар улуғ аждодларимиз руҳини шод этибгина қолмасдан, балки барча авлодларни Она-Ватанга бўлган меҳр туйғуси ортиши, янада муҳаббатини мустаҳкамлашга замин ҳозирласа ажаб эмас.

Жалололдин Мангубердиннинг мўғул босқинчиларига қарши курашда кўрсатган мислсиз жасорати, она халқига садоқати ва чексиз муҳаббатини кадрлаш ҳамда унинг порлоқ хотирасини абадийлаштириш мақсадида 1998 йили Вазирлар Маҳкамасининг “Жалололдин Мангуберди таваллудининг 800 йиллигини нишонлаш тўғрисида”ги қарори эълон қилинди. Унга кўра, Хоразмда саркардага ҳайкал ўрнатилди, йирик қўча, майдон, корхоналар ва бошқа муассасаларга унинг номи қўйилди. 2000 йилнинг 30 августида “Жалололдин Мангуберди” ордени таъсис этилди [7, 5].

Шуни таъкидлаш жоизки, юртимизда мустақиллигимиз шарофати билан улуғ аждодларимизнинг хотирасини абадийлаштириш борасида бир қанча эзгу, салмоқли ишлар жадал суръатлар билан амалга оширилиб келинмоқда. Уларнинг таваллуд айёмлари тантанали, муносиб тарзда нишонланади. Жумладан, Султон Жалололдин Мангуберди фаолиятига дахлдор бир қанча илмий ва бадиий асарлар яратилгани айтиш ҳақиқат. Туркиялик киноижодкорлар билан ҳамкорликда “Мендирман, Жалололдин!” дея номланган фильм ишлаб, ҳозирги кунда телевиденияда намойиш этиб келинмоқда. Урганч шаҳрида Жалололдин Мангуберди номи билан аталувчи ҳарбий академик лицей ташкил этилгани улуғ саркардага муносиб ватанпарварлик руҳида камол топадиган ворисларни етиштириш мақсадини кўзлаб, эзгу ишга қўл урилган. Президентимиз Шавкат Мирзиёев Миромонович ташаббуси ва ғояси билан Урганч шаҳрида барпо этилган Жалололдин Мангуберди ёдгорлик мажмуаси борасида сўз кетганда, унинг шаҳар кўркига-кўрк қўшиб, ўзгача мафтункорлик бахш этиб тургани, ҳар бир юртдошларимизни ва давлатимизга ташриф буюрган сайёҳларнинг ҳам ўзига ром этиб, улар қалбида мамлакатимизга бўлган ҳурмат ва эҳтиром наҳидасини юксалишига янада кенг имконият яратади.

Шу тариқа бўйи 25 метрни ташкил этадиган маҳобатли ҳайкат барпо этилди. Унда Жалололдин Мангуберди тулпор жоловини маҳкам тутиб, эл-юрт ҳимоясига отланиб тургани тасвирланган. Султоннинг қатъиятли, мағрур сиймосида келажакка катта ишонч билан интилаётган халқимизнинг ватанпарварлиги, буқулмас иродаси ўз ифодасини топган.

Ҳайкал олдида Жалололдин Мангуберди битиктошининг нусхаси ўрнатилди. Эрон ҳудудидан топилган, оғирлиги 32 килограмм, баландлиги 30 сантиметр бўлган бу тошда Қуръони Карим оятлари, Жалололдин

Мангубердининг шажараси ёзилган. Унинг асли ҳозирги кунда Лондондаги машҳур Британия музуйида сақланади. Бу ҳам буюк аждодимизнинг жаҳон тарихидаги бекиёс шуҳратидан далолат беради [8, 2].

Бизга Шиҳобиддин ан-Насавийнинг асаридан маълум эдики, Жалолиддин Мангуберди 1231 йил Диёрбакир (Амид) яқинида қўшинидан ажралганидан сўнг ёлғиз қолган. Унинг ортидан қувиб, етиб олган бир нечта мўғул аскарини йўқ қилган. Бироқ саркарда Айн-Дар қишлоғида қароқчилар томонидан ўлдирилган. Саркарданинг ҳалокати тўғрисидаги хабар Маяфориқин шаҳри ҳокими Малик Шаҳобиддин Ғозийга етказилади. Ҳоким Мангуберди жасадини Маяфориқинга олиб келиб, ҳурмат-иззат билан мусулмончилик қоидалари асосида дафн қилади. Аммо бугунги кунгача Айн-Дар номи қишлоқ ёки аҳоли манзилгоҳи Туркия ҳудудида учрамасди. Мазкур қишлоқнинг қаердалигини аниқлашга муваффақ бўлдик. Усмонли даври архивларида мавжуд 1842 йилги аҳолини рўйхатга олиш китобида Силван шаҳри шимолидаги тоғли ҳудудда Айн-Дар номи қишлоқ борлиги қайд қилинган [9, 6]. Яқинда Туркияда бўлиб ўтган халқаро конференцияда бир гуруҳ ўзбек тарихчи ва татқиқотчи ҳамкасбларимиз билан буюк саркарда дафн этилган жойга оид ноёб манбалар топилиганини маълум қилдик. Мазкур манбаларда Султон Жалолиддин Диёрбакир вилояти Силван шаҳридаги Маяфориқин қалъасининг шимолий-шарқидagi Буржи Малик минораси тагига дафн этилгани тўғрисидаги қимматли маълумотлар келтирилган [10, 6]. Жаҳон тарихида ўчмас из қолдирган матонатли, довюрак Саркарда Жалолиддин Мангуберди 32 йил умри сермазмун моҳият касб этиб, авлодлар учун ибрат эканини эътироф қилишимиз зарур. Аждодларимиз мероси ва ўтмишини ўрганиш, билиш, чуқур англаш ҳар биримиз учун ҳам фарз, ҳам қарз эканини доим ёдда тутмоғимиз даркор. Шоир шундай ёзади:

Тарих сабоқидан неки олибсан,
Имон гавҳарини дилга солибсан.

Дарахт илдиссиз отмайди томир,
Инсон, ўз тарихсиз топмайди кадр – деб, бежиз ёзмаган.

Дарҳақиқат, ҳар ким ўз тарихини билиши керак.

Хулоса ва таклифлар. Таҳлилий хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, Мамлакатимизда мустақиллик шарофати билан улуғ аждодларимизни ёд ва руҳини шод этиш мақсадида таҳсинга муносиб ишлар амалга оширилиб, ўз ифодасини топмоқда, шундай экан, қудратли Ватанпарвар Жалолиддин Мангуберди миллат тақдирида, тарихида энг муҳим ўрин тутади, жумладан: миллатимиз ўтмишига дахлдор, ўзликни англаш ва аждодларимизга муносиб авлод бўлиш билан бирга юксак тафаккурли бўлишга ундайди; ватанпарварлик ва Ватанга бўлган меҳр-муҳаббат туйғусини шакллантиришга замин ҳозирлайди; адолатпарвар, ҳақиқатгўй, инсонийликни улуғлашга чорлайди; ҳар кимни имон ва эътиқодини мустаҳкамлашга хизмат қилади; муомала маданиятини шакллантириш ҳамда одоб-ахлоқ қоидаларига риоя қилиш зарурлигини уқтиради; яқинда, Урганч шаҳри марказида барпо этилган “Жалолиддин Мангуберди ёдгорлик мажмуаси” нафақат юртдошларимиз, балки сайёҳлар учун ҳам диққатга сазоворлидир.

АДАБИЁТЛАР

1. Мажидов И. “Буюклик ҳам таъзим қилган зот”. // Янги Ўзбекистон, 2022 йил 8 сентябрь, № 183. – Б. 5
2. Шаърий ЖУЗЖОНИ. “Миллат тарихининг барҳаёт сиймоси”. Янги Ўзбекистон, 2022 йил 12 июль, № 139-сон. – Б. 6.
3. Матёкубов К. “Синд дарёси бўйидаги жанг”. // Янги Ўзбекистон, 2022 йил 18 февраль, № 36. – Б. 6.
4. Матёкубов К. “Синд дарёси бўйидаги жанг”. // Янги Ўзбекистон, 2022 йил 18 февраль, № 36. – Б. 6.
5. Шаърий ЖУЗЖОНИ. “Миллат тарихининг барҳаёт сиймоси”. Янги Ўзбекистон, 2022 йил 12 июль, № 139-сон. – Б. 6.
6. Ботиров М. “Мангуликдан жой олган жасорат тимсоли”. // Янги Ўзбекистон, 2022 йил 6 сентябрь, № 181 сон. – Б. 6.
7. Мажидов И. “Буюклик ҳам таъзим қилган зот”. // Янги Ўзбекистон, 2022 йил 8 сентябрь, № 183. – Б. 5
8. Жонибеков З., Шокиров А. “Буюк аждодларимизнинг ватан олидаги хизматлари авлодлар учун ибрат мактабидар”. Халқ сўзи, 2022 йил 30 август, № 188-189 (8250-8251). – Б. 2.
9. Дурдиева Г. “Жалолиддин Мангуберди мангу кўним топган қишлоқ аниқланди”. // Янги Ўзбекистон, 2021 йил 29 декабрь, № 264. – Б. 6.
10. Дурдиева Г. “Жалолиддин Мангуберди мангу кўним топган қишлоқ аниқланди”. // Янги Ўзбекистон, 2021 йил 29 декабрь, № 264. – Б. 6.

Аннотация: Ушбу мақолада Ватан озодлиги, эрки учун умрини бахшида этган, тарихда ўчмас из қолдирган Хоразмшоҳлар сулоласига мансуб қудратли саркарда Жалолиддин Мангуберди Хоразмшоҳнинг ҳаёт тарзи, айниқса, мўғуллар истилоси ва зулмига қарши кўрсатган юксак жасорати, бугунги кунда юртимизда унинг номини абадийлаштириш мақсадида амалга оширилаётган эзгу ишлар борасида фикр юритилади.

Калит сўзлар: Ватанпарварлик, адолат, истеъдод, эътиқод, замон.

Аннотация: В данной статье жизненный путь хорезмшаха Джалалуддина Мангуберди, могущественного полководца, отдавшего свою жизнь за свободу страны и оставившего неизгладимый след в истории, особенно его высокое мужество перед нашествием и гнетом монголов, и добрые дела которые проводятся в нашей стране сегодня для того, чтобы увековечить его имя.

Ключевые слова: Патриотизм, справедливость, талант, вера, время.

Annotation: This article will consider the life style of Jalaluddin Manguberdi Khorezmshah, a mighty general belonging to the Khorezmshah dynasty, who sacrificed his life for the freedom of the Motherland, left an indelible mark in history, especially the high courage he showed against the invasion and oppression of the Mongols, and the noble deeds that are being carried out in order to perpetuate his name in our country today.

Key words: Patriotism, justice, talent, faith, time.

MUZEYLAR FAOLIYATIDA MUZEY BINOSINING AHAMIYATI

Karamanova G., Utemuratova X.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

“Moziy” soʻzining “Muzei” atamasiga monand ekanligini eʼtirof etadigan boʻlsak, “Moziy” soʻzining lugʻaviy maʼnosi tarix, oʻtmish degan maʼnoni anglatadi. Oʻzbekiston hududida qadimdan xalqimiz oʻz tarixining shonli davrlariga tegishli narsalarni avaylab asragan. Buyuk insonlar tabarruk donishmandlar va xalq qahramonlaridan yodgorlik boʻlib qolgan buyumlar, tarixiy manbalar afsonalarga aylanib, avlodlardan avlodga oʻtib kelgan. Keyinchalik, masalan, Temuriylar davrida saroylarda, boshqa xazinaxonalarda shunday ajoyib bebaho buyumlarni bir joyga toʻplab, aziz mehmonlarga koʻrsatish odatga aylangan.

Buxoro amiri Abdul Ahadخان saroyida tarixiy buyumlarni mehmonlarga koʻrsatadigan maxsus xonalar boʻlgan. Bu xonalar «Moziygoh» deb nomlanib, haqiqiy maʼnoda hozirgi muzey tushunchasiga tugʻri keladi. Shuningdek Xiva xoni Muhammad Rahimxon Feruz saroyida ham shunday «Ajoyibxona» boʻlgan [1, 5].

1876 yil Oʻrta Osiyoda birinchi muzey tashkil topdi va davlat tomonidan bino berilmagani uchun, N.A.Maev oʻzining ipakchilik maktabidan muzey uchun ikki xona ajratdi. Koʻp oʻtmay, muzey Statistika boʻlimi ixtiyoriga oʻtkaziladi. Muzey taʼminoti uchun yiliga 300 soʻm ajratilganidan tashqari, baʼzi shaxslarning moddiy yordamlari ham kelib tushgan. N.A.Maevning yozishicha, muzey faoliyati uchun yiliga 1600 soʻmlik mablagʻ talab etilgan [2, 39]. 1877 yilning yanvariga kelib, muzey etnografiya, ishlab chiqarish texnologiyasi, qishloq xoʻjaligi, tabiat tarixi va arxeologiya boʻyicha 1500 dan ortiq ashyolarga, 800 ga yaqin qadimiy tangalarga ega boʻldi. Turkiston general-gubernatori M.G.Chernyaev (1882–1884) Farmoniga binoan 1883 yili muzey xalq kutubxonasiga qoʻshib yuboriladi. Asosiy mablagʻ kutubxonaga ajratiladi. Muzey binosining eksponatlarni saqlash va taʼmirlash uchun moʻljallanmaganligi, maydonining torligi buyumlarni turkumlash, ularni tartibli joylashtirish imkonini bermay qoʻydi. Yaroqsiz holga kelib qolgan muzeyning binosi doimiy taʼmirlashni talab etar, buning uchun esa mablagʻ etishmas edi. Natijada muzey koʻpincha yopiq boʻlar va qiziquvchilarni doim qabul qila olmasdi. Joy boʻlmaganligi sababli 1900 yili San-Luy koʻrgazmasi uchun tayyorlangan etnografik kolleksiyalar muzeydan oʻrin ololmadi.

1906 yili muzey huzurida Nazorat komiteti qaytadan tuzildi, kutubxona va muzey ishlarining yangi qoydasi tasdiqlandi. Muzey va kutubxona uchun bino qurish masalasi koʻtarildi – yangidan keltirilayotgan kitob, kolleksiya, eksponatlar miqdorining koʻpligi bu ishning kechiktirib boʻlmaz zaruriyatini taqozo etardi. Mazkur masala yuzasidan general-gubernator mahkamasiga yozilgan axborotda, general-gubernator hamda mahkama boshqaruvchisining shahar tashqarisidagi dala hovlilarini sotish bunday bino qurish uchun mablagʻ topishning yagona imkoniyatidir, degan fikr bildiriladi. Avvalambor, bu binolardan juda kam foydalanilardi, buning ustiga ularning yaxshi saqlanishi uchun maʼlum miqdorda mablagʻ ham sarflab turilardi.

Turkiston general-gubernatori kengashi bu tadbirni maʼqulladi, muzey binosining loyihasi tuzildi, keyin loyiha va smeta 1911 yili Bosh shtab injenerlik komiteti tomonidan koʻrib chiqiladi. Biroq bularning hammasi amalga oshirilmasdan qogʻozda qolib ketdi [2, 42–43]. Ikkinchi muzey Samarqand shahrida 1896 yil 21 iyulda ochiladi va unga Georgiev cherkov binosidan xonalar ajratiladi. Ammo muzeyning torligi ish va namoyish koʻlamlarini kengaytirish imkoniyatini bermasdi. Shu munosabat bilan Samarqand muzeyi uchun bino qurish masalasi 1901 yili koʻtarilsa-da, masala hal etilmay qolib ketdi [3]. Tashkil qilinganidan 15 yil oʻtgach, oʻlkashunos olim V.L.Vyatkin muzey uchun maxsus bino qurdirishga muvaffaq boʻldi [4]. Toshkent muzeyi 1918 yili 1 iyundan xalq kutubxonasidan ajratib olinib, Maorif XK ixtiyoridagi Turkiston xalq universiteti boʻlimiga berildi. U Turkiston xalq muzeyi deb atala boshlaydi. Zoolog N.A.Zarudniy uning birinchi mudiri boʻldi. 1919 yilning fevralida muzey uchun Turkiston general-gubernatorining sobiq qarorgohi hisoblangan “Oq uy”ning bir qismi ajratildi.

Shoʻrolar hokimiyatni egallagach, Turkiston XKSning 1918 yil 19 apreldagi dekreti bilan knyaz Nikolay Romanovning Toshkentdagi majmualari davlat mulki deb eʼlon qilinadi. U yashagan saroy xalq muzeyiga aylantiriladi. Shu binoda sanʼat muzeyi oʻz faoliyatini boshladi. 1925 yilda ochilgan Qoʻqondagi Fargʻona viloyat oʻlkashunoslik muzeyiga 1870 yili qurilgan Xudayorxonning sobiq saroyi berildi. 1923 yili Buxoroda ochilgan muzey tezda yopilib qolgan edi. Muzeyni qayta tashkil qilish ishlari 1925–1927 yillarda olib boriladi [5, 12]. Sobiq Buxoro amirining yozgʻi rezidentsiasi boʻlgan Sitorai Mohi xosada muzey ochish koʻzda tutildi. 1920 yilda Xiva shahrida Xorazm tarixiy-revolutsion muzeyi tashkil etildi, ammo tez yopiladi. Milliy chegaralanishdan keyin qayta ish boshlaydi. Muzeyning 1917 yilga qadar oʻtmish tarixi boʻlimi ekspozitsiyasi XIX asrning ikkinchi yarmida bunyod qilingan Xiva hokimlarining sobiq saroyi Toshhovliga joylashtirildi. 1917 yildan keyingi davr ekspozitsiyasi XX asr boshlaridagi arxitektura namunalaridan biri boʻlgan Nurullaboy saroyining binosiga joylashtirildi.

1930 yili Toshkent shahri muzey tarmoqlari qayta tashkil etildi. Oʻrta Osiyo Bosh muzeyi va Badiiy muzey Oʻrta Osiyo revolyutsiya muzeyi bilan birlashtirilib, Oʻrta Osiyo tarixi va revolyutsiya tarixi muzeyi (OʻOTRTM) nomini oldi. Oʻrta Osiyo Bosh muzeyidan tabiat muzeyi ajratilib, Qishloq xoʻjaligi muzeyi, zoologiya bogʻi hamda Togʻ muzeyi birlashtirilib Oʻrta Osiyo tabiati va ishlab chiqarish kuchlari muzeyi (OʻOTIchKM) tashkil qilindi.

Oʻzbekiston XKS 1934 yil 8 maydagi “Respublika muzeylari ishini yaxshilash haqida” chiqargan qarori Politexnika, Tabiat va ishlab chiqarish kuchlari, Tarix va revolyutsiya tarixi muzeylari, Samarqanddagi Markaziy Davlat muzeyi uchun yangi binolar qurish masalasini koʻtargan edi. Ammo bu punkt bajarilmasdan qolgan [2, 114].

Oʻzbekiston Xalq Amaliy sanʼat muzeyi 1937 yili hunarmandlar ishlagan buyumlar koʻrgazmasi asosida vujudga keldi. 1938 yili muzey uchun podsho amaldori Polovsevnning XIX asr oxirida qurilgan sobiq qarorgohi binosi ajratildi. Bu bino juda koʻrkam boʻlib, meʼmoriy yodgorlik sifatida ham qarash mumkin. Binoni bezashda mashhur oʻzbek ustalaridan Olimjon Qosimjonov, Usto Kal, Toshpoʻlat Arslonqulov va boshqalar ishtirok etganlar [6, 45]. YuNESKO

ma'lumotlariga qaraganda, dunyo muzeylarining 80 foizi dastlab qal'a, saroy, ibodatxona, monastir, xususiy uylarda faoliyat ko'rsatgan. O'zbekistonda ham ushbu manzara kuzatiladi. 60-yillarda ayniqsa O'zbekistonda muzey tarmoqlarini kengaytirish ishlari avj oldi. O'zbekiston muzeylari chiroyli, maxsus qurilgan binolarga ega bo'ldi. Amaliy san'at muzeyi imorati rekonstruktsiya qilinib, yangi blok qo'shildi. Toshkentdagi tabiat muzeyiga yangi bino solindi. O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi esa XIX asrning memoriy yodgorligi bo'lgan binoga ko'chirildi. Marg'ulonda 3 qavatli Yuldash Axunboboevning memorial muzeyi uchun maxsus bino qurildi, Samarqandda esa Afrasiyobdagi tarix muzeyi uchun maxsus bino solindi. Namangan viloyat O'lkashunoslik muzeyi 1988 yilda maxsus qurilgan binoga ko'chirildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 21 apreldagi 203-sonli qaroriga muvofiq, sobiq Xalqlar do'stligi, Antikvariat, Lenin muzeylari O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyiga qo'shib yuborilib, ular asosida O'zbekiston tarixi davlat muzeyi tashkil etildi hamda u sobiq Lenin muzeyi binosiga joylashtirildi.

1996 yil 14 martda Temuriylar tarixi davlat muzeyi binosini barpo etish to'g'risida Vazirlar Mahkamasining Qarori e'lon qilindi va shu yilning 18 oktyabrida 6 oyda foydalanishga topshirildi. Muzey maydoni 5000 kv.m. Muzey qurilishida Toshkent shahar hokimligi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi, Toshkent shahar qurilish boshqarmasi, «Torevik» qurilish firmasi va boshqa tashkilotlar katta hissa qo'shdi. Binoni M.Rasulov boshchiligidagi mualliflar guruhi A.Turdiyev, A.Qosimov, A.N.Marin, T.A.Niyozqulovlarning ish rejalari asosida Amir Temur davri an'alariga mos tarzda qad ko'tardi. Aylana shaklda qurilgan binoning tashqi ko'rinishiga alohida e'tibor berilgan. Salobatli moviy gumbaz, ustunlari va har biri keng ma'noni tashuvchi arabcha yozuvlari (itoat, adolat, zarofat, ma'rifat, diyonat, oqibat, marhamat, qadriyat, sadoqat, muvaffaqiyat, matonat, muruvvat, shijoat mazmunidagi) unga o'zgacha husn bag'ishlaydi [8, 52]. Respublikamizda sog'lom turmush va, xususan, olimpiya harakatini keng targ'ib etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 14 avgustdagi qaroriga binoan Olimpiya Shon-Shuhrati muzeyi tashkil etildi. Uch bo'limdan iborat muzey ekspozitsiyasida 2147 ta eksponat mavjud [9, 46]. «Qatag'on qurbonlari xotirasi» muzeyi 2002 yili 1 avgustda – qatag'on qurbonlarini yod etish kunida ochilgan edi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 08.11.2002. № 387 ««Qatag'on qurbonlari xotirasi» muzeyi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarori va 05.05.2008. № PQ-861-sonli ««Qatag'on qurbonlari xotirasi» muzeyining faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi Prezident Qarorlari muzeyning rivojlanishiga zamin yaratdi [10, 114]. Muzey binosi o'zbek milliy me'morchiligi an'analari asosida qurilgan bo'lib, uni loyihalash va barpo etishda muayyan ilmiy, siyosiy-ijtimoiy va ma'rifiy vazifalarni bajarishga mo'ljallangani inobatga olingan.

Muzey binosi Bo'zsu bo'yida, bahavo joyda joylashgan bo'lib, bir qavatdan iborat, erdan balandligi 20 m. Dastlabki bino bir gumbazli 400 m.kv hajmdagi yagona ekspozitsiya zalidan tashkil topgan. Bino atrofi 28 ta naqshinkor ustunlar ko'tarib turgan ayvondan iborat bo'lgan. Uning umumiy maydoni 784 m.kv tashkil etgan.

Muzeyning tomi vazifasini o'tovchi «Ko'k gumbaz» «Usta» birlashmasi tomonidan ishlangan. Bino atrofidagi 28 ta ustun qo'qonlik usta Abdug'ani Karimov va uning shogirdlari tomonidan «yog'och o'yimakorligi» usulida ishlangan. Bino to'rt eshikdan iborat. Bulardan biri qo'qon ustalari, biri Samarqand ustalari, ikkitasi toshkentlik ustalar tomonidan «yog'och o'yimakorligi» usulida juda katta did bilan ishlangan. Hozirgi kunda muzey ichiga toshkentlik ustalar tomonidan yasalgan eshik orqali kiriladi.

2002 yili tashkil topgan Markaziy Osiyoda yagona hisoblangan Termiz arxeologiya muzeyining jamg'armalaridagi 80 mingdan ortiq eksponatlar eng qadimiy davrlardan to XIX asrgacha bo'lgan o'lka tarixi haqidagi ma'lumotlardan hozirgi avlodlarga xabar beradi. Muzey ko'rgazmalari kirish zali, asosiy 9 ta ko'rgazma zallari va muzey majmuasining ichkari hovlisidagi ayvonda ustunlar galereyasidagi arslon tasvirli ustunboshi (ular mil.avv. I asr va mil. III asrga taalluqli), shuningdek, mil.avv. I asr - mil. X asrlarga mansub xumlar, sopol suv quvurlari, XIV - XV asrlarga oid marmar qabrtoshlardan iborat [11]. 2019 yilda Termiz shahrida Surxondaryo viloyati tarixi va madaniyati muzeyining yangi binosi foydalanishga topshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbuslari bilan uch yil muqaddam viloyat markazidagi Tadbirkorlar binosi muzey balansiga o'tkazilib, madaniy-ma'rifiy muassasa moslashtirish uchun yirik hajmdagi rekonstruktsiya ishlari amalga oshirildi. Loyiha uchun 19 milliard 500 million so'm mablag' ajratildi. Uch qavatli muhtasham binoga 8 ta zamonaviy infokiosk o'rnatilib, vohaning boy o'tmishi va bugunini videotasvirlar yordamida namoyish etish yo'lga qo'yildi. Muzey fondida 16 yo'nalishda 61 ming 325 eksponat saqlanmoqda. Uning 3 ming 150 tasi noyob ashyo va kolleksiyalardir [12]. Qoraqalpog'istonda dastlabki muzey 1929 yil 16 mayda birinchi poytaxti bo'lgan To'rtko'l shahrida madaniyat uyida ko'rgazma asosida tashkil qilindi. Muzey 30-yillarda kompleksli ilmiy-tadqiqot instituti tarkibiga kirgan. 1934 yili O'lkashunoslik muzeyi alohida ajralib chiqadi. 1935 yili u, Qoraqalpog'iston tarix o'lkashunoslik muzeyi bo'lib o'zgargan. 1944 yil suv toshqini sababli muzey Nukus shahrining eski shahar bo'limiga ko'chirildi. 1965 yilda Nukus shahar markazidagi binoga o'tkaziladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengashining Ijtimoiy taraqqiyot va jamoat tashkilotlari masalalari ko'mitasining 2010 yil 6 noyabrdagi 05-513-sonli xatiga, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining 2010 yil 6 noyabrdagi «Qoraqalpog'iston davlat o'lkashunoslik muzeyi o'rnida yangi qurilish ishlari olib borilishi sababli muzey ashyolarini belgilangan tartibda ko'chirish to'g'risida»gi 290-sonli buyrug'iga asoslanib muzey eksponatlari vaqtincha Nukus Poligrafkombinatining «Bilim» nashriyoti joylashgan binoga ko'chirildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 11 dekabrda 975-sonli qaroriga asosan muzey Qoraqalpog'iston davlat o'lkashunoslik muzeyi nomidan Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyi nomiga o'zgartirildi. 2019 yili maxsus zamonaviy binosi qurilib, muzeyga topshirildi. Muzey fondi 89700 dan oshmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasida nodir san'at asarlarini o'zida jamlagan mashhur I.V.Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston Davlat san'at muzeyi 1966 yilda tashkil topgan. Undagi eksponatlar, asosan Qadimgi Xorazm davri, o'ziga xos moddiy va madaniy tarixi, urf-odatlar va qadriyatlariga ega bo'lgan qoraqalpoqlarning xalq amaliy san'ati namunalari, shuningdek, o'zbek, rus, qoraqalpoq rassomlarining yigirmanchi asr boshidagi taqiqlar tufayli

«chopayotgan joyida to'xtatilgan avangard» deb nom olgan ilg'or yo'nalishdagi sara tasviriy san'at asarlarini o'z ichiga oladi. Bugungi kunda uzida 100 mingdan ortiq nodir eksponatlarni jamlagan muzeyga dunyoning turli mamlakatlaridan sayyohlar tashrif buyurishyapti. Muzey 3 ta binodan iborat. Bino qurilishi 80-yillardayoq so'ralgan bo'lsa ham amalga oshmagan edi. Taniqli arxitektor Sergo Mixaylovich Sutyagin loyihasi bo'yicha bino qurilishi 2001 yili boshlandi va birinchi bino 2003 yilda ochildi. Hozir 3 ta bino ishga tushirilgan. Bitta binoda muzey fondi joylashgan.

1998 yili buyuk qoraqalpoq shoiri va mutafakkiri Berdaqning 170-yillik yubileyi munosabati bilan Nukus shahrida Qoraqalpoq davlat universiteti qoshida Berdaq Milliy muzeyi qad ko'tardi. 2002 yil 1 martdan tomoshabinlarini qabul qildi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 13 apreldagi 206-son qaroriga binoan Berdaq milliy muzeyi asosida Berdaq nomidagi Qoraqalpoq adabiyoti tarixi davlat muzeyi tashkil qilindi. Muzeyning umumiy maydoni 1,26 ga bo'lib, 3 qabatlardan, katta 1 gumbazdan va kichik 6 gumbazdan iborat. Muallifi taniqli arxitektor Berdaq nomidagi davlat mukofati laureati, O.Toreniyazov.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasida mashhur yapon arxitektori Tadao Ando loyihasi asosida yangi san'at muzeyini barpo etish bo'yicha ma'lumot berilgan edi. Bu esa sohaga davlat darajasidagi alohida e'tiborni ko'rsatadi. 2022 yilda O'zbekiston tarixi davlat muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, O'zbekiston davlat tabiat muzeyi binolarini Turkiya Respublikasining malakali kompaniyasini jalb etgan holda zamonaviy rekonstruksiya qilish ishlari belgilandi. 2023 yil 22 dekabrda O'zbekiston Prezidenti raysligidagi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida "Tarix muzeyi hamda San'at muzeyining yangi binolari barpo etilishi" atab o'tildi. 2024-yilda Tadao Ando loyihasi bo'yicha Davlat san'at muzeyi uchun yangi bino qurilishi boshlanadi.

Tarix muzeyi binosiga umumiy talablar deganda, yangi muzey binolarining loyihalarini ishlashda hisobga olinishi kerak bo'lgan talablar nazarda tutiladi. Bu talablar qo'yidagilardan iborat: Birinchidan: Tarix va madaniyat yodgorliklarining davlat kolleksiyalarining saqlanishiga sharoit tuzish. Buning uchun muzey binolari mustahkam, yong'inga chidamli, klimat sharoitlari hisobga olingan holda ishlanishi kerak. Ikkinchidan: Ilmiy-ma'rifiy muassasasi sifatidagi muzeyning faoliyatini taminlash, bunda muzeyning shu sohadagi faoliyatiga xos zallar, ma'ruza xonalari, umuman sharoitlar har tomonlama hisobga olinishi kerak. Uchinchidan: Muzeyning ilmiy - tadqiqiy faoliyatini taminlash. Bunda muzey kolleksiyalari o'rganish uchun qulay bo'lishi kutubxona, ilmiy xodimlar uchun kabinetlarning, redaksiya - matbuot xizmatining bo'lishi nazarda tutiladi. To'rtinchidan: Bino maydonining undagi saqlanuvchi va ekspozitsiyadagi kolleksiyalarning soniga muvofiq kelishi va barcha muzey xizmati kompleksini ratsional joylashtirish.

Muzey binolarini loyihalashtirishda istiqboldagi rivojlanish imkoniyatlar hisobga olinishi kerak. Muzey maydonini kengaytirishning 4 ta variantlari bor: 1) Binoni rekonstruksiyalash asosida antresol yoki zalda qo'shimcha qavat ishlash, ichki hovli qurish, qo'shimcha yer osti xonalaridan, cherdaklardan foydalanish; 2) Muzey qoshidagi binolarni qo'shib olish; 3) Muzey filiallarini tashkil qilish; 4) Loyihasida kelajakda qo'shimcha qurilish imkoniyatlari hisobga olingan yangi bino qurilishi [1, 75]. Xulosa qilish mumkin, bino yo'qligi muzey faoliyatiga salbiy ta'sir qiladi, muzey xodimlarida qo'nimsizlik hosil qiladi. Sobiq ittifoq davrida sobiq xon saroylari ommaga g'oyaviy ta'sir ko'rsatish uchun muzeylarga berildi, sababi ular muzeyga tashrifchilarni ko'proq qiziqtiradi deb hisoblandi. Muzey binolari dizayni bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish turizmni rivojlantirishda ham o'z o'rniga ega ekanligini takidlash lozim. Demak, Yangi O'zbekistonda muzeylarga alohida e'tibor qaratilgan ekan, xalqimiz qadriyatlarini, tariximizni ashyoviy dalillarda nomoyon etuvchi maskan sifatida muzeylarimiz binolarini qurishda xalqaro tajribalarni o'rgangan holda, davr talablarini milliyligimiz bilan uyg'unlikda amalga oshirish taqozo etiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Karamanova G. Muzeytaniw. 5120300-“Tariyx (jahan mamleketleri boyinsha)” bakalavr talim bag'darlari ushin sabaqliq. – Tashkent: «Yosh avlod matbaa», 2021.
2. Содикова Н. Маданий ёдгорликлар хазинаси. – Тошкент: «Фан», 1981.
3. Махмудов Н. Самаркандский музей в новой культурной среде // Мозийдан садо. – Ташкент, 2007. – № 3 (37). – С. 24.
4. Остонова Г. Ноёб ёдгорликлар хазинаси // Мозийдан садо. – Ташкент, 2000. - №1-2 (5-6). – Б. 27.
5. Жумаев К. Музей народно-прикладного искусства Ситораи Мохи хоса // Мозийдан садо. – Ташкент, 2003. – № 1 (17).
6. Курязова Д. Ўзбекистонда музей иши тарихи. – Тошкент, 2010.
7. Расулов И. Бебаҳо меросимиз маҳзани // Мозийдан садо. – Тошкент, 2019. – №4 (84). – Б. 30.
8. Karamanova G. Muzeytaniw. – No'kis: “Qaraqalpaqstan”, 2014.
9. Тиллахўжаева Ҳ. Олимпия Шон-Шухрати музейидаги янги экспозиция // Мозийдан садо. – Тошкент, 2016. - № 2 (70).
10. Музей – халқ тарихининг кўзгуси. – Тошкент, 2011.
11. Ботиров И. Археология музейи // Мозийдан садо. – Тошкент, 2013. – № 2 (58). – Б. 18-19.
12. <https://uza.uz/uz/posts/muzey-yangi-binoda-ish-boshladi-29-10-2019>

Muzeylar faoliyatida muzey binosining ahamiyati

Annotation: In this article the word goes on increasing the social and political activity of young people in our Republic, where the foundations of civil society are being formed, about developing their sense of duty and responsibility towards the nation, the people and society, and about forming the belief and ideal of a strong life position in their consciousness. At the same time, it was mentioned that changes in the thinking of young people are important for New Uzbekistan to take a worthy place in the world community.

Key words: rule of law, youth thinking, political activity, public organizations, national values.

СОЦИАЛЬНАЯ МОБИЛЬНОСТЬ В ФОКУСЕ СОВРЕМЕННЫХ СОЦИОЛОГИЧЕСКИХ ТЕОРИЙ

Алексеева В.С.

Национальный университет Узбекистана

В социологической науке сформировалось отдельное понимание перемещений индивида, социальных групп, которые могут переходить из одной социальной позиции в другую, рассматриваемых теорией социальной мобильности. Впервые к вопросу мобильности в социологической мысли обратился американский социолог П.Сорокин, который разработал свою классификацию социальной мобильности, включающую вертикальную и горизонтальную, индивидуальную и групповую. П.Сорокин определял социальную мобильность как «любой переход индивида или социального объекта (ценности), то есть всего того, что создано или модифицировано человеческой деятельностью, из одной социальной позиции в другую» [1,373]. При этом, социальная мобильность предполагает логичное изменение социальных ролей личности при перемещении. Каналы перемещения П.Сорокин выделял в виде механизмов, контролирующих процесс вертикальной циркуляции, определяемый во-первых, в тестировании индивидов для установления адекватного выполнения ими социальных функций. Во-вторых, контроль служит для определения социальных позиций личности, и в конечном итоге, контроль направлен на распределение индивидов в соответствии с их талантами, способностями и возможностями успешного выполнения социальных функций. Функционально контроль реализуется посредством социальных институтов. Социолог П.Сорокин анализирует в своих работах базис социальных изменений и перемещений с точки зрения изменения социокультурных систем. Он делает вывод о первопричине изменения системы, которая кроется в изменении в самой системе. В свою очередь изменение системы зависит и от окружающей среды, состоящей из систем также подвергающихся изменениям. Изменения окружающей среды приводят к определенным последствиям, изменяющая как систему, так и окружающую среду, то есть данный процесс является двусторонним и взаимодополняемым.

В литературе представлен анализ влияния механизма работы социальных лифтов, чья неэффективность влияет на возникновение проблем в обществе – низкий уровень жизни, протестные настроения, девиантное поведение. В свою очередь, неработающие социальные лифты приводят к доминированию горизонтальной мобильности в перемещениях нежели вертикальной, так как предполагают смену места жительства, а не повышение социального статуса. Исследования социальной мобильности в Западно-европейских странах показывают, что социальные лифты базируются на равенстве стартовых возможностей для граждан, определяемых сильной нормативной базой верховенства закона во всех сферах. Сильной стороной эффективно работающих социальных лифтов является сокращения экономического неравенства и рост уровня жизни большей прослойки населения, что ярко выражено в странах, пытающихся преодолеть «сырьевую экономику». В этой связи оправдывает себя модернизация экономических систем, предполагающих создание условий для улучшения социального статуса и движения по восходящей для каждого гражданина.

Тенденция рассмотрения мобильности в двадцатом веке характеризуется основными признаками изменения социального статуса в сфере занятости, включающий в себя переход с одной позиции на другую, на другое предприятие или социальную группу. Логикой данного анализа служат исторические условия, которые в этот период времени характеризовались отмиранием сословных границ, когда наиболее значимыми линиями разграничений становилась позиция в производственных или управленческих иерархиях.

Немецкий социолог Макс Вебер обосновывал объективное существование социальных различий общества в виде не только общественно-политического устройства, но и механизмов социальных различий. Социальные

различия, по его мнению, обусловлены позицией рынка труда в разных его формах. Рынок труда структурно определяет требования к уровню необходимой квалификации, определению уровня доходов. В социологии наиболее признанные модели стратификации, связанные с классами разрабатывали немецкие ученые К.Маркс и М.Вебер. Макс Вебер обосновывал стратификацию общества на основе классовых позиций, формирующихся из сложной структуры классов. В его теории стратификация общества строится на основе классовой структуры, представляющей разделение на классы владения и классы дохода. Вебер приводит в пример различие данных классов – человек, живущий за счет сдачи в аренду недвижимость относится к классу владения, а рабочий или предприниматель, живущий за счет рыночного обмена товаров и услуг – к классу дохода.

Одним из ведущих направлений в научной повестке социальной мобильности является исследование процессов социальной мобильности в США, проведенным С.Липсетом и Р.Бендиксом, изучившими социально-профессиональную мобильность и влияние на стабильность и устойчивость индустриального общества. С.Липсет и Р.Бендикс разработали ряд индикаторов профессиональной мобильности: первую группу показателей включали в себя перемещения поколения «детей» по линии физического и нефизического труда по сравнению с поколением «отцов», вторая группа включала в себя оценку наследования престижных и непрестижных видов занятости, третья группа – показатели интенсивности восходящей, нисходящей и общей вертикальной мобильности [2,26]. Липсет отмечает в своем исследовании, что «из тех лиц, относящихся к нефермерскому населению в США, которые были сыновьями отцов, занимавшихся нефермерскими профессиями, 30 процентов либо перешли на должность ручного труда из нефизических должностей своих отцов, либо поднялись из профессий своего отца из рабочего класса в профессию среднего класса. Хотя это очень точный показатель, он должен дать четкое представление о нестабильности городской структуры занятости. Он выражает долю коренных жителей городов, которые так или иначе относятся к “изменённому” классу». Таким образом, Липсет отмечает динамику социальной мобильности исходя из поколенческих характеристик, отмечая прямое влияние профессионального статуса родителей на детей, при этом вертикальная мобильность не является структурой, которой не подвергается динамике и изменениям.

Из таблицы [2,21] первое впечатление складывается, что все исследованные страны характеризуются высокой степенью мобильности. Из поколения в поколение от четверти до трети нефермерского населения переходит из рабочего класса в средний класс или наоборот. Во-вторых, среди первых шести стран наблюдается высокая степень сходства общего показателя мобильности - общий диапазон составляет от 23 до 31, а пять из шести стран варьируются от 27 до 31. Такая небольшая разница свидетельствует об общем уровне мобильности в изученных в данном исследовании странах, который практически одинаков. Это сходство не сохраняется, если сравнивать отношения между занятостью родителей и занятостью сыновей с точки зрения либо восходящей, либо нисходящей мобильности. Тогда оказывается, что между странами существуют значительные различия в том, в какой степени профессия отца является преимуществом или недостатком. Липсет считает, что в если одной стране проживает больший процент мобильных людей, чем в другой, это не означает, что эта страна более точно приближается к модели равных возможностей - они могут быть более мобильными в одной стране и при этом обладать меньшим равенством возможностей. Липсет приводит пример, что если страна на 90 процентов состоит из крестьян, то даже при совершенно равных возможностях большинство крестьянских детей останутся крестьянами. Даже если бы каждую некрестьянскую должность занимал сын крестьянина, только около 11 процентов сыновей крестьян могли бы сменить профессию; уровень восходящей мобильности в 9 процентов будет указывать на полное равенство возможностей. С другой стороны, если страна претерпевает быстрые экономические преобразования и доля недвойственных позиций, то уровень восходящей мобильности ниже 50 процентов будет указывать на неравенство.

Изучая социальную мобильность, Липсет приходит к выводу, что наряду с изменением профессионального статуса, индивид в большинстве случаев меняет свое окружение, место жительства, вне профессиональные интересы, отражающие интересы той страны, к которой он присоединился. Липсет приводит в пример и изменения политических взглядов и религиозной принадлежности как сопутствующих изменений социально-профессионального статуса индивида. Обратный процесс наблюдается в случае нисходящей мобильности – индивид стремится сохранить свою социальную позицию, что влияет на стабильность общества в целом.

Таблица 1. Результаты исследования социальной мобильности С.Липсета.[2,26]

COMPARATIVE INDICES OF UPWARD AND DOWNWARD MOBILITY (Percentages)			
NONFARM POPULATIONS			
Country	Upward mobility (Nonmanual sons of manual fathers)	Downward mobility (Manual sons of nonmanual fathers)	Total vertical mobility (Nonfarm population mobile across the line between working and middle class)
United States ^a	33	26	30
Germany ^b	29	32	31
Sweden	31	24	29
Japan	36	22	27
France	39	20	27
Switzerland	45	13	23

В исследованиях 50-х гг. мобильность рассматривалась как функционально необходимый обществу механизм, позволяющий способным и честолюбивым людям покидать низшие социальные слои и пополнять ряды элиты. Ряд исследователей пришел к выводу, что структурные сдвиги в развитых индустриальных экономиках (особенно рост численности позиций менеджеров, специалистов и администраторов) создают больше «пространства наверху», и таким образом, расширяют возможности для восходящей социальной мобильности людей из рабочего класса [3]. Понятие мобильности постоянно пересматривается и отходит от традиционного понимания П.Сорокина. К таким исследователям относится исследование ведущего британского социального теоретика Джона Урри, который в своем труде «Социология за пределами обществ: виды мобильности для XXI столетия» отмечал, что «различные виды мобильности, понимаемой и как метафора, и как процесс, составляют ядро социальной жизни и потому должны находиться в центре социологического анализа». Урри обосновывает значимость мобильности тогда, когда люди, объекты, образы и информации перемещаются и тем самым производят и воспроизводят социальную жизнь и культурные формы. Сами по себе культуры мобильны вследствие мобильностей, которые поддерживают различные паттерны социальности» [4,76]. Джон Урри подчеркивает, что социальные науки должны перманентно изучать процессы мобильности, так как «необходимо отражать, запечатлевать, отслеживать и исследовать движение на различные расстояния, потому что это показывает, как осуществляются, организуются и мобилизуются социальные явления» [4,3]. Примечательность его изысканий заключается в изучении новых технологий 21 века как средств мобильности, в том числе социальной, обеспечивающих изменения и перемещения посредством путешествий, туризма, автомобилей и в целом технологического прогресса.

При этом Дж.Урри приходит к выводу, что социальное неравенство как движущий фактор мобильности возникает вследствие неравного доступа к разным видам мобильности. В этом Урри видит роль государства, обладающего возможностями смягчать последствия мобильностей, которые могут отрицательно влиять.

В своем труде Урри выделяет главный постулат социологического знания современности, заключающийся в новом социологическом методе центрирования на мобильности, а не на обществе. Он приводит в пример исследования Догана и Паре, доказывающих инновационную значимость «интеллектуальной мобильности» для дальнейших исследований в социальных науках, которые значимы с точки зрения субъектов инновационной активности научной мысли. Ученые, которые не ограничиваются сферой своих научных изысканий, а вовлекаются в исследования и тяготеют к общим «междисциплинарным исследованиям». Инновация, скорее, возникает в результате академической мобильности поверх междисциплинарных границ — мобильности, порождающей так называемую креативную маргинальность. Именно эта маргинальность, связанная с движением ученых от центра своих дисциплин к периферии и пересечением в конечном счете их границ, именно она помогает создавать новые продуктивные гибридности в социальных науках. Последние же, в свою очередь, способствуют институциональному оформлению подотраслей науки (таких как медицинская социология) или неформальных сетей (историческая социология) [4,303]. Исследователи социальной мобильности в качестве одного из успешных моделей социальной мобильности приводят ирландский опыт. Кристофер Вилан, Ричард Брин отмечают, что «лишь немногие общества изменились так быстро и так радикально, как Ирландская Республика с 1960 года. Успех в форме государственной инициативы по содействию индустриализации принес более общее обещание о том, что плоды независимости будут наконец реализованы» [5,105]. Связанные с этим ожидания и волнение были отражены в крылатой фразе 1960-х годов: «Прилив, который поднимет все лодки», который отражал тенденцию поиска взаимосвязи экономического роста и социальной мобильности, достаточно долгое время разделяемый социологами.

В труде «The Development of Industrial Society in Ireland» приводится анализ реализованного исследования Д.Голдтропа, который проведя исследование CASMIN, пришел к выводу, доказательства, на которых основаны столь уверенные выводы о взаимосвязи между экономическим ростом, индустриализацией и социальной мобильностью, являются «сомнительными и неопределенными» [5,105]. Данное утверждение вполне справедливо, так как перемещения индивидов в направлении восходящей и нисходящей мобильности обусловлены различными факторами, не исключая экономическую составляющую, которая может быть скорее следствием мобильности. Д.Голдтроп приводит доказательства, полученные в ходе реализации проекта CASMIN, который позволил преодолеть многие проблемы, связанные с предыдущими работами по сравнительной мобильности, и заключаются в том, что показатели относительной мобильности демонстрируют лишь ограниченную перекрестную изменчивость. Следовательно, увеличение абсолютной мобильности, связанное с экономическим развитием, должно быть, прежде всего, результатом структурного эффекта. Однако, как подчеркивает Голдтроп, такие эффекты проявляются по-разному. Одно из основных различий заключается в сдвиге и композиционном эффекте. Эффекты сдвига относятся к последствиям изменения формы структуры, внутри которой наблюдается подвижность. Композиционный эффект возникает из-за того, что разным классам присуща разная склонность к неподвижности. Голдтроп делает три важных вывода в результате своего исследования: во-первых, абсолютные показатели мобильности более изменчивы, чем относительные, во-вторых — несмотря на порождаемые экономическим развитием эффектов сдвигов в мобильности, на сопоставимых уровнях экономического развития значимость эффектов сдвигов может сильно различаться. Третьим важным выводом, Голдтроп подчеркивает отсутствие доказательности влияния сдвигом в мобильности и прямой зависимости экономического развития и роста мобильности, но тем не менее не снижает роли экономического развития в мобильности.

Влияние экономического развития на социальную мобильность и как фактор достижения социальной справедливости обнаруживается в исследовании Ричарда Брина, американского исследователя, который отмечал, что идея социальной мобильности тесно связана с концепцией равенства возможностей: широко распространено мнение, что если бы было обеспечено большее равенство возможностей, то и, соответственно, выше уровень социальной мобильности и, наоборот, больше социальной мобильности указывает на большее равенство возможностей [6, 413–428.]. В этом смысле социальная мобильность объясняется изменениями в профессиональной структуре. Повышение равенства возможностей, влияя на социальную мобильность, осуществляется за счет социальной изменчивости, что в историческом ракурсе выглядит не всегда значимым [6, 413–428]. Ричард Брин обосновывает социальную мобильность как ключевой индикатор открытости общества и созданных в них условий для проявления своего потенциала, возможностей преодоления объективных ограничений в обществе, которые могут препятствовать реализации своих способностей. Брин акцентирует, что понимание данных условий и характеристик общества позволяет получить общую картину результативности мер, предпринимаемых для снижения социального неравенства и успеха достижения полноценной реализации принципов социальной справедливости. Данный вывод представляется ценным для анализа современных процессов социальной мобильности в контексте широкомасштабных реформ в Новом Узбекистане, ознаменованными принятием новой редакции Конституции Республики Узбекистан, закрепившей фундаментальное устройство страны в виде социального государства.

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Сорокин П.А. Человек. Цивилизация. Общество. - М.: Политиздат, 1992.
2. Lipset, S., Bendix R. Social mobility in industrial society. - London: William Heinemann Ltd., 1959.
3. Маршалл Г. Оксфордский словарь социологии. - М., 1996. - Режим доступа к изд.: <http://www.socnet.narod.ru/library/authors/Ilymg/hrest/Marshall.htm>
4. Урри Дж. Социология за пределами обществ: виды мобильности для XXI столетия [Текст] / пер. с англ. Д. Кралечкина; Нац. исслед. ун-т «Высшая школа экономики». — Москва: Изд. дом Высшей школы экономики, 2012.
5. Industrialisation, Class Formation and Social Mobility in Ireland. Published in J. H. Goldthorpe & C. T. Whelan (eds.), The Development of Industrial Society in Ireland//The Third Joint Meeting of the Royal Irish Academy and the British Academy. Edited by J. H. Goldthorpe and C. T. Whelan, 1993.
6. Breen R. Social Mobility and Equality of Opportunity// The Economic and Social Review, Vol. 41, No. 4, Winter, 2010.

Annotatsiya. Maqolada Evropa va AQShda o'tkazilgan ijtimoiy harakatchanlikning zamonaviy tadqiqotlarini o'rganish natijalari, jamiyatdagi harakatchanlikka turli omillarning ta'sirini asoslaydi. Ushbu tadqiqotlarning xulosalaridan biri yoshlarning harakatchanligiga ta'sir qiluvchi iqtisodiy omillarni, shuningdek, ularning ota-onalarining yuqori harakatlanish imkoniyatlaridagi kasbiy mavqeini tahlil qilishning maqsadga muvofiqligidir. Tadqiqotlar mualliflari ijtimoiy-tarixiy sharoitlar, jumladan, yoshlarning ijtimoiy harakatchanligi strukturasi o'zgartirish uchun asos bo'lishi mumkin bo'lgan iqtisodiy o'sish foydasiga bahslashadi.

Kalit so'zlar: yuqoriga harakatlanish, pastga harakatlanish, iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy adolat.

Аннотация. В статье приводятся результаты исследования современных исследований социальной мобильности, которые проводились в Европе и США, обосновывая влияние различных факторов на мобильность в обществе. Одним из выводов данных исследований является целесообразность анализа экономических факторов, влияющих на мобильность молодежи, а также профессионального статуса их родителей в возможностях восходящей мобильности. Авторы исследований приводят аргументы в пользу социально-исторических условий, в том числе, экономического роста, которые могут быть базисом изменения структуры социальной мобильности молодежи.

Ключевые слова: восходящая мобильность, нисходящая мобильность, экономическое развитие, социальная справедливость.

Annotation. The article presents the results of a study of modern studies of social mobility, which were conducted in Europe and the USA, substantiating the influence of various factors on mobility in society. One of the conclusions of these studies is the feasibility of analyzing the economic factors influencing the mobility of young people, as well as the professional status of their parents in the possibilities of upward mobility. The authors of the studies argue in favor of socio-historical conditions, including economic growth, which may be the basis for changing the structure of social mobility of young people.

Key words: upward mobility, professional status, economic development, social justice.

MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIY VA UNING ILMIY-PEDAGOGIK FAOLİYATI

Raxmedova M.A.

Urganch davlat universiteti

Kirish. Tarixga nazar tashlasak, markazlashgan yirik davlat sifatida ham, fan va madaniyat, adabiyot va san'atning rivojlanish darajasi jihatidan ham Xorazm bir umr jahonda mashhur bo'lganini kuzatamiz. Bizgacha yetib kelgan «Avesto»da va keyingi tarix sahifalarida Xorazm (bu nom turli shakllarda bo'lsada) alohida e'tibor bilan tilga olinadi. Bu muqaddas va mo'tabar vohada juda ko'p qomusiy olimlar, muborak shoiru donishmandlar tug'ilgan, o'sgan, kamol topgan. Ular o'z navbatida yer kurrasining barcha nuqtalarida fan va madaniyatning gurkirab yashnashiga, taraqqiyotiga salmoqli ta'sir o'tkazganlar. Shu bois IX-XI asrlarda va keyin ham Xorazmga dunyoning juda ko'pchilik mamlakatlaridan ilm ahli oqib kelishgan va u yerda kamolot cho'qqilarini zabt etishgan. Bu allaqachon isbot qilingan tarixiy haqiqatdir.

Biroq Xorazmda tug'ilib, yashab, ijod etgan o'sha fan va madaniyat arboblarning merosini izlab topishga, ularni mukammal o'rganish va chuqur tadqiq etishga yetarli darajada e'tibor berilmagan[2]. Agar

Ovro'pa va Sharq olimlarining xronologik ruhdagi asarlari va boshqa ishlari ko'zdan kechirilsa (hatto ko'pchilik Xorazm olimlari va shoirlarining nomlari o'zbek xalqiga noma'lum ekani), shu adolatli fikrga qanoat hosil qilish mumkin. Shunday yirik qomusiy olimlardan va madaniyat arboblardan biri Mahmud az-Zamaxshariydir. Uning bizga qoldirgan ilmiy va badiiy asarlari merosini o'rganar ekanmiz, allomaning iste'dodli shoir, nasrnavis, ular tilshunos va adabiyotshunos, benazir tarixchi, muqaddas din ilmining yirik mutaxassisi, benazir tarbiyashunos, dunyo kezgan sayyoh (jo'g'rofiya ilmi) olim ekaniga shubha qolmaydi. «Muqaddimat-ul-adab» asari Az-Zamaxshariyning ta'limiy fikrlarining asosini egallaydi. Chunki bu asar nafaqat arab tili, balki boshqa tillar uchun ham muhim darslik hisoblanadi. Bu haqda birinchi marta professor A.Rustamov, «Mahmud Zamaxshariy» (1971 yil) risolasida yozgan edi. «Muqaddimatu-l-adab» odobga kirish demakdir. O'tkir Qoriyev va Mas'udali Hakimjonovlarning ko'rsatishlaricha asarning mohiyatini aniq tasavvur qilish uchun lug'atnomadagi «adab» atamasiga e'tibor berish kerak. «Adab» so'zi pedagogik nuqtai nazaridan «odob, axloq tarzi» ma'nolarida ishlatilgan.

Olim hayoti davomida **Bag'dod, Makka, Madina, Damashq, Xurosonning** turli shaharlariga safarlar qilgan. U joylardagi davlat arboblari bilan bog'lanib, ulardan ayrimlariga madhiyalar bag'ishlagan. Xususan, saljuqiylar davlatining poytaxti **Isfahonga** kelganida o'z adolatligi, go'zal xulq-atvori va jasurligi bilan shuhrat qozongan saljuqiylar sultoni **Muhammad ibn Abul Fath Malikshohga** bag'ishlab madhiyalar yozadi. Ayni vaqtda Zamaxshariy o'zi bo'lgan yurtlar olimlaridan ilm o'rgangan, ular bilan ilmiy bahs-munozaralar olib borgan. Alloma **Xorazmshoh Muhammad ibn Anushtegin** (1097–1127 yillarda hukmronlik qilgan) davrida Xorazmga qaytib keladi, sultonning o'g'li **Xorazmshoh Otsiz** (1127–1156 yillarda hukmronlik qilgan) davrida o'z yurtida yashaydi. 1118-yilda Zamaxshariy og'ir bir dardga chalinadi va ko'p azob-uqubatlarni boshidan kechirib tuzalgach, endi umrini faqat ilm-fanga bag'ishlashga, shogirdlar yetishtirishga baxshida etib, asarlar yaratishga astoydil kirishadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. X-XI asrlarda «adab» deganda umumta'lim fanlari majmuasi tushunilgan. Bu o'rinda ta'limiy ma'noga ega bo'lib adabni to'la-to'kis egallagan kishi o'z faoliyati doirasi bilan ajralib turgan adib sanalib, Qur'on va hadislarni chuqur o'rgangan olim sifatida yuksak qadrlangan. Ta'limiy nuqtai nazardan Az-Zamaxshariy tuzgan lug'atni, «Tilshunoslikka kirish», «Adabiyotshunoslikka kirish», tarbiyaviy tomondan esa, «Adabga kirish» deb ataydi. Ta'limiy jihatdan «Muqaddimatul-adab»ni muallifning o'zi besh qismga ajratib bergan.

1. Ismlar qismi;
2. Fe'llar qismi;
3. Yuklamalar;
3. Ismlarning turlanishi;
4. Fe'llarning tuslanishi [5].

O'tkir Qoriyev va Mas'udali Hakimjonovlarning isbotlariga asosan pedagogik nuqtai nazardan shuni ta'kidlash lozimki «Muqaddimatu-l-adab»ning to'rt tilli lug'at ekanligi o'sha davrdagi ta'limning eng yuqori cho'qqisi hisoblanadi. Ya'ni lug'at tuzishda mutafakkir so'zlarni avvalo birinchi harfini va undan keyingi harflarni ham nazarda tutishi, alifbo tartibida berishi bilan Mahmud az-Zamaxshariy buyuk didaktik darajasiga ko'targan. Buning tasdig'ini «Asosu-l-balog'a» nomli lug'atida ham ko'rish mumkin. Mahmud az-Zamaxshariy buyuk didaktik sifatida so'zlarni izohlash borasida ham katta yutuqqa erishgan. U so'zlarning asl ma'nosinigina emas, ko'chma ma'nolarini ham berib, ularni tasdiqlovchi misollar ham keltirgan, so'zlarda ko'chma ma'nolar paydo bo'lish sabablarini ham ko'rsatgan. Allomaning «Al-Foiq fig'aribi-l hadis» asari ham tarbiya, ham ta'lim masalalariga doir bo'lib, hadis va adabiyotga oid asarlarda uchraydigan ma'nosi qiyin so'zlar izohiga bag'ishlangan. Tarbiya sohasida Mahmud az-Zamaxshariy arab maqollarini yig'ib o'rganish borasida ham katta ilmiy tadqiqot ishlari olib borib, «Al-Mustaq-so fi amsoli-l-arab» asarini yozgan. Bu asarda tarbiya ma'nosini anglatadigan uch yarim mingga yaqin arab maqoli alifbo tartibida berilgan. Bu o'rinda O'tkir Qoriyev, Mas'udali Hakimjonovlarning «Arabul ajamlar ustoz» maqolasida keltirilgan yana bir qo'lyozma asarni nomini ko'rsatib bergan. Didaktik olim sifatida Az-Zamaxshariy adabiyotshunoslikka oid asarlar ham yaratdi, xususan uslubshunoslikka va she'rshunoslikka doir masalalarni hal qildi[3]. Hayoti sermazmunligi, ilm-fan cho'qqisiga chiqqanligi Mahmud az-Zamaxshariy arab tili va grammatikasi, tafsir, hadis, fiqh, falsafa, geografiya, ilmlari bo'yicha o'z davrining ta'limotshunos didaktik olimligi haqida dalolat beradi.

Mahmud az-Zamaxshariyning hayot yo'li asosida uni ilm-fanga qo'shgan hissasini olib qaraganimizda alloma Makka shahrida uzoq muddat turib, arab tilini mukammal o'rganib olgan. Ka'bada o'z tafsiri, «Kashshof» risolasini yozganligi, ya'ni Ka'bada ko'p vaqt yashaganligi sababli mashhur «Jorulloh» (Ollohning qo'shnisi) degan ilmiy laqabini olganligi haqida ma'lumotlarga egamiz. Jumladan, uning «Qofiya» asari nahv(Sintaksis) mavzuida yozilgan bir kitob bo'lib, hatto u madrasalarda o'qitilar edi. Bu Mahmud Zamaxshariy didaktikasi haqida yana bir dalildir. Mavlono Jomiyning «Sharhi mulla» asari ana shu qofiyaning sharhidir. Bu o'rinda filologiya fanlari doktori, professor N.Ibrohimovning buyuk olim haqidagi fikrlari diqqatga sazovordir: «Xorazmdan yetishib chiqqan ulug' alloma Mahmud az-Zamaxshariy arab tilining grammatikasi haqida ko'p qimmatli asarlar yaratgan. Arablar aytdiki: «Agar shu ko'sa cho'loq bo'lmaganida arablar o'z tillarini bilmas edilar»[6]. Arab tilining grammatikasi, leksikasi, umuman, arab tilshunosligiga oid bir qancha asarlarni shu donishmand yaratgan. Zamaxshariy o'zi haqida shunday yozgan: «Necha yuqori pog'onalar (darajalar)ga ko'tarilganlar, shuningdek, oqsoq odamlarni ko'rdimki, ilm-fazilat boblarida ular qanchadan-qancha sog'lom oyoqlarni ham ko'rdimki, ular xayr-ehson yo'lida biror qadam ham bosmaganlar»[1].

Tahlil va natijalar. Mahmud az-Zamaxshariyning «Atvoq uz-zahab» («Oltin shodalar»), «Muqaddimatu-l-adab» («Adabiyotga kirish»), «Alminhoj fil-usul», («Usul bobida ko'rsatmalar») «**Rabi' ul-abrorva nusus ul-axyor**» («Taqvodorlar bahori va fozillar axbori») kabi asarlarini ta'lim-tarbiya masalalari bilan shug'ullanuvchilar zo'r quvonch bilan kutib olishlari aniq. Pedagogik nuqtai nazaridan Mahmud az-Zamaxshariyning «Atvoq uz-zahabfi-l-mavoiz va-l-xutab» (O'git va nasihatlarining oltin shodalari) asari yuz maqolalik pand-nasihat, yaxshi xislatlar va hikmatli so'zlardan iborat[4]. Allomaning yana birarab tili grammatikasiga bag'ishlanib yozilgan asari «Al-Mufasssal fi san'at al-I'rab» («fleksiya san'ati haqida mufasssal kitob») qisqacha «Al-Mufasssal» deb atalib, az-Zamaxshariy Makkada yashagan paytida 513-515 yillar (1119-1121) ichida yozilgan.

Arab tili nahvu sarfini o'rganshdayirik qo'llanma sifatida Sharqda ham, G'arbda ham dong'i ketgan asarlardan hisoblanadi. «Al-Mufasssal»dan keyin donishmandning «Al-Qustos» («Aniq mezon») asari turadi. Aruz ilmiga oid bu asarning to'liq nomi «Al-Qustos al-Mustaqim fi ilm il-aruz» («Aruz ilmida aniq mezon»)dir. Bu o'rinda Mahmud az-Zamaxshariyning yana bir asari «Al-muhajot bil-masoil an-nahviya av al-ahajiy an-nahviya» («Grammatik masalalarga oid jumboqlar»)dir. Bu asarlari qatorida hajm jihatidan biroz kichik bo'lgan «Al-Unmuzaj fi-n-nahvi» («Grammatik namunalar haqida») ya'ni «Al-Unmuzaj» deb ham atalib Zamaxshariyning «Al-Mufasssal» asarining qisqartirib olingan shaklidir. Allomaning «Ta'lim al-mubtadiy va irshod al-muqtadiy» («Ibtidoga o'rgatish va ergashgangayo'l ko'rsatish») asari arab tilidagi qiyin bo'lmagan iboralarning forscha tarjimai bo'lib, arab tilini dastlab o'rgana boshlaganlar uchun mo'ljallangan[3, 72].

Mahmud az-Zamaxshariyning «Ar-Risolatu fi kalimat ish-shahoda» («Shahodat kalimasi haqida risola») asarini ba'zi olimlar diniy ilmlar majmuasiga kiritsalarda bu asarda grammatikaga oid fikr ustun bo'lib «shahodat» kalimasining so'z turkumlari asosida tuslanishi haqida bahs yuritiladi. Bulardan tashqari mutafakkir arab tili grammatikasi haqida «Samiym ul-Arabiya» («Arab tilining negizi»), «Al-Mu'jam al-arabiy al-forsiy» («Arabcha-forscha qomus»), «Al-mufrad val-muallaf fi-n-nahvi» («Grammatikada birlik va ko'plik»), «Al-mufrad val-murakkab fil-arabiya», («Arab tilida birlik va ko'plik»), «Al-minhoj fi-l-usul» («Usul (ilmi)»dagi tartibotlar»), «Nukat ul-A'rab fi g'arib il-i'rob», («Qur'onning ajoyib ifodasida arablar nafosati»), «Al-asmo fil-lug'at» («Tilda ismlar»), «Al-amoliy fi-n-nahvi» («Grammatik qoidalarda orfografiya»), «Divan ut-tamsiy» («Assimilatsiya haqida-devon»), «Sharxabyat kitob Sibavayx», («Sibavayx kitobi baytlarining sharhi»)kabi asarlarni yozgan. Bu o'rinda Zamaxshariyning «Muqaddimat ul-adab»(Adabiyotga kirish) asarini ko'rsatib o'tib, asar beshta qismdan iborat ekanligi; unda otlar, fe'llar, bog'lovchilar, ot o'zgarishlari va fe'l o'zgarishlari haqida bahs yuritilishini ko'rsatish lozim [6]. Yuqorida aytganimiz kabi, Mahmud az-Zamaxshariy arab tili grammatikasidan tashqari adabiyot sohasida ham bir qator asarlar yaratgan. Bulardan eng asosiysi «Diyvon ush-she'r». («She'riy devon») asaridir. Devonga kirgan she'rlar mavzu jihatidan rang-barangdir. Allomaning xizmati shundaki, u lirikani tor mavzu doirasidan olib chiqib, ijtimoiy, ilmiy-ma'rifiy, falsafiy masalalar bilan boyitgan.

«Oltin shodalar» va «Navobig'-ul kalim» falsafiy didaktik asarlari juda ham muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir. «Oltin shodalar»asari yuzta maqola (boblar)dan iborat bo'lib, va'z-nasihat. hikmatli so'zlar,masal va maqollarni o'z ichiga olgan bo'lsa,«Navobig'-ul kalim»(«Nozik iboralar») asari 250 ta hikmatlar, nasihat va o'gitlar majmuasidir. Olim bu kitoblarda ko'p yillik sayohati natijasida hamda o'z umrida eshitgan, ko'rgan va boshidan kechirgan hayot saboqlari asosida shakllangan ijtimoiy-siyosiy va axloqiy tarbiyaviy masalalar to'g'risida fikr yuritadi.

Mutafakkir o'z davrida podsholar tomonidan boshidan kechirgan adolatsizliklarni, noinsof amaldorlar, firibgar savdogarlar va boshqa tekinox'rlarning boylik yig'ishga intilishi, ochko'zlik kabi qusurlarini qoralaydi, bu illatlar odamiylikka puturyetkazadi, kishining axloqiy qiyofasini buzadi, deb hisoblaydi va ma'naviy jihatdan tuban bo'lgan bunday shaxslarni «Savdogarning shuhrati cho'ntagida», «Chayqovchi-ovchi iti», «Bozorichilar» (bozorda-oldi-sotdi qiluvchilar) suluqiya itlari misolidirlar» (Qo'luq Yaman viloyatidagi bir qishloqning nomi bo'lib, u yerda faqat ov uchun yaraydigan itlarni-tozilarni asraydilar). «Axmoq» kishi hikmat lazzatini bilmaydi, bamisoli tumov kishi gulning hidini sezmagandek», deb ta'kidlaydi[6, 30].

Xulosa. Buyuk mutafakkir Zamaxshariy biz avlodlarga boy va ulkan ilmiy meros qoldirgan. Uning asarlari mazmun jihatidan ilm-fanning turli sohalarini qamrab olgan. Olimning ilmiy merosi qur'onshunoslik, fiqh, lug'atshunoslik, grammatika, aruz, adabiyotshunoslik, mantiq, didaktika, geografiya, she'riyatga bag'ishlangan. Zamaxshariyning ilmiy, ijodiy faoliyatida ikki davr ko'zga tashlanadi. Dastlabki 1118-yilgacha bo'lgan davrda olim asosan lug'atshunoslik, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, she'riyatga oid asarlar yaratgan. Keyingi davrda alloma ko'proq diniy mavzularda mav'iza, maqomlar, odob-axloq, pand-nasihatlariga boy bo'lgan mukammal asarlar yozgan, shogirdlar tarbiyalashga alohida e'tibor bergan. Yuqorida keltirilgan dalillardan xulosa qiladigan bo'lsak, Mahmud az-Zamaxshariyning pedagogikada tutgan roli quyidagilar bilan belgilanadi;

Birinchidan, alloma erkin fikr uchun kurash yo'lidagi eng yorqin siymolardan biridir.

Ikkinchidan, Qur'onni filologik jihatdan ilmiy tafsir qilgan allomadir.

ADABIYOTLAR

1. Buyuk siymolar, allomalar. T.,1995,1-kitob., 28-bet.
2. Hakimjonov M. Yu. Xorazmda az-Zamaxshariy. T.: Sharq, 2011.-118 b.
3. Mahmud Zamaxshariy. Nozik iboralar. -T, «Kamalak», 1992, 63-78-betlar.
4. Mahmud Zamaxshariy. Oltin shodalar. -T.,«Extremum press», 2010.-11 b.
5. Sulaymonova. Zamaxshariy va uning izdoshlari. T.: Fan, 2012-98.
6. Uvatov U. Zamaxshariyning ijodi. T.: Universitet, 2006.-35b

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mahmud az-Zamakhshariy yirik qomusiy olim va madaniyat arboblari biri ekanligi va allomaning tafsir, hadis, fiqh, adabiyotshunoslik, lug'atshunoslik, tilshunoslik, grammatika va didaktikaga oid asarlari pedagogik jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek allomaning hayot faoliyati, qoldirgan meroi va ulardan foydalanish brasidagi fikrlar mazmuni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: odob-axloq, tafsir, hadis, adabiyotshunoslik, lug'atshunoslik, tilshunoslik, grammatika.

Абстрактный. В данной статье Махмуд аз-Замахшари является одним из крупнейших учёных-энциклопедистов и деятелей культуры, педагогически анализируются труды учёного, связанные с тафсиrom, хадисами, фикхом, литературоведением, лексикологией, лингвистикой, грамматикой и дидактикой. Также проанализирована жизненная деятельность ученого, наследие, которое он оставил после себя, и содержание его мыслей по их использованию.

Ключевые слова: нравы, интерпретация, хадисы, литературоведение, лексикография, лингвистика, грамматика.

Abstract. In this article, Mahmoud al-Zamakhshari is one of the great encyclopedic scholars and cultural figures, and the scholar's works related to tafsir, hadith, fiqh, literary studies, lexicology, linguistics, grammar and didactics are pedagogically analyzed. Also, the life activity of the scholar, the legacy he left behind, and the content of his thoughts on their use were analyzed.

Key words: manners, interpretation, hadith, literary studies, lexicography, linguistics, grammar.

УДК: 633.15.789

ЎЗБЕКИСТОНДА ЭКОЛОГИК ТОЛЕРАНТЛИКНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ ТИЗИМИ ИСТИҚБОЛЛАРИ

¹Қабулов Қ. П., ²Мингбаев Р. Х.

¹Урганч давлат университети

²Жиззах давлат педогогика университети

Инсоният экологик муаммолар глобаллашиб, кескинлашаётган ҳозирги шароитда дунё ҳамжамияти, экологик толерантликни таъминлаш институционал тизимини ривожлантириш эҳтиёжини ҳам, заруриятини ҳам англаб етмоқда. Зеро, дунё давлатларнинг географик ўрни, экологик вазияти, экологик хавф потенциали, экоиктисодий имкониятлари, анъанавий тарихий қадриятлари, этно-демографик ва конфессионал таркибидан қатъий назар экологик толерантлик феноменини шакллантиришнинг ижтимоий-сиёсий шарт-шароитларини яратишни тақозо қилмоқда. Бошқача қилиб айтганда, турли: ирқ, миллат, элат, демографик қатлам ва конфессияларга мансуб халқларнинг маънавий-руҳий бирлигини намоён қилувчи толерантлик тамойили (инсоннинг антропоген ва бошқа ижтимоий фаолиятларида субъектив омил бўлса ҳам), глобал экологик барқарор тараққиёт эҳтиёжи учун субстанциявий-императив характердаги объектив асосдир. Зеро, экологик мақсад, эҳтиёж, манфаат категориялари мазмунини объектив экологик борлиқ ва унинг ривожланиш қонунлари ташкил қилади. Бу эса, ўз навбатида, умуман толерантлик, хусусан экологик толерантлик ҳодисасини шакллантиришнинг институционал тизимини комплекс-системали ўрганиб, уларнинг демократик ва гуманистик характери, ўзаро функционал интеграциялашиш хусусиятлари, умуминсоний маънавий-ахлоқий императив нормаларга мослигини аниқлашнинг назарий-методологик асосларини ўрганишга қизиқишни кучайтирмоқда. Хусусан, миллий, минтақавий ва халқаро даражаларда экологик вазиятга, қўшни давлатлар эҳтиёжлари ҳамда потенциал имкониятларига қараб, толерантликни шакллантириш ва ривожлантиришга мутасадди ижтимоий-сиёсий институтлар фойлигини интеграциялаштириш йўналишларини, усул-воситаларини, механизмларини доимий равишда ўзгартириб туришни тақозо қилмоқда.

Масалан, Орол денгизи қуриши билан боғлиқ ижтимоий, иқтисодий, экологик муаммоларни Ўзбекистон ва Қорақалпоғистоннинг кўпмиллатли халқи бирдамлигисиз ҳал қилиб бўлмаслигини Шавкат Мирзиёев 2016 йил 16 ноябрдаги Қорақалпоғистон сайловчилари вакиллари билан учрашувдаги “Юрагимга, қалбимга яқин инсонлар” деган нутқида алоҳида таъкидлади [1, 211-236]. Бу борада Орол денгизи ҳавзаси экологик инқироз оқибатларини бартараф этиш, унинг янада чуқурлашиб кетишини олдини олиш бўйича қўшма дастурлар амалга оширилишини ўзбек ва қорақалпоқ халқларининг экологик толерантлиги натижаси деб баҳолашга муносиб. Шунингдек, 2018 йилда Қорақалпоғистон Республикаси ва Хоразм вилоятида экологик вазият оқибатида икки марта туз бўрони бўлиб ўтди ва шу билан бирга бу бўрон натижасида табиатга салбий таъсир ўтказди.

Айниқса, Оролнинг қуриган қисмида кум кўчкиларини қотириш, қурғоқчилик ва шўрланишга чидамли ўсимликлар экиш ҳисобидан бу ерларни ўзлаштириш борасида катта ишлар амалга оширилмоқда. Яъни, Оролнинг қуриб қолган майдонларидан яйлов сифатида фойдаланиб, чорвачиликни ривожлантириш имконини беради. Бундан ташқари, Амударё дельтасида сув майдони 150 минг гектардан ошиқ сунъий сув ҳавзалари ташкил этилиши билан балиқчилик ҳўжаликлари ташкил этиш имконияти пайдо бўлди.

Кейинги вақтларда, фалсафий адабиётларда, халқаро экологик сиёсий муносабатларни *глобал геоекологик маданият* тамойиллари асосида толерантлаштириш имкониятига алоҳида эътибор берилмоқда. Масалан, россиялик академик Н.Н.Моисеев умуминсоният геомаданиятининг янги синтезлашган, интеграциялашган тенденциясини, “технологияси”ни ва унинг динамик ривожланиш босқичларини асослаб, бу жараён бошланишидаёқ: “инсон ўзининг нафақат оиласига, мамлакатига, миллатига мансублигини, балки, айти пайтда, бутун планетар ҳамжамиятга ҳам мансублигини англаши лозим. Яъни, муайян (*экологик* – С.Ш.) жамият аъзоси эканлигини ҳис этиб, инсоният тақдирини, ундан узоқда яшовчи бегона кишилар ҳаёти учун жавобгарликни ўз зиммасига олиши керак” [2, 51], деб ёзган эди.

Йирик немис файласуфи Иммануэл Кантнинг ахлоқий императивлар инсонни юксакка кўтариб улуғлайди, аксинча ахлоқий фазилатлардан узоқлик эса, уни тубанликка етаклайди [3, 282], деган фикри асосида, экологик толерантлик феноменини маънавий-ахлоқий қадрият сифатида олиб қарасак, унинг замонавий долзарблиги намоён бўлади. Дарҳақиқат, ҳозирги даврда экологик муаммолар глобаллашуви, халқаро: ижтимоий, иқтисодий, сиёсий, маданий муносабатларнинг янги экологик маънавий-ахлоқий қадрият парадигмаларини шакллантирди ва қонуниятларини, тамойилларини намоён қилмоқда. Хусусан, дунё давлатларининг ўз ҳудудларида амалга оширган ижтимоий-иқтисодий фаолияти туфайли: трансчегаравий табиатга зарар етказмаслик – халқаро экологик гуманизм тамойили; бошқа давлат табиатига етказилган зарар учун давлатларнинг жавобгарлик масъулияти тамойили; табиат муҳофазасида инсон экологик эркинлиги ва давлатларнинг экологик суверенлиги тамойиллари шаклланди ва халқаро миқёсда эътироф этилган.

Бу тамойиллар умумлашган тарзда, БМТнинг 1972 йил Стокгольмда ўтказилган атроф-муҳит муҳофазаси бўйича халқаро конференцияси Декларациясида: “инсон эркинлик, тенглик ва муносиб ҳаёт шароитларига эга бўлишга ҳақи ва яхши атроф-муҳитда яшашга имкон берувчи асосий ҳуқуқларга эга” [4], деб кўрсатилган.

Бу директив кўрсатмада, **бир томондан**, атроф-муҳитни муҳофаза қилишда халқаро муносабатларида давлатлар экологик толерантлигини шакллантириш соҳасида асосий тадбирларни амалга ошириш долзарблиги ҳам, зарурияти ҳам, аҳамияти ҳам асосланган. **Иккинчи томондан**, айрим давлатларнинг ҳаёт талабларидан орқада қолаётган халқаро экологик муносабатларида экологик толерантликни шакллантиришни глобал геоекологик маданият даражасига кўтариш талаб қилинган.

Умумлаштириб айтганда, *толерантлашган экологик онг ва маданият* асосида, инсонларнинг табиий атроф-муҳит муҳофазаси билан бевосита боғлиқ ижтимоий фаолияти “табиат-жамият-инсон” тизими муносабатларида [5], хусусан инсон ва жамиятнинг табиатга **экологик толерантлигини** тарбиялашда, ижтимоий онг шакллари ролини комплекс-системали ўрганиш, умуман, глобал муаммолар ечимида субъектив омилларнинг функционал аҳамиятини билишда назарий, методологик асослилиги билан муҳим амалий аҳамиятга эга. Шунинг учун, ўз вақтида, Ўзбекистоннинг Биринчи Президенти Ислоҳ Каримов: “Кишиларда янгича экологик фикрлашни шакллантириш, уларнинг дунёқарабини ўзгартириш, ҳар бир кишига ўз меҳнатини сарфлаш соҳаси ва шакллари мустақил белгилаш имконини бериш” [6, 269] керак деб, инсоннинг экологик тафаккур тарзини шакллантиришга давлат сиёсати даражасида системали ёндашув зарурлигини таъкидлаган эди [7]. Шахс онгида табиатга экологик муносабатнинг толерантлиги, табиатни муҳофаза қилиш жараёнида ижтимоий онг шакллари амалий “моддийлаштиришида” намоён бўлиб: *биринчидан*, ҳар қандай инсоннинг табиат муҳофазасига “толерантлашган” муносабати даражаси ва характери ижтимоий онг шакллари экологиялаштириш усуллари, воситаларини қўллашга дифференциал ёндашишни тақозо қилади; *иккинчидан*, табиатга экологик толерантлик тамойилига кўра оқилона муносабат, жамият ижтимоий онг шакллари ривожланиш даражасига мос келади ва уларнинг функционал интеграциялашуви жараёни натижалари самарадорлигини таъминлайди; *учинчидан*, ижтимоий онг шакллари миллий хусусиятлари ва ментал характери табиатга экологик муносабат толерантлигини адекват акс эттиришда намоён бўлади ва уларнинг индивидуаллиги умуминсоний мазмуни ва моҳиятини истисно қилмайди; *тўртинчидан*, ижтимоий онг шакллари экологиялашувининг функционал интеграциялашуви ва универсаллашуви, бир томондан, экологик толерантликнинг глобал трансформациясига асос бўлади, иккинчи томондан, унинг натижаси ҳисобланади; *бешинчидан*, конкрет ижтимоий онг шаклининг функционал аҳамияти, жамиятда экологик толерантлик қадриятини шакллантириш ва оммалаштириш усуллари, воситаларини йўналишларини, истиқбалларини белгилаб бериши билан изоҳланади.

Жамият экологик муносабатларида, муайян ижтимоий онг шакли доминантлик ролига, функционал аҳамиятига қараб, инсон онгида толерантлик феноменини тарбиялашнинг педагогик-дидактик йўналишлари шаклланган ва функционал конкретлашмоқда. Бу жараёнда “экологик толерантликнинг самарадорлиги – жамиятда ҳукмрон: мифологик, диний, ахлоқий, эстетик ва илмий-оммавий онг даражаларининг бир-бирига мос келишига боғлиқ” [8, 77-78] бўлиб, толерантлик феноменининг интегратив-универсал характери намоён қилади.

“Табиат-жамият-инсон” тизимида инсонларнинг табиий атроф-муҳит муҳофазасига, ресурсларидан рационал фойдаланишга йўналтирилган ижтимоий фаолиятида, умумий маънода *табиатга экологик муносабат толерантлигини*, хусусий маънода – *табиатга экологик маданий муносабатини* тарбиялаш технологияси ва жараёнини комплекс-системали ўрганиш – глобал муаммолар ечимини топишда муҳим назарий-методологик ва амалий-праксиологик аҳамиятга эга.

АДАБИЕТЛАР

1. Мирзиёев Шавкат. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Тошкент: “Ўзбекистон” ИМИУ, 2017, 211-236 бетлар
2. Моисеев Н.Н. Быть или не быть ... Человечеству? М., 1999. - С.51.
3. Кант И. Сочинения в 6 томах. Т. 4. С.282.
4. БМТнинг расмий сайти <http://www.un.org/ru/>
5. Шу ўринда бу тизимда толерантлик фақат инсон ва жамиятга хос бўлиб, табиатнинг уларга нисбатан “толерантлиги” мажозий маънода ишлатилишини эслатиш ўринлидир.
6. Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. –Т.: Ўзбекистон, 1995, 269-бет.
7. Дарҳақиқат, ҳар бир инсонга ўз фаолият соҳаси ва шаклини мустақил танлаш имконияти ва ҳуқуқининг берилиши – давлатларнинг демократик характери ва толерантлигини намоён қилувчи асосий мезондир.

8. Айматов А.К. Шахснинг табиатга экоэстетик муносабатини шакллантириш масалалари. –Т.: “Фан ва технология”, 2017., 77-78 бетлар.

Ўзбекистонда экологик толерантликни таъминлашнинг институционал тизими истиқболлари

Аннотация: Ушбу мақолада миллий ва халқаро экологик муносабатлар, уларни уйғунлаштиришда толерантлик тамойилининг аҳамияти ёритиб берилган. Ўзбекистонда халқаро экологик ижтимоий-сиёсий муносабатларни толерантлаштиришнинг ички ва ташқи омиллари хусусида баён қилинган.

Калит сўз: экологик муносабат, толерантлик, экологик вазиятни прогнозлаштириш, глобал муаммо, консенсус.

Перспективы институциональной системы обеспечения экологической толерантности в узбекистане

Аннотация: В данной статье подчеркивается важность принципа толерантности в национальных и международных экологических отношениях и их гармонизации. Описаны внутренние и внешние факторы толерантности международных экологических социально-политических отношений в Узбекистане.

Ключевые слова: экологическое отношение, толерантность, прогнозирование экологической ситуации, глобальная проблема, консенсус.

Prospects of the institutional system for ensuring environmental tolerance in uzbekistan

Abstract: This article emphasizes the importance of the principle of tolerance in national and international environmental relations and their harmonization. Internal and external factors of tolerance in international environmental socio-political relations in Uzbekistan are described.

Key words: environmental attitude, tolerance, forecasting the environmental situation, global problem, consensus.

TUHMATNING JINOYAT-HUQUQIY TASNIFI

Sarsenbaev A. M.

Qoraqalpoq davlat universiteti

Tuhmat shaxsning, sha'ni, qadr-qimmatiga, shuningdek u egallab turgan lavozimi, mavqei, siyosiy va boshqa sifatlarini obro'sizlantirishga qaratilishi mumkin. Shuning uchun u o'ziga hos ijtimoiy ahamiyat kasb etadi, jinoyat qonunchiligi normalari bilan qo'riqlanadi. Sha'n, qadr-qimmat va obro'-e'tibor insonga tug'ilganidan boshlab yonma-yon bo'ladi. Ular bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, insonning axloqiy dunyosini tavsiflaydi. Ushbu sifatlar har bir insonga xos bo'ladi, biroq ular har bir inson tomonidan turlicha talqin qilinadi. O'zini o'zi yuqori darajada baholovchi bir inson ularni o'z hayot mazmunini baholovchi axloqiy boyligi sifatida baholasa, boshqasi esa unga befarq munosabatda bo'ladi. Ammo jinoyat qonuni har bir insonning sha'ni va qadr-qimmatini bir xilda himoya qiladi va har bir aniq holat bo'yicha mustaqil ravishda baholaydi. Shu nuqtai nazardan tuhmat jinoyatining bevosita ob'ektini shaxsning sha'ni, qadr-qimmatini va obro'-e'tiborini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 139-moddasiga muvofiq tuhmatning ob'ektiv tomoni boshqa shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi yoki uning obro'siga putur yetkazishini bila turib yolg'on ma'lumotlarni tarqatishda ifodalanadi. Ko'rib chiqilayotgan jinoyatni sodir etgan shaxs tuhmatli ma'lumotlarga emas, balki tuhmat qiluvchi yolg'on ma'lumotlarni tarqatish orqali jabrlanuvchining yaxshi nomi va obro'siga ta'sir qiladi. Tuhmat qiluvchi ma'lumotlar bu holda jinoyat sodir etish vositasi bo'lib xizmat qiladi/ Tuhmat boshqa shaxs to'g'risida uning yaxshi nomini kamsituvchi yoki uning obro'siga putur yetkazishini bila turib yolg'on ma'lumotlarni tarqatish yo'li bilan sodir etiladi. Tuhmatni tashkil etuvchi ma'lumotlarning mazmuni masalasi adabiyotlarda bu'gungi kungacha yagona yechimini topmagan.

Fuqarolar sha'ni, qadr-qimmatini va obro'sini himoya qilishga bag'ishlangan va tuhmat va haqorat uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi umumiy xarakterdagi jinoyat huquqi normalari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 139, 140-moddalarida mavjud. Tuhmat jinoyati ob'ekti shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini hisoblanadi. Sub'ektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasddan sodir etiladi. Jinoyat sub'ekti 16 yoshga to'lgan shaxs. Tuhmat qilish, ya'ni bila turib boshqa shaxsni sharmanda qiladigan uydirmalar tarqatish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Nashr qilish yoki boshqacha usulda ko'paytirilgan tarzda, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog'ida joylashtirish orqali tuhmat qilish, bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan to'rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yilgacha ozodlikni cheklash bilan jazolanadi [1,139-st]. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, O'zbekiston Respublikasi jinoiy qonunchiligi tuhmatni boshqa shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi yoki uning obro'siga putur yetkazishini bila turib yolg'on ma'lumotlarni tarqatish sifatida belgilaydi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 139-moddasi 1-qismi). Sha'n va qadr-qimmat tushunchalari axloq sohasiga mansub bo'lib, bir-biriga chegaradosh bo'lganligi sababli ular mazmunan juda yaqin, qisman mos keladi va ba'zan bir-biri bilan belgilanadi. Shon-sharaf - bu fuqaroning muayyan ijtimoiy bahosi, ob'ektiv jamoatchilik fikri. Qadr-qimmat - bu shaxsning ongida ushbu xususiyatning aks etishi, ya'ni jamiyat tomonidan uning bahosi asosida shaxsning o'zini o'zi qadrlashi. Ularning orasidagi farq faqat sub'ektiv va ob'ektiv yondashuvlarda bo'lishi mumkin: sha'n - bu shaxsga ob'ektiv baho, qadr-qimmat - sub'ektivdir. Tuhmatning to'g'ridan-to'g'ri ob'ekti - bu shaxsning yaxshi nomi, jabrlanuvchi haqida jamiyatda yoki uchinchi shaxslar o'rtasida shakllangan ijobiy fikr. Ba'zi mualliflar tuhmat mavzusining mavjudligi haqida gapirishadi. Shunday qilib, N.I.Vetrovning fikriga ko'ra, tuhmat predmeti ataylab yolg'on, aybdorning o'zi tomonidan o'ylab topilgan yoki mish-mishlar va g'iybatlarga asoslangan ma'lumotlar hisoblanadi. Xuddi shu fikrni M.M.Qurbonov ham qo'llab-quvvatlaydi. Jinoyat predmeti - bu "moddiy dunyoning aniqlangan elementi bo'lib, unga ta'sir qilish orqali

jinoyatchi jinoyat sodir etadi", shuning uchun tuhmat jinoyat predmetiga ega bo'lmagan jinoyatlarga tegishlidir.[2,210] Ko'rib chiqilayotgan jinoyatni sodir etgan shaxs tuhmatli ma'lumotlarga emas, balki tuhmat qiluvchi yolg'on ma'lumotlarni tarqatish orqali jabrlanuvchining yaxshi nomi va obro'siga ta'sir qiladi. Tuhmat qiluvchi ma'lumotlar bu holda jinoyat sodir etish vositasi bo'lib xizmat qiladi. N.I.Korjanskiyning fikriga ko'ra, predmet sifatida ijtimoiy munosabatlar va narsalar ishtirokchilari ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashning zaruriy sharti yoki shakli sifatida harakat qilishlari mumkin [3,12-14]. Shunday qilib, ushbu jinoyatda predmetning jinoiy-huquqiy funksiyasini jabrlanuvchi bajaradi, deb ta'kidlash mumkin.

Shunday qilib, N.S.Maleinning ta'kidlashicha, tuhmat yo'li bilan tarqatilgan ma'lumotlar fuqaroning xatti-harakati, xulq-atvori, uning bahosi (xarakteri), ya'ni u tomonidan muayyan harakatlar sodir etilganligi yoki etmaganligi, biron bir axloqiy me'yorning mavjudligi yoki yo'qligi to'g'risidagi faktlarga tegishli bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, ma'lumotlar faktlarga taalluqli bo'lishi kerak va baholash mulohazalarini o'zida ifodalamasligi lozim ("qiziqarsiz kitob yozgan", "zaif talaba", "yomon rassom"). Masalan, kimningdir kar yoki jismoniy nogironligi jinoyat deb tan olinmaydi.

Ma'lumotlarning sha'ni va qadr-qimmatini obro'sizlantirish ko'pincha xulq-atvor (xatti-harakatlar) faktlarini anglatadi. Biroq, M.N.Maleina fikriga ko'ra, agar u obro'sizlantiruvchi shaklda qilingan bo'lsa, muayyan harakatlarni bajarganligi (bajarmaganligi) komissiyasining bahosini (komissiya qilmaslik) rad etish mumkin.[4,60]

Boshqa mualliflarning ta'kidlashicha, "ma'lumot" tushunchasi boshqa shaxslarning faoliyatini baholashni o'z ichiga olishi mumkin, ammo bu baholash harakatlarining o'zini emas, balki ularning muloqot haqiqatini ko'rib chiqishi kerak [5,112]. Insonning ma'lum bir kasbga layoqatsizligini ko'rsatish (masalan, qo'shiqchining eshitish qobiliyati va ovozi yo'qligi, rassomning iste'dodi yo'qligi haqidagi xabar) - bu baholash, tanqid hisoblanib, bu gapning yolg'onligi isbotlash qiyin, shuningdek, uning to'g'riligini ham. Bu faqat fikr va agar u munosib shaklda ifodalangan bo'lsa, unda na tuhmat, na haqorat uchun javobgarlik bo'lishi mumkin emas. Ma'naviy faoliyat mahsulotlarini salbiy baholash ham (masalan, rasmning didsizligi, musiqaning o'rtacha ekanligi va boshqalar) sof individual, ya'ni ob'ektivdir, va u umumiy bo'lishi mumkin emas. Bunday ma'lumotlar obro'sizlantirish hisoblanmaydi, balki faqat insonning qobiliyatlari haqida fikr bildiradi. Shaxsning biron bir kasbga qodir emasligi obro'sizlantiruvchi fakt sifatida tan olinmaydi. V.I.Marhotinning yozishicha, tuhmat haqidagi ma'lumotlarning mazmuni ayrim faktlar, shaxsning harakatlari to'g'risidagi yolg'on xabarlar bilan cheklanmaydi va jabrlanuvchining shaxsi haqida umumiy salbiy sharhni o'z ichiga oladi. Biroq, A.A.Eroshenko to'g'ri ta'kidlaganidek, aniq faktlarni ko'rsatmasdan baholash xususiyatlari insonning yaxshi nomini yomonlashtira olmaydi.[6,139] Xuddi shu fikrni V.V.Stashis va M.I.Bajanov birgalikda tasdiqlaydi, "muayyan yolg'on faktni ko'rsatmaydigan umumiy xarakterdagi sharmandali bayonotlar tuhmat emas. Shunday qilib, "o'g'ri", "firibgar", "qaroqchi" va hokazo iboralar, agar ular shaxsning umumiy tavsifini bersa va ma'lum bir faktning bevosita yoki bilvosita belgilarini o'z ichiga olmasa, haqorat sifatida tasniflanadi"[7,201]. Tuhmat xabarining yana bir belgisi uning vaqtinchalik aniqligidir. Tuhmatdagi yolg'on xabar o'tmishda sodir bo'lgan yoki hozirda mavjud bo'lgan faktlar haqida bo'lishi kerak. Kelajakda ro'y berishi mumkin bo'lgan faktlar haqidagi xabarlar tuhmat emas.

"Haqiqatga muvofiqlik" tushunchasini ikki jihatdan ko'rib chiqish mumkin: birinchidan, biror harakat, hodisa, harakat haqidagi xabarning voqelikda sodir bo'lgan narsaga mos kelishi, ya'ni faktlar haqidagi xabarning to'g'riligi, - xolisligi; ikkinchidan, faktlarni axloqiy baholashning adekvatligi sifatida. Shuning uchun yolg'on - bu o'ylab topilgan ma'lumotlar, haqiqatda mavjud bo'lmagan yoki ma'lum bir shaxsга tegishli bo'lmagan faktlar va haqiqatni ataylab buzib ko'rsatish. Jinoyat qonunchiligida shaxsning sha'ni va qadr-qimmatiga ziyon yetkazish, shaxs to'g'risida haqiqatga to'g'ri keladigan obro'sizlantiruvchi ma'lumotlarini tarqatishni qasd qilish (sharmanda qiladigan ma'lumotlar) deb tan olinishi mumkin emas. Xuddi shunday masala Daniya Jinoyat kodeksi va Polsha Respublikasi Jinoyat kodeksiga muvofiq hal qilinadi. Shunday qilib, Polsha Respublikasi Jinoyat kodeksining 212-moddasiga ko'ra, agar tarqalgan obro'sizlantiruvchi ma'lumotlar haqiqat bo'lsa, tuhmat tarkibidan chiqarib tashlanadi. Daniya Jinoyat kodeksining 269-moddasiga ko'ra, to'g'ri ma'lumotni tarqatish jinoiy emas.

Bu masala Bolgariya Respublikasi qonunchiligida biroz boshqacha tarzda hal qilinadi. Shunday qilib, Bolgariya Respublikasi Jinoyat kodeksining 147-moddasiga binoan, agar shaxs malakasiz yoki ommaviy tuhmat qilsa, agar u tarqatgan ma'lumotlarning haqiqatligi isbotlangan bo'lsa, shaxs jazodan ozod qilinishi mumkin.[8,2001]

Tuhmatli ma'lumotlar xabar qilingan shaxslarning soni qilmishning darajasiga ta'sir qilmaydi. Tarqatish fakti mavjud bo'lishi uchun qasddan yolg'on, sharmandali ma'lumotni jabrlanuvchidan tashqari kamida bitta shaxsга yetkazish kerak.[9,61] Agar ushbu ma'lumotni taqdim etgan shaxs yolg'on ma'lumotlar uchinchi shaxslarga ma'lum bo'lmasligi uchun yetarli darajada maxfiylik choralari ko'rgan bo'lsa, bunday ma'lumotlarning o'zlari manfaatdor bo'lgan shaxsга yetkazilishi ularni tarqatish deb tan olinmaydi. Agar yolg'on, sharmandali ma'lumot faqat jabrlanuvchining o'ziga yetkazilsa, tuhmat bo'lmaydi, shu bilan birga tuhmatli ma'lumotlarning yanada tarqalishi xavfi mavjud. M.N.Maleina bunday hollarda himoya qilish imkoniyatini ta'minlashni taklif qiladi. O'ylashimizcha, himoya jinoyat qonuni bilan emas, balki fuqarolik-huquqiy vositalar bilan amalga oshirilishi kerak (masalan, bu ma'lumot tarqatishni taqiqlash to'g'risidagi da'vo bo'lishi mumkin). Tuhmat qilingan taqdirda, tuhmat qiluvchi ma'lumotlarni tarqatish faqat boshqa shaxsга nisbatan mumkin, shuning uchun jinoyat qonunchiligida o'ziga nisbatan tuhmat qiluvchi ma'lumotlarni tarqatish orqali o'z nomini obro'sizlantirish befarq harakat hisoblanadi. Agar shaxs tomonidan o'zi to'g'risida tarqatilgan tuhmatli ma'lumotlar boshqa shaxsning sha'ni va qadr-qimmatiga ta'sir qilsa, bu harakat tuhmat bo'lishi mumkin [10,13]. Boshqa mualliflar ham bu pozitsiyaga amal qilishgan. Biroq jabrlanuvchining oila a'zolariga tuhmatli ma'lumotlarning yetkazilishi tuhmat qilishning jamoat xavfini bartaraf etmaydi, ayrim hollarda shaxs sha'ni va qadr-qimmatiga bundan ham kattaroq zarar yetkazadi va og'ir oqibatlarga olib keladi.

Agar qabul qiluvchilar soni tarqatish uchun muhim bo'lmasa, ularning sifat tarkibi tarqatish faktini butunlay "bekor qilishi" mumkin. Shunday qilib, karlar, ma'lumot uzatilayotgan tilni bilmaydigan shaxslar, yosh bolalar yoki

e'lon qilinayotgan narsaning ma'nosini tushuna olmaydigan shaxslar ishtirokida sharmandali ma'lumotlarni oshkor qilish tarqalmaydi, chunki tuhmatning to'liq tarkibi tuhmat uydirmalari nafaqat eshinishi kerak, balki ularning uchdan bir qismini ularning yuzlaridan ham tushunish kerak. Tuhmat tarkibi uchun tuhmat qilingan shaxsning uydirmalar tarqalish vaqtida borligi muhim emas. Tuhmat paytida tarqatilgan ma'lumotlar shaxsning obro'siga putur yetkazuvchi bo'lishi kerak. A.A.Eroshenkoning fikriga binoan, obro'sizlantiruvchi ma'lumotlar sub'ektning sha'ni va qadr-qimmatini pasaytiradi, ya'ni ular insonning jamiyatdagi axloqiy va siyosiy bahosiga salbiy ta'sir qiladi.

Xo'rlash, odamning o'zi haqidagi jamoatchilik fikrini o'zgartirishni his qilishini (yoki o'zgartirish mumkin deb hisoblashini) anglatadi. Boshqacha aytganda, or-nomusni kamsitish – bu shaxsni jamoatchilik fikrida qasddan obro'sizlantirishdir. Obro'sizlantiruvchi ma'lumotlar – fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatini jamoatchilik fikriga yoki alohida fuqarolarning qonunlarga, jamiyat qoidalariga va axloqiy tamoyillarga rioya qilish nuqtai nazaridan kamsitadigan ma'lumotlar.

Obro'sizlantiruvchi ma'lumotlar axloq talablariga zid bo'lgan ma'lumotlardir. Bularga shaxsga nisbatan nafratni keltirib chiqaradigan, uni boshqa fuqarolar oldida sharmandali, kamsituvchi holatga keltiradigan ma'lumotlar kiradi.

ADABIYOTLAR

1. <https://lex.uz/docs/111453>
2. Jinoyat huquqi kursi. Umumiy qism / Ed. N.F. Kuznetsova, I.M. Tyazhkova. S. 210.
3. Korjanskiy N.I. Jinoyat predmeti (tushunchasi, turlari va kvalifikatsiya qilishdagi ahamiyati). Volgograd, 1976. S. 12-14.
4. Mapeina M.N. Fuqarolarning shaxsiy nomulkiy huquqlari: tushunchasi, amalga oshirilishi, himoyasi. S. 60.
5. Sha'n va qadr-qimmatni himoya qilish. Nazariy va amaliy masalalar / Ed. G.V. Vinokurova, A.G. Rixter, V.V. Chernishev. S. 112.
6. Eroshenko AA Farmoni. op. S. 139.
7. Stashis V.V., Bajonov M.I. Ukraina SSR Jinoyat kodeksida va sud amaliyotida shaxsga qarshi jinoyatlar. S. 201.
8. Bolgariya Respublikasi Jinoyat kodeksi / ilmiy. ed. A.I. Lukashova; boshiga. D.V. Milusheva, A.I. Lukashova, kirish. maqolasi Y.I. Aydarov. SPb., 2001 yil.
9. Maleina M.N. Fuqarolarning shaxsiy nomulkiy huquqlari: tushunchasi, amalga oshirilishi, himoyasi. S. 61
10. Noy I.S. Sovet jinoyat huquqida shaxs sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish. S. 13.

Tuhmatning jinoyat-huquqiy tasnifi.

Rezyume: Ushbu maqolada siz tuhmat jinoyatining tarkibi, uning jabovgarlik asoslari, jinoyatning qanday holatlarda yuzaga kelishi, bu jinoyatning boshqa jinoyatlardan farqi va yurist olimlarning bu boradagi fikrlari haqqida malumot olishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: Tuhmat, tuhmat predmeti, yolg'on ma'lumot, , haqiqatga muvofiqlik, xo'rlash.

Уголовно-правовая классификация клеветы.

Резюме: В данной статье можно получить информацию о составе преступления диффамации, основаниях ответственности за него, обстоятельствах совершения преступления, отличии этого преступления от других преступлений, а также мнения ученых-юристов по этому поводу.

Ключевые слова: Клевета, объект клеветы, ложная информация, правдивость, унижение.

Criminal-legal classification of slander

Summary: In this article, information about the composition of the crime of defamation, the basis of its liability, the circumstances in which the crime occurs, the difference between the crime and other crimes, as well as statements of scholars in the field of law have been described.

Keywords: Defamation, subject of slander, false information, truthfulness, humiliation.

FINLANDIYA TA'LIMINING YOSHLARNI BARKAMOL RUHDA TARBIIYALASHDAGI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Yaxshilikov J.Ya.

O'zbekiston - Finlyandiya Pedagogika Instituti

Hech biri davlat yuksak taraqqiyot darajasiga birdanigi yuqori bosqichga erishilmagan. Finlandiya ham o'z boshidan ma'lum bir ta'rixiy jarayonlarni, bosib o'tgan. Dastlab Finlandiya Shvetsiya qirolligi qaramligida 13 asrdan boshlab Finlandiya hududini o'z ta'sir doirasiga ola boshlagan va natijada 550 yil Shvetsiya qirolligiga qaram bo'lib qolgan. Shvetsiya va Rossiya o'rtasida Finlandiya masalasida kelishmovchiliklar mavjud bo'lgan. 1800-1809 yillarda Finlandiya zaminida bo'lib o'tgan urish natijasida Finlandiya "Buyuk knyazlik" nomi bilan Rossiya podshohligiga qo'shilib ketgan. Rossiya podshosi "Buyuk knyaz" bo'lgan ushbu vaqtda, Finlandiya general-gubernatorlar tomonidan avtanom ravishda boshkarila boshlangan. Bolsheviklar inqilobidan keyin Finlandiya 1917 yil 6 dekabrda (Petrograd sovetining oldindan ma'qullashi bilan) o'z mustaqilligani e'lon qilgan [1, 16].

Finlandiya qaramlik yillarda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jihatdan uzoq yillar davimida avval Shvetsiyaga, keyinchalik Rossiyaga qaram bo'lishi negizida mamlakat taraqqiyoti nihoyatda og'ir holatga tushib qolgandi.

Shvedlar hukmronligi davrida hamma ma'mumiy boshqaruv tizimi, armiya tizimi boshqaruvida qumondon, ofistirlardan, xattoki maorif tizimida ishlaydiganlar ham asosan shvelar faoliyat ko'rsatgan. Finlandiya Rossiya tasarrufiga o'tgandan so'ng Finlandiya xalqi fidoiy ma'muratparvarlari, o'z mamlakatiga egalik qilish uchun, ta'lim sohasini islohot qilishga jadal kirishganlar. Chunki mamlakatni yuksaldirish, ta'lim sohasini rivojlantirishini anglaganlar. Grigoriy Petrovning yozishicha, "birinchi navbatda, ular boshlang'ich, o'rta maktab va litsteylarda shved o'qituvchilarining fin o'qituvchilarini tayinlardilar va asta-sekin ular finlar orasidan sudyalalar, shifokorlar va davlat xizmatchilarini tayyorlashga kirishdilar" [1, 104],- deb ta'kidlaydilar.

Qisqa muddat ichida tayyorlangan milliy kadrlar mamlakat taraqqiyotini jadal rivojlantirishga kirishganlar. Buning oqibatida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan har tomonlama asta-sekinlik bilan yuksala boshlagan.

Finlandiya Shvedlar qaramligi davrida harbiy qo'mondolik, ofisterlar shved millatidan qo'yilgan, askarlar finlardan olingan, ularga past nazar bilan qarashgan, ular ishdan keyin asosan karta o'ynashi, ichishi, qimorbozlik va raqsga tushish bilan band bo'lganlar. Shu bilan birganlikda ularning savodxonlik darajasi past bo'lgan, natijada fin askarlarga qo'pol munosabatda bo'lganlar. O'sha davrlarda fidoiy, ziyoli Velgelm Shelman boshchiligidagi bo'lgan yosh ziyolilar harbiylarga e'tiborni qaratib o'rta maktab va oliy o'quv yurtlarini tugatgan yosh finlardan milliy harbiy kadrlar tayyorlashda, ularni ishga jalb qilib, harbiy sohada ishlash uchun ularni qayta o'qitib harbiy zobitlar tayyorlaganlar.

Velgelm Shelman shogirdlari bo'lgan yosh fin ofisterlariga fikrini bayon qililadi. U quyidagilardan iborat edi: "Bizning armiyamizni yangi ruhda va qayta qurishga ehtiyoji bor. Askarlar kazarmada boqiladigan ho'kizlar emas, ular bizdan kichikroq va kam ta'lim olgan birodarlarimiz. Ular kazarmaga o'qitish uchun yuborilgan. Harbiy xizmatni o'tab uylariga qaytgach, Vatan-bizdan ofistelerdan so'raydi: Siz biz ishonib topshirgan bu yoshlarni qanday o'qitdingiz va tayyorladingiz?...Ularning vazifasi askarlarni va oilalariga va hayotgan bo'lgan munosabatni tarbiyalash va vatanga muhabbatni o'qitishdir [1, 114], u o'z fikrini davom ettirib. "Kazarmada mentalitet va ma'naviyat yoyildi. Yaxshi xamirturush xamirni qanday yaxshi qilsa, kazarmalar ham xalqning ko'tarilib, rivojlanishini tezlashtirdi [1, 169] -deb ta'kidlaydi. Shu bilan birgalikda ta'limni rivojlantirish uchun xalqning ichiga ularni (ziyolilar, jamiyatning miyasi hisoblanadi) safarbar qilish, ularni ma'rifatini yoyilga, egallashga safarbar qilish masalasini ham ko'targan.

Uning fikricha, "Xalqimizning katta qismi ibtidoiy, johil va o'qimagan bo'lib qilishiga hech narsa qilmay, tomoshabin bo'lib turish, axloqsizlik va jinoyatdir". Bilimli va ma'rifatli odamning bu xolatlariga befarqligi-qotillikdan farq qilmaydi. Xalqning aksariyat qismini ta'limdan "Qashshoqlashtirish" bir jinoyatdir. Davlatning o'zini-o'zi yo'q qilishi, joniga qasd qilishini anglatadi. Agar xalqimiz yaxshi o'qitilganda edi, bu mast insonlarning har biri o'z mamlakati va xalqi uchun ishlab chiqarishga o'z xissasini qo'shadigan, kerakli shaxslar bo'lar edi³⁷.-deb ta'kidlagan.

Finlandiyaning hozirgi taraqqiyot cho'qqisiga chiqishiga ta'limga bo'lgan katta e'tibor hisoblanadi. Finlandiyada hozirgi ta'lim tizimining hozirgi muvaffaqiyatining asoslari bo'lmish tamal toshi, 1800-yillarda qabul qilingan qarorlar asosida yaratilgan. Unda belgilanganidek, Finlandiya, butun xalq ta'lim olishi kerak [1, 31], degan qarorga kelgan edi.

Shu tarzda, mamlakatda ma'lumotli elita va o'qimagan past qatlam o'rtasidagi ijtimoiy tengsizlikka yo'l qo'yilmadi. Shu bilan finlarning o'rganishga bo'lgan ishtiyoqi ham, ta'limga bo'lgan umumiy ishonchining ham tarqalishiga sabab bo'ladi. Darhaqiqat, yoshlar, insonlar ta'lim orqali bilimga ega bo'lishadi. Shuning uchun ta'limning mohiyatini bilib olishimiz muhim ahamiyatga egadir.

"O'zbek tilining izohli lug'atida ta'kidlanishicha "ta'lim" arabcha o'rgatish, o'qitish, bilim berish, ma'lumot", degan so'zlardan olingan bo'lib: 1. Bilish, berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi; 2. Ilm-fan yoki kasb hunar sohalari bo'yicha egallanadigan, olinadigan ma'lumot va ko'nikmalar majmui; 3. Tarbiya odob -axloq; 4. Ko'rsatma, yo'l -yo'riq, o'rgatuv degan ma'nolarni ifodalash uchun ishlatiladi [2, 28] – degan ma'nolarni anglatadi. Darhaqiqat, yoshlarni barkamol ruhda tarbiyalash uchun, ta'lim jarayonida ta'lim vositalarini qo'llash orqali: maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb hunar ta'limi, professional ta'lim, oliy ta'lim muassasalarida olib boriladi. O'zbekistonda ta'limni yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020 yil 30 oktyabrda o'tkazgan videoselektorda, ilm fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasida, "Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm -fan, ta'lim va tarbiyadir", deya bejizga aytmagan.

Maktablarda o'quv yuklamasi va darslar sonini qayta ko'rib chiqish, o'quvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish zarurligini" [3] - ta'kidlagan. Xar bir ota onaning orzusi farzandlarini barkamol, yetuk inson qilib tarbiyalash, shunga da'vat qilish, butun insoniyatga tegishlidir. Barkamol inson boshqalarga o'rnak bo'ladi, ularni o'z ortidan ergashtira oladi. Bunday yoshlar jamiyatda qancha ko'p bo'lsa, jamiyat shuncha barkamol bo'ladi, ilm-fan, madaniyat rivoj topadi. Bugun yurtimizda yuqoridagilarni inobatga olgan holda, o'quvchi yoshlarning ta'lim olishi uchun keng imkoniyat doirasida yetarli shart-sharoit yaratilishiga harakat qilinmoqda. O'zbekiston va Finlandiya ta'limidagi farqlar quyidagicha izohlash mumkin. Grigoriy Petrovning "Oq nilyufarlar yurtida" kitobida O'zbekiston va Finlandiya ta'limidagi farqlar quyidagicha ko'rsatilgan:

1. O'quv dasturi va darsliklar mamlakatimizda ta'limning asosiy qismi sifatida qaraladi. Finlandiyada juda oddiy o'quv dasturi mavjud va ko'p ham o'zgarmaydi. O'qituvchilar o'zlari o'qitiladigan kitoblarni tanlaydilar, ammo darsliklar unchalik ko'p emas. Shunday qilib, Finlandiya ta'lim tizimida darsliklar asosiy qism bo'lishi u yoqda tursin, kerakli narsa ham emasligi ko'rsatilgan.

2. O'zbekistondagi 1 sinf o'quvchilarining ota-onalari "bugun bolamiz matematikadan 5 oldi " deb g'ururlanishimiz mumkin. Rasmiy baholar bo'lmasa ham, o'qituvchilar o'z tashabbusi bilan testlarni katta fidoyilik bilan tayyorlaydilar va bolalarni imtihonga, boy kelajakka tayyorlaydilar. Finlandiya o'quvchilari maktabning dastlabki olti yilida hech qachon baholanmaydi. Bu yerdagi o'quvchilar birinchi bo'lib 16 yoshda to'lganlarida mamlakat miqyosida imtihon topshiradilar.

3. O'zbekistonda maktabda o'quvchi qayergadir chiqindi tashlasa yoki shunga o'xshash xolat bo'lsa, ertasiga ota-onasiga shikoyat qilinib, chaqiriladi. Finlandiyada o'quvchilar tizimdagi barcha maktab ishlarini navbat bilan bajaradilar. Finlandiya maktablarida xizmatchilar yo'q, barcha ishlar o'quvchilar tomonidan amalga oshiriladi. Shunday qilib, ularning mas'uliyat hissi rivojlanadi.

4. Finlandiyadagi maktablari o'quvchilarga qulay bo'lishi uchun mo'ljallangan. Sinflarda bajarish va yashash orqali o'rganish modeliga mos joylar mavjud. Binolarning qurilish xususiyatlari o'quvchilarga xuddi uydagidek qulay bo'lishiga imkon beradi deb o'ylashadi. O'zbekistonda ko'p yillar davomida buyruq ostida o'quvchilar nazoratda ushlab turishga uriniladi. "Menga quloq soling" deb baqirib turadigan o'qituvchi oldida qanchalik yaxshi quloq solishlarini bilib bo'lmaydi.

5. O'zbekistonda xususiy maktablarda o'qish 8 soat, davlat maktablarida 5-6 soat. Bu ham yetmaganidek, darsdan so'ng to'garaklar, qo'shimcha darslar, repetitorlar qo'shilib shaxsiy darslar 12-14 soatni qamrab oladi. Finlandiyada esa kunlik dars 4 soatni tashkil qiladi va jahon ta'lim tizimlari reytingini ko'rib chiqsak, sifat va miqdor tushunchalari naqadar muhim ekanligi oydinlashadi.

6. O'zbekistondagi barcha o'qituvchilar o'zlarini kasbining eng yuqori cho'qqisida ko'rishadi. Imtihon natijalari yomon bo'lsa odatda, o'rganishdagi qiyinchiliklar esga olinadi. Yilda bir yoki ma'lum yillarda bir marta malaka oshirish amalga oshiriladi. Shu sababli, kasbiy malakani oshirish bo'yicha doimiy ish olib borilmaydi. Finlandiyada esa o'qituvchilar haftasiga kamida 2 soat malaka oshirish kurslarida qatnashishlari kerak.

7. O'zbekistonda oliy ma'lumotli bo'lsa bas, "Hech bo'lmasa, maktabda o'qituvchi bo'ladi" degan mantiq hali ham bor. Ammo Finlandiyada o'qituvchilik kasbi jamiyatning eng muhim kasblaridan biridir!. O'qituvchilar magistr darajasiga ega bo'lganlar orasidan tanlanadi ya'ni magistr darajasiga ega bo'lmaganlar dars beraolishmaydi. Bakalavr bitiruvchilari orasida o'qituvchilik uchun ariza berganlarning atiga 10 % foizi o'qituvchilarni tayyorlash dasturiga qabul qilinadi.

8. O'zbekistonda o'qituvchi bo'lish uchun institutni bitirsangiz kifoya. Finlandiyada o'qituvchi bo'lish uchun uch bosqichli sinovdan o'tishingiz kerak. Ushbu bosqichlar orasida muloqot va dars tushuntirish kabi bo'limlar mavjud.

9. Finlandiyada o'qituvchilarning daromad darajasi juda yaxshi. O'z ishidan boshqa ish bilan shug'ullanib, qo'shimcha daromad olish uchun qo'shimcha dars o'tadigan o'qituvchilar deyarli yo'q.

10. O'zbekistonda o'qituvchilar qancha ko'p uyga vazifa berishsa, shuncha yaxshi bo'ladi deb hisoblashadi. Finlandiyadagi o'quvchilarga uy vazifasi berilmaydi. O'qish joyi maktab sifatida qaraladi. Shu sababli Finlandiyada farzandining mehnatdan topshirig'i uchun kechqurun kartonga gul chizib o'tiradigan ota-onalar yo'q.

11. Finlandiyada hech bir o'quvchi rassomchilik bo'limida o'qib, matematikadan dars qilib o'tirmaydi. Mamlakatimizda o'quvchilar matematikadan zerikishadi va daftarlariga rasm chizishadi. Keyin matematika o'quvchisi bolani rasm darsida ushlaydi va uni matematikadan o'qishga olib boradi. Tizim shunay ekan, tizimning samarali bo'lishi hamda yetuk shaxslarni ishlab chiqarishini kutish, albatta qiyin.

12. Bizning sinflarda, agar barcha o'quvchilar o'z joylarida o'tirsa va ovozlari chiqmasa, o'sha sinf o'qituvchisini maqtashadi. Finlandiyada agar sinfdan ovoz chiqmasa, o'quvchilar o'z stollarida qatorlashib, hech joydan turmasdan o'tirsa o'sha sinf o'qituvchisi tekshiruvga olinadi. Chunki Finlandiya ta'lim tizimida dars tushuntiradigan o'qituvchi yo'q. Hamma narsani birgalikda bajaradigan mashg'ulotlar mavjud. Shuning uchun ham Finlandiya maktablaridagi sinflarda "aylanib yurma", "o'tir joyinga" degan gap deyarli eshitilmaydi.

13. Fin maktab oshhonalari suv, sut va mevalardan boshqa narsa yo'q. Bizda esa boshqacha. Har tanafusda shokolad bilan shirinliklar istemol qiladigan bolalarni ketma-ket olti soat davomida o'tirishga urinish o'qituvchilar uchun katta sinov! Ehtimol, shuning uchun bizda tanafus bo'lishi bilan tez chiqib ketish bo'yicha rekordlar bor [1, 56].

Umuman olganda yuqorida keltirilgan Finlandiya va O'zbekiston ta'lim tizimi haqida keltirilgan farqlar juda yaxshi bayon qilingan, ta'limning rivojlanishi ham har bir davlatda amal qiladigan milliy mentalitet bilan bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Xelsinki universitetidan Xanna Simolaning yozishicha, mamlakat ta'lim tizimida 1970 yillardagi islohotning asosiy o'ziga xosliklaridan biri maktablarni "kuchli" va "oddiy"larga ajratishdan voz kechib, hamma uchun bir xil umum ta'lim maktablarini joriy etilishi edi. Jahon banki ham bolalarni (qobiliyatlari va qiziqishlariga ko'ra) erta ajratishdan voz kechish finlandiya maktab ta'limining asosiy xususiyatlaridan biridir deb tan olgan. Shuni chuqur anglashimiz kerakki, har qandan ta'lim tizimining ishlashi ko'plab tarxiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy omillarga bog'liq. Simolaning yozishicha, mamlakat ta'lim tizimida 1970 yillardagi islohotning asosiy o'ziga xosliklaridan biri maktablarni "kuchli" va "oddiy"larga ajratishdan voz kechib hamma uchun birhil umum ta'lim maktablarining joriy etilishi edi. O'z vaqtida Jahon banki ham bolalarni (qobiliyatlari va qiziqishlariga ko'ra) erta ajratishdan voz kechish Finlandiya maktab ta'limining asosiy xususiyatlaridan biri ekanligi qayd etilgan. O'zbekistonda esa ekspertlarning ta'kidlashicha, ta'lim va fanni rivojlantirish strategiyasi ixtidorli bolalar uchun alohida, masalan, o'quvchilar 5 yo 7 sinfdan qabul qilinadigan prezident va ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etishni ko'zda tutadi.

Finlandiya ta'lim tizimidagi islohotlarning yana bir muhim jixati – bu 1970 yildan boshlab boshlang'ich maktab o'qituvchilarni tayorlash kollej va seminariyalardan universitetlarning qayta tashkil etilgan ta'lim fakultetlariga ko'chirilgan, shuningdek maktab o'qituvchilari magistr darajasiga ega bo'lishi shartliligi belgilab qo'yilgan. Xozir boshlang'ich maktabda dars berish uchun o'qituvchi ta'lim sohasida magistr darajasiga, o'rta maktabda dars berish uchun esa dars berayotgan fan bo'yicha magistr darajasiga ega bo'lishi lozim. Taqqoslash uchun: ochiq ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda o'qituvchilarning 13 % o'rta maxsus yoki tugallanmagan oliy ma'lumotga ega.

Finlandiyaning pedagogika fakultetlarida magistr darajasini olish uchun zarur 300 kredit (bakalavriyatda 180 kredit va magistraturada 120 kredit)ning kamida 60 tasi qoida tariqasida pedagogika bilan bog'liq fanlarga va o'quv vaqtining 15 foizdan to yarmigacha bo'lgan qismo pelagogik amaliyotga ajratilgan. Ishlayotgan pedagoglarning malakasini oshirish mahalliy munistipalitetlar zimmasida va byudjetni qanday sarflash va ularning o'ziga havola bo'lgani bois malaka oshirish imkoniyatlari va shakllari hudud va maktabga qarab farq qilishi mumkin. O'zbekistonda malaka oshirish tizimi qoida tariqasida, hukumat qarorlari bilan tartibga solinadi va barcha uchun bir xildir. Faqat yaqindan boshlab o'qituvchilarga o'z malakasini oshirish uchun ta'lim muassasasini tanlash huquqi berildi.

Tadqiqotlarga ko'ra Finlandiyada o'qishga kirish uchun tanlov eng katta bo'ladigan yo'nalishlardan biri pedagogikadir. Masalan, so'ngi yillarda boshlang'ich maktab o'qituvchilarini tayyorlash fakultetlaridagi o'rtacha 900 ta o'ringa 7000 ga yaqin abituriyent davogarlik qilgan. Ish haqqi boshqa sohalarga nisbatan kamroq ekaniga (masalan, boshlang'ich maktab o'qituvchisi magistr darajasiga ega boshqa mutaxasislarga qaraganda 22% kamroq, o'rta maktabning birinchi bosqich o'qituvchisi esa 15% kamroq maosh oladi) va stres darajasi o'sib borayotganiga qaramay,

ko'plab o'qituvchilar o'z ishidan qoniqish va sadoqat his qiladi: o'qituvchilarning faqat 10-15 % gina faoliyati davomida sohasini o'zgartiradi. Shuningdek, o'qituvchilarga nisbatan ota-onalar tomonidan ishonch va hurmatning yuqori ekanini ham alohida qayd qilib o'tilgan. Xanna Simolaning takidlashicha Finlandiya ta'lim islohotlaridagi yana bir muhim burilish nuqtasi bu 1990 yillarida o'qituvchilar va maktab ustidan rasmiy nazoratdan voz kechilganidir: "Maktablarni tekshirish, detallashtirilgan o'quv dasturlari, darsliklar va o'quv materiallarini rasman tasdiqlash, o'qituvchi har bir darsni yozib borishi shart bo'lgan jurnallar kabi barcha an'anaviy nazorat mexanizmlari yo'qoldi".

Ta'lim bo'yicha ekspert, Finlandiyaning ta'lim sohasidagi islohotlarga bag'ishlangan "Finnish Lessons" kitobi muallifi Pasi Salbergning yozishicha Finlandiyada o'qituvchilarni "qamchi va shirinlik" tamoyili asosida harakatga keltirishga intilishi yo'q va aksincha, ularga katta erkinlik (avtonomiya) beriladi. O'qituvchilar o'z o'quvchilarini baholab borishlari va ularning davomati haqida xisobotlarni taqdim etishlari kerak, ammo, muntazam baholashlar o'tkazib turadi, ammo bunda maktablarni bir-biri bilan taqqoslamaydi, bunday baholashga tushmagan maktablar esa o'qitishdagi muammolarni aniqlash va tuzatish uchun o'zining baholash usullaridan foydalanadi.

Umuman olganda nomarkazlashuv (destentralizatsiya) hamda munisipalitetlar va maktablardagi erkinlik (avtonomiya) berishini ko'plab tadqiqotchilar Fin tizimidagi islohotlarning eng muhim samaralaridan biri deya etirof etadi. Misol uchun, milliy o'quv dasturi maktabdagi har bir fan bo'yicha maqsad va vazifalarni, shuningdek, ta'lim muhiti va o'qitish va baholashga aloqador umumiy qoidalarni belgilab beradi, biroq munisipalitetlar va maktablar milliy dastur hamda mahalliy o'ziga xosliklar va o'z o'quvchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqib o'z dasturlarini ishlab chiqishi mumkin. O'zbekistonda umum ta'lim maktablari Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan dastur va rejalarga qat'iy rioya qilishi shart. Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi maktablarni akkreditatsiyadan o'tkazib ularning reytingini tuzadi, o'qituvchilar esa vazirlar mahkamasining qarori bilan tartibga solinadigan attestatsiya jarayonidan muntazam o'tib turishi talab etiladi.

Fin tajribasini tahlil qilarkan, Slberg shundan ogohlantiradi: Finlandiya ta'limidagi muvofaqiyatli islohotlar namunasi sifatida ko'p ko'rsatilsada bu Finlandiyaning o'zida 1970 yillardan boshlab qo'llab kelinayotgan g'oya va tamoyillar boshqa madaniy yoki ijtimoiy kontekstlar ish beradi degani emas.

Darhaqiqat ta'lim tizimi masalan, ta'lim standartlari va o'quv dasturlari, ta'lim muassasalari, baholash tizimi, tizimida ishlovchi mutaxassislar, ularni tayyorlash va qayta tayyorlash kabi bir-biri bilan o'zaro bog'liq unsurlardan iborat murakkab bir mexanizm bo'lib, ushbu zanjirning bir yoki bir necha pog'onasini ularni boshqa unsurlar bilan munosabatini inobatga olmay ko'chirish, kutilgan samarani bermasligi mumkin. Butun tizimni kontekst holda inobatga olmay ko'r-ko'rona ko'chirish ham salbiy oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkin deb takidlaydi kolumnist Komil Jalilov o'z ma'ruzasida. Bu maqolani yoritishda Komil Jalilovning materiallaridan ham foydalanildi.

ADABIYOTLAR

1. Григорий Петров. Оқ нилуфалар мамлакатиди. "Faktor Press" нашриёти, 2021.
2. Мирзиёев Ш.М.. Таълим-тарбия тизими: Тараққиётнинг янги bosqichi. "Халқ сўзи", 2020 йил, 30 октябрь
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж.4.-Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси"Давлат нашриёти, 2008.

Finlandiya ta'limining yoshlarni barkamol ruhda tarbiyalashdagi o'ziga xos xususiyatlari

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolamizda, Finlandiya ta'lim tizimining vujudga kelish taraqqiyoti, evolutsiyasi hamda tadrijiy rivojlanish taraqqiyoti batafsil yoritilgan. Shuningdek, Finlandiya ta'lim tizimining O'zbekiston ta'lim tizimi bilan o'ziga xosligi tahlil qilingan. Fin ta'limining boshqa ta'lim tizimlaridan o'ziga xoligi hamda rivojlanishdagi yutuqlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: fin ziyolilari, shved mustamlakachiligi, ta'limdagi erkinlik(avtonomiya), munitsipalitet.

Уникальные особенности финского образования в воспитании молодежи во всестороннем духе

Аннотация: В данной научной статье подробно освещены развитие, эволюция и постепенное развитие финской системы образования. Также была проанализирована уникальность финской образовательной системы и образовательной системы Узбекистана. Раскрыты уникальность финского образования от других образовательных систем и достижения его развития.

Ключевые слова: финские интеллектуалы, шведский колониализм, свобода образования (автономия), муниципалитет.

Unique features of Finnish education in educating youth in a comprehensive spirit

Abstract: This scientific article covers in detail the development, evolution and gradual development of the Finnish education system. The uniqueness of the Finnish educational system and the educational system of Uzbekistan was also analyzed. The uniqueness of Finnish education from other educational systems and the achievements of its development are revealed.

Key words: Finnish intellectuals, Swedish colonialism, freedom of education (autonomy), municipality.

НАУЧНАЯ КОНЦЕПЦИЯ С.К.КАМАЛОВА

Бердиев Ж. Т.

Нукусский Инновационный институт

Каждый народ с большим уважением и заботой относится к своей духовной культуре, старается всяческий содействовать ее развитию и обогащения, с осторожностью оберегает и стремится не потерять то наследие, которое было накоплено и сохранено на протяжении веков. Народ благодаря духовному труду своих представителей, увеличивает свое духовное богатство, создает новый духовный уровень, обогащенный на основе старого, при этом сохраняя свою национальную идентичность, и на ее основе объединяет своих представителей и воспитывает следующее поколение. Народ относится с большим уважением к тем, кто вносит свой вклад в этом благородном деле - в деле развития и сохранения духовной культуры.

В наши дни проводятся многочисленные научные и практические работы по изучению духовной культуры народа и ее всестороннему развитию. В этом деле, наряду с другими общественными науками, историческая наука приобретает большое значение. Глубокое изучение прошлого облегчает понимание истории народа, а также сложных явлений настоящего. В этом направлении историческая наука достигла заметных успехов. Были собраны исторические знания, дающие объективную оценку сложнейших процессов формирования каракалпакского народа как нации, а также охватывающие все аспекты общественной жизни до сегодняшнего дня. Конечно, такие научные результаты не были достигнуты сами по себе, легко и просто. Это результат упорного, неустанного труда многих ученых, целых коллективов, продукт непрерывной деятельности, продолжаемой каждым последующим поколением. Каждый историк работает в соответствии с определенной концепцией, опираясь на знания и опыт, полученные в научной среде. Ведь, роль научной концепции в развитии исторической науки огромна. Такие концепции формируются путем анализа всех исторических данных, связанных с определенной проблемой в изучаемый период, и предлагаются отдельным исследователем или группой исследователей. Подобная концепция должна охватывать всю информацию, относящуюся к проблеме. Любые явления, связанные с изучаемой проблемой, оцениваются и объясняются через эту концепцию. Каждая концепция развивается по мере углубления знаний, расширения базы данных накопленной информации, совершенствования исследовательских методов, появления новых взглядов и перехода общественного сознания на новый уровень. Обычно такие концепции реализуются крупными учеными, ведущими фигурами из мира науки, обладающими глубокими академическими знаниями, обширными фактологическими материалами и методическими знаниями. Историки объединяются вокруг таких выдающихся деятелей и их концепций для достижения значимых результатов.

Одним из таких выдающихся деятелей был ученый, внесший значительный вклад в изучении истории каракалпакского народа, академик Академии наук Узбекистана, доктор исторических наук, заслуженный деятель науки Узбекистана и Каракалпакстана, лауреат Государственной премии имени Бердаха - Сабыр Камалов. Его заслугу в становлении и развитии исторической науки трудно переоценить. Он, являясь одним из организаторов создания научных работ по истории народов Каракалпакстана, вместе с С.П. Толстовым, Т.А. Жданко и другими заложил основу исторической науки в этой области. С уверенностью можно сказать, что в исторической науке нет того направления, в которой бы не участвовал С.К. Камалов. Так же как и в другие проблемы исторической науки, он внес огромный вклад в исследование одной из самых сложных и важных проблем истории Каракалпакстана - формирования каракалпаков как нации.

В этой области исследования ряд ученых внесли свой вклад, проведя самоотверженную работу. Первопроходцем считается П.П. Иванов, Санкт-Петербургский ученый Института Востоковедения, который создал фундаментальный труд по изучению истории каракалпакского народа, который был опубликован Институтом Востоковедения в сборнике "Материалы по истории каракалпаков" под названием "Очерки истории каракалпаков" [Труды института Востоковедения т. VII, М.-1935]. В нем он глубоко проанализировал информацию о каракалпаках, содержащуюся в трудах предшествующих авторов, и пришел к выводу, что по вопросу формирования каракалпакского народа или их средневековой истории нет достаточного исторического материала для какого-либо заключения. Он критически подходит к мнению предшествующих историков, в том числе Ховорса [History of the Mongols, part II.] и Вамбери, о том, что каракалпаки связаны с средневековыми печенегами, упоминаемыми в русских летописях XI века, а затем с ногаями, жившими на берегах Волги и Урала. В связи с этим историки после П.П. Иванова на некоторое время оставили без внимания вопрос о наличии этногенетических связей между печенегами и каракалпаками.

Огромный вклад был внесен выдающийся историком С.П. Толстовым в изучении проблемы формирования каракалпакского народа. В результате многолетних археологических исследований, проведенных им в Хорезмском оазисе, он стал одним из ведущих ученых в изучении истории Хорезма и Каракалпакстана, особенно ранних периодов их истории. На основе археологических, этнографических, антропологических и других материалов, собранных Хорезмской археологической экспедицией под его руководством и введенных в научный оборот членами экспедиции, он разработал концепцию по вопросу формирования каракалпакского народа и представил эту концепцию в докладе, сделанном на научной сессии Академии наук, состоявшейся в Ташкенте в 1942 году. В ней он охарактеризовал территориальные и хронологические рамки формирования каракалпакского народа [Советская этнография т. VI-VII, 1947].

Согласно этой концепции, формирование каракалпакского народа как этноса было длительным процессом, его ранний этап относится к периоду сако-массагетских племен, описанных греческим историком Страбоном. Следующий этап формирования каракалпакского народа датируется IX-XI веками, и считается, что печенеги, жившие в то время вокруг Аральского моря, сыграли важную роль в становлении каракалпаков.

Согласно концепции С.П. Толстова, окончательное формирование каракалпакского народа как этноса происходило в период после монгольского завоевания Центральной Азии и охватывает период до XVI века.

Эта концепция была полностью подтверждена научной сессией 1942 года, и историки в своих научных исследованиях стали работать в соответствии с этой концепцией, изучая проблемы, содержащиеся в этой концепции, и результаты этих исследований, в свою очередь, доказали правильность намеченного.

Один из ведущих ученых, стоявших у истоков изучения этнографии каракалпаков и внесших значительный вклад в эту область, Т.А. Жданко полностью подтвердила концепцию формирования каракалпакского народа, предложенную С.П. Толстовым, и подкрепила ее этнографическими материалами. В

частности, она привела множество этнографических данных, свидетельствующих о том, что каракалпаки с древнейших времен были связаны с народами, жившими вокруг Аральского моря. [Жданко, 1950, с. 96.]

С.К. Камалов, следуя концепции, предложенной его наставником С.П. Толстовым, проводил исследования и развивал его идеи по вопросу формирования каракалпакского народа. Он, опираясь на достижения истории, археологии, этнографии, фольклористики, лингвистики и других наук к тому времени и, используя их данные в своей разработке, создал новую концепцию, и поднял историческую науку на новый уровень.

Эта концепция, предложенная С.К. Камаловым, впервые была выдвинута в его объемной статье "О родине каракалпаков и их формировании как народ", опубликованной в газете "Еркин Каракалпакстан". Затем эта статья в расширенном виде была опубликована в научном журнале «Вестник» Каракалпакского отделения Академии наук Республики Узбекистан, под названием "К вопросу формирования каракалпакского народа [Вестник ККОАНРУз, 1997]. В 1997 году эта концепция получила дальнейшее развитие и была опубликована в монографии под названием "Формирование каракалпакского народа и история его государственности" [Камалов]. В этой работе С.К. Камалов опирался на достижения исторической науки, в частности, на труды таких ученых, как П.П. Иванов, Т.А. Жданко, Г.А. Феодоров-Давыдов, С.А. Плетнева, В.Н. Ягодин, М. Мамбеттуллаев, Т. Ходжайов, Н. Рысмазоров, Л.С. Толстова, Х. Есбергенов, Д.С. Насыров, Х. Хамидов, а также турецкого ученого Зия Куртера, венгерского ученого Г. Вамбери и других. Он проделал объемную работу по систематизации разрозненных мнений и представлений о ранней истории каракалпаков, объединив их в единую целостную систему знаний. И она стала новой концепцией в исторической науке Каракалпакстана.

Согласно этой концепции, каракалпаки являются потомками жителей Приаралья, и сформировались как этнос в результате смешения племен и народов, живших в дельтах Амударьи и Сырдарьи. Самыми древними предками каракалпаков считаются сако-массагетские племена. Этнические объединения, жившие в Приаралье и являвшиеся потомками сако-массагетов: огузы, печенеги, народ кердерцев - все они считаются предками каракалпаков. В период печенежского политического объединения сформировалось этническое ядро каракалпаков. Название "каракалпаки" появилось в период кипчаков и было применено к народу, происходившему от печенежских и огузских племен. Каракалпаки как народ успели сформироваться до того, как монголы захватили город Ургенч. В результате монгольских завоеваний они были вынуждены переселиться из Приаралья в другие места. Часть каракалпаков переселилась в районы, где ранее жили печенеги - к рекам Урал и Волга. Другая часть поселилась на юго-западе и западе Арала, на берегах Узбоя и Сарыкамыша.

В период монгольского господства каракалпаки входили в состав улуса Джучи, а затем в состав Золотой Орды, образовавшейся на этой территории. После распада Золотой Орды они оказались в составе Ногайского и Узбекского ханств. В это же время каракалпаки, жившие с XI века на берегах реки Рось (Черные клубуки), были переселены на Волгу. С XVI века каракалпаки, входившие в состав Ногайского и Узбекского ханств, начали возвращаться на свою историческую родину. Сначала они переселились в долину Сырдарьи, а затем, с началом впадения Амударьи в Аральское море, стали возвращаться на берега Амударьи. Здесь они снова воссоединились с каракалпаками, которые не покидали эти места. Однако не все каракалпаки вернулись к Аральскому морю. Часть из них осталась на Волге, часть – в долине Сырдарьи, часть – в Ферганской долине, часть – в южных районах современного Узбекистана, а часть – в Афганистане.

Как уже упоминалось, данная концепция была разработана на основе концепции С.П. Толстова, дополняя и развивая ее. В ней, в основном, укрепляются тезисы, предложенные С.П. Толстовым. Вместе с тем, в ней есть и ряд новых моментов. В приведенной концепции С.П. Толстова в вопросе об исторической родине каракалпаков и о территориальных рамках, где происходило формирование их как народность, показывается обширная область Приаралья, в дельте Амударьи и Сырдарьи. С.К. Камалов подтверждает этот тезис и приводит множество новых материалов, указывающих на роль разных племен, исконно проживавших в Приаралье и дельтах Амударьи и Сырдарьи, в формировании каракалпаков как народа, а также на то, что этот регион является их исконной родиной. В ней также приводятся доказательства и пояснения по вопросам, которые ранее не были полностью закрыты. Один из таких вопросов - это вопрос о том, что каракалпаки, как часто упоминается в исторических источниках, жили в нескольких географических регионах.

С.К. Камалов связывает этот вопрос с разделением каракалпаков на группы и их миграциями из своей прародины, и с тем что этих миграций было два. В ходе этих миграций каракалпаки, утратив свое политическое единство, разделились на группы, в соответствии с условиями того времени, и некоторые из них, отделившись от основной массы, поселились в определенных регионах. В результате образовались группы каракалпаков, проживающие в нескольких географических местах. Первая миграция произошла в период формирования каракалпаков, когда их предки, печенежские и огузские племена, а также кыпчаки, переселились на берега реки Рось и стали там известны как "черные клубуки" (каракалпаки). Вторая миграция произошла в XIII веке в результате изменения экологической ситуации в Приаралье и дельте Амударьи.

С.К. Камалов приводит данные о том, что после завоевания Хорезма Чингисханом, местные каракалпаки и хорезмийский народ оказались в тяжелом положении. В результате, часть каракалпаков переселилась в районы Волги, в земли Золотой Орды. После распада этого государства, часть каракалпаков вошла в состав Узбекского, а часть - в состав Ногайского ханств. В процессе возвращения на Аральские земли, они пережили сложные политические изменения. Эти обстоятельства привели к тому, что каракалпаки поселились в нескольких географических местах. Вместе с тем, главный новаторский момент этой концепции заключается в том, что она выдвигает тезис о том, что каракалпаки как народ сформировались до монгольского завоевания. С.К. Камалов приводит убедительные доводы в доказательство этому тезису. Он показывает явную связь "черных клубуков"

с каракалпаками, которая ранее игнорировалась в предыдущих концепциях. Он выдвигает мнение, что каракалпаки как народ сформировались до монгольского завоевания, и показывает, что эти "черные клобуки" были частью каракалпаков. Таким образом, данная концепция впервые пролила свет на такие события, как миграция "черных клобуков" к Волге, их воссоединение с каракалпаками, прибывшими с Аральского побережья, в состав Золотой Орды, а затем их возвращение обратно на Аральское побережье. Эти миграции считаются возвращением каракалпаков на свою прародину.

Сегодня эта концепция стала путеводной звездой в каракалпакской исторической науке. На ее основе была создана "Новая история Каракалпакстана". Таким образом, в результате обобщения накопленных знаний, объединения разрозненных исторических данных, сопоставления сложных исторических событий друг с другом и дополнения их новыми знаниями было создано целостное понятие или система понятий о формировании каракалпакского народа. Эти результаты были достигнуты благодаря работе С.К. Камалова. Ему удалось внести огромный вклад в решение и многих других проблем истории Каракалпакстана. Но и этим не ограничивается его заслуга. Он также внес огромный вклад на развитие многих областей науки в Каракалпакстане в качестве организатора и управляющего. Его энергия и вся его жизнь, посвященное в науке, были плодотворны. Став крупной научной фигурой, он достойно продолжал путь, проложенный его наставником С.П. Толстовым, и вместе с этим ему удалось расширить этот путь, превратив его в широкий проспект. Тем самым, заложил основу будущему науки Каракалпакстана, и передал эстафету молодому поколению ученых. Мы с особой гордостью помним те времена, когда мы имели возможность общаться с такой выдающейся личностью непосредственно, и невольно у нас в сознании возникает картина тогдашнего общения, и нам становится приятно от этого. Нам особенно приятно, когда вспоминаем о ярких моментах нашего общения, когда мы получали от него положительную реакцию на свои первые шаги в научной деятельности. Его добрый одобряющий взгляд казался нам самой большой наградой.

Хусусан, Ўзбекистон Республикаси “Давлат божи тўғрисида”ги Қонуннинг 5-моддасига кўра, фуқаролик ишлари бўйича судларнинг ҳал қилув қарорлари, иш юритишни тугатиш тўғрисидаги, даъвони кўрмасдан қолдириш тўғрисидаги, суд жарималарини солиш тўғрисидаги ажримлар устидан бериладиган апелляция, кассация шикоятларидан ва назорат тартибидаги шикоятлардан, ҳакамлик судининг ҳал қилув қарорлари юзасидан низолашиш ҳақидаги, ҳакамлик судининг ҳал қилув қарорларини мажбурий ижро этиш учун ижро варақаси бериш тўғрисидаги ишлар юзасидан фуқаролик ишлари бўйича суд ажримлари устидан бериладиган апелляция, кассация шикоятларидан ва назорат тартибидаги шикоятлардан, чет давлат судининг ҳамда чет давлат ҳакамлик судининг (арбитражининг) ҳал қилув қарорини тан олиш ва ижрога қаратиш тўғрисидаги ишлар юзасидан фуқаролик ишлари бўйича суд ажримлари устидан бериладиган апелляция, кассация шикоятларидан ва назорат тартибидаги шикоятлардан давлат божи ундирилиши белгиланган.

Ваҳоланки, Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик процессуал кодексига кўра, ишларни вилоят судларида ва уларга тенглаштирилган судларда апелляция ёки кассация ва тафтиш тартибида кўриш босқичлари мавжуд, бироқ суд қарорларига нисбатан келтирилган шикоятларни кўрадиган назорат инстанцияси мавжуд эмас. Чунки, 2023 йил 25 декабрда қабул қилинган Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик процессуал кодексига киритилган ўзгартириш ва қўшимчаларга кўра, суд қарорларига нисбатан келтирилган шикоятлар апелляция, кассация ва тафтиш инстанциясида кўриб чиқилади. Бундан ташқари, ФПКнинг 419¹⁰-

моддасида тафтиш тартибидаги шикоятни(протестни) қайтариш асослари кўрсатилган.

Жумладан, мазкур модданинг 1-бандига кўра, тафтиш тартибидаги шикоят(протест) имзоланмаган бўлса ёки уни имзолаш ҳуқуқига эга бўлмаган шахс томонидан ёхуд мансаб мавқеи ёки фамилияси ва исм шарифининг бош ҳарфлари кўрсатилмаган шахс томонидан имзоланган бўлса тафтиш инстанциясининг судьяси тафтиш шикоятини қайтаради. Тафтиш тартибидаги шикоятни (протестни) қайтариш тўғрисидаги ажримда шикоятни(протестни) қайтариш асослари кўрсатилади, шикоятни беришда тўланган давлат божини қайтариш ҳақидаги масала ҳал этилади. Шунингдек, ФПКнинг 419⁶-моддаси 5-қисмига кўра, тафтиш тартибидаги шикоят(протест) биринчи инстанция судининг ҳал қилув қарори, ажрими, қарори қонуний кучга кирган кундан эътиборан бир йил ичида берилади. Агар, даъвогар суднинг ҳал қилув қарори, ажрими, қарори қонуний кучга кирган кундан эътиборан уч йил ўтганидан кейин шикоят келтириши мумкин. Бундан ҳолларда судья тафтиш тартибидаги шикоятни қабул қилишни рад қилади.

Чунки, ФПКнинг 419¹¹-моддаси 1-қисмининг 6-бандига кўра, тафтиш шикоятни(протестни) бериш муддати ўтказиб юборилган ва ўтказилган муддатни тиклаш рад этилган бўлса, тафтиш инстанцияси судининг судьяси тафтиш тартибидаги шикоятни(протестни) иш юритишга қабул қилишни рад этиши белгиланган.

Шунингдек, судья тартибидаги шикоятни(протестни) иш юритишга қабул қилишни рад этиш тўғрисидаги ажримда давлат божни қайтариш масаласини ҳал этиши белгиланган. Ўзбекистон Республикаси “Давлат божни тўғрисида”ги Қонуннинг 18-моддасининг 3 ва 4-бандларида эса, апелляция, кассация ва назорат шикояти қайтарилганда ёки уни қабул қилиш рад этилганда, давлат божни тўланган даъво аризаси (ариза, шикоят) ёки апелляция, кассация ва назорат шикояти судга келиб тушмаганда қайтарилиши белгиланган.

Бирок, ушбу моддада тафтиш тартибида келтирилган шикоятни қайтарилиши кўрсатилмаган.

Бундан ташқари, мазкур Қонуннинг 19-моддасида судларга бериладиган даъво аризаларидан, алоҳида тартибда юритиладиган ишлар бўйича аризалардан, маъмурий-ҳуқуқий муносабатлардан келиб чиқадиган ишлар бўйича судларга бериладиган шикоятлардан, судларнинг ҳал қилув қарорлари устидан апелляция, кассация ва назорат тартибидаги шикоятлардан, шунингдек судлар томонидан ҳужжатларнинг кўчирма нусхаларини берганлик учун давлат божни қандай тартибда ундирилиши белгиланган.

Бирок, 19-моддада ҳам тафтиш тартибида келтирилган шикоятлар бўйича қандай тартибда давлат божни ундирилиши белгиланган. Шунингдек, “Давлат божни тўғрисида”ги Қонуннинг иловаси бўлган “Давлат божни ставкалари”да мулкӣ ва номулкӣ талаблар бўйича давлат божини тўлашнинг миқдорлари кўрсатилган бўлиб, ушбу ҳолат судларда давлат божини ҳисоблашда муҳим аҳамиятга эга. Жумладан, “Давлат божни ставкалари”нинг 1-банди “з” кичик бандида апелляция, кассация ва назорат тартибида берилган шикоятлардан даъво аризаси ёки бошқа аризалар, шикоятлар берилганда тўланадиган ставканинг 50 фоизи миқдорида давлат божни тўланиши белгиланган. Хусусан, даъвогар А. исмли шахс жавобгар Б.исмли шахсга нисбатан 10 000 000 сўмлик мулкни олиш юзасидан судга даъво ариза берган бўлса, 400 000 сўм миқдорида давлат божни тўлайди.

Чунки, “Давлат божни ставкалари”нинг 1-банди “а” кичик бандида мулкӣ хусусиятга эга даъво аризалардан даъво баҳосининг 4 фоизи миқдорида давлат божни тўланиши белгиланган. Агар даъвогарнинг даъво талаби қаноатлантиришдан рад қилинса, даъвогар ушбу суднинг ҳал қилув қарорига нисбатан апелляция тартибида шикоят келтирса, даъво ариза беришда тўланган 400 000 сўмнинг 50 фоиз бўлган 200 000 сўмни давлат божни сифатида тўлайди. Чунки, “Давлат божни ставкалари”нинг 1-банди “з” кичик бандида апелляция, кассация ва назорат тартибида берилган шикоятлардан даъво аризаси ёки бошқа аризалар, шикоятлар берилганда тўланадиган ставканинг 50 фоизи миқдорида давлат божни тўланиши белгиланган.

Агар, даъвогар апелляция инстанциясининг ажримидан норози бўлиб, тафтиш тартибида шикоят келтирса, “Давлат божни ставкалари”нинг 1-банди “з” кичик бандида ушбу ҳолат кўрсатилмаган.

Шу сабабли, Ўзбекистон Республикасининг “Давлат божни тўғрисидаги Қонуннинг 5-моддасидаги, 18-моддасининг 3 ва 4-бандларидаги, 19-моддасидаги ҳамда “Давлат божни тўғрисида”ги қонуннинг иловаси бўлган “Давлат божни ставкалари”нинг 1-банди “з” кичик бандидаги “назорат” деган сўзларни тафтиш деган сўзларга алмаштириш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикасининг “Суд қарорларининг қонунийлиги, асослилиги ва адолатлилигини текшириш тартиби такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик процессуал кодексига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги Қонуни.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Давлат божни тўғрисида”ги Қонуни.
3. Ўзбекистон Республикаси Судьялар Олий кенгаши, “Фуқаролик ишлари бўйича давлат божини белгилаш ва ундириш тартиби” амалий қўлланма.
4. Фуқаролик процессуал кодекси.

Фуқаролик судларида суд қарорларига нисбатан шикоят келтиришда давлат божни масалалари

Резюме. Мазкур мақолада фуқаролик судлари томонидан чиқарилган ҳал қилув қарорлари, қарор, ажримларига нисбатан шикоят келтиришда давлат божини ундириш масалалари, амалиётдаги муаммолар ва уларнинг счимлари кўриб чиқилади.

Калит сўзлар: давлат божни, тафтиш инстанцияси, тафтиш тартибида келтирилган шикоятини қайтариш, рад қилиш.

Вопросы, связанные с государственной пошлиной при подаче жалобы на судебные решения в суды по гражданским делам

Резюме. В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с принятием решения, его обжалованием, судебным разбирательством, судебным разбирательством, судебным разбирательством или судебным разбирательством.

Ключевые слова: государственная пошлина, следственная инстанция, расследование организовано, жалобы отклонены.

Resume. This article discusses issues related to decision-making, its appeal, judicial proceedings, judicial proceedings, judicial proceedings or judicial proceedings.

Keywords: state duty, investigative authority, investigation organized, complaints rejected.

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ СОҲАСИДА УЗОҚ МУДДАТЛИ ЕР ИЖАРА ШАРТНОМАСИНИ БЕКОР ҚИЛИШ ЮЗАСИДАН СУД АМАЛИЁТИ

Маткурбанов Р.Ж., Ҳайитбоев Б.И.

Шовот туманлараро иқтисодий ишлар суди

Амалиётда туман ҳокимлиги судга даъво аризаси билан мурожаат қилиб, фермер хўжалиги ўртасида тузилган ер участкасини узоқ муддатли ижарага олиш шартномасини муддатидан олдин бекор қилишни сўрайди. Суд мажлисида даъвогар вакили даъво талабларида ер ижара шартномасининг тегишли бандига асосан ер участкаси жавобгарга “Пахтачилик-Ғаллачилик” қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш учун берилганлиги ва шартномага асосан, жавобгар пахта ҳосилини етиштиришда, ердан самарасиз фойдаланиб келганлигини, яъни ижарага олувчининг айби билан мунтазам равишда (уч йил мобайнида) нормативдаги кадастр баҳосидан кам миқдорда пахта ҳосил олинганлиги сабабли, суддан даъвони тўлиқ қаноатлантиришни сўрайди. Суд мажлисларида жавобгар вакили даъво талабига эътироз билдириб, даъвогар жавобгарга ер ижара шартномасини муддатидан олдин бекор қилишни таклиф этиб, жавобгар таклиф хатга рад жавобни бермаган бўлсада даъвогар шартноманинг низони судгача ҳал қилиш тартибига риоя этмаганлигини, жавобгарга тегишли ер майдонларида томчилатиб суғориш технологияси ўрнатилганлиги ва Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 11 декабрдаги “Қишлоқ хўжалигида сувни тежайдиган технологияларни жорий этишни янада жадал ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4919-сонли қарори 3-бандининг учинчи хатбошисига мувофиқ, сувни тежайдиган технологиялар жорий қилинган ер майдонлари камида 5 йил мобайнида мақбуллаштирилмаслиги тўғрисида норма мавжуд бўлсада, жавобгар билан тузилган ер участкасини узоқ муддатга ижарага бериш шартномасини бекор қилиш тўғрисида судга мурожаат қилинганлигини таъкидлаб, даъвогарнинг даъвосини рад қилишни сўрайди [1].

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 24.02.2021-йил “Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлардан фойдаланиш ва муҳофаза қилиш тизимини такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-5006-сонли [2] Қарорининг 6-бандига асосан туман ҳокимлигининг “Туманда мавжуд ер майдонларидан самарали фойдаланиш ва йил ҳосили учун қишлоқ хўжалиги экинларини оқилона жойлаштириш ва маҳсулот етиштиришнинг прогноз ҳажмлари тўғрисида”ги қарори ижросини таъминлаш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022-йил 14-январдаги “Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерларда мониторинг ишларини амалга ошириш, ерларни муҳофаза қилиш ва ер тузиш фаолиятини тартибга солиш норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида”ги 22-сонли қарори ҳамда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2003-йил 4-сентябрдаги 383-сон қарори билан тасдиқланган “Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштирувчилари билан тайёрлов, хизмат кўрсатиш ташкилотлари ўртасида шартномалар тузиш, уларни рўйхатдан ўтказиш, бажариш, шунингдек уларнинг бажарилишини мониторингини олиб бориш тартиби тўғрисида”ги Низомнинг 84-бандига асосан қишлоқ хўжалиги органларига тайёрлов ва хизмат кўрсатиш ташкилотлари томонидан шартнома мажбуриятларининг бажарилиши устидан ўз ваколатлари доирасида назорат қилиш ва мониторинг олиб бориш вазифаси юклатилганлигини инобатга олиб, туман қишлоқ хўжалиги бўлими ва тегишли ташкилот раҳбарлари томонидан туманда мавжуд ер ва сув ресурсларидан самарали фойдаланиш, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштиришни кўпайтириш, озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш ва экспорт ҳажмларини янада ошириш, техник, бошқоқли дон, дуккакли, мойли, полиз, сабзавот, картошка ва озуқа экинларини оқилона жойлаштириш, мевали боғ, узум ва туззорлар ташкил этиш ҳамда маҳсулот етиштирувчиларнинг иқтисодий ва молиявий барқарорлигини таъминлаш мақсадида жавобгарнинг ер майдонларида мониторинг ўтказиш ваколати берилган. Амалиётда ушбу текширув натижалари тегишли далолатнома билан, расмийлаштирилиб, унда фермер хўжалиги ўзининг хўжалик фаолиятини самарасиз ва паст рентабеллик билан юритиб келаётганлиги қайд этилади. Мазкур далолатнома текширувда иштирок этган шахслар ва жавобгар вакили фермер хўжалиги раҳбари томонидан имзоланиши шартлиги, агар фермер хўжалиги вакили имзо чекишдан бош тортса туман фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари кенгашининг вакили ва иккита ҳолис гувоҳлар томонидан бу ҳақида ёзма кўрсатилиб улар имзоси билан тасдиқланади.

Туман қишлоқ хўжалиги бўлими туман ҳокимлигига мурожаат қилиб, фермер хўжалиги билан тузилган тузилган ижара шартномаси шартлари қўпол равишда бузганлиги учун ваколати доирасида қонуний чора қўриш сўралади. Туман қишлоқ хўжалиги томонидан мониторинг ўрганиш натижалари бўйича тузилган далолатнома ва тўпланган ҳужжатлар асосида туман ҳокимлиги томонидан мурожаат билан фермер хўжалиги фаолияти юзасидан туман фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари Кенгашидан тегишли ҳулосасини бериш сўралади. Туман фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари кенгашининг туман ҳокимлиги томонидан тақдим этилган ҳужжатлар ва материалларни кўриб чиқиш натижалари бўйича ҳулосасида ер майдонларини туман захирасига қайтариш ва фермер хўжалиги билан тузилган ер участкасини узоқ муддатли ижарага олиш шартномасини бекор қилиш масаласини Халқ депутатлари туман Кенгаши сессиясида, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 201 йил 31 январдаги “Фермер хўжалиги ер майдонларини

мақбуллаштириш ва уни тугатиш тартиби тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 22-сонли Қарорига асосан тасдиқланган Низомда белгиланган тартибда кўриб чиқирилиши тақлиф қилади.

Шундан сўнг туман фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари кенгаши ўз хулосасини ҳужжатлар ва материаллар билан биргаликда Комиссияга юборади. Комиссия томонидан тарафлар ўртасидаги ер участкасини ижарага бериш шартномасини бекор қилиш тўғрисидаги хулосасига келиниб, ушбу хулоса барча ҳужжатлар билан биргаликда кўриб чиқиш учун халқ депутатлари туман Кенгашига юборилади.

Халқ депутатлари туман Кенгаши Комиссия томонидан тақдим этилган ҳужжатларни кўриб чиқиб, фермер хўжалиги билан тузилган ер ижара шартномасини муддатидан олдин бекор қилиш юзасидан судга даъво аризаси киритиш ҳақида қарор қабул қилинган тақдирда, ушбу қарор Комиссия томонидан тақдим этилган ҳужжатлар билан биргаликда туман ҳокимига юборилади. Туман ҳокимлиги тақлиф хати билан фермер хўжалигига мурожаат қилиб, ер ижара шартномасини бекор қилишни тақлиф этади. Бироқ амалиётда, фермер хўжалиги томонидан огоҳлантириш ва тақлиф хатлари жавобсиз ва ижросиз қолдирилади.

Шундан кейин, даъвогар даъво талаблари билан судга мурожаат қилади. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2013 йил 31 январдаги 22-сонли қарори билан тасдиқланган “Фермер хўжалигининг ер майдонини мақбуллаштириш ва уни тугатиш тартиби тўғрисида”ги Низомда [3] фермер хўжалиги томонидан шартнома интизоми бузилишининг, шунингдек, хўжалик фаолияти самарасиз юритилишининг аниқланган ҳолатлари асосида фермер хўжалиги ер участкаси майдонини мақбуллаштириш ва уни тугатиш тартиби белгиланган. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2015 йил 15 декабрдаги “Фермер хўжаликларини юритиш учун берилган ер участкалари майдонларини мақбуллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 362-сонли Қарорининг 4-банди билан 2016 йил 1 январдан бошлаб фермер хўжаликларини юритиш учун ер участкаларини бериш ва уларни олиб қўйиш ҳудудий фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари кенгашларининг ва ер участкалари бериш (реализация қилиш) комиссиялари хулосасига кўра халқ депутатлари туман Кенгашларининг қарори асосида амалга ошириш тартиби белгиланган. Ер кодексининг 36-моддаси биринчи қисми 6-7-бандларида ер участкасидан белгиланганидан бошқа мақсадларда фойдаланилганида, ер участкасидан оқилона фойдаланилмаганда, бу кишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлар учун ҳосилдорлик даражаси уч йил мобайнида нормативдан (кадастр баҳосига кўра) паст бўлишида ифодаланганда бутун ер участкасига ёки унинг бир қисмига эгалик қилиш ҳуқуқи ёхуд ундан доимий ёки муддатли фойдаланиш ҳуқуқи, шунингдек ер участкасини ижарага олиш ҳуқуқи бекор қилиниши белгиланган.

Одатда тарафлар ўртасида тузилган ер участкасини узоқ муддатли ижарага бериш шартномасида, ердан белгиланган мақсадда фойдаланилмаганда, шу жумладан давлат эҳтиёжлари учун контракция шартномасида назарда тутилмаган кишлоқ хўжалиги экинлари экилганда, самарасиз фойдаланилганда, яъни ижарага олувчининг айби билан мунтазам равишда (уч йил мобайнида) нормативдаги кадастр баҳосидан кам миқдорда ҳосил олинганда ер участкасини ижарага бериш шартномаси бекор қилиниши мумкинлиги белгиланган.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2014 йил 18 августдаги 235-сон қарори билан тасдиқланган “Кишлоқ хўжалиги экин майдонларининг норматив қийматини аниқлаш тартиби тўғрисида”ги Низомнинг 2-илловасида тупроқнинг бир бонитет балига нисбатан норматив ҳосилдорлиги белгиланган бўлиб, унга кўра суғориладиган ерларда ғўза учун бир бонитет балига норматив ҳосилдорлик 0,4 центнер, бошоқли дон экинларига 0,6 центнер, тамакига 0,45 центнер, шוליға 0,7 центнер, бир йиллик ўтлар (яшил ем-хашак)га 3,0 центнер, сабзавотларга 3,0 центнер, полиз маҳсулотларига 2,7 центнер, ўтган йиллардаги бедага 2,0 центнер, дон учун маккажўхориға 0,75 центнер, ем-хашакбоп илдизмевали ўсимликларга 9,0 центнер, картошкаға 2,0 центнер, боғлар (ўрта ҳисобда)ға 0,6 центнер, тоқзорлар (ўрта ҳисобда)ға 0,8 центнер қилиб белгиланган.

Судлар мазкур масалада тумани кишлоқ хўжалиги бўлимининг маълумотномасига кўра, юқорида қайд қилинган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 18.08.2014-йилдаги “Кишлоқ хўжалиги экин майдонларининг норматив қийматини аниқлаш тизимини такомиллаштириш тўғрисида”ги 235-сонли қарорига асосан фермер хўжалигининг уч йил мобайнидаги етиштирган маҳсулот ҳосили нормативдаги кадастр баҳоси бўйича солиштириш ўрганилиб центнердан кам ҳосил олиб, кейинги уч йил давомида ҳосилдорлик даражаси норматив кадастр баҳосидан паст бўлишига йўл қўйиб келинганлигини аниқлаши лозим.

Шунингдек, айрим суд жараёнларида жавобгар вакили даъвогар томонидан жавобгарға ҳар йилги экин ҳосилини жойлаштиришда ихтиёрий танлаш ҳуқуқи берилмаганлиги тўғрисида ўз эътирозини келтириб ўтади.

Мазкур эътироз юзасидан, даъвогар ўз қарши эътирозини билдириб, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Кишлоқ хўжалиги экинларини оқилона жойлаштириш тартиби тўғрисида”ги 2020 йил 24 августдаги 505-сон қарори билан тасдиқланган Низомнинг 14-бандига кўра, туман (Қувасой шаҳар) ҳокимликлари ҳар йили 1 июлға қадар кишлоқ хўжалиги экинларини мустақил жойлаштириш бўйича кишлоқ хўжалиги ерларидан фойдаланувчиларнинг тақлифларини «CropAgro» АТ орқали қабул қилиниши; кишлоқ хўжалиги ерларидан фойдаланувчиларнинг тақлифлари туман (Қувасой шаҳар) кишлоқ хўжалиги бўлимлари, ирригация бўлимлари ҳамда фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари кенгашлари томонидан кўриб чиқирилишининг таъминланиши; бунда кишлоқ хўжалиги ерларидан фойдаланувчиларнинг экинларни мустақил жойлаштириш бўйича тақлифлари уларнинг ихтисослашувига мослиги, экин турлари бўйича контур яхлитлиги таъминланганлиги, сув билан таъминланганлиги даражаси, охириги 3 йилда олинган ҳосилдорлиги ва ўтмишдош экин турларига мослиги таҳлил қилиниши белгиланганлиги кўрсатиб ўтади.

Шунингдек, айрим ер ижара шартномасини бекор қилиш бўйича иқтисодий ишларида жавобгар вакилининг, ер майдонларида томчилатиб суғориш технологиясини ўрнатилганлиги ва Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 11 декабрдаги “Кишлоқ хўжалигида сувни тежайдиган

технологияларни жорий этишни янада жадал ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4919-сонли қарори 3-бандининг учинчи хатбошисига мувофиқ, сувни тежайдиган технологиялар жорий қилинган ер майдонлари камида 5 йил мобайнида мақбуллаштирилмаслиги сабабли, жавобгар билан тузилган ер участкасини узоқ муддатга ижарага бериш шартномасини бекор қилиш мумкин эмаслиги тўғрисидаги ҳимоя фикрида билдирган эътирозига, суд қуйидагиларга қўра қўшилмаслиги мумкин:

биринчидан, жавобгар сувни тежайдиган технологияларни жорий этишга сарфланган харажатларнинг бир қисmini қоплаш учун субсидия ажратишга қўмаклашувчи туман ишчи гуруҳига берган аризасида мазкур технологиядан камида 5 йил муддатда мақсадли ва самарали фойдаланишга қафолат берган бўлсада, “Сувхўжаликназорат” инспекцияси бошқармаси томонидан туман ҳокимига юборилган хатига қўра, жавобгар пахта экинларини сўғориш жараёнида томчилатиб сўғориш технологияларидан фойдаланмасдан анъанавий сўғоришга йўл қуйганлиги, Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 23 февралдаги 95-сонли Қарори билан тасдиқланган “Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчиларнинг сувни тежайдиган технологияларни жорий этиш бўйича харажатларининг бир қисmini қоплаш ва берилган субсидияни қайтариш тартиби тўғрисида”ги Низомнинг 37-бандида, Сувни тежайдиган сўғориш технологиясини жорий қилишда давлат бюджетидан субсидия олган талабгорлар сувни тежайдиган сўғориш тизимидан 5 йилдан кам бўлмаган муддатда мақсадли ва самарали фойдаланишлари лозимлиги. Сувни тежайдиган сўғориш технологияси жорий қилинган майдонга лойиҳада белгиланган экиндан бошқа экин жойлаштирилганда, ушбу экинни сўғоришда мавжуд сувни тежайдиган сўғориш технологиясидан тўлиқ фойдаланиш имкони бўлмаган тақдирда, унинг асосий қисмидан (сув тиндиргич, насос станцияси, филтрлар, сувни етказувчи ва тақсимловчи қувур тармоғи ва бошқа асосий қисмларидан) фойдаланиш лозимлиги. Бунда мавжуд сувни тежайдиган сўғориш технологиясини ишлатмай, анъанавий сўғориш усулида (экин майдонида ўқ ариқ ва шох ариқлар олиб, эгат билан сўғориш) сўғоришга йўл қўйилмаслиги (шўр ювиш, яҳоб ва нам суви бериш бундан мустасно)гини таъкидлаб, юқоридаги Низом талабларидан келиб чиқиб, аниқланган тартиб бузулишларни зудлик билан бартараф этиш бўйича белгиланган тартибда чора қўришни сўралганлигини инобатга олиши;

иккинчидан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Қишлоқ хўжалигида ер ва сув ресурсларидан самарали фойдаланиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2019 йил 17 июндаги ПФ-5742-сонли Фармонининг 4-банди иккинчи ва учинчи хатбошиларида, қишлоқ хўжалигида ер ва сув ресурсларидан самарали фойдаланиш Концепцияни амалга ошириш доирасида ер майдонларини фойдаланишга киритишда: ердан фойдаланувчиларга **қишлоқ хўжалиги экинларини мустақил жойлаштириш**, ерга ишлов бермасдан экин экиш ва ерларни иккиламчи ижарага бериш ҳуқуқи берилади; **мазкур ер майдонлари мақбуллаштирилмайди**, ер участкаси ёки унинг бир қисми жамоат эҳтиёжлари учун олиб қўйилиши Ўзбекистон Республикасининг «Ер участкаларини компенсация эвазига жамоат эҳтиёжлари учун олиб қўйиш тартиб-таомиллари тўғрисида»ги Қонунида белгиланган тартибда амалга оширилади. Бироқ, вилоят қишлоқ хўжалиги бошқармасининг тегишли маълумотномаси асосида “Қишлоқ хўжалигида ер ва сув ресурсларидан самарали фойдаланиш тўғрисидаги Концепцияни амалга ошириш” доирасида қайта фойдаланишга киритиладиган ер майдонлари фермер хўжалигида **мавжуд ёки мавжуд эмаслиги тўғрисида маълумотнома сўралиши**. Мазкур ҳолатда, агар тегишли ташкилот фермер хўжалигида сувни тежайдиган ер майдони мавжуд эмаслиги ҳақида маълумот берилса, суд жавобгарда “Қишлоқ хўжалигида ер ва сув ресурсларидан самарали фойдаланиш тўғрисидаги Концепцияни амалга ошириш” доирасида қайта фойдаланишга киритиладиган ер майдонлари **мавжуд эмаслиги** сабабли, жавобгарнинг эътирозларини асоссиз деб топиши мумкин.

Шу билан бирга, суд тарафлар ўртасида тузилган ер ижара шартномасига асосан ер участкаси жавобгарга “Пахтачилик-Ғаллачилик” қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришни юритиш учун берилганлиги ва шартномага асосан, жавобгар пахта ҳосилини етиштиришда, ердан самарасиз фойдаланиб келганлигини, яъни ижарага олувчининг айби билан мунтазам равишда (уч йил мобайнида) нормативдаги кадастр баҳосидан кам миқдорда ҳосил олинганлиги сабабли, Ўзбекистон Республикаси “Фермер хўжаликлари тўғрисида”ги қонуннинг 13-моддасида фермер хўжалигига берилган ер участкаларидан қатъий белгиланган мақсадда фойдаланилиши, 17-моддасида фермер хўжалиги ер участкасидан қонун ҳужжатларида ва ижарага олиш шартномасида кўрсатилган шартлар асосида, белгиланган мақсадда, самарали ва оқилона фойдаланилишини таъминлаш шартларини бузган деб топиши мумкин. Айрим ҳолларда, жавобгар вакили судга тақдим этган ҳимоя фикрида, даъвогар ижара шартномасини бекор қилиш юзасидан жавобгарни шартномада белгиланган оғохлантириш муддатларига риоя қилмаган ҳолда судга мурожаат қилганлигини келтириб ўтади, яъни ер ижара шартномасини бекор қилиш учун тарафлар бир-бирини уч ой олдин оғохлантириш кераклиги белгиланган. Ер кодексининг 24-моддасига қўра, ер участкаларини ижарага олиш шартномасини муддатидан олдин бекор қилиш тарафларнинг келишуви билан, бундай келишувга эришилмаган тақдирда эса, суднинг ҳал қилув қарори билан амалга оширилади. Мазкур масала юзасидан туман ҳокимлиги оғохлантириш хати билан жавобгарни пахта ҳосилини етиштириш юзасидан ўз мажбуриятларига масъулият билан қарашини, акс ҳолда тарафлар ўртасида тузилган ер ижара шартномасини муддатидан олдин бекор қилиш юзасидан расман оғохлантиради, шунингдек, туман халқ депутатлари Кенгашининг тегишли қарори асосида тегишли тақлиф хати билан фермер хўжалигига мурожаат қилиб, ер ижара шартномасини бекор қилишни тақлиф этади. Туман ҳокимлигининг ер ижара шартномасини ихтиёрий бекор қилиш тақлифи фермер хўжалиги томонидан қабул қилинмаган ва ер ижара шартномаси ихтиёрий бекор қилинмаган тақдирда, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2013 йил 31 январдаги 22-сонли қарори билан тасдиқланган “Фермер хўжалигининг ер майдонини мақбуллаштириш ва уни тугатиш тартиби тўғрисида”ги Низомнинг 21-бандига қўра. туман (шаҳар) ҳокими халқ депутатлари туман

Кенгашининг ер участкасини ижарага бериш шартномасини бекор қилиш ёхуд ер майдонини мақбуллаштириш тўғрисидаги қарори асосида, қонунчиликда белгиланган тартибда, халқ депутатлари туман Кенгашининг қарорини, Комиссиянинг ҳулосасини, туман фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари кенгашининг ҳулосасини, далолатномани ва бошқа зарур ҳужжатлар ҳамда материалларни илова қилган ҳолда фермер хўжалиги раҳбари билан ер участкасини ижарага бериш шартномасини бекор қилиш ёхуд унинг ер участкаси майдонини мақбуллаштириш тўғрисида фермер хўжалиги раҳбарига таклиф киритади.

Шартномани бекор қилиш тўғрисидаги таклиф фермер хўжалиги раҳбари томонидан рад этилганда ёки Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг 384-моддасида белгиланган муддатда жавоб олинмаганда туман (шаҳар) ҳокими, қонунчиликда белгиланган тартибда, халқ депутатлари туман Кенгашининг қарорини, Комиссиянинг ҳулосасини, туман фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари кенгашининг ҳулосасини далолатномани ва бошқа зарур ҳужжатлар ва материалларни илова қилган ҳолда фермер хўжалиги билан ер участкасини ижарага бериш шартномасини бекор қилиш юзасидан иқтисодий судга даъво аризасини юборади.

Шу билан бирга, Низомнинг 2-илоvasи Фермер хўжалиги томонидан шартнома интизоми бузилишининг, шунингдек хўжалик фаолияти самарасиз юритилишининг аниқланган ҳолатлари асосида фермер хўжалиги ер участкаси майдонини мақбуллаштириш ва уни тугатиш СХЕМАСИ” нинг 9-босқичи сифатида шарномани бекор қилиш тўғрисидаги таклиф фермер хўжалиги раҳбари томонидан рад этилганда ёки Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг 384-моддасида белгиланган муддатда жавоб олинмаган тақдирда туман (шаҳар) ҳокими қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда халқ депутатлари туман Кенгашининг қарорини, Комиссиянинг ҳулосасини, туман фермерлари кенгашининг ҳулосасини, далолатномани, бошқа зарур ҳужжатлар ва материалларни илова қилган ҳолда фермер хўжалиги билан ер участкасини ижарага бериш шартномасини бекор қилиш юзасидан иқтисодий судга даъво аризасини юбориш учун 30 кунлик муддат белгиланган. Мазкур ҳолатда, даъвогар низони судгача ҳал этиш тартибига риоя қилган деб ҳисоблаб, шу сабабли, суд жавобгарнинг эътирозини асосиз деб топиши мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг 382-моддасига [4] асосан агар ушбу Кодексад, бошқа қонунларда ёки шартномада бошқача тартиб назарда тутилган бўлмаса, шартнома тарафларнинг келишувига мувофиқ ўзгартирилиши ва бекор қилиниши мумкин. Тарафлардан бирининг талаби билан шартнома суд томонидан фақат қуйидаги ҳолларда ўзгартирилиши ёки бекор қилиниши мумкин: иккинчи тараф шартномани жиддий равишда бузса; ушбу Кодекс, бошқа қонунлар ва шартномада назарда тутилган ўзга ҳолларда.

Фермер хўжалиги ижара шартномасида белгиланган мажбуриятларини бажармасдан ер ижара шартномасини жиддий равишда бузганлиги, мазкур ҳолат ишдаги тақдим этилган ҳужжатлар билан ўз исботини топканлиги сабабли, юқоридаги ҳуқуқ нормаларига асосланиб, суд даъвогарнинг ер участкасини узоқ муддатли ижарага олиш шартномасини бекор қилиш талабини асосли деб ҳисоблаши мумкин.

АДАБИЁТЛАР

1. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 12.12.2020 й., 07/20/4919/1616-сон;
2. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 25.02.2021 й., 07/21/5006/0151-сон;
3. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2013 й., 5-сон, 56-модда;
4. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1996 й., 2-сонга илова.

Қишлоқ хўжалиги соҳасида узоқ муддатли ер ижара шартномасини бекор қилиш юзасидан суд амалиёти

Резюме. Мазкур мақолада муаллифлар томонидан қишлоқ хўжалиги соҳасида узоқ муддатли ер ижара шартномасини бекор қилиш билан боғлиқ судлов амалиёти назарий ва амалий жиҳатдан атрофлича тадқиқ қилинган.

Калит сўзлар: ер ижараси, шартномани бекор қилиш, суд амалиёти, тадбиркорлик фаолияти.

Судебное производство о расторжении договора долгосрочной аренды земли в сфере сельского хозяйства

Резюме. В данной статье авторами с теоретической и практической точки зрения подробно изучена судебная практика, связанная с расторжением договора долгосрочной аренды земли в сфере сельского хозяйства.

Ключевые слова: аренда земли, расторжение договора, судебная практика, предпринимательская деятельность.

Legal proceedings for termination of a long-term land lease agreement in the field of agriculture

Summary. In this article, the authors, from a theoretical and practical point of view, have studied in detail the judicial practice related to the termination of a long-term land lease agreement in the field of agriculture.

Key words: land lease, termination of contract, judicial practice, entrepreneurial activity.

ДАВЛАТ ФУҚАРОЛИК ХИЗМАТИДА АМАЛГА ОШИРИЛГАН ИСЛОҲОТЛАР ТАҲЛИЛИ

Тўраҳўжаева Р. Р.

Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси

Мамлакатимизда давлат хизмати тушунчаси яқин яқингача ўзининг ҳуқуқий мақомига эга бўлмаган тушунчалардан бири саналиб келинар эди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ташаббуси билан 2022-йил 8-августдаги ЎРҚ-788-сон “Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида” ги қонуни [1], қабул қилиниши давлат фуқаролик хизматини янгидан ислоҳ қилишга замин яратди. Маълумки, ҳар бир мамлакат ривожини асосини тўғи ташкил этилган ва самарали фаолият юритаётган давлат хизмати (public service) ва давлат фуқаролик хизмати (civil service) ташкил этади. Ушбу мақолада мамлакатимизда давлат фуқаролик хизматида амалга оширилаётган ислоҳотлар қиёсий ҳамда миқдорий контент таҳлил қилинган.

“Давлат фуқаролик хизмати” турли йўналишларида турлича талқинга эга эди. Эндиликда бу мақом қонунда белгиланганидек давлат фуқаролик хизмати — давлат хизматининг бир тури бўлиб, Ўзбекистон

Республикаси фуқароларининг давлат фуқаролик хизмати лавозимларидаги давлат органлари ваколатлари амалга оширилишини таъминлашга доир ҳақ тўланадиган касбий фаолиятини ифодалайди, деб белгиланган. Давлат фуқаролик хизмати лавозимида ўз фаолиятини амалга ошираётган Ўзбекистон Республикаси фуқароси давлат фуқаролик хизматчисидир. Ўзбекистон Республикаси фуқароси давлат фуқаролик хизмати лавозимида тайинланган пайтдан эътиборан давлат фуқаролик хизматчисининг ҳуқуқий мақомига эга бўлади ва давлат фуқаролик хизматчисининг фаолияти тугатилиши муносабати билан уни йўқотади. Давлат фуқаролик хизмати лавозимларининг сиёсий гуруҳига тааллуқли давлат фуқаролик хизматчиларининг ҳуқуқий мақоми билан боғлиқ бўлган қўшимча ҳуқуқлар, мажбуриятлар ва чекловлар алоҳида қонунчилик билан белгиланади.

Шунингдек, давлат фуқаролик хизматининг муайян малака даражаси берилиши ва давлат фуқаролик хизматининг муайян лавозимини эгаллаш учун талабгор бўлаётган номзодларга нисбатан давлат органи томонидан белгиланадиган, иш тажрибасига ва касбий компетенциясига доир талаблар белгиланган [1].

Мамлакатимизда давлат фуқаролик хизматини ислоҳ қилишнинг биринчи қадамларидан бири бу давлат фуқаролик хизматида меритократия тамойилининг жорий этилиши бўлди. Зеро, меритократия тамойилининг асосий мезонлари сифатида қуйидагилар назарда тутилади [2]: давлат хизматида қабул очик танлов асосида амалга оширилиши; алабгорларни баҳолаш уларнинг шахсий қобилиятлари, билимлари ва қўникмалари мезонларига мувофиқ амалга оширилиши; давлат фуқаролик хизматчиларини учун тенг талабларни қўйиш; давлат фуқаролик хизматчиларини ўз фаолият самарадорликларига қараб рағбатлантириш тизимини жорий этиш [3]. Юқорида таъкидлаганидек, меритократия мезонларидан бири бўлган, давлат фуқаролик хизматида кадрларни танлаш очик танлов асосида қабул қилиниши нафақат давлат фуқаролик хизмати балки давлат бошқару самарадорлигини оширишга хизмат қилади. Шу мақсадда 2019- йил 3-октябрдаги ПҚ-4472- сонли “Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат хизматини ривожлантириш агентлиги фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида” [4] ги қарори билан Давлат хизматларини ривожлантириш агентлиги ташкил этилди. Агентликнинг асосий вазифалари: давлат фуқаролик хизмати лавозимларининг давлат реестрини юритиш, шунингдек, давлат хизматчилари вакант лавозимларининг ягона очик порталини ташкил этиш ва юритиш; давлат фуқаролик хизматчилари фаолияти самарадорлигини баҳолашнинг ўлчанадиган индикаторлари (энг муҳим кўрсаткичлари) тизимини жорий этиш ва уларнинг натижаларини таҳлил қилиш, жамоатчилик фикрини ўрганиш ҳамда давлат органлари ва ташкилотлари раҳбарларининг очик рейтингини шакллантириш; малакали ва юқори малакали мутахассисларни, шу жумладан хорижда яшаётган ватандошлар орасидан аниқлаш ва жалб этиш, шунингдек, давлат фуқаролик хизматида иқтидорли ёшлар ва хотин-қизларни кенг жалб этиш бўйича тизимли ишларни олиб бориш; энг истиқболли кадрларни давлат фуқаролик хизматида очик мустақил танлов асосида қабул қилишни ташкиллаштириш этиб белгиланди.

Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 3 октябрдаги ПФ- 5843-сон “Ўзбекистон Республикасида кадрлар сиёсати ва давлат фуқаролик хизмати тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги [4], Фармонига мувофиқ, 2020 йил август ойида Давлат хизматини ривожлантириш агентлиги томонидан Давлат фуқаролик хизматчилари вакант лавозимлари ягона очик портали — vacancy.args.uz[5] фаолияти йўлга қўйилди. Мазкур портални ишга туширилиши натижасида биргина биргина 2023 йил ҳисобига кўра Vacancy.args.uz портали орқали 68 та вазирлик ва идора ҳамда барча туман (шаҳар) ҳокимликларидаги жами 24 256 та ваканциялар бўйича 730 мингдан ортиқ номзодлар ўртасидаги танловлар натижасида 10 033 нафари ишга қабул қилинди.

Танлов ғолибларининг 3 584 нафари 30 ёшгача бўлганлар, 3 529 нафари аёллар, 1 626 нафари давлат хизматида биринчи маротаба қабул қилинганларни ташкил этади [6].

ИШГА ҚАБУЛ ҚИЛИНГАНЛАР



Ишга қабул қилинга

30 ёшгача бўлганлар

Аёллар

Биринчи маротаба қабул қилинган

Кувонарли тарафи ушбу портал орқали танловда иштроқ этаётган талабгорлар бир йўла давлат органининг учтагача бўш иш ўрни учун ариза топшириши мумкин. Танлов жараёнларини бир неча босқичда ўтказилиши ва сўнги босқич очик суҳбат жараёни бўлиб, у ердаги холис кузтувчилар суҳбатни шаффоф ва адолатли тарзда ўтишини назоратга олади. Ушбу портални ишга тушурилиши мамлакатдаги иқтидорли ва етарли билим малакага эга бўлган кадрларни танлаш ва уларни тўғри баҳолаш орқали лавозимларга тайинланиши нафақат давлат хизматчилари, балки ўсиб келаётган ёш кадрларда ҳам давлат томонидан амалга оширилаётган ислохотларнинг шаффофлигига ишончни оширмоқда. Бу эса сўнги йиллардан аҳоли орасида кенг тарқалган стереотип “таниш бўлиши” керак деган тушунчанинг янги авлод тафаккуридан чиқиб кетишига хизмат қилмоқда. Давлат фуқаролик хизматидаги меритократия тамойилининг жорий этилганлигини амалий натижаси сифатида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 30 майдаги ПҚ-3755-сон “Истиқболли


бошқарув кадрларини танлов асосида танлаб олишнинг замонавий тизимини яратиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги [7] қарорига мувофиқ “Тараққиёт” республика танловини ўтказилиши бўлди. Ўзбекистон Республикаси бўйича 8334 нафар талабгор танловда қатнашиш учун www.taraqqiyot-tanlov.uz рўйхатдан ўтди. Танлов ғолиблари тегишли йўналишлар бўйича давлат ташкилотларида раҳбарлик лавозимларига тайинланди. Ушбу танлов шаффофликка риоя қилган ҳолда амалга оширилганлиги учун ҳам аҳоли орасида ижобий муносабатларга сабаб бўлди. Давлат фуқаролик хизматидаги яна бир ислохот Ўзбекистон Республикаси 2022 йил 8 августдаги “Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида” [1]ги қонунининг 8 моддасида белгиланганидек давлат фуқаролик хизматчилари фаолияти самарадорлигини баҳолашнинг (энг муҳим кўрсаткичларига оид) ўлчанадиган индикаторлар тизимини жорий этилиш, жамоатчилик фикрини ўрганиш ҳамда давлат органлари раҳбарларининг очиқ рейтингини шакллантирилгани бўлди.

Давлат фуқаролик хизматчиларининг фаолият самарадорлигини баҳолашни рақамлаштириш бўйича давлат хизматини ривожлантириш агентлиги томонидан ишлаб чиқилган Samaradorlik.uz [8] электрон платформаси ишга тушурилди. Ушбу платформанинг ишга туширилиши турли даражадаги давлат фуқаролик хизматчиларининг фаолият самарадорлигини кузатиб бориш ва баҳолаш имкониятини яратди.

Хусусан, бугунги кунда фуқоролар билан тўғридан тўғри мулоқотда бўлувчи секторлар раҳбарларининг фаолияти самарадорлигини баҳолашнинг қуйидаги мезонлар ишлаб чиқилди: ҳоким ёрдамчилари фаолияти самарадорлиги бўйича статистик кўрсаткичлар йиғиндиси; ёшлар етакчилари фаолияти самарадорлиги бўйича статистик кўрсаткичлар йиғиндиси; хотин-қизлар фаоллари фаолияти самарадорлиги бўйича статистик кўрсаткичлар йиғиндиси; маҳаллаларда содир этилган жиноятлар тўғрисидаги статистик маълумотлар (48 турдаги маҳаллада содир этилган жиноятчиликни ўтган йилга нисбати); сектор раҳбарларининг шахсий ташаббускорлиги билан амалга оширилган ишлари (йўл қуриш, ичимлик суви билан таъминлаш, газлаштириш, ободонлаштириш, бунёдкорлик ишлари ва бошқа); туман (шаҳар) бўлинмалари раҳбарларининг соҳавий хизмат фаолияти самарадорлигининг баҳолаш натижалари тўғрисидаги маълумотлар; туман (шаҳар) аҳолиси ва МФЙ раисларининг секторлар фаолиятидан қониқиш даражаси бўйича сўровнома натижалари; секторлар раҳбарларининг билимини ilm.argos.uz платформаси орқали синовдан ўтказиш натижалари билан шакллантирилади. Ушбу баҳолаш мезонлари асосида ҳар чорақда сектор раҳбарлари фаолияти баҳоланиб, рейтинг шакллантирилиб борилаётганда.

Шунингдек, давлат бошқаруви ва давлат фуқаролик хизмати самарадорлигини ошириш, бу борада илғор чет эл тажрибасини ўрганиш ва жорий қилиш мақсадида Бирлашган Араб Амирликлари ҳукумати билан ҳамкорлик йўлга қўйилди. Мамлакатда давлат бошқаруви ва давлат хизмати самарадорлигини баҳолаш, мамлакатнинг миллий ривожланиш дастури, соҳавий стратегияларнинг ижросини таъминлашда юқори кўрсаткичларни қайд этган давлат органлари ва давлат хизматчиларини муносиб рағбатлантириш мақсадида 2023 йил БАА билан ҳамкорликда “Ўзбекистон давлат органлари фаолияти самарадорлигини баҳолаш” [6] дастури амалга оширилиб, 17 та вазирлик ва 70 нафардан ортиқ вазирлик ходимлари 11 та номинация бўйича баҳоланди. Олиб борилаётган ушбу ислохотлар давлат органлари ҳамда давлат фуқаролик хизматчиларини доимий ўз устиларида ишлашлари учун мотивация бўлиб хизмат қилмоқда. Маълумки ҳар бир мамлакат учун давлат бошқаруви соҳасидаги кадрлар заҳирасини шакллантириб, уларнинг билимларни мунтазам ошириб бориш муҳим аҳамият касб этади. Шу мақсадда Давлат хизматини ривожлантириш агентлиги томонидан “zahira.argos.uz” портали ишга тушурилди. Ушбу порталини ишга туширилиши мамлакатда кадрлар заҳирасини ягона реестрини шакллантиришга имкон яратади.

Биргина 2023 йил ҳисобига кўра Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши Раиси, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимлари ўринбосарлари, туман (шаҳар) ҳокими лавозимига жами 970 нафар кадрлар заҳираси шакллантирилди ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академиясидаги маҳсус ўқув курсларида малака ошириб, заҳирадагиларнинг 117 нафари раҳбарлик лавозимига, шу жумладан 18 нафари туман ҳокимининг ўринбосари лавозимига ҳамда 28 нафари вилоят даражасидаги раҳбарлик лавозимига тайинланди [6].



Шунингдек, давлат фуқаролик хизматида раҳбарлик лавозимларидаги аёллар улушини 30 фоизга кўпайтиришга қаратилган туб ислохотлар амалга оширилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 7 мартдаги ПФ-87-сонли "Оила ва-қизларни тизимли қўллаб-қувватлашга доир ишларни янада

жадаллаштириш чора -тадбирлари тўғриси" даги Фармонида биноан Миллий кадрлар захирасидан раҳбарлик лавозимларига номзодларни тавсия этишда хотин-қизларнинг улушини иноватга олиш тизими жорий этилди.

Шу мақсадда Давлат хизматларини ривожлантириш агентлиги ва Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси билан биргаликда "Раҳбар аёллар" мактаби ташкил этилди. Ушбу ўқув курсларни ўтказидан асосий мақсад давлат фуқаролик хизматидаги аёллар улушуни кўпайтириш ва уларнинг ижтимоий, сиёсий фаолигини оширишдан иборатдир. Ушбу дастурни мувоффақиятли тамомлаган 99 нафар битирувчилари ҳам Миллий кадрлар захирасига киритилди.

Шунингдек, бугунги кунда республика сиёсий партияларидаги хотин-қизларнинг улуши 47 фоизга, олий таълимда 48 фоизга, тадбиркорлик фаолиятида эса 37 [9] фоизга етган. Раҳбарлик лавозимларида ишлаётган аёллар улуши 33 фоизни ташкил этади. Шунингдек, бугунги кунда давлат ва жамоат ташкилотларига 2 мингга яқин аёллар раҳбарлик қилмоқда [10]. Ушбу олиб борилаётган ислохотлар жамиятимизда аёлларнинг ижтимоий, иқтисодий ва сиёсий фаоллигини оширишга кенг имкониятлар яратиб бермоқда.

Давлат фуқаролик хизматида олиб борилаётган ислохотлар ёшларни ҳам четлаб ўтмади. Президентимизнинг 2021 йил 30 июндаги "Талабалар ва ёшлар форуми"[11] даги нутқида ёш авлодни қўллаб қувватлаш, уларга етарли шарт- шароитларни шакллантириш ҳамда ёшлар орасидан янги авлод захира кадрлари – "Келажак лидерлари"ни шакллантириш масаласи қўйилган эди.

Бу масала юзасидан Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат хизматини ривожлантириш агентлиги томонидан 20-35 ёшли олий таълим муассасалари талабалари ҳамда давлат органлари ва ташкилотларида 3 йил меҳнат стажига эга бўлган ёш давлат фуқаролик хизматчилари учун "Келажак лидерлари" клуби ташкил этилди. Ушбу клуб аъзолари бир неча босқичли танлов асосида қабул қилинди. Қабул қилинган номзодларни Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академиясида "Келажак лидерлари" махсус дастури асосида ўқитилди. Ўқиш даврида барча номзодлар бугунги кундаги замонавий бошқарув асослари бўйича билимлар олишди, шунингдек, турли давлат органлари, вазирлик ва идораларда амалиёт ўтаб ёш авлод кадрлар захирасига киритилдилар.

Юқорида таъкидлаганимиздек давлат фуқаролик хизматини ислох қилишда ходимларнинг ўрни алоҳида. Давлат фуқаролик хизматчисининг касбий компетенциясини узлуксиз равишда ошириш 2022-йил 8-августдаги ЎРҚ-788-сон "Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида"[1] ги қонуннинг 42 моддасида белигилаб берилган бўлиб, шу мақсадда Давлат хизматларини ривожлантириш агентлиги томонидан m.argos.uz масофавий таълим портали ишга туширилди. Масофавий таълим порталида 390 дан ортиқ видеоматериаллар, 240 дан ортиқ электрон адабиётлар жойлаштирилди, ҳозирда тизимдан 62 972 нафар давлат хизматчилари рўйхатдан ўтган. Ташкил этилган масофавий ўқув курсларда 7002 нафар раҳбар кадрлар ва давлат хизматчилари иштирок этди.

Шунингдек, Давлат бошқаруви академияси томонидан республика ва маҳаллий даражадаги раҳбар кадрлар учун малака ошириш курслари мунтазам ўтказилиб борилади. Ушбу ўтказилаётган ислохотнинг натижаси давлат фуқаролик хизматчиларининг карьера моделини шакллантиришга ва уларни ривожлантиришга хизмат қилади. Давлат фуқаролик хизматчилари "Карьера модели" илк бор Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 3 октябрдаги 5843-сон "Ўзбекистон Республикасида кадрлар сиёсати ва давлат фуқаролик хизмати тизimini тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармонида давлат фуқаролик хизматини янада такомиллаштириш ва ислох қилишнинг устувор йўналишларидан бири сифатида белгиланди.

Мазкур устувор йўналиш карьера моделини давлат фуқаролик хизмати амалиётида жорий этишни назарда тутиб, карьера модели давлат хизматчиси ишга киргандан бошлаб унинг бутун давлат хизматидаги фаолиятида акс этади ҳамда ҳар бир хизмат поғонасида кўтарилиб бориш учун зарур бўлган иш тажрибаси, малака талаблари, касбий салоҳият ва компетенциялар каби мезонлар карьеравий режалаштиришга узвий боғлиқ ҳисобланади [12]. Юқорида келтирилган давлат фуқаролик хизматида амалга оширилаётган ислохотлар таҳлиliga асосланиб шуни айтиш мумкинки, давлат фуқаролик хизмати тўғрисидаги қонуннинг қабул қилинганлиги давлат фуқаролик хизматчиларининг давлат томонидан қўллаб қувватланаётганлигининг амалий натижасидир. Давлат фуқаролик хизматида амалга оширилган ислохотлар таҳлил қилиниб қуйидаги хулосаларга келинди: Биринчидан, давлат хизмати ва давлат хизматидаги кадрлар захирасини шакллантиришни янги босқичини ишлаб чиқиш, хорижий мамлакатлар тажрибасини ўрганган ҳолда, "Давлат бошқаруви" бўйича олий таълим муассасарида бакалавр йўналишини жорий этилиши, кадрлар тайёрлаш тизimini босқичма босқич олиб бориш имкониятини яратади.

Иккинчидан, давлат фуқаролик хизматчиларини тайёрлаш, қайта тайёрлаш жараёнларини ривожлантириш мақсадида, давлат фуқаролик хизматчилари компетенцияларини ўрганиш ва таҳлил қилиш бўйича тадқиқот лабораторияларини ташкиллаштириш бугунги кундаги долзар масалага айланмоқда.

АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикасининг 2022-йил 8-августдаги ЎРҚ-788-сон "Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида" ги қонуни <https://lex.uz/docs/6145972>
2. OECD Public Integrity Handbook <https://www.oecd-ilibrary.org/sites/270b68d2-en/index.html?itemId=/content/component/270b68d2-en>
3. Tan, K (2008). Meritocracy and elitism in a Global City: Ideological Shifts in Singapore. International Political Science Review, 2008; 29;7, 13. Retrieved October 29, 2017, from <http://journals.sagepub.com/doi/abs/10.1177/0192512107083445>;
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019- йил 3-октябрдаги ПҚ-4472- сонли "Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат хизматини ривожлантириш агентлиги фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарори <https://lex.uz/docs/4552053>

5. <https://vacancy.argos.uz/>
6. <https://argos.uz/media/book/3-yon.pdf>
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 30 майдаги ПҚ-3755-сон “Истиқболли бошқарув кадрларини танлов асосида танлаб олишнинг замонавий тизимини яратиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори <https://lex.uz/docs/3755274?query=танлов>
8. <https://samaradorlik.uz/uzc/site/login>
9. <https://argos.uz/uz>
10. Ўзбекистон Тадбиркорлик ва фермерликни қўллаб-қувватлаш маркази <https://www.tfqm.uz/b/>
11. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Халқаро хотин-қизлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи <https://president.uz/uz/lists/view/6013>
12. <https://argos.uz/uz/press-center/news/369>

Давлат фуқаролик хизматида амалга оширилган ислохотлар таҳлили

Аннотация: мазкур мақолада Ўзбекистон Республикасида сўнгги 7 йил давомида давлат хизмати ҳамда давлат фуқаролик хизматидаги ислохотлар таҳлил қилинган. Шунингдек, мақолада меритократия тамойилининг асосий элементлари, давлат фуқаролик хизматига очик танлов асосидаги қабул жараёни, давлат фуқаролик хизматчиларининг фаолият самарадорлик кўрсаткичлари, ёшлар ҳамда аёлларга оид давлат сиёсати таҳлил қилинган.

Калит сўзи: давлат фуқаролик хизмати, вакант, “кадрлар заҳираси, “Раҳбар аёллар”, “Келажак лидерлари”.

Анализ реформ, реализуемых в государственной гражданской службе

Аннотация: в данной статье анализируются реформы государственной службы и государственной гражданской службы в Республике Узбекистан за последние 7 лет. В статье также анализируются основные элементы принципа меритократии, процесс приема на государственную гражданскую службу на основе открытого отбора, показатели эффективности государственных гражданских служащих, государственная политика в отношении молодежи и женщин.

Ключевые слова: государственная гражданская служба, вакансии, кадровый резерв, «Лидеры-женщины», «Лидеры будущего».

Analysis of reforms implemented in the state civil service

Abstract: this article analyzes the reforms of the civil service and state civil service in the Republic of Uzbekistan over the past 7 years. The article also analyzes the main elements of the principle of meritocracy, the process of admission to the state civil service based on open selection, performance indicators of state civil servants, state policy towards youth and women.

Key words: state civil service, management personnel, “Women Leaders”, “Leaders of the Future”.

ҚАРАҚАЛПАҚСТАНДАҒЫ ДӘСЛЕПКИ ТАРИЙХШЫ ИЛИМИЙ, ПЕДАГОГ КАДРЛАРДЫ ТАЯРЛАЎ ТАРИЙХЫ

Елмуратов И.Г.

Қарақалпоқ давлат университети

Қарақалпақстанда Муғаллимлар таярлаў институты Қарақалпақстандағы дэслепки кэнигеллик жоқары оқыў орны болып, педагог кадрларды таярлаўда белгили орын ийелейди.

Межведомственный подход в работе органов власти имеет большое значение в организации деятельности органов исполнительной власти, в повышении качества и эффективности их работы в выполнении возложенных на них задач. Межведомственное взаимодействие органов исполнительной власти позволяет преодолеть ведомственную разобщенность, позволяет объединить их усилия и возможности при решении определенных задач. Более того, оно позволяет устранить дублирование функций органов управления. Таким образом, субъекты управления имеют один предмет воздействия, что и предполагает их взаимодействие. По мнению А.И. Сухарева, понятие «межведомственное взаимодействие» интересно рассматривать в методологии деятельностного подхода, с позиции содействия. При этом содержанием взаимодействия станет непосредственный обмен целями, формами, методами и способами деятельности. В этом процессе рождаются новые модели и технологии профессиональной деятельности специалистов и руководителей. «Межведомственное взаимодействие, выстроенное на принципе социального партнерства, обеспечивает согласование интересов и возможностей различных сторон, позволяет выстроить эффективные механизмы комплексного решения проблем. Таким образом, это не просто совместная деятельность, а деятельность во имя достижения общих целей. Базой интеграции целей выступают пересекающиеся интересы взаимодействующих субъектов. Если нет пересечения интересов, то и нет поля для партнерства» [1, 156]. В научной литературе по-разному определяется система принципов межведомственного взаимодействия органов исполнительной власти.

Жеребен Е.В., например, выделяет такие принципы межведомственного взаимодействия, как инициативность, согласованность, мультисубъектность, консолидированность и легитимность (на примере взаимодействия таможенных и налоговых органов). Взаимодействие таможенных и налоговых органов не сможет состояться без инициативы как минимум одной из сторон, так как одного желания взаимодействовать недостаточно. В связи с тем, что взаимодействие предусматривает взаимный характер отношений, необходимы также активная деятельность и наличие самостоятельных предложений второй стороны по отношению к первой (инициатору). Осуществляемая в рамках взаимодействия совместная деятельность таможенных и налоговых органов должна носить взаимный характер, т. е. быть согласована со всеми участниками такого процесса. Согласованность как основной принцип взаимодействия влияет на совместные действия, объединяя их в единое целое – систему. Согласованность предусматривает некоторые действия, в результате которых и достигается соответствующее взаимодействие. К таким действиям, в первую очередь, следует отнести согласование совместных действий таможенных и налоговых органов по целям, месту и времени их осуществления. Важным принципом взаимодействия является мультисубъектность. Он предполагает участие как минимум двух сторон в совместных согласованных действиях (мероприятиях). Дополняющим к этому принципу взаимодействия является принцип консолидации усилий сторон. Он определяет отношения сотрудничества между сторонами взаимодействия. Такие отношения характеризуются общими целями и интересами взаимодействующих таможенных и налоговых органов. Принцип легитимности означает законность и правомерность осуществляемых в рамках взаимодействия таможенных и налоговых органов действий и используемых при этом форм, методов, инструментов и средств. Таким образом, результаты анализа содержания понятия «взаимодействие» [2, 149-150]. Балашова Т.Н., Власенко М.С., применительно к межведомственному взаимодействию в социальной сфере, также указывают на ряд принципов: законности; разграничения компетенции, распределения сфер ответственности между субъектами (участниками) межведомственного взаимодействия; исключения дублирования процедур сбора и обработки информации о несовершеннолетних и семьях, находящихся в социально опасном положении, субъектами (участниками) межведомственного взаимодействия; индивидуального подхода в организации работы с несовершеннолетними и семьями, находящимися в социально опасном положении; максимального учета интересов несовершеннолетнего; обеспечения конфиденциальности полученной в процессе межведомственного взаимодействия информации; презумпции добросовестности родителей в осуществлении родительских прав; комплексности [3, 33].

Как видим, принципы межведомственного взаимодействия разнятся в зависимости от того в какой сфере исполнительной власти они реализуются. Тем не менее, можно выделить общие принципы для всех форм межведомственного взаимодействия. К ним предлагается отнести следующие принципы: - законности; - разграничения компетенции между субъектами (участниками) межведомственного взаимодействия; - системность и согласованность действий; - обеспечения конфиденциальности полученной в процессе межведомственного взаимодействия информации.

Принцип законности. Это законность осуществляемых в рамках взаимодействия действий и используемых при этом форм, методов, сил и средств. Этот принцип предполагает правовое закрепление порядка межведомственного взаимодействия по определенным сферам деятельности. Так, например, применительно к системе правоохранительных органов «взаимодействием является основанное на законе сотрудничество не подчиненных друг другу органов, при котором они действуют согласованно, своеобразно, сочетая применяемые ими силы, средства и способы в целях предупреждения, пресечения и раскрытия преступлений, привлечения к уголовной ответственности виновного, розыска обвиняемого и возмещения ущерба, причиненного преступлением» [4, 14]. Нормативной основой разработки порядка межведомственного взаимодействия являются действующие в стране нормативно-правовые акты в этой сфере. Например, в сфере

профилактики социального сиротства и семейного неблагополучия такими актами являются Конституция Республики Узбекистан, Семейный кодекс, Закон «Об образовании, О гарантиях прав ребенка, о профилактике безнадзорности и правонарушений несовершеннолетних» Постановление Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по усилению социальной защиты детей-сирот и детей, оставшихся без попечения родителей» от 11 февраля 2019 г., № ПП-4185. В этих нормативных актах главное внимание уделяется интересам ребенка, закрепляются полномочия и ответственность соответствующих органов исполнительной власти за реализацию государственной политики в области защиты прав и интересов детей-сирот и детей, оставшихся без попечения родителей. Тем более, эти показатели внесены в систему оценки эффективности деятельности региональных органов власти и руководителей регионов.

Принцип разграничения компетенции между субъектами (участниками) межведомственного взаимодействия. Мы можем раскрыть значение этого принципа на примере такой сферы государственного управления как управление в сфере чрезвычайных ситуаций. На каждом уровне единой системы предупреждения и ликвидации чрезвычайных ситуаций создаются координационные органы, постоянно действующие органы управления, силы и средства, резервы финансовых и материальных ресурсов, системы связи и оповещения органов управления и сил единой системы, системы оповещения населения о чрезвычайных ситуациях и системы информирования населения о чрезвычайных ситуациях. В таких условиях понятие «взаимодействие» выступает как взаимная связь, взаимная обусловленность, согласованные действия при выполнении общей задачи. То есть, предусматриваются отношения равных, не подчиненных друг другу участников процесса. Но вместе с тем, оптимальное, оперативное и своевременное управление силами и средствами, предназначенными для предупреждения и ликвидации чрезвычайных ситуаций, а также другими участниками отношений возможно и необходимо при построении не только отношений «власть – подчинение», но и «партнерства». Возможность определения принципа построения, состав органов управления, сил и средств, порядок выполнения задач и взаимодействия основных элементов, а также иные вопросы функционирования единой государственной системы предупреждения и ликвидации чрезвычайных ситуаций определяется Законом Республики Узбекистан «О защите населения и территорий от чрезвычайных ситуаций природного и техногенного характера» от 17 августа 2022 года [5]. Другим важным нормативным актом Республики Узбекистан является постановление Кабинета Министров от 29 апреля 2023 года № 171 «О мерах по эффективной организации деятельности Государственной системы предупреждения и действий в чрезвычайных ситуациях Республики Узбекистан» [6]. Как известно, Министерство по чрезвычайным ситуациям Республики Узбекистан является специально уполномоченным органом государственного управления в области защиты от чрезвычайных ситуаций. Он реализует единую государственную политику в области защиты от чрезвычайных ситуаций; обеспечивает исполнение законодательства о защите населения и территорий от чрезвычайных ситуаций природного и техногенного характера; разрабатывает и реализует меры по предотвращению чрезвычайных ситуаций, сохранению жизни и здоровья людей, защите материальных и культурных ценностей, а также ликвидации последствий чрезвычайных ситуаций и уменьшению ущерба и др. Вместе с этим в Законе четко определены задачи органов исполнительной власти по ликвидации чрезвычайных ситуаций. Так, основными задачами Национальной гвардии Республики Узбекистан по ликвидации чрезвычайных ситуаций являются: участие в обеспечении общественного порядка и безопасности при ликвидации чрезвычайных ситуаций; защита прав, свобод и законных интересов физических и юридических лиц, а также обеспечение охраны и защиты объектов, территорий, материальных и культурных ценностей в зонах чрезвычайных ситуаций. Министерство внутренних дел Республики Узбекистан осуществляет задачи по защите прав, свобод и законных интересов граждан, обеспечение общественного порядка и безопасности, осуществление профилактики правонарушений в зоне чрезвычайной ситуации; принимает меры по информированию населения, оцеплению (блокированию) необходимых участков местности, охрана имущества, оставшегося без присмотра; ведет совместно с органами здравоохранения учет погибших людей в чрезвычайных ситуациях. Ряд конкретных задач возложены на Министерство здравоохранения, Министерство иностранных дел Республики Узбекистан, Государственный комитет Республики Узбекистан по экологии и охране окружающей среды, Министерства сельского хозяйства, водного хозяйства, строительства, жилищно-коммунального хозяйства, энергетики и др.

В Российской Федерации в рамках совершенствования государственного управления и динамично меняющихся условий реализации политики в области обеспечения безопасности жизнедеятельности населения широкое применение получили соглашения о взаимодействии между органами МЧС и органами исполнительной власти. Заключение соглашений (договоров) всегда предполагает согласованность действий, принятие совместных решений, в том числе и в области защиты населения и территорий от чрезвычайных ситуаций. Такие соглашения, заключенные между неподчиненными друг другу сторонами, определяют (расширяют, конкретизируют) взаимные права и обязанности и координируют деятельность [7]. На наш взгляд, подобное урегулирование межведомственных отношений, в которых четко разграниченные полномочия каждой из сторон вступают во взаимодействие в целях решения задач по обеспечению безопасности жизнедеятельности населения, имеют важное практическое значение. Системность и согласованность действий. Эффективная организация деятельности органов исполнительной власти, независимо от их ведомственной принадлежности, вызывает необходимость совершенствования их взаимодействия, исходя из поставленных перед ними целей и возложенных на них задач. Так, в этой связи, можно выделить взаимодействие органов внутренних дел и других правоохранительных органов в достижении их единой цели - предупреждения,

пресечения и раскрытия преступлений. Каждый из этих органов, являясь самостоятельным в функционально-структурном отношении элементом правоохранительной системы, может эффективно выполнять свои функции в рамках комплексной деятельности, либо непосредственной либо опосредованной взаимосвязи и взаимодополняемости, то есть во взаимодействии.

В словаре В.И. Даля термин «взаимодействие» трактуется как происходящий от слова «взаимный», которое в русском языке означает «воздавать друг другу, равно отвечать, оплачивать, оказывать добро или зло, какое от кого принял, взаимное содействие предметов, обоюдное, круговое [8]. Анализ различных работ, изучающих взаимодействие, позволил выделить наиболее общие признаки данного явления. Прежде всего, необходимо отметить, что взаимодействие — это **согласованная деятельность** различных субъектов, осуществляющих совместные действия [9, 10]. Реализуемые в рамках взаимодействия совместные действия должны носить согласованный характер, то есть согласовываться всеми участниками этого взаимодействия. Согласованность как основной, необходимый признак взаимодействия коренным образом влияет на совместные действия, объединяя их в единое целое — систему. Выступая в значении некоторого качества или состояния, согласованность предполагает ряд соответствующих действий, в результате которых достигается это качество. К таким действиям в первую очередь следует отнести согласование совместных действий различных субъектов по целям, месту и времени их осуществления. Кроме того, согласованность предполагает использование общих или дополняющих друг друга форм и методов реализации совместных действий [10, 443]. Согласованность действий органов исполнительных органов предполагает использование различных форм и методов осуществления совместных действий. Согласование также предполагает участие как минимум двух сторон в совместных согласованных действиях. Если действия осуществляются одной стороной, то не может быть речи о взаимодействии. Должно иметь место обоюдное желание субъектов. Так как взаимодействие предполагает взаимный характер отношений, причем эти взаимоотношения должны реализовываться в рамках сотрудничества, равенства сторон, их независимости друг от друга в субординационном отношении. И.О. Кулиев считает, что проблема взаимодействия все больше сводится к «координации» и «согласованию», то есть выработке единого или сближающего мнения о целесообразности согласованных действий, при сохранении различия в целях. В этом случае на первый план в силу отсутствия связей «власть - подчинение» выдвигается осуществление координации совместных усилий путем взаимодействия для получения результатов, адекватных целям [11, 64]. На наш взгляд, здесь имеет место смешение этих двух понятий. Если субъекты координации самостоятельны в пределах своих полномочий и несут персональную ответственность за результаты своих действий, то субъекты взаимодействия действуют совместно на основе согласованных решений и на единый результат.

Таким образом, межведомственное взаимодействие органов исполнительной власти Республики Узбекистан позволяет преодолеть ведомственную разобщенность, устранить дублирование их функций, объединить их усилия и возможности при решении определенных задач.

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Сухарев А.И. Теоретические и методологические основы социологии социального партнерства // Социология социального партнерства: Сборник научных статей / НИИ регионологии при Мордовском гос. ун-те; отв. ред. А.И. Сухарев. Саранск: [б.и.], 1999. 156 с.
2. Жеребен Е. В. Межведомственное взаимодействие: содержание понятия и основные принципы реализации (на примере сотрудничества таможенных и налоговых органов) // Вестник Российской таможенной академии, 2018, №4 2018, с.149-150
3. Балашова Т.Н., Власенко М.С. Формы межведомственного взаимодействия органов, осуществляющих профилактику и защиту прав несовершеннолетних, проживающих в семьях группы риска и семьях, находящихся в социально опасном положении // Закон и право, 03-2020, с.33
4. Чайка А.Ю. Организация взаимодействия органов предварительного следствия и дознания по расследованию и раскрытию преступлений. Дис. ... канд. юрид. наук. М., 2002. С. 14.
5. Национальная база данных законодательства, 18.08.2022 г., № 03/22/790/0751; 29.11.2023 г., № 03/23/880/0905; 18.01.2024 г., № 03/24/898/0046.
6. Конунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 09/23/171/0234-сон
7. Павлова Н.Н. межведомственное взаимодействие или управление при предупреждении и ликвидации чрезвычайных ситуаций. // [Проблемы обеспечения безопасности при ликвидации последствий чрезвычайных ситуаций](https://cyberleninka.ru/article/n/mezhvedomstvennoe-vzaimodeystvie-ili-upravlenie-pri-preduprezhdenii-i-likvidatsii-chrezvychaynyh-situatsiy). <https://cyberleninka.ru/article/n/mezhvedomstvennoe-vzaimodeystvie-ili-upravlenie-pri-preduprezhdenii-i-likvidatsii-chrezvychaynyh-situatsiy>
8. В.И. Даль 2008-2022. <https://slovardalja.net>
9. Ермаков К.К. Взаимодействие и координация в органах внутренних дел. М.: ВШ МВД СССР, 1971. С. 10
10. Потапова С.А. К вопросу о понятии и сущности взаимодействия органов внутренних дел и других правоохранительных органов // Актуальные проблемы российского права, 2009, с.443
11. Кулиев И.О. Организация взаимодействия органов внутренних дел со средствами массовой информации в условиях межнациональных конфликтов. Дис. ... канд. юрид. наук. М., 1996. С. 67.

Ijro etuvchi hokimiyat organlarining idoralararo o'zaro hamkorligi: uni amalga oshirishning asosiy prinsiplari

Annotatsiya: Ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati sifati va samaradorligini oshirish, idoraviy tarqoqlikni bartaraf etishda ularning ishiga idoralararo yondashuv katta ahamiyatga ega. Maqolada ijro etuvchi hokimiyat organlarining idoralararo faoliyatining qonuniylik printsiplari, idoralararo hamkorlik sub'ektlari (ishtirokchilari) o'rtasidagi vakolatlarni chegaralash, harakatlarning tizimliligi va izchilliligi kabi tamoyillari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: idoralararo o'zaro hamkorlik, ko'p sub'ektivlik, konsolidatsiya, qonuniylik.

Межведомственное взаимодействие органов исполнительной власти республики узбекистан: основные принципы его реализации

Аннотация: Большое значение в повышении качества и эффективности деятельности органов исполнительной власти, преодолений ведомственной разобщенности имеет межведомственный подход в их работе. В статье дан анализ таких принципов межведомственной деятельности органов исполнительной власти, как принцип законности, разграничения компетенции между субъектами (участниками) межведомственного взаимодействия, системность и согласованность действий.

Ключевые слова: межведомственное взаимодействие, мультисубъектность, консолидированность, легитимность.

Interdepartmental interaction of the executive bodies of the republic of uzbekistan: basic principles of its implementation

Annotation: An interdepartmental approach to their work is of great importance in improving the quality and efficiency of the activities of executive authorities and overcoming departmental disunity. The article provides an analysis of such principles of interdepartmental activity of executive authorities as the principle of legality, delimitation of competence between subjects (participants) of interdepartmental interaction, systematicity and consistency of actions.

Key words: interdepartmental interaction, multi-subjectivity, consolidation, legitimacy.

ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИДАН КЕЙИН ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДА ҲАВО ТРАНСПОРТИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ

Қытайбеков А. К.

Қорақалпоқ давлат университети

Авиаташувлар бошқа транспорт воситалари билан хизмат кўрсатишга нисбатан бир қанча ўзига хос хусусиятларга эга. Бу, энг аввало, об-ҳаво шароитига боғлиқлиги ҳамда самолётларнинг учиш ва қўниш жойларидаги ландшафт билан боғлиқ. Бундан ташқари, ҳаракатланадиган таркибдан фойдаланиш шарт-шароитлари аэропортларни аҳоли яшайдиган жойлардан ташқарига чиқаришга мажбур қилади ва йўловчилар бевосита учишга тайёргарлик кўриши учун анча кўп вақтни тақозо этади. Шунга қарамай, авиаташувлар ўзининг асосий устунлиги- манзилга жуда тез елиб қўйиши билан ер усти ва сув транспорти билан жиддий рақобатлашади. Авиаташувларни тартибга солиш халқаро қонунчилик (агар ташув халқаро хусусиятга эга бўлса) ёки миллий қонунчилик (агар ташув ички хусусиятга эга бўлса) асосида амалга оширилади. Халқаро фуқаро авиацияси соҳасидаги дастлабки ҳуқуқий ҳужжатлардан бири 1929-йилда қабул қилинган “Халқаро авиаташувларга дахлдор айрим қондаларни унификация қилиш тўғрисида”ги Варшава конвенциясидир. Ушбу норматив ҳужжатда қуйидагилар ўз ифодасини топган: халқаро авиаташувлар таърифи; авиаташувчилар томонидан ҳавода йўловчи ва багаж ташиш тартиби; ташиш шартномасини тасдиқловчи асосий ташиш ҳужжатлари; ташувчининг жавобгарлиги тартиби; ушбу конвенсияга давлатларнинг қўйилиши тартиби.

Ҳаво транспорти ниятда юқори ва тез учиши, ҳавода сув хавзалари ва тоғлар устидан, урмон ва саҳролардан ошиб учиши билан фаркланади. Ҳаво транспортининг яна бир афзаллиги ушбу олиши билан алоқани тез урната олишидир. Аэропортларни бошқа транспорт турлари бора олмайдиган туманларга қуриш мумкин. Ҳаво йули самолёт хизмати учун капитал маблағ талаб этмайди. Шунинг учун ҳам фуқаро авиацияси тарнспортнинг бошқа турларига қараганда жуда қисқа муддатларда янги алоқа йуллари ташкил қилишга қодир. Тугри бора оладиган йуналишларни ташкил этиш қамчилиги ташиш таннархини бир неча марта қатталиғидир, об-ҳаво шароитни таъсири [1; 216]. Аэропортнинг энг муҳим ва асосий қисми аэродромдир. Аэродром самолёт ва вертолётларнинг ҳавф-хатарсиз учиши ва қўниш учун йўлаклар (полосалар) ҳамда уларга техник хизмати кўрсатиш учун махсус тайёрланган ер бўлимларидир. Аэродромлар таснифига кўра: мунтазам ишловчи, мавсумий, тезкор топширик бажарувчиларга бўлинади. Вазиқаларига қура бошланғич, оралик ва энг сунгги аэродромларга бўлинади. Фавқулотта ҳолларда қуриш учун захирадаги аэродромларга бўлинади.

Аэродромлар учиш, техник хизмат қурсатиш ва турур жой зоналаридан иборат бўлади.

Учиш зоналари ва жойлашиш аэродромининг самолётлар утқаз олиш қобилиятига, шамолнинг аэродром тумани нидаги аксарий йуналишга, майдон рельефи ва гидрогеологик шароитларига боғлиқдир. Самолёт ва вертолётлар учиш ва қуниш учун учиш зонасининг бир қисмидаги полосалар устига цемент ва асфальт-бетон қопламалари ётқизилади, улар ҳар қандай об-ҳаво шароитида ҳам самолёт ва вертолётларнинг учиш ва қунишини таъминлашга қаратилган бўлиб, учиш ва қуниш “полоса”лари деб аталади. Аэродромлар турига қараб бундай полосалар умумий узунлиги 600-2600 метр ва ундан ҳам ортиқ бўлади, қенглиги эса 25-8-метр ва ундан ортиқ бўлиши зарур. Учиш ва қуниш полосасидаги самолётларнинг қуниш жойларига ҳам ёки перронларга ҳам бўлган йўллар рулежка йуллари деб аталади. Улар қенглиги 10 - 25 метр атрофида бўлади.

Қорақалпоғистон АССРда Тахтақўпирда Фуқаро ҳаво флотидан давлат бошқармаси томонидан тасдиқланган маҳаллий ҳаво йўллари аэродроми мавжуд. Совет Иттифоқи ва бизнинг 1949-йилги ҳаво кодексига биноан, аэродром яқинида ҳар қандай қурилиш тақиқланган. Тахтақўпирда, аэродромнинг яқинлашиш зонасида, маҳаллий аҳоли ўзлари учун уйлар қуришган, бу еса яқинлашиш ҳудудида тўсиқ бўлади.

Аэропорт қоманданти ўртоқ Искандаров вилоят Ижроия қўмитасига бир неча бор тайинланганига қарамай, аэродром ҳудудида қонуний қурилишларга қарши аниқ чора қўрмаган. Биз сизга бу фермаларни аэродром яқинидаги ҳудуддан қиқариб юбориш ҳақида кўрсатма берамиз, ақс ҳолда аэродромни ёпишга мажбур бўламиз. 03.11.1953 162-ҳаво авиаотряди командири Фуқоро авиацияси маёри. Исаков.[2; 6-бет]

Фуқаро ҳаво флотининг Ўзбекистон ҳудудий бошқармасининг 162-ҳаво отряди қўмондонлиги Осиё чигирткасига қарши кураш бўйича авиакимёвий ишларни таминлаш ва сифатли амалга оширишда Ўзбекистон ССР ҳукумати билан қуйидаги тадбирларни амалга оширишда ёрдам беришингизни сўрайди.

1953-йилги мавсум. I. 1953-йил 6-май ҳолатига кўра, Қозоғистон ва Туркменистон фуқаро ҳаво флоти дирекциясининг бирорта ҳам самолёти келмади. Уларнинг қачон келиши номалум. Ишнинг бошланиши 05.10.1953 куни режалаштирилган.

II. Нукус шаҳрида жойлашган 162-ҳаво отрядида қуйидаги камчиликлар мавжуд:

1. Аэрокимёвий ишларни бажариш учун шошилиш равишида зарур бўлган 4 та самолёт етарли эмас.

2. Отряддаги барча ҳаво кемалари авиакимёвий ишларни бажариш учун тўхтатилади, бунинг натижасида республика вилоятларига почта жўнатмаларини ташиш амалга оширилмайди. Почта ташишни таъминлаш учун яна 5 та самолёт керак.

3. Бошқа парвозларни амалга ошириш учун отрядга 2 та самолёт керак.

Ҳаммаси бўлиб, 162-авиация эскадронида 11 та тўлиқ самолёт йўқ.

162-Ҳаво отряди Фуқаро авиацияси маёри Исаков.[3; 16-бет] Ўзбекистон компартияси Марказий комитети биринчи котиби Амин Ниязовга Қорақалпоғистон АССР котиби А.Махмудов томонидан қуйидагича хат юборилган: СССР Фуқаро ҳаво флоти бош бошқармаси бошлиғининг 1955-йил 17-майдаги 057-сон буйруғи билан Нукус аэропорти иккинчи тоифадан учинчи тоифага ўтказилди. Бу автоном республика ва икки вилоят – Дашоғуз ва Хоразмга хизмат кўрсатувчи авиация базаси бўлган Қорақалпоғистон пойтахти аэропортининг ўсиш истикболлари ўрнига ескириб кетишига олиб келади. Фуқаро ҳаво флоти бош бошқармасидан ҳам, фуқаро ҳаво флотининг Марказий Осиё бошқармасидан ҳам ушбу аэропортга эътибор дойимо етарлича бўлмаган. Аэропорт ишчилари томонидан қурилган Нукус аэропортидаги иншоотлар вақтинчалик характерга ега бўлиб, қарийб ўн йилдан буён у ерда ҳеч қандай қурилиш ишлари олиб борилмаётгани, тунги рейслар учун қимматбаҳо ускуналар беш йилдан бери фойдаланилмай ётганини фақат шу билан изоҳлаш мумкин. Тахмин қилиш керакки, Нукус аэропорти тоифаси тушиб қолса, вазият янада ёмонлашади. Айни пайтда республикамизда авиациянинг аҳамияти йилдан-йилга ортиб бормоқда ва бу билан бирга пойтахтимиз Нукус аэропортининг ҳам аҳамияти ортиб бормоқда.

Буни 1952-йилдан буён Нукус аэропортида жойлашган 162-ҳаво отрядининг фаолияти тўғрисидаги маълумотлар ҳам тасдиқлайди, яъни ташкил етилган кундан бошлаб ҳозирги кунгача (фоизда):

1952-йил	1953-йил	1954-йил	1955-йилнинг 1-ярими	
1.Йўловчилар	100	140	222	325
2.Почта	100	118	126	145
3.Юк	100	250	824	887

Бу маълумотлар юк ва йўловчи ташиш ҳажми сезиларли даражада ошганини яққол кўрсатиб турибди. Нукус аэропорти орқали ташиш, шунинг учун уни синфда қамайтириш мақсадга мувофиқ эмас.[4; 109-бет].

Нукус аэропорти иккинчи тоифага қайтариш ва Фуқаролик ҳаво флоти бош бошқармаси 1956-йилдан бошлаб ушбу аэропортни иккинчи тоифали аэропортларга қўйиладиган талаблар асосида жиҳозлаш мажбуриятини олишида ёрдам сўрайман. [4; 110]. Ҳал қилиниши зарур бўлган асосий муаммолардан бири катта қувватли, такомиллашган ва ҳар томонлама тежамли самолёт ва вертолётлар яратишдир. Назарий тадқиқотлар ватанимиз ва бошқа ривожланган давлатлар самолётсозлик тажрибалари шуни курсатадики, бу масалани ҳал қилишдаги бош йўналиш самолётлар йўловчи сигими ва юк кутариш қобилиятини оширишдир. Бу барча мамлакатлар олдида ҳал қилиниши зарур муаммо бўлиб тўрибди.

Қисқа масофада вертикал қўтариловчи самолётлар яратилиши техника тараққиётида янги йўналишдир. Самолётлар вазни ва ҳаракат тезлиги орта бориши учиниш-қуниш йулларини ҳам оширишни талаб қиладики, бу қисқа масофада ва вертикал қўтариловчи самолётлар яратишни ниҳоятта тезлаштиришни такозо этади. Чунки қўтарилиш ва қуниш йуллари узун булган аэропортларни шаҳарлар яқинига қуриш мақсадга мувофиқ эмас. Аэропортларни шаҳарлардан олис масофаларга (50-60 км) жойлаштириш эса ҳаво транспортининг тезкорлиги кадрини қамайтиради. Қисқа масофада вертикал қўтариловчи самолётларнинг парвози учун илгариги 0,2-2,6км учиниш йуллари урнига 300-500 м учиниш йуллари қифоядир. Аслида вертикал қўтариловчи самолётлар учун учиниш ва қуниш йуллари ўрнига кичикроқ майдончалар қифоядир [1; 217]. Иккинчи жаҳон урушига собиқ СССР давлатининг таркибига кирган Ўзбекистон Республикаси ҳам жалб етилди. Давлат иқтисодиёти ҳам руҳий бирлик тўлалиги билан рус манфаатини, фашизм устидан ғалаба қозониш кераклигини такозо етди.

№ 239 авиотряд командири бўлиб Тўрткул аэропорти бошлиғи етиб Уланов Георгий Гаврилович тайинланди. Тўрткул аэропорти бошлиғи етиб Д.К. Рузов тайинланди. Авиотряддаги бўш турган учиниш-техник таркиб Тошкентга - Бошқарма тасарруфига юборилди. Қорақалпоғистонда авиация транспортининг авж нуқтаси бўлган Нукуснинг обрўси тобора ортиб бормоқда. Бу ерда авиакомпаниялар ўсиши ва дунёнинг турли бурчакларидан йўловчилар сони қамайиши Ўзбекистон Фуқаро авиацияси бошқармасининг 239-авиотрядини Нукус шаҳрига боришга мажбур қилди.[5; 20]

Ушбу тадбирлар Қорақалпоғистон авиация транспортида ҳам амалга оширилишни бошлади. Учувчиларнинг кўпчилиги ўз тилаклари билан фронтга кетди. Уларнинг ўрнини ёшлар егаллади. Қорақалпоғистон авиация транспорти «тил»ни мустаҳкамлаш ишига хизмат қилишни бошлади. Шу билан бирга, унинг ўзида ривожланиб, мустаҳкамланишни давом еттирди.

АДАБИЁТЛАР

1. Б.А.Хаджаев. «Ягона транспорт системаси» –Тошкент., Ўқитувчи 1984 йил.
2. Қорақалпоғистон Республикаси марказий давлат архиви. Фонд Р-551, 1-рўйхат, 7500-иш, 6-варак.
3. Қорақалпоғистон Республикаси марказий давлат архиви. Фонд Р-551, 1-рўйхат, 7500-иш, 16-варак.
4. Қорақалпоғистон Республикаси марказий давлат архиви. Фонд Р-551, 1-рўйхат, 7996-иш, 109-варак.
5. Елмуратов Ы., Гришанович А. Қарақалпақстанда ҳаёа транспортының пайда болыуы хэм раўажланыуы тарихынан. Нукус. 1998-ж.

Аннотация: Воздушный транспорт в Каракалпакстане появился в 1945-1955-х годах и развивается почти столетия до сих пор. Это требует более глубокого изучения данного исторического периода.

Ключевые слова: Каракалпакстан, Добролет, самолёт, авиация, Турткуль, авиалиния, звено.

Rezyume: Қорақалпоғистонда ҳаво транспорти 1920-1930-йилларда шаклланган бўлиб, ҳозирги вақтга қадар деярли бир асрлик ривожланиш йўлини босиб ўтди. Бу эса шу тарихий даврни теран ўрганишни ва таҳлил қилишни талаб қилади.

Kalit sózlar: Қорақалпоғистон, Добролет, самолёт, авиация, Торткул, авиалиния, звено

Annotation: Air transport in Karakalpakstan appeared in the 1945s and 1955s and has been developing for almost centuries until now. It requires in-depth study of this historical period.

Key words: Karakalpakstan, Dobrolet, airplane, aviation, Turtkul, airline, department.

ҲАРБӢЙ ХӢЗМАТЧИЛАРНИНГ АҲЛОҚӢЙ-РУҲӢЙ ТАЙЁРГАРЛИГИ ВА ЖАНГОВАР
РУҲӢНИ ОШИРИШДА БУЮК АЖДОДЛАРИМИЗ ТАЖРИБАСИНИНГ РОЛИ

Халилов Р.У.

Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳафсизлиги университети мустақил изланувчиси

Тарихдан маълумки, жангчиларнинг ахлоқий-руҳий тайёргарлиги ва жанговар руҳининг юкори даражада эмаслиги сон ва қурол-аслаҳа жиҳатидан қудратли бўлган армияларнинг ҳам мағлубиятига сабаб бўлганлиги кўп мартаба исботланган.

Бугунги кунда замонавий ҳарбий ҳаракатлар ва тўқнашувлар таҳлили шуни кўрсатмоқдаки, жанг тақдирини энг сўнгги қурол-яроғ ёки ҳарбий техникалар эмас, балки кўп жиҳатдан ҳарбий хизматчиларнинг ахлоқий-руҳий тайёргарлиги ва жанговар руҳи ҳал этаётганлигини кўришимиз мумкин. Бинобарин, шахсий таркибнинг ахлоқий-руҳий тайёргарлиги ва жанговар руҳини юксалтиришда буюк аждодларимиз қолдирган мероси муҳим ўрин эгаллайди. Уларнинг тарихий тажрибаси ҳозирги кунда ҳам ўз аҳамиятини йўқотган эмас.

Ўзбекистон Республикаси Президенти, Қуролли Кучлар Олий Бош Қўмондони Ш.М. Мирзиёев таъкидлаб ўтганидек, “Армия моддий жиҳатдан энг замонавий ва зарур воситалар билан таъминланган бўлиши мумкин, лекин ахлоқий жиҳатдан заифлиги, жанговар руҳи, Ватанга содиқлик ва муҳаббат, унинг тақдири учун маъсулят ҳиссининг йўқлиги ёки лоқайдлик тузатиб бўлмас оқибатларга олиб келиши мумкин” [1]. Миллий армиямиз ташкил этилган дастлабки кунларданок ҳарбий хизматчиларнинг ахлоқий-руҳий салоҳиятини шакллантириш ва ривожлантириш энг муҳим вазифа сифатида эътироф этилди. Ушбу вазифани ижобий ҳал этишда буюк аждодларимизнинг тарихий тажрибасига таяниш, улардан ибрат-намуна олиш муҳим аҳамият касб этади. Тарихга назар солсак Ўзбекистон – ҳақиқий ватанпарварлар юрти эканига амин бўламиз. Ватан ва ватанпарварлик тушунчалари Турон заминиде яшаган аждодларимиз учун азиз ва муқаддас туйғу саналган. Уни ҳимоя қилиш эса шарафли бурч сифатида қаралган. Шунинг учун ота-боболаримиз ахлоқий ва руҳий жиҳатдан мукаммал тайёргарликка эга бўлганлиги туфайли ҳатто жонларидан кечиб ўз она юртини тажовузкор босқинчилардан ҳимоя қилганлигини халқимизнинг миллий қаҳрамони бўлган Широқ ва унинг жасорати ҳақида битилган кўплаб ривоят ва дostonларда кўришимиз мумкин. Юнон тарихчиси ва ноғиғи Полиен ўзининг “Ҳарбий ҳийлалар” асарида шундай ёзади “Сак қабиласи оқсоқоллари Эрон кўшинини енгиш учун ҳарбий кенгаш ўтказётган вақтда, уларнинг ҳузурига оддий отбоқар Широқ келиб, ўз режасини баён қилди. Натижада, ҳарбий ҳийла ишлатган ҳолда Широқ ёлғиз ўзи Доро II лашкарига қарши турди ва уларни мағлуб этди. Широқ душманни ўз сўзларига ишонтириш учун, қабиладoshларидан қилич билан унинг танасига шикаст етказишларини сўради. Улардан ҳеч бири бу ишга ботина олмади. Шунда Широқ кўлига қилич олиб, ўз бурун ва кулоқларини кесиб ташлаб, аянчли аҳволда душман томон йўл олди” [2]. Широқ ўз тана аъзоларини кесиб ташлаб, қандай азобланганини тасаввур қилиш жуда қийин. Шунини алоҳида таъкидлаш жоизки, агар инсон ахлоқий-руҳий жиҳатдан тайёр бўлмаса, бундай жасоратга қўл ура олмаган бўлар эди. Бу ҳақда фикр юритганда, бизнинг улуғ аждодларимиз ўз даврида комил инсон ҳақида бутун бир ахлоқий мезонлар мажмуини, замонавий тилда айтганда, “Шарқона ахлоқ” кодексини яратганлигини таъкидлаш жоиз.

Ота-боболаримизнинг онгу тафаккурида асрлар, минг йиллар давомида шаклланиб, сайқал топган орномус, уят ва андиша, шарму ҳаё, ибo ва иффат каби юксак ахлоқий туйғу ва тушунчалар бу кодекснинг асосий маъно мазмунини ташкил этади десак, хато қилмаган бўламиз. Шу нуқтаи назардан қараганда “уят – ўлимдан қаттиқ” деган гаплар халқ тилида ўз-ўзидан пайдо бўлмаган. Бундай иборалар эл-юртимизга мансуб эзгу ва гўзал ахлоқий қадриятларнинг асл мазмунини ифода этади [3].

Шонли тарихимизда Жалолиддин Мангуберди ва унинг устози Нажмиддин Кубро жасорати алоҳида аҳамият касб этади. Хусусан, Урганчада Нажмиддин Кубро томонидан жувонмардлик мактабига асос солиниши

жангчилар онгига Кубровия тариқати асосида ватанпарварлик, душманга нисбатан аёвсиз қасоскорлик, ўлимдан қўрқмаслик ва озодлик ғоялари сингдирилишида муҳим аҳамият касб этган.

Тарихчи олим Ж.Рахимовнинг таъкидлашича, Жуvonмaрдлик – бу инсондаги энг мураккаб жараён бўлиб, у мукамал ҳолатга етганда жанговар санъат даражасига кўтарилади. Жуvonмaрдчилар томонидан олиб борилган тарғиботларда ватанпарварлик ғояси ўлимдан устун эканлиги лашкар ва халқ онгига сингдирилиб, ўлим – бу тананинг жисмий кўринишдан маънавий-руҳий кўринишга ўтиш жараёни дея уқтирилганлиги душманга нисбатан ахлоқий-руҳий устунликка эришишини таъминлаган [4]. Бунга мисол тариқасида хоразмшохлар давлатининг буюк султони Жалолиддин Мангубердининг мўғул босқинчилари билан бўлган ўн иккита жангда ғалаба қозонганлиги, 1221 йилнинг ноябрида Чинғизхон билан бўлган ўн учинчи жангда мағлубиятга учраб, асир тушмаслик учун тулпори билан Синд дарёсига сакрагани унинг кучли ахлоқий-руҳий тайёргарлик ва жанговар руҳга эга бўлганлиги ҳамда Чингизхон Жалолиддин Мангубердининг жасоратидан ҳайратланиб, ўз ўғилларига “ота ўғил мана шундай бўлиши лозим” - дегани тарихдан маълум [5].

Ўз даврида саркарда “Шерлар ичра энг зўр шер” деган номга ҳам сазовор бўлган Жалолиддин Мангуберди ўз юртининг озодлиги ва мустақиллигини сақлаб қолиш йўлида 11 йил мўғул босқинчилари билан тўхтовсиз жанг қилиб, мисли кўрилмаган матонатни намоён этган. Жалолиддин Мангуберди Ватанини душманлардан ҳимоя қилиш учун ўзини ҳам, жангчиларини ҳам ахлоқий-руҳий жиҳатдан ҳар томонлама тайёрлаган эди. У ахлоқий жиҳатдан мардлик, ботирлик, инсонийлик, инсонпарварлик, ўз юртига ва халқига чексиз муҳаббат, садоқат ҳамда масъулият ҳиссини юксалтирган. Руҳий жиҳатдан эса онглилик, эътиқод, фаоллик, зийраклик, қўрқмаслик, тadbиркорлик, ташаббускорлик ва порлоқ келажакка ишончнинг қатъийлиги Жалолиддин Мангуберди шахсида тўлиқ шаклланиб, у ўзидаги мазкур фазилат ва хусусиятларни қўл остидаги инсонлар онгига моҳирлик билан етказа олган. Айнан шу қобилиятлари билан у катта зафар ва ютуқларга эришган. Жалолиддин Мангуберди қалбида Ватан туйғуси ва ватанпарварлик тамойили жўш урганлиги сабабли, ватанга муҳаббат ва садоқат ҳисси олий қадрият сифатида унинг ҳаёти мазмунига айланган. Худди шу каби дунёқараш ва мафкура ҳозирги кунда ёшлар тарбияси учун жуда ҳам зарур ҳисобланади.

Ж.Рахимовнинг қайд этишича, подшоҳлар, саркардалар ва ҳарбий хизматчиларнинг тинчлик даврдаги асосий машғулоти – ов бўлиб, у жанговар шайликни сақлаб туриш учун замин яратган. Уларнинг ов машғулоти оддий овчиликдан тубдан фарқ қилиб, мардлик ва тезкорликни таъминлашга йўналтирилган. Чопиб бораётган оху ёки бўри, сиртлон ёки бошқа йиртқич ҳайвонлар мисолида ғанимнинг чекинаётган, қочаётган ёхуд ҳужум қилаётган лашкарий гуруҳи сифатида қаралиб, тезлик билан чопаётган от устида ёйдан нишонни аниқ олиб унга ўқ узиши, яқинлашиб бориб найза билан уриб ярадор қилиши, ўлдириши ва ҳатто тириклайин ҳолатда бўйнига 30-40 метр масофадан арқон ташлаб, йиртқични ўлжа олиши ҳарбийлардан талаб қилинган [6].

Ҳарбий стратегия соҳасида ўз замонида тенгсиз ҳисобланган Амир Темур ахлоқий-руҳий омиллардан моҳирлик билан фойдаланган. У ўзининг Темур тузуқларида “Тажрибамда кўрилганким, азми қатъий, тadbиркор, хушёр, жанг кўрган, мард, шижоатли бир киши, мингта тadbирсиз, лоқайд кишидан яхшироқдир” деб таъкидлаб ўтган. Чунки тажрибали бир киши минглаб кишига иш буюради. “Мен яна тажрибамда кўрдимки, ғаним лашкарини енгиш қўшиннинг кўплиги билан эмас, мағлуб бўлиш эса, сипоҳнинг камлигидан бўлмайди. Балки ғолиб бўлмоқлик (Тангрининг) мадади ва бандасининг тadbiri биландир” [7] деб, ишончи комил бўлиб таъкидлайди. Амир Темур ўз армиясида қатъий интизомни ушлаб туриши натижасида юксак ғалабаларга эришган. У жангчиларининг жанговар руҳига катта эътибор берган, қўшинлар тайёргарлиги тизимида турли хил жисмоний ва руҳий усулларни қўллаган. Қўшинининг ахлоқий-руҳий тайёргарлигини такомиллаштириш мақсадида кураш тушиш, ов қилиш, от чоптириш, камондан отиш каби йўналишларда мусобақалар ва байрам тadbirlарини ўтказган. Ҳарбий-муסיкий дасталарнинг сурнай, карнай, ноғора каби муסיкий асбобларидан жангга чорлаш ва жангчиларни руҳлантириш учун фойдаланган [8]. Тарихий манбааларда келтирилишича, Амир Темур ўта таҳликали онларда ҳам саросимага тушмас, ҳиссиётга берилмас, иродаси иккиланишига асло йўл қўймас эди. Жанг олдида жангчиларнинг руҳини кўтариш учун совғалар берарди. Шунингдек, у лашкарлари оғир аҳволга тушиб қолганда уларга руҳий устунлик берувчи мативациялардан оқилона фойдаланганлигини биргина мисол орқали кўришимиз мумкин. Яъни Амир Тумур таъкидлайдики, “Озарбайжон жангида Қора Юсуф билан тўқнашганимда (1400 йилда) лашкарим оғир аҳволга тушиб қолди. Шунда майдонда Қора Юсуфнинг ўлган аскарларнинг бошлиқларидан бирининг бошини найза учига санчиб баланд кўтардим ва лашкаримга Қора Юсуфнинг боши деб кўрсатиб, уни ўлдига чиқардим. Бундан лашкарим дадиллашиб, жангга ташланди ва Қора Юсуф лашкарининг ўртасига ҳужум қилиб, Қора Юсуфни қочирди” [9]. Бундан кўриниб турибдики, бугунги кунда ҳарбий хизматчиларнинг ахлоқий-руҳий тайёргарлиги ва жанговар руҳини оширишда командир ва бошлиқларнинг ташаббускорлиги бекиёс.

Шундай экан командирлар томонидан ўз қўл остидагиларнинг ахлоқий-руҳий тайёргарлиги ва жанговар руҳини оширишда қуйидагиларга эътибор қаратиши мақсадга мувофиқ: шахсий таркибнинг ахлоқий-руҳий тайёргарлигини ташкил этиш ва жанговар руҳини оширишда буюк саркардаларимизнинг ҳарбий санъати ҳамда меросининга таяниш; шахсий таркиб билан ишлашда буюк саркардаларимиз жанговар руҳини ошириш борасида қўллаган шиорлари ва услубларидан самарали фойдаланиш; ҳарбий қисм ва муассасаларда тарихий саналар муносабати билан “Буюк саркардалар ҳарбий санъати билимдон” танловларини ташкил этиш ҳамда ғолиб ва совриндорларини муносиб рағбатлантириш анъанасини йўлга қўйиш; шахсий таркибнинг жанговар руҳини ошириш ишлари самарадорлигини янада ошириш мақсадида замонавий технологиялардан фойдаланган ҳолда Жалолиддин Мангуберди, Амир Темур, Заҳириддин Бобур каби саркардаларнинг галограммаларини яратиш ва улардан ўқув-тарбиявий мақсадларда кенг фойдаланиш; ҳарбий соҳани танлаган ёшларга “Тарихий хотирасиз –

келажак йўқ” тамойилининг мазмун-моҳиятини тушунтириш; ватаннинг муқаддаслигини эътироф этган ҳолда, унинг тинчлиги ҳамда равнақини таъминлаш учун бор куч-имкониятларни ишга солиш шарафли бурч эканини ҳарбий хизматчилар онги ва қалбига сингдириш.

Хулоса ўрнида таъкидлаш жоизки, бугунги кунда ҳарбий хизматчиларда зарур ахлоқий-руҳий сифатларни шакллантириш ва салбий психологик ҳолатларнинг олдини олишда тарихий тажрибанинг ўрни ва аҳамияти жуда катта. Буюк аجدодларимизнинг ватанпарварлиги, улар кўрсатган жасорат ва матонат доимо ҳарбий хизматчилар учун ибрат наъмунаси бўлиб хизмат қилади. Чунки, улар томонидан қабул қилинган қарорлар ва бажарилган амаллар оқилона танланганлиги билан ўша даврдаёқ ўз исботини топган ва ҳануз юксак эътироф ҳамда эҳтиром билан эсга олинади.

АДАБИЁТЛАР

1. Мирзиёев Ш.М., «Ватан ҳимоячилари куни байрами муносабати билан йўллаган байрам табриги» // Ватанпарвар, № 2, 2017.
2. Салоҳиддинов, З. Тарихий жасорат ёхуд жавонмардлик сабоқлари/ З.Салоҳиддинов - Гулистон, 1996. №4, – Б. 13.
3. Каримов, И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч / И.А.Каримов – Т: “Маънавият”, 2008. – Б. 55.
4. Эргашев, А.А. Ҳарбий санъатда ахборот-психологик қарши курашнинг ривожланишида Марказий Осиё халқларининг қўшган ҳиссаси: Ҳарбий-тарихий илмий анжуман материаллари тўплами. / А.Эргашев– Т: “ЎР Қуролли Кучлари Академияси нашриёти”, 2019. – 68 б.
5. Ян В.Г. Великий Чингисхан. / В.Г.Ян - Москва: «Художественная литература», 1979. – 783 с.
6. Раҳимов, Ж. Амир Темур. Адолат ва қудрат тимсоли / Ж.Раҳимов – Т: “Маънавият”, 2017. – Б. 98.
7. Кароматов, Ҳ. Темур тузуклари / Ҳ.Кароматов - Т: “Шодлик”, 2019. – Б. 13.
8. Воробьев, Великолепный А.Тимур / А.Воробьев – М.: “Вокруг света”, 2005. – Б. 45.
9. Махмудов Р.М., Икматуллаев Ф.З. Ҳарбий психология ва педагогика. Дарслик. -Т.: Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Ҳарбий-техник институти, 2019. – 233 бет

Ҳарбий хизматчиларнинг ахлоқий-руҳий тайёргарлиги ва жанговар руҳини оширишда буюк аجدодларимиз тажрибасининг роли

Аннотация. Мазкур мақолада жанговар ҳаракатлар пайтида ҳарбий хизматчилар зиммасига юклатилган вазифаларни сифатли ва ўз вақтида бажарилишини таъминлаш мақсадига шахсий таркибнинг ахлоқий-руҳий фазилатларни юксалтириш борасидаги буюк аجدодларимизнинг тарихий тажрибаси, қимматли фикр ва мулоҳазалари баён этилган.

Калит сўзлар: ватанпарварлик, ҳарбий ҳийла, ахлоқий-руҳий омил.

Роль опыта наших великих предков в повышении морально-нравственной подготовки и боевого духа военнослужащих

Аннотация. В статье описывается исторический опыт, ценные мысли и мнения наших великих предков с целью обеспечения качественного и своевременного выполнения задач, поставленных перед военнослужащими в ходе боевых действий.

Ключевые слова: патриотизм, военный трюк, морально-духовный фактор.

The role of the experience of our great ancestors in raising the moral and spiritual training and fighting spirit of military personnel

Annotation. The article describes the historical experience, valuable thoughts and opinions of our great ancestors in order to ensure the high-quality and timely performance of the duties assigned to military personnel during military operations.

Key words: patriotism, military trick, moral and spiritual factor

СПОРТ СОҲАСИДА КОРРУПЦИЯНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ

Матмуратов Б. Дж.

Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати Оролбўйи минтақасини ривожлантириш масалалари ва экология қўмитаси раисининг ўринбосари

2023 йил 30 апрель куни ўтказилган референдумда умумхалқ овоз бериш орқали қабул қилинган янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 48 – моддасида “**Давлат жисмоний тарбия ва спортни ривожлантириш, аҳоли ўртасида соғлом турмуш тарзини шакллантириш учун шарт-шароитлар яратди**” деб белгиланди [1].

Ҳақиқатдан ҳам муҳтарам Президентимизнинг ташаббуси билан кейинги йилларда мамлакатимизда спортни оммалаштириш, спорт турларини янада ривожлантириш ва спорт инфратузилмасини модернизация қилиш бўйича кенг қўламли ислохотлар амалга оширилмоқда. Хусусан, сўнгги икки йилда спорт соҳасини ривожлантириш юзасидан **30 дан ортиқ норматив-ҳуқуқий ҳужжат** қабул қилинган. Сўнгги беш йилда мамлакатимизда жисмоний тарбия ва спортни ривожлантиришга қарийб **4 триллион сўм** йўналтирилгани ҳам бу борадаги ишлар салмоғини яққол намоён этмоқда.

Муҳтарам Президентимиз спорт масаласида ўтказган йиғилишларда мамлакатимиз спортчилари жаҳоннинг нуфузли мусобақаларида юксак ғалабаларни қўлга киритиб, халқимиз салоҳиятини бутун дунёга намоён қилмоқда. Бу соҳада эришилган ютуқлар мамлакатни дунёга танитади, барча юртдошларга гурури-ифтихор бағишлайди деб ҳар доим таъкидлаб ўтади. Мамлакатимизда спортни оммалаштириш, айниқса бокс, кураш, дзюдо, оғир атлетика, футбол, гимнастика, ва шахмат каби спорт турларини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Кейинги йилларда **Ўзбекистонда**, таэквондо, килич бозлик, велоспорт, байдарка ва каноэда эшак эшиш спортининг ривожланиши суръатлари ҳам ортмоқда.

Гурур билан эътироф этиш керак, 2023 йили Хитойнинг Ханчжоу шаҳрида бўлиб ўтган Осиё ўйинларида Ўзбекистон спортчилари турли даражада 71 та медални қўлга киритдилар. Ўзбекистон терма жамоаси мусобақада Хитой Халқ Республикаси, Япония, Жанубий Корея ва Ҳиндистондан кейин фахрли бешинчи ўринни эгаллади. Давлатимиз раҳбари ушбу натижа Ўзбекистон спорти тарихида яна бир ёрқин саҳифа

очганини таъкидлади [2]. Ханжойу шахрида бўлиб ўтган Осиё ўйинларида спортчиларимиз бешинчи ўринни эгаллаган бўлса, кушчиларимиз Қозоғистон терма жамоаси 11-ўринни, Қирғизистонлик спортчилар 18-ўринни, Тожикистон терма жамоаси 24 - ўринни, Туркменистон медаллар рейтингда 29-ўринни эгаллади.

Маълумки, Ўзбекистон делегацияси Токио-2020 Олимпиядасида 32-ўринни эгаллаб, спортчиларимиз Марказий Осиёда 1-ўрин, Туркий тилли давлатлар орасида 1-ўрин, МДХ давлатлари орасида 1-ўринни эгаллади. Қайд этиш керак, бугунги кун ютиқларимиз билан бирга спорт соҳасида коррупцияга оид ҳуқуқбузарликларни ўз вақтида аниқлаш, уларга чек қўйиш, уларнинг оқибатларини, имкон берувчи сабаблар ва шарт-шароитларни бартараф этишга доир тадбирларни янада жадаллаштириш зарурияти туғилмоқда. Ушбу мақсадларда мазкур соҳадаги қонун ҳужжатларига янги нормалар киритилмоқда. Спорт соҳасида коррупцияга қарши янги норма ҳамда қоидаларни қабул қилиниши биринчи навбатда спортчиларда, шу билан бирга минглаб муҳлис ва томошабинларда спортга бўлган ишончни янада орттиради. Халқимиз қадимдан **ҳалолликни** ниҳоятда улуғлаб келган. Бугунги кунда дунё миқёсида оммалашаётган Миллий курашимизда ҳам ҳалол баҳоси энг юқори баҳо эканлиги бунинг яна бир исботи.

Тақидлаш жоизки, Ўзбекистон Республикасининг **"Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида"ги** Қонунининг 18-моддасига кўра - Спорт федерацияси (уюшмаси) мамлакатда спорт турини ёки спорт турларини ривожлантириш ва оммалаштиришни амалга оширади ҳамда республика ва халқаро миқёсдаги барча тадбирлар ва мусобақаларда спортчилар ва бошқа мутахассислар номидан иш юритади.

Спорт федерацияларининг (уюшмаларининг) ташкил этилиши, фаолияти, қайта ташкил этилиши ва тугатилиши, ушбу Қонунда назарда тутилган ўзига хос хусусиятлар инobatга олинган ҳолда, нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисидаги қонунчиликка мувофиқ амалга оширилади. Маълумки, Спорт федерациялари нодавлат нотижорат ташкилоти ҳисобланади.

Таъкидлаш жоизки, бугунги кун Ўзбекистон республикаси Адлия вазирлиги ва ҳудудий адлия органлари томонидан ўз ташаббусига кўра давлат рўйхатига олинган спорт соҳасидаги (ассоциация ва федерациялар) нодавлат нотижорат ташкилотларининг сони **138 бўлди**, шундан **52 си** ҳудудий адлия органлари томонидан алоҳида давлат рўйхатига олинган. Қайд этиш керак, **"Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида"ги** Қонуннинг "Спорт паспорти" тўғрисидаги 28 – моддасида Спортчининг жисмоний тарбия-спорт ташкилотига мансублиги спортчи ва жисмоний тарбия-спорт ташкилоти ўртасида тузилган меҳнат шартномаси асосида ва (ёки) спортчининг жисмоний тарбия-спорт ташкилотига аъзолиги асосида аниқланади деб белгиланган [3]. Демак, спортчи фақатгина жисмоний тарбия-спорт ташкилоти билан тузилган меҳнат шартномаси асосида эмас, балки аъзолик асосида ҳам фаолият юритади. Шунингдек, Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлигининг маълумотида, хизматчиларнинг асосий лавозимлари ва ишчилар касбларининг классификаторига кўра, спортчилар, тренерлар ҳамда ҳакамлар мутахассис, ишлаб чиқариш ходимлари ва техник ходимлар тоифаларига мансуб бўлиб, улар **мансабдор шахс ҳисобланмаслиги** қайд этилган. Шу боис, ушбу тоифадаги шахслар ЖКда белгиланган мансабдор шахс ва хизматчи атамаларининг мақоми доирасига тўлиқ қирмайди.

Юқоридагиларни инobatга олиб таъкидлаш жоизки, **спортчилар, тренерлар ҳамда ҳакамлар** каби ходимлар **ЖК 210 (пора олиш), 213 (давлат органининг, давлат иштирокидаги ташкилотнинг ёки фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органининг хизматчисини пора эвазига оғдириб олиш), 214 (давлат органи, давлат иштирокидаги ташкилот ёки фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органи хизматчисининг қонунга ҳилоф равишда моддий қимматликлар олиши ёки мулкий манфаатдор бўлиши)**-моддаларида назарда тутилган жиноятлар, шунингдек, **ЖК ХП¹ бобида** "Тадбиркорлик фаолиятига тўсқинлик қилиш, қонунга ҳилоф равишда аралашуш билан боғлиқ жиноятлар ҳамда ҳўжалик юритувчи субъектларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларига тажовуз қиладиган бошқа жиноятлар" учун жавобгарлик белгиланган **ЖК 192⁹ (Тижоратда пора эвазига оғдириб олиш), 192¹⁰ (Нодавлат тижорат ташкилотининг ёки бошқа нодавлат ташкилотининг хизматчисини пора эвазига оғдириб олиш)**, - моддаларида назарда тутилган жиноятларнинг субъекти бўлмайди.

Маълумки, спорт соҳасидаги шу каби вазиятлар халқаро спорт федерацияларининг низом ва кўрсатмалари асосида республикамиздаги спорт федерациялари (уюшмалари) томонидан тасдиқланган қоидаларга мувофиқ ҳал қилинади. Масалан, Ўзбекистон футбол ассоциацияси Ижроия қўмитаси бюросининг 2019 йил 4 мартдаги 4-сонли қарори билан тасдиқланган **Интизом кодексининг** 5.26-бандида клублар (жамоалар)га ҳакамлар, инспекторлар, мусобақа иштирокчиларини пора бериб сотиб олишга урингани ёки сотиб олгани, шунингдек, учрашув натижасига таъсир кўрсатиш мақсадида уларга тўғридан-тўғри ёки билвосита таъсир ўтказгани учун қуйдаги интизомий чаробар белгиланган: учрашув натижасини бекор қилиш; техник мағлубият (уч очкодан қўшимча маҳрум қилиш); пул жаримаси; мусобақа иштирокчилари таркибидан четлатиш каби интизомий таъсир чоралари. Шунингдек, **Интизом кодексининг** 5.35-бандида клублар (жамоалар)га нисбатан қилинган ўйинда ёки учрашувлар натижасига қонунга ҳилоф тарзда, спорт этикасига зид бўлган таъсир кўрсатишда қатнашгани учун: очколардан маҳрум қилиш; қуйи лигага ўтказиш; мусобақалардан четлатиш каби интизомий чоралар қайд этилган. Мазкур Кодекснинг **5.44-бандида** клубнинг расмий шахслари, раҳбарлари ва бошқа ходимлари учрашувга ёки унинг натижасига таъсир ўтказиш мақсадида қелишув (қелишилган ўйин) ташкил қилгани учун: жарима; лицензия амал қилишини вақтинча тўхтатиш ёки умуман бекор қилиш; мукофот ва спорт унвонларидан маҳрум қилиш; футбол билан боғлиқ фаолиятнинг барча турларидан номуайян муддатга четлатиш каби интизомий чоралар қўлланилиши белгиланган.

Қайд этиш керак, 2020-2023 йилларда 4 нафар Ўзбекистонлик теннисчи қелишилган ўйинларда иштирок этганлиги Теннисда ҳалоллик бўйича халқаро агентлиги (ITIA) томонидан аниқланиб, уларга нисбатан (5 йилдан то умрбод муддатга) дисквалификация қилиш ва (8 мингдан 150 минг АҚШ долларигача миқдорда)

жарима жазолари тайинланган. Бундан ташқари, 2022 йилда БМТнинг Наркотик ва жиноятчиликка қарши курашиш бошқармаси томонидан «Спортда коррупция бўйича глобал ҳисоботи»да Спорт арбитраж суди Халқаро сузиш федерациясининг (FINA) сузиш бўйича 2020 йил ноябрь ойида бўлиб ўтган Ўзбекистон Очик кубоги ва 2021 йил апрель ойида бўлиб ўтган Ўзбекистон Очик чемпионатининг айрим натижаларини бекор қилиш тўғрисидаги қарорни ўзи кучида қолдирганлиги қайд этилган. Бундан кўринадики, мамлакатимиз юрисдикциясида спорт мусобақалари натижаларига қонунга ҳилоф равишда таъсир кўрсатишда айбдор шахслар фақатгина спорт низомларига асосан интизомий жазоларга тортилиб келинмоқда. Бу эса, соҳадаги спортчи, тренер, спорт ҳаками ёки спорт мусобақаларининг бошқа иштирокчилари ва ташкилотчиларида қонунга итоаткорлик ва жавобгарлик ҳисси тўлақонли равишда шаклланишига имкон бермаяпти. Барча таҳлиллар кўрсатадики, ҳозирги вақтда мазкур соҳадаги қонун ҳужжатларига спортдаги коррупциянинг олдини олиш ва унга қарши курашишга қаратилган янги нормаларни киритиш зарурияти юзага келмоқда. Жорий йилнинг май ойида Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг 52 Ялпи мажлисида **“Спорт соҳасида коррупциянинг олдини олиш мақсадида Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодексига қўшимчалар киритиш тўғрисида”**ги қонун қизгин муҳокама қилинди ва маққланди.

Мазкур Қонун билан, **Жиноят кодексига 214¹-модда** –**“Спорт мусобақалари иштирокчилари ва ташкилотчиларининг қонунга ҳилоф равишда моддий қимматликлар олиши ёки мулкӣ манфаатдор бўлиши”** ва **214²-модда** –**“Спорт мусобақалари иштирокчилари ва ташкилотчиларини пора эвазига оғдириб олиш”** жиноятлари учун жавобгарлик белгиланди [4].

Жиноят Кодексининг 214¹-моддасининг 1 қисмида - Спорт мусобақалари натижаларини ёки уларнинг боришини қасдан ўзгартириш мақсадида **спортчининг**, тренернинг, спорт ҳакамининг ёхуд спорт мусобақалари бошқа иштирокчиларининг ва **ташкилотчиларининг улар бажариши лозим ёки мумкин бўлган муайян ҳаракатни** пора эвазига оғдириб олаётган шахс манфаатларини кўзлаб бажариши ёхуд бажармаслиги эвазига қонунга ҳилоф эканлигини **била туриб, моддий қимматликлар олиши** ёки мулкӣ манфаатдор бўлиши жиноий қилмиши учун жавобгарлик белгиланди. Моддада бу қилмишларда ЖК нинг 210 ва 214-моддаларида назарда тутилган жиноят аломатлари мавжуд бўлмаслиги курсатилди.

Ушбу қилмиш учун базавий ҳисоблаш миқдорининг эллик бараваридан юз бараваригача миқдорда жарима ёки уч йилгача муайян ҳуқуқдан маҳрум қилиш ёхуд бир йилдан уч йилгача озодликни чеклаш ёки бир йилдан уч йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланиши белгиланди.

ЖК 214¹-модданин 2 қисмида ўша ҳаракатлар: а) тақоран; б) кўп миқдорда; в) тамагирлик йўли билан; г) бир гуруҳ шахслар томонидан олдиндан тил бириктириб содир этилган бўлса, – базавий ҳисоблаш миқдорининг юз бараваридан уч юз бараваригача миқдорда жарима ёки уч йилдан беш йилгача муайян ҳуқуқдан маҳрум қилиш ёхуд уч йилдан беш йилгача озодликни чеклаш ёки уч йилдан беш йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланиши курсатилди.

ЖК 214¹-модданин 3 қисмида бўлса, ўша ҳаракатлар: а) жуда кўп миқдорда; б) уюшган гуруҳ томонидан ёки унинг манфаатларини кўзлаб содир этилган бўлса, – базавий ҳисоблаш миқдорининг уч юз бараваридан олти юз бараваригача миқдорда жарима ёки беш йилдан саккиз йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланиши белгиланди.

Қайд этиш керак, Қонунни ишлаб чиқишда халқаро ҳужжатлар, шунингдек, чет давлатларнинг қонунчилиқ ҳужжатлари таҳлил қилинган. Жумладан, БМТнинг 2003 йилдаги “Коррупцияга қарши конвенцияси” [5], БМТнинг Коррупцияга қарши конвенцияси аъзо давлатларнинг Конференцияларида қабул қилинган 7/8 ва 8/4-сонли Спортни коррупциядан ҳимоя қилиш бўйича резолюциялари, Европа Кенгашининг 2015 йилдаги “Спорт мусобақаларини манипуляция қилиш бўйича Конвенцияси” шунингдек, Германия, Италия, Франция, АҚШ, Аргентина, Бразилия ҳамда Озарбайжон, Беларусь, Грузия, Озарбайжон Қирғизистон, Тожикистон, Латвия, Литва, Молдава, Россия Федерацияси, Украина ва бошқа давлатларнинг қонунлари ўрганилган. Таъкидлаш зарур, “Sportradar Integrity Services” халқаро ташкилотининг таҳлилларига кўра, 2021 йил давомида 76 та давлатда 10 та спорт тури бўйича 903 та шубҳали, яъни келишилган ўйинлар бўлиб ўтган. Натижада қарийб 174 млн. АҚШ доллари миқдорида коррупцион ҳаражатлар амалга оширилган. Мамлакатимизда келишилган ўйинларга қарши кураш чоралари кўриляётган бўлишига қарамасдан, амалиётда мазкур ноҳуш вазият мавжудлиги тегишли ташкилотлар томонидан очикланиб келинмоқда. Европа Кенгашининг 2015 йилдаги Спорт мусобақаларини манипуляция қилиш Конвенцияси, Европа Парламент Ассамблеясининг 2012 йилдаги Резолюцияси ҳамда Европа Вазирлар Қўмитасининг 2011 йилдаги тавсияларида спорт федерацияларида келишилган ўйинларни аниқлаш борасидаги фаолиятни қўллаб-қувватлаш лозимлиги назарда тутилган [6]. Маълумки, спортда келишилган ўйин тушунчаси Европа Кенгашининг **Спорт мусобақаларини манипуляция қилиш бўйича Конвенциянинг 3-моддасида** очиб берилиб, унда кўра **«спорт мусобақаларини манипуляция қилиш – ўзи ва бошқалар учун қонунга ҳилоф имтиёзларга эга бўлиш мақсадида спорт мусобақасининг олдиндан фараз қилиб бўлмайдиган хусусиятларини тўлиқ ёки қисман бартараф этиш мақсадида спорт мусобақаси натижасини ёхуд унинг боришини қасдан ўзгартиришга қаратилган ҳаракат ёки ҳаракатсизлик»**, - деб тариф берилган [6]. Беларус, Армения, Грузия, Тожикистон каби давлатларнинг жиноят кодексларида спорт мусобақаларини манипуляция қилиш жиноятлари **“Спорт мусобақалари ёки томошабоп тиждорат мусобақалари иштирокчилари ҳамда ташкилотчиларини пора эвазига оғдириб олиш”** деб номланган бўлса, Азербайджан, Литва, Латвия, Молдавия каби давлатларнинг жиноят қонунчилигида **“Спорт мусобақалари билан манипуляция қилиш”** деб номланган.

Шунингдек, Россия ва Украина каби давлатларнинг жиноят қонунчилигида “*Расмий спорт мусобақаси ёки томошабоп тижорат мусобақаси натижаларига ноқонуний таъсир кўрсатиш*” деб номланган булса, Германияда “*Спорт ставкалари билан фирибгарлик*”, Италияда “*Спорт мусобақаларида фирибгарлик*” ва АҚШ да “*Спорт мусобақаларида порахўрлик*” жиноятлари учун жавобгарлик белгиланган.

Хулоса ўрнида шунини айтиш керакки, “Спорт соҳасида коррупциянинг олдини олиш мақсадида Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодексига қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги қонун миллий қонунчилигимизни замонавий халқаро стандартлар ва илғор хорижий тажрибани инобатга олган ҳолда такомиллаштиришга, коррупцияга нисбатан муросасиз муносабатни шакллантиришга, спорт соҳасидаги жиноятларни содир этганлик учун жавобгарликнинг муқаррарлигини таъминлашга, шунингдек республикаимизнинг халқаро майдондаги нуфузини мустаҳкамлашга хизмат қилади.

АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Расмий нашр. – Тошкент. “Ozdekiston” нашриёти, 2023. – 80 б./ 20-21б.
2. <https://www.gazeta.uz/tu/2023> йил 11 май.
3. Ўзбекистон Республикасининг 14.01.1992 й. 513-ХП-сон “Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида”ги Қонуни (Янги тахрири. ЎЗР 04.09.2015 й. ЎРҚ-394-сон Қонуни билан тасдиқланган) //Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2015 й., 36-сон, 473-модда/
4. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси//lex.uz/docs/111453 (Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1995 й., 1-сон,
5. Зафар Эргашев, Шухрат Мирзаев. Келишилган ўйинлар спорт соҳасига салбий таъсир кўрсатаётгани бор гап// <https://uza.uz/posts/416889>
6. Бирлашган миллатлар ташкилотининг коррупцияга қарши конвенцияси (Нью-Йорк, 2003 йил 31 октябрь //Ўзбекистон Республикаси халқаро шартномалари тўплами, 2008 й., 3-4-сон.
7. "Конвенция Совета Европы против манипулирования спортивными соревнованиями" (CETS N 215) [рус., англ.] (Заключена в г. Маглингене 18.09.2014)

Спорт соҳасида коррупциянинг олдини олишнинг долзарб масалалари

Резюме. Ушбу мақолада спорт соҳасида коррупциянинг олдини олишнинг долзарб масалалари тадқиқ қилинади ва уларни бартараф этиш юзасидан амалий тавсиялар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: Спорт, коррупция, замонавий халқаро стандартлар, такомиллаштириш, жавобгарлик.

Актуальные вопросы предупреждения коррупции в сфере спорта

Резюме. В данной статье анализируется актуальные вопросы предупреждения коррупции в сфере спорта и разработаны практические рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: Спорт, коррупция, современные международные стандарты, ответственность.

Deputy Chairman of the Senate Committee of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan on issues of development of the Aral Sea region and ecology.

Annotation: This article analyzes current issues of preventing corruption in the field of sports and develops practical recommendations for eliminating them.

Key words: Sports, corruption, modern international standards, responsibility.

О‘ЗБЕКISTON PROKURATURA ORGANLARI FAOLIYATIGA ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKASIYA TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHDA TURKIYA TAJRIBASI.

Abduolimov U. X.

Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi tayanch doktoranti

О‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarida, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta’minlashni ko‘zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirilmoqda. Jumladan, axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan manfaatdor vazirlik va idoralar, biznes hamjamiyati va ilmiy doiralar vakillari hamda xorijiy ekspertlar ishtirokida ishlab chiqilgan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga asosan, hudud va tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish doirasida: aholi punktlarini Internet tarmog‘iga ulash darajasi, shu jumladan keng polosali ulanish portlarini 2,5 milliongacha ko‘paytirish, 20 ming kilometr optik-tolali aloqa liniyalarini qurish va mobil aloqa tarmoqlarini rivojlantirish orqali 78 foizdan 95 foizga etkaziladi; hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning turli sohalarida 400 dan ortiq axborot tizimlari, elektron xizmatlar va boshqa dasturiy mahsulotlar joriy etiladi; 587 ming nafar kishini, shu jumladan «Bir million dasturchi» loyihasi doirasida 500 ming nafar yoshlarni qamrab olish orqali kompyuter dasturlash asoslariga o‘qitish tashkillashtiriladi; iqtisodiyotning real sektori tarmoqlaridagi korxonalarda boshqaruv, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish bo‘yicha 280 dan ortiq axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlar joriy etiladi; hududlarda hokimlar, davlat organlari va tashkilotlar xodimlarining raqamli savodxonligini va malakasini oshirish, ularni axborot texnologiyalari va axborot xavfsizligi bo‘yicha o‘qitish uchun tegishli oliy ta’lim muassasalari birlashtiriladi hamda ularning 12 ming nafar xodimi axborot texnologiyalari sohasida o‘qitiladi. [1]

Mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta’minlovchi eng asosiy davlat organi hisoblanadigan prokuratura organlarining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, faoliyat samaradorligi va ta’sirchanligini ta’minlash,

prokuraturaning xalq va jamiyat oldidagi mas'uliyatini oshirish bugungi kun talablaridan biridir. Mazkur vazifalarning samarali bajarilishi esa prokuratura organlari faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining imkoniyatlaridan keng foydalanish, ular yordamida prokuratura faoliyatini raqamli transformatsiya qilish bilan bevosita bog'liq.

Aytish lozimki, bu borada muayyan ishlar amalga oshirilmoqda, birinchi navbatda, sohaning normativ-huquqiy asoslari kuchaytirilmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.11.2015 yildagi "Prokuratura organlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni yanada joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2433-son Qarori [2], 29.07.2016 yildagi "O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2568-son Qarori [3] shular jumlasidandir. Kezi kelganda qayd etish lozimki, prokuratura organlarining respublikamiz hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat idorasi sifatidagi keng qamrovli faoliyatini raqamlashtirish, ayni vaqtda, respublikamizda qonun ustuvorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi[4]. Tadqiqotchilarning ta'biri bilan aytganda, hozirda prokuratura organlari faoliyatini raqamli transformatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari sifatida zamonaviy axborot texnologiyalari sohasida kibertahdidlar va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish bo'yicha texnologiyalardan foydalanish, barcha darajadagi prokuratura organlari o'rtasida elektron hujjat aylanmasini yo'lga qo'ygan holda axborot sohasida o'zaro va boshqa davlat organlari bilan hamkorlikni amalga oshirishni ko'zda tutuvchi yuqori texnologik nazoratni o'rnatish zarur[5].

Respublikamizda davlat organlari faoliyatini raqamli transformatsiya qilish sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli va kompleks islohotlar sharoitida prokuratura organlari faoliyatini raqamlashtirish, zamonaviy AKT va innovatsiyalarni joriy etish yanada dolzarb hisoblanadi. Qayd etish lozimki, O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarida raqamli transformatsiyani amalga oshirish bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirildi. Biroq, amalga oshirilgan ishlar bilan bir qatorda hal qilinishi lozim bo'lgan ayrim masalalar mavjud. Xususan: elektron shaklda qabul qilingan murojaatlar ulushi pastligicha qolmoqda; murojaatlarni ko'rib chiqishda, surishtiruv va dastlabki tergov yuritishda, eskicha yondashuv asosida foydalanib kelinmoqda; sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasidagi elektron hamkorlik talabga javob bermaydi; jinoyat ishlar yurituvchi raqamlashmagan; tergov ustidan real vaqt rejimida nazorat qilish imkoniyati mavjud emas; davlat organlaridan zarur ma'lumotlarni tezkorlik bilan olish darajasi pastligicha qolmoqda [6]. Aynan shunga ko'ra, ilg'or xorijiy mamlakatlar, jumladan, Turkiya Respublikasining sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish bo'yicha tajribasini o'rganish bugungi kunda o'ta dolzarb va kechiktirib bo'lmaydigan vazifa hisoblanadi.

Ta'kidlash lozimki, Turkiya Respublikasi sud tizimi muhim texnologik va tizimli yangiliklar joriy etish ko'zda tutilgan tizimli islohotlarni boshdan kechirmoqda. Turkiyada samarali, tez, qulay va qog'ozsiz ravishda amalga oshirish uchun bir qator xizmatlar joriy etilgan. Turkiya Adliya vazirligi bergan xabarga ko'ra, joriy etilgan axborot tizimlaridan foydalanishni yanada osonlashtirish maqsadida asosiy urg'u mobil ilovalarga berilgan[7].

Tadqiqotchilarning fikricha, Turkiyada sud-huquq sohasida amalga oshirilgan eng yaxshi texnologik islohot, shubhasiz, "UYAP" milliy sud axborot tizimidir. Mazkur tizim Adliya vazirligining barcha bo'limlari, shu jumladan, sudlar, prokuratura, ijro etuvchi hokimiyat organlari o'rtasidagi o'zaro aloqani ta'minlovchi tizimdir. U sudlar, prokuratura va Adliya vazirligi xodimlari o'rtasida hujjat va ma'lumotlar almashinuvi uchun xizmat qiladi[8]. Bugungi kunga qadar Adliya vazirligi, barcha sudlar, prokuratura, sud-tibbiyot muassasalari, jazoni ijro etish muassasalari, ijro hokimiyati organlarini o'z ichiga olgan axborot tizimi yaratildi [9]. "UYAP" tizimi elektron hukumat, shu bilan birga, boshqa davlat organlarining axborot tizimlari bilan ham integratsiya qilingan. Undan foydalanuvchilar bir qator ma'lumotlarni osonlik bilan olishlari mumkin. Xususan, sud reestri axborot tizimidan jinoyat yozuvlari ma'lumotlari, "Mernis" tizimidan aholi haqida yozuvlari, manzillarni ro'yxatga olish tizimidan yozuvlar, "Polnet" tizimidan haydovchilik guvohnomalari yozuvlari, qidiruvda bo'lgan shaxs guvohnomalari, Markaziy bankdan valyuta kurslari, er reestri va "Takbis" tizimidan kadastr yozuvlarini darhol olish imkoni mavjud. Shuningdek, tizim yordamida transport vositalarini olib qo'yish va ularni boshqarish huquqidan mahrum qilish mumkin[10].

Turkiya sudlarida "UYAP" tizimi 2000 yildan beri joriy qilingan bo'lib, bugungi kunda ushbu tizim doirasida prokuratura, jazoni ijro etish va sud-tibbiyot muassasalari kabi davlat organlari bilan o'zaro hamkorlik ta'minlanadi. Tizim barcha davlat idoralarini elektron Hukumatga asoslangan yagona tarmoqqa birlashtiradi, har bir davlat organi o'z ishining xos xususiyatlariga ko'ra tuzilgan alohida interfeysiga ega bo'lib, har bir foydalanuvchi – tezkor xodim o'z paroli va raqamli imzosi bilan tizimga kirishi va ma'lumot olishi mumkin. Ushbu tizimning asosiy yutuqlari sifatida: sud xatolarining kamayishi, shaxsning to'liq sud tarixini ko'rib chiqish imkoniyati, jarayonning shaffofligi ta'minlanishi va advokatlar uchun umumiy portal mavjudligi kabilarni ko'rsatish mumkin. Sudlar va prokurorlar jinoyat ishlarini ko'rib chiqishda prokuratura tergovchilari tomonidan "UYAP" tizimi orqali hujjatlarni rasmiylashtirish qoidalariga rioya etilishiga e'tibor qaratadilar, agar "UYAP" qoidalari buzilishi aniqlansa, ishni ko'rishdan chiqarib tashlaydilar, bunda elektron ish prokurorga qaytariladi va kamchiliklarning bartaraf etilishi talab etiladi. Kamchiliklar to'liq bartaraf etilganidan keyingina ko'rib chiqish uchun qayta yuboriladi. Elektron raqamli imzo infratuzilmasiga mos ravishda ishlab chiqilgan "UYAP" tizimi yordamida markaziy axborot tizimi yaratilgan va bu tizimda sud, adliya va prokuratura organlari o'rtasida to'liq funksional integratsiyaga erishilgan. "UYAP" va markazlashgan elektron arxivning to'liq integratsiyasi tufayli barcha foydalanuvchilar, xususan, sudya va prokurorlar, shuningdek, qonun hujjatlari bilan berilgan vakolatlar doirasida adliya xodimlari uchun aniq va izchil ma'lumotlardan foydalanish imkoniyati yaratilgan. Foydalanuvchilar ushbu ma'lumotlarga istalgan vaqtda tez va oson kirishlari mumkin, adliya organlari ham qisqa, deyarli bir zumda barcha turdagi ma'lumotlar va hujjatlarni o'zaro elektron shaklda almashadilar. "UYAP"da eng so'nggi ma'lumotlar va hujjatlar ma'lumotlar bazasida o'zgarmas va xavfsiz tarzda saqlanadi.

Har bir sudya, prokuror yoki huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimi elektron kalitga ega bo'lib, u orqali tizimga kiradi, tizimga kirish elektron kalitdan tashqari 5 darajali himoya tizimi bilan himoyalangan. Statistik hisobotlar elektron kartalar asosida inson aralashuvisiz avtomatik tarzda tuziladi va har qanday xodim o'zi uchun zarur bo'lgan hisobot parametrlarini kiritib, ularni qisqa vaqt ichida olishi mumkin [11]. Huquq-tartibot idoralari xodimlarining "UYAP"dan qidiruvdagi shaxslarga nisbatan surishtiruv olib borish imkoniyati yaratilib, oraliq jarayonlarga barham berilganligi sababli ham mehnat, ham resurs va pochta xarajatlari iqtisod qilinadi, eng muhimi, ilgari qayd etilgan hujjatlardagi nomuvofiqliklar tufayli fuqarolar zarar ko'rmaydi. Adliya organlariga avtotransport vositalarining yo'l reestrtdagi yozuvlardan "Mahrum qilish" yozuvini elektron shaklda qo'shish va olib tashlash, shuningdek, avtotransport vositalari boshqarish huquqidan mahrum qilish va yuzaga kelgan noqulayliklar to'g'risidagi ma'lumotlarni elektron shaklda almashish imkonini berish maqsadida Yo'l harakati xavfsizligi Bosh boshqarmasining avtotransport vositalarini ro'yxatga olish tizimi bilan integrasiya qilingan. "UYAP" va Konstitusiyaviy sud o'rtasida ham ma'lumotlar almashinuvi yo'lga qo'yilgan. "UYAP" va Oliy sud axborot tizimi o'rtasidagi integrasiya tufayli sud ishlari (fayllar) tizim orqali Kassasiya sudiga yuboriladi hamda qaytariladi. Advokatlar uchun mo'ljallangan "UYAP" (advokatlar portali) tizimi Advokat axborot tizimi yordamida advokatlar va prokurorlar o'z idoralarida turgan holda, ish materiallarini o'rganishlari va ushbu fayllardan nusxa olishlari mumkin. Ular elektron imzo va mobil imzodan foydalangan holda tizimdagi ish materiallariga hujjatlar qo'shishlari, yangi ish ochishlari, hukm bilan yoki hukmsiz ijro ishini qo'zg'atishlari, yig'im to'lashlari hamda elektron sud jarayonlarida ishtirok etishlari mumkin. Ushbu axborot tizimi yordamida advokatlar deyarli barcha ishlarini o'z kabinetlaridan turib bajarishga muvaffaq bo'lishadi. Citizen Portal (fuqarolar portali) axborot tizimi tufayli Turkiya Respublikasining identifikasiya raqamiga ega bo'lgan barcha fuqarolar elektron hukumat paroli orqali ushbu portalga (<https://vatandas.uyap.gov.tr>) kirib, sud, ma'muriy va huquqni muhofaza qiluvchi organlar ish yurituvdagi o'zlari ishtirokchi bo'lgan ishlarni kuzatish imkoniga ega bo'ladilar. Shuningdek, elektron imzodan foydalangan holda fuqarolar fuqarolik va ma'muriy sudlarga da'vo arizalari bilan murojaat qilishlari, yig'im va xarajatlarni to'lashlari, tegishli hujjatlarni ish materiallariga qo'shish uchun taqdim etishlari, ma'muriy va yo'l harakati qoidalariga oid jarimalarga e'tiroz bildirishlari, prokuratura organlariga shikoyat qilishlari mumkin.

Yana bir e'tiborga jihat shundaki, "UYAP" tizimi amaliyotida sud-huquq tizimini tezlashtirish va ish yuki, qonun hujjatlariga kiritilgan o'zgartirishlar va hokazolardan kelib chiqadigan muhim xabar va prosessual xatolarni minimallashtirish maqsadida barcha jarayonlarda taklif va ogohlantirishlar beradigan "Qarorlarni qo'llab-quvvatlash tizimi (eslatmalar)" ishlab chiqilgan. Tizimda 1300 ga yaqin ogohlantirish mavjud (masalan, sud majlisi maxfiy o'tkazilishi kerak, ayblanuvchi o'lgan, boshqa joyda xuddi shu jinoyat bo'yicha boshqa fayl (ish) mavjud va h.k.). Zarur hollarda ushbu eslatmalar ko'paytirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. Mazkur eslatmalar sudyalari va prokurorlar uchun mustaqillik tamoyili tufayli majburiy emas, boshqacha aytganda, sudya yoki prokuror ogohlantirishni hisobga olish yoki olmaslik masalasini o'zi hal qiladi. Shuningdek, tizim doirasida ishlab chiqilgan "Bilimlar banki" hamda shaxsiy kompyuterlarga o'rnatiladigan "UYAP Qonunchilik dasturi" tufayli barcha qonunlar va sud amaliyoti eng zamonaviy shaklda sudya, prokurorlar, hatto, fuqarolarga ham ma'lumot sifatida etkaziladi. "UYAP" tizimining asosiy axborot markazi Anqara shahrida joylashgan bo'lib, har bir viloyatda filiallari mavjud. Bunda aloqa uchta kanal: doimiy aloqani ta'minlash uchun kabel, internet va sun'iy yo'ldosh tizimi orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, Anqaradagi alohida binoda zaruriy uskunalar o'rnatilgan bo'lib, axborotlar yo'q qilingan taqdirda ham Bosh axborot markazidan barcha ma'lumotlarni tiklash imkonini mavjud.

Shu o'rinda alohida qayd etish joizki, "UYAP" doirasida elektron muhitda axborot va hujjatlar almashinuvinini ta'minlash maqsadida boshqa muassasa va tashkilotlarning axborot tizimlari bilan integrasiya amalga oshirildi. Natijada, ma'muriy va sud jarayonlarida takrorlanuvchi tartib-qoidalar orqali keraksiz arizabozlik va oraliq jarayonlarga barham berildi, tezlik va qulaylikni ta'minlash orqali ish yuki kamayishiga erishildi, kadrlar etishmovchiligidan kelib chiqadigan muammolar kamaydi, pochta va ish yuritish xarajatlari sezilarli darajada tejaldi. Elektron aloqa tufayli bir necha hafta davom etadigan yozishmalar bir necha soniya ichida olib borilmoqda. Axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi natijasida, sud ekspertizasi bo'linmalari faoliyatining samaradorligini baholash, kuch va vositalarni samarali taqsimlash, elektron arxivlash orqali esa huquqiy axborot va hujjatlarni xavfsiz muhitda saqlash imkonini paydo bo'ldi.

Birgina misol, 2009 yilning iyun oyida "UYAP" onlayn yuklash tizimi joriy etilganidan so'ng, 50 millionta so'rov amalga oshirilgan. Bir yil ichida taxminan 450 million turk lirasini tejab qolgan. "UYAP" bilan elektron hukumatni yo'lga qo'yish borasida muhim qadam qo'yildi, qog'oz muhitida amalga oshiriladigan byurokratik operatsiyalarni bartaraf etish va tezkor hujjat va ma'lumot almashish imkonini yaratish orqali bitimlar, xizmatlar va qonuniy harakatlar muddatini sezilarli qisqartirish imkonini paydo bo'ldi. Yuqoridagilar qog'ozbozlik, byurokратиya va oraliq jarayonlarga barham berish orqali sud jarayonini tezlashtirish, inson xatolarining oldini olish, ishchi kuchi, resurs va vositalar, elektr energiyani tejash nuqtai nazaridan baholansa, tizim qanchalik yuqori samara keltirganligiga amin bo'lish mumkin bo'ladi. Ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda "UYAP"ga yangi funksiyalar qo'shish, tashqi tashkilotlarning axborot tizimlari va amaliy dasturlari bilan integratsiyasini yanada yaxshilash, ularning foydalanuvchilarga qulay qilish borasidagi ishlar izchillik bilan davom etayotgan bo'lsa, boshqa tomondan, aloqa infratuzilmasi va tizim markazi kundan kunga mustahkamlanib borilmoqda. Buning uchun, kompyuter, printer va skaner kabilar uchun ma'muriy va sud organlarining ehtiyojlari etarli darajada qondirilgan. Yuqoridagilardan tashqari, Turkiyada boshqa qator ijobiy jihatlar ham ko'zga tashlanadi. Masalan, 2012 yildan boshlab jinoiy sudlarda "SEGBIS" tizimi orqali virtual sud majlisi o'tkazish imkoniyati mavjud. Ko'rsatuvlar, so'roq va sud majlislarini audio-video yozib olish, shuningdek, masofaviy so'roq qilish, shaxslarni sud binosidan tashqarida so'roq qilish tizimi joriy etildi. "SEGBIS" shaxsi oshkor etilmaydigan guvohlarni, xalqaro sud yordami ostida eshitilayotgan shaxslarni, sud majlisida uzrli sabablarga ko'ra qatnasha

olmaydigan yoki sud binosidan tashqarida bo'lgan ekspertlar va guvohlarni tinglash, so'roq qilish yoki sudlanuvchilar, qamoqqa olinganlar, gumon qilinuvchilar va hibsga olinganlar, tibbiy muassasada yoki sud binosidan tashqarida bo'lgan shaxslar sud majlislarida hozir bo'lishini ta'minlash uchun ishlatiladi. Hozirda Turkiyada "SEGBIS" tizimi kengaytirilmoqda. "SEGBIS" xonalari yirik aeroportlar va xorijdagi elchixonalarda tashkil etilib, xorijda yashovchi fuqarolarga o'zlari yashayotgan mamlakatdan chiqmasdan turib sud tinglovlarida qatnashish imkoni yaratilgan. Fuqarolar va advokatlar sud binosiga kelmasdan turib ishtirok etishlari mumkin.

Xulosa o'rnida shuni qayd etish mumkinki, Turkiya tajribasi ("UYAP", "SEGBIS") asosida sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida axborot va hujjat almashinuvini tezkorlik bilan amalga oshirishga ko'maklashuvchi yagona axborot tizimini yaratish zarur. O'zbekiston prokuratura organlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishi prokuratura organlarida ishlarni tashkil etish, prokuror nazoratining shakl va uslublarini takomillashtirish, prokuratura organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini, prokuror nazorati samaradorligi va natijaviyligini oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi.

Shunga ko'ra, prokuratura organlari faoliyatiga raqamli texnologiyalarni izchillik bilan joriy etishga qaratilgan "Raqamli O'zbekiston prokuraturasi – 2030" strategiyasini ishlab chiqish, unda sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida axborot va hujjat almashinuvini tezkorlik bilan amalga oshirishga yordam beruvchi yagona axborot tizimini yaratish orqali idoralararo integrasiyalashuvni joriy etishni ko'zda tutish, ushbu jarayonlarda Bosh prokuraturani muvofiqlashtiruvchi organ sifatida belgilash taklif qilinadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni / Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.11.2023 y., 06/23/193/0844-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 16 noyabrda "Prokuratura organlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2433-son Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2568-son Qarori.
4. Boboev M.M. Prokuratura organlari faoliyatini raqamli transformatsiya qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish // yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – T.: O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi. 2023. – B. 17-18.
5. Середа Е.В., Чесноков Н.А. Цифровая трансформация органов прокуратуры Российской Федерации и стран СНГ // <https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovaya-transformatsiya-organov-prokuratury-rossiyskoy-federatsii-i-stran-sng/viewer>.
6. Boboev M.M. Prokuratura organlari faoliyatini raqamli transformatsiya qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish // yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – T.: O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi. 2023. – B. 37-38.
7. Yargida dijital dōnūšūm çalışmalarına 'UYAP Mobil' uygulaması da eklendi. // Demiroren haber ajansı gızetasi web-saytı – <https://www.dha.com.tr/gundem/yargida-dijital-donusum-calismalarina-uyap-mobil-uygulamasi-da-eklendi-1855488>, 20.10.2023.
8. Boboev M.M. Prokuratura organlari faoliyatini raqamli transformatsiya qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish // yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – T.: O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi. 2023. – B. 120.
9. Прокуратура в зарубежных государствах: учебное пособие. – Алматы, ТОО «Лантар Трейд», 2019. – С. 154-157.
10. UYAP - Genel Bilgi // UYAP axborot tizimi web-sayti – <https://uyap.gov.tr/Genel-Bilgi>.
11. Прокуратура в зарубежных государствах: учебное пособие. – Алматы, ТОО «Лантар Трейд», 2019. – С. 154-157.

O'zbekiston prokuratura organlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishda turkiya tajribasi.

Annotatsiya: Ushbu maqola Turkiya prokuraturasi tajribasi asosida O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish masalalari atroflicha yoritilgan bo'lib, Turkiya tajribasi ("UYAP", "SEGBIS") asosida sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida axborot va hujjat almashinuvini tezkorlik bilan amalga oshirishga ko'maklashuvchi yagona axborot tizimini yaratish yuzasidan takliflar ilgari surilgan. Shu bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish va amaliyotga realizatsiya qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri ekanligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: prokuratura, elektron, transformatsiya, UYAP, SEGBIS, elektron raqamli imzo.

Турецкий опыт внедрения современных информационно-коммуникационных технологий в деятельность прокуратуры Узбекистана

Аннотация: В данной статье на основе опыта прокуратуры Турции подробно описаны вопросы совершенствования использования современных информационно-коммуникационных технологий в прокуратуре Республики Узбекистан на основе опыта Турции («UYAP», «SEGBIS»), она единственная, которая способствует оперативному обмену информацией и документами между судами и правоохранительными органами. Выдвинуты предложения по созданию информационной системы. При этом было показано, что одним из актуальных вопросов современности является широкое внедрение информационно-коммуникационных технологий в деятельность прокуратуры Республики Узбекистан.

Ключевые слова: уголовное преследование, электронное преобразование, УЯП, электронная цифровая подпись.

Turkish experience in introducing modern information and communication technologies to the activities of prosecutor's offices of Uzbekistan

Abstract: This article, based on the experience of the Turkish prosecutor's office, describes in detail the issues of improving the use of modern information and communication technologies in the prosecutor's office of the Republic of Uzbekistan, based on the experience of Turkey ("UYAP", "SEGBIS"), it is the only one that facilitates the rapid exchange of information and documents between courts and law enforcement agencies. Proposals for the creation of an information system have been put forward. At the same time, it was shown that one of the urgent issues of today is the wide implementation of information and communication technologies in the activities of the prosecutor's office of the Republic of Uzbekistan.

Keywords: criminal prosecution, electronic conversion, legal code, electronic digital signature.

MOBIL ILOVA DASTURLARI ORQALI XIZMAT KO'RSATISHNI FUQAROLIK-HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI

Nizamatdinov K.K.

Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Mobil telefonlar uchun dasturlash hususiyatlari va mamlakatda bozor munosabatlarining shakllanishi axborot makonining ochiqligi va raqobatbardoshlikka talablarning oshishi bilan tavsiflanadi. Mamlakat iqtisodiyoti asosiy harakat ishlab chiqarishga yo'naltirilgan fanning samarali ishlashini tiklashga, ilmiy texnologiyalarni rivojlantirish orqali ularning yaqinlashuviga qaratilgan bosqichni boshdan kechirmoqda. Bularning barchasi zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik sub'ektlari uchun muhim axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyati bilan mahalliy korxonalarning dasturiy ta'minotini takomillashtirishning yangi usullarini topish va joriy etishning alohida ahamiyatini ta'kidlaydi.

Operatsion tizimlar uchun mobil ilova asosan komp'yuter dasturi hisoblanadi. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, kompyuter dasturlari intellektual mulk ob'ektlariga, ya'ni mualliflik huquqi ob'ektlariga tegishlidir [1]. Har qanday kompyuter dasturi, shu jumladan mobil telefon ilovasi, dasturchi (muallif) yoki dasturchilar guruhi (mualliflar) tomonidan ma'lum bir dasturlash tilida yozilgan (yaratilgan) "dastlabki kodi" (dastlabki matni) mavjudligi bilan tavsiflanadi. shunga ko'ra, mobil telefon uchun dasturning har qanday dastlabki kodida muallif (mualliflar guruhi) – kompyuter dasturini ixtiro qilgan / yoki yozgan shaxs mavjud. shunday qilib, mobil telefonlar uchun ilovalarning manba matnlari (manba kodlari) intellektual mulkdir, mulk huquqi ushbu kompyuter dasturlari mualliflariga yoki ushbu kompyuter dasturlarining mualliflik huquqi egalari – boshqa jismoniy va/yoki yuridik shaxslarga tegishli bo'lishi mumkin emas.

Mobil ilova ob'ekt sifatida nomoddiy aktivlar jumlasiga kiradi. Nomoddiy aktiv - bu moddiy shaklga ega bo'lmagan, korxona tomonidan ishlab chiqarish, savdo va ijara boshlanishida ma'muriy maqsadlarda foydalanish uchun bir yildan ortiq muddatga (yoki bitta operatsion tsikl, agar u bir yildan oshsa) foydalanish uchun aniqlanishi va ushlab turilishi mumkin bo'lgan qimmatli aktiv hisoblanadi. Nomoddiy aktivlarning o'ziga xos hususiyati bilan bog'liq muammolar, xususan, GAAPda quyidagicha qayd etilgan: "nomoddiy aktivni hisobga olish muammolari boshqa uzoq muddatli aktivlarni, shuningdek ularning asl qiymatini aniqlash, odatdagi, normal shartlarda qiymatining o'zgarishini hisobga olish bilan bog'liq bo'ladi, biro bunda sezilarli miqdor o'zgaradi. Ushbu muammolarni hal qilish nomoddiy aktivlarning hususiyatlari bilan murakkablashadi: ularda jismoniy belgilarining etishmasligi bunday aktivlarning ko'rsatkichlarini qiyinlashtiradi (ularning qiymatini, iqtisodiy hayotini va boshqalarni tasdiqlaydi.), ko'pincha ularning qiymatini taxmin qilish qiyin va foydali hayot ta'rifga bo'ysunmaydi" [2]. N.G.Kuznetsovaning fikricha, "mobil ilova- bu mobil qurilmalarda, xususan, smartfonlarda, planshetlarda foydalanish uchun mo'ljallangan maxsus operatsion tizim uchun ishlab chiqilgan dasturiy ta'minotdir" [3]. Darhaqiqat, mobil ilova muayyan vazifalarni bajarishga qaratilgan yoki ma'lum bir xizmatdan foydalanish imkonini beradigan dasturiy ta'minot sanaladi. Ushbu dasturi ta'minot orqali mobil ilovadan foydalanuvchi tegishli xizmat ko'rsatuvchining tarmog'iga ulanadi va u tomonidan taqdim etiladigan xizmatlarni qabul qiladi. Masalan, bank tomonidan taqdim etiladigan muayyan moliyaviy xizmatlardan foydalanish uchun mijoz tegishli mobil ilova dasturini o'zining mobil qurilmasiga yuklab olishi va undan so'ng bank xizmatidan foydalanishi mumkin bo'ladi. Markaziy bank jismoniy shaxslarga mobil ilovalarni o'rnatish bo'yicha quyidagi tavsiyalarni beradi: "tijorat banklari yoki to'lov tashkilotlari mobil ilovalarini Android operatsion tizimli mobil telefon uchun "Google Play market" internet ilovasidan yoki iOS operatsion tizimli mobil telefon uchun "App Store" internet ilovasidan yuklab olish; mazkur mobil ilovalarda ro'yxatdan o'tish, ya'ni olingan bank karta raqami va amal qilish muddati kiritilgandan so'ng mobil telefonga kelgan maxfiy kodni kiritish orqali identifikatsiyadan o'tish" [4].

Xulosa qilib aytganda, mobil ilovaning mohiyati shundaki, u smartfon va planshetlar kabi mobil qurilmalarda ishlashga mo'ljallangan dasturiy ta'minotdir. Mobil ilovalar muayyan vazifalarni bajarish yoki foydalanuvchilarga ma'lum xizmatlarni taqdim etish uchun mo'ljallangan. Mobil ilovalar mohiyatining bir necha asosiy jihatlari:

1) Maqsadlilik va funktsionallik: Mobil ilovalar muayyan vazifalarni hal qilish, muayyan xizmatlarni ko'rsatish yoki ma'lum ko'ngil ochar dasturlarlarni taqdim etish uchun ishlab chiqilgan. Ular o'yinlar va ko'ngilochar ilovalardan biznes, sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy media, moliya va boshqalar uchun ilovalarga qadar bo'lishi mumkin.

2) Mobil qurilmalar uchun maqbulbiligi: Mobil ilovalar mobil qurilmalarda foydalanish uchun optimallashtirilgan va sensorli ekran, mobil tarmoqlar va ekran o'lchamlari kabi hususiyatlariga moslashtirilgan.

3) O'rnatish va qurilma resurslariga kirish: Foydalanuvchilar mobil ilovalarni ilovalar do'konlaridan o'rnatadilar (masalan, iOS uchun App Store yoki Android uchun Google Play). Ilovalar kamera, mikrofon, geolokatsiya va boshqa funktsiyalar kabi turli xil qurilma manbalariga kirishlari mumkin.

4) Foydalanuvchi interfeysi (UI) va o'zaro ta'sir (UX): Muvaffaqiyatli mobil ilovalar foydalanuvchilarga qulay va intuitiv foydalanuvchi interfeysi (UI) va yoqimli o'zaro ta'sir tajribasini (UX) ta'minlaydi.

5) Yangilanishlar va qo'llab-quvvatlash: Ishlab chiquvchilar o'zlarining ilovalari uchun yangilanishlarni chiqarishlari, yangi hususiyatlarni qo'shishlari, xatolarni tuzatishlari va operatsion tizimlarning so'nggi versiyalari bilan mosligini ta'minlashlari mumkin.

6) Xavfsizlik va maxfiylik: Mobil ilovalar foydalanuvchi maxfiyligini ta'minlash uchun xavfsizlik va ma'lumotlarni himoya qilish standartlariga mos kelishi kerak.

7) Monetizatsiya: Ilovalar bepul yoki obuna orqali taqdim etilishi mumkin, shuningdek, reklama, ilova ichidagi xaridlar va boshqalar kabi turli xil monetizatsiya modellarini o'z ichiga olishi mumkin. Mobil ilovaning mohiyati mobil

qurilmalar foydalanuvchilari uchun kundalik hayotining turli sohalarida qulay va samarali echimlarni taqdim etishga qaratilgan.

Umuman olganda, mobil ilova faqat muayyan turdagi xizmatlardan foydalanish uchun emas, balki Internetdan muayyan ijtimoiy tarmoqqa ulanish va unda muloqot qilish uchun ham zarur sanaladi. Bugungi kunda jahonda mashhur bo'lgan mobil ilova qurilmalari sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

1. TikTok: bu qisqa musiqiy videolarni yaratish va tomosha qilish uchun dastur. Kontent yaratish va almatirish uchun o'ziga xos yondashuvi tufayli yoshlar orasida ayniqsa mashhur bo'ldi.

2. Clubhouse: bu audio-ijtimoiy platforma bo'lib, unda foydalanuvchilar ovozli suhbatlar formatidagi suhbatlarga qo'shilishlari mumkin. Ilova o'zining noyob aloqa formati uchun keng e'tiborga sazovor bo'ldi.

3. Zoom: jahondagi Kovid-19 voqealari munosabati bilan Zoom videokonferentsaloqa ilovasi nihoyatda mashhur bo'ldi. Bu virtual uchrashuvlar va konferentsiyalar o'tkazish imkoniyatini beradi.

4. WhatsApp: mashhur xabar almashish va qo'ng'iroq qilish dasturi. U doimiy ravishda yangilanadi va xavfsiz xabarlar va korxonalar bilan aloqa qilish qobiliyati kabi yangi xususiyatlarni qo'shadi.

5. Google Maps: bu marshrutlar, transport sharoitlari va boshqa foydali ma'lumotlar haqida dolzarb ma'lumotlarni taqdim etadigan navigatsiya va kartografiya ilovasi.

6. Duolingo: turli tillarni o'rganish uchun qiziqarli darslar va vazifalarni taqdim etadigan til o'rganish dasturi.

7. Robinhood: bu qimmatli qog'ozlar va kriptovalyutalar savdosining oddiy va qulay usulini ta'minlovchi investitsiya ilovasi.

8. Adobe Creative Cloud: foydalanuvchilarga mobil qurilmalarda rasmlarni tahrirlash va yaratishga imkon beradigan Photoshop Express, Lightroom va boshqalar kabi bir qator ijodiy va dizayn dasturlari.

9. Health and Fitness Apps (sog'liqni saqlash va fitnes ilovalari): MyFitnessPal, Strava va boshqalar jismoniy faollikni, ovqatlanishni kuzatish va shaxsiy mashg'ulotlarni ta'minlash imkoniyatini beradi.

10. Weather Apps (ob-havo ilovalari): Dark Sky, The Weather Channel va boshqalar aniq va dolzarb ob-havo prognozlarini taqdim etadi.

SHuni ta'kidlash kerakki, ilg'or dasturlarning mashhurligi va idroki mintaqaga, madaniyatga va vaqtga qarab farq qilishi mumkin. Bozorda muntazam ravishda yangi dasturlar paydo bo'lib, yangi innovatsion xususiyatlar va yaxshilangan foydalanuvchi tajribasini taqdim etadi.

ADABIYOTLAR

1. The Verkhovna Rada of Ukraine (1993), The Law of Ukraine "About copyright and related rights", available at: <http://zakon1.rada.gov.ua>

2. Kachalyn V.V. (1998), Fynansovyy uchety otchetnost' v sootvetstviy so standartamy GAAP [Financial accounting and reporting in accordance with GAAP standards], 2nd ed, Delo, Moscow, Russia

3. Кузнецова Н.Г. Особенности приобретения мобильных приложений // <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-priobreteniya-mobilnyh-prilozheniy>

4. Banklarning mobil ilovalariga ulanish va foydalanish tartibi qanday? // <https://cbu.uz/uz/presscenter/news/196212/>

Mobil ilova dasturlari orqali xizmat ko'rsatishni fuqarolik-huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari

Rezyume: Ushbu maqolada mobil ilova dasturlari orqali xizmat ko'rsatishni fuqarolik-huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan va amaldagi fuqarolik qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: shartnoma, xizmat ko'rsatish, mobil ilova, dastur, mobil aloqa xizmati, fuqarolik-huquqiy tartibga solish.

Характеристика гражданско-правового регулирования оказания услуг через программы мобильных приложений

Резюме: В статье анализируются особенности гражданско-правового регулирования оказания услуг посредством мобильных прикладных программ, а также разрабатываются научные выводы и предложения, направленные на совершенствование действующего гражданского законодательства.

Ключевые слова: договор, услуга, мобильное приложение, программа, услуга мобильной связи, гражданско-правовое регулирование.

Characteristics of civil-legal regulation of service provision through mobile application programs

Summary: In this article, specific features of the civil-legal regulation of providing services through mobile application programs are analyzed, and scientific conclusions and proposals aimed at improving the current civil legislation are developed.

Key words: contract, service, mobile application, program, mobile communication service, civil-legal regulation.

КОГНИТИВ ЛИНГВИСТИКА – ТИЛ БИЛИМИНДЕГИ ЖАҢА ПАРАДИГМА**Абдиназимов Ш.Н.***Қарақалпақ мәмлекетлик университети*

«Когнитив» атамасы латын тилинен өзлестіріліп, «cognitio»- реал шынлықтағы нызамлылық хәм кубылыстар тууралы билимди өзлестіріудің процесслери, процедуралары, усылларының жыйнағы деген мәнини билдиреди. Когнитив илимлер – пәнлер аралық илимий бағдар болып, билиу теориясы, когнитив психология, нейрофизиология, когнитив лингвистика, философия, жасалма интеллект хәм антропологияны өз ишине алады. Когнитив илимлерде когнитив системаны моделлестіріуде еки түрлі қатнас көзге тасланады: классикалық түрдеги символизм хәм соңғы дәуірде пайда болған коннекционизм. Символизм адамның ойлауын символлық информацияның бирліклерин избе-из қайта іслеуші орайлық процессор менен байланыссы компьютердің ядына теңлестіреді.

Коннекционизм инсанның жасалма интеллект, нейрофизиология, психология, философиядағы қатнастың бир түрі болып, ойлау хәм минез-құлықтың жасалма нейрон тармақлары, моделлестіріу арқалы үйренеді. Коннекционистлер инсанның ойлауы орайлық процессорға сәйкес келмейді, ал жасалма нейрон тармақларының жәрдеминде формал нейронлар арқалы әмелге асыру мүмкін деп есептейді. Классикалық когнитив илимлер сананың мий менен байланысы, психология менен нейробиологияның байланысы мәселелерін дыққаттан шетте қалдырады. 1980-жыллары психологлар менен нейробиологлардың тығыз бирге іслесіуі нәтижесінде жаңа илим тарауы когнитив нейробиологияның пайда болуына алып келді. Олар мийдің физиологиясы менен менталь феноменді байланыссы ізертлеуге умтылды. Классикалық когнитив илим инсан санасына дыққат аудармаған болса, когнитив нейробиология үшін сана тийкаргы ізертлеу объектіне айланды. Когнитив илимлердің пайда болуы хәм қәлиплесіуі нәтижесінде когнитив лингвистика да пайда болды. Когнитив лингвистика дәслеп америка тил билимінде пайда болды. Америка тил билимінде «когнитив грамматика» термини қолланылады, бул жағдайда «грамматика» термини кең мәніде «тил билими» түсинигін аңлатып келеді, ал рус тилинде «когнитив семантика» термини қолланылады.

Замангөй тил билиминиң жаңа тараўы сыпатында жүзеге шыққан лингвокультурология ҳәр қандай тилдин өзине тән айырмашылықларын қандайда бир белгилер жәрдеминде аң ҳәм сезимлер жәрдеминде ҳәр бир тилдеги мәдениятты көрсетип бериўши тараў болып табылады. Тил билиминиң бул жаңа тараўы бир канша тилши алымлардың дыққат итибарын өзине қаратып, бир канша илимий жумыслардың изертлеў объектине айналған мәселелердин бири сыпатында үйренилмекте. Лингвокультурологияны В.Н.Телия ҳәр қандай миллетке тийисли инсан ҳәм оның мәдений әдеп-иқрамлығын үйрениўши бөлими деп қараса [10: 118], В.А.Маслова тилди синхрон ҳәм диахроник түрде үйрениўши илим тараўы [6: 150], ал Ф.Шарифиан тил ҳәм мәденият концептлери ортасындағы байланысты үйрениўши тил билиминиң бир бөлими [11:68] деп атайды.

Кейинги жылдарда тил билиминде пайда болған илимий изертлеу бағдарлары традициялық структурадағы тил билими хэм когнитивлик тил билими деп екиге ажратылды. Усы еки бағдардың бүгинги күндеги ең баслысы тилди когнитивлик тәрәпинен үйрениу болып табылады. Себеби заманагөй лингвистиканың ажыралмас бир бөлимлери болған когнитив лингвистика, лингвокультурология хэм лингвопрагматика тарауларында ең көп қолланылатуғын атамалардың бири - бул «концепт» термини болып табылады. Биз анализлеп үйренбекши болған жумысымыздың тийкаргы мақсети усы «концепт» термининиң тилши алымлар тәрәпинен үйренилиу жағдайлары менен танысуу хэм оларды системаластыруу болып табылады.

Тийкарынан концепт термини латын тилинен келип шыққан болып *conceptus* – *жууымақлау, улыўмаластыруу*, фейил сөз шақабына айландырган ўақытта *сәулендириу, аңлатуу* деген мәнисти аңлатады. «Концепт» терминин немис тилиндеги сөзликлерде аңлатылуу халатын төмендегише көрсетиўимиз мүмкин: *Konzept das <-(e)s, -e> мужской родағы атлық сөз шақабы: 1. қандайда бир үлкен яки киши жазба жумыслардың режеси. Das Konzept für seine Diplomarbeit hat er bereits fertiggestellt; 2. узак яки қысқа мүддетли проектлер ушын анық көрсетилген реже. Der Abteilungsleiter hat ein völlig neues Konzept entworfen/ präsentiert/ realisiert/vorgestellt. Marketing-, Vertriebs-, Werbe-;*

Усы жерде биз сөзликлерде «концепт» терминине синоним сыпатында қолланылатуғын «түсиник» сөзиниң семантикалық мәнисинде тоқталып өтиўди мақул көрдик. Сөзликлерден мәлим болғанындай, «түсиник» хэм «концепт» лексикалық бирликлери бир-бирин толықтырып келиўши уқсаслықлары менен бир қатарда, өзлериниң парықлы тәрәплерине ийе. Түсиник зат яки ўақияның ең әхмийетли белгилерин билдирсе, концепт олардың жүзеки (онша әхмийетли болмаған) тәрәплерин билдирип келеди. Түсиник сөз арқалы билдиртириледі, лекин түсиник пенен сөз бирдей мазмунға ийе емес. Түсиник қандайда бир топарға кириўши предметлерди улыўмаластыруу хэм бул предметтиң улыўмалық хэм парықланыўшы белгилери тийкарында жасалып барады. Қандайда бир түсиниктиң басқа тиллерде түрли сөзлер менен бериледи.

Мысалы:

Қарақалпақ тилинде: ана, үй, бахыт, көз, дослық;

Немис тилинде: Mutter, Haus, Glück, Auge, Freundschaft;

Инглиз тилинде: mother, house, happens, eye, friendship;

Рус тилинде: мать, дом, счастья, глаза, дружба

Мысалда берилген сөзлер мәниси хэм түсиниги жағынан бир-бири менен тығыз байланыста екенлигин көрсетеди. Сол себепли түрли миллет тиллериндеги сөзлер мәниси бойынша бир-бирине жақын яки тиккелей туўры келиўи мүмкин. Сондай-ақ, сөз түсиниктиң билдирилиўи болып есапланады хэм соның тийкарында бир тилден екінши тилге аударма етиў имкәнияты пайда болады. Айрым тилши алымлар түсиник хэм концепт сөзлериниң мәнислери бир-бирине сәйкес келгени менен түбир сөз мәниси өзге нәрсе деген пикирди келтиреді. Бул мәселе елеге шекем шешимсиз мәселе сыпатында қалмақта. Түсиник хэм сөз мәнисиниң байланыслылығы қалай анықланады деген сораў пайда болыўи мүмкин. Екеўи де бирдей предметти яки ўақияны билдиреди, жәмлестиреди. Бул жағдайда оларды бир-биринен ажыратыў кыйын. Түсиник сөз хэм оның мәнисисиз пайда болыўи мүмкин емес, ал сөз түсиник хэм пикирдиң билдириўшиси болып табылады. Сөз мәниси тил категориясы, түсиник болса айдың категориясы болғанлығы ушын олар бир-биринен парықланады.

«Концепт» термининиң мәнисин анықластыруу мақсетинде бир қанша тилши алымлардың ой-пикирлерине нәзер тасласақ, бул түсиник дүнъяның лингвистикалық көринисин жаратыўда үлкен әхмийетке ийе екенлигин көриўимиз мүмкин. Бул терминниң жәхән лингвистикасында қолланылыўын дәслепки үйрениўшилер Н.Арутюнова [2:], А.Вежбицкая [4], А.Бабушкин [3], Е.Кубрякова [5], В.Телия [10], В.Маслова [6], Р.Фрумкина, З.Д.Попова хэм И.А.Стернин [7], Ш.Абдиназимов [1], Ш.Сафаровлар [8] болып табылады. Анализ етип көрип шығылған илимий мийнетлерден мәлим болғанындай, «концепт» атамасы заманагөй тил билиминде узак жыллардан берли тилши алымлардың дыққат орайында болған болсада, оған анық бир улыўмаласқан анықлама берилмеген.

З.Д.Попова хэм И.А.Стернин сыяқлы белгили алымлар концептти «инсанның ойлау кодининг тийкаргы бирлиги болып, өз ишки дүзилислерине ийе болған, адам хэм жәмийеттиң когнитив хызмети нәтийжеси хэм қурамалы энциклопедиялық мағлыўматларына ийе болған дискрет ақылдың қәлиплесиўи» деген тәрийпти келтиреді [7:191]. Н.Д.Арутюнов концепт түсинигин адам хэм дүнъя ортасында дәлделшылық етиўши «мәдений қатлам» деп тәриплеиді [2:911]. Демек, концепт бул адам аңының элементи болған ментал бирлиги болып есапланады. Аң реал дүнъя менен тилди байланыстырып туруўшы курал болып, хәр қандай мағлыўмат аңда қайта ислеп шығылады, фильтирленеди хэм системаға салынады. Концепт инсан анында билим сыпатында терең сақланып қалатуғын аңлау хэм ақыл жүритиўге жәрдем беретугын мәдений хәдийсе болып табылады. Мәдений түсиниклер инсан аңында билим, ассоциация хэм туйғылар формасында сақланады, сол себепли олар тек ғана түсиниў емес, ал көнликпеге де ийе болады.

Концепттиң тийкаргы белгисин Е.С.Кубрякованың пикири бойынша төмендегише көрсетиўимиз мүмкин: мийдиң оператив контент бирлиги; адам хәрәкетиниң мазмунын сәулендириўши; инвариант (тәртипке салыўшы) тәртипке ийе болыўы, яғный концептлер бақланған затлардың хәр қыйлылығын хэм сәуленген хәдийселерди бир рубрика тийкарында бирлесиўине алып келеди; бейимлесиўшилиқ хэм хәрәкетшеңлик [5:331].

Концептлердиң дүзилиси дүнъяны таныу хэм ол хаққында түсиникке ийе болыўға тийкарланады, концепт ақыл категориясы болғанлығы ушын оны көз бенен көриў мүмкин емес. Е.С.Кубрякова тәрәпинен келтирип өтилген концепт белгисине қарай отырып, биз лингвокультурологияда концепт термини төмендеги мәнилерди

аңлатыуын анықлай алдық: 1) Лексикалық бирліктер жәрдеминде адамның ой-пикирин гәп сыпатында қәлиплестиретуғын идеал көринистеги инсан тәжирийбесиниң ең киши бирлиги;

- 2) Структуралық тәрәптен өзине тән характерге ийе;
- 3) Билимнің өзгеріуі хәм сақлау процессиниң тийкарғы бөлеги;
- 4) Концепт өзгеріуіши хәм өзгермейтуғын функцияларға ийе;
- 5) Ол жәмийетлик болып, оның өз-ара байланыслы бағдарлары прагматикаға тәсир етеди;
- 6) Мәдениеттың тийкарғы клеткасы.

Концептлер инсан хызмети, дүньяны аңлауы хәм социаллық хәрекетке кирисиуі нәтижесинде жүзеге шығады. Түрли концептлер хәр бир миллет тили арқалы билдириледі хәм тилсиз концепт болыуында мүмкин емес. Тил концептлер арқалы инсанларды бир миллетке бирлестиреди. Инсан дүньяны аңлап таныуы менен оны концептке көширеди хәм тил арқалы баян етеди. Немис, қарақалпақ, англиз тиллеринде концепт арқалы сөзлер мәлим лексик-семантикалық группаларға биригеди. Жоқарыда мысалда келтирилген *Mutter (mother, ана, матъ), Haus (үй, дом, house), Glück (бахыт, счастья, happens), Auge (көз, глаза, eye); Freundschaft (дослық, дружба, friendship)* сыяқлы сөзлер концепти пайда етеди. Бир тилдеги терминди билдируі, түсіндируі ушын оны концепт сыпатында анализ етиу мақсетинде сол тил бирліктери хәм сөзлери жәрдеминде оны ауыз еки баян етиледі. Мысалдағы «ана» концепти хәккында гәп етилгенде *мехрибан ана, күш-қайрат, ақыл-парасат ийеси, сабыр-тақат; «үй» концепти баспана, жасау орны, семья, «бахыт» концепти әумет, семьядағы татыулық, қуаныш, ауыз биришилик, жетискенишилик, берекет* тымсалларында сәулеленеди.

Демек, «концепт» түсиниги инсанның рухый дүньясын, оның пайда болыуын хәм мәдениетин көрсетип береді. Инсан аңында сәулеленген қоршаған дүнья хәккындағы билими алдыннан қәлиплескен түсиник хәм традициялар тийкарында кеңейип, мәлим бир концептлер менен беккемленип барады. Бир-бири менен өзара байланыслы болған логикалық концептлер концептуаллық системаны пайда етеди, соның менен бир уақытта олар индивид яки социаллық топарлардың характерини анықластырады хәм хәр қыйлы дәуирдеги мәдениет хәм жәмийетлик турмыс хәккындағы категорияланған түсиниклердің изертленіуі әхмийетин ашып береді.

Жуумақ сыпатында айтып өтиуимізге мүмкин, адамның ишкі сәубет процессинде пайда болған концепт қандайда бир мазмун көринисине ийе болыуы менен бир қатарда, тил бирліктерин таңлау басқышына таярлық көреді. Тил бирліктериниң процессиниң тийкарғы бөлими, айрым жағдайларда пайда болатуғын хәрекетлер, оларды келтирип шығарыушы қураллардың мүнәсебеттерини анықлау хәм илимий анализ етиу тиккелей тил хәм ойлауды бир-бири менен байланыстырыушы шынжыры сыяқлы өз-ара биригиуі менен байланыслы.

ӘДЕБИЯТЛАР

1. Абдиназимов Ш.Н., Толыбаев Х. Лингвокультурология. – Нөкис. Қарақалпақстан, 2000. – 175с.
2. Арутюнова, Н. Д. Язык и мир человека / Н. Д. Арутюнова. – 2-е изд., испр. – Москва : Языки русской культуры, 1999. – 911 с.
3. Бабушкин А. П. Types of concepts in language lexical-phraseological semantics. Voronezh: Publishing house of Voronezh State University, 1996. - 104p.
4. Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание / А. Вежбицкая. – М.: Русские словари, 1997. – 411с.
5. Кубрякова Е.С. Когнитивный взгляд на природу частей речи // Словарь. Грамматика. Текст. — М., 1996. — 331 с.
6. Маслова В.А. Введение в когнитивную лингвистику / В.А. Маслова. – М., 2007. – 296 с.
7. Попова З.Д., Стернин И.А. Очерки по когнитивной лингвистике / З.Д. Попова, И.А. Стернин. – Воронеж, 2001. – 191 с.
8. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. - Жиззах: Сангзор, 2006. – 92 б.
9. Стернин И.А. Методика исследования структуры концепта. // Методологические проблемы когнитивной лингвистики. - Воронеж, 2001. - С.58–65.
10. Телия В.Н. Лингвокультурология- ключ к новой реальности феномена воспроизводимости нескольких словных образований // Язык. Культура. Общение: Сборник научных трудов в честь юбилея С.Г. Тер-Минасовой. М.: Гнозис, 2008 – 118 с.
11. Шарифиан Ф. Культурные концептуализации и язык: теоретические основы и приложения. Амстердам/Филадельфия: Джон Бенджаминс. Википедия 2011, -150 с.

Немис хәм қарақалпақ тиллеринде «концепт» термининиң лингвистикалық анализи

Аннотация: Ушбу мақолада “концепт” тушунчасиниң маъносини немис ва қарақалпақ тилларида киёсий ёритиб беришга этибор қаратилган. Шунингдек, тилшунос олимларнинг «концепт» ва «тушинча» бўйича келтирган фикр ва мулоҳазалари таҳлил қилиниб, немис ва қарақалпақ лингвокультурологиясида ифодаланиши таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: лингвокультурология, концепт, тушунча, фразеологик бирликлар, миллий-маданий бирликлар.

Лингвистический анализ термина «концепт» в немецком и каракалпакском языках

Аннотация: Данная статья посвящена сравнительному изучению понятия «концепт» в немецком и каракалпакском языках. Также были проанализированы мнения и комментарии лингвистов по поводу «концепта» и «понимания», проанализировано их выражение в немецком и каракалпакском языкознании.

Ключевые слова: лингвокультурология, концепт, понимание, фразеологизмы, национально-культурные единицы.

Linguistic analysis of the term “concept” in the german and karakalpak languages

Abstract: This article focuses on the comparative study of the concept of «concept» in Germn and Karakalpak. The opinions and comments of linguists regarding the “concept” and “understanding” were also analyzed, their expression in German and Karakalpak linguistics was analyzed.

Key words: linguoculturology, concept, understanding, phraseological units, national-cultural units.

АЖРАТИЛГАН ТЎЛДИРУВЧИЛИ БЎЛАКЛАРНИНГ ГАП ТАРКИБИДА ЖОЙЛАШИШ ПОЗИЦИЯЛАРИ

Мамбетниязова А. Х.

Қорақалпоқ давлат университети

Лисоний бирликлар мулоқот жараёнида икки инсоннинг ўз-аро муносабатини белгилаб берувчи алоқа воситаси эканлигини ўзбек адабий тилининг султони Мир Алишер Навоийнинг “*Кўнгил қулфи махранинг қулфи тил ва гулфин калитин сўз бил*”, яъни сўз инсон қалбиниинг хазина калити, тил эса мулоқот жараёнида бир нечта дилларни бир-бирига боғловчи воситадир деган таърифини келтириш мақсадга мувофиқдир.

Жамиятнинг ҳар томонлама иқтисодий ва сиёсий тараққиёти учун чет тилларини билиш нафақат ҳозирги замон масаласи, балки ўтган даврларда ҳам чуқур илму-ҳунар соҳиби бўлиши учун муҳим алоқа воситаси сифатида қаралганини Аваз Ўтарнинг қуйидаги мисраларидан кўришимиз мумкин:

Ҳар тилни билув эмди бани одама жондур,

Тил воситаи робитаи оламиёндур.

Ғайри тилини саъй қилинг билгали ёшлар –

Ким илму ҳунарлар ривожин ондин аёндур. (Аваз Ўтар)

Тил билмасдан бизнес, сиёсат, иқтисодиёт оламида, илм-фанда, ахборот ва коммуникация тармоғида ҳар қандай давлат ўз ўрнини топиш қийин. Лекин, бу талаб кўпчиликка қийинчилик туғдирса ҳам, бугун барча томонидан тан олинган тамойил бўлиб ҳисобланади. Шу сабабли мамлакатимизда чет тилларининг тадқиқ қилиниши ва бажарилаётган тадқиқотлар натижаларини амалиётга изчиллик билан татбиқ қилиниши масаласи алоҳида аҳамиятга эга.

Замонавий тилшуносликда лисоний бирликларнинг гап таркибида жойлашиш ўрнини ўрганиш, уларни коммуникатив бўлақларга бўлиш мураккаб гап синтаксиси таҳлили учун янгича ёндашиш усули саналади. Тилнинг синтактик структураси нафақат гап таркибининг кенгайиш ҳолатини, балки ўзига хос коммуникатив-прагматик хусусиятларга эга эканлигини намоён этади. XX аср охири ва XXI аср бошида жамиятимиздаги ижтимоий ҳаётнинг ҳар бир соҳасида кучли ривожланишлар, ўзгаришлар ва бир қанча янгиланишлар илм-фан тараққиётига ҳам ўз таъсирини кўрсатмоқда.

Асосий янгиланишлар тилшунослик тадқиқи объекти бўлган фикрни конкретлаштириш, эътиборни жалб қилиш каби коммуникатив-прагматик функцияларини янги ўринга олиб чиқмоқда. Бу борада, айниқса тўлдирувчининг ажратилган бўлақ сифатидаги коммуникатив-прагматик мазмуни алоҳида аҳамият касб этади.

Тўлдирувчиларнинг ажратилган бўлақ сифатида бажариб келадиган коммуникатив-прагматик функцияларини илмий тадқиқ қилиш, тилдаги тизимли алоқалар ҳақида янада чуқурроқ тасаввурни ҳосил этади. Қайд этиш жоизки, ажратиш ҳодисаси ҳозирги кунгача турли-туман тил материалларида қанчалик узоқ ўрганилиш тарихига эга бўлмасин, у ҳар қандай замонавий тилшунослик фанининг, энг аввало, синтаксиснинг муҳим ва ўрганилиши лозим бўлган долзарб муаммоларидан бири бўлиб қолмоқда. Тўлдирувчиларнинг ажратилган бўлақ сифатида асосий гап таркибида ифодаланиши ўзига хос семаник, синтактик ва стилистик хусусиятлари билан бир қаторда коммуникатив-прагматик функцияларни очиб беришга имкон яратади.

Ажратилган бўлақ гап таркибида ҳар хил позицияларда қўлланилиши мумкин. Структуравий-семантик бошқарилиши сабабли ажратилган бўлақлар ўзига хос позиция ва тузилиш ёрдамида кенгайтирилади. Ҳар бир позиция синтактик ва морфологик характери жиҳатидан ажратилган бўлаққа маълум даражада семантик-стилистик таъсир кўрсатади [4; 112-б.]. Немис тилидаги гапларга рамкали конструкция ва боғлиқли сўз тартибига хос бўлганлиги сабабли гап таркибида ажратилган бўлақларнинг қўйидаги жойлашиш ўрнини айтиб ўтиш жоиз:

1) препозиция - гапда олдинги позицияда, яъни назарда тутилган ўриндан олдинги ўринда келиши:

Papiere, unterschriebene und gestempelte Blätter lagten immer noch im Zimmer auf den Boden (9; 38);

2) гапнинг биринчи ўрнида: *die Hand auf dem Bauch, stand sie schweigend* (8; 17). Ушбу позиция варианты кам ҳолатларда ифодаланади;

3) гапнинг ўртасида (интерпозиция): *Die Annamarie, das Täubchen aus gemeinsamen Kirchenschulen, war zu Tante geworden, und der Junge, bisher ein kleines Kind, immer kränkelnd, immer fiebernd, strotzte vor Gesundheit* (8; 315);

4) гапнинг охириги ўрнида (феъл-кесим рамкаси йўқ бўлган ҳолда): *Die andern Kettenläden waren eine starke Konkurrenz, trotz der höheren Preise* (7; 120);

5) постпозиция- феъл-кесим рамкасидан кейинги ўринда: *Außen sah er seinem Vater wie ein Ei, hauptsächlich ein Schürzenjäger und wurde von allen geliebt, auch von allen Frauen* (6; 9).

Бир аъзоси бир нечта боғлиқли сўзлар билан мураккаблашган фикрнинг коммуникатив юкланишни камайитириш мақсадида ажратишнинг коммуникатив функцияси, яъни функционал нутқ стили билан ажратиш алоқаси ёрдамида намоён бўлади. Расмий ёки илмий услубдаги матнлар учун жуда кўп тобе сўзлар билан мураккаблашган узун, коммуникатив мазмунга бой ва кўп учрайдиган аниқловчиларнинг ишлатилиши ўзига хосдир. Бадиий асарларда тобе сўзлар билан мураккаблашган аниқловчи конструкциясининг ўрнига қўшимча аниқловчи гапларни ёки ажратиш конструкциясидан фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади.

Гапнинг олдинги ва охириги позиция ҳолатида келган ажратилган бўлақлар гапнинг тузилиши ва тушунишни енгиллаштирадиган бўлақларни ҳосил этади. Бир бутун гапни икки мустақил компонентларга бўлиш каби спецификаси асосан суҳбатдош билан тўғридан-тўғри алоқа қилиш шартлари билан эмас, балки инсоннинг идрок этиш қонунлари билан ҳам белгиланадиган қисқа, синтактик жиҳатдан мураккаб бўлмаган

фикрларга хос бўлган оғзаки нутқ билан боғлиқ. Ажратилган бўлақларнинг гапда олдинги ва охириги позицияларда ифодаланиши гапнинг тузилишини соддалаштиришга ва баён этилган фикрнинг характерини очиб бериб, бевосита ўй-фикрини юритишдан олдин оғзаки нутқнинг ўзига хослигини таъминлайди. Бундай структура ва синтактик шакллар нутқ жараёнида кўшимча хусусият ва тушунчаларни ҳосил қилади. Интерпозитив ҳолатда келган ажратилган бўлақлар ўз навбатида маълум бўлаққа параллел равишда баҳолаш, мулоҳаза юритиш мотивациясини беради ва моҳиятан кўп тарафламали ҳикоя яратилади. Позициялар ўртасида ноодатий ажратилган бўлақлар феълнинг тусланиб ўзгарадиган бўлагидан олдин келиб жойлашган ҳолли ажратилган бўлақларни айтиб ўтиш жоиз. Улар феълни учинчи ўринга чиқаради, бўлақланган бўлақлар ўртасида семантик вазибаларни ўзгартириб фикрни иккига бўлади. Ажратилган бўлақ гапдаги ноодатий ўрни туфайли янги мантикий урғули бўлимни ҳосил қилади [2; 113-б.].

Ажратиш ҳодисаси тақдорланмайдиган гапларда ҳукмрон бўлиб, яъни отлар маъно жиҳатидан алоқалари туфайли субстантивлик гуруҳнинг ядросида ажратилган шаклда постпозицияда туриши мумкин. В.Г.Адмонининг таъкидлашича, ажратиш ҳодисаси билан гапларнинг бўлиниши на феъл-кесим муносабатларини, на бошқа синтактик муносабатларни ифодалайди, балки улар фақат устма-уст қўшилади [1; 172-б.]. Шунингдек, ажратилган бўлақлар предикативлик мезонига кирмайди ва яқка синтактик алоқадаги интонацион характерга эга бўлади. Барча ажратилган бўлақларнинг умумий белгиси ўзига хос интонацион ва график ясалишига эга бўлган, гапдаги грамматик структурасига нисбатан мустақиллигида характерланади. Ажратиш ҳодисаси натижасида ҳосил бўлган хабарнинг бўлақланиши нафақат ажратилган компонентнинг белгиланиши билан боғлиқ, балки гапнинг асосий таркибини енгиллаштириш мақсадида ажратилмаган бўлақни кенгайтирилган бўлақларнинг ёрдамсиз маълумотни тушунарли қилиб аниқлаштиради.

Margret wurde das Mädchen genannt, Margret!, und in die letzten Reihen gesetzt, auf die Hinterbänke in die Klasse (5; 14).

Ажратилган бўлақлар гапнинг ритм-мелодик тасвирини ўзгартиради. Уларнинг ёрдамида гап конструкцияси яхши кўринишга эга бўлади ва гап таркибида ажратилган бўлақларнинг эмфатик бўлиниб берилиши туфайли эмоционал мазмунга бойлиги ортади. Гапларда фикрнинг бўлиниши узвий қўшилган гап билан ажратилган бўлақларнинг мос келмаслигини кучайтириши мумкин. Гапларнинг ажратилган компонентлар ўртасидаги асосий ўринни асосан от ёки оломошлардан ҳосил бўлган ажратилган бўлақларни гапнинг бошига чиқарилган пролептик конструкциялар эгаллайди. Лекин бу каби ажратилган компонентлар кўпинча бош келишида қўлланилган бўлади.

Sie vergeht schnell, die Zeit, sie vergeht im Nu (6; 26).

Мисолда гапнинг *sie* оломоши билан берилган биринчи бўлаги ажратилган бўлақ ёрдамида гап маъносига қўшимча қилиниб, тўлдирилиб берилаёпти.

Оломошнинг от ёки отлашган гуруҳлар билан берилиши ажратиш ҳолатида отларнинг гапнинг охириги ўрнида қўлланилиши - бу гап маъносига қўшимча қилиш ва уни тўлдириш бўлиб ҳисобланади. Бу кўринишдаги ажратилган бўлақлар бадий асар матнларида кўплаб учрайди.

Offiziere liess sie zu diesen Zusammenkünften selten zu, auch nicht Martin Ritter, nicht einmal ihren Mann, den General (7; 293).

Er hatte die kennengelernt, und Arbeitsplätze und Menschen (6; 475).

Берилган мисоллардан маълум бўладики, ажратилган гап бўлақларининг коммуникатив функцияси адресат ва адресант ўртасидаги мулоқот муносабатларида намоён бўлади. Адресант адресатга янгилик сифатида бераётган маълумотида қандайдир бир гап бўлагини асосий гап бўлагидан ажратган ҳолда ифодалайди [3;18].

Хулоса қилиб айтганда, ажратилган бўлақлар ўзлари бирикиб, ифодалаб келган маълум бўлақнинг мазмунини алоҳида ажратиб ифодалайди ва унинг маъносини конкретлаштириб, унга аниқлик киритади. Ушбу конкретлаштириш асосида маълумотни тингловчи асосий диққат-эътиборини мазкур ажратилган бўлаққа қаратади. Гап таркибида маълум бўлақ гапнинг темаси ва аниқлиқ киритилиб изоҳлаётган ажратилган бўлаги гапнинг ремаси, яъни асосий гапга янгилик сифатида киритилиб, мазмунни кенгайтириб аниқлаштиради.

АДАБИЁТЛАР

1. Адмони В.Г. Пути развития грамматического строя в немецком языке. - М., Высшая школа, 1973. -172 с.
2. Гулыга Е.В. Теория сложноподчиненного предложения в современном немецком языке. - М., 1971. -206 с.
3. Дудорова Э.С. Коммуникативно-прагматический аспект обособленных компонентов предложения и их семантико-синтаксические свойства: на материале обособленных определений, обстоятельств и косвенных дополнений в английском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - СПб., 1994. - 48 с.
4. Фадеева Л. В. Обособление и обособленные члены предложения в современном немецком языке // Гуманитарные исследования, - М., 2011. - № 2(38). - С.110-114
5. Kayser Barbara. Sie nannten sie Anna. Anna und ihre Kinder. Printed in Great Britain, 1991. - 624 S.
6. Hörig Ursula. Palermo und die himmelblauen Höschen. VEB Hinstorff Verlag. -Rostock, 1972. -186 S.
7. Feuchtwanger Lion. Narrenweisheit oder Tod und Verklärung des Jean-Jaques Rousseau. Aufbau-Verlag, Berlin, 1953. - 442 S.
8. Brecht Bertolt. Dreigroschenromam. Aufbau-Verlag. - Berlin und Weimar 1968. - 493 S.

Ажратилган тўлдирувчи бўлақларнинг гап таркибида жойлашиш позициялари

Аннотация: Мазкур мақолада немис тилидаги тўлдирувчи ажратилган бўлақларнинг гап таркибида жойлашиш ҳолатлари ўрганилади. Лисоний бирликлар гап таркибида ҳар хил позицияларда жойлашиб келиши орқали гапнинг коммуникатив-прагматик функциялари кучайиб боради.

Калит сўзлар: ажратилган бўлақ, препозиция, интерпозиция, постпозиция, феъл-кесим рамкаси

Аннотация: В данной статье рассматривается размещение обособленных части в структуре немецкого предложения, образованного с объектом. Коммуникативно-прагматические функции предложения усиливаются с помощью размещения языковых единиц в разных местах структуры предложения.

Ключевые слова: обособленные члены предложения, препозиция, интерпозиция, постпозиция, глагольно-сказуемая рамка

Positions of detached objects in the sentence

Abstract: This article deals with the placement of detached parts in the structure of a German sentence formed with an object. The communicative-pragmatic functions of the sentence are enhanced by the placement of linguistic units in different places of the sentence structure.

Key words: detached parts of a sentence, preposition, interposition, postposition, verb-predicate frame

KÓRKEM TEKSTTE GRADACIYANÍ BILDIRILIW USILLARI

Sadenova G.P.

Qaraqalpaq mámleketlik universiteti

Gradaciya – latin tilinen alınğan bolıp, teksheme-tekshе (dárejeníń ósip barıwı yamasa túsip barıwı) mánisin bildiredi. [1,42] Gradaciya predmet, belgi, qásiyet, háreket hám t.b. qubılıslardıń bir-birinen kúshlirek yamasa kúshsizirek mánilerin til birlikleri arqalı kúsheytıp yamasa páseytip kórsetedi. Bunda tásirshenlik áste-aqırın, izbe-iz kúsheytıp yamasa páseyip baradı.

“Gradaciya” túsigin ilimge francuz ilimpazı J.B.Lamark alıp kirgen. [2, 10] Bul sóz latin tilindegi gradation (áste-aqırın ósip barıwı) mánisin bildirip, ol gradus – basqısh, dáreje sózinen kelip shıqqan. Gradaciya predmet, belgi, qásiyet, háreket hám t.b. qubılıslardıń bir-birinen kúshlirek yamasa kúshsizirek mánilerin til birlikleri arqalı kúsheytıp yamasa páseytip kórsetedi. O’zbek tili izertlewshisi J.Djumabaevanıń monografiyasında til bilimindegi dárejeleniw qubılısı – sózler arasındaǵı mánilik qatnaslardıń bir kórinisi sıpatında qarastırılıp, oǵan graduonimiya qubılısı dep atama berilgen – «...o’zbek tilshunosligida lisoniy ma’noviy munosabatni aks ettiruvchi sinonimiya, omonimiya, antonimiya kabilarning umumiy tarkibiy qismi bo’lgan - onimiya qismini lotincha gradu (“daraja”, “bosqich”) so’zi bilan biriktirish asosida sun’iy ravishda yasaldi»[3,23]. Sonday-aq, izertlewshi O.Bazarov doktorlıq dissertaciyasında graduonimiya tek sózler arasında ǵana emes, bálkim fonetika hám fonologiya, morfologiya hám sintaksis, stilistika tarawlarında da sáwleleniwshi ulıwmalıq qatnas túri ekenligi haqqındaǵı pikirlerdi aldǵa qoydı. [4,38]

Kórkem ádebiyatta halatlardı, sezim hám keshirmelerdi salıstırıwda, sezimlerdiń tolǵanısnı tolıq beriwde gradaciya keń qollanıladı. Bir qatar ádebiyatlarda gradaciya mánilik jaqtan, jasalıw usılı jaǵınan hám bildiriliwine qaray bir neshe túrlerge bólinedi.[5, 25] Kóterilip barıwshı gradaciya – **klímaks**, páseyip barıwshı gradaciya – **antiklímaks** dep ataladı. [6,14] Ayırım izertlewshi alımlar, gradaciyanıń bunday etip bóliniwın maqullamaydı. Sebebi, gradaciyanıń ózi dárejenıń artıwı, ósip barıwı dep esaplanılsa, onıń páseyiwın gradaciyanıń ishinde úyreniw durıs emes dep esaplaydı. Waqıya, hareket, qubılıslardı dárjeme-dáreje arttırıp kórsetiwdi **gradaciya**, al onıń páseyip, kúshsizlenip barıwın **degradaciya** dep atawdı usınıs etedi. Biraq, atamasınan málim bolǵanıday «de» - «joq, bolımsızlıq» mánini bildiriwine qaray, bul pikirge kópshilik ilimpazlar qosılmaydı. Gradaciyanıń klímaks hám antiklímaks dep bóliniwın logikalıqqa durıs keledi dep esaplaydı.

Antiklikans yaǵnıy páseyip barıwshı gradaciyaǵa muǵdar, ólshemniń izbe-iz, áste-aqırın túsip barıwı názerde tutıladı. Mısalı: *Esjan ǵarrı oylanıp kiyatur, ómiriniń sońǵı jıllarınıń, sońǵı aylarınıń, sońǵı kúnleriniń bárin-bárin eske túsirgisi kele beredi. (Shırashılar, 33-bet); Bunday náhánler biz qusaǵan puxarasın, onda da biz qusaǵan shopanın, shopan bolǵanda da bala shopanın «meni sınay aladı» dep oylamaydı. (Iǵbal soqpaqları, 101-bet)*

Keltirilgen bul mısaldı kórinip turǵanıday, *jıl – ay – kún* waqıt ólshemleriniń izbe-iz túsip barıwı menen súwretlewdiń emociionallıq tásiiri kúsheytıp, artıp baradı. Al, tómendegi mısalgá qaraytuǵın bolsaq, is-háreketiń, halattıń kem-kemnen páseyip, joq bolıp ketiwın bildirip turǵanlıǵın kóriwimizge boladı. *G’awqıldı ǵawırılıǵa, ǵawırılı sıbırılıǵa aynalıp, izi suw seripken shańǵıtay basıldı. (O’rdek qırǵınnan soń, 265).* Jazıwshı shıǵarmalarında gradaciyanıń fonetikalıq, leksikalıq, frazeologiyalıq hám sintaksislik usıllarınıń qollanıwı arqalı sóylewdiń ótkir mánige iye emociional-ekspressiv kórkemlilikke bay bolǵanlıǵı mısallar járdeminde úyrenildi.

Fonetikalıq gradaciya. Fonemalar arasında gradaciya qubılısı dawıstı kóteriw hám páseyiw, sózdegi seslerdi soziw, pát hám t.b. sáwlelenedi, jazba tekstte graduallıqtı bildiriwdiń fonetikalıq quralları bul – háriplerdiń arttırılıp jazıp kórsetiliwi menen bildiriledi. Mısalı: *–Pútkil dúnya esleydi-i-i, - dep sozdı Kuminger ǵarını ermeklegendey kúlip. – Pútkil dunya esleydi-i-i-i, baba-a... (Shırashılar, 16)*

Leksikalıq gradaciya. Sózler, sóz dizbekleri sinonim sózlerdiń, emociionallıqqa iye sózlerdiń bir kontekst ishinde izbe-iz dárejelenip kelip, pikirdi kúsheytıp ótkirlestirip beriledi.

Bunday náhánler biz qusaǵan puxarasın, onda da biz qusaǵan shopanın, shopan bolǵanda da bala shopanın «meni sınay aladı» dep oylamaydı. (Iǵbal soqpaqları, 101-bet); Bala qansha kómeklessin-kómeklespesin, ǵarrı qansha tırbansın-tırbanasın, qıynalsın-qıynalmasın, bári bir, iyesiz qalǵan bes úydiń egini ózleri bardaǵıday tórelı egin qusap jalshıǵan joq. (Shırashılar, 39-bet) - Mınań qarań, Berdikárim aǵa, men buniń Evropasın gezgen adamman, Zúbayda ushın Xalqabadǵo, Xalqabad, Alyaskanı bilmeysiz siz, Amerikani bilmeysiz, Sibirdi bilesizǵo... - Ayta görme, atına ot tússin sonıń! - Men hátte, onıń arǵaǵına da qayılman, bar esap ete beriń! (Mashaqatlı asırımlar, 15-bet); Sayımbet te sayradı, oǵan sayraw jır ma, ózi künige tórt mezigil, bes mezigil sayrap júrgen adam. (Mashaqatlı asırımlar, 14-bet)

Gradაციანი́н синонимлер арқалы bildiriliwi. Sinonimiya hám graduonimiyanıń ózara qatnası haqqında O.Bozorov tómendegidey teoriyalıq pikirlerdi bildiredi: “sinonimiya quramındaǵı dárejeleniwge baylanıslı názik ayırmashılıqlar negizinde sinonimiyanıń emes, graduonimiyanıń pereferik belgileri bolıp esaplanadı”. [4,59] – *Gúnanı kóp islegen, kóp el tonap, kóp qanǵa batqan qaralı edi. (Mashaqatlı asırımlar, 6-bet); A’ne, sóytip, taqsıyır, men sol ğayıbımnıń ishında májnún bolıp, barmagan jerim, baspaǵan tawım, kirmegen esigim, únilmegen tesigim qalmadı. (Mashaqatlı asırımlar, 12-bet); Lıykin, meniń aq suńqarım, qoldan ushqan aq kepterim – aydan arıw Zubayda janımnıń meńzesin taba almadım. (Mashaqatlı asırımlar, 12-bet)*

Frazeologiyalıq gradaciya. Frazemalar arqalı tekste máni ótkirlesedi, biraq, frazemanıń quramına ózgeris kirgiziw, birneshe frazemalardı bir kontekst ishinde qatara qollanıw (kontaminatsiyalaw arqalı da) yamasa frazemalar menen olardıń leksikalıq mánilerin de birge qatar qollanıw arqalı olardıń mánilik kúshiniń elede ótkirlesiw jaǵdayları ásirese, jazıwshı shıǵarmalarında júdá kóp ushırasadı. *Kelip ayaǵın Qudaybergeniń átashtanına qattı tirep otır. Balanı onnan da beter! (Mashaqatlı asırımlar, 112-bet); Aspanǵa ushsa ayaǵınan, jerge kirse shashınan tartaman Haytmuratıń. Dúnyanıń topıraǵın elep bolsa da Zubaydanı tawıp alaman!... (Mashaqatlı asırımlar, 14-bet); - Qudanıń ózi yar bolsın, eki jıldan beri “bes qonaq” “awxat pispesten” burın kelip, qazandı awdarıp, gójeni tógip, xalıqtıń pısın yamaná qurıtıp tur, quday abıray bergey... (Mashaqatlı asırımlar, 124-bet).* Bunda, birinshi mısalda ayaq tirew frazeması aytqandı qılmaw, qırsıǵıw mánilerin bildiredi, jazıwshı tárepinen bul frazemanıń xalıqtıń milliy koloritine say ózgeriwi bir tárepten oqırmanda qızıǵıwshılıqtı oyatsa, ekinshiden jazıwshı sheberligi arqalı gradaciyalıq mániniń kúsheyiwine alıp kelgen. Al, ekinshi mısalda birneshe frazemalar bir kontekst ishinde qatara qollanıw gradaciyanı payda etse, úshinshisinde birneshe frazemalar hám onıń lekiskalıq mánileri de qatara qollanıw kelip gradaciyalıq súwretlew usılı qollanılgan.

Sintaksislik gradaciya. Gáptiń birgelikli aǵzaları arkalı muǵdar-dáreje ólsheminiń arttırıp kórsetiliwi gradaciyanıń sintaksislik usıl arqalı bildiriliwın támiyinleydi. A’sirese, bireglikli aǵzalardıń qaytalıp keliwi gápte qaxarmannıń hár túrli psixologiyalıq jaǵdayların (qorqıw, gúdikleniw, gúmanlanıw) ashıp kórsetiwge járdem beredi. *O’mir qaytıp keler me edi, urnıǵıp jasar edim, órtenip jasar edim. (Shirashılar, 24)*

Gáptiń birgelikli aǵzaları arqalı: *Mıynetimiz kóp sińgenge me, kelin, qulayın dep tursa da, tap, paqsası ústimizden basıp qalatuǵının sezsek te sibastırǵımız, pıtestirǵımız kele beredi-aw bunı! (Shirashılar, 36-bet); Bárinen de beter, ǵarrınıń minaw qarawsız miywa daraqtıń, shólırkegen eginniń tusınan qaramay óte almaytuǵın, kózi tússe aylanıspay kete almaytuǵın «tutanaqlı keseli» basına úlken bir qara miynet boldı. (Shirashılar, 37-bet); Sen bilmegeniń menen, sen tanımaǵanıń menen atı Xalqabadta bul kirip shıqpaǵan esik, bunı keseklemegen bala, júz metr jerge shelli úrip, bul mańlayı qattını uzatıp salmaǵan iyt joq! (Xalqabad, 172-bet)*

Qaratpa aǵzalardıń keńeyip, qaytalanıw keliwi arqalı pikir kúsheyip gradaciyalıq usılda berilgen: *G’azlar, zindandaǵı Alpamıstıń xatın eline jetkergen ǵazlar, meniń aǵamnan nege ákelmeydi eken, usı ǵazlar!... (Kóp edi ketken tırnalar, 184); O-o dostım, usı bir japıraq qaǵazdı qansha kúttiń sen, kóziń tórt bolǵansha kúttiń sen, bunı (Kóp edi ketken tırnalar, 203-b).* Mısalda keltirilgen birinshi jay gáptegi pikir, ekinshi gáptegi onıń mánisine sinonim frazeologiyalıq sóz dizbeginiń qollanıw keliwi arqalı mazmun kem-kem kúsheyip, ósip bariwı nátiyjesinde gradaciyalıq kórkem usıl payda etilgen.

Gradაციანი́н gáp arqalı bildiriliwi. *O’ytkeni, ǵarrı dáryaǵa shıra jaǵıwǵa baratuǵın bolsa da salmanı jaǵalaydı, salma boyındaǵı shóllep, gúlin tógip atırǵan qawın atızǵa qarasa – kimdiki? Nazarbaydiki! Dombıqlanbay atırǵan, júdáma bolıq júweri kimdiki? Bul da Nazarbaydiki! (Shirashılar, 37-bet).* Bul gradaciyanıń túrin ayırım ilimpazlar logikalıq gradaciya dep te ataydı, sebebi, gáp logikalıq jaqtan tamamlanǵan bir oydı bildirgenligi ushın da bunda gáplerdiń bir-birin tolıqtırıp, keńeyip, pikirlerdiń izbe-iz dawam etiwı mániniń ótkirligine, kem-kemnen kúsheyip bariwına tásir etedi.

Gápte belginiń kem-kemnen páseyip bariwı, kúshsizleniwı de ushırasadı. Mısalı: *Eliwden asqanda Esjan ǵarrı atayı bay bolmaǵanı menen baǵman atanıp, ózinshe jurta qayır-saqawat kórsetip atqan boldıdaǵı, biraq, negedur, basqa ǵarrılarda jas mingen shurtminezlenbedi, shataqqa aylanbadı, kem-kemnen móhminlenip-móhminlenip, «endigi jaǵında bir qoydıń ómirindeyómirim qalǵandur, bunnan bılay da heshkimniń pıshıǵına pısh, tawıǵına tót demeyin», degen sertinde bekkem turǵanlıǵı sonshellı, tap usı búginleri móhminnen-ám móhminlenip, pútkilley ǵaripsımaqqa aynalǵan edi (Shirashılar, 24)*

Gradაციანი́н tákirarlawlar arqalı bildiriliwi. *Tap nawqan qurttay qutırlatıp-sıtırлатıp “kitaptı jep” baratırǵan birewler, kitap sorap júrgen birewler, kitaplıǵa erip júrgen birewler, kitaplınıń bası aspan liykin, sol kitap taptıra bermes edi. (Mashaqatlı asırımlar, 25-bet).* Bul keltirilgen mısaldaǵı kitap hám birewler almasıq sóziniń qaytalanıw keliwi arqalı aytilajaq oy-pikir kem-kem kúsheyip barıp tásirlikke erisken.

Juwmaqalap aytqanda, jazıwshı shıǵarmalarında gradaciyalıq súwretlew usılınıń barlıq formaların ushıratıwǵa boladı. Gradatsiya arqalı kórkem teksttiń tili awızeki sóylew tiline jaqınlasadı, pikirdi obrazlı, tásirli, emocional-ekspressiv túrde jetkerip beriw dárejesi artadı.

АДЕБИЯТЛАР

1. Лапасов Ж. Бадий матн ва лисоний таҳлил. Тошкент, Ўқитувчи, 1995.
2. Махмудова Н. Инглиз ва ўзбек тилларида градациянинг когнитив ва прагматик қиёсий таҳлили. Филол.фан.фалсафа(PhD)докт..дис. автореф. Андижон, 2021. – 50 б.
3. Джумабаева Ж. Ўзбек ва инглиз тилларида лексик ҳамда стилистик градуонимия. Филол.фан.док...дисс. Тошкент, 2016. – 231 б.
4. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Филол.фан.док...дисс. – Тошкент, 1997. – 270 б.
5. Qurbonova M., Yoldoshev M. Matn tilshunosligi. – Toshkent: Universitet, 2014. – B. 78.
6. Орифжоновна Ш. Ўзбек тилида луғавий градуонимия. Филол.фан.номз...дисс.автореф. – Toshkent, 1996.

7. Сейтов Ш. Шырашылар. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1986.

8. Сейтов Ш. Халқабад. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1977.

Badiiy matnda gradatsiyaning bildirilish usullari

Rezyume. Maqolada gradatsiya tasvirlash vositasining badiiy matnda tutgan oʻrni va yozuvchi Sh.Seyitovning graduonimlarda foydalanish mahorati yoritib berilgan. Shuningdek, yozuvchining badiiy asarlaridan olingan parchalar yordamida gradatsiyaning bildirilish usullari tadqiq qilingan.

Kalit soʻzlar. gradatsiya, graduonimiya, graduonim, fonema, leksema, frazema, sinonim.

Способы выражения градации в художественном тексте

Резюме. В данной статье рассматривается роль градуонимов в художественном тексте и умение писателя Ш. Сейтова использовать его в градации. Также были исследованы способы выражения градации с помощью отрывков из художественных произведений писателя.

Ключевые слова. градация, градуонимия, градуоним, фонема, лексема, фразема, синоним.

Ways of expressing gradation in literary text

Summary. This article discusses the role of graduonyms in the literary text and the ability of the writer Sh. Seitov to use it in gradation. Also, the methods of expressing gradation with the help of excerpts from the writer's artistic works were researched.

Key words. gradation, graduonymy, graduonym, phoneme, lexeme, phraseme, synonym.

МУЛОҚОТ ЖАРАЁНИДА “ИЛТИМОС ҚИЛИШ” ХУШМУОМАЛАЛИКНИ ИФОДАЛАШ ОМИЛИ СИФАТИДА

Бабаева Г.С.

Қорақалпоқ давлат университети

Инсонларнинг жамиятда ва одамлар орасида ўз ўрнига, мавкеига ва обрў-эътиборига мустаҳкам эга бўлиши, унинг ҳаётдаги мураккаб ва машаққатли фаолиятларидан бири ҳисобланади. Шахснинг мураккаб фаолияти деганимизда унинг кўпчилик билан аҳил бўлиб ишлаш, улар билан мулоқотга киришиш ва уларга кўшилишда инсондаги муомала маданияти ва турли вазиятларга ижобий муносабатда бўла олиши тушунилади.

Сўзлаш, тинглаш ва англаш замон ва макон танламайдиган тушунчалардир. Шундай экан, мулоқот жараёнидаги суҳбатдошлар ўртасидаги ўзаро муносабат, мурожаат шаклларидаги тўғри қўлланилиши ва турли вазиятларга тайёр бўлиш муомала маданиятининг шаклланишида муҳим аҳамият касб этади. Муносабат, мурожаат, мулоқот, мунозара, муҳокама, мулоҳаза сингари тушунчаларнинг барчаси муайян миллатнинг тийнатиға мос бўлган зийнатлар бўлиб, у этик ва эстетик меъёрлар, қоидалар билан амалга оширилади.

Демак, маданиятлараро мулоқот жараёнида вужудга келадиган инсонларнинг бир-бирини тушунишидаги муаммолар ва кийинчиликлар фақат лисоний жиҳатдан эмас, шунингдек ҳар хил ижтимоий-маданий омилларни ҳам ўрганишни тақозо этади. Маданий ўзига хослик бадий асар, санъат, фалсафа ва бошқаларда ифодаланибгина қолмасдан, кундалик ҳаётдаги ижтимоий гуруҳ ёки шахснинг ахлоқ қоидаларида ҳам кузатилади.

Хушмуомалаликнинг коммуникатив-прагматик нуқтаи назардан тақдим этилишини Y.Liang нинг хушмуомалалик ўзаро тушуниш, мурасага келишиш назариясига асосланган ҳолда биз 1) хушмуомалалик ибораларининг қўлланилиши; 2) ноқулай вазиятларнинг олдини олиш; 3) стратегик мулоқот воситаси каби уч функциясини ажратиб кўрсатамиз. Ушбу функцияларнинг амалга ошиши бир томондан, ўз маданиятидаги ҳаракат ва ахлоқий нормаларнинг натижаси сифатида эътироф этилса, бошқа томондан муносиб жараёнларнинг яқинлиги ёки муқобиллиги тахмин қилинади [5:15]. Мулоқот жараёнида илтимос шаклини ифодаловчи хушмуомала талаблар асосий мазмун сифатида кузатилади. Маданиятли инсон арзимаган бир илтимос билан кимгадир мурожаат этар экан, у албатта ўз сўзини “*Агар сизга малол келмаса*”, “*ижозат этсангиз*” каби иборалар билан бошлаб, бу билан у мурожаат қилаётган кишининг иззатини бажо келтирган бўлади.

M.Schrader-Kniffki тадқиқотида илтимос ва миннатдорчиликнинг ифодаланиш ҳолати + Aufforderung → - Höflichkeit / - Aufforderung → +Höflichkeit (+Талаб → -Хушмуомалалик / -Талаб → +Хушмуомалалик) тарзда ишлатилиши ўрганилиб чиқилган. Бунда асосан хушмуомалалик ва тиллараро муносабатларда лингвумаданий фарқлари тадқиқ этилган. Илтимос формаси хушмуомала талабларни ифодалашда асосий мазмун сифатида кузатилади [7:79].

Мисол: „Ich bitte Sie und Ihre Frau sehr um Entschuldigung. Und zugleich bitte ich um Erlaubnis, mich empfehlen zu dürfen“ [4: 107].

- Тузукмисиз, ота?

- Худога шукур, - деди Ҳасанали, - боягидан бир оз енгилладим. Мазмуни ис теккан экан.

- Баъзи юмушлар буюрсам ...

- Буюрингиз, ўғлим

- Раҳмат, ота, бўлмаса бизга чой қайнатиб берсангиз-чи.

- Ҳўб, бегим [12: 12-13].

- Раҳмет, Илья апа, биз қайтамыз, - деди ол.

- Мэйли, жақсы барың. Барганнан кейин қоңыраў этиўди умытпаң.

-Болады [10: 61].

Мисолларда суҳбатдошларнинг ўзаро мурожаатлари бир томондан, буйруқ шаклида кўрилгани билан суҳбат жараёнида улар ўртасидаги ўзаро илиқ муносабатларнинг намоён бўлишини кузатамиз мумкин. Ўзбек ва қорақалпоқ тилларидаги мисолларни M.Schrader-Kniffki таҳлили билан таққослаб кўрганимизда аксинча

+Хушмуомалалик → -Талаб / +Хушмуомалалик → -Талаб шаклида ифодаланади.

Н. Lüger фикрига кўра, суҳбатдошларнинг бир-бирига бўлган қатъий талаби ҳам баъзи ҳолатларда муомала шаклига нисбатан хушмуомала тарзда ифодаланиши, хушмуомала мулоқотнинг юзага келишини такозо этади [6: 56]. Унинг фикрига биноан, коммуникантларнинг бир-бирига бўлган буйруқ талаби қиёсланаётган тилларда баъзи бир кўмакчи лексик бирликлар ёрдамида хушмуомалалик билан ифодаланишини бадий асарлардан олинган мисоллар таҳлилида кузатишимиз мумкин.

Мисол: *Dennoch wurde mir die Antwort nicht ganz leicht, ich zerriß drei Entwürfe, ehe ich antwortete: „Es ist mir eine Ehre, dass Sie mir so viel Vertrauen schenken, und ich verspreche Ihnen, ehrlich zu antworten, falls Sie dies von mir fordern. Ich darf Sie natürlich nicht bitten, mir mehr zu erzählen, als Sie innerlich wollen. Aber was Sie erzählen, erzählen Sie sich und mir ganz wahr. Bitte, glauben Sie mir, daß ich Ihr Vertrauen als eine besondere Ehre empfinde“* [8: 144].

- *Агар рухсат берсангиз, хотиржам бўлиш учун эртага қўнғироқ қилардим.*

- *Майли, бемалол* [11: 38].

Сизден *және бир өтинип сораитұғыным*, егерде мени халық қатарына қосыңыз келсе, жоқарыда баян еткен тилеклеримди жерде қалдырмасаңыз екен [9: 18].

Келтирилган мисоллардан маълум бўладики, немис тилида *bitte* юкламаси, исми билан мурожаат қилиш, *ich möchte dich bitten* ибораси билан берилган яширин турдаги белгилари, *doch, mal* каби модал юкламалари, саволга талаб ёки тасдиқни билдирувчи кўчирма гаплар орқали хушмуомала мулоқот алоқаси намоён бўлади. Ўзбек ва қорақалпоқ тилларидаги мисоллар таркибида “*Агар рухсат берсангиз*”, “*Майли, бемалол*” “*Сизден және бир мәрте өтинип сораитұғыным*” каби шаклларида билдирилиши кузатилди.

Тадқиқ этилган манбалардан келиб чиққан ҳолда биз хушмуомала мулоқотдаги илтимоснинг билдирилишида 1) мақсадга йўналтирилган ҳаракатлар; 2) суҳбат жараёнида муҳим аҳамият касб этувчи суҳбатдошларнинг ўзаро муносабатлари; 3) хушмуомала мулоқот ва илтимосни тақдим этишда қулай фурсатни кутиш ёки вазиятга кўра суҳбатдошнинг аҳволини эътиборга олиш; 4) илтимос қилувчи шахс ва илтимос йўналтирилган шахс ўртасидаги ўзига хос муносабатларнинг вужудга келишига сабабчи бўладиган асосий мезонларни келтиришимиз мумкин.

Шунингдек, хушмуомалаликнинг таркибидаги илтимосни аниқ ва оддий тарзда ҳам қисмларга ажратиш мумкин: илтимос қилиш ва унинг бажарилиши; илтимосни қабул қилиш ва уни охиригача етказиш.

Қиёсланаётган тиллардаги хушмуомалаликнинг умумлисоний ва фарқли қўлланилишини қуйидаги мисолларда кўрсатишга ҳаракат қиламиз.

Мисол:

Отабек ташаккур этди. Тагин бир оз чой ичиб сўзлашқандан сўнг, Отабек дафтаридан иккита хат чиқариб деди:

- *Сизга оғир келмаса, бир хизмат топширмоқчиман, уста!*

- *Буюрингиз!*

Отабек қўлидаги хатларни узатиб:

- *Мен шу соатнинг ичида Тошканд жўнашга мажбурман. Шунинг учун сиз бу хатларни қайин отамникига ўз қўлингиз билан элтиб берасиз* [12: 253].

„*Ich danke Ihnen, daß Sie so dankbar sind. Aber bitte, gehen Sie jetzt! Abends sieben Uhr an der Eingangshalle des Bahnhofes wollen wir dann Abschied nehmen*“ [8: 133].

Мазкур мисолнинг *Aber bitte, gehen Sie jetzt!* маъносини қорақалпоқ тилидаги мисол билан қиёслганимизда қуйидаги тарзда берилишини кузатишимиз мумкин.

- *Берекет табың, телефоныңызды әкете ғойың, - деди ол* [9: 152].

Ўзбек тилида берилган мисолдаги “*Сизга оғир келмаса*” ибораси илтимоснинг хушмуомала шаклда тақдим этилишини, сўзловчининг суҳбатдошига бўлган ҳурматини намоён қилишда муҳим ҳисобланади. Немис тилидаги мисолда *Aber bitte, gehen Sie jetzt!* илтимос белгиси кескин рад қилиш маъносида, қорақалпоқ тилидаги “*берекет табың*” ифодаси суҳбатдошига илтимосини хушмуомала тарзда етказиб бериш орқали китобхоннинг диққат-эътибори ҳар хил тиллардаги лингвимаданий фарқларни англашига қаратилади. Мисоллар таҳлилидан кўринадики, немис тилида берилган матнда сўзловчи суҳбатдошига ўз миннатдорчилигини, илтимосини хушмуомала ифодаланиши кузатилади, жумладан, *danken, dankbar sein, bitten* сўзларининг қўлланилиши коммуникатив зиддиятлардан йироқлашишда муҳимдир.

Демак, хушмуомалалик бу лингвистик жиҳатдан тилдаги бир воқелик ҳисобланиб, инсонлар мулоқотидаги кундалик ҳодисалардан бири сифатида эътироф этилади. Шунингдек, ҳурмат ва эътиборни ифодалашда муҳим аҳамият касб этади. Хушмуомала муносабатларни М.Наае фикрига биноан семантик жиҳатдан “*Honorifikation*” тушунчасига асосланган ҳолда талқин этганимизда, энг аввало у “хурмат” маъноси билан зич боғлиқли бўлиб, муомала маданиятидаги кўп маънога эга бўлган лексик воситаларни ифодалашда қўлланилади. Унинг илмий-тадқиқот ишида “хурмат” тушунчаси сўзловчи ва тингловчи ўртасидаги ижтимоий муносабатлари билан боғлиқ бўлади деган назарий фикрлар билан бойитилган [2: 94]. М.Наае томонидан кўриб чиқилган илмий-тадқиқот ишида хушмуомалалик концепти асосида маданий муносабат ва миллий-маданий аспектларнинг мазмун ва моҳияти ёритилган.

Кундалик ҳаётдаги турли мулоқотларда “хурмат” тушунчасининг ифодаланишини А.Книгге қуйидагича таърифлайди: „Агар ўзгаларнинг Сизни ҳурмат қилишини хоҳласангиз, унда ўзингизни ўзингиз ҳурмат қилинг“

[1: 89]. G.Held ўз тадқиқот ишида самимийлик, ўз ўзига танқид ва шунга ўхшаш категорияларни ҳисобга олган ҳолда, бугунги кунда ҳурмат тушунчаси хушмуомала хулқда муҳим аҳамиятга эга деган хулосага келди [3:28].

Бизнинг фикримизча, юқори даражадаги ҳурматни ифодалаш ҳам хушмуомалаликнинг маълум бир қисми ҳисобланади. Кўплаб хушмуомалалик, юриш-туриш, одоб ҳақидаги адабиётларни кузатганимизда ўзгача кўра ўзини ҳурмат қилиш юқори даражада баҳоланади деган хулосага келишни тақозо этади. Демак, бу ўринда хушмуомалаликнинг икки ўзгача ва ўз шахсига ҳурмат аспекти намоён бўлади.

Шундай экан, мулоқот жараёнидаги турли вазиятларда миннатдорчилик, илтимос ва кечирим сўраш шакллари ҳар хил маданиятда турлича ифодаланиши билан муҳим аҳамият касб этади. Бадиий адабиётлар ёрдамида хушмуомалаликнинг маданиятлараро ифодаланишининг кичкина қисмларини кузатишга ҳаракат қилдик. Унда немис, ўзбек ва қорақалпоқ тилларидаги хушмуомалаликнинг фақат амалга ошиш шаклигина эмас, балки маданий шарт-шароитлари ва ўз мақсадига эга мулоқот натижаларининг ҳар хил жиҳатлари кузатилди.

АДАБИЁТЛАР

1. Der Deutsch-Knigge. Sicher formulieren, sicher kommunizieren, sicher auftreten. – Mannheim: Bibliographisches Institut & F.A. Brockhaus AG, 2008. – 477 S.
2. Haase M. Respekt: Die Grammatikalisierung von Höflichkeit. – München: LINCOM EUROPA, 1994. – 116 S.
3. Held G. Partikeln und Höflichkeit. – Frankfurt am Main: Peter Lang GmbH, 2003. – 384 S.
4. Hesse H. Der Steppenwolf. – Frankfurt am Main: Suhrkamp, 1974. – 191 S.
5. Liang Y. Höflichkeit im Chinesischen. Geschichte-Konzepte-Handlungsmuster. – München: Iudicium, 1998. – 342 S.
6. Lüger H. Höflichkeitsstile. 2. korrigierte Auflage. – Frankfurt am Main: Peter Lang, 2002. – 182 S.
7. Schrader-Kniffki M. Spanisch-Zapotekische Bitt- und Dankeshandlungen. Sprachkontakt und Höflichkeit in einer amerindischen Kultur Mexikos. – Frankfurt am Main: Vervuert, 2003. – 547 S.
8. Zweig S. Vierundzwanzig Stunden aus dem Leben einer Frau. – Frankfurt am Main: Büchergilde, 1957. – 195 S.
9. Ёбдирахманов О. Таъламалы шығармалар. – Тошкент: Ёзбекистан Республикасы Илимлер академиясы “Фан” баспасы, 2009. – 664 б.
10. Нысанов М. Таъламалы шығармалары. VIII том. – Нөкис: Билим, 2018. – 312 б.
11. Тоғай Ш. Тавба йўли. – Тошкент: Ҳилол-Нашр, 2016. – 368 б.
12. Кодирый А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 400 б.

Мулоқот жараёнида “Илтимос қилиш” хушмуомалаликни ифодалаш омил сифатида

Резюме: Мазкур мақолада немис, ўзбек ва қорақалпоқ тилларидаги илтимос шакли орқали амалга оширилган хушмуомала муносабатлар таҳлил қилинади. Сухбатдошларнинг ўзаро муносабатлари ҳар хил шаклларда кўрилгани билан сухбат жараёнида улар ўртасидаги ўзаро илиқ муносабатларнинг намоён бўлишини кузатишимиз мумкин.

Калит сўзлар: илтимос қилиш, хушмуомала, талаб, сухбатдош, коммуникатив зиддият.

Резюме: В статье анализируются вежливые отношения, реализуемые через форму запроса на немецком, узбекском и каракалпакском языках. Поскольку взаимные обращения собеседников проявляются в разных формах, мы можем наблюдать проявление взаимных теплых отношений между ними во время разговора.

Ключевые слова: просьба, вежливость, требование, собеседник, коммуникативный конфликт.

Summary: This article analyzes polite relations implemented through the request form in German, Uzbek and Karakalpak languages. As the mutual references of the interlocutors are seen in different forms, we can observe the manifestation of mutual warm relations between them during the conversation.

Key words: request, politeness, demand, interlocutor, communicative conflict.

